TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ANVAR OLIMJONOV

77

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ANVAR OLIMJONOV

77

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO'K 821.512.122-3
KBK 84(5Qoz)
A 63

Tahrir hay'ati:

Xayriddin Sulton — hay'at raisi,
Ibrohim G'afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo'ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kenesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo'riboyev, G'ofur Eshmurodov, G'ayrat Bozorov,
G'ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova,
Umid Hayitov, Tursinali Ahmedov

To'plovchi va nashrga tayyorlovchilar:

Alimurod Tojiyev, Tursinali Ahmedov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a'zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g'oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo'lib O'zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko'lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro'yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san'atga ko'rsatilayotgan ulkan g'amxo'rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so'z san'atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8734-4-5
©"O'zbekiston" nashriyoti, 2022

SO'ZBOSHI O'RNIDA

Qozoq adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri Anvar Olimjanov 1930-yili Qozog'istonning Toldiqo'rg'on viloyatida tug'ilgan. Qozog'iston davlat universitetining Jurnalistika fakultetini tugallagach, ko'p yillar jurnalistika sohasida qalam tebratgan. Sobiq ittifoq yozuvchilar uyushmasi ta'sis etgan "Literaturnaya gazeta"-da muxbir, "Qozoq adabiyoti" gazetasida, "Qozoqfilm" studiyasida bosh muharrirlik lavozimlarida ishlagan, respublika yozuvchilar uyushmasiga ko'p yillar raislik qilgan, ijodiy-tashkiliy ishlarda faollik ko'rsatgan. Tadqiqotchilar A. Olimjonov mamlakat hududida mavjud bo'lgan tarixiy yodgorliklarni himoya qilish jamiyatida, tinchlikni saqlash qo'mitasida samarali ishlar qilganini ta'kidlashadi.

Yosh Anvar o'zining dastlabki ijtimoiy publitsistik maqolalaridayoq o'sha davrga xos dolzarb muammolarni dadil ko'tarib chiqishga, jumladan, Semipalatinskda yadro quroli sinovlari o'tkazilishining ayanchli oqibatlari haqida oshkora fikr yuritishga, jamoatchilikni bu yovuz ofatdan xabardor etishga, mamlakat rahbariyatidan, el-yurtdan yashirib kelinayotgan haqiqatlarni oshkor qilishga harakat qilgan. Men 1965–1968-yillari harbiy xizmatni Boyqo'ng'ir kosmodromida o'taganim uchun bu ofat nima ekanligini yaxshi bilaman. Sinovlar juda katta, hudud tabiati, suv va havosi hamda jamiki jonzotga jiddiy zarar yetkazishi haqidagi ma'lumotlar matbuotga yaqinlashtirilmagan. Bu to'g'rida yozmoqchi bo'lgan jurnalist va adiblar tazyiqqa uchragan. Men bu ma'lumotlarni "Komsomolskaya pravda" gazetasi muxbiri Yaroslav Golovanovdan eshitganman. Anvar Olimjonov 1990-yili yadro quroliga qarshi "Nevada-Semey" jamoatchilik harakatining "Atom changi ostida qolib ketmaylik" shiori ostida o'tgan yillik anjumanida so'zlagan nutqida shunday degan edi: "Bugungi mavzu shundayki, u haqda biz bir necha o'n yilliklar mobaynida og'iz ochishga ham jur'at etmasdik. Bizni uzoq vaqt aldab, laqillatib kelishdi va shunday paytlar ham bo'ldiki, biz o'zimizni o'zimiz alday bosh-

ladik. Yolg'on ma'lumotlarni bir-birimizga aytar ekanmiz, ularga ishondik ham. Ammo bundan buyongi yolg'on o'lim bilan barobar, deb ayta olaman. Muammo g'oyat chuqurlashib ketdi, biz o'zimizga ham, o'z yerimizga ham zarar yetkazdik. Gap faqat Semipalatinsk poligonida emas, butun qozoq yeri halokat yoqasida turibdi. Qozog'iston yadro sinovlari makoniga aylab qoldi, xalqimiz ham og'ir sinovlarga duchor qilindi".

Taniqli qozoq adibi Muxtor Auezovning o'g'li Murod Auezovning yozishicha, o'tgan asrning oltmishinchi yillari boshlarida qozoq adabiyotida rus tilida ijod qiladigan ikki zabardast yozuvchi paydo bo'ladi, ulardan biri O'ljas Suleymonov, ikkinchisi Anvar Olimjonov edi. Ularning dastlabki kitoblari Qozog'istondan tashqari, Moskvada ham nashr etiladi, bir necha xorijiy tillarga o'giriladi. Bu ikki adibning yozish, fikrlash uslubi, ma'lum adabiy qoliplarga sig'maydigan, rasmiy mafkura talablariga to'la mos tushmaydigan xulosa va raddiyalari kitobxonlarda jiddiy qiziqish uyg'otadi. Mahalliy yozuvchilar orasida shunday hazil-chin fikr tez-tez tilga olinadi: "Bu ikki yozuvchining biri o'zini go'yo butun dunyo undan qarzdorday, ikkinchisi esa o'zi butun dunyodan qarzdorday tutishmoqda".

Bu gap oltmishinchi yillar boshida qirg'iz adabiyotiga Chingiz Aytmatovning kirib kelishini eslatadi. Tanqidchi Q. Bobulov aytganiday, "Aytmatov o'zidan oldingi kasbdosh og'alarning yumshoq beshigida ulg'aygan bo'lsa-da, ijodkor sifatida bundan buyon bu beshikda bamaylixotir yotaverish mumkin emasligini payqagan edi". Adabiyotshunos K. Asanaliyev adib ijodidagi bir xususiyatni shunday izohlaydi: "Chingiz Aytmatov o'z so'ziga, ijodiga yolg'on aralashtirmagan, qahramonlariga hech qachon yolg'on bir so'z ham demagan, haqiqat qanchalik og'ir bo'lmasin, uni butunicha, tag-tugigacha ayta olgan yozuvchilar sirasiga kiradi. Shu jihatdan olib qaraganda, u ayovsiz rostgo'y yozuvchi. Qahramonlariga nisbatan ayovsizligi yozuvchiga xos oq niyatdan, turmushda uchrab turadigan ziddiyatlarni suvab-siypalamay, tarab-butamay asl holicha aytish maqsadidan kelib chiqadi".[1]

[1] *Chingiz Aytmatov.* Tanlangan asarlar (Qirg'iz tilida). 1-jildga yozilgan so'zboshi. – Frunze.: 1982.

Umuman olganda, o'tgan asrning oltmishinchi yillari avvalida milliy adabiyotlarga yangicha qarashli, katta avlodga nisbatan o'zgacharoq, kutilmaganroq fikrlaydigan, o'ziga va jamiyat rasmiylariga favquloddla o'tkir savollar beradigan va bu savollarning javoblarini qidiradigan ijodkorlar gurullab kirib kelishdi. Ularning asarlarida o'tmish va uzoq-yaqin voqealariga nisbatan g'ayrioddiy sinchkovlik, kuzatuvchanlik, jiddiy tahlil, kutilmagan xulosalar ko'rina boshladi. O'zbek adabiyotida bu holat biroz kechikdi, ammo ko'p o'tmay, dastlab she'riyatda (Erkin Vohidov, Abdulla Oripov), so'ng nasrda (Shukur Xolmirzayev, O'tkir Hoshimov, Xudoyberdi To'xtaboyev, Uchqun Nazarov) ko'rina boshladi.

Milliy adabiyotlardagi "jimlik"ni buzgan "shakkok"lardan biri qozoq adibi Anvar Olimjonov edi. Uning dastlabki asari "Do'stlar uchrashganda" 1959-yili chop etildi. Bir yildan keyin "Mangu ildizlar", so'ng "Suv va quruqlikda ellik ming mil", "Quyoshga oshiqqan karvon", "Moviy tog'lar" povestlari, "O'tror tangasi", "Mahambetning nayzasi" romanlari o'quvchilar qo'liga borib yetdi. Ziyrak o'quvchi bu ikki romanning mavzusiga e'tibor bergani aniq. Ulug' ustoz Muxtor Auezov Chingiz Aytmatovning dunyo sari yo'liga oq fotiha tilaganday, Anvar Olimjonovning ham iste'dodini sezib, uni har jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Bundan ilhomlangan yosh adib qozoq adabiyoti asoschilaridan biri Saken Sayfullin kabi o'zi ham adabiyotda yangicha fikrlar jangiga otlanadi.

Muallif "Mahambetning nayzasi" romanida millat o'tmishiga, qonli, ammo shonli voqealarga e'tibor qaratadi va o'quvchini bu voqealarni biroz yangicha, an'anaviy (mafkuraviy) talqinlardan farq qiladigan darajada idrok etishga da'vat etadi. Shunga erishish niyatida qo'liga qalam oladi. Bunda unga oddiy xalq orasidan yetishib chiqqan Stepan Razin, Pugachev, Mamanbiy kabi afsonaviy yo'lboshchilar, dovyurak qo'zg'olonchilar ruh bergan bo'lsa ajab emas. Bu qahramonlar ezilgan, xo'rlangan, haqsizlikka duchor qilingan o'z qavmlarini hurlik, ozodlik uchun zolimlarga qarshi tengsiz kurashga boshlaganlar va shu yo'lda jon fido qilganlar. Anvar Olimjonov bu kurashni millat tarixida "inqilobiy harakat" deb baholaydi, uning samarasizligini e'tirof etgani holda, mag'lublarni

qahramon darajasiga ko'taradi. Asar 1975-yili ustoz Abdulaziz Vahobov tarjimasida o'zbek tilida bosilib chiqqan.

Romanning bosh qahramoni olovqalb oqin, xalqning jo'shqin ovozi Mahambet O'temisov. Asarda uning 1836–1838-yillari Isatoy Taymanov bilan birgalikda mazlum xalqning mustabid hokimiyatga qarshi qo'zg'oloniga boshchilik qilgani tasvirlanadi. O'quvchi ko'z o'ngida XIX asrning birinchi yarmida yashagan qozoq xalqining ayanchli hayoti namoyon bo'ladi. Mahambetning dunyoqarashi voqeadan voqeaga, zulmdan zulmga, taqdirdan taqdirga o'zgarib boradi, u ozodlikka osonlikcha erishib bo'lmasligini tushunib yetadi va qo'liga qurol olib, qo'zg'olonchilar safiga qo'shiladi.

Asarning butun sujetini hikoya qilmoqchi emasman. Aytishim zarur bo'lgan muhim bir fikr shuki, xalq qo'zg'olonlari dunyo dunyo bo'lganidan beri davom etadi va bugun ham to'xtagan emas. Zulm va haqsizlikka qarshi bosh ko'targanlar bu yo'lda qurbon bo'lishlarini bilishgan, ammo maqsadlaridan qaytishmagan. Ko'p hollarda ularni yov o'qi emas, o'z yaqinlarining xoinligi, sotqinlar, urug'lar o'rtasidagi ixtilof, birlashmaslik, uzoqni ko'ra olmaslik mahv etgan.

Bosqinchilar Mahambetni qamoqqa oladilar, uni otib tashlash haqida hukm tayyorlanadi, ammo u mahbusxonadan qochishga muvaffaq bo'ladi. Tug'ilgan joyidan uzoqda to'rt yil darbadar kezadi. Shundan keyin mustabid hokimiyat zobitlari mahalliy sotqinlar yordamida uni tuzoqqa ilintiradilar. Xiva bosqinidan bizga yaxshi ma'lumki, general Perovskiy ovullarda yana qo'zg'olon ko'tarilishining oldini olish maqsadida o'z odami — bosqinchilarga jon-jahdi bilan xizmat qiladigan sotqin xorunjiy Ixlos To'leyevni dashtga jo'natadi. Ularga Mahambetni yo'qotish buyrug'i beriladi. Xalq orasida "Sulton ovulidan Ixlos bilan birga bersh urug'i biyi Jonbergan Bo'zdaqov, tobiqtilik To'rajon Turumov, Musa Nuralin, Yusuf O'tovlin ismli yigitlar, hammasi yigirma besh kishi, Mahambet bilan muzokara olib borish uchun yo'lga tushishibdi", degan yolg'on gap tarqatiladi. Mahambet ehtiyotkorlik qilib, ularni ovuldan chetroqdagi o'tovida yolg'iz o'zi qabul qiladi. Bosqinchilar tarafida bo'lgan Jonbergan biy Mahambetga qarab: "Biz senga dushman emasmiz, do'stlik niyatida keldik", deydi. Ammo shu yerda Yusuf

O'tovlin otashin oqinning ko'kragiga xanjar sanchadi. Mahambetning sodiq yigitlaridan biri Maqbol yaralangan holda sotqinlarga qarab pichirlaydi: "Uni (Mahambetni) sizlar — o'zimiznikilar o'ldirdinglar. Doim shunday bo'ladi: o'zimiz o'zimizni o'ldiramiz. Sizlar yakdil xalq bo'la olmaysizlar..."

"O'tror tangasi" ham tarixiy roman, bugungi ko'z bilan qaraganda, badiiy-tarixiy esseni eslatadi. Unda kuchli ijtimoiy kuzatuv, qiyosiy tahlil mavjud. Hindiston — boylar haddan tashqari boy, kambag'allar chidab bo'lmas darajada qashshoq. Qadimiy urf-odatlar. Ijtimoiy tengsizlik. Adolatsizlik. Asar voqealari Hindistondan xayolan Qozog'istonga ko'chadi. Hind yeridagi mahobatli tarixiy obidalar va O'rta Osiyo, jumladan, O'trordagi nurab borayotgan qarovsiz obidalar. Ikki hayot, ikki qismat...

Aytish kerakki, har ikki romanda ham yaqin o'tmishimizda badiiy adabiyotga qo'yilgan mafkuraviy talablar ko'zga tashlanadi. O'sha oltmishinchi yillarda chor armiyasining yovuzliklari haqida yozish tugul, ularni xayoldan o'tkazish ham imkonsiz bo'lgan. Shu bois, ko'p asarlarda, jumladan, o'zbek, qirg'iz adabiyotida ham ma'lum biryoqlamaliklarga yo'l qo'yilgani sir emas. Bu to'g'rida Chingiz Aytmatov shunday fikr bildirgan edi: "Bizning avlod sovet zamonida tug'ilib, shu zamonning mafkurasi ta'sirida voyaga yetdi. Shu zamonning maktablarida o'qidik, kitoblaridan ta'lim oldik. Bugun bizni tanqid qilayotgan, o'sha yillari yozgan ayrim so'zlarimizni bugun shartakilik bilan yuzimizga solayotgan ayrim sinchilar o'ttizinchi, elliginchi yillarning dahshatli suronlari ortda qolganidan keyin tug'ilishgan. Bu — ularning baxti. Siyosat odamning qon-qoniga singib ketgan edi. Partiyaning har bir so'zi butun el uchun, jamiyat uchun o'zgarmas qoida bo'lgan. Boshqacha yashash mumkinligini juda oz kishi o'ylagan. Bitta men emas, el-yurtning ko'z o'ngida bo'lganlarning hammasi shunday qilishgan. Buni inkor etib bo'lmaydi. Bugun men o'zimga nisbatan aytilayotgan kinoyalarga javoban: "To'g'ri, qalp (yolg'on) so'ylab qo'ygan joylarim bor ekan, buning uchun kechirib qo'yasizlar, og'aynilar", desam, kulgili ahvolga tushib qolishim mumkin. Bu bilan obro'yim oshib qolmaydi, biror nima o'zgarmaydi ham. Sovet davri men bilan tengdosh avlod yozuvchilar hayotining


bir qismi, uni istasang ham, istamasang ham umring sahifasidan o'chirib tashlay olmaysan".

Shunday ekan, oltmishinchi-yetmishinchi yillar adabiyotidagi kamchilik va nuqsonlarga milliy adabiyotlar rivojlanish yo'lida qanday og'ir sinovlarga duchor bo'lganini eslatuvchi yo'l belgilari deb qarasak xato bo'lmaydi. Bu to'g'rida davlatimizning birinchi rahbari shunday degan edi: "Aksariyat yozuvchilarimiz sovet davrining tarbiyasini olgan, uzoq yillar hukmron mafkura ruhida ijod qilgan. Lekin yana bir haqiqat ham borki, ularning ko'pchiligi kommunistik tuzum g'oyalarini so'zda ma'qullasa ham, aslida ich-ichidan ularni qabul qilmagan. Negaki, kommunistik tuzum insonning, binobarin, millat va xalqning erkin va ozod yashashiga, milliy tafakkur, diniy qadriyatlarga qarshi bo'lganini ijod ahli hammadan ko'ra chuqurroq anglagan. Tabiiyki, davr taqozosiga ko'ra, yozuvchilar yashash uchun, o'z iste'dodini ro'yobga chiqarish uchun kommunistik tuzum bilan murosa qilishga majbur bo'lgan. Shu ma'noda, mustabid tuzum davrida vijdon azobini kim ko'proq tortgan, desa, men, doimo bu hayotning ma'no-mazmuni, insonning qadr-qimmati, el-yurt taqdiri haqida qayg'urib yashaydigan odamlar va ularning oldingi qatorida bo'lgan ijod ahli, deb aytgan bo'lardim".

Ahmadjon Meliboyev,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist

MAHAMBET NAYZASI

Roman



BIRINCHI QISM

— Elingizga qaytasizmi? — so'radi qiz.
— Ha, — dedi u.
— Meniyam olib ketasizmi?
— Yo'q.
— Shu yerga tashlab ketasizmi?
— Yo'q.
— Yo podshohga qaytarib berasizmi?
— Yo'q, yo'q dedim-ku, yo'q!!!
— Afv eting meni, mirzam, — dedi qiz. — Tortinmay, shartta so'zlashga o'zingiz o'rgatgansiz. Sen cho'ri emassan, degan ham o'zingiz. Menga hamma eshiklarni ochib qo'ydingiz, shu paytgacha biron qattiq-qurum so'z eshitganim yo'q. Ayol kishining qadri-qimmati uning husnida emas, bizning ovullarda qizlar ochiq yurishadi, aytishuvda erkaklardan qolishmaydi, deguvchi ham o'zingiz edingiz. Sizdan ayrilishni istamayman... Itoatkor ayol er yigitga yuk bo'lmas, deydilar. Istasangiz, ayolingizning cho'risi bo'lay...

U qiz qarshisida turar, darchadan tushayotgan zarrin nurdan dubulg'asi yarqirardi. Boshidagi jig'ali dubulg'ani ham, egnidagi sovutni ham shu qiz o'z qo'llari bilan tozalab yarqillatib bergan. Lekin xanjari bilan shamshirini hech qachon unga ishonib topshirmagan.

Yigitning safar taraddudida ekanligini qiz payqab yuribdi.

Endi uni tashlab ketishi aniq. Lekin qachon? Bugunmi, ertami yoki biror haftadan keyinmi, bu to'g'rida hozircha churq etib og'iz ochganicha yo'q. Ayriliq fursati yaqinlab qolganini sezib turardi qiz.

— Unda Allohning panohiga tashlab ketmoqchimisiz?

— Yo'q!.. — yigit gurziday qo'lini qizning yelkasiga qo'ydi. Qiz ko'z yoshlarini yashirib, o'zini yigit og'ushiga tashladi, yon-og'ini muzdek sovutga bosdi. U qizning sochlarini silab turib:

— Ostona hatlab chiqmasingdanoq bandi etib, yana sotishlari, qo'ldan qo'lga o'tkazib, huzur halovat yo'lida qurbon qilishlari aniq... Bu shaharda yolg'iz yashamoq sengagina emas, balki pahlavon yigitga ham xatarli, — dedi u.

— Bildim, — dedi qiz shosha-pisha, — angladim, mirzam! Shu damgacha anglamaganimni qarang-a... Siz meni o'ldirasiz. Axir, meni sevasiz-ku!.. Iqbolim baland ekan, mirzam. Ming qatla roziman bunga, sizning muhabbatingizga sazovor etgan Tangriga shukur. Sof va sodiq qolsin, mahshar kuni jannati hur-u g'ilmonlar davrasida uchrashaylik, deb meni o'ldirib ketasiz... Sizning qo'lingizda jon bersam armon qilmayman. Jon deb o'laman. Hindiston rajpurlari va bizning yurt erkaklari yov bosganda dahshatli jangga kirishdan oldin xotinlari dushman qo'liga tutqun bo'lmasin uchun ularni o'z qo'llari bilan o'ldirishadi... Bu qutlug' o'lim! Oshiqlarning joni va ruhlarini u dunyoda Parvardigorning o'zi qovushtiradi yana... — deya yolvorardi qiz ko'tarilib kelayotgan quyoshga tikilarkan. U qizning so'zini shartta bo'ldi. U temirday barmoqlari bilan qizning yelkasidan qisa boshladi, qiz og'riqdan chayqalib, boshini orqaga tashladi, tizzalari titradi, holdan ketib, yigit qo'lida osilib qoldi. Yigit g'azabiga chidayolmay, qaltirardi:

— Ey xotin, nimalar deb aljirayapsan?!

— Achchig'lanma, mirzam, men baxtiyorman... Faqat otamga xabar bersang bas, — dedi u og'riqqa chidab, nazokat va xotirjamlik bilan o'limni kutarkan, so'nggi bor erkalashni qo'msab.

U churq etmas, g'oyat hayajonda, o'zini yo'qotayozgandi. Qalbida g'azab va shafqat kurashardi. U lol qolgandi, aytarli so'z topa olmay, qizni burchakdagi to'shak uzra uloqtirdi.

— Qismatingni otangga o'z og'zing bilan so'zlab berasan. E la'nati dunyo! — U eshikni tepib ochdi-yu, tashqariga otildi...

— Ot keltiring! Tuke, oqyolni olib kel! No'yonga ayt, ikki yigitni yo'lga chiqarib, karvonlarni kuzatib tursin. Qizilboshlar ko'rinishi bilanoq menga xabar qilishsin. — Oyog'i uzangiga ilinar-ilinmas, u otga lip etib minib oldi. Unga to'riq ayg'ir mingan Jantas hamroh bo'ldi.

— Bizni bugun kutmanglar!

Ular darvozadan chiqiboq otlarini yeldirib ketdilar...

Xo'jasining so'zlariga tushuna olmagan qiz, to'shakning yuqori tarafida, yostiq o'rniga qo'yilgan egarga jimgina yuzini bosdi.

U Xivada yashayotganidai beri hech qachon bunchalik qo'rqmagan edi. Basharti qiz avvallari, Tangrining marhamatiga tayanib, duch kelgan kishiga itoat etib, uning ketidan boravergan bo'lsa, endi vujudiga singib ketgan cho'rilarcha itoatkorlik, tobelik hamda e'tiborsizlikka barham bergan, qalbiga muhabbat urug'ini sochgan sevikli kishisidan ayrilishini, hatto his ham qila olmasdi.

...Ular Afg'onistondan Xivaga kelishganida o'n besh nafar edilar.

Rabotdan ularni gulzor bog'ga olib keldilar. Ota-onalaridan zo'rlab tortib olgan savdogar-karvonboshining shaxsan kuzatuvida zilol suvli hovuzda cho'mildilar.

Suvdan chiqqanlaridan keyin savdogar qizlarni sarv va anor butalari soyasiga turg'azib qo'yib, obdan ko'zdan kechirdi. Savdogar Hirot qizi qoshidan jilolmay, uzoq turib qoldi, so'ngra qizning iyagidan ushlab, erkalatdi va ter bosgan qo'llari bilan ko'kragini siypadi-da:

— Sen jannati pari-paykar ekansan... — dedi.

Haram xodimi qizlarga yangi libos ulashdi, hovuz atrofida sochilib yotgan eski kiyimlarni yig'ib oldi. Savdogarning qizlardan ko'ngli to'lgandi.

— Alloga shukur, hammang suluv, sarvqomatsanlar. Baxtlarnngni bersin. Xivaning erlari go'zal sanamlarning qadriga yetishadi. U yana hirotlik qizga mo'ltaydi: — Isming nima edi?

— Nurbol, — shivirladi qiz, savdogarning yuziga tik boqolmay.— Inshoolloh, xonga qiladigan tortiqlarimning sarasi sensan... Hukmdorning iltifot-u marhamati cheksiz, bunga sazovor bo'lishga tirish. U seni Hirot kabutari, Sheroz guli, qirlardagi sho'x ohuday erkalasin, suysin. Senga Allohning o'zi madadkor bo'lsin, ey bandayi ojiza! Uni shohi liboslarga burka!

Boshqa qizlar unga rashk qilganday jimgina, ma'yus qarab turishardi.

— Xon yuragini yumshat, ko'nglini iydir, rom et, shundagina u bizga shafqat qo'lini cho'zadi, — deb uqtirardi savdogar qizni xon qabuliga hozirlashayotgan paytda.

Uni saroyga olib kelayotganlarida zangori to‘r ustidan yana qora niqob tashladilar. Xon huzuriga kirish oldidan qora niqobni olib tashladilar.

Saroy dabdabali, sukunat hukmron edi u yerda. Qiz atrofga, taxtga, hukmdorga bir daqiqa bo‘lsa-da nigoh tashlashni istardi, ammo qiz niqobni olib, boshini ko‘tarishga jur’at eta olmadi.

Savdogar oldin xonga dur-u javohir va kimxob, ipakli matolar, qand-qurs, afg‘on ustalari yasagan gavhar va qimmatbaho toshlar bilan bejalgan xanjar hamda zarbof to‘n hadya etdi. So‘ngra Nurbolni ro‘baro‘ qildi.

Saroy harir to‘r ostidan qiz nazdida qorong‘iroq va salqinroq tuyuldi. Savdogar so‘zida davom etarkan, qizni astagina turtib qo‘ydi. Uning so‘zlari qizning qulog‘iga kirmayotgan bo‘lsa-da, taxt oldida turganini his etib, tiz cho‘kib, ta’zim qildi.

Ey podshohi a’zam, Arab va Eron ellarida dovruq solgan, Jamshid yanglig‘ g‘ulomlar, Rustamdayin sipohiylar hukmdori, Allohning yerdagi soyasi-yu qudratli noibi, Jayxun, Urganch va butun Xorazmning amiri buzrukvori! Afg‘on elining orombaxsh bog‘larida bitgan ushbu g‘unchani qabul etsinlar. Toki u olampanohning bo‘stonlarida gullab-yashnasin...

Qiz savdogarning dag‘al barmoqlari kiftiga tegganini his etdi. Ustidagi harir to‘r go‘yo uchib ketganday bo‘ldi. Qiz qimtinib, g‘ujanak bo‘lib oldi.

— U ohu bolasiday bag‘oyat go‘zal ekan...

— Behishtda bitgan xushro‘y chechak...

Saroyga to‘plangan Xiva a’yonlari, boyonlari-yu savdogarlarining o‘ng va so‘ldan yeb qo‘yguday bo‘lib tikilib qarashlarini sezib turardi Nurbol. Bu suqlanib qarashlardan qiz o‘zini behuzur his etar, xo‘rlikdan ich-etini yeb, yerga kirib borardi.

Saroyga kirib kelganida uni avvaliga vahm bosgandi. Lekin bora-bora qo‘rquv yo‘qolib, Xiva beklari va sardorlarining so‘zlarini anglay boshladi, hammalari hayrat-la o‘zining husnini ta’riflayotganini fahmlab, miyig‘ida jilmayib qo‘ydi. Tangri o‘zi shohid: erkak kishining maqtov-u madhiyasini yoqtirmaydigan ayol zoti yo‘q olamda. Nurbol o‘zini tutib oldi, boshini sal ko‘tarib, hukmdor tarafga ko‘z qirini tashladi. Lekin uni ko‘ra olmadi. Qarshisida

oq marmar panjara turardi. Marmarga tok barglari, pishib yetilgan bosh-bosh uzumlar, lola va turfa gullar — g'oyat nafis naqshlar chekilgan edi. Marmar beg'ubor yaproq ustiga qo'ngan oppoq qorday yarqirardi. Panjara orasidan yer-u devorlarga yozib tashlangan yashil, ko'k, cho'g'day yonib turgan qizil Xuroson gilamlari ko'zga tashlanardi...

Qiz nigohini yana sal ko'targan edi, zarrin tusda tovlanib turgan parda qatlariga ko'zi tushdi. U panjaraning orqa tomonida supa borligini, uning ustiga taxt qo'yilganini, taxtning tepasida esa ipag-u alamlarga chirmalgan taxtiravon o'rnatilganini angladi.

Xonni ko'rish uchun qaddini rostlab, tik turishi kerak edi. Lekin u o'zicha bunga jur'at etolmadi. U naqshinkor marmar panjaraga tikilarkan, panjara tirqishidan ro'parada ikki qo'lini tizzasiga qo'yib, vajohat bilan o'tirgan hukmdorga ko'zi tushib qoldi.

— Tur o'rningdan, — buyurdi xon ohista, lekin amirona.

Qiz qaddini rostlab, o'rnidan turdi-da, boshini ko'tardi, shunda zulukday qop-qora sochlari yalang'och yelkasini qopladi. Ko'z o'ngida yuzi salqi, boqishi sovuq, tusi sariq, xunuk bir odam namoyon bo'ldi. Ko'rinishidan uning yoshini aniqlash malol edi. Egnida qimmatbaho javohir, oltin-u durlar qadalgan to'n kiyib o'tirar, qizni boshdan oyoq nazardan o'tkazardi. Shu topda qasr ichra oniy sukunat cho'mdi. Mana, nihoyat qizning husni, qaddi-bastini ko'rib hukmdor betiga tabassum qalqdi, shunda atrofdagilarga yana jon bitganday bo'ldi:

— U husn bobida yagona ekan, hukmdorim...

— Sarvqomat, nozikbadan...

— Laylivash, Shirinmisol...

— Shoirlar qayda?!! O'ziga monand g'azal to'qing. Bu g'unchani ta'rif-u tavsif aylang. U hukmdor bog'ida fusunkor bezak bo'lur, — dedi kumush bezakli barqut qalpoq kiygan kishi, u qo'lida fil suyagidan yasalgan tasbeh ushlab, taxtning o'ng tomonida o'tirardi.

Xon hamon afg'on qizning bo'rtibgina turgan ko'kragidan ko'z uzolmasdi. Qiz ham endi tap tortmay tikilardi unga. Qiz bechora taqdiri endi ana shu nigohi sovuq, sariq kishi qo'lida ekanini bilardi...

Taxt yonida qora soqol, mag‘rur qiyofali bir kimsa turibdi. Boqishlari vazmin va o‘ychan. Na bir so‘z qulog‘idan, na bir harakat ko‘zidan qochib qutuladi. U qasrdagilarni pinhona kuzatarkan, simobi sallali qariyaga o‘g‘rincha ko‘z tashlab qo‘yadi.

“Vazir bo‘lsa kerak”, — o‘yladi Nurbol.

— Bershlarning oqini keldi, olampanoh, qabulingizni kutmoqda. Bo‘key o‘rdasida u Mahmud Pahlavonning Xorazmda chiqargan dovrug‘iga teng obro‘ga ega... Bu suluv unga munosib sovg‘a bo‘lur edi, — deb shivirladi vazir sal engashib, ko‘zi bilan afg‘on qiziga ishora qilib. — Sizning shoirga ko‘rsatgan iltifotingiz to‘g‘risidagi xabar Yoyiq[1] ortidagi dashtlarga yelday tez taraladi. Xudo xohlasa, buning evaziga siz uyur-uyur yilqilik bo‘lg‘aysiz. Ko‘ppak Jangirga qarshi g‘alayon ko‘targan shoir Mahambetni tizginning bir uchiga, Qayipg‘ali sultonni ikkinchi uchiga bog‘lab Yoyiq va Edil[2] oralig‘idagi dashtlarni osongina tobe eta olgaysiz. Ichki o‘rdaning barcha qozoq jangchilari sizning izmingizda bo‘lg‘usidir. Edildan to Hirotgacha barcha yo‘llar tasarrufingizda bo‘lgay... Xivani kofirlar xurujidin qozoqlar qo‘riqlab turgay.

Uning so‘zlarini xondan bo‘lak hech kim eshitmadi. Shu yerda hozir-u nozir bo‘lganlarning bari afg‘on qizning husni malohatini ta’riflash bilan ovora edi.

— Hoy, tortiqlarini qabul qilib olinglar! Afg‘on savdogarga farmon bitib beringlar. Toki keltirgan mol-dunyosi Xiva bozorini bezatgay. Mehmonning tilagini ado etib, qo‘riqchilar beringlar. Xorazm tuprog‘ini bexatar bosib o‘tib, Moskov o‘lkasidan asl mo‘ynalar bilan qaytsin. Omin! — deya fotiha berdi xon.

— Ey qudrati beqiyos shahanshoh, muqaddas Xiva va Xorazm hukmdori! Muruvvat-u marhamatingiz had-hududsizdir, — deya yer o‘pib ta’zim qildi savdogar. — Toki ro‘zi qiyomatgacha xizmatkor-u qulingiz bo‘lib qolay.

Xon miyig‘ida jilmayib, bosh irg‘adi va qo‘lini ko‘tardi. Savdogar ta’zim bajo keltirgan ko‘yi tisarilib borib, qasrni tark etdi.

— Bersh urug‘ining oqinini kiritinglar! — buyurdi xon.

Sukut saqlab turgan yasovullar yo‘l bo‘shatdi, eshik ochildi.

---

[1] Urol daryosi.

[2] Volga daryosi.

Bir qo'li bilan qilichini ushlagan yosh sarboz qasr devori yoqalab tizilib o'tirgan Xiva arkoni davlati, imomlar, sardor va savdogarlarga ko'z qirini tashlagancha shaxdam yurib borib, taxt ro'parasida to'xtadi. U qizga qiyo ham boqmay, uning yonida tikka turaverdi. Saroy ahli tahlikada shivir-shivirga tushib qoldi. Hukmdorning yuzidan qon qochdi.

Nurbol shoirga ko'z qiri bilan nazar tashladi. Kalta qora mo'ylovli, qora to'ridan kelgan issiqqina yigit, boshida dubulg'a, bir biqinida guldor qinli xanjar, ikkinchisida shamshir.

— Jayxunning hukmdori, Xorazm elidagi barcha kentlarning amiri, Xiva hukmdori, Muhammad alayhissalomning avlodi, qudratli shahanshoh senga — so'z javharini terib, alarga qudrat-u kuch baxsh etguvchi shoirga o'z gulshanidan bir g'unchani tuhfa etadirlar... G'ayridinlarga yon bosgan, imonsiz Jangirning zulmi ostida azob chekayotgan Bersh bilan Aday hamda barcha qozoq elatlarining sevikli farzandi va suyukli oqini, afg'on tog'larining sanami mana bu qiz seniki bo'lgay. Ushbu damdan e'tiboran, hukmdorlar hukmdori seni o'z qanoti ostiga olgay — sen endi uning kuch va qudratini kuylaysan... Donolar donosi, xonlar xoqonining hukmi qarori shunday. Omin! — dedi vazir dona-dona qilib.

— Tashakkur sizga, Olloqulixon. Afv etgaysiz, mening sha'nimga yarashmaydi bu. O'zganing homiyligi yigit uchun Jayxunda erkin suzib yurgan baliqqa tashlangan to'rday bir gap. Ozodlik va erkinlikka ne yetsin? Ko'rsatgan iltifotingiz uchun qulluq, lekin men hazratimni madh etguvchi shoir bo'la olmayman. Zero, huzuringizga gul istab ham kelgan emasman!

— Sen do'stlaring bilan Xiva bozorlarini kezib, qurol-yarog' ortib olayotgan emishsan. Buning evaziga menga Jangirning boshini keltirib berasan! — dedi xon dag'-dag'a bilan.

— Men huzuringizga elim nomidan elchi bo'lib emas, oddiy jangchi bo'lib keldim. O'z xonlari ustidan xalq kimga hukm chiqara oladi...

— Lekin u bizdan qarzdor. Qozoqlar sultoni Arg'ing'ozi bizning mulkimizga qo'l cho'zishga jur'at etibdi. Yoki bu sening yodingdan chiqdimi?! — deb ovozini ko'tardi Olloquli.

— Sulton xalq emas. Qo'qon bilan Xiva qushbegilari qozoq ovullarini talamoqdalar, qozoq sultonlari ham Xiva qishloqlariga chang solmoqdalar. Lekin bularni deb xalqlarimizni ayblab bo'ladimi?! Ha, to'g'ri, Arg'ing'ozi hazratlarining navkari edi, uyur-uyur yilqilaringizni haydab ketdi. Tuzingizni ichib, tuzlug'ingizga tupurdi. Oliy hazratlari esa uning alamini Sayxun bo'ylaridagi qashshoq qozoq ovullaridan olmoqdalar, yuzlab qozoq qizlarini bandi qilib, cho'rilikka sotmoqdalar... O'shalarning evazigami bu tuhfa?.. — deya Nurbolni ko'rsatdi oqin.

Xon g'azabdan o'rnidan turib ketdi. Xiva sarkardalari shamshirlariga qo'l uzatdilar. Oq qalpoqli kishi o'rnidan sapchib turdi-da:

— Tilingni tiy, Mahambet! Haddingdan oshib ketding! Tiling muncha zahar, uzr so'ra! Kimning qarshisida turibsan?! Tiz cho'k! — deya baqirib berdi.

— Hovriqma, Qaybola[1], sen bilan gaplashayotganim yo'q, — dedi og'ir bosiqlik bilan. — Qozoqlarning bir maqoli bor, unutgan bo'lsang yodingga solay. Mana, tingla: "Yolg'izning..." — lekin xon davom ettirishiga yo'l qo'ymadi. Yasovulboshiga uni qasrdan chiqarib tashlashni ishora qildi. Yasovullar shu ondayoq Mahambetga tashlanib, qo'lini qayirishdi, lekin u bir siltanib qo'lini bo'shatib oldi-da, qasrdan chiqib ketdi.

Olloqulixon esa tishlarini g'ijirlatganicha uning ketidan qarab qoldi.

— Muhtaram sulton, bu yog'i o'zlariga havola. Shoir bilan gapimiz behad cho'zilib ketdi, — dedi vazir, mehmondorga bir nazar tashlab olar ekan. Mehmondor esa qum soatni ag'darib qo'ydi, shisha naychadagi qum misoli zarrin ipday pastga oqa boshladi — Elchilar muntazir bo'lib qoldilar.

Xon yuziga niqob tortganday, yana avvalgi qiyofasiga qaytdi. Xon bilan oqin mojarosiga sababchi bo'lgan yosh afg'on qizining taqdiri endi nima bo'lajagini aytish qiyin edi. U boshini quyi solgancha, uyat, qo'rqinch va salqindan a'zoyi badani titrab, toqatsizlik bilan nimanidir kutardi.

[1] Qozoq sultoni Qayipg'ali Yesim o'g'lining laqabi.

— Sulton Qayipg'ali, so'zla, — dedi vazir.

Qayipg'ali o'zini bosib, ilgarigiday takabburona tusga kirib, so'z boshladi:

— Avomning pastkashligi yangilik emas. Mahambet ham o'sha avomdan chiqqan oqin, hukmdorim. Sahroyi odam qudratli tog'ning qadriga yetarmidi? Darbadar jahongashtaga devorli keng hovli tor ko'rinadi, avom Bog'i Eramning farog'atini bilmaydi. Ovchi uchun kalxat hech qachon qarchig'ay bo'lolmaydi. Illo, Mahambetning Xivada o'lishi xavfli. Qozoq elidagi qora xalq orasida uning nomi Kova[1] nomiday mashhur. Uning bog'da yashaganidan sahro kezib yurgani oliy hazratim uchun foydaliroq, Jangirday dushmaningiz toki hayot ekan, u menga ham kerak. Davlatpanohimning marhamatlari cheksiz, saxovatlari behudud. Ey ulug' hukmdorim, odil hukm etmog'ingizga imonim komil...

Dono vazir yana xon tomon engashib:

— Sahroda yana bir Tentak to'ra[2] paydo bo'lsa, hazratlari aql-u zakovatlari soyasinda uning kuch-qudratini Jangirxonga qarshi solish imkoni tug'ilajak. Keling, bo'rilar bir-birini g'ajiyversinlar — arslonga ko'proq o'lja tegadi, — dedi.

Olloqulixon vazirning so'zlarini qunt bilan tingladi. Xiva sarkardalari esa qozoq oqinining odobsizlarcha xatti-harakatidan ajablanar, bir-birlariga shivirlab o'z fikrlarini izhor etishardi. Olloquli qo'lini ko'tarib, Nurbolni olib chiqib ketishni buyurdi.

— Uni oqinga eltib beringlar. Biz oqin Mahambetning gunohidan o'tdik, — dedi hukmdor baland ovoz bilan, so'ngra Qaybolaga qayrilib qararkan, qo'shib qo'ydi: — Gaping to'g'ri, sulton, — keyin so'zini qayta tuzatib: — Kichik o'rda xoni Qayipg'ali! — dedi.

— Iloho aytganingiz kelsin, ulug' xoqonim.

— Xudo yor bo'lsin... omin! — deb qo'shimcha qildi yuzida tabassum bilan simobi sallali qariya tasbeh o'girgan ko'yi. Bu kimsa Xiva shayxulislomi edi.

---

[1] **Kova** — Firdavsiy "Shohoma"sidagi qahramon.

[2] **Tentak to'ra** — O'rta juzning janubiy o'lkalaridagi qog'oz g'alayonchilariga rahnamolik qilgan shaxs. U 1831-yilda 12 ming sarbozga boshchilik qilib, Qo'qon xoniga qarshi kurashgan.

Qasrdan chiqib ketayotib, Nurbol sipogina kiyingan kishiga duch kelib, qimtinib unga yo'l bo'shatdi. Bu odam o'z zamonasining mashhur shoiri va Xivaning bosh mirobi Munis ekanligini Nurbol bilmas edi.

...Saroy darvozasi ortida Mahambetni do'stlari — navqiron turkman yigiti bilan bo'z qozoq bola kutib turishardi.

— Nega kechikib ketding? — deya surishtira ketishdi yigitlar.

— Umidimiz puchga chiqdi. Otni keltir, Jantas! — dedi Mahambet.

Bo'z bola zudlik bilan oqyol yo'rg'ani yetaklab kelib, unga ko'ndalang qildi.

— Olloquli mana bu tortiqni menga in'om etgali chaqirtirgan ekan, — dedi Mahambet, Nurbol tomonga imo qilib.

— Qurol-yarog' o'rniga xotin in'om etishning xosiyati bo'lmaydi, — dedi qovog'i soliq turkman yigiti. — Kim ekan o'zi bu ayol?

— Afg'on qizi ekan.

— Olloquli kecha seni o'lanlaringni tinglashga chaqirtirgan edi. Bugun esa siylab tuhfa in'om etibdi. Ertaga, balki, zanjirband etar. Zeliliyning[1] qismati shunday bo'lgan. Ogoh bo'l, Mahambet. Afg'on sanami ishonchlimikin? Qizilboshlar xiyla mug'ambir bo'ladilar.

— Kecha men o'z o'lanlarimni xonga emas, shoir Munisga o'qib bergandim. Afg'on qiziga kelsak, u bechorada na gunoh? Uni xonga savdogar tuhfa qilgan.

— Xon esa senga hadya qilibdi-da. Chakki emas. Zeliliy bilan ham xuddi shunday bo'lgandi, — dedi javoban Bolabek.

— Zeliliyning qayerdaligini biloldingmi? — so'radi oqin.

— Tunlari uch qavat soqchi qo'yilarkan, kunduzi asa faqat darvozada qorovul turarkan. Bir hovuch tanga berib, ertaga tush paytida kiradigan bo'ldim. Shu topda esa Zeliliyga ozgina bo'lsa ham sharbat, non, qovun eltib bermoqchiman.

— Kulcha orasiga xat, qovunning ichiga esa egov tiqib qo'yamiz, — deb qo'shimcha qildi Jantas.

— Bir kishini kirgizisharkanmi? — so'radi oqin.

---

[1] **Zoliliy** — turkman shoiri (1800–1853). U uzoq yillar avomida Xiva xonining tutquni bo'lgan.

— Ha, faqat bir kishini, tangani yasovulboshining o'zi olarkan...

— Suyunqoradan biron xabar bormi, Jantas?

— U yoqdan hali hech kim kelganicha yo'q.

— Lekin u yaqin kelib qolibdi degan uzunquloq gap yuribdi. Shunday bo'lgach, yaqin orada u bilan ko'rishib qolarmiz. Xivani tashvishga solib qo'ygan adaylar "Xudosini" ko'raylik-chi, qanday ekan u...

— Keyin aytarsan qolgan gapni, Bolabek, — deb uning so'zini bo'ldi Jantas. — Xon darvozasining ham qulog'i bor-a. Ko'ryapsanmi, yasovullar bizni kuzatib turibdilar. U yerdagilar sening turkmanlaring-ku. Yana ketimizdan ayg'oqchi qo'yib yurmasinlar.

Mahambet otga mindi.

— Qani, qo'lingni ber, singlim!

Tulpor qiz atrofida aylana ketdi. Oqin Nurbolni dast ko'tarib, old tomoniga o'tqazdi.

* * *

...Suv to'ldirilgan meshlarga osib qo'yilgan jajji qo'ng'iroqchalarning jarang-jurungi, meshkoblarning shovqin-suroni, aravalarning g'ashga teguvchi g'ijirlashi, tilanchilarning nolasi, shahar yasovullarining hayqirig'-u po'pisalari, Xivaning tor ko'chalarida boylik va davlat orttirish hirsida yurganlarning ovozi karvon-karvon tuyalarning bo'kirig'iga qo'shilib ketib, quloqni qomatga keltirguday suron kasb etgan. Ro'paradan kelayotgan buxoroliklar karvoni ko'targan changda yo'l ham ko'rinmay qoldi. Mahambet tizginni tortib, bir zum to'xtadi. Karvondagi so'nggi tuyani o'tkazib yuborib, yigitlar bozor ko'chasiga chiqib olishdi.

Ko'chaning ikki betidagi devorlarni yonbag'irlab yoymachi savdogarlar joylashib olishgan. Bozorga yaqinlashib borilgan sari olomon zichlashib borardi.

Mayib-majruqlar-u darveshlar, ziravorfurushlar-u xachir yetaklovchilar, qassoblar-u novvoylar, palovpaz-u sho'rvapazlar, o'zbek, qozoq, qoraqalpoq va turkman qishloq-ovullaridan kelgan indamas darbadarlar, g'ulom-u yasovullari po'sht-po'shtlab borayotgan boylar, olazarak bo'lib yurgan odamlar — ehtimol, o'zlaribop rahnamoni istab yurgan yo'lto'sar qaroqchilardir, ko'cha-

ma-ko'cha izg'uvchi qo'shmachilar, sarrof-u dallollar, duoxon-u tabiblar; qisqasi, muqaddas bulog'i, qirq madrasa-yu qirq masjidi, sonsiz minora hamda sag'ana-yu maqbaralari bo'lgan muqaddas Jayxun bo'yidagi Xiva shahrining ko'chalarida kimlar yo'q deysiz, bular istagan xizmatingizga hozir.

Eron va Hindistondan, afg'on va adaylar elidan, Tibet va mo'-g'ullar yurtidan, Edil bo'yi no'g'aylar yurtidan, Samarqand va Qo'qondan, Katta va Kichikqozoq o'rdalaridan kelayotgan karvonlar shaharning bosh ko'chasiga yetgach, qo'shilib, bamisli daryoday oqib boradi. Kulol va misgarlar bir-birovlari bilan bahslashayotganday yo'l ustida mis va loydan mo'jizalar yaratishadi. Baqirib-chaqirib yurgan bolalar yayovning ham, otliqning ham oyog'i ostida o'ralashib tinchlik bermaydilar. Faqat ayollargina churq etmaydilar, hurkibgina yuradilar. Paranji yopinib olgan ayollar itoatkorlik bilan hammaga: daydilar-u takabbur asilzodalarga, jallodlar-u darveshlargacha yo'l beradilar. Bu ko'cha Xivaning asosiy ko'chasi, shahardagi yigirma mahallaning eng badavlati shu joy.

Nurbol boshidagi harir chodra ostidan yo'l-yo'lakay olomonga, Xivaning chang-to'zonli ko'chalari aksicha chip-chinniday, ajoyib bo'yoqli va hashamatli minora hamda mezanalarini suqlanib tomosha qilib borardi. Tuya o'rkachida kimsasiz sahro-yu dashtlarni kezib, tog'-u toshlardan oshib, qancha-qancha katta-kichik raboto' qishloqlarni oralab qilingan uzoq safardan keyin bu shahar qizga karvon bilan ko'chalaridan o'tgani Hirot singari cheki-chegarasi yo'qday hamda sehrli bo'lib ko'rinardi.

U paranji yopingan xotinlarni sinchkovlik bilan kuzatar — yosh yo qariligini bilmoqqa urinardi. Xo'jasining qo'li har safar badaniga tegganida yengilgina seskanib ketar, qo'rqa-pisa unga ko'z qirini tashlab qo'yardi. Egarga mingashib o'tirishdan g'oyat o'ng'aysizlanardi. Buning ustiga, yangi xojasining yo'l bo'yi so'z qotmay kelishidan cho'chirdi. Xivaga kelayotganida karvon qo'riqchilari va tuyakashlarning hikoyalariga ovunib, yo'lning zerikarli damlari hamda mashaqqatini unchalik sezmagandi. Uni tuyalarning horg'in odim tashlashi allalar, bot-bot mudrab olar, karvonboshilarning so'kishi-yu hazil-huzul gaplariga ko'nikib qolgandi. Uni o'z uyidan uzoqlarga olib chiqqan karvon ona yurtidan so'nggi nishona

edi. Lekin savdogar uni Xiva xoniga, xon bo'lsa, mana bu g'alati kishiga berdi. Tug'ilgan yurti bilan bog'lab turgan so'nggi ip ham uzildi. Endi, u haqiqatan ham yot kishining qo'lida.

Yangi xo'jasi u bilan, so'zlashmasdi, badjahl ko'rinardi. Keyinroqda kelayotgan otliq hamrohlari ham indashmasdi. Qiz ularning kimligini bilmaydi, ular ham qizdan kimligini so'rashmadi. Nurbol xo'jasining shoir va jangchi ekanini Xorazm hukmdorining taxti yonida turganida eshitdi. Qaysi biri durust — xon haramida bo'lishmi yoxud shoir uyida?..

Lekin bu to'g'rida bosh qotirishning hojati bormikin? Baribir emasmi unga? Nachora, u bir ojiza bo'lsa. Mana, shoirning quchog'ida boryapti. Tizginni bo'shroq qo'y deganday dam-badam boshini silkib, quloqlarini chimirib borayotgan oqyol yo'rg'aga odamlar yo'l bo'shatib beryapti. Ot jonivor goh o'yinga tushayotganday joyida gijinglaydi, goh qushday uchmoqchi bo'ladi...

Old tomonda sarbozlar — xon yasovullari ko'rindi. Tutqunlarni qamchilab, savalab haydab kelishmoqda. Tutqunlar yalangoyoq, kiyimlari juldur-juldur, og'zi-burnilari qop-qora qon, badanlari mo'mataloq, kaltak zarbidan yuz-ko'zlari shishib ketgan, qo'llari bog'langan.

Oqin tizginni tortib, otini to'xtatib turdi.

— Qoraqalpoqlarni olib kelishmoqda, Qo'ng'irot elidan chiqqan Oydo'sning[1] sarbozlari bular, — dedi Bolabek Mahambetga yaqin kelib.

— Aytishlaricha, u qattiqqo'l, lekin odil biy ekan. U Jayxun yuqorisidagi qumlarda sargardon bo'lib yurganmish. Uyini tashlab ketganmish. O'z odamlari tinchlik berishmabdi. Qoraqalpoq elatlari orasida ham birlik yo'q... — dedi Jantas xo'rsinib.

— Mana bu qashqirni qara, kishanlog'liq odamga kuchini ko'rsatyapti. Hey, yakkama-yakka olishuvga qalaysan?

— Qani, bir ko'rib qo'yaylik-chi! — deya o'shqirdi Bolabek sarbozning qamchi o'ynatayotganini ko'rib. Sarboz ko'zlari ola-kula bo'lib, nayzaga yopishdi. Bolabek ham shamshirini yalang'ochlab,

[1] **Oydo's** — XIX asrning 40-yillarida Xiva xoniga qarshi qo'shg'alon ko'targan qoraqalpoq rahnamosi.

chovutga chog'langan qoplon yanglig' sarboz ustiga tashlanmoqchi bo'ldi. Lekin Jantas oti tizginidan tutib qoldi.

— So'zing juda to'g'ri. Sen ham o'zingni bu yerda emas, jang maydonida ko'rsat, — dedi Mahambet bandilar o'tib ketganidan keyin Bolabekka.

— Bir hamla bilan yuz tugunni yechmoqchi bo'lding. Bu ish Allohning ham qo'lidan kelmaydi, Bolabek, — dedi Jantas.

— Yuz — bu senga o'nta emas.

Bolabek xijolat tortib jilmaydi. Jantas yodiga solgan o'sha kungi voqea hali xotiridan ko'tarilganicha yo'q edi.

...Olloqulining zakotchilari daryo yoqasidagi o'tovini talontoroj etib ketgan kuni u dalada edi. O'shanda otasini o'ldirib ketgandilar. Bolabek qotillarni quvib ketdi. U yetib olib, qilich-qalqonsiz, yolg'iz so'yil bilan jangga kirdi. Mabodo Mahambet do'stlari bilan kelib qolmaganida, Bolabekning go'shtlari quzg'unlarga yem bo'lardi. Ular Xivaga kelaturib, tengsiz olishuv ustidan chiqib qoldilar. Chidab turolmay, Bolabekka yordamga tashlandilar.

Xon zakotchilari yanchib tashlandi. Mahambet do'stlari bilan katta yo'lni qo'yib, qumlik qo'yniga kirib ketdi. Bolabek ham ular bilan ketdi...

Ular iz chalg'itib, boshqa yo'llar bilan Xivaga kirib keldilar. O'sha-o'sha birgalar...

— O'laksaxo'r quzg'unlar galasini yolg'iz burgut ham dahshatga soladi, — dedi Bolabek, kechikib bo'lsa-da o'z qilmishini oqlashga urinib.

— Oydo'sni qo'ng'irotlardan chiqqan dedingmi, Jantas, o'zing ham qo'ng'irot urug'idan eding, shekilli? — dedi Mahambet ularning tortishuvnni bo'lib.

— Men qozoqlarning qo'ng'irot urug'idanman...

— Eshityapsanmi, Bolabek? O'zi bitta urug'-u, ham qozoqlarga, ham o'zbeklarga, ham qoraqalpoqlarga, ham turkmanlarga bo'linadi... Xiva xoni Olloquli ham qo'ng'irot urug'idan. Jallod ham, qul ham bir urug'dan. Sen bo'lsang, Jantas, qoraqalpoqlarda birlik yo'q deb ta'na qilasan. Xo'sh, bizning qozoqlarda birlik bormi?! — o'ychan dedi Mahambet tizginni tutishga xalaqit berayotgan Nurbolning qo'lini surib qo'yar ekan.

— Bu yoqqa qara, Mahambet, bizning Firog'iy o'z g'azallarida kuylagan muqaddas Sherg'ozi madrasasi mana shu. Otam, Firog'iy shu yerda tahsil ko'rgan, der edilar. Men uning g'azallarini yoddan bilaman,

— Qani, ayt bo'lmasa, — dedi Mahambet.

...Bir oqimga aylanar yovmitlar, go'klanlar,[1]
Bu oqimning poyoni ko'rinmaydi, noma'lum!
Bormoqdadir tog'-toshdan
so'qmoq ochib muzaffar,
O'tgan yo'li beadad, ko'rinmaydi, noma'lum!

Nurbol Mahambetning bu g'azalni ohistagina takrorlayotganini eshitib turardi. Bolabek g'azalni o'qib bo'lganidan keyin, go'yo har bir so'zning mag'zini chaqayotganday, o'yga botib, sukut saqlab turdi-da, keyin:

— Demak, yovmitlar bilan go'klanlar bahamjihat yashagan ekanlar-da. Lekin bu qachon shunday bo'lgan? Qani endi hozir ham shunday bo'lsa. U chog'da Zeliliy zanjirband etilmagan, Olloquli ham taxtda o'tirmagan bo'lardi. Ha, turkmanlarning yarmi Olloquli xizmatida, shundoq ekan, ittifoqlik bo'larmidi. Otamni o'ldirib ketganlar ham menga o'xshagan turkmanlar edi-ku...

— Sekinroq, bu yerdagi har bir eshakning ham qulog'i bor. Ko'ryapsanmi, bozor darvozasi yonida qanchadan qancha ayg'oqchi yuribdi, — dedi uning so'zini bo'lib hamisha sezgir Jantas. Jallodlar tanasidan judo qilib, odamlar ko'rsin uchun nayzalarga sanchib qo'yilgan kallalarga qo'qqisdan ko'zi tushib qolib, nafasi ichiga tushib ketdi.

Bolabek bexosdan otiga qamchi urdi-da, oldinga o'tib, ovozi boricha:

— Martabali sultonga yo'l bo'shatinglar! — deb qichqirdi.

Bozor darvozasi yonida turgan yasovullar shosha-pisha yo'l bo'shatib, Mahambet istiqboliga ta'zim qilib turdilar.

[1] She'rlarni Mirpo'lat Mirziyoyev tarjima qilgan.

* * *

Bozorga kirib kelishi bilan Nurbolning ko'zi o'zini Xivaga olib kelgan afg'on savdogarining och havorang chodiriga tushdi. U mollarini yoyib tashlabdi: quyosh nurida ipak matolari yarqiraydi, oltin va kumush zeb-u ziynatlar yaltiraydi, kimxob chopon-u kashmiri harir matolar ko'zni oladi. Ipak gilam to'shalgan supada savdogar o'tiribdi, yonida Nurbolga hamroh bo'lib kelgan o'n to'rt nafar qiz boshlariga chodra tashlab turishibdi. Xaridorlar — davlatmand hamda nomdor sarkardalar navbatma-navbat chodralar uchini ko'tarib afg'on qizlarining husn jamolini ko'rishar, boshdan oyoqlarigacha ko'zdan kechirishardi. Ikki kishi bir qiz xususida talashib savdolashishardi. Bechora qizni hali unisi, hali bunisi qo'lidan tortqilashardi. Savdogar esa mamnun — qizni qimmatga pullaydigan bo'lyapti-da, axir.

Ularning holini ko'rgan Nurbol ichida shunday taqdirni ravo ko'rgani uchun Allohga shukronalar o'qidi. Hatto shunday navqiron, xushro'y shoir bilan bir egarga mingashib kelayotganidan quvondi ham...

Paxsa devor bilan o'ralgan keng maydon xaloyiq ila liq to'lgan. Bosh darvozadan kirish bilanoq chap va o'ng tomon bo'ylab tizilib ketgan chodirlar tagiga uzoq-yaqin yurt-u ellardan kelgan savdogarlar o'z mollarini yoyib tashlaganlar. Badavlat xaridorlar xizmatkor-u g'ulomlarini ergashtirib, viqor bilan otliqma-yayov rastalarni oralab yurardilar.

Mahambet g'ij-g'ij olomon orasidan chiqib olish maqsadida oti boshini chapga burdi. Bu tomonda xalq kamroq edi. Qur'oni sharifdan istalgan surani, "Go'ro'g'li" yoxud "Shohnoma"dan parchani yoddan o'qib berishga tayyor qori-yu baxshilar, zarur bo'lsa, xon nomiga arznoma yoki qoziga shikoyatnoma bitib berishga tayyor turgan mirzalar chordana qurib o'tirishardi. Ularning orqa tomonida esa devor yoqalab o'z mahsullarini yoyib qog'oz sotuvchilar joylashgan. O'siq oq soqolli, sallali hindi, past ovoz bilan:

Kuch emas izzatin qora yer etgan,
Kuch emas ulug'likka ko'tarib ketgan.
Hurmat ham, isnod ham ushbu jahonda
Kelar har insonga tutgan yo'lidan... —

deya xirgoyi qilar edi. Undan keyin nog'oralar gumburi ostida xitoylik nayrangboz o'z hunarini namoyish qilardi.

Otlar olomonni oralab, asta ilgarilab borar, nogiron tilanchilar oyoqlar ostida o'ralashib xayr so'rardilar...

Sandal yog'ochining ufor islari, ter va meva-chevalarning hidi, o'chog'-u qo'ralardan ko'tarilayotgan tutun, chang, qo'shiq, yig'i-sig'i, nolish, maddoh va jarchilarning qichqirig'i, tuyalar o'kirigiyu eshaklarning quloqni qomatga keltiruvchi hangrashi — hamma-hammasi qorishib Nurbolning boshini aylantirib, ko'nglini behuzur qila boshladi.

Bundan keyingi taqdiri nima bo'lishini bilmasligi, o'sha damni toqatsizlanib kutish endi o'z kuchini ko'rsata boshlagan edi. Nurbol haddan ziyod charchagandi, u ot ustidan yiqilib tushmaslik uchun egar qoshini mahkam changallab, beixtiyor Mahambetning ko'kragiga suyanib olgandi...

Damashq po'latidan yasalgan shamshirlar, egar-jabduqlar, qalqon va sovutlar, po'lat xanjar va pilta miltiqlar xiyla fursat Mahambet hamda do'stlarining e'tiborini tortib qoldi...

Nihoyat, ular bozor chekkasiga, ochiq havo ostida, olis mamlakatlardan, yaqin o'lkalar — o'zbek qishloqlari, qozoq va turkman ovullaridan, rus qishloqlaridan bandi qilib keltirilgan tutqunlar sotiladigan joyga yetib keldilar. Bular orasida Aday urug'idan chiqqan mashhur qaroqchi Shabek va uning do'sti qochoq askar, chapdast ataman Andrey Strelshchikovlar Ashtarxon tevaraklaridan bandi qilib keltirgan uzun soqol baliqchilar ham bor edi.

Xiva xonining amri bilan Andrey ham, Shabek ham yigitlari bilan Kaspiy dengiz bo'ylarida qaroqchilik qilishardi. Xivalik dallollar tutqunlarni ulardan sotib olib, shu yerga — bozorga keltirib pullardilar. Odam savdosidan Xorazm hukmdorining xazinasi, ayniqsa, boyir edi. Bu tartib XVIII asrning o'rtalaridan — hokimiyat qo'ng'irot xonlari qo'liga o'tganidan buyon davom etib kelardi. Olloquli taxtga o'tirganidan keyin esa qul savdosidan tushadigan daromad ikki barobar ortdi.

Mahambet hamrohlari bilan bozor shovqin-suroniga e'tibor bermaslikka, tutqunlarga qaramaslikka harakat qilib, olomon orasidan ohista o'tib borardi.

— Og'aynilar, qayerlik bo'lasizlar? — deb so'radi, qo'llari kishanlangan ikki qozoq yigitini ko'rar ekan sabri tugab Jantas.

Yoshi kattarog'i kaltakdan basharasi mo'mataloq bo'lib ketgan boshini ko'tardi-yu, lekin churq etmadi.

— Bular Jayxun quyilishidan, qoraqipchoqlar. Ular chorvalarini haydab ketayotgan hukmdor sarbozlariga qarshilik ko'rsatganlar, — deb javob qaytardi yigitlar o'rniga olomon orasidan xivalik keksa bir qozoq.

— O'zingiz kim bo'lasiz, mirza, tag'in Qayipg'ali sultonning navkarlaridan emasmisiz?

— Yo'q! — keskin javob berdi Mahambet. — Ularning bahosi necha pul? — so'radi buyruq ohangida va savdogarning javobini eshitgani hamon aqcha to'la hamyonini uning oyoqlari ostiga irg'itdi. Jantas qilichi bilan ularning qo'lidagi arqonini qirqib yubordi. Yoshroq bandi Mahambetning oti qarshisiga kelib, tiz cho'kdi.

— Endi ularga shu damdan e'tiboran ozod etilganliklari to'g'risidagi qog'ozni ber! — talab qildi Mahambet.

— Qanday qog'oz? Qog'ozni nima qilishadi ular? — hayron bo'lib qo'llarini yozdi savdogar. — Nahotki shoirlar qul doim qulligicha qolishidan bexabar bo'lsalar...

— Sizlar ozodsizlar. Endi erk-ixtiyorlaring qo'llaringda, — dedi Mahambet tutqunlarga. Xaloyiq unga tikilib qolgandi. Birovlar havas bilan boqsa, boshqalar nafrat-la o'qrayardi.

— Qozoqlar oqini chiroyli kanizak axtarib, Xivaga kelibdi-da! — dedi allakim. — Uning ham, Qaybola sultonning ham niyati bir ekan-da. Ovullarni talashda Olloquliga ko'maklashgani kelibdi-da u ham...

Mahambet g'azabiga chiday olmay, otini shunday niqtadiki, Nurbolning egardan uchib ketishiga sal qoldi. Xaloyiq jimgina yo'l bo'shatdi.

— Hoy, to'xtanglar! — xirqiroq tovushda baqirdi tutqunlarning yoshi kattarog'i.

— Nima deysan? — uning yo'lini to'sdi Jantas.

— Mirzangga ayt: menga sotqinning puliga kelgan ozodlik kerak emas! — dedi entikib ko'ziga qon to'lgan tutqun.

— Og'zingni yum, tentak! — deya unga qamchi urdi Jantas. Bolabek Jantasga tashlandi.

— Qurolsiz odamni urmaydilar!

— Haqorat qiluvchilarni jazolaydilar! — dedi qamchisini Bolabekning qo'lidan yulib olarkan.

— Xaloskorlarni qarang-u, — deya tishlarini g'ijirlatdi tutqun. — Qozoqlar oqini emish-a. She'r bitishda burgut ko'rinsa-da, ishga kelganda ola qarg'aning o'zi. Xivadan boshpana topibdi. Sirim botirning boshiga yetgan joy Xiva emasmidi... Qaysi eldan bo'lasan o'zing? Meni ozod qilib yaxshi nom chiqarmoqchimisan?! Mening ozod etilganimga kim inonardi?! Atrofga bir nazar tashla! Bu yerda onalarimizni, opa-singillarimizni sotishmoqda! Ularni ham sotib ol! O'z haramingni to'ldir...

Mahambet es-hushini yo'qotib, baqraygancha yigitga tikilib qoldi. U g'azabidan qaltirardi. A'zoyi badani titrayotganini Nurbol ham sezib turardi. Kutilmaganda u qizni egardan tushirib yubordi-da, ayollar yig'isi eshitilayotgan tomonga ot soldi. Bu yig'i qozoq onalariga qadim zamonlardan meros.

...Betlari ochiq bu qizlar qurol-yarog'li xivaliklar qurshovida turishardi. Bu qal'ada, shuningdek, butun O'rta Osiyoda paranji yopinmay yoki boshiga chodra tashlamay yuradigan faqat qozoq ayollarigina, xolos.

Mahambet, ko'zlari qizlarning dokaday oqargan betlaridan bo'lak narsa ko'rmay, qulog'i ularning nola-yu faryodlaridan o'zga tovushni eshitmay, olomonni yorib borardi. Ko'ylaklari tilka-pora, sochlari to'zg'igan, xo'rlik, nomusdan yerga kirgunday bo'lib, qo'rquvdan qalt-qalt titrab, xuddi zada bo'lgan ohu bolalariday bir-birlarining pinjiga kirib turardilar.

Ularning oyoqlari ostida ikki betini yulib, qonga belanib, bir kampir nola chekardi:

Qayga boraylik biz, qaydadir panoh?
Qayda xaloskorlar, botirlar qani?
O'g'lonlar yo'qmi yo qozoq yerida,
Qozoq yigitlari olchoqlarmi yo?!
Sho'rlik yetimlarga shafqat et, Tangrim:

Ular kuni endi o'limdan battar,
Na kulgu, na umid — ko'z yoshlar faqat...
Ular zindonlarda chirigay endi...
Tangrim, menga yo'lla kulfatlaringni,
Farzandlarni qutqar o'lim, uyatdan...

Jaholat aqldan ustun kelib, qo'lini quroliga cho'zdi u. Mahambet shartta qilichini qinidan sug'urib oldi. Biroq qizlarni qo'riqlab turgan yasovullarning nayzalari Mahambetning ko'kragiga kelib taqaldi.

Temir sovut sharaqlab ketdi. Jantas bilan Bolabek chaqqonlik-la uni himoya qilib zarblarni qaytarishga arang ulgurdilar. Mahambetning oti osmonga sapchidi.

— Xon nomi bilan buyuraman, osoyishtalik va tartib saqlansin! — degan ovoz eshitildi. Rangi oppoq oqarib ketgan Jantas bilan Bolabek yana yelkama-yelka turib qoldilar.

— Kimsan o'zing? Turqingga qaraganda sultonga, qilig'ingga qaraganda qaroqchiga o'xshaysan! Joning borida aytib qol, yo'qsa ichak-chavog'ingni ag'darib tashlayman! — deya o'shqirdi bashang kiyingan sarboz. U yer ostidan chiqqanday bir zumda paydo bo'lib qolgandi. Uning yonida xon mirshablari bor edi. Mahambet do'stlari bilan qurshov ichida qolgan edi.

Bu orada mirshabboshi yetib kelib, Mahambetga tikilib qaradi. Uning yuzida kulgi nishonalari paydo bo'ldi. U Mahambetni xon saroyida ko'rganini esladi.

— Ulug' xonimizning mehmoni ekansan, umring uzoq bo'lsin! — dedi-da, oqinga ta'zim qilib, o'sha zamonoq baqiroq sarbozni beboshlikda ayblab, koyiy ketdi... — Siz bo'shsiz, janobim. Ulug' xonimiz sizdan marhamatlarini ayamadilar va behad iltifot ko'rsatdilar!

Mirshabboshi Mahambetga hilol nusxasi tushirilgan kumush paysa uzatdi. Bu Xiva xonligi yerlarida daxlsiz shaxs ekanini anglatuvchi belgi edi.

Qizlarning oyog'i ostida yotgan kampir yana nola cheka boshladi. To'plangan olomon tomoshadan qanoatlanmay, asta-sekin tarqala boshladi, Mahambet atrofidagilarning hammasi qurolli

odamlar ekanini endigina payqadi. Bu yerda odamning qadr-qiymati uning qurol-yarog'iga qarab baholanardi. Mamlakatni qilich idora qilardi.

Bozorni yana g'ala-g'ovur bosdi, qandaydir bir kambag'alning qarzini vaqtida to'lamagani uchun qulog'ini kesishibdi, u bechora jonini qo'ygani joy topolmay faryod urardi. Issiq, dim havodan, odamlarning betinim g'ala-g'ovuridan, bu nogahoniy asabiylikdan Mahambetning boshi g'ovlab ketdi. U Jayxunning suviday loyqab ketgan bozordan chiqib olishga oshiqdi. Nurbol uzun chodrasi oyoqlariga o'ralashib, vahm ichra uning oti ortidan yugurgilab borardi. U qolib ketishdan, mabodo qolib ketsa ushlab olib, uni ham hozirgina mojaroga sabab bo'lgan anovi qozoq qizlari singari sotib yuborishlaridan qo'rqqanidan yuzini ochishga jur'at etolmasdi. Qiz bechora Mahambetning uzangisiga tarmashar, oyoqlarini quchoqlardi. Uning ikkinchi tomonida, Jantasning oti ketidan Mahambet ozod etgan yigit sukut saqlaganicha ergashib kelardi.

— Jantas, bularni olib ket! Oyoq ostida ko'p o'ralashavermasin, olib borib To'kega topshir! — deb baqirib berdi Mahambet otiga qamchi urarkan.

— O'zing qayoqqa ketyapsan? — xavotirlanib so'radi Jantas.

— Nochor-u notavon bir daydi qayoqqa borsa baribir emasmi?!

Mahambet otini niqtab, hech qayoqqa qaramay, shiddat bilan yeldirib ketdi, uning ketidan Bolabek ham ot qo'ydi. Ular atrofi baland devor va chuqur xandaq bilan o'ralgan, tepalikda joylashgan xon arkini aylanib o'tib, qal'aning kichik darvozasiga yetib kelishdi. Soqchilar zarbof abo kiygan sarbozni to'xtatishni ep bilishmadi.

* * *

Mahambet bilan Bolabek qal'adan tashqari chiqib ketdilar. Jantas Nurbol bilan tutqunlikdan ozod etilgan boyagi yigitni qozoqlar yashaydigan mahalla tomon boshladi. Ular kimsasiz tor ko'chalardan o'tib, bu atrofdagi boshqalaridan sira farq qilmaydigan pastak, ko'rimsiz eshik qarshisida to'xtadilar. Jantas eshikni taqillatdi. Eshikni sochi taqir olingan, keng va uzun ko'ylak-ishtonli, oyog'ida nimdoshgina qaytarma etik, belida pichoq, qotmadan kelgan bir kishi ochdi.

— To‘ke, bu qizni uyga olib kiring. Damini olsin, kim biladi, sho‘rlik qancha yo‘l bosdiykin... Mahambetning topshirig‘i bu, — dedi va To‘kening taajjub-la qarab turganini ko‘rib, qo‘shib qo‘ydi: — Bu afg‘on qizi. Uni Mahambetga xonning o‘zi in’om qildi... Bu yigitni esa yashirin yo‘l bilan ikkinchi hovliga, yigitlarimiz yoniga o‘tkazib yuboring. U yerdan o‘zining qoraqipchoqlarini topib oladi. Kiyim-bosh, qurol-yarog‘ berishsin. Ot topib beramiz. Isming nima, yigit?

— No‘yon.

— Hali juda yoshga o‘xshaysan?

— Yigirma beshga kirdim.

To‘ke mehmonlarni hovliga boshladi. Keyin Jantasni chetga chaqirdi-da, qulog‘iga:

— Suyunqora botirdan xabar keldi. U juma kuni qamishzorda, tuya kechuvida kutarmish... — dedi shivirlab.

— Mahambet daryo tomonga ketdi. Sal o‘zini bosib olsin, keyin yo‘liqarman unga.

Jantas bir kosa qimizni simirib, chiqib ketdi. To‘ke bilan No‘yon hovlining oyoq tomonidagi otxona orqasiga o‘tdilar-da, chog‘roqqina bog‘ga kirib g‘oyib bo‘ldilar. Qayoqdandir bir bola paydo bo‘lib, devorga taqab qo‘yilgan so‘riga chiqdi-da, mehmon qizga o‘g‘rincha ko‘z tashlagancha o‘tiraverdi. Nurbol nazdida to To‘ke qaytib kelib, uni nimqorong‘i va salqin xonaga boshlab kirgunga qadar o‘tgan muddat yilday bo‘lib tuyuldi. So‘ngra u suv, non va uzum keltirib qo‘ydi-da, qizni yolg‘iz qoldirib, chiqib ketdi.

Nurbol hadiksirab burchakka borib tiqilib oldi-da, allamahalgacha eshikdan ko‘z uzmay turaverdi, lekin boshqa hech kim kirmadi. Ochlik asta-sekin o‘zini sezdirdi, u dasturxonga yaqinlashib, apil-tapil uzum va nondan tanovul qila boshladi. So‘ngra, dasturxonni yig‘ishtirib qo‘ydi-da, yana burchakka borib o‘tirdi. Qo‘rquvi tarqab, ko‘ngli xotirjam topa boshladi. Keyin mudroq bosib, uyqu eltarkan, Hirotning narigi tomonidagi tog‘larda qolgan mo‘jazgina kulbalarini, bu hovlining yarmiga ham teng kelmaydigan, kaftdakkina yerlarida tinim bilmay g‘imillab yuruvchi otajonini bir-bir eslay boshladi. Boydan ijaraga olingan bu joyga otasi loviya, kunjut, ko‘knori, suli, bug‘doy va tevaragiga jo‘xori ekardi. Bu yerda anor,

shaftoli ham bor edi. Otasi mirishkor dehqon bo'lib, ijaraga olgan yerida yiliga ikki marta hosil yetishtirardi. Ammo birovga qaram bo'lganligi sababidan sira qarzdan qutula olmasdi. Topgan-tutgani, hatto qizi ham xo'jayinniki edi hisob. Qizni bir kimxob to'n bilan bir ot evaziga savdogarga sotgan kishi ham o'sha xo'jayin. Otasi bermagan edi, uning oyoq-qo'lini bog'lab rosa kaltakladilar-da, anor daraxti tagiga tashlab ketdilar. Sho'rlik ota, tirikmikan?..

Nurbol uyqu aralash yassi tog'lik va tekisliklardan o'tgan, issiqda tandirday qizib yotgan uzundan uzoq yo'lni esladi. Ana shu jazirama issiqda necha kru[1] yo'l bosdi, necha kunga cho'zilgandi bu safar? Uning ko'zi oldidan ensizgina shinakli, qo'riqchilari indamas rabotlar o'ta boshladi. U o'ziga hamroh bo'lib kelayotgan cho'ri qizlar bilan birga yarim qorong'i hujralarda, qoq yerga tashlab qo'yilgan polos yoki bo'yra ustida bir amallab ko'z ilintirib olganlarini esladi. Qattiq uyquga ketgan bo'lsa-da, u o'zini tuya o'rkachida ketayotganday his etdi. Tuya odim tashlagani sayin butun vujudi chayqalayotgayday, lopillab borayotganday bo'lardi... Atrofdagi yo'l yoqalab cho'zilib ketgan qumlar goh oppoq, qatqaloq qorga o'xshab ketadi, goh yo'l ravag'-ravag' uvadaga burkanib olganday tuyuladi...

Qiz uzoq uxlab qolibdi. Kichkinagina darchadan endi quyosh shu'lasi ko'rinmasdi. Nurbol eshikni qiya ochib, qosh qoraya boshlaganini ko'rdi.

Hovlida hamon hech kimsa ko'rinmasdi. Faqat otxona tomonda boyagi bola qiz uxlayotganida keltirilgan yangi o'rilgan pichanni oxurlarga tashlab, To'kega yordamlashayotgan edi. So'loqmonday malla it bolaning oyoqlariga suykalardi.

To'ke eshikning g'ijirlaganini eshitib, yalt etib qaradi. Qiz darhol eshikni yopib, yana joyiga borib o'tirdi.

To'ke sham keltirib, yoqib qo'ydi. So'ngra boyagi bola issiq palov keltirib berdi. Xonaning poygak tomonidagi manqalga cho'g' keltirib solib, ustiga qumg'on qo'yishdi. To'ke yuqori tomondagi o'ymakor eshikni ochdi-da, katta xonani ko'rsatib, shu uyda uxlaysan deganday ishora qildi.

[1] **Bir kru** — uch kilometrga teng.

Qiz yana yolg'iz qoldi. Oqin naq tongotarda keldi: uning jahli chiqqan, juda charchagan ko'rinardi. U lom-lim demay kechki ovqatni tanovul eta boshladi. So'ngra qo'l yuvmoqchi bo'lib, qumg'onga qo'l cho'zdi. Qiz chaqqon qo'zg'alib, qo'liga suv quydi. U yuvinib bo'lib, qimiz ichdi va bexosdan qizga o'girilib qaradi-da:

— Chodrangni olib tashla. Bizning qizlar buni yopinishmaydi! — dedi va uni olib tashladi.

Qiz cho'chib o'zini orqaga tashladi...

Hafta ortidan hafta o'taverdi. Nurbol Xivaga kelgan oqshomda minoralar tepasida barkashday bo'lib turgan to'lin oy o'rnini endi o'roq shaklidagi yangi oy olgandi. Bu orada Nurbol Mahambetga ancha o'rganib qoldi. Mahambet unga kam so'z qotardi. Ba'zan u shartakilik, qo'pollik qilardi, goho esa o'z tashvishlari bilan bo'lib, xayolga botar, Nurbol, hatto yodidan ko'tarilib ketganday tuyulardi. Ba'zida u qizga o'zi tug'ilib o'sgan dalalar, qozoqlarning hayotidan hikoya qilib berar, o'z navbatida, qizdan ham uning vatani haqida surishtirib qo'yardi. Lekin qiz Hirot to'grisida hech narsa bilmas, har safar otasining choqqina chorbog'ini hamda uning qiladigan ishlarini so'zlab berardi, xolos. O'z kulbasi ostonasidan hatlab chiqish huquqidan mahrum bo'lgach, u sho'rlik nimani ham bilardi deysiz?..

Nurbol so'zga chechan emasdi. Mahambet huzuriga do'stlari mehmonga kelguday bo'lsa, Nurbol To'ke bilan birga dasturxon yozar, kosalarga qimiz quyib berib, xo'jasini mehmonlar bilan tanho qoldirib, tashqariga chiqardi. To'ke Nurbolni o'z qiziday ko'rardi.

U o'z xo'jasining shunchaki oqingina emasligini darhol fahmlab olgan edi: garchi hamma o'zini u bilan teppa-tengday tutsa-da, ammo so'zlarini o'zgacha iltifot bilan tinglardi. So'nggi kezlarda uylari sermehmon bo'lib qoldi, dashtdan, Bersh urug'idan chopar keldi. U allaqanday Jangirxon, Isatoy botir deganlarning nomini tilga olib, qandaydir urush bo'larmish degan shov-shuv yurganini aytdi... Mahambet Xivadan ketishga taraddud ko'ra boshladi.

Nurbol yana tashvishda: oqin uni o'zi bilan olib ketadimi yoki tashlab ketadimi?

Qozoqlar jangga xotinlarini ergashtirib bormaydilar. Uning ona yurtida bo'lsa, erkaklar urush chog'ida, bordi-yu mag'lubiyatga

uchrashlarini sezsalar, ota-bobolari nomusi, el obro'si bulg'anmasin uchun o'z xotinlarini, opa-singil va qizlarini o'ldirib ketadilar. Biroq bu afg'on erkaklari va Hindiston rajpurlarininggina taomili, uning xo'jasi esa o'zga zotdan. Demak, u qizni o'ldirmaydi... Shunday bo'lgach, uning holi nima kechadi. Oqin negadir uning otasini tilga olib: "Otangga o'zing so'zlab berasan!" — dedi. Lekin u otasini qanday ko'radi? U dunyoga borganidami?..

* * *

Tong sahardan buyon toshga aylanib ketgan sho'rxok yerlarini yumshatib, chig'iriqda suv chiqarib sho'r yuvayotgan dehqonlar bir daqiqa ishdan to'xtab, qo'llaridagi ketmonlarini qo'ydilar-da, Jayxun tomon boradigai yo'lda ot yeldirib ketayotgan ikki yigitni xavotirlanib kuzata boshladilar. Kim bilsin, qanday odamlar bular? Ehtimol, Olloqulining choparlaridir. Qishloqlarga qanday xabar olib ketishayotganiykin? Balki, bular ketidan xon zakotchilari paydo bo'lishar. Ammo otliqlar ularga e'tibor bermay, qishloq tomonlarga ham burilmay, churq etmay, qushday uchib borardilar.

Mahambetning ko'z o'ngidan hamon nola chekib turgan qozoq qizlari, ularning so'lg'in yuzlari nari ketmasdi. Mushtipar kampirning zor-zor qaqshagan faryodi qulog'i ostida hanuz yangrab turganday. Mahambet betini qarshidan esayotgan shabadaga tutib, bir odim ham ortda qolmay, ortidan ot qo'yib kelayotgan Bolabekni mutlaqo unutib, og'ir o'ylarni quvishga majoli yetmay, tobora ilgarilab borardi.

O'z yurtidan qochib, begona ellardan shafqat kutib bo'ladimi?! O'z joningni saqlab qolganingdan nima naf ko'rarding? Kuni kechagina qozoq dashtlari bo'ylab bor ovozing-la kurashga da'vat etib yurgan sen emasmiding? Edil bilan Yoyiq oralig'ida, Orol bilan Sayxun yoqalarida yigitlar aytib yurgan o'lanlar sening o'lanlaring emasmi, axir?!

Hey, qadrdon kengliklarning shunqorlari,
Otlaninglar, otlaninglar, bo'ling chaqqon!
Dog'da qolsin, mayli, dashtning shamollari —
Uching ildam, uching tezroq janggoh tomon!..

Hoy Mahambet, avvalgi botirliging qayda qoldi? Sabot-matonating qani? Yoki Kalmikovo turmasi quvvatingni qirqib yoxud darbadar kezishlar irodangni bukib qo'ydimi? Balkim, shunchaki yuragingni oldirib qo'ygandirsan? Balkim, or-nomusdan ko'ra joning shirinroq bo'lib qolgandir?.. Shunda Qo'blandi botir qissasidagi: "Hatto qashqir ham o'z burchini bajarib, so'ng halok bo'ladi. Qashqir ham hamrohini yo'lda tashlab ketmaydi", — degan satrlar yodiga tushdi. Miyasiga turli o'y-fikrlar quyulib kelar, yaqindagina yuz bergan voqeani yodiga solar, keyin yana qulog'iga mushtipar kampirning hasrat-nadomat to'la nolasi eshitilardi:

Xaloskor yigitlar qani, qaydadir?
Qozoq yigitlari olchoqlarmi yo?!

Xuddi qochoqday Xivaga nega keldi? Uni o'z elida har bir ovulda yashirishlari mumkin edi-ku. O'z boshini omon saqlab qolishi bu yerga nisbatan u yerda osonroq-ku. Yordam so'rab kelganmidi? Kimdan? Xiva xonidanmi? Basharti biror bo'ri ikkinchisini gumdon qilishga ko'mak berguday bo'lsa, bundan murodi barcha o'ljani qo'lga kiritish ekani ayon gap-ku. Yoki sen bu yerga Yesimxonning o'g'li Qayipg'ali sultonga qo'l bergani keluvdingmi? Axir, u faqat taxt umididagina Jangirxonga qarshi, vassalom...

Bir vaqtlar Qayipg'alining otasi — Yesimxonni Sirim botir o'ldirgan edi. Mahambet, sen bo'lsang xon bo'lish orzusida yurgan sultonga xizmat qilishga chog'landing... Unday bo'lsa, Mahambet, Jangirxon bilan nizolashishning kimga keragi boriydi? Ehtimol, Qayipg'ali Jangirga nisbatan rahmdilroq chiqib, boylar, sultonlar, podsho graf va atamanlariga bo'lishib berilgan yerlarni yana xalqqa qaytarib berar?.. Aslo!..

Keyingi yillarda boshidan kechirganlari birma-bir xotirida jonlana boshladi. Ostidagi arg'umog'i yo'rtishga, keyin esa egasining boshi boshqa fikrlar bilan band ekanligini his etganday qadamlashga o'tdi. Bolabek Mahambetga yetib olib, yonma-yon keta boshladi. Xayol og'ushiga cho'mib ketayotgan Mahambet hushini yig'ib oldi va unga taajjub-la tikilib qo'ydi-da, xuddi o'zini oqlayotganday dedi:

— Daryo bo'yida bir zum o'tiraylik. Na Yoyiqni, na Sayxunni ko'rganimga ko'p bo'ldi, ajab emas Jayxun shularni eslatsa...

Oldilaridan bir bola chiqib qoldi. Uning qo'lida tugunchagi bor, yer haydayotgan otasiga tushlik olib ketyapti, chamasi. Mahambet kulimsiradi. Bu bola kichik inisi Musaga o'xshardi...

* * *

... Bersh urug'ining mashhur yilqichisi O'temisning o'n o'g'li bor edi. O'temis ularni chavandoz qilib tarbiyalagan edi. Mahambet bolalik chog'larida otasining o'z ovulidagilarni Oychuvoq-xoning jallodlariga qarshi kurashga otlantirganini yaxshi eslaydi. U dovyurak yigitlari bilan o'z ovulini necha bor baloyu kulfatlardan qutqarib qolgan, xon malaylari-yu kazak atamanlarining jazo otradlari ta'qib etib bora olmaydigan joylarga boshlab ketgan. Oychuvoqning o'g'li Jonto'ra Yoyiqda zambaraklar sadosi ostida xon taxtiga minib, o'zini Kichik juz qozoqlarining hukmdoriman, deb e'lon qilgan kezlarda ham O'temis uni tan olmagan edi.

Mahambetning otasi haqiqatgo'y, halol va mard odam edi. U o'z farzandlarini qarchig'ayga o'xshatib tarbiyaladi. U o'g'lonlariga rahmdillik qilmadi, ayamadi, yoshlik chog'laridanoq asov otga mingazib, kamon otishni, qilich tutib, nayza ushlashni o'rgatdi.

O'g'lonlar botir bo'lib o'sishdi. To'ng'ich o'g'li — Bekmuhambet aql-farosatli, kenjasi — yo'lda yo'liqqan boyagi bolani ko'rib Mahambetning yodiga tushgan Musa esa kamsuqum, bosiq va serfikr edi. Mahambet hammasidan uni yaxshi ko'rardi. Musa doim va har yerda u bilan birga bo'lardi.

Mahambet o'n olti yoshga kirganidayoq Bersh urug'ining eng o'tkir oqini deb tanildi. Uni har bir ovulda izzat bilan kutib olishardi. Odatda, maqtovga xasis, kamsuxan oqsoqollar ham gap unga taqalganda saxiy bo'lib ketishardi. U ko'zga ko'rinib qolgan ko'pgina oqinlarni ham aytishuvda osongina yengib, tez orada o'z urug'ining faxri bo'lib qoldi. U kelganda oqsoqollar ham, botirlar ham quloch ochib kutib oladigan bo'ldilar. Uning shuhrati og'izdan og'izga ko'chib, Kichik juz ovullari osha Edil sohillaridagi no'g'aylarga, Qoratov shektilariga, qipchog'-u arg'in va naymanlargacha borib yetdi. Shekti urug'ining kambag'al botirlari — Ketibor va Arslon-

lar jangda o'lja olgan arg'umoqlarini unga sovg'a qilib yubordilar. Bersh urug'ining eng e'tiborli oqsoqoli lsatoy uni suyukli do'stim va inim deb atay boshladi.

Mahambet o'n to'qqiz yoshga to'lgan kezda, bepoyon cho'l bag'ridagi baland adirlardan birida barcha qozoqlarning ulug' qurultoyi bo'ldi. Kichik juzdan besh ming oqsoqol, biy, sulton va xo'jalar yig'ildilar. Ular Jangir sultonni qorday oppoq namatga o'tqazib, uni butun juzning xoni deb e'lon qildilar. Rus podshosining istagi-yu dashtlik badavlat sultonlar kengashining xohishi ana shunday edi. Jangir Bo'key xonning o'g'li edi. Sulton Bo'key 1801-yildayoq podshoh Pavel I dan Edil bilan Yoyiq oralig'idagi yerlarni Kichik juzdan ajratib olib, u yerlarda yangi xonlik barpo etishda madad berishini so'ragan edi. Imperator jon deb yordam ko'rsatdi va 1812-yili Kichik juz ikkiga bo'lindi. Bo'key o'z niyatiga erishdi, Edil bilan Yoyiq oralig'idagi yerlar Ichki o'rda deb atalib, u xon bo'ldi, qozoqlarni bosib, itoatda tutib turish uchun podshoh istehkom-qo'rg'onlar qurdirdi, Jangir esa merosxo'r sifatida xon bo'lgandi.

Yangi xon sharafiga tantanalar boshlanib ketgan kunlarda, buyuk qurultoy Mahambetni Kichik juzning eng yaxshi oqini deb e'lon qildi. Yosh xon xalqning ko'z o'ngida Mahambetni huzuriga chorladi-da, unga ot mingizib, nayza va qalqon, zarbof chakmon, kumush naqshli olmos qilich hadya qildi va uni o'zining eng yaqin do'sti hamda Kichik juzning bosh oqini deb fatvo berdi. Xon O'temisning katta o'g'li Bekmuhambetni ham o'z qanoti ostiga olib, uni vazirlaridan biri qilib tayinladi.

Mahambet xon bilan besh yil chamasi birga bo'ldi. Haqiqatan ham, u xon oqinlari, sozanda va xonandalari orasida eng o'tkiri edi. U oqsuyak yoshlar orasida to'y-hasham, ziyofat-u bazmlarda, burgut va qarchig'ay ko'tarib shikorga chiqilganda, poygada doimo birinchi edi...

Dastlabki paytlarda, Jangirxon Kaspiy sohilida istiqomat qilgan kezlarda Mahambetning o'tovi ham uning hashamdor va issiq chodir-u oq o'tovlari yoniga tikilardi. Oq podsho, Buxoro amiri, Xiva xonining elchilari hamda O'rta juz bilan Ulug' juzdan kelgan choparlar xonga qanday izzat ko'rsatsalar, oqinning ham izzatini

bajo keltirar edilar. Mahambet o'sha kezlar o'zini jannatda yurganday his etardi. Jangirning xotinlari orasida eng o'ktami — Fotima xonimning ma'nodor boqishlari yosh oqinga moyday yoqar, she'riyatni jondan sevishi esa qo'l kelardi. Bashang chodirlarda o'tkaziladigan aysh-ishratlar yanada mo'lroq, dasturxonlar yanada to'kinroq bo'lsin uchun xon choparlarining ovulma-ovul kezishlari, bechora xalq boshiga tobora ko'proq soliq solinayotgani, ovullarning borgan sayin qashshoqlashayotgani Mahambetning parvosiga ham kelmasdi. Fotima xonimning fransuz, nemis, rus va fors tillarini eridan kam bilmasligi, o'zboshimcha va mag'rur, g'oyatda ayyor va tantiq, ayni zamonda nihoyatda suluv ayol ekanligi uni maftun-u mahliyo etardi...

Qum barxanlari sutdek oy shu'lasiga g'arq bo'lgan bahor kechalarining birida, Mahambet malikaning yotog'iga kirganida, u oqinga iltifot ko'rsatdi. O'sha kecha Jangir ovga ketgan, Mahambet esa yigirma bir yoshga to'lgandi.

Bir yil o'tgach, Mahambet Jangirga Peterburg safarida hamroh bo'ldi. O'sha yili qishni xon amaldorlari bilan birga — ular orasida marhum Yesimxonning o'g'li sulton Qayipg'ali ham bor edi — ruslarning poytaxtida o'tkazdi.

... Bir kuni o'sha yerda Mahambetni bir tabib-ofitser bilan tanishtirishdi.

— Janob Dal-Luganskiy siz qozoq oqini bilan rasmiy ravishda suhbatlashmoq istagini bildirdilar, — dedi imperiyaning ichki ishlar ministrligida tarjimon bo'lib ishlaydigan ayyortabiat nayman yigiti. Mahambet mehmonning ismiga befarq qaradi. Uni suhbatdoshi qiziqtirdi. U o'z ishiga puxta ko'rinar, qozoq yerlari haqida qayta-qayta hikoya qilishni so'rardi. Eshitgan har bitta qozoq so'zini bo'g'inlab talaffuz etishni, ma'nosini tushuntirib berishni iltimos qilardi. U Orenburgga safarga otlanayotgan ekan, uni qozoqlarning hayoti va turmush sharoiti, shuningdek, ovullarda Pugachov to'g'risida qanday gaplar bor ekani qiziqtirardi.

Mahambet otasidan, dashti oqinlar va baxshilardan, Pugachov otradida xizmat qilgan Bersh hamda Aday urug'i qariyalaridan eshitganlarini hikoya qilib berdi. Dashti qozoqlarining aytishlaricha, Pugachov qozoq tilini yaxshi bilar, hatto u juda ko'p dos-

tonlarni yoddan aytar ekanki, bundan, hatto oqsoqollar qoyil qolisharkan.

Mahambet qozoqlarning jung'or va xitoylar bilan bo'lgan janglari to'g'risida mehmonga butun oqshom hikoya qildi.

— Ehye, o'sha kezlari boshga tushgan xatar Kichik juz, O'rta juz, Ulug' juz urug'larini birlashtirgan. Ittifoq bo'lib, bir yoqadan bosh chiqarib katta kuchga aylangan qozoq xalqi Orolga yaqinlashib qolgan bosqinchilarni o'z ona tuprog'idan quvib chiqargan. Lekin jangda talaygina botirlar halok bo'lganlar...

— Undan burun ham qozoq xalqi birlashganmi hech? — so'radi hamsuhbati.

— Ulug' juzning Dashti qipchog'ida sulton bo'lgan odil Jonibek biyning o'g'li Qosimxon davrida birlashgan, — javob qaytardi Mahambet.

— Qosimxon o'g'li Oqnazarning botirligi, dadilligi, mardligi-yu jasoratini kuylovchi ko'plab o'lan-qo'shiqlar to'qilgan. U bilan hatto Ivan Grozniy muzokaralar olib borgan. Oqnazar qozoqlar va no'g'aylarni birlashtira olgani hamda mo'g'ullar bilan jung'orlarga bir necha martalab zarba bergani orqasidan dong taratgan. 1570-yilga kelib qozoqlar bilan boshqa xalqlar hisoblashadigan bo'lib qolgan. Ehtimol, Oqnazardan keyin taxtga noshud Sig'ayxon minmaganida mamlakatimiz yanada mustahkamlanarmidi...

— Siz qayerda tahsil ko'rgansiz?

— Ovuldagi savodxon kishilarda, keyinchalik martabali Jangirxon hazratimning o'rdalarida, — javob berdi Mahambet.

— Men sizning yurtingizga, Orenburgga, albatta, boraman. Uchrashsak, suhbatlashsak g'oyatda mamnun bo'lardim. Taqsirim, o'shanda men sizdan xonlar haqida emas, Sirim Dat o'g'li to'g'risida surishtiraman. Siz saroy oqinisiz-a? Sizning dasht xonlari shajarasini yaxshi bilishingiz ko'rinib turibdi...

— Muhtaram janob, bizning dashtlarda xon va sultonlarning o'zboshimchaligiga qarshi kurashish qadim zamonlardan qolgan. Xalq ular haqida o'z qilmishlariga yarasha gapiradi. Qozoqlar — dalada o'sgan, erkin xalq. Har bir cho'pon o'zi qashshog'-u, ammo g'ururli. Baxtimiz ham, sho'rimiz ham shunda bo'lsa kerak. Biz botirlarni tirikligida qadrlamaymiz-u, o'lganidan keyin qayg'u-

ramiz. Eng yomoni — har bir urug‘ o‘zini maqtaydi, boshliqlar esa hokimiyat talashib qirpichoq bo‘ladilar. El boshiga kulfat tushganda maydonga botirlar chiqadi. Lekin oddiy fuqaroda ham, hokim tabaqada ham chinakam ozodlik yo‘q. Ha, biror kimsa ozod yashaganmi o‘zi? Xon ham o‘z taxtidan xavotirda yashaydi. Mendan so‘rasangiz, men saroy oqini emasman. Men Sirim Datovga o‘xshagan mashhur botirlar haqida o‘lanlar to‘qiyman!..

Agar suhbat boshida Mahambet mehmonga podshoh amaldori deb qaragan va o‘zini ehtiyot tutgan bo‘lsa, endi, suhbatdoshining dadil so‘zlaridan keyin odatdagi qiyofasiga qaytdi. U endi o‘z fikr-mulohazalarini yashirib o‘tirmay, ochiq-oydin gapirardi. Mehmonning qotmadan kelgan yuzi yanada cho‘ziqroq ko‘rindi. Mahambetning hayajoni unga ham yuqqanday edi. Aftidan, suhbatni davom ettirgisi bor edi, lekin shu payt xon mulozimlaridan biri kirib keldi-da, Mahambetni Jangirxon hazratlari yo‘qlayotganini aytdi.

— Biz dashtda siz bilan yana uchrashamiz...— deya xayrlashdi mehmon. Mahambet mehmonning etsiz cho‘ziq yuzini, sal bukik qaddini eslab qoldi.

Xon va a’yonlari istiqomat qilayotgan hovli markazdan olisroqda edi. Xon pulni ayamay sarflardi. Bugungi ziyofatdan ertangisi kattaroq bo‘lardi. Jangirxon podshoh saroyi amaldorlaridan jonini ham ayamas, ularga sovg‘a-salomlar in’om etardi. Chevarlar Fotima xonim uchun yangi-yangi ko‘ylaklar tikardilar. U har bir ziyofatga, har bir qabul marosimiga yangi libosda borardi.

Ziyofat va qabul marosimlari Peterburg boyonlari, oqsuyaklarining qish faslidagi birdan bir ovunchoqlari edi. Qirg‘iz-qaysaq xon va uning osiyolik go‘zal malikasining ishtirok etishi marosimlarga qandaydir g‘ayriodatiy, sirli tus berardi.

Kunlar ketidan kunlar, oy ketidan oy o‘tar, Jangir esa ziyofat ortidan ziyofat berishdan charchamasdi. U uzoq guberniyalarga ketgan va hadeganda qaytib kelmayotgan imperator hazratlarining qabullariga muyassar bo‘lishni kutardi.

Bir kuni hamma umidlar puchga chiqdi. Kechki paytga belgilangan qabul marosimi o‘tmadi. Peterburgga podshohning o‘limi haqida xabar yetib keldi. Shahar uzra qo‘ng‘iroqlarning motamsaro sadolari yangray boshladi. Keyin sukunat cho‘kdi. Yangi pod-

shohning taxtga o'tirish marosimini kuta boshladilar. Jangirxon ham yangi hukmdorga sovg'a-salom hozirlash taraddudiga tushib qoldi.

* * *

...O'n to'rtinchi dekabr kuni, tushdan keyin, Senat maydoni tarafidan ketma-ket otilgan to'p ovozini eshitgan xon ot keltirishni buyurdi va shaxsiy mulozimlari kuzatuvida shahar markaziga yelib ketdi.

Shahar ko'chalari aholiga liq to'la, maydonni esa askarlar qurshab olgan. Jangirxon ichki ishlar ministrligiga qarab yo'l oldi. Mahambet u yerda yana Luganskiyga yo'liqib qoldi. Janob Luganskiy shu qadar hayajonda ediki, u, hatto ko'rishishi ham yodidan chiqarib qo'ygandi.

— Xo'sh, bunga nima deysiz, taqsirim? Qanday odamlar-a, labbay? Yo'q, bular pugachyovchilar emas, butunlay boshqa rus... Ha, aytgancha, meni afv etgaysiz. Siz, albatta, bu ofitserlarni bilmaysiz. Janob Mahambet, ularsiz ham tashvishlaringiz to'lib-toshib yotibdi-ku!

Dal-Luganskiy shoshilganidan javobni ham kutib turolmadi.

Mahambet, haqiqatan ham, "ular" to'g'risida hech narsa bilmas, lekin bugun qanday hodisa yuz berganini juda bilgisi kelardi.

— Miyasi aynigan buzg'unchilar g'alayon ko'tarishmoqchi bo'lishibdi, — dedi Jangirxon.

— Qo'shinlar qo'zg'alibdi. Eig sara ofitserlar ularga boshchilik qilibdilar, — deya shivirlashishardi boshqalar.

"Buzg'unchilarning yashirin jamiyati fosh qilindi, isyon bostirildi!" — deb yozdi gazetalar.

Xon o'z odamlariga qo'zg'olon to'g'risida gapirishni man etdi. Uning o'zi yangi imperator bilan uchrashuvga tayyorgarlik ko'raverdi.

Uch hafta o'tgach, Jangirxon podshoh hazratlari huzurida bo'lib, yangi imperatorga halol xizmat qilajagi to'g'risida qasamyod qildi. Shundan keyin saroyda ziyofat berildi. Mahambet Qayipg'ali sulton bilan birga oq marmar ustunlar orasida, ortiqcha zeb-u ziynat, hashamdorlik hamda g'ovur-g'uvurdan hayratga tushmay, bir

chekkada tortinqirab turardi. Hamon uning xayolidan podshohga qarshi bosh ko'targan ofitserlar nari ketmas edi.

Ko'p fursat o'tmay, ziyofatda podshohi a'zamning o'zlari hozir bo'ldilar. Rossiya imperatori kirib kelar ekan, ikki tarafda ta'zim qilib turganlarga sezilar-sezilmas jilmayish ila javob qaytarardi. U xon a'yonlari yonidan o'taturib, Fotimaning yonida bir zum to'xtadi. Imperatorga malikani Jangirxonning o'zi tanishtirdi. Podshoh uni raqsga taklif etdi. Fotima saroyga to'plangan chet ellik elchilarni taajjubga solib, chiroyli, nozik raqsga tusha ketdi...

Unga podshohning aytgan so'zlari bir zumda og'izdan og'izga ko'chdi.

— Shunday nozanin ayol vahshiylar orasida qanday yashayapsiz? — degan edi unga Nikolay I.

Osiyolik suluv xonim ruscha she'r-la javob qildi:

Hazratim, o'z elingning achchiq tutuni ham
bolday shirin, yoqimli!..

Yangi podshoh Nikolayning sovg'a-salomi, qo'sha-qo'sha nishonlari hamda generallik unvonini olishga musharraf bo'lgan Jangirxon yana o'z o'rdasiga qaytdi. 1826-yilning ko'klami edi. Edildan Yoyiqqacha cho'zilgan qir-u adirlarni, dasht-u sahrolarni ko'm-ko'k maysa qoplagan. Yoz ham yaqinlashib qolgan. Jamiki e'tiborli sulton-u oqsoqollar jam bo'lgan, safardan qaytib kelgani sharafiga o'tkazilgan to'y tugashi bilanoq Jangirxon Norinqumning qoq o'rtasidagi Jasqus deb atalmish joyga saroy qurish to'g'risida farmon berdi.

Jasqusga minglab turg'unlarni haydab keldilar. Tuya karvonlari ot-aravalar Jasqusga yog'och, marmar tashib kela boshladi. Qurilish ishlarini besh yuz navkar kiprik qoqmay kuzatib turdi. Qo'l ostidagi yerlardan chorva, aqcha, g'alla yig'uvchi, soqchilik qiluvchi navkarlardan yangi bo'linmalar tuzishda Jangir shaxsan o'zi qatnashdi... Har bir bo'linmaga general-gubernatorning yordami bilan qal'alardagi muntazam qo'shinlardan kazaklar, askarlar olindi. Ular o'rniga Jangirxon o'tovlaridan zo'rlab olib kelingan yigitlarni jo'natdi.

Peterburgdan, podshoh nomidan xon saroyni bezashga sarflash uchun o'ttiz besh ming so'm ketdi. Mabodo Fotima xonimning dur-u javohirlar qadalgan birgina qozoqcha milliy ko'ylagining o'zi bir yuz ellik ming so'm turishni hisobga olinsa, bu hech narsa emasdi, biroq bu podshoh e'tibori va marhamatining nishonasi edi.

Xon oilasining chodir va o'tovlardan saroyga ko'chib o'tishi katta shodiyona, to'y-tantana bilan nishonlandi. Lekin bu shodiyonalarga kelgan mehmonlar orasida Sulton Qayipg'ali yo'q edi.

U Peterburgdan Nikolay podshohdan ham, Jangirxondan ham ranjib qaytgan edi. Axir, o'zini xonlikka loyiq hisoblar, buning ustiga qachonlardan beri Jangir a'yonlari orasida oddiy sulton bo'lib yurishni kamsitish bilib, dili ozor chekkan edi-da... Jangir unga e'tibor ham bermadi, aqalli hukmdorning bosh sultoni lavozimini ham lozim ko'rmadi. Xon atrofiga badavlat dashtliklarning bolalarini to'plar, Orenburgdan tez-tez mehmon chaqirar va ular qarshisida o'zining ko'p til bilishini, Ivan Grozniy haqidagi hikoyalarni yaxshi ko'rishini qayta-qayta gapirib maqtanardi...

Jangirxon o'z qo'li ostidagi ellarda rus podshohning tartibini o'rnatdi. Soliqning turlari ko'paydi: zakot, so'qim — xon dasturxoni solig'i, qo'shinlar, soqchi-navkarlarni boqish va mehmonlarni kutish uchun soliqlar, podshoh generallari uchun soliq, choparlar, yasovullar solig'i, sultonlar va din arboblari solig'i. Xon o'rdasi tevaragida yashovchi o'n besh ming xonadonning har biri oy sayin Jangirxonga o'lpon to'lashi shart edi. Kimda-kim bu shartni bajarishga qurbi yetmay qolsa, u darhol hovli-joyidan mahrum etilar, xonavayron qilinardi... Kimda-kim Jangirga o'zini urug' deb bilsa, yettinchi otasiga borib taqalsa hamki, Jasqusga ko'ch-ko'ronini ortib kelaverdi, hech qancha vaqt o'tmay o'rda atrofida shahar paydo bo'ldi.

* * *

Bir tomondan shuhratga, ikkinchi tomondan Fotima xonimning mehr bilan erkalashlariga mast Mahambet Peterburgdan qaytib kelganidan keyin ham xonning qilmishlariga beparvo qarab yuraverdi. Bir kuni xon o'rdasiga Bersh urug'ining oqsoqoli Isatoyni chaqirtirib keltirishdi. Xon unga solig'-u turli jazolardan ozod etguvchi darxon yorliq in'om etmoqchi bo'ldi, lekin Isatoy uni rad etdi.

— Men Bersh urug'idan bo'laman, Jangirxon, shu boisdan ham bu yorliq sen qora xalq qatoriga qo'shib qo'ygan urug'im bilan mening oramga qalqon bo'lib tushishini istamayman, — dedi Isatoy.

— Isatoy og'a, yana o'zingiz bilasiz, olmaganingiz bilan osmon uzilib yerga tusharmidi. O'z oyog'i bilan kelgan baxtdan yuz o'girmaydilar, uzatilgan qo'lni qaytarmaydilar, — dedi Mahambet Isatoy saroyni tashlab chiqib ketayotganida. — Yorliqni olsangiz Bersh urug'ining oqsoqolligidan tushib qolmassiz, axir, men ham o'sha urug'ning farzandiman-ku!

— So'zlaring to'g'ri, Mahambet. Lekin gap o'zim haqimda borayotgani yo'q. Sen qullar qo'li bilan bunyod etilgan bog'da istiqomat qilyapsan, xon xalqdan tortib olgan pulga kelayotgan sharobni ichyapsan. Jangirning yorlig'ini ro'kach qilib, boylar, sultonlar, biylar, xo'ja va ulamolar kambag'al xalq yaylovlarini tortib olishmoqda. Ovullar xonavayron bo'lyapti, odamlar yersiz, boshpanasiz qolyapti. Edildan Yoyiqqacha bo'lgan yerlar kansler Bezborodko bilan graf Yusupovga topshirildi. Atamanlar-chi, ular yerlarimizni yangi so'yilgan qo'yning etiday bo'lashib olibdilar, bu etning yog'liq joylari xon, generallar, ofitserlar, sultonlar, xo'jalarga tegyapti, g'ajib tashlangan suyaklari esa xalqqa qolyapti. Ekin maydonlari ham, yaylovlar ham tortib olindi. Jangir qozoqni ikkiga: oqsuyak bilan qora xalqqa bo'lib tashladi. Sen ham, O'temisning o'g'li bo'la turib, allaqachonlaroq oqsuyak bo'lib qolgansan. Xalqing qon yutib ezilyapti, sen farog'atda yashayapsan, senga baribir emasmi, sen Jangirning shuhratini maqtab o'lan yozaver...

Isatoyning bu so'zlari nashtarday botardi. Mahambetning yuzi goh oqarar, goh bo'zarardi. U birinchi bor ta'na eshitayotgandi, yana kimdan deng, o'zi hamisha hurmat qilib kelgan, halol, jasur botir sifatida sig'inadigan kishisi — Isatoydan eshitayotgandi bu ta'nalarni.

Isatoyning bu so'zlarini bir to'p mulozimlar qurshovida turgan xon vaziri, Mahambetning akasi Bekmuhambet ham eshitib turardi.

— Hoy Isatoy, juda surbet bo'lib ketibsan, tiling namuncha zaharli ilon tiliga o'xshamasa! Bugun sen mehmonsan. Shu boisdan ham gunohingdan kechamiz. Lekin bilib qo'y, xonning qo'li uzun,

undan qochib qutula olmaysan. Esingdan chiqara ko'rma buni. Mehmondo'stligimizdan foydalanib, Mahambetni yo'ldan ozdira ko'rma. Qani, endi saroydan qorangni o'chir.

— Amringni bajo keltiraman, Bekmuhambet. Lekin maydonda ikkimiz uchrashguday bo'lsak, unda mendan o'pkalama, — dedi Isatoy.

— Senga hech kim xo'jayin bo'la olmaydi, — dedi Isatoy Mahambet bilan xayrlashar ekan. — Bu bog' salqin va xushhavo, lekin shunisi ham borki, asalari bol to'playdigan yerdan ilon ham o'z zahrini oladi.

Isatoyning so'zlari uning tinchini buzdi. U ziyofat dasturxoni ustida ham, shikorga — bo'ri va tulki oviga borganida ham Isatoyning so'zlarini eslardi. U endi avvalgiday rohat va farog'atda yashay olmas, xon qarshisida tiz cho'kib turganlarga befarq qarayolmas, qullarning siniqqan, tund basharalarini ko'rganda g'azabiga chidayolmasdi. U endi xirsday to'q yasovullarni ko'rib jirkanar, tug'ilib o'sgan ovulini qo'msab, yuragi qisilardi. Buning ustiga, uni og'a-inilari mehmonga chaqirib qoldilar. Ular Mahambet yosh bolaligidayoq otasi uni Maqbol ismli qizga beshikkerti qilib qo'yganini va bu vasiyat bajarilishi lozimligini eslatgandilar.

Peterburgdan qaytganlariga uch oy bo'ldi deganda yuzboshi Jantasni olib, xondan ruxsat so'ramay ovuliga jo'nadi. Musa ularni yigirma chaqirim berida kutib olib, Mahambetning kelganini barchaga xabar qilib, hammani mehmonga chorlab oldinda ot choptirib bordi.

Mahambet o'sha kuniyoq yoshligida birga o'sgan Maqbolni ko'rdi. U ovuldagi qizlarning sarasi bo'lib o'sibdi. Oqshomda gulxan yonida yana uchratdi, tengqur dugonalari davrasida u jetishek[1] chalib o'tirardi. Gulxan shu'lasida qiz dashtliklarning ertaklarida tasvirlanadigan malikalarga o'xshardi. Ikki yuzi shirmonday, ko'zlari quvonchdan chaqnab turardi. Ovozini aytmaysizmi? Ovozi qo'ng'iroqday, qo'shig'i ham vujudni eritguday yangrayapti. Mahambet bu qo'shiq o'ziga atalganini, qizning intizor bo'lib kutganini, bugun esa o'z baxtini kuylayotganini sezib turardi.

[1] **Jetishek** — qozoq milliy cholg'u asbobi.

Ertasi kuni u qizning tulporda qushday uchib borayotganini zavq bilan tomosha qildi. Unga manaman degan yigit ham quvib yetib, bo'sa ololmadi.

Mahambetga do'stlari Maqbolda ko'plab yigitlarning ko'ngli borligini shama qildilar. Boylar ko'plab sovchi qo'yishibdi-yu, lekin zo'rlab olishga yuraklari dov bermabdi. Maqbolning o'zi ham Mahambetga sodiq qolibdi...

Ikki yoshning to'ylari bo'ldi. Bersh urug'i ovullarning hammasidan mehmonlar keldi, lekin ular orasida Isatoy ko'rinmadi.

— U dashtga ko'chib ketgan emish. Qay tomonga ketgani aniq emasmish, — dedi xabarchi. — Ehtimol, ko'l yoqasidagi to'qayzorlarga yoki Norinqumga ketgandir.

Yetti kunga cho'zilgan to'ygą to'planganlar hali tarqab ulgurmasdanoq, xonning chopari yetib keldi. Jangir Mahambetga qaytishni amr etibdi.

Oqin Jasqusga Maqbolni ham olib ketdi. Sulton va biylar kengashida Jangir Mahambetni taxt merosxo'ri — o'z o'g'li Zulqarnayning murabbiysi hamda tarbiyachisi deb e'lon qildi va uni Orenburgga o'qishga kuzatib borishini buyurdi. Maqbolni ovulga jo'natib, o'zining esa shahar sari safarga chiqishiga to'g'ri keldi.

...Mahambet Orenburgda Fotima xonimning otasi Muhammadjon muftiyning uyida turdi. Bu Bo'key vafotidan keyin toki Jangir ulg'ayib kamolga yetgunicha Ichki o'rdani boshqargan Shig'ayxonga ham, Jangirning o'ziga ham katta ta'sir ko'rsatgan kishi edi. Shu kishining maslahatiga ko'ra, o'rdada xo'ja va ulamolarning obro'yi oshirildi, masjidlar solindi, Allohning yo'liga olinadigan soliqlar ko'paytirildi.

Bir vaqtlar Muhammadjon rus armiyasining ofitseri, podshohning Kobuldagi ayg'oqchisi edi, keyinchalik asa Peterburgdagi tanishlarining yordamida Orenburgga ko'chib keldi va gubernatorga do'st bo'lib oldi. Musulmonlar uni din homiysi sifatida e'zozlashar, Makkayi mukarramaga haj qilgandan so'ng esa u o'zini o'zi muftiy deb e'lon qilgan edi. Muhammadjon bundan bir yil muqaddam, Jangir podshoh ziyoratiga ketish oldidan dunyodan o'tgan edi. Lekin uning katta xonadonida hech qanday o'zgarish

sezilmadi, xizmatkor va malaylar kamaymadi. Bularning hammasi Fotima tufayli edi.

Bu xonadonda Zulqarnayga murabbiylik va enagalik qiluvchilar oz emas ekan. Shu sababli Mahambet yigitlar bilan kun bo'yi ovga yoki soldatlar mashq qilayotgan mashg'ulot maydoniga borishi mumkin edi. Ofitserlar unga xonning yaqin kishisi deb o'zgacha hurmat va izzat bilan qarashardi. Uning qilichbozlik bobidagi chapdastligi va qo'rqmasligini havas bilan kuzatishar edi. Chapdast merganligini ko'rishgandan keyin esa ofitserlar uni o'z davralariga tortishdi. Ular orasidan ko'ngliga yoqadigan do'stlar topib oldi-da, o'z shogirdining ishlari bilan qiziqmay qo'ydi.

— Xo'sh, shahzodang qalay? Harbiy san'atni o'rganmoqchimi? — deb so'radi bir kuni boshqalarga qaraganda sirdosh bo'lib qolgan poruchik Shustikov.

— Qozonning qulog'ini qay tarafdan qo'yish degrez ixtiyorida, — javob berdi Mahambet.

— Bu gaping ruslardagi "har kim o'z qarichi bilan o'lchaydi" degan maqolga o'xshar ekanmi-a?

— "Ozod kishiga — ozodlik" deb tarjima qilsa to'g'riroq bo'ladi.

— Xo'sh, shahzoda qaydalar hozir?

— Muftiyning uyida yotibdi.

— Aytishlaricha, muftiyning ma'rakasini qaysaqlar ta'rif qilib yurishi uchun Kichik juz Sirim botirning vafotidan ikki yil keyin o'tkazgan ma'raka oshiga o'xshatib qilishmoqchi emish, shu rostmi?

— "Har kim o'z qarichi bilan o'lchaydi" degan maqolni shu yerda keltirish juda o'rinli bo'ladi. Xalq Sirimni o'z himoyachisi sifatida e'zozlar, muftiydan esa nafratlanardi. Uni faqat xo'ja va imomlargina yodlaydilar, xolos, — dedi Mahambet.

— Har kim o'ziga yarasha qadr-qimmatga ega. Men sizlarning muftiylaringizni bilar edim. Knyaz Volkonskiyning qo'lida xizmat qilgan Yermolayev uning eng yaqin do'sti edi. U ham xon muftiysi singari qonxo'r edi. Ha, uning omadi kelmadi, harbiy sudga duchor bo'ldi. Sizlarning muftiylaringizni esa Allohning o'zi tinchitib qo'ya qoldi. Har qalay, dunyoda hali adolat bor.

— Nikolay podshoning ofitserlarni dorga osishi-chi, bu ham adolatmi? — yasama anoyilik bilan so'radi Mahambet.

— So'zingdan isyon isi kelyapti, oqin! — dedi xavotirlanib Shustikov. So'ngra kulimsirab, u ham o'zini soddalikka solib javob qildi: — Bizning sobiq general-gubernatorimiz knyaz Grigoriy Volkonskiy janobi oliylari ham "Hamma narsa Xudodan", — deyishni yaxshi ko'rardi. U saxovatli odam edi. Shaxsan o'zi kazarmalarni kezib, askarlarning qorovulda qanday turishlarini tekshirardi. Bordi-yu savalanadigan hech kim bo'lmasa qattiq ranjirdi. Janobi oliylari askarlarni saf orasidan o'tkazib, ularni sumba bilan savalashni, ayniqsa, mujiklar yoki sizning qirg'iz-qaysaqlaringizni kaltaklashlarini tomosha qilishni g'oyat yoqtirar edilar. Shaxsan o'zlari hech qachon jazolamas, tomosha qilardilar, xolos.

Mahambet jim turardi.

— Sen dekabristlar haqidagi she'rni eshitganing bormi? — deb so'radi beixtiyor Shustikov.

— Dekabristlarning o'zi kim?

— Hozirgina o'zing gapirgan ofitserlar o'shalar-da. Nikolayga, podshoga qarshi bosh ko'targanlar. O'sha kezlarda o'zing Peterburgda ekansan-ku...

— Men maydonda bo'lmagandim. Faqat zambaraklarning sadolarinigina eshitganman, — dedi Mahambet.

— O'sha ofitserlar podshoning farmonini buzib, o'z polklarida askarlarni savalash jazosini bekor qilganlar. Sening oliymaqom xoning Jangir esa, hozir hattoki o'z navkarlarini sumba bilan savalattiradigan bo'lganmish. Shu rostmn?

— Bizda sumba yo'q!

— Sumbadan battarroq tegadigan qamchi bilan savalangan yigitlarni o'z ko'zim bilan ko'rganman. Ularni shu yerda, Orenburg bozorida sotishdi, — dedi Shustikov.

— Kim sotdi?

— Xon hazratlarining yasovullari.

— Kimga?

— Baribir emasmi? Xohlagan odam olaveradi-da. Bu to'g'rida qonun bor. Knyaz Grigoriy Volkonskiy 1806-yildayoq ichki

ishlar ministrligiga shu masalani qo'ygan edi. Graf Pototskiy esa, pomeshchik yoki savdogar o'z krepostnoyiga qanday munosabatda bo'lsa, sotib olgan qaysaq ustidan ham xuddi o'shanday huquqqa ega bo'lishiga erishgan edi. Masalan, uni itga almashtirsa ham ixtiyori o'zida. U, hatto qaysaq bolalarini sotib olganlarni rag'batlantirishni talab qilgan edi.

— Qozoqlar o'z bolalarini sotmaydilar. Tutqunlarnigina sotish mumkin! — dedi Mahambet. Lekin u Shustikovning haqiqatni gapirayotganini bilib turardi. U Jangirning o'zboshimchaligi hamda zolimligiga shama qilayotgandi.

— Hech kim bolasini o'z ixtiyori bilan sotmaydi, Mahambet. Yetim qolgan bolalarnigina sotishadi. Ularni och-yalang'och ovullardan, dashtlardan olib kelishadi. Men buni ro'yxatlardan bilaman... Yersiz-yaylovsiz qolgan cho'ponlar biz tomonga, Yoyiq ortiga o'tmoqdalar. Kazaklar esa ularni yana orqalariga quvmoqdalar. Butun boshlik ovullar ochlikdan qirilyapti. Tirik qolganlar esa yetim-yesirlarni atayin, omon qolarmikin degan umid bilan sotyaptilar...

Shustikov tap tortmay, ochiq-oydin gapirar, Mahambet miq etmasdi. Bu o'rinda tortishuvning, achchig'lanishning hech hojati yo'q edi. U quloq berib tinglar, g'azabini so'ndirish uchun bosib-bosib vino ichardi.

Bir vaqtlar keksa oqin Oqtomberdining[1] og'zidan eshitgan o'lan baytma-bayt yodiga tushdi:

Qachon payti kelarkan —
Yuganlab bedov otni,
Ko'krakka kiyib sovut,
Yov ortidan izma-iz
Yo'llamoqqa nayzani?!

U kayf qilmas edi. Ichgani sari zehni o'tkirlashib borardi. O'sha tongda Isatoydan kelgan xat esiga tushdi. Isatoy shunday yozgan edi: "Oqinlar xalqning erka farzandlari, lekin ular xalqning hurmati va umidini oqlamasalar, qarg'ishga qoladilar. Dashtning

[1] **Oqtomberdi** — Nayman urug'idan chiqqan oqin (XVII asr oxirlari).

taomili shunday. Oqinlardan na Qaztug'an[1], na Sholkiyiz va na Jiyembet[2], na Tattiqora va na Buxorjirov[3] xon haqida qasida yozib hayot kechirgan". Bu so'zlar uni hayajonlantirar, Isatoy bilan so'nggi bor uchrashuvi ko'z o'ngida qayta-qayta namoyon bo'lardi.

Mahambet yolg'iz, bir o'zi qolishni istardi...

Orenburgga kelgan og'asultonlardan biri uni muftiyning tashqari bog'ida yolg'iz o'tirganida uchratib, taxt merosxo'rini tarbiyalash masalalariga uncha e'tibor bermay, o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qolgani vajidan xonning qattiq g'azablanayotganini aytdi. Mahambet sultonni a'yon-u mulozimlari oldida haqorat qildi va Shustikovning uyiga ketdi. U yerda Jangirxonga dushman sulton Qayipg'ali xonga qarshi isyon ko'targanini eshitdi. Bu xabar general-gubernator mahkamasiga bugun yetib kelibdi.

Mahambet muftiyning uyiga qaytgach, yigitlarga otlarni egarlashni buyurdi.

* * *

...U o'rdaga qaytarkan, bundan buyon nima qilarini bilmas edi. Faqat bir narsa — ko'ziga yomon ko'rinib qolgan xon saroyini endi bir umrga tashlab ketajagi ayon edi.

Dasht yo'llarida, xuddi bugun ko'rgani — Jayxun sohillaridagiday, qashshoq ko'chmanchilar duch kelib turardi. Birovlar Yoyiqning narigi tomoniga, birovlar berigi tomoniga o'tishga intilishardi. Yer va yaylovlardan mahrum etilgan ovullar tinch joy axtarib ovora-yu sarson edilar. Boylar ularni daryo va o'zanlar, dengiz va ko'llarga yaqin yerlardan quvishardi — endilikda bu yerlarga qo'lida xon yorlig'i bo'lgan boylar, sultonlar, xon avlodlari ega bo'lgan edilar. Turg'unlarning ostidagi otlarini, tuyalarini, hatto so'nggi qo'ylarigacha tortib olardilar. Xon navkarlari, yasovullari va muntazam qo'shin istehkomlaridagi kazaklar erkaklarni zo'rlab olib ketar, qiz-juvonlarning nomusiga tegardilar. Qashshoq ovullar

[1] XV asr

[2] XVI asr

[3] XVIII asr

zolimlarning ko'zlariga ko'rinmaslik uchun katta yo'llardan chetlab, dasht-u sahrolarga ichkarilab ketardilar...

Mahambet ko'chmanchilar manzillarida to'xtamadi. U o'z o'ylari bilan band bo'lib, hech kimdan hech narsa so'ramay, yo'lda ketaverdi.

Mahambet va do'stlari ikki kunlik safardan keyin Yoyiq qal'asidagi bekatga yetib keldilar va otlarini almashtirib, o'rdaga olib boruvchi to'g'ri yo'lga chiqib oldilar. Ular o'rmon ichkarisida suv yaqinida dam olish uchun to'xtagan shektilarning kichikkina ovuliga duch keldilar. Juldur kiyimli, oyoqyalang bolalar otliqlarni ko'rishlari bilan aravalar tagiga biqinib oldilar, xotinlar esa darrov o'tlarini o'chirib, qaqir-ququrlarini yig'ishtirib, tuyalarga orta boshladilar, erkaklar esa sergaklanib, to'planib turdilar.

— Qay yerlardan bo'lasizlar, qay tomonlarga yo'l oldinglar? — so'radi Mahambet.

— Biz ko'klamda yo'lga otlangan edik. Ota-bobolalarimizdan qolgan yerlar allaqaysi atamanga yoqib qolibdi. Endi qay yerni maskan qilishimizni bir Xudoning o'zi biladi, mirza, — dedi bir chol. — Tushovlangan ot kabi sarson bo'lib yuribmiz. Edil bo'ylariga borgan edik, podshoh yeri deb nariga o'tkazmadilar. Yoyiqqa borgan edik, yer o'zimizning qozoqniki bo'la turib, istehkomlar qurib, parchalab tashlabdi, u yoqqa ham yaqin yo'latmadilar. Chegaradan o'tish mumkin emas ekan. To'xtasak, haydadilar, senlarning yerlaring emas, deydilar... Endi birgina yo'limiz qoldi, qum barxanlari orasidan boshpana izlaymiz. Bisotimizda na chorva, na yemish qoldi. Yo'lda ikki qariyamizni, bir necha yosh bolani yerga qo'ydik, mirza. Hozir esa sizni biron arzigulik narsa bilan mehmon qilolmay xijolat chekib turibmiz. Shafqat qiling, aybga buyurmang... — deb yuzi chandiq qotma chol, ovul oqsoqoli Mahambet otining tuyoqlari ostiga tashladi o'zini. Bolalar qo'rqqanlaridan yig'lab yubordilar. Bu ayanchli, dahshatli bir hol edi. Odamlar mehmon qilishga qudratlari yetmaganlari tufayli jazolanishdan qo'rqayotgandilar. Bu bechoralar umrbod xavotir-u dahshatda yashaydilar. Har bir otliq bularga shumxabar elchisi bo'lib ko'rinadi. Ular yo'lda yo'liqqanlardan o'lguday qo'rqadilar...

* * *

Mahambet endi ko'chmanchilarga yo'liqmaslikka, uchrab qolgan mazgillarini aylanib o'tishga harakat qildi.

Orenburgdan safarga chiqib, bir necha kun yo'l bosgach, O'rdaga yetib keldilar.

— Xuddi jang maydonidan yuborilgan choparlardan tez yetib keldik, — dedi Mahambetning hamrohlaridan biri qum tepalari ortida nogahon namoyon bo'lgan Jasqusga ko'zi tushib. — Shunday uzoq yo'lni bosib o'tish oson emas, albatta. Yoyiq bilan Edil oralig'idagi masofani bosib o'tdik hisob...

Tepadan vodiy bag'oyat xushmanzara ko'rinardi.

Aylanasi oltinday qum tepalari bilan qurshalgan yam-yashil vodiy bag'rini bug'doyzor-u sulizorlar, ko'm-ko'k o'tloqlar, oynaday bulog'-u sersuv anhorlar, qalin butazorlar qoplagan, uyur-uyur yilqilar-u poda-poda mollar o'tlab yuribdi, ovullar bodroqday bodrab yotibdi... Lekin hammasidan ham yo'lovchilarga qal'a yaqin ko'rinardi. Barcha yo'llar o'sha yerda tutashgan. Mahambetni ovulga olib boradigan so'qmoq ham o'sha yerdan boshlanadi. Bu yerdan chor atrofga taralgan yo'llar go'yo hamma cho'llar-u yaylovlar uzra tashlangan to'rday tuyuladi.

Qal'aning mustahkam va baland devorlari ostidagi chuqur choh olisdan sezilmaydi, yashil devorlarning o'zi ham baxmal vodiy bilan qorishib ketganday. Faqat saroygina yaqqol ajralib turibdi. Kiraverishda oq marmardan ishlangan hashamatli olti ustun yaraqlab ko'z nurini oladi. Saroy bag'oyat hashamdor va ulug'vor. Uning ikki yonida xon qarindoshlarining hovlilari joylashgan. Undan keyin yarim doira shaklida qurilgan binolarda xizmatkorlar va qo'riqchilar yashaydilar, undan naridagi bog'-rog'lar tegrasi devor bilan qurshalgan, devor ortida esa qamoqxona-yu zindonlar joylashgan, u yerlarda tutqunlar azob chekadilar-u jallod hukmronlik qiladi...

Ot tuyoqlari Jasqusning mayin maysazorlariga yetib kelganida yaqindagi qalin butazordan bir gala qush gurullab ko'tarildi. Ular ketidan qarchig'ay quvib borardi.

— Eh attang, sadoq bo'lmadi-da! — dedi achinib yoshgina qurolbardor.

— Qo'lingda kamalaging yo'qligiga ham shukur qilaver, bo'lmasa tegizolmay sharmanda bo'larding. Qarchig'ayni urishni senga kim qo'yibdi?! — hazillashdi boshqasi.

Qaydadir hur, ozod bir qarchig'ay bor,
Unga makon erur moviy qayinzor.
Yuksakka qo'nib u — hilolga yaqin,
O'ziga to'qiydi shoxlar aro in.
Men ham qarchig'aydek o'sdim hur, ozod,
Meni ishonch bilan siyladi hayot.
Vatanni tanlamish bizga ajdodlar,
Demak, ushbu tuproq eng aziz, gavhar,
Bunda ular ruhi bo'lsin barhayot...

Yosh qurolbardorning ovozi qo'ng'iroqday jaranglardi. U Mahambetning o'lanini yoddan o'qir edi. Uning berilib o'qishi Mahambetga yoqdi.

— Yasha, yashavor! Davom etaver! Jasqusga o'lan aytib kiramiz! — deyishdi yigitlar. Ostilaridagi otlari ham manzilga yetib kelganlarini sezib kishnab, ildamlay boshladi.

— Mahambetdan iltimos qilamiz, safarimiz tugayotgani sharafiga yangi o'lanlaridan o'qib bersin! — bo'sh kelmadilar do'stlar.

— Yigit kishi o'z yo'li qayerda tugashini bilganmi? — so'radi Mahambet. U do'stlariga bir-bir qarab chiqdi-da, Jasqus tomon nigoh tashladi.

Qaydadir yuksakda oydin bir ko'l bor,
Unga yeta olmas na ot, na tulpor!
Tubi qand, asalga kon emish abad,
Oqqushlar tark etmas emish shu sabab!

U bir daqiqa jim turib, o'ychan qiyofada yana davom etdi:

Oddiy xalq ichida shundaylar ham bor —
Tenglasholmas boylar farzandi zinhor.
Hayotda eng og'ir kunlar bo'lar goh,
O'tishi yil qadar — dilgir va uzoq...
Tushunmoqqa qodir ushbu so'zlarim —

Mening chorlovimni qabul etsa kim
Va menga maslakdosh, hamrohlar bu chog'...

Yigitlar bir-birlariga qarashdi. Oqinning gaplari jumboqli edi. Lekin shu payt qarshilarida bir-birovini quvib-yelib kelayotgan otliqlar paydo bo'ldi.

— Tinchlikmi? Yaxshilikka yugurishyaptimi o'zi yigitlar? Hoy yigitlar, bu qanaqangi poyga? — qichqirib suradi Mahambet.

— Poyga ertaga, chaqqonlik va jasurlik namoyishi ertaga bo'ladi! — dedi baland bo'yli yigit oti jilovidan tortib turib.

— Assalomu alaykum, oqin og'a! Ziyoratlar qabul.

— Murod hosil, inim. Isming nima? — so'radi Mahambet.

— Ismim Umar, Jappas urug'ining botiri Norimboyning o'g'liman. Otam yakkama-yakka olishganda talay marta yo'lbarslardan g'olib chiqqan. O'zim Jantasning yuzligidanman. Jantas sizni sog'ingan, ko'zlari to'rt bo'lib kutyapti sizni. Ertaga bizning yuzlik Masqar urug'ining yigitlari bilan bellashadi. Otlarimiz ko'pdan beri yugurmay oyoqlari qarishib qolibdi, shu sabab chigillarini yozdiryapmiz. Ularni tunda qantarib qo'yamiz, ertaga och qolgan bo'riday yengil yelishadi...

— Anavilar-chi, ular kimlar? — deb so'radi Mahambet qal'adan uzoqlashayotgan yuksiz karvonni ko'rsatib.

— Ular Sho'mekey urug'ilik yalangoyoqlar. Xonga qarzlarini, bizga esa — xizmatkor va otboqarlar keltirishdi. Oqsoqollari xonni kutib qolishdi, xonga arzlari bor ko'rinadi. Xon bo'lsa hozir ovda.

— ...Yaxshilab parvarish qil, dam olsin — qornini to'ydir, sug'or. Ertaga tush paytiga safarga hozir bo'lsin! — deb buyurdi Mahambet ostidagi otini Umarga tutqazar ekan.

— Hali kelib ulgurmasingdan, yana safarga otlanmoqchimisan? Yana qayerga? — deb so'radi yonida turgan Jantas.

— Ovulga,

— Ha-a... tushunarli. Maqbol yoniga shoshilyapsan. Yaxshisi, uni shu yerga keltiraqol.

— Men endi Jasqusga qaytmayman, — dedi Mahambet.

— Gapingga tushunolmadim, Mahambet, — dedi Jantas.

— Hammasini bilmoqchi bo'lsang — mehmonga chaqir...

Oqin bilan ko'rishib-omonlashgani yigitlar Jantasning uyiga to'planib, yarim tunda tarqaldilar. Mahambet ketishining sababini baribir Jantasga aytmadi. Aytishining foydasi ham yo'q edi. Chunki, oldinda nimalar kutayotganini o'zi ham bilmasdi.

— Mahambet, nega xomushsan? Orenburgda biron gap bo'ldimi? Yoki bo'lmasa yana xon haramiga kirishni qo'msayapsanmi? Unday bo'lsa, men yana qorovullik qilishga tayyorman. Balki, Fotima ham kutayotgandir, — dedi ayyorona ohangda Jantas oqinni kuzatayotib.

— Sen har qachongiday xushchaqchaqsan. Qo'y, kelganimni bilmagani tuzuk...

— Kelganingni allaqachon bilgan. Uni aldab bo'psan. Nima, sen xondan ruxsatsiz keldingmi?

— Ha.

— Uning merosxo'ri qayoqda qoldi?

— Orenburgda.

— Bu yerga nimaga kelding unda?

— Sen bilan xayrlashgani...

— Xo'sh, xonning panohida yashashni xohlamaysanmi?

— Mening o'z boshpanam bor.

— U yerda turmush yaxshiroq bo'larmikin?

— Erk-ixtiyorim o'zimda bo'ladi.

— Erk — ozod hayot demakdir. Shunday ham sen oramizda eng erkin qushsan. Aytgan so'zing sultonlarning ham, boylarning, xizmatkorlarning ham og'zidan tushmaydi. Qarshingda boylar ham bosh egadi, xotinlar seni ko'rsa "oh" uradi. Sen yana Qayipg'ali sultonning yo'lidan ketayotgan bo'lmagin. Ha, aytmoqchi, biz uni qo'lga tushirgani lashkar to'plamoqdamiz.

— Yaxshi qol! — deya uning so'zini bo'ldi Mahambet.

* * *

Qal'adan ikki chaqirim chamasi masofada, ko'm-ko'k maydon etagidagi tepacha ustiga tikilgan ipak chodir oldida, olis safarda qulay bo'lishidan ko'ra ko'proq Fotimaning injiqligi tufayli yasattirilgan charm o'rindiqda Jangir o'tiribdi. Fotimaning o'zi esa

kanizaklari bilan chodir ichkarisida o'tiribdi. Xon harir ko'ylagi ustidan kimxob to'n tashlab olgan. Ko'ylagi ham, to'ni ham quyosh nurida yarqiraydi. Tugmalari asl toshlardan, oyog'ida sahtiyon etik. Yonidagi yostiq ustida Damashq qilichi va Peterburgdan keltirgan general mundiri yotibdi... Shaxsiy soqchilari va xizmatkorlari xizmatiga muntazir turibdilar.

Jangir dam olmoqda. U shikordan tunda qaytgan, bugun u o'z navkarlarining o'ljalarini ko'zdan kechirmoqchi, Boyo'g'li urug'ining yosh sultonlari bilan boylari tizilishib turishibdi. Bu kun o'rdaga yig'ilgan atoqli oqsoqollar yonida rus qo'shinining sobiq jangchisi, Parijni ishg'ol etgani uchun nishon bilan taqdirlangan keksa Norinboy, uning yonginasida uzoq Jiydali ovulidan chiqqan, Borodino jangi qahramoni, yoshligida Akim deb nom chiqargan, jasurligi uchun Kutuzovning qo'lidan mukofot olishga sazovor bo'lgan Ollayor oqsoqol turibdi. U hozir ham general-gubernator xonga bergan yuzlikka boshchilik qiladi. Norinboy bilan Ollayorni xon iste'foga chiqqan knyaz Volkonskiy o'rniga tayinlangan general Essenga ko'z-ko'z qilgani chaqirtirgandi. Yangi general-gubernator xon huzuriga ertaga keladi. Bugun esa yigitlar mashq qilish-yapti...

Yam-yashil yaylovda yigitlar safga tizila boshladilar. Adir bag'rida Sho'mekey urug'ining qashshoq ovullaridan kelgan oqsoqollar atrofga alanglab, ammo o'z qadr-qimmatlariga munosib tarzda, erkin odamlar ekanligini ko'rsatmoqchiday, viqor bilan turishibdi.

— Anavi homiylarga borib ayt: ovullaridan farmonimizda ko'rsatilgan qo'y-yilqilarni haydab keltirmagunlaricha shu yerda qoladilar! — dedi xon jarchisiga. — Unga qadar bular hibsga olinsin!..

— Qilichbozlikni boshlasa bo'ladi, hazratim! Navkarlar shaylanib turibdilar, — axborot berdi Jantas xonga. — Ulardan keyin bizning yuzligimiz masqarlar bilan bellashadi...

Xon indamadi. Bu payt chodirga Mahambet yaqinlashib kelmoqda edi. Jangir oqinning o'zboshimchaligidan darg'azab edi. Mahambetning Orenburgdan kelganini va o'z ovuliga jo'nashga hozirlanayotganini xon bugun erta bilan eshitgan edi. Xon uni ushlab, huzuriga keltirishlarini buyurgan edi. Xon boshqalarga qiladi-

gan muomalasini faqat Mahambetgagina qila olmas edi. Oqinlar bilan nizolashish obro‘ keltirmasligiga aqli yetardi. Lekin bugun g‘azab kosasi limmo-lim to‘lgandi. Mahambet yosh Zulqarnayni Orenburgda yolg‘iz qoldirib, o‘zi qaytib kelibdi. U o‘ziga erk berib, haddidan oshyapti...

Oqin tepalik etagiga kelib, otini to‘xtatdi. U Sho‘mekoy oqsoqollariga ta’zim qilib salomlashdi.

— Qulog‘im senda, Jangir! — degan ovozi yangradi uning.

— Yoningda taxtimning merosxo‘ri, yosh mirzangni ko‘rmayapman, — dedi xon g‘azabini yashirishga urinib.

— U Orenburgda qoldi.

— U holda sen nechun bu yerdasan! Yoki sen, shahzodaning xizmatkori, o‘zingni manavi sultonlardan ham ulug‘roq deb o‘ylaysanmi? — dedi Jangir atrofidagi a’yonlarini ko‘rsatib. — Mahambet, o‘z o‘rningni bil! Shafqatimning ham cheki bor! Zudlik bilan Orenburgga qayt! Biz, Jangirxonning amrimiz shunday!

— Xonliging ham, farmoning ham o‘zingga, Jangir! — degan ovozi yangradi Mahambetning.

Hamma jim bo‘lib qoldi. Fotima chodiridan chiqib, ostonada turib qoldi. Quyosh nuri egnidagi libosida jilva qilardi. Yigitlar safi tek qotdi, sultonlar sergak tortdi. Xon esankirab so‘z topolmay qoldi.

— Jangirxon, sen xalqning la’natiga uchrading! — Mahambetning ovozi vodiy uzra yangradi. Allavaqtlardan beri qalbida yashirinib yotgan so‘zlar bugun yengilgina, beixtiyor otilib chiqqan edi. — Sen meni o‘z sultonlaringga tenglashtirding, — derdi u. — Qani, endi javob ber:

Aytgin, kim zarurroq ona Vatanga —
Oqsuyak bir to‘da itvachchami, yo
Xalqning mard o‘g‘limi — otlanib jangga,
Yovlar qarshisida yuzma-yuz tanho.
Bizning e’tiqodga fido etib jon —
Yurtiga keltirgan adolat va shon?!

— Bas qil, tiling kesilgur! — o‘shqirdi xon esini yig‘ib olib. — Sen kimni dushman demoqchisan?!

— Seni, Jangir! — dedi Mahambet va Sho'mekey urug'i vakillarini ko'rsatib: — Agar xon bo'lsang bularni ozod qil. Qozoq hech bir zamonda oqsoqollarni garovga qo'ymagan.

— U haqli. Boshni tanadan judo qilish mumkin-u, ammo tilni kesib bo'lmaydi. To'g'ri so'zga doim tan beradilar. Qariyalarni bo'shatib yuborsinlar, hukmdor!.. — dedi Norinboy do'rillab.

— Hoy yigitlar! Oqsoqollarga ot keltiringlar! — dedi Mahambet xursand bo'lib, ot yetaklab turgan otboqar yigitlarga. Ular dovdirab qolishdi. Sho'mekeylik qariyalar bundan ruhlanib ketib otlar tomon tashlandilar, barvasta bir chol oldinda borardi. U bir sakrab otga minib oldi.

— To'xtalaring! — deya o'rnidan sapchib turdi Jangir, qo'lidagi oltin cho'qmori — hukmdorlik ramzi — quyoshda yarqirab ketdi.

— Hoy, Jangir! — deya murojaat qildi sho'mekeylarning boshlig'i. O'zingni bos. Sen hozir meni jazolashing mumkin, lekin Yaratganning o'zi guvoh, Mahambet haq bu yerda!

— Akim botir, yuzliging qani?! Hammasini bog'langlar! Qamchi bilan savalanglar! — Xon cho'qmori Mahambetga qaratildi.

Mahambet ostidagi otini ko'kka sapchiguday o'ynatib, qariyalarga qarata:

— Oqsoqollar, qani yo'lga! — deb qichqirdi.

Sho'mekeylar otlarga qamchi bosdilar, Akimning yuzligi ular ortidan ot soldi.

— Yigitlar, ketdik! — deya Jantas o'z yuzligi bilan Mahambetni qurshab, uning bilan birga jo'nadi. Mahambet yeldek uchib oldinga o'tib oldi-da, yigitlarni Akim yasovulning askarlari izidan boshladi. Askarlar miltiqlarini qo'lga olib, ot ustida tepkilarni to'g'rilay boshladilar.

— To'xtat! To'xtat! — deb buyruq berardi Jantas yigitlari orasiga tushib qolgan Akim. U o'z askarlarini otliqlar orasidan zo'r-bazo'r olib chiqdi.

Sho'mekey qariyalari choh-u ariqlardan o'tib, bug'doyzor, butazorlarni ortda qoldirib, tobora uzoqlashar, ular izidan, adirga yoyilib, qum barxanlari sari Mahambetning do'stlari yelib borardilar.

Jangir g'azabi oshib, quturayozdi. O'sha kuni xon general-gubernatorni kutib olgani yo'lga chiqdi. Ertasi kuni Essen bilan salom-alikdan keyinoq, "o'g'ri, sotqin va buzg'unchi" Mahambetning yuz yigitni ergashtirib qochib ketganini xabar qildi. Shu yerning o'zidayoq u generalga murojaat qilib, qal'a himoyasini kuchaytirish uchun qo'shimcha askar so'radi.

O'z qo'shinlari ichida g'alayon chiqishidan qo'rqqan Jangirxon qozoq yuzliklarini rus qo'shinlari istehkomlariga jo'natdi, ular o'rniga jazo otradlari — rus askarlari va kazaklardan qurama yuzliklar tuzdi. Jangirxon ayrim qismlarni joylardagi sultonlarga madadga yubordi.

Mahambet oqin Jangirxonga oshkora qarshi chiqibdi, degan xabar tezda ovuldan ovulga tarqaldi. Ovullar birin-ketin xon va sultonlarning hukmdorligini inkor eta boshladi. G'alayonchilar o'zlariga rahnamo izlardilar. Ularga podshoh soqchixonalari va istehkomlarini oralab, Yoyiqning narigi tomoniga, podshohning jazo otradlari va Jangirxon zakotchilari ko'zidan nariroqqa, poyonsiz Sariorqa dashtlariga, Kichik juzdagi qavm-qarindoshlari yoniga boshlab bora oladigan kishi kerak edi. Bunday odam topilganday bo'ldi.

Yesimning o'g'li — Qayipg'ali sulton Jangirdan jabr ko'rganlarning xaloskori bo'laman deya jar soldi. U xalqni sharqqa, Yoyiqning orqa tomoniga boshlab borishga, Kichik juz va O'rta juz xonlarining rizoligi bilan ko'chmanchilarga hech qanday chek qo'ymaydigan yangi xonlik barpo etishga va'da berdi.

Tana, Sherkesh, Sho'mekey, Shekti urug'larining alamnok oqsoqollari, xonavayron bo'lgan Masqarlar bilan ketelar, yetti urug': Kerderi, To'lov, Jag'alboyli, Tabin, Tama va Kreylarning qochoqlari to'planib, Qayipg'aliga umid bog'ladilar. Lekin Bo'key o'rdasidagi boshqa urug'larning sulton va boylari Jangirxon homiyligida bo'lganliklari tufayli shoshilmas, oxiri nima bo'lishini kutishardi.

Bundan ilgariroq Qoratoy sultonning g'alayonida qatnashgan ovullar ham sabr qilib turardilar. Ular g'alayon vaqtida o'z farzandlaridan judo bo'lgan, mol-hollaridan ayrilgan hamda podshoh jandarmlari, xon ayg'oqchilari nazorati ostida yashar edilar. Ular deyarli o'n besh yil Qoratoy bilan birga bo'ldilar. Uning buyrug'iga

itoat etib, Hindiston, Eron, Buxoro va Afg'oniston karvonlarining Rossiyaga boradigan yo'llarini kesib qo'ydilar. Barcha yo'llar ularning izmida edi, podshoh qo'shinlari bularni hech ushlay olmasdilar. Ular Qoratoyning so'ziga kirib, qilich va o'q-yoy bilan zambaraklarga qarshi turdilar. Xon taxtiga o'tirolmagach, Qoratoy ularni jazo otradlari changaliga tashlab ketdi.

— Qarg'a qarchig'ay bo'la olmagani singari, sulton ham hech qachon xalq himoyachisi bo'la olmas ekan, — der edilar ular. — Mayli, Qaybola oldin qo'lidan qanday ish kelishini ko'rsatsin, so'ng unga qo'shilamizmi-yo'qmi, o'ylab ko'ramiz...

Bersh urug'ining ovullari ham shoshilmadilar. Ular kambag'al urug'doshlarini himoya etgani uchun oq podshoh qamog'i va xon iskanjasining azob-uqubatlarini totib ko'rgan, barcha oqsoqollar orasida eng tadbirkori hamda eng donosi Isatoy oqsoqolning nima deyishini kutardilar. Biroq Isatoydan sado chiqmasdi.

Jangir changalidan qutulib chiqqan Mahambet Isatoyning huzuriga bormoqchi bo'ldi, biroq uni axtarib topa olmadi. Isatoy o'z ovulini olis-olislarga boshlab ketibdi. U xon bilan uch marotaba tortishib qolganidan keyin ehtiyotkor bo'lib qolgan edi.

Mahambet o'zini himoya qilib kelayotgan yigitlar bilan xayrlashdi. Sho'mekey oqsoqollar ham o'z yo'llariga jo'nashdi. Oqin bilan Jantas hamda o'n nafar sodiq yigitlar qolishdi.

Ular Mahambetning ona ovuliga yo'l oldilar. Mehmonlarni oqinning og'a-inilari izzat-hurmat bilan kutib oldilar. Maqbolning quvonchi ichiga sig'masdi. Lekin qochoq oqinni tutib keltirish uchun cho'lga navkar yuborilgani haqidagi mish-mish yosh-u qarini tashvishga solib qo'ydi. Og'a-inilar otlarini shaylab, qilich va nayzalarini charxlab, sovut-qalqonlarini sozlab, pilta miltiqlarini tozalab, ehtiyot choralarini ko'rishga tushib ketdilar. Mahambetning o'zi esa qavm-qarindoshlarini xavf-xatardan qutqarishni o'ylab, oqsoqollardan ovulni yashiriqcha qumlik ichkarisiga ko'chirib ketishni iltimos qildi.

Zim-ziyo bir tunda oqin huzuriga Qayipg'ali sultonning choparini boshlab keldilar:

"Men jigarimga duoyi salom yo'llayman, — deb boshlagandi o'z nomasini Qayipg'ali. — *Kichik juzdagi barcha ovullar-*

ning og'zida sen Jangirga aytgan so'zlar doston bo'lib yuribdi. Men unga qarshi qilich ko'tardim. Jangirning g'animlari bo'lmish barcha sultonlaru biylar men bilan birga. Mening o'tovim — sening o'toving, mening sarbozlarim — sening sarbozlaring. Bersh urug'ining dovyurak botiri va tengi yo'q oqini, men senga iltifot bilan qo'l cho'zmoqdaman... Jangirning o'z tozisi sulton Boymag'ambetga seni qo'lga tushirish hamda zanjirband etishni buyurganidan xabardorman. Boymag'ambet navkarlari izingdan bormoqda. Sen mening huzurimdangina panoh topa olasan..."

Mahambet maktubga javob qaytarmadi. U yigitlarni to'pladi-da, Boymag'ambetning yo'liga chiqdi va u tushgan manzilni aylanib o'tib, erta tongda sulton manzilgohiga qo'qqisdan hujum qildi. Yigitlar soqchilarni gumdon qilib, navkarlarni qurolsizlantirdilar, sulton chodirini to'ntarib yubordilar.

Sulton Boymag'ambet oqin qarshisida yarim yalang'och, titrab-qaqshab turardi. Mahambet uning qo'lidagi qilichni, ostidagi tulporini tortib oldi-da, hamma ot-ulovlarni haydab olib ketdi. Sulton navkarlari sharmanda bo'ldi.

Boymag'ambetga Qorovulxo'ja sultonning otradi yordamga keldi, ammo Mahambet tutqich bermadi.

U ovullarga chopar yuborib, bundan buyon duch kelgan sultonning mollarini tortib olajagi hamda ularni kambag'allarga bo'lashib berajagini, sulton yaloqxo'rlarining har bir qotilligi, har bir nojo'ya qilmishi javobsiz qolmasligini xabarladi.

Mansabdor sultonlar, Jangirning o'zi, ayniqsa, Orenburg o'lkasining harbiy gubernatori general Essen, Mahambetning hamlalaridan emas, balki uning isyonkor o'lanlari avom xalqning ongini og'ulashidan g'oyat cho'chir, shu sababli uni tezroq imi-jimida yo'q qilib yuborishga shoshilardilar.

Ular Mahambetning Qayipg'ali sultonga qo'shilishi va isyonkorlar qudratli kuchga aylanib qolishidan bezovta edilar. Urug'larning birlashishiga yo'l qo'ymaslik, aksincha, oraga nifoq solib qon to'kish, bir-birovlariga xundor dushmanga aylantirib qo'yish yo'llarini izlardilar...

Mahambetning sarbozlari orasiga Shekti urug'idan yollangan ayg'oqchilarni, shekti ovullariga esa bershlardan xonga yollan-

ganlarni yo'lladilar... Ayni vaqtda general Essen Jangirdan yashirin kazak polkovnigi Donskov razvedkasi orqali Qayipg'ali bilan muzokaralar olib bordi.

Polkovnik Donskov isyonkorga, basharti u zudlik bilan ovullarni o'z tevaragiga birlashtirib, Yoyiq daryosidan o'tolsa, ma'lum miqdordagi pora evaziga Kichik juzning yo'lini yechib berajagini xabar qildi...

Hammadan oldin shektilar yetakchisi, yigitlik chog'larida ming yigitga boshchilik qilgan, jazo otradlariga qarshi kurashgan, Rossiya bilan savdo qiladigan Buxoro savdogarlarini shektilar yeridan o'tgani uchun boj to'lashga majbur etgan keksa botir Doston qo'lga olindi.

Dostonni kuchaytirilgan soqchilar kuzatuvida Yoyiq qal'asiga, Shing'ali sultonning ixtiyoriga esa besh yuz nafar kazak jo'natildi. O'sha kuniyoq, Dostonni ushlab berishga bershlar ko'maklashibdi, general Essening askarlari esa uni xalos etib, ilgarigi ishlarini tekshirmoq uchun qamoqqa olib ketibdilar, degan uzunquloq gaplar ovullardan ovullarga tarala boshladi.

...Mahambetni ham yarim tunda, ta'qibchilar yo'qligiga inonib, yigitlarini vaqtincha uy-uylariga jo'natgan va o'zi turg'unlarning qashshoq, kichik bir ovulida qo'nib qolgan paytda qo'lga tushirdilar. Boymag'ambetning yasovullari qo'lini qilichiga uzatgani qo'ymayoq bandi qildilar uni. O'tov ortidagi pichan g'arami ustida uxlab yotgan Jantasni Maqbolning dodlashigina qutqarib qoldi, biroq u Mahambetni qutqara olmadi, faqat Maqbol bilan kichkintoy Musani olib, chekinishga majbur bo'ldi.

Mahambetni Kalmikovo qamoqxonasiga olib ketdilar, o'sha zamonoq ovullarga, uni shektilar bilan adaylar ushlab berdilar, degan gap tarqatdilar.

Jangirxon mamnun edi. U navkarlari va atamanlarni ta'minlash, sovg'a-salomlar in'om etish niyatida soliqlar miqdorini yanada ko'paytirdi. Jangirxon bilan general Essenning quvonchdan og'zilari quloqlarida edi.

Bulardan oldingi hukmdorlar isyonchi Qoratoy sultonga qarshi o'n besh yil kurashgan, hatto unga yon berib, qimmatbaho sovg'alar

berishga majbur bo'lgan edilar. Bular esa bir kuzning o'zidayoq Ichki o'rdadagi barcha buzg'unchilarning jazosini berib qo'yish umidida edilar.

Mana endi bershlar bilan shektilar orasida qirpichoq boshlanishini, Qaybola sultonning esa g'alayonchi ovullarni birlashtirib, Yoyiq tomon boshlab kelishini kutish qoldi, xolos.

Lekin xon ham, general ham yanglishgandi. Bershlar shektilarga qarshi urush boshlamadi. Ularni tutqich bermas, bo'yin tovlamas Isatoy tiyib qoldi. Undan tashqari, keksa botir Doston ham qaysi yo'l bilandir o'z elini uni bershlar tutib bermaganidan ogoh qilib qo'yishga ulgurgan edi. Buning ustiga, shektilarning atoqli botirlari Ketibor bilan Arslon, adaylar botiri Suyunqora bir ovozdan Jangirxonni xalqiga xiyonat qilgan muttaham sifatida xon deb tanimasliklarini e'lon qildilar. Endi xon qanday bo'lmasin, shektilarning Qaybola sulton lashkarlariga qo'shilishiga to'sqinlik qilishi kerak edi. Shu tariqa general Essenning polklari kutilmagan bir paytda shekti ovullariga bostirib kira boshladi.

Zambaraklarga qarshi qilich, miltiqlarga qarshi nayza... General Essenning minglab askarlari bilan kazaklariga qarshi ozginagina yigitlar qo'zg'algandi. Ular urug' bayrog'i ostiga birlashishga ulgura olmagan edilar. Tajriba orttirgan atoqli botirlardan Ketibor bilan Arslon omon qolgan ovullarni iz qoldirmay to'qayzorlar, uzoq qum barxanlari tomon boshlab ketishdi. Ketibor botirnnng o'g'li — Asat bilan nomi tillarda doston bo'lgan botir Sirimning o'g'li Yusuf omon saqlab qolingan ovullarni qo'riqlashga otlangan mardlarga rahnamolik qildilar.

Ular arslonday olishardilar. Kichik-kichik to'plarga bo'linib, Essenning otradlariga u yoki bu yerda qo'qqisdan hujum qilib, talaygina zarar yetkazib, tezda g'oyib bo'lib ketardilar. Keyin yana yer ostidan chiqqanday boshqa to'p paydo bo'lar, polkovnik askarlariga zarba berar, askarlar sarosimada nishonga ololmas, otlarini yeldirib kelayotgan sarbozlar esa ularning qo'llaridan qurollarini yulqib ketardilar. Sultonlarning birlashgan polklari ikki marta ta'qibga oldi, ikkala safar ham g'alayonchilar ularni jang bilan ovora qilib, sezdirmay, bir gal to'qayzorga, ikkinchi gal qum barxan-

lari ichkarisiga ergashtirib kelib, adashtirib ketdilar, yana bir safar esa ularni tik daryo yoqasiga qisib qo'ydilar.

Sultonlar yordam so'rab xonga, xon esa, o'z navbatida, general Essenga chopar yo'lladi. Quturgan jallodlar bor zaharlarini ovullarga socha boshladilar. Ular har bir halok bo'lgan navkarlari uchun hech bir gunoh qilmagan o'nlab kishilarni o'ldirar yoki qamoqqa olishardi.

Nomuslari poymol etilgan shekti qizlari bunday xo'rlikka chiday olmay o'z hayotlariga qasd qilardilar. Tutqunlikka tushganlarning eng kuchlisigina besh yuz darraga bardosh bera olardi. Ularni ham kishanband etib, Sibirga badarg'a qilardilar...

Kalmikovo qamog'ida yotgan Mahambet sharqiy qirg'oqqa, ozod O'rta juz yerlariga o'tmoqchi bo'lib Yoyiq yoqasida to'plangan ko'chmanchilarni ataman Donskov zambaraklardan o'tga tutgani haqidagi xabarni eshitdi. Daryo murdalarga to'lib ketibdi. Xalqqa sharqiy qirg'oqda baxtli hayot va'da qilgan Qaybolaning o'zi zo'rga qochib qutulibdi...

Mahambet Sirim va Ketiborning o'g'illari — navqiron botirlar ko'rsatayotgan jasorat ta'rifini ham o'sha yerda eshitdi.

Qo'zg'olonchilar safi kun sayin orta bordi. Ular safiga qariyalar ham, yoshlar ham, qaysi urug', qaysi elatligiga qaramay qo'shilardilar. General Essenning polklari ham, Boymag'ambet va Qorovulxo'ja, Shing'ali sultonlarning navkarlari ham, Jangirxonning o'zi ham qal'a-istehkomlariga chekinishga majbur bo'ldilar. Shunday payt yetgandiki, Ichki o'rdaning ham, Kichik juzning ham barcha ovullari navqiron botirlar izidan borishga tayyor edilar. Lekin kuz tushib yog'ingarchilik boshlanib qoldi. Qor yog'di, ayoz turdi, dala-dashtda yurish qiyinlashdi. Bahorga chiqib esa ovullarga vabo tarqadi...

Vabo Kalmikovoga ham yetib keldi. Kazaklar vahima va sarosimaga tushib qoldilar. Bir kuni tush vaqtida askarlar bilan jandarmlar orasida janjal-mushtlashuv boshlandi, xuddi shu asnoda Jantas yuzga yaqin yigiti bilan istehkomga bostirib kirdi. Mahambet ozod etildi, biroq do'stlarining yarmi otishma paytida halok bo'ldilar.

* * *

Mahambet bahor va yoz faslini Maqbol bilan birga qadrdon ovullarida yashirincha o'tkazdi. Uning yangi o'lanlari og'izdan og'izda ko'chardi:

Xonning qahri oshdi. Mol-u vatandan
Seni judo qildi, ey jasur o'g'lon!
Bizlar jangga kirsak hayqiriq bilan
Adl ko'ksimizni etgancha qalqon,
Qilichlarni qonga bo'yab beomon,
Bilmaymiz, bu jangda kim chiqar g'olib!
Yetar, bas, ortiqcha g'am chekmang, do'stlar!..

U xalqni ittifoqlikka, birlikka undar, ammo ochlik, yalang'ochlik natijasida xarobaga aylangan ovullar boylarning gij-gijloviga uchib yaylov talashib qirpichoq bo'lardilar. Shekti, Sho'mekey hamda Jag'alboyli urug'lari orasida janjal boshlandi. Har uchala urug' ham o'tloq, yaylovlardan mahrum etilgandi: bu yaylovlarni Jangirxon saxiylik bilan oq podshoning ofitserlariga, kazaklarga sovg'a qilib yuborgandi.

Janjal o'rtasiga tushib, shektilar bilan jag'alboylilar orasida ittifoqlik o'rnatmoqchi bo'lgan atoqli Ketibor botir bir olishuv chog'ida bekorga nobud bo'ldi. Egniga sovut ham kiymagandi, qo'lida na qalqon va na cho'qmor bor edi. U ko'ylakchan o'tovdan otilib chiqib, yalang otga minib, bir-birini halok etayotgan og'ainilar to'dasiga tashlangan va ularni ajratib qo'ymoqchi bo'lgan edi. Daydi kamon o'qi uning naq yuragiga qadalgan edi...

Jangirxon hiyla ishlatmoqchi bo'ldi. U oqinni Bersh urug'iga boshliq etib tayinlaganligini ma'lum qilib noma yubordi va Mahambetni yorliq olgani huzuriga taklif qildi. Lekin Mahambet xonni masxara qilib, uning choparini quvib yubordi. Xon saroyidan kelgan soliq yig'uvchilarni qamchilatdi. Shundan keyin Jangir Mahambetni, umrbod xunxo'r dushmanim, deb e'lon qildi.

Edil bilan Yoyiq oralig'iga joylashgan Ichki o'rdaning poyonsiz dashtlarida ketma-ket falokatlar yuz bera boshladi. Mahambet Jangirxon jallodlari va general Essenning ayg'oqchilaridan yashi-

rinib yana bir qishni qadrdon ovullarida o'tkazdi. U endilikda og'a-inilari, yor-do'stlari va o'z hayotini xavf ostiga qo'yib bu yerlarda ortiqcha qola olmas edi.

U o'zi tug'ilgan ovuldan yashirin chiqib ketdi. Buni Maqboldan bo'lak hech kim bilmadi. Maqbol aqlli, vazmin, kamgap juvon edi. U og'ir damlarda bir necha marta egniga sovut kiyib, qo'liga qilich-qalqon olib, sochlarini dubulg'a ostiga yashirib, chinakam sarbozlarday sevgilisi bilan yelkama-yelka jangga kirdi.

Tumanli tonglarning birida Mahambet bilan Jantas otda Yoyiqdan suzib o'tdilar-da, ikkiga bo'lingan Kichik juzning chegarasini orqada qoldirib, ilgarilab ketdilar. Lekin bu yerlarda ham xotirjam yashay olmadilar. Ha, tarixda qozoq elining tinib-tinchigan payti bo'lganmi o'zi?

Urug'larning o'zaro kelishmovchiliklari, yer janjallari, urush-to'polonlar qadim zamonlardan meros bo'lib qolgan. Faqat yurtlariga Eron shohi lashkarlari yoki jung'orlar bostirib kirganidagina bu urug'lar birlashganlar, xolos. Qozoq doim yovni yengib kelgan. Ular Xazar nahridan Oltoygacha bo'lgan poyonsiz yurtni olti asr davomida o'z qo'llarida saqlab kelganlar. Ularni yengib bo'lmagan. O'sha zamonlarda qozoqni o'z xonlarining shuhratparastligi, o'zaro kelishmovchiliklargina tinkasini quritib keldi. Bu xalqni urug'larni bir-biriga qarshi qilib qo'yish, xon va sultonlarni ayyorlik bilan sotib olish orqaligina yengish mumkin edi...

Goh qo'miq, goh tatar, goh qipchoq, goh esa qirg'iz-qaysaq deb atalib kelingan bu dasht farzandlari shumlik-quvlikni bilmaydigan, siyosatdan bexabar xalq edilar. Ular jangda botir, tinchlik paytlarida boladay sodda, oqko'ngil edilar.

Kichik juz va O'rta juz yerlarida, Sariorqa va Orol yoqalarida, Turkistondan Avliyootagacha — hamma-hamma yoqda mahalliy sultonlarning yasovul-u navkarlari, oq podshoning jazo otradlari izg'ib yurar, g'alayonchilarni, "mahalliy qaroqchilarni" ovlashardi. Ha, qozoq elining biror yerida osoyishtalik yo'q edi!

Mahambetni Yoyiqdan olislarda, O'rta juz elida ham ta'qib etardilar. Bu yerda ham Kichik juzdagiday o'z xonlari bor edi. Ularning sultonlari ham bir urug'ni ikkinchi urug'ga, bir ko'chmanchi elatni ikkinchi ko'chmanchi elatga qarama- qarshi qilib qo'ygan-

di. Bu ellarga Xiva xoni hukmini o'tkazardi. Shu sababdan bo'lsa kerak, Mahambet Orol yaqinidagi ovullarda darbadar yurganidan keyin Buxoroga, so'ngra Samarqandga jo'nab ketishga majbur bo'ldi. Ko'p o'tmay, oqin, mashaqqatli darbadarlikni davom ettirib, Xivaga keldi, bu yerda do'stlar orttirdi, ayni chog'da qudrati zo'r, makkor dushmanlari ham ko'p edi.

Yer yuzida zo'rlik hukmron,
Hamma yerda yovuzlik tig'i yalang'och...

Aslida bu so'z Mahambetning emas, Xiva mirobi, shoir Munisning so'zlari. U bilan Mahambet Nurbolni uchratishdan ilgariroq tanishgan edi. Olloqulixon uni o'z saroyiga birinchi bor, shoirlar mushoirasiga chorlatgan kuni, Munisni bog'da uchratgan edi. Saroyda xon Qayipgali sulton bilan muzokara olib borayotganida, o'zini esa yasovullar qurshab turgan paytda ham ko'rgandi.

Mahambet Xivaga kelishidan ikki yil burun Munis xonning saroy shoiri edi. Bundan bir yil muqaddam u mushoirada Buxoro shoirlarini yenggan edi. Bu bilan u Xiva hukmdori shuhratini oshirib yuborgandi.

— Tila tilagingni, shoir! — degandi o'shanda xon.

— Ulug' xonim, ota-bobom miroblikda o'tganlar. Men ham mirob bo'lib qolishni xohlayman...

— Bugundan boshlab sen Xivaning bosh mirobi va butun Xorazmning shoiri bo'lg'aysan! — javob bergandi xon.

O'sha kundan buyon Xiva shoirlari, olim-u fozillari xon bog'idagina emas, Munisning uyida ham vaqti-vaqti bilan to'planib turadigan bo'ldilar. Mahambet ham bu marosimlarga qatnashib turardi.

Mana, bugun ham Mahambet mudhish xotiralar iztirobini tarqatib, Jayxun bo'ylaridan qaytarkan, Munisni ko'rib o'tishni lozim topdi.

* * *

Mahambet qiziqqon, jizzaki odam edi. Uning boshqalarning so'zini eshitib o'tirishga sabri chidamasdi. U shartakiligi bilan, ko'pincha, do'stlarini ham ranjitib qo'yardi, yolg'iz qolgan

chog'laridagina eshitgan-ko'rganlarini tarozuga solib ko'rardi. Fikr-mulohaza o'tmishga borib taqalar va ona yurtni sog'inish, qo'msash tuyg'ularini uyg'otardi. O'tgan kunlardan o'kinishlar, g'azab va alamlar, qo'msashlar esa quyulib kelib o'langa aylanardi.

Lekin bugun o'lan yaratilayotgani yo'q — bugun vujudida sog'inish va alam hukmron edi. Garchi ertalab, xon bilan uchrashuv va bozordan tez jo'nab qolgan paytida sirtdan qaraganda odatdagiday mag'rur hamda takabbur ko'rinsa-da, hozir horg'in, hamma narsadan qo'lni yuvib qo'ltiqqa urganday ko'rinardi. Uning bu holatini ko'rgan Bolabek tashvishga tushib qoldi...

— Boshing og'rimayaptimi mabodo? — deb so'radi u, shahar darvozasiga yaqinlab qolganlarida ehtiyotkorlik bilan. — Bunday jaziramaga o'rganmagansan-da... .

Oldinda chang ko'tarib sigirlar podasi borar, o'tin ortgan aravalarning taraqa-turuqi eshitilar, onda-sonda yo'lovchilar ko'zga tashlanib qolardi.

— Ot horisa almashtiriladi, o'zimiz bo'lsak kafanga bosh chulg'agandagina tin olamiz, — dedi Mahambet ma'yus. — Daryo yoqqa behuda borgan ekanmiz. Bu daryo Yoyiqqa ham, Edilga ham o'xshamaydi. Arablar uni bekorga Jayxun deb atashmagan. Suvi loyqa, o'zi ilonday makkor. Polvongohni ziyorat qilish kerak.

U tilga olgan yer Pahlavon Mahmudning maqbarasi edi Mahambet zerikkan, ko'nglini g'ashlik bosgan paytlarda doim o'sha muqaddas joyga borardi. U yer shaharga qaraganda tinch bo'lgani uchun emas, albatta. Bu muqaddasgohni butun O'rta Osiyoning qashshoq avomi ziyorat etgani keladi. Odamlar yo'l g'uborotlarini tozalab, tahorat olib, oyoq kiyimlarini yechib kiradilar bu muqaddas maqbaraga.

Odamlar topgan xayr-sadaqalarini ko'zachaga tashlab, avliyo Mahmud qabri qarshisida tiz cho'kib, undan rahm-shafqat tilaydilar, yaqindagina bunyod etilganiga qaramay, muqaddas sanalgan maqbaraning marmar panjaralariga, sehrli yozuvlariga, oftobda yaraqlab-yashnab turgan moviy gumbaziga ko'z qirlarini yugurtiradilar.

Bu yerga Yaratgandan o'z gunohlarini kechirishni, jismlaridagi dardlariga shifo baxsh etishni iltijo qilib, yo'l azobi, xavf-xatarlari-

ga bardosh berib, uzoq-yaqin qishloqlardan, ovullardan ziyoratchilar tinmay kelib turadilar. O'rta Osiyoda bunday ziyoratgoh joylar uchta: Turkistondagi Ahmad Yassaviy maqbarasi, Samarqanddagi Shohizindaning muqaddas qudug'i, endilikda esa Xivada, ulamolarning so'zi bilan aytganda, hazrati Alining zurriyoti Mahmudning maqbarasi bo'lib qoldi. Aslida esa u mo'ynado'zning farzandi bo'lib, 1247-yili Xivaning qadimiy darvozasi yonidagi kulbada dunyoga kelgan.

Ziyoratchilar maqbara oldida yotgan katta marmar toshning sathidagi botiq joylarini ixlos bilan ko'zdan kechirarkanlar, buning avliyo Mahmudning barmoq izlari ekaniga imonlari komil edi. U nafaqat avliyogina edi: hech zot u bilan bellasha olmasdi-da. U toshni bamisoli kesakday kukun qilib yuborardi. Odamlarni hammadan ham maqbara gumbazidagi tovlanuvchi bo'yoqlar, naqshinkor marmar panjaralar, xattotlar bitgan bitiklar hayratda qoldirardi.

Shariat peshvolari Turkistondagi Ahmad Yassaviy qabrini ikki bor yoki Shohizindadagi muqaddas quduqni uch bor ziyorat qilgan odam haj qilganning savobini topadi, deb uqtirsalar-da, bu ziyoratgoh tomon ko'plab ixlosmandlar oqib kelaverardilar. Maqbaraga bitilgan bitiklarning birortasi ham boshqa ziyoratgohlardagiga o'xshab Qur'oni sharifdan ko'chirilgan suralar emasligini, bular Pahlavon Mahmudning forscha baytlari ekanini ziyoratchilardan hech biri bilmas edi.

Bu baytlarning ma'nosiga sanoqli odamlargina tushunar, ammo ular ham ovoz chiqarib o'qishga jur'at etolmas edilar. Chunki Pahlavon Mahmud hukmdorlarning ahmoqligi-yu tamagirligini hajvga olgan, dindorlar ustidan kulgan edi-da.

Bu hojikim, avval edi bir ilon,
Hajdan qaytib ajdar bo'ldi begumon, —

deya bir kuni tarjima qilib bergan edi Munis Mahambetga.

Dengiz kezib, yulduz sanamoqlik soz,
Nodon suhbatida bo'lmoqlikdan boz...

Gumbazga yozilgan misralarning ma'nisi shunday edi. Mahambet o'shandan buyon Pahlavon Mahmudning she'rlariga qiziqib qolgandi.

— U jallodlarni qo'rqmasdan masxara qila olgan, — derdi Munis. — Hayotligida uni Xiva va Hirotda bir necha marta zanjirband qilganlar. Xon jallodlari uning payini qirqish payida edilar, biroq Xivada unga hech kim bas kelolmasdi. U Hindistonda eng kuchli pahlavon nomini olgan, Hirotda eng yaxshi shoir shuhratiga ega bo'lgandi. U o'limidan keyingi asrlarda avliyo sifatida dovrug' taratdi. Shahidmozorni qurdirgan ham o'sha zot bo'ladilar. Xiva ortidagi dashti mozorni o'zing ham ko'rgansan. El-yurt uchun jon fido qilganlar qabristoni u. U o'z xalqini sevar edi, xalq ham unga munosib izzat-ehtirom ko'rsatmokda.

Muhammad Rahimxon ham uning shuhratidan foydalanmoqqa ahd qilgan. O'shaning amri bilan "avliyo" shoirga maqbara barpo etila boshlagan. Mana endi, Olloquli zamonasida bitkazildi u. Hamma — kambag'allar ham, ziyoratchilar ham, xo'jalar ham, ulamolar ham bundan mamnun. Kambag'al musulmonlarga ixlos bilan topinadigan qadamjo, ulamo-yu xo'jalarga esa boylik manbai topildi — ziyoratchilar ehsonni ayamayaptilar...

Mahambet Munis bilan maqbara ortidagi bog'da o'sgan azamat besh chinor quyuq ko'lanka tashlab turgan hovlida tez-tez uchrashishadi. Chinorlar tagida marvaridday tiniq suvli hovuz mavj urib turadi. Hovli chinniday supurilib, suv sepib qo'yilgan bo'ladi. Hovlini bir tomondan g'ishtin maqbara, boshqa taraflaridan baland devorlar o'rab olgani uchun ko'cha shovqin-suroni eshitilmaydi. Hovli sohibi har safar Mahambetni xushmuomalalik bilan kutib olar, ta'zim bilan hovuz tepasidagi ayvonga boshlar, u yerga to'shalgan yakandozlarga taklif etardi. Tepada kahrabo uzum boshlari osilib yotardi. Bu yerdagi sokinlik, salqin havo falsafiy suhbat va fikr-mulohazaga ilhom baxsh etardi...

Mahambet Munisni kutib o'tirarkan, uy sohibi har safar indamay shirin-shakar qovun so'yib, sharob yoki sharbat keltirib uni mehmon qilardi. Bu yerda Mahambet mirob Munisning Xorazm yerlari haqida, shoir Munisning Hofiz va Atoiy ash'ori xususin-

da, tarixchi Munisning Turkistonga qanchadan qancha botirlar, faylasuflar ko'milgani to'g'risidagi ko'plab hikoyalarini tinglardi. Xiva xonlari bilan aday yigitlarining uzoq vaqt jang qilganlarini ham Munisdan eshitgan edi..

Munis bilan Mahambetning suhbatlari uzoq cho'zilardi. Bu yerda ularga hech kim xalal bermas, Olloqulining ayg'oqchilaridan cho'chimasa bo'lar edi...

* * *

— Ust-boshlaring chang, otlaringning ham qorni ichiga tortib ketibdi. Olis yo'l bosgan ko'rinasizlar. Harqalay, ishlaring o'ngidan keldimi? — deya iliqqina kutib oldi Munis Mahambet bilan Bolabekni.

— Daryo yoqasidan kelyapmiz! — javob berdi Mahambet.

— Anavi tutqun qiz qayoqda qoldi?..

Mahambet hayron bo'lib Munisga qaradi.

— Xon bog'idagi afg'on qizini so'rayapman. Ertalab sizlarni xon saroyidan o'zim kuzatib qo'ygan edim-ku, — dedi kulimsirab Munis. Mahambet shundan keyingina Nurbolni esladi.

— Kun shu qadar uzayib ketdiki, o'sha damdan buyon olam-jahon vaqt o'tganday ko'rinadi, nazarimda... — dedi Mahambet do'stiga xomush.

— Ha, bu og'ir kun bo'ldi sen uchun, do'stim. Ha, mayli, qayg'uni tarqatmoq lozim. Yuringlar, raqs-u kuy mazgiliga boramiz, — dedi Munis do'stlari tashnaliklarini qondirgach.

* * *

...Bolabek otlarni To'kenikiga olib ketdi. Mahambet bilan Munis raqqosalar mahallasiga yo'l oldilar.

— Yanglishmasam, qozoqda: "Nayzang yetmasa shamshiringni yalang'ochlashdan na foyda" degan maqol bor, — dedi Munis kimsasiz tor ko'chaga chiqib olganlaridan keyin, sallasi pechini orqasiga tashlarkan. Quyosh botib, ko'k toqida ilk yulduzlar miltirab, salqin tushib qolgandi. Bu kuz tushganidan darak berib turardi.

Ko'chada aravaning g'ijillagan ovozi eshitildi. Aravakash yigit yeldirib kelib, ta'zim bilan xizmatga tayyorligini bildirgan edi, Munis hojati yo'q deganday ishora qildi.

— Munis, davom ettiring. Gapingiz chala qoldi, — dedi Mahambet.

— Inshoollo, nayza bilan shamshir ishlatadigan kun keladi hali. Jaholatdan tiy o'zingni, sabrning tagi Rahmon deydilar.

— Jaholat har doim ham aqlga bo'y beravermaydi, — dedi Mahambet qul bozorida mulzam bo'lganidan Munisning xabardor ekanini payqab.

— Aql, har qalay, jaholatdan yuqori turadi...

— Biroq jahl chiqqanda aql ketadi, sabr-toqat esa qulning qismatidir! — dedi Mahambet.

— Barchamiz ham qulmiz, — dedi Munis ma'yus bosh chayqab. — Barchamiz ham turmush azobini chekmoqdamiz. Faqat anavi odam g'am nimaligini his etmaydi, — dedi Munis ming'irlab allaqanday duoni o'qigancha, taqinchoqlarini shildiratib, kuragini devorga ishqab qashinayotgan darveshni ko'rsatib. Yonida uvadalar to'shog'liq, aftidan, yotmoqqa hozirlanmoqda edi u.

— Biz bo'lsak, o'yin-kulgi, sharob axtarib ko'ngil chog'lamoqqa ketyapmiz. Bu sho'rlik bo'lsa, shu yerda tuproqqa qorishib tong ottiradi, — dedi Mahambet.

— Illo u bizdan ko'ra baxtliroq. Chunki u Xudoga, uning qudratiga ishonadi. Bu uning ko'ngliga xotirjamlik baxsh etadi. U o'zi tanho yashaydi, g'am-g'ussa undan begona. Sen-chi? Sen o'zingni ozod deb bilasanmi? Elingga ham ozodlik baxsh eta olasanmi? Bu foniy dunyodan Rudakiy, Xayyom, Firdavsiylar o'tgan, ulardan hech biri qo'liga shamshir tutmagan... Shamshir-shamshir, xolos. Ha, yolg'iz qo'l yolg'izgina, xolos. Hukmdorlar-chi? Ular minglab, birodar...

— Munis, siz meni g'oyat ulug' zotlarga tenglashtirdingiz, bu men uchun sharaf! Biroq men Rudakiy ham, Firdavsiy ham emasman. Bor-yo'g'i cho'ldagi yolg'iz qayrag'ochman, xolos. Qayrag'och cho'ldan jilmaydi. Bir umr suvsizlik, jazirama issiq bilan olishadi, unda suv yoqasida o'sadigan sarv-sanobarning nozikli-

gi-yu xushqadligi yo'q. Men o'zimni kurashga bag'ishlaganman. O'limdan qo'rqmayman, uni ot ustida qarshi olaman. Ahd-u paymonim shundoq bo'lgach, nasihatingizdan foyda bo'larmikin...

— Ha, men Xivani, uning bog'-rog'larini suvga serob qilishni orzu qilguvchi bir mirobman, sen esa istak-tilagi o'zgacha oqinsan. Sening o'lanlaring muattar chechaklarning xushbuy islaridan yiroq turadi. Ularda nayza va qilich jarangi, ot tuyoqlarining dupuri yangraydi, dashti maysa-giyohlarning bo'yi keladi ulardan. Bunday she'riyat Sharqqa begona...

— Sharq deganingiz poyonsizdir, Munis. Gul va chechaklar esa podshohlarning bog'larida o'sadi. Ularni qullar parvarish qiladi, lekin huzurini boshqalar ko'radi. Bepoyon dasht-u qirlarda esa yovshan barq uradi, qul-u botirlar yuradigan yo'llarga o'z isini purkaydi.

Sayram, Ufor hamda Siyg'anoq uchun bo'lgan janglarda mag'lub bo'lgan nayman va qipchoqlar Chingizxon tumanlari safiga qo'shilib, begona ellarga otlanarkanlar, qadrdon dalalarining isini unutmayin deb gul emas, bir tutam yovshanni olib ketganlar.

— Munozarani bas qilaylik, — dedi Munis uning so'zini bo'lib. — Mudhish o'tmishni eslashdan na foyda?! Munozara-yu shubhalar yetar! Manzilga yetib qoldik...

* * *

Ular raqqosa qizlar yashaydigan mahallaga chiqib qolishgan edi. Har bir hovlining darvozasi fonus bilan yoritilgan. Bu yer xuddi savdo rastalarini eslatadi. Bu yerda chindanam kunduzi savdo qilinadi. Hozir ham ba'zi-ba'zi joylarda yangi damlangan palovning xushbo'y isi dimoqqa urilib, bordon ustiga uyulgan qandolat, shirinliklar ko'zga tashlanib turibdi.

Ko'cha yuzasidagi uylarning eshiklari ochiq. Ichkarida shohiatlaslarga burkangan raqqosalar chordana qurib o'tiribdilar yoki bolishlarga tirsaklarini tirab, yonboshlab yotibdilar. Mehmon kutib charchagan mashshoqlar esa bir burchakda mudroq bosib o'tiribdilar. Bu yerdagi uylar boloxonali. Goh u yerdan, goh bu yerdan kuy sadolari eshitilib qoladi. Ahyon-ahyonda otliq ko'cha qorovul-

lari o'tib qoladilar. U yoki bu yerda o'z xo'jalarining otlarini qo'riqlab turgan xizmatkorlar ko'zga chalinadi...

Munis Mahambetni aylanma qorong'i zinapoyadan keng boloxonaga boshlab chiqdi. Devor yaqinidagi supachaga gilam, ustidan ko'rpachalar to'shalgan, lo'labolishlar qo'yilgan. Ularni harir libosli, ohu ko'zli bir go'zal xushfe'llik bilan qarshi oldi.

— Munis, xush kelibsiz, sizga mushtoq edim, — dedi miyig'ida kulib qiz.

— Huzuringga do'stimni boshlab keldim, Guljon, — dedi Munis.

— Marhamat, o'tiringlar, yigitlar. Guljon, ularga sharob quy! — dedi barvasta ayol — uy bekasi.

— Assalomu alaykum, Xivaning muhtaram savdogarlari! — dedi Munis yonboshlab yotgan, bashang kiyingan ikki kishiga yuzlanib. Ular oldida sharob va chilim turardi. Ular navbatma-navbat quldiratib chilim tortishardi.

— Hoy mirob, so'zni bo'lib yubording-ku, tezroq o'tira qol, Guljonning hikoyasini eshityapmiz! —dedi ularning katta yoshlisi.

— Tanishinglar, bu kishi Mahambet, qozoq oqini, — dedi hamrohini tanishtirib Munis.

Savdogarlar arang bosh qimirlatib qo'ya qolishdi.

— Shoirlar qo'shiqni sevishadi, hikoyangni ertaga eshitarmiz, azizim Guljon! — dedi yosh savdogar qizning oldiga bir siqim kumush tanga tashlab.

Childirmaning qars badabangi yangraydi. Childirmachi zavqdan ko'zlarini yumib olgan. Dutor bilan chang ungi jo'r bo'la boshladi. Xiva uzra orombaxsh kuy sadosi taraldi.

Guljon o'rnidan turib, qaddini rostladi. U shunday go'zal ayol ediki, go'yo Parvardigor uni ko'z-ko'z qilmoqchi bo'lib o'z qo'li bilan yasab qo'yganday edi. U yalang oyoqlari ila tangalarni bosib o'tib, novdaday egilib ko'zani oldi-da, Munis bilan Mahambetning kosasiga sharob to'ldirdi. So'ngra oyoqlariga qo'ng'iroqchali taqinchoqlarini taqib, davra yasab raqsga tusha ketdi...

— O-oh-oh! — o'zini tiyib turolmadi savdogar yigit.

Sevgiga yuzma-yuz kelmaguncha men
Porlab yonadurman Cho'lpon misoli...

Qizning xush ovozi, mashshoqlarning jozibali kuylari Mahambetni o'ziga maftun qilib qo'ydi, u borliqni unutdi.

Raqqosaning qo'l-oyoqlaridagi qo'ng'iroqchalar sadosi, dutor, chang va Guljonning jozibali ovozi bir-biriga hamohang edi. Xona kuyga g'arq bo'ldi. Mahambet maftun bo'lib, bir nuqtaga tikilgan ko'yi qimir etmay o'tirardi.

Bu dunyo ajibdir, komi to'la sir,
Sen yechmoq istaysan barini bir-bir...
Tun-u kun boshingni qotir — befoyda,
U sening ra'yingsiz bunyod-ku, axir!

Munis beixtiyor bu misralarni takror o'qidi.

— Hoy faylasuf, og'zingni yum! Bulbul xonish qilayotganda qarg'aning qag'illashiga balo bormi! — dedi keksa savdogar.

— Gapingiz haq, hurmatli zot. Shul boisdan o'zlari ham jimgina o'tirsalar, — dedi Munis xotirjamlik bilan.

— G'azal joni dilim, — dedi raqs tushishda davom etar ekan Guljon...

Meni avliyo deb atarlar, ammo
Xudo o'zi guvoh, bu fikr xato.
Bunda ko'p narsalar menga ayonmas.
Ayonmas kimligim, maqsadim, hatto...

— Sening gaplaring ham to'g'ri, mirob, — dedi qotib kularkan yosh savdogar. — Boraver, o'z yo'lingdan qolma. Quzg'unga lochinlar orasida o'rin yo'q.

— Yo Parvardigor, — dedi Munis boshini changallab, — o'zing shohidsan, Xiva savdogarlari ulug' Xayyomni ham yengib chiqmoqchi bo'lishadi-ya! U rahmatli bugun go'rida tik turadigan bo'ldi-da...

— Ulug' Xayyomni emas, seni yengib chiqdik, — dedi bo'sh kelmaslikka urinib yosh savdogar.

— Illo, men o'sha ulug' zotning g'azalini o'qigandim-ku...

Guljon Munis o'qigan misralarni takror aytib, qo'shig'ini yakunladi...

— Ayyor tulkining o'zi ekansan, — dedi savdogar gilam uzra bir qism tangani sochib. — Mana senga. Men mag'lubman.

Masala ravshan. U hammaning og'zini moylab qo'ymoqchi. Zero, Xayyom bilan Hofizning g'azallarini bilmaydigan odam nodon hisoblanar va Xiva raqqosalari huzuriga qadam ranjida qilishdan mahrum bo'lardi.

Xuddi Erondagi kabi bu yerga ham istagan kishi, u yoshmi, qarimi, kelishi mumkin edi, lekin u qo'shiqni, g'azalni tushunishi shart edi. Basharti o'zi g'azal bitishni bilmasa, u holda she'riyatdan xabardor bo'lishi lozim edi. Bu yerda juvonlar chodralarini tashlaydilar, bu yerda g'azal hukmronlik qiladi. Sharqdagi ko'plab mashhur shoirlar, hofizlar, raqqosalarning ijod yo'llari shunday dahalardan boshlangan...

Bu yerlarda she'riyat-u ayol hukmron...

...Guljon eshilib yangi raqsga tushar, sharob to'la ko'zalar bo'shab, badmast savdogarlar esa raqqosaning har bir muqomiga tanga bilan javob qaytarardilar. U qushday yengil parvoz etardi...

Mahambet shamshirini chetga qo'ydi-da, chakmonining barini ochdi. Uning ko'z o'ngida goh mag'rur va serishva Fotimaxonim, goh qalin, sochlarini dubulg'a ostiga bostirib olib, cho'l bag'ri bo'ylab ot choptirib borayotgan Maqbol namoyon bo'lardi... Dilrabo qo'shiq va yoqimtoy Guljon uni mahliyo qilib qo'ygandi.

Guljon deydi:

Niliy osmon shohi, qudratli burgut,
Tuzoq bor — uchmagin vodiylar sari!
Senga nima bo'ldi? Parvoz qil, axir,
Chorlar ko'kning oltin kunguralari!..

Mahambet o'zini ortiq tutolmadi va:

Dilda ishq borki, ziyo sochurman men sham yanglig',
Porlabon zulmatga yo'l ochurman men sham yang'lig'...

Guljon shu onning o'zida:

Yosh seli va o't aro qoldi bu xasta yurak,
Furqatingda oxiri o'churman men sham yanglig'...

Munis mushoirani davom ettirdi:

Kunduz tundan siyohroq bo'lur chehrang ko'rmasam,
Qora g'amlar bag'riga ko'churman men sham yanglig'...

Mahambet Munisga ko'z tashladi. Undagi vazminlikdan asar qolmagandi. Munis g'azalida his-hayajoni, Guljonga bo'lgan muhabbati va sevgisini ifoda qilib qo'ygandi. Qiz hayajon ichra yonib, ehtiros bilan qo'shiq aytar, uning butun vujudi, har bir harakati kuy va qo'shiqqa singib ketganday edi...

— Do'-o'-o'-st! — deb qizning oyoqlari tomon talpinardi badmastlikdan cho'zilib qolgan yosh savdogar. Keksa savdogar esa allaqachon hurrak tortib, uyquga ketgan edi. Munisning jahli chiqib, uning yuzini yostiq bilan yopib qo'yadi. Uy bekasi gilam ustida sochilib yotgan tangalarni sezdirmay yig'ib ola boshladi. Mashshoqlar esa o'zlari ijro etayotgan kuydan mast bo'lib, Guljon bilan barobar raqsga tushayotganday sezishardi o'zlarini. Munis beixtiyor o'chib qolgan chilimni olib, tortdi-yu, uloqtirib yubordi. Sarxonadagi tamaki sochilib ketdi.

...Kuy tindi. Raqsni tugatgan Guljon oyoq ostida qolgan tangalarni chaqqon yig'ishtirib olib bekasiga uzatdi. So'ngra boyagi joyiga borib o'tirdi-da, charchoq va xomush ko'zlari shoirlarga tikilib qoldi.

Mahambet darhol chakmonini egnidan yechib, qizning oyog'i ostiga to'shadi. Munis esa uning oyog'i ostiga bir hamyon tanga tashladi. Guljon jilmayib, chakmonni olib Mahambetning yelkasiga tashladi. Tanga solingan hamyonni esa Munisga qaytarib berdi.

— Xiva savdogarlarining jilovi hozir mening qo'limda... — dedi Guljon xandon otib kularkan. — Shoirlar esa o'z birodarlarimiz, Munis, bu boyligingizni xayrli ishlar uchun asrang, — keyin Mahambetga o'girilib dedi: — Sizning chakmoningiz esa, menga to'g'ri kelmaydi, yigit.

Munis indamadi, keyin jahl bilan qo'lidagi hamyonni derazadan ko'chaga irg'itib yubordi. Uy bekasi "voh" deganicha qoldi, mashshoqlar esa ko'chaga otildilar. Zinapoyadan tapira-tupur va vag'ir-vug'ur tovush eshitildi. Mashshoqlar, ular ketidan mirshablar kirib keldilar.

— Xon amri bilan! Joylaringdan qo'zg'almanglar! Biz hukmdorning qochoq qullarini izlab yuribmiz... — Hammalarini boshdan oyoq ko'zdan kechirib, mirshablar ichkari xona tomon o'tib ketdilar. Mashshoqlar yana ko'chaga otildilar-u, Jantasga ro'para bo'ldilar.

— Mahambet, seni kuta-kuta ot ham horidi, — dedi u tomdan tarasha tushganday qilib.

— Boraver, birodar. Men tonggacha shu yerda qolaman, — dedi Munis Mahambetga.

— Bizni unutmang, — dedi ular bilan xayrlasharkan Guljon.

— Qal'ada tintuv o'tkazilayotgani to'g'risida Bolabek xabar keltirdi. Qandaydir o'g'rilarni izlayotgan emishlar, — dedi so'zida davom etib Jantas. — Seni Suyunqora ertaga Amudaryo yoqasidagi qamishzorda kutar emish...

Jantas nimadandir xafa ko'rinardi. Mahambet o'zini uning oldida gunohkorday his etdi.

— Jantas, bekorga ovora bo'libsan.

— Mahambet, yigitlarimiz aysh-ishratni emas, chinakam ishni kutib yotishibdi! — dedi.

Oqin indamadi. Jantas haq edi.

* * *

...Mahambet otini To'kega topshirib, eshikni ocharkan, bir chekkada afg'on qizini ko'rdi. Qiz ertalabdagiday chodra yopinib o'tiribdi. U yuzini ochmay, taom keltirib qo'ydi.

Mahambet uning chodrasini olib tashladi. Qiz qo'rqib burchakka qisildi.

— Nurbol, afv et, xafa qilib qo'ydim seni, — dedi-da, egnidagi chakmonini yechib qo'ydi va tashqariga chiqib, bir zum u yoqdan bu yoqqa yurdi. Qaytib kelib Nurbolni ichkari uyga kiritib, o'zi tashqi xonada qoldi.

U tun bo'yi kiprik qoqmadi. Ko'z yumdi deguncha bozorda uchratgan keksa onaning yolvorib yig'lashi esiga tushar, keyin ko'z oldidan Nurbol bilan Guljon o'ta boshlardi... Tongotarda ko'zi ilingan ekan, kimningdir muloyim qo'li tegib uyg'onib ketdi. Ko'zini ochib qarasa, tepasida Nurbol turibdi. Turli voqealarga to'liq, yilday cho'zilgan kundan keyingi birinchi tunlari shu taxlit o'tdi...

* * *

...Mahambet beixtiyor Nurbolga tikilib qoldi. U tushida nimadandir kulimsirayotgan yosh boladay, qo'llarini chalqancha tashlab shirin uxlab yotardi...

Mahambet Nurbolning bo'ynidan asta qo'lini oldi-da, o'rnidan turib, qiz ustiga chakmonini yopib qo'ydi. Mahambetning ko'ziga Nurbol emas, Maqbol yotganday ko'rinib ketdi. Qulog'iga uni chaqirayotgan tanish ovoz eshitilayotganday, ona yurt isi dimog'iga urilganday bo'ldi.

"Yigitlarimiz aysh-ishratni emas, chinakam ishni kutib yotishibdi".

Jantas shunday degan edi. U asta tashqari chiqib, eshikni zichlab yopib qo'ydi. Hali vaqt erta, salqin payt edi. Mahambetnnng eshikka chiqqanini sezgan oqyol kishnab qo'ydi. To'ke hovlida ko'rinmasdi. Mahambet qoziqda ilig'liq turgan paqirni olib, quduqdan suv tortib, otni sug'ormoqchi bo'ldi.

— Hali sug'orishga erta, yem yeb tursin! — dedi tinim bilmas, har qachon yoningda paydo bo'lib qoladigan To'ke. — Yigitlar shay turishibdi. Ular yeb-ichib bekor yotaverish jonga tegdi deyishyapti.

Oqin maxfiy yo'l orqali qo'shni hovliga — do'stlari huzuriga bordi.

...Yigitlar sovuq suvda bellarigacha yuvinib bo'lgach, qo'llariga qilich-qalqonni olib, juft-juft bo'lib mashq qilayotgan edilar.

Sirtdan qaragan kishiga bu hovlida chinakam urush bo'layotganday ko'rinardi. Yigitlar yalang'och shamshirlari bilan bir-birlariga shu qadar shiddatli tashlanar edilarki, qalqonlar uzra chaqmoq chaqilib ketardi. Goh biri, goh ikkinchisi "dushman" ham-

lasidan o'zini himoya qilgan bo'lib, orqaga chekinardi-da, nafas rostlab olib, yana hujumga o'tardi.

Mana, yigitlardan biri qo'liga uzun langarcho'p oldi. Uning bir uchiga buzoq terisi qoplangan halqa kiritilgan edi. Yigit qirq qadam o'lchab, langarni boshi uzra chayqata boshladi. Kamonchilar nishonga aniq urardilar. Birpasda nishon kamon o'qlaridan ilmateshik bo'lib ketdi. Keyin kurash boshlandi. Qarama-qarshi safga tizilgan yigitlar Bolabekning ishorasi bilan olisha ketdilar.

Ular yashin tezligida harakat qilib, bir-birlarini dast ko'tarar va ko'z ochib-yumgunchalik fursat o'tmay, raqiblari kuragini yerga tegizar edilar. Ba'zilarning esa raqibi ayyorlik qilib, hujumga o'tganning o'zini yiqitib qo'yardi.

No'yon bir chekkada turardi. Uning egnida kumush bezakli, qulun terisidan tikilgan yap-yangi cholvor. Bu Jantasning to'y va marosimlarda kiyadigan cholvori ekanini Mahambet bilardi. Jantas bu kiyimini Jangirxonning Jasqusdagi saroyidaligida o'tkaziladigan tantanali marosimlarda kiyib chiquvchi edi. Endi bo'lsa u o'zining bu cholvorini kechagina bandilikdan ozod bo'lgan No'yonga bergan edi. Jantas u bilan do'st bo'lib olgan, shekilli, ikkalasi yonma-yon turishibdi.

— Hoy, sen nimaga angrayib turibsan? Yoki qorin solmoqchimisan?! Qani, No'yon, davrga chiq-chi. Bir hunaringni ko'rsat, qo'lingdan nima kelarkin! — dedi hazillashib Bolabek.

Hammalari yangi yigitga tikildilar. Kecha bozordan kelganida u oriq va holsiz ko'ringan edi. Endi qoniqib uxlash va miriqib dam olishdan keyin uning rangi kirib qolibdi. Shu topda u uzun bo'yli, norg'ul, chiroyli ko'rinardi.

— Qani bo'la qol! — dedi qo'llarini ishqalab Bolabek. U keng yag'rinli, kuchli yigit edi.

— Yana yoshi katta deb xijolat bo'lib o'tirma, bir kuragini yerga tegiz.

— Xafa bo'lmaydi. Axir, kurashda yosh-u mansabga qaralmaydilar-ku...

No'yon boshini quyi solib, un chiqarmay Bolabekka yaqinlasha keldi. Uning yuzida o'zgarish paydo bo'ldi, ko'zlari chaqnay boshladi. Bolabek shaylanib turib unga tashlandi, lekin ushlab ola

bilmadi. No‘yon chap bera turib, bir nafasda Bolabekni belidan ushlab oldi-da, yerga uloqtirdi.

Bolabek ham chaqqonlik qilib, kuraklarini yerga tegizmadi, o‘zini sharmanda bo‘lishdan saqlab qoldi. U No‘yon hamlasidan amallab qutuldi-da, yana jangovar holatga kirib oldi. Qoshlari chimirilib, ko‘zlari chaqnab, entikib-entikib nafas olgancha, No‘yonning har bir harakatini sergaklik bilan kuzatardi. Yigitcha bo‘lsa, xuddi ayiq bilan yakkama-yakka olishuvga chog‘langan ovchi singari Bolabekka yaqinlashaverdi. Do‘stlarining hazil-mutoyibalari, dalda berishlari, unisining ham, bunisining ham qulog‘iga kirmasdi...

Mahambet bu kurashga mahliyo bo‘lib qolgandi. Goh unisi, goh bunisi raqibini yerdan uzib ko‘tarardi-yu, lekin kuragini yerga tegizishni eplolmasdi. Yigitlar kurashayotganlarni qurshab olgandilar.

— Bolabek, senga nima bo‘ldi?! — deya baqirardi yigitlar.— Bizni sharmanda qilma!

— No‘yon, bo‘sh kelma!

Hamma kurashga qiziqib ketib, soqchilikda turgan yigitning darvozani ochganini ham, qashqa ayg‘irga minib olgan Qayipg‘ali sultonning o‘n chog‘li sarboz bilan hovliga kirib kelganini ham sezmay qoldilar.

— Kuchingizga kuch qo‘shilsin, yigitlar!

Hamma sultonga o‘girilib, baqrayib qoldi.

— Nima, salom berishni unutib qo‘ydilaringmi? — dedi Qayipg‘ali.

— Yaxshi niyat bilan kelgan bo‘lsang, otdan tush, sulton, — javob berdi Jantas.

— Payqab turibman, odamni hurmatlashni butunlay unutib yuboribsizlar... To‘g‘ri, ona yurtni sog‘inib rosa zerikkanga, yovvoyilashib qolganga o‘xshaysizlar. Ha, begona yurtlarda istiqomat qilish oson emas. “O‘zga yurtda sulton bo‘lguncha, o‘z yurtingda ulton bo‘l” degan maqol to‘g‘ri ekan.

Qanipg‘ali tomoq qirib qo‘yib, otdan tushdi, tizginni yasovul yigitga tutqazib, Mahambetga qo‘l uzatdi.

— Kecha, Olloqulining saroyida ovozing jaranglab chiqqandi, — dedi uning salomiga javoban Mahambet. — Seni bu yerda

sulton emas, xon deb atashyapti. Xon bo'laturib taqdiridan o'pkalanish yaramaydi.

— Avval u Yoyiq bo'yida qirilganlarning joni va yetim-yesir qolgan bolalar qismati uchun javob bersin, — dedi Jantas g'azabiga chidayolmay. — Elni ergashtirib borib, ataman Donskovning o'tiga ro'para qilib, o'zi juftakni rostlab qoldi. Endi kelib Olloqulining oyog'ini yalab yuribdi.

— Hoy yigit, Jangirxonning yuzboshisi bo'lib, xalqni talashga yordamlashgan sen emasmisan? Men bo'lsam xalqni himoya qilmoqchi va Sariorqaning ozod dashtlariga eltib qo'nmoqchi edim. Zamon zo'ravonniki bo'lib chiqdi. Garchand o'shanda ataman Donskov zo'ravonlik qilib, meni sharmanda qilgan ekan, sen bugun tilingga zo'r berib, buni yuzimga solishing insofdan emas! — dedi Qanipg'ali g'ijinib, ulug'larga xos kibor bilan. Qo'lidagi dastasiga kumush qoplangan qamchisi bilan sahtiyon etigi qo'njidagi changni qoqib, zangori kimxob choponini to'g'riladi-da, yana so'zida davom etdi: — Agarda senlar takabburlik hamda o'jarlik qilmaganlaringda bugun biz Xivada sang'ib yurmagan bo'lardik. Men o'z manfaatimni deb Olloquliga suykanayotganim yo'q. Ipsiz igna tikmaydi. Qurolsiz, lashkarsiz qo'limizdan hech ish kelmaydi. Dunyoda urishqoqlar ko'p, lekin ular botir bo'la olmaydi. Yaxshisi, kel, o'ylab ko'raylik, yoshlik g'ururi va qiziqqonlik katta ishda qo'l kelavermaydi... Mahambet, men sening huzuringga keldim! Gap bor...

— Yigitlar, dasturxon yozinglar, — dedi Mahambet va sulton bilan birga uyga kirdi.

Top-toza qilib supurilgan uyning devorlari yoqalab o'rnatilgan so'rilarga nimdosh namatlar to'shalgan. Tepa tomonda eski chopon, sovut-dubulg'alar, egar-jabduqlar turibdi. Egarlarni sanab bu yerda necha nafar yigit yashashini bilib olish mumkin edi.

— Bu Ibroybekning "saroyi", — dedi Mahambet sultonning savolomuz boqishiga javoban,— U Boyboqti urug'idan, Sirim botir navkarlaridan, Xivaga ham botir bilan kelib qolgan.

Shu payt Mahambet Qayipg'alining otasi Yesimxonni Sirim botir o'z qo'li bilan o'ldirganini, so'ngra Qoratoy sultonning

ayg'oqchilari Xivaga kelib, Sirim botirni zaharlab o'ldirganlarini esladi. Qoratoy Qayipg'alining amakisi edi...

— Ha, ulug' Sirim bu yerda xoinona o'ldirilgan edi. U ham boyboqtilardan edi-da. Demak, Ibroybek botirning ishiga sodiq qolibdi-da. Barakalla, azamat. Esiz, urug'lar orasidagi bema'ni janjallarda ozmuncha azamat yigitlar halok bo'lmadi deysan... Sirim, garchand otamni o'ldirgan esa-da, barcha qozoqlarga qanchalik qadrli bo'lsa, men uchun ham shunchalik aziz. Mana, o'zing ko'rib turibsan, men ham o'z tug'ishganim Jangirga qarshi qilich ko'tardim...— deya Mahambetning o'yini sezganday o'zini oqlay boshladi sulton. — Peterburgda bo'lganimiz yodingdami? U yerda podshoga qarshi qilich ko'targan rus ofitserlari ham oddiy xalqdan emas edilar... Ha, aytgancha, Ibroybek qanday tirikchilik qilarkan? — dedi sulton to'satdan, gapni boshqa yoqqa burib.

— Kaftday yeri, o'nga yaqin tuyasi bor, — javob berdi Mahambet. — Shu kungacha Sirimning jasadini qidirarmish. Turkistondagi muqaddas qabristonga olib borib dafn etmoqchimish.

— Inshoollo, bu xayrli ishda unga madad berguvchi odam topilajagiga imonim komil. Sirimning xoki har bir qozoq farzandi uchun muqaddasdir. Buyuk Abulxayrni ham Xivada zaharlaganlar...— dedi Qayipg'ali.

— Ha, elimizda ozmuncha xon o'tmagan.

— Mahambet, haq gapni aytding. Hukmdorlik martabasiga erishib olgandan keyin o'zini kamtar tutishni, xalqqa muhabbat bilan qarashni har kim ham uddalay olavermaydi... Hokimiyat bilan shuhrat ko'plarning ko'zini ko'r qilib qo'yadi. Xalqni oqilona boshqarishni har kim ham eplayvermaydi. Jangirga qarshi qo'zg'alganimning ham sababi shunda-da. El-elatimga bo'lgan muhabbatim qanchalar cheksizligini, u chekayotgan azob-uqubatlardan qanchalar iztirobda ekanimni Allohning o'zi ko'rib turibdi. Mening birdan bir murodim — Jangirni xizmatimda ko'rish, qozoqning barcha urug'larini bir qabilaga birlashtirish, sendayin oqinlarning erkin qanot yoymoqlarini ko'rishdir...

— Edildan Oltoygacha bo'lgan keng dalalarda oqin mingan bedovni kishanlay olgan kun bo'lganmi o'zi? — dedi Mahambet sultonning so'zini bo'lib.

Uyga yigitlar kirib keldilar. Ulardan ikkisi qumron to'la katta tog'ora ko'tarib kirdi. Keyin To'ke bilan Ibroybek kirib keldi.

— Assalomu alaykum, Ibroy ota! — dedi Mahambet o'rnidan turib qarshi olarkan,— Qayoqda qoldingiz? Otaxon, bu kishi Yesimxonning o'g'li Qayipg'ali sulton bo'ladi.

— Ko'rib turibman. Modomiki u ostona hatlab uyimga kirgan ekan, mayli, mehmon bo'la qolsin, — dedi vazminlik bilan qariya. Sulton Mahambetga qaradi.

— So'zingda davom etaver, — dedi oqin, — men do'stlarimdan hech narsani sir tutmayman.

— Menga kuyov bo'lmish Olloquli, ixtiyorimga bir yarim ming nafar qo'shin berdi. Ularga har biringiz munosib sardor bo'la olasiz.

— Sulton, meni ham sardorlikka taklif etyapsanmi? — dedi Ibroy ota qulayroq o'rnashib olib, uzun dastali cho'mich bilan qumronni shopirayotgan No'yonning harakatini kuzatarkan. Mana, zarang kosalar keltirildi. No'yon ularga to'ldirib qumron suzdi.

— Olloquliga, uning navkarlari evaziga bir narsa va'da qilgandirsan? Yoki bu kuyovning qaynataga qilgan in'omimi? — dedi Ibroy ota.

— Mening qizim ba'zi yigitlarga qaraganda aqlliroq ish qilib, Jangirga qarshi kurashda o'z xalqiga yordam bermoq niyatida xonga tegishga rozi bo'ldi, — dedi-da, sulton o'rnidan turdi. U dasturxon chekkasida turgan zarang kosadagi qumronni oyog'i bilan to'nkarib yuborayozib, eshikka qarab yurdi. — Hoy yigitlar, sarson-u sargardonlik jonlaringga teggandir, axir?! Qilichlarning zangini to'kish payti yetdi! Mahambet, senga kibr saqlash yarashmaydi! Bundan foyda bormi?! Yaxshisi, Olloquli huzuriga bor, bosh eg, unga sodiq bo'lib qolajagingga qasamyod qil, ana unda biz Jangirga qarshi Bo'key o'rdasi ustiga otlanamiz. Senga aytadigan gapim shu...

Sulton chiqib ketdi. Xona ichra sukunat cho'mdi. Qayipg'alining otga mingani va o'z navkarlari bilan jo'nab ketgani eshitilib turardi.

Mahambet sukut saqlardi. No'yon ajablanib, hammaga bir-bir qarab chiqdi. U sultonni tanimas edi-yu, lekin Xiva xoni

o‘zining turkman navkarlarini Qayipg‘ali ixtiyoriga topshirgani yaxshilikdan darak bermasdi. Ikkinchi tomondan qaraganda, sulton ham xalq g‘amini yeb, Jangirxonga qarshi urush boshlashni gapirdi, u do‘stlashib ulgurgan yigitlarning ham maqsadlari shunday...

Nihoyat, tinchlikni Mahambet buzdi:

— Xo‘sh, do‘stlar, nima deysizlar, ehtimol, chindan ham fursat yetgandir. Sizlar endi ozodsizlar. Sadoqatlaring uchun ming rahmat. Xohlasalaring Qayipg‘aliga qo‘shilaveringlar. Men uning tug‘i ostida kurasha olmayman. Shuningdek, Olloquliga bosh egmayman ham. U bandi qilgan dashtlik onalar va qiz-juvonlarining faryod-u nolalari qulog‘im ostida yangrab turibdi.

— Buyuk Sirim rahnamoligida yurgan yoshlik kezlarimizda, qiziqqonlik ko‘p martalab pand bergan bizlarga, — dedi xo‘rsinib, vazminlik bilan Ibroy ota. — Shoshgan qiz erga yolchimas, deydilar. Qayipg‘ali, basharti Olloquli yigirma ming navkar bergan chog‘da ham, bu yerdan sizsiz hech qayoqqa siljimaydi. Qavatida siz bo‘lmasangiz uni Kichik juzning na biror urug‘i va na biron oqsoqoli hurmat qiladi. Mahambet, xalqning umidi senga o‘xshagan oqin va Isatoyga o‘xshagan botirlardan. Bizning zamonamizda hurmat qozonish amrimahol, uni yo‘qotish esa oppa-oson... Olloquli qo‘l ostida, Xivada yashayotgan qozoqlar bilan Tobi farzandlari bu yerda qancha tursalaring ham sizlarni tashlab qo‘ymaydilar. Bor-yo‘g‘imiz — hammasi sizlarniki. Sabr-toqatli bo‘linglar. Maslahatli to‘y tarqamas deydilar, avval yaxshilab o‘ylab ko‘ringlar, biror ahdga kelgach, undan qaytmanglar. Men ancha keksayib qoldim, yigitlar, ammo ilgari hamma janglarda Sirimning yonida bo‘lganman. Nihoyatda ayyor va makkor, qo‘rqmas Qoratoy sultonni ham tanir edim. Sirimni o‘shaning ayg‘oqchilari zaharlab o‘ldirdilar. Ehtiyot bo‘linglar, — dedi-da, bir zum jim qoldi Ibroy ota. — Ha, hozir mening qo‘limdan nima ham kelardi. Men yoshimni yashab bo‘ldim. Endi maslahat berishdangina nariga o‘tolmayman. Bilmadim, o‘gitlarimning sizlarga biron nafi tegarmikan...

— Ibroy ota, biz sizdan g‘oyat minnatdormiz. Do‘stlaringiz bergan non-tuz uchun bir umr qarzdormiz. Lekin hozir yigitlarning o‘zlari hal qilsinlar, — dedi Mahambet.

— Nimani hal qilamiz? Mahambet, yoki sen bizni tashlab ketmoqchimisan? Biz sen bilan chambarchas bog'langanmiz, — dedi qovog'ini solib Jantas. — Sultonni sinab ko'raylik, adaylar vallomati Suyunqora nima derkin, buni eshitaylik, ana undan keyin bir maslahatga kelarmiz! Lekin Isatoydan xabar kelgunicha sabr qilib turish lozim. Hozir bo'lsa, kosalarni beringlar. Bunaqangi qumronni xon saroyidan ham topa olmaysizlar. Buni Ibroy otaning o'zlari tayyorlaganlar... Bolabek, seni nima jin urdi, qovog'ing tushib ketibdi? Yoki sultonning so'zlari senga ma'qul tushdimi? Unday bo'lsa, boraver. Uning barcha navkarlari turkman ekan, tez til topishib olasan.

— O'z urug'ing ovullaridan qancha yigit Jangirga xizmat qilyapti? — uning so'zini shartta bo'ldi Mahambet. — Yoki sen qo'ng'irotlar to'g'risidagi gaplarimizni unutib qo'ydingmi?

— Qanaqasiga turkman bo'lardi ular? Yollangan yaloqxo'rlar, xolos, — dedi Bolabek tishlarini g'ijirlatib va o'rnidan turdi. — Mayli, mening vaqtim tugadi.

— Zeliliyning yonigami? — so'radi Jantas.

— Inshoollo, bugun Zeliliy bilan yuz ko'rishaman,— dedi Bolabek.

— Omadingni bersin. Ehtiyot bo'l, har ehtimolga qarshi, yigitlardan ikkisini birga ola ket. Unutma, bordi-yu biror hodisa yuz bersa, biz bormiz, kerak bo'lsa, Zeliliy uchun jonimizni ham ayamaymiz, — dedi Mahambet.

Har kimga ham ishonma, o'g'lon!
Shamollarda toblanib beti.
Tulporini ehtiyot etib —
Yo'l bosganlar mard va qahramon!
Shiddat bilan tortilsa kamon
Ojiz qolar har qanday qalqon.
Shundaylar ham yo'q emas — kunduz
Mardligini qilishar ko'z-ko'z,
Tunlar esa titrar vahmadan...

O'lan tuyqusdan quyulib kelaverdi. Xuddi yoshlik chog'ida, Jasqusning yashil bog'larida Fotima bilan maxfiy visol damlarini

kutib, shirin orzular quchog'ida cho'mib yurgan yoki novdaday nozik, er kishiday jasur Maqbol bilan Norinqumda birga g'azabdan quturayozgan yo'lbarsdek ot choptirib yurgan kezlaridagiday misra ketidan misra quyulib kelardi.

Lekin u kezlarda yozilgan o'lanning har bir so'zi, har bir misrasi jo'shqinlikka yo'g'rilgan bo'lardi. Endi-chi, endi uning o'lanlarida tobora ko'proq sog'inish, o'kinish va bezovtalik, tashvish aks eta borardi. Mahambet keyingi paytlarda ovozini chiqarib o'lan o'qimaydigan bo'lib qolgandi. Lekin bugun u chidab tura olmadi.

Nurbolning so'zlari unga sira tinchlik bermasdi.

"Senga sodiq va pok bo'lib qolishim uchun meni o'ldirib ketasan... Bu muqaddas o'lim!.. Hindiston rajpurlari bilan bizning tog'lik erkaklar dushmanga qarshi jangga kirish oldidan raqib qo'liga tushmasin deb xotinlarini o'ldirib ketadilar..."

Basharti hozir, butun yigitlarni to'plab, Olloquli saroyiga bostirib kirib, barcha begunoh tutqunlar — dasht qizlarini ozod etsa, qilichini xon qoniga bo'yasa nima bo'larkin? Pisib o'tirgandan ko'ra jangda mardlarcha halok bo'lgan afzal emasmi, axir!

...U Nurbolni uchratgan va bozorda odam savdosini o'z ko'zi bilan ko'rgan kunidan buyon bir oycha vaqt o'tdi-yu, lekin o'sha mushtipar kampirning alamli nolasi hanuz qulog'i ostidan, qo'rqinchdan dag'-dag' qaltirayotgan qizlarning ayanchli chehralari esa ko'z o'ngidan nari ketmaydi. Yana u Orenburgda, general-gubernator Essenning poytaxtida qozoq bolalari sotilishi to'g'risida hikoya qilgan ofitser Shustikovning so'zlarini ham eslab turadi. Yo'q, Essen emas, Suxetlen, Suxetlen Essenning o'rniga tayinlangan. Endi esa, aytishlariga qaraganda, Suxetlenning o'rniga Gekke yoki Perovskiy tayinlanarmish... Isatoy ham o'z maktubida shular to'g'risida yozgandi, uchrashganlarida Suyunqora ham shunday degandi. U bilan Mahambet turkman yigitlari zindon qorovullariga zahar qo'shilgan sharbat va qimron berib, o'z shoirlari Zeliliyni qutqargan tunda uchrashgan edi.

Yigitlar Zeliliy bilan birga shahar ko'chalaridan qiyqirgancha ot qo'yib bordilar, shahar darvozasi soqchilarining bo'yniga sirtmoq tashlab, sudrab ketdilar, keyin qum barxanlari ichkarisiga

kirib g'oyib bo'ldilar. Bular Olloquli Qayipg'ali sultonga sotgan turkmanlar. Bular Olloquli Qayipg'ali sultonga sotgan turkman yuzliklarining sarboz yigitlari edilar...

Zeliliyni qutqarishga yolg'iz o'zi uringan Bolabek baribir ish chiqara olmagan, barcha harakatlari zoye ketgandi. Zindon soqchilari tez-tez almashinib turardilar. Porani bir soqchi olardi-yu, kelishilgan paytda qo'riqchilikka boshqasi turgan bo'lardi. Zeliliyning qochganini Bolabek ertasiga ertalab xon mirshablari qochoqni izlab, shaharni ostin-ustin qilib tintuv o'tkaza boshlaganidan keyingina bilgandi. Zeliliy xalos qilingan tunda Bolabek va Jantas Mahambet bilan birga Suyunqoraning huzurida edilar.

* * *

...Ibroy otaning hovlisiga ko'zlari chaqchaygan, to'nkaga o'xshash, barvasta bir kishi kirib kelib, hech nimaga e'tibor bermay, salomlashmay, to'ppa-to'g'ri Mahambetning yoniga kelganida kech kirib qolgan edi.

— O'temisning o'g'li Mahambet sen bo'lasanmi? — deb so'radi u.

— O'zing kim bo'lasan?

— Ishing bo'lmasin! Oting qani? Ketdik. Suyunqora kutyapti.

— Qayerda? — Ishing bo'lmasin. Izimdan yuraver.

Bu kishi oyoqlari bilan ostidagi o'ziga o'xshagan qorindor, semiz oti qornini mahkam qisib olgandi. Bu odamning quyi labida chandig'i bor edi, qisqa, lekin baquvvat barmoqlari tars-tars yorilib ketgandi. U boshqa gap aytmay, otini burib, yo'lga tushdi.

— Qarog'im, kimsan o'zing, hech bo'lmasa ismingni ayt? — dedi Ibroy ota, lekin u kishi javob bermadi.

— Ha, buqadan battar qaysar ekansan! — deb qichqirdi No'yon ortidan. Lekin u kishi hech narsani eshitmaganday jim ketaverdi. U ko'chaga chiqqach, otini shahar darvozasi tomon burdi. Mahambet otga shoshilinch minishga majbur bo'ldi...

— Birga boringlar, — dedi Ibroy ota yigitlarga. — Bu "gung" uni qayerga boshlab borishini kim biladi. Buning ustiga, kech kirib qoldi...

Yigitlar o'rinlaridan sakrab turib, otlariga mindilar-da, Mahambetning ketidan tushdilar. Buni sezgan boyagi kishi otini to'xtatdi-da:

— Qayoqqa? Ikki kishidan ortig'ingizni olib bormayman, — dedi belbog'ida osilib turgan pichog'ini to'g'rilab qo'yarkan.

— O'zlaring ko'ryapsanlar, jahli chiqyapti, qayta qolinglar, — dedi kulib Mahambet va o'zi bilan birga Jantas va Bolabekni ola ketdi.

Shahardan yetti chaqirim chamasi uzoqlashganlaridan keyin paxta dalalari, allakimlarning bog'lari oralab ketgan so'qmoqlardan ergashtirib borib, ularni qalin to'qay ichkarisiga boshladi. To'qaydan uzoq yurilgach, nihoyat, qandaydir chayla yonida yonib turgan gulxan tepasiga boshlab keldi. Atrof qalin to'qay edi.

— Keldik. Otdan tushaveringlar... Chayladan uzun bo'yli, devqomat bir kishi chiqdi. Jantasning oti hurkib, kishnagancha o'zini chetga otdi. Qorong'i to'qayzordan ham otlarning kishnagani eshitildi. Zumda qamishzorda bir necha sarbozlar paydo bo'ldilar.

Devqomat odam gulxanga yaqin keldi. "Gung" yosh yigitlarday chaqqonlik bilan otdan tushdi-da, ko'z ochib yumgunchalik vaqt o'tmayoq qayoqdandir yo'lbars terisini keltirib, alpkelbat odamning oyoqlari tagiga tashladi. Devqomat kishi o'tirdi.

— Xo'sh, kim bo'lasizlar, bilsak bo'ladimi? — dedi u. — Meni chaqirtirgan kim o'zi, avval shuni bilishni istardim.

— Men bilan uchrashishni istovchi har bir odamni huzurimga taklif etaman, lekin ularning har qaysisi bilan ham quchoqlashib ko'rishaveradigan odatim yo'q. Qarshingda turgan kishi, adaylar g'animlarining yuragiga dahshat solguvchi Suyunqora bo'ladi! Mening urug'imni arslon deydilar.

Sher bo'lib ketaman olishuvda men,
Hech kim bas kelolmas yakkama-yakka.
Qolsam-da iskanja va siquvda men —
Qora bulut kabi yovlar qoshida,
Zarracha vahima kirmas yurakka.

— Odamlarning aytishlariga qaraganda, bu o'lanni berishlarning oqini Mahambet menga bag'ishlov qilganmish...

— O'sha Mahambet men bo'laman! — dedi oqin. — Jangirxon tuzoq qo'ygan kishi ham men bo'laman. Jangirxonning amakisi Oychuvoqxon esa mening otam O'temisga dushman edi... Suyunqora o'rnidan turdi.

— Yigitlar, bugun huzurimizga berishlar shunqori kelibdi, qani izzat-hurmatini bajo keltirganlaring?! — dedi-da, Mahambet va uning do'stlari bilan quchoqlashib ko'risha ketdi. — O'tiringlar, birodarlar!

"Gung" butalar orasidan yaralangan jayronni olib chiqdi. Suyunqora bahaybat qo'llarini ochib, mehmonlar sharafiga so'yiladigan jonliqqa fotiha berdi. Shundan keyin "gung" jonivorni chetroqqa olib borib yiqitdi-da, tizzasi bilan bosib turib, bo'g'ziga pichoq tortdi. Jonivorning tomog'idan tizillab otilgan issiq qon gulxangacha yetib keldi. Ikki yigit qozon o'rnatib, go'shtni nimtalashga yordamlasha boshladi...

— Mahambet, huzurimga qanday yumush bilan kelding? — dedi Suyunqora nigohini qozondan uzar ekan.

— El og'zida doston bo'lib yurgan odilligingva qudrating, shu bilan birga, Isatoy botirning do'stona salomi hamda iltimosini yetkazgani keldim, — javob berdi Mahambet.

— Sen bilan ham, Isatoy bilan ham do'st bo'lishni o'zimga katta sharaf deb his etaman, —dedi Suyunqora. — Kel, avval taom, ba'daz kalom, deydilar. Bu ota-bobolarimizdan meros...

Otlar asta kishnab qo'ydi. Ko'p o'tmay, gulxan yonida yoshgina otliq ko'rindi. U "gung"ga meshda qimiz uzatdi.

— Hoy, Ersari, nimaga u yerda serrayib turibsan? Qimiz quyishga kosa keltirsang bo'lmaydimi? — dedi Suyunqora. Mahambet, Jantas va Bolabek chayla yonida turgan odamni shundan keyingina payqadilar.

— Hoy, senlarga bir gap bo'lganmi, yoki kelishib olganmisanlar?! — deya "gung" tomonga burildi Suyunqora. — Hoy, Nurali, senga aytyapman. Ersari, senga ham. Axir, Mahambet bilan ona yurtlaringga jo'namoqchi bo'lib, uni kutayotgan edilaring-ku, endi bo'lsa u kelganda unlaring chiqmay qoldi. Bersh urug'ining lo-

chini, suyukli Mahambetlaring, mana, qarshilaringda o'tiribdi-ya! Qo'liga suv quylaring. Jayron boshini keltirlaring!.. Sen, Mahambet, bizning so'zlarimizga e'tibor berma. Biz, Ersari, Nurali hammamiz tengqurmiz, shu sababli qattiq-qattiq gapimiz bir-birimizga botmaydi. Nuralidan gap olishdan qiyin ish yo'q. Nima desang ham: "Ishing bo'lmasin", deb bir xil javob qiladi. — Suyunqora tengdoshiga hazilni yana davom ettirdi: — Indamasligi uchun unga Bo'keyxon deb laqab qo'yganmiz. Bo'keyxon ham Nuraliga o'xshab, indamas bo'lgan ekan. U ham bizning Nuraliday o'rinlimi, O'rinsizmi, hadeb: "Sening ishing bo'lmasin", der ekan. Lekin, o'ylashimcha, bizning Nuraliga nisbatan Qaybola bobosi Bo'keyga ko'proq o'xshab ketadigan ko'rinadi. To'g'rimi? — dedi-da, Suyunqora Mahambetga nazar tashladi. — Mahambet, nazarimda, Qaybola sulton sen bilan do'st ko'rinadi, u adaylari Olloquli tomoniga og'dirishga urinayotganga o'xshaydi. Ayni zamonda u Kaspiy bo'ylaridagi podshoh amaldorlarining ayg'oqchilari bilan qandaydir maqsad yo'lida aloqa bog'lamoqda. Agar kazak atamanlari unga Jangirdan taxtni tortib olishga yordam bersalar, ularga Isatoy va Mahambetni o'z qo'li bilan ushlab berishni va'da qilyapti u...

Mahambet indamay kosadagi qimizni simirdi.

— Hoy, Ersari, Mahambetga atagan sovg'ang qani?.. — dedi baqirib Suyunqora.

— Yigitlar, Qaybolaning yuvindixo'rini olib kelinglar bu yerga! — degan yo'g'on ovozi eshitildi Ersarining. Keksa sarboz ikki qo'li bog'langan, peshmat kiygan bir kishini gulxan yoniga olib keldi. Tutqunning do'ppisi chakkasiga qiyshayib qolgan edi. Qayipg'alining maslahatchisi va do'sti bo'lgan bu kishini Jantas tanidi.

— Aytgan so'zlaring to'g'rimi? — dedi Suyunqora unga yuzlanib.

— Allohning o'zi guvoh... — dedi tutqun tiz cho'kib, yuzini yashirgancha.

— O'zing so'ra, Mahambet, — dedi oqinga murojaat qilib Suyunqora. — Uch kun burun Ersari Qaybolaning qarorgohiga yashirin kirib, mana bu yuvindixo'rni bog'lab keltiribdi.

— Mening savolim yo'q, —dedi Mahambet.

— O'sha Qayipg'alingga atamanlar qanday javob berishdi? — deb so'radi Suyunqora bandidan.

— Taqsir, ular Jangirxon tarafida ekanlar. Ular Qayipg'alining o'zi bo'yin egib kelsin, dedilar.

— Olib keting, — deb buyurdi botir. — General-gubernatorga: Jangir ham, Qaybola ham baribir. Lekin hozircha Jangirning qo'li baland. Graf Suxetlen shunday debdi: "Qaybola men uchun xavfli emas... Mayli, qozoq xonlari bilan sultonlari bir-birovining go'shtini yeyaversin..."

Hammalari jimgina ovqatlana boshladilar.

— Sirim botirning boshi uchun xonlar bilan generallar uch ming so'm pul qo'ygan edilar, — deb uzoqdan gap boshladi Suyunqora. — Ertarginni[1] ham xonlar izza qilib ikki marotaba o'zi tug'ilib o'sgan eldan quvg'in qilgan edilar. U Qrim yerlarida boshpana topgandi. Lekin u xalq boshiga og'ir kunlar tushganida o'z yurtiga qaytib, lashkarlarni jangga boshlab kirgan. Imonim komilki, sen ham qadrdon ovullaringga qaytasan, xalqni himoya qilasan... Biroq hushyor bo'l, Mahambet. Bo'ri hech qachon el bo'lmaydi, u bo'riligicha qoladi. Bu so'zim Qaybola to'g'risida. Unga ishonma. Sirimni boshiga yetgan narsa ortiqcha ishonuvchanlik bo'lgan.

Suyunqora etni to'g'rab bo'lib, pichog'ini qo'njiga surtdi-da, qiniga solib qo'ydi. Uning yonida, yo'lbars terisi ustida qilichi bilan cho'qmori yotardi. Jantas qilich dastasiga zarb qilingan naqshni zavq bilan tomosha qilardi.

— O'zimga ham sovg'a bo'lmaganida uni senga taqdim etardim, — dedi uning havasi kelayotganini payqagan Suyunqora, — Bu general Suxetlendan. Mana uning maktubi, — dedi-da, cho'ntagidan tugunchak olib, uni Mahambetga uzatdi.

— *"...Ikki rus asirini menga topshirganlaring uchun sizga qiniga yashil barxit qoplangan qilichni sovg'a qilib yuboryapman. Ushbu sizga asqotib qolar degan umiddaman"*, — o'qidi oqin. Maktub ostida Suxetlenning imzosi bilan muhri bor edi.

— *"Biz Rossiyaning dushmani emasmiz, binobarin, uning ham bizga dushman bo'lib qolishini istamaymiz"*, deb maktubga

[1] **Ertargin** — qadimgi qozoq eposining qahramoni.

javob yozdim, — dedi Suyunqora. — Endi taom oldidan so'ragan so'rog'ingga javob beraman. Qozoqlarda shunday naql bor: "Qo'shningning bedovidan, o'z ovulingning toyi yaxshi". Men adayning farzandiman, shu yerda, Ustyurtda o'laman. Xiva xoni nasli-nasabi betayin Shabekni, adayga xon qilib tayinlayman, deb laqillatib yuribdi. Shabek bo'lsa, isyonkor rus atamani Andrey Strelshchikov bilan birgalashib beboshlik qilib yuribdi. Lekin adaylarga xon bo'lgan emas, bo'lmaydi ham. Adaylar bolasi beshigi tepasida-yu farzandi qabri ustida qadim zamonlardan buyon bunga ont ichib keladilar. Ikki o'g'limning jasadi mana shu ona yer bag'rida yotibdi, bir o'g'lim esa Xiva xoni zindonida olamdan o'tdi. Men esam qari buvra[1] yanglig' Mang'ishtov va Ustyurtni kezib, chiroqlarim qabrlari atrofidan uzoqlasholmay girdikapalak bo'lib yuribman. Ularni aslo unutolmayman... — dedi-da, yulduzlar charaqlab yotgan qorong'i osmonga qaradi va qo'llari bilan kumush soqolini siladi.

— Tug'ilib o'sgan ona tuproq oyog'imni mahkam bog'lab olgan. Toki ko'zim ochiq ekan, toki adayning so'nggi yigiti hayot ekan, tig' ko'targan biror kimsa ostona hatlab na o'tovimizga kira oladi, na ovulimizga qadam bosa oladi... Mana, inim, barcha so'roqlaringga beradigan javobim shu. Agar vaqti kelib Oqnazar, Tavakkal va birinchi Qosimxon zamonasida bo'lganiday, hamma qozoq urug'lari birlashsa, adaylar ham yerda qolmaydilar... Men ancha keksayib qoldim, Mahambet, uzoq safarga yaramayman, senga oq yo'l tilayman. Mana bu shamshirimni qabul et, — dedi-da, Suyunqora oltin qinli shamshirini Mahambetga uzatdi. — Ersari o'zining yuz yigiti bilan yo'lga chiqishga shay bo'lib turibdi. Ibroy ona xabar qilguniga qadar u shu yerda qolsin, yo'lga oziq-ovqat jamg'arsin, otlarga dam bersin. Isatoyga salom ayt. Yuz yil burun Janatoy botirning jung'orlar bilan qanday jang qilganini unutma...

U o'zining besh yuz kishilik yigiti bilan Xitoy devori ortidan yopirilib kelayotgan jung'orlarning o'n ming lashkariga qarshi kurashga otlanib, yo'llarini to'sib qo'ygan. O'shanda xonlar bilan sultonlar o'zaro kelisha olmay, bir urug' bilan ikkinchi urug'

[1] **Buvra** — yovvoyi tuya.

bir-birovining bo‘g‘ziga chang solib, qozoqlar qoni to‘kilayotgan kezlar edi. U bo‘lsa behisob yov lashkarlarini to‘xtatib, qozoq yerlariga yaqinlashtirmagan. U do‘sti Uysinboy botir bilan birga bosqinchilar ustidan g‘alabaga erishib, dushmanni chekinishga majbur qilgan. Lekin yigitlar qurshovga tushib, besh yuz sarbozdan o‘n kishi omon qolgan...

O‘sha jangda Janatoyning yolg‘iz o‘g‘li To‘qash mingan otiga o‘q teggan, botirning o‘zi halok bo‘lgan. Yaralangan Uysinboy botir o‘z otini navqiron To‘qashga berib:

“Ovuldan ovulga ot solib, barchaga yetkaz, nizoga chek qo‘ysinlar!” — degan.

Bola uning so‘ziga kirmagan, shunda botir tarsaki qo‘yib yuborgan. Lekin bola yana unamagan. Shunda botir bolaning oyoqlariga bosh urib: “Bora qol, agar seni ham o‘ldirsalar, biz uchun qasos oladigan hech kim qolmaydi, buni unutma!” — deya yolvorgan.

— Mahambet, unutma, ahvoling tang bo‘lib qolsa, bizga xabar qil. Adaylar qon-qarindoshlari boshiga musibat tushganda hech qachon qarab turgan emaslar... Biroq shuni yodingdan chiqarma: har qanday burgut ham o‘z to‘dasiga yo‘lboshchi bo‘lishning uddasidan chiqavermaydi.

Ba’zan ona burgut qish tushib qolgach, tuxumlarini uyasida qoldirib ketadi. Ayoz va shamolga bardosh bera olmay tuxum qobig‘i darz ketadi. Ko‘klamda qaytib kelgan ona burgut uyasida qolgan, sinovlarga bardosh bergan tuxumni tanlab, uni to ochib chiqmaguncha bosib yotaveradi. Yangi ochib chiqqan bu yagona bolasi kuchda, chidamda va qo‘rqmaslikda beqiyos bo‘lib o‘sadi va u burgutlar sultoni bo‘lib qoladi... Mahambet, odamlar ham shunday bo‘ladi. Qiyinchiliklar ko‘rgan, hayotda chiniqqan, jangda qo‘rqmas yigitgina xalqni urushning olovli yo‘llaridan boshlab o‘ta oladi.

Dasturxon yig‘ilib olingan, qo‘llar ham chayilgan. Qimiz to‘la kosalar yana qo‘ldan qo‘lga o‘tardi. Hamma o‘yga tolib, jim o‘tirardi. Suyunqora o‘rnidan turdi.

— Bu yil kuz erta tushib, havo sovuq keladi, — dedi va yana osmondagi yulduzlarga qaradi. — Xayr, omon bo‘l, Mahambet...

Mahambet Suyunqora botirning so'nggi so'zlarini eslab, beixtiyor osmonga nazar tashladi, minora hamda masjidlarning gumbazlari uzra uzoq tikilib qoldi. U bugun yana Munis huzurida bo'ldi. Munis Olloqulixonning yana Mahambet bilan qiziqayotganidan ogohlantirdi.

— Uzunquloq gaplarga qaraganda, — dedi Munis, — Olloquli seni o'z tomoniga o'tishingga majbur qilmoqchi emish, agar bunga ko'nmasang, qo'l-oyog'ingga kishan urib, Zeliliyning o'rniga zindonga tashlarmish. Bu ehtiyot bo'lib yurishingni taqozo etadi. Zeliliy qochgandan buyon shahar ayg'oqchilarga to'lib ketdi...

Oqin ichki qal'a devorini aylanib o'tarkan, Olloqulini o'ldirib, tutqunlarni bo'shatib yuborsam, degan ertalabki o'yi esiga tushdi-da, beixtiyor miyig'ida kulib qo'ydi. Jang qilish uchun ham aql kerak. Ana, Xiva hukmdorining saroyi, bog'lari va haramlarini qanday baland devorlar, qanday chuqur xandaq qurshab turibdi.

— Xushxabar bor, — dedi Mahambetni eshik oldida qarshi olgan Jantas. — Isatoy xalqqa murojaat qilibdi. Jangirga qarshi qo'shin to'playotganmish. Bizga ham vaqt yetdi...

— Vaqt yetdi! — javob berdi Mahambet. — Erta tongotargacha shay bo'lishimiz lozim. Ersariga chopar yubor: bizni daryo kechuvida kutsin.

— Nurbol uchun ot kerak bo'lar? — so'radi Jantas.

— Ha, ot kerak. Qo'shimcha ot zarar qilmas. Qizilboshlarning karvoni to'g'risida qanday xabar bor?

— Karvon bor. Katta karvon. Tunda Hirot sari yo'lga tusharmish.

— Unday bo'lsa, nega aytmay o'tiribsan?! Nurbolni safarga hozirlamoq kerak. Qo'limizda borini beramiz unga. Hali karvonboshi bilan so'zlashish, to'kedan iltimos qilish kerak, Nurbolni uyigacha kuzatib qaytsin. Bora qol, karvonboshiga yo'liq, yuk ortadigan ot ham tayyorlab qo'ysin!

— Nurbol biz bilan ketmaydimi?! — dedi ajablanib Jantas.

— U o'z yurtiga, uyiga jo'naydi!

— Nima uni Maqbolga ko'rsatishdan uyalasanmi?

— Uni qiynashni istamayman. Norinqum bizning o'z uyimiz, unga esa begona...

Afg'on karvoni tun salqinidan foydalanmoq uchun yarim kechada Xivaning katta darvozasidan chiqib, yo'lga tushib oldi. Bu darvozaga Zeliliyni qo'riqlayolmagan mirshablarning boshlari osib qo'yilgandi. Eng so'nggi tuya ustida qora chodraga o'ralib bir ayol o'tirardi. Nurbol piq-piq yig'lar, yonida esa qo'shimcha otning tizginini ushlab olgan To'ke indamaygina borardi.

* * *

...Xiva muazzinlari azon aytmoq uchun minora-yu mezanalarga chiqqan pallada Mahambetning yigitlari saksovul o'sib yotgan olisdagi kechuvda Suyunqora sarbozlarini kutib oldilar. Mahambet ostidagi oti oq ko'pikka belangan Munisga ko'zi tushdi.

— Mahambet, ajablanmay qo'ya qol. Ketmonimni shamshirga almashganim yo'q. Mirobligimcha qolaman. Seni kuzatib qo'ygali keldim, — dedi do'stidan ilgariroq so'z boshlab Munis. — Hali Jayxundan o'tib ketmasingdan burun seni Zeliliy bilan tanishtirmoqchiman.

Munisning yonida xipcha arab to'rig'ini mingan qotmagina kishi bor edi. Uning egnida qimmatbaho yengil chopon, boshidagi sur qorako'l qalpoq qoramag'iz va etsiz yuziga soya tashlab turibdi.

"Zindonda kulgini ham unutgan ko'rinadi", — o'yladi Mahambet o'zicha.

— Nega jim turibsizlar, birodarlar? — dedi Munis.

Shoirlar bir-birovlariga yaqinlashib, otdan tushmay, eski do'stlarday quchoqlashib ko'rishdilar.

— G'azalni zindonband qilib bo'lmaydi. Zeliliy, sizni ozodlikda ko'rib boshim ko'kka yetdi, — dedi Mahambet.

— Nahotki biz ozod bo'lsak? U holda ne sababdan ushbu yerda yashirinib turibmiz? — dedi achchiq jilmayib Zeliliy. — Akbarshohga harbiy hunardan ta'lim bergan ulug' zot, turkman Bayramxon, qul qumga kirib ko'milib ketsa-da, baribir qullikdan qutula olmaydi, degan...

— Olamning barcha boyliklariga ega bo'la turib qul bo'lib qoladiganlar ham bor. Qo'lida hech vaqosi, hatto erkinligi bo'lmasa-da, o'zini ozod his etadiganlar ham bor, — dedi Mahambet. — Biz bo'lsak, toki qo'limizda qurol bor ekan, erkin qushlarmiz!...

Yoshgina aday jangchi qimiz to'la zarang kosani botirga uzatdi.

— Ehtiyot bo'l, yerga to'kilmasin! — dedi Suyunqora. U xurjunidan non olib, uni to'rt bo'lakka bo'ldi, birini — Munisga, ikkinchisini — Mahambetga, uchinchisini — Zeliliyga berdi...

— Yoshim ulug' bo'lgani sababli men gapirmoqchiman: qo'lga Qur'on olib qasam ichgandan non ushlab ont ichgan ulug'roqdir. Qozoqlarda bir naql bor: "Qur'onni bosgandan ko'ra non uvog'ini bosmoq yoki oqliq tomchisini yerga to'kmoq gunohi azimdir". Har birimiz endi o'z yo'limizga ketamiz. Xiva fuqarosi Munisni kutmoqda, turkman ovullari esa Zeliliyni, seni bo'lsa, Mahambet, Isatoy chorlamoqda! Endi mana bu non va ot sag'risidagi meshda obdan pishib yetilgan mana bu qimiz bo'lg'usi janglar hamda safarlarimizda madad berg'ay!..

Suyunqora kosadagi qimizdan ho'plab, uni Mahambetga uzatdi. Kosa yigitlar davrasida qo'ldan-qo'lga o'tdi...

Mahambet daryodan kechuvga yetmayoq otidan sakrab tushdi-da, bir tup yovshanni yulib oldi. Keyin otiga sakrab minib, Munis ketidan choptira ketdi. Munis tuyoq dupurini eshitib, oti jilovini tortdi.

— Munis, mang! Bu yovshan. Uni gullar yoniga ekib qo'ying. Suv quymay sinab ko'ring...

— Inshoollo, endi daryoning narigi betida yashaymiz, — degancha Ersari o'zining janglarda sinovdan o'tgan to'rig'ini daryoga soldi. Uning nayzasi uchidagi bir tutam ot yoli bilan alvon mato — qo'zg'olonchilar alami hilpirar, yelkasida esa muvozanatni saqlamoqqa urinib qanotlarini patirlatgancha Suyunqora sovg'a qilgan lochin o'tirardi.

Indamas Nurali, Jantas, Bolabek va No'yonlar Mahambet bilan yonma-yon bormoqdalar.

IKKINCHI QISM

Cho'l jaziramadan hansirab yotardi. O't-o'lanlar uzra uchib yurgan sershovqin qushlar galasi qayoqqadir g'oyib bo'lgandi. Biyalar uyuri ustlarida g'uvullab uchayotgan chivinlarni ko'rib, olis jilg'a bo'yiga ketib borar, qorindor yumronqoziqlar inlari oldida hurpayganicha qaqqayib turardi... Qabriston vayronasi ustida qari, daydi cho'l burguti qip-qizil tilini osiltirib o'tirar, yoshrog'i esa osmonda parvoz qilib, jazirama issiqda qalqib turgan bir parcha bulut soyasidan uzoq ketolmay qanot silkib suzib yurardi.

Qari burgut sarg'ayib ketgan bir to'da qamish ostida turgan yumronqoziqni ko'rib, endi unga tashlanmoqchi edi, u iniga sho'ng'idi-yu, bir zumdayoq g'oyib bo'ldi. Burgut yana qanotlarini yig'ishtirib oldi-da, tevarakni ko'zdan kechira boshladi. — Chor atrof qir-adir, past-baland tepaliklar. Eng katta qirning etak tomonida chuqurlik qorayib ko'rinardi, undan keyin esa — yo'l... Bu yerlarning sir-asrori qari burgutga ilgaridan ma'lum...

U bu yerdan ancha uzoqda oqadigan daryo ortidagi tog' qoyalari orasida dunyoga keldi, lekin qanoti qotgandan beri shu yerlarda ov qiladi. U yoshligida olisdagi qum barxanlari ichida bo'lgan odamlar qirg'inining shohidi. O'shanda qanchadan qancha burgut va quzg'unlar uchib kelib, murdalarni talamadi deysiz. Yemish yetarli. Bunday to'kin ziyofatni ilgari ham, keyin ham burgut zoti ko'rgan emas...

U ovdan qaytib kelganida, ona burgut qanotlarini shalpaytirib qoya ostida qonga belanib yotar, uyasi bo'm-bo'sh edi. Uning yonida uzun dastali nayza bilan qora qildan to'qilgan to'r... hamma yoq patga to'lib ketgan, qandaydir qonga belangan latta qoyaga ilinib turar edi.

U kun bo'yi tog'-toshlar ustida aylanib uchib yurdi, qichqirdi, ona burgutni, palaponlarni chaqirdi. Tunni yolg'iz o'tkazdi. Tong

otishi bilan yana osmonga ko'tarildi. Ularni izladi, lekin ochlik uni yana dalaga yetakladi. U bu yerga uchib kelib, jajjigina bir oq qo'zichoqni ko'rib qoldi. Qo'zichoq tinmay ma'rar, nimanidir axtarib hali u-hali bu tepalikka chopardi. Och burgut qo'zichoqning ustiga o'zini tashladi, tirnoqlarini botirgancha, o'tkir tumshug'i bilan miyasini teshdi... Shundan keyin u o'ljani changaliga olib, havoga ko'tarildi-yu uyasi, palaponlari yo'qligini eslab, lapanglab giyohlar ustiga qo'ndi. O'sha yerning o'zidayoq qo'zichoqning mayin terisini tilka-pora qilib, qo'ng'iroqday juni aralash barra go'shtini yulqilab yuta boshladi.

U to'yib olgandan keyin, tanish tovushni eshitib o'girilib qaragan edi, boshqa burgutni ko'rdi. Qari burgut tumshug'idagi go'shtni tashladi-yu, begona burgutga otildi. Lekin yosh va kuchli burgut uni bir hamladayoq qulatib, go'shtga tashlandi. Bu ko'z ko'rmagan, quloq eshitmagan bezbetlik edi. Bunga chidolmagan cho'l hukmdorining g'azabdan ko'zi qonga to'lib, patlari hurpayib ketdi. U bor quvvatini yig'ib, hurpayib hamlaga hozirlandi, tumshug'ini nayza qilib chaqirilmagan mehmonga tashlandi. Raqiblar patir-putur qilib havoga ko'tarilishdi, cho'qishib, bir-birlarini qanotlari bilan savay boshlashdi. Endi cho'l hukmdori bor kuchi bilan himoyaga o'tgan edi. U parvoz qilishga urinar, biroq "mehmon" es-hushini yig'ib olishiga imkon bermas edi.

Tulki va bo'rilarni osonlikcha yer tishlata oladigan, shu topgacha tanho dasht hukmdori hisoblangan qari burgut endi chekinishga majbur bo'lgan edi. U uzoq adirlarga qarab ucha boshladi, yosh burgut esa xotirjam, qo'zichoq yoniga kelib qo'ndi.

O'shandan keyin bu yerlarga ikki burgut hukmdor bo'lib qoldi...

Yosh burgut yetkazgan jarohatlar juda sekinlik bilan bitdi. Qari burgut asta-sekin holdan keta boshladi. Endi u faqat yumronqoziq va sichqon ovlab kun kechirar, quyonlarni osonlikcha tutolmas edi. Yosh burgut esa o'lguday ziqna. Adashib qolgan qirg'ovul va qo'zichoqlarni ovlab yurar, ayni vaqtda qari burgutdan nigohini uzmas, o'ljasini tortib olish payida bo'lar edi.

Bugun qari burgut to'q, raqibiga nazar ham tashlamasdi. Uni boshqa narsa tashvishga solardi: palaponlaridan judo bo'lganidan

keyin o'ziga makon qilib olgan mozor yaqinida yana odamlar paydo bo'lib qolishdi. Ikki qir oralig'idagi soyda yana qo'ylar yoyilib yuribdi, bu yerdan birvaqt oltin rang qirg'ovul tutgani burgutning esiga tushdi. Qo'ylar soya qidirib bir-birining pinjiga tiqilib olgan, suruv bamisoli orolga, tepada uchib yurgan yosh burgut esa bulutga o'xshab ketardi, qo'ylarni ikki kishi boqib yurardi. Burgut mozordagi xarobada o'tirib, ko'ziga umri bo'yi qo'rqinchli ko'rinib kelayotgan cho'ponlarni diqqat bilan kuzatar edi.

O'tirgan cho'ponlardan biri o'rnidan turdi-da, uyurni aylanib chiqdi. Burgut uni tanidi. Burgut uni shuning uchun ham eslardiki, bu odam palapon burgutni bu yerga keltirib, keyin erkinlikka qo'yib yuborgan edi. O'shanda palapon cho'l ustidan bir aylanib, keyin zim-ziyo yo'qolgan, qari burgutning yuragida o'chmas dog' qoldirgan edi.

Cho'pon ozodlikka qo'yib yuborgan palapon aslida o'zining palaponi ekanini u qayoqdan bilsin? U qoyadagi uya yonida arqon qoldirib ketgan ham, osmonga birinchi bor ko'tarilganida ko'rgani ham mana shu Jiydali ovulining odamlari ekanini qayoqdan bilsin?

Jiydali ovuli cho'lning chekkasiga, Norin qumligiga tutash yerga joylashgandi. Qum uyumlari, saksovul va cho'l ajriqlari oralig'ida ko'm-ko'k o'tloqlar ham bor edi. Shu o'tloqning o'rtasidagi kapa va yerto'lalarda sero't yaylovlarga ko'chishga qudrati kelmaydigan kambag'al turg'unlar istiqomat qilishar edi. Bir oilada ikkita qo'y, bitta qirchang'i tuyasi, kaftdekkina suli ekiladigan yeri bo'lar, hamma boyligi faqat shugina edi.

Turg'unlar o'zlarini bundan qirq yil chamasi oldin oq podshoh bilan xonga qarshi qo'zg'olon ko'targan Sirim Dat o'g'lining sarbozlaridan qolgan naslmiz, deb hisoblashardi. Bular orasida Edil bo'ylaridagi qozoqlarning Yoyiqqa ko'chib ketayotganlaridagi qirg'indan omon qolganlari ham bor: qozoq, rus otradlari bilan xon navkarlari quvg'iniga uchragan xalq jazirama cho'lda va taqir yerlarda qolib ketib, jondan, mol-mulkdan ayrilgandi... O'shanda og'ir safarga hamma ham bardosh bera olmadi. Ba'zilarning o'ligi yo'lda qolib ketdi. Jazo otradlariga to'qnashib qolishdan qochib, yo'lni boshqa yoqqa burib ketgan ba'zi birovlar qumliklarda

halok bo'ldi, Jiydali ovuliga bir nechtagina oila yetib kelgan edi o'shanda.

Ovul ahli ularni ochiq yuz bilan kutib oldi; qo'y va sulisini ular bilan baham ko'rdi. Yangi kelganlar ham qarab turishmadi, ular ovuldagi yigitlarga temirchilik kasbini o'rgata boshlashdi. Bersh urug'ining yigitlari adaylik qizlarga, adaylik yigitlar Bersh urug'i qizlariga uylanishdi, naymanlar esa arg'inlarga qiz berib, qiz olib quda-qudag'ay bo'ldilar. Bola-chaqa ko'payib, Jiydali ovuli gavjum bo'la boshladi. It boqib, qush o'rgatadigan ovchilar ham yetishib chiqdi... Sirim sarbozlari bilan Edil bo'ylaridan kelgan Jiydali ahli o'ziga to'q turmush kechira boshladi. Davlatmandlar ham paydo bo'ldi. Davlatli kishilar haddilaridan oshmay kamtarona yashashar, Sirim botir yurishlari hali ularning yodlaridan ko'tarilmagan edi.

Ovulning o'ziga yarasha mashhur kishilari ham bor. Bu ovulga Alqa ismli, sumbatli, bo'ychan, aqlda oqsoqollardan, kuch-quvvatda polvon yigitlardan qolishmaydigan ayol boshliq. U yoshligida ovulning eng yaxshi o'lanchisi hisoblanar edi.

Hozir esa Alqaning qal'asida ayron ham yetishmaydi. U muhtojlikda yashaydi-yu, boshqalarga sir boy bermaydi. Ovuldagilar uni hamon yaxshi uy bekasi sifatida izzat-hurmat qilishadi. Eri Sag'irboy cho'pon, doim ozoda kiyinib yuradi; egnidagi quroq ko'ylagini ham, jun paypoqni ham, boshidagi qalpoqi ham Alqa o'z qo'li bilan tikib bergan. Shu yoshgacha uning turmushdan noliganini hech kim eshitgan emas. Ularning Qurmon va Boyg'ozi ismli o'g'illari erkin, sog'lom o'sdi. Sag'irboy bilan Alqaning ularga baqirganini yoki musht ko'targanini ovul ahli ko'rgan emas.

Biror ma'raka, nikoh to'yi yoki farzand to'yi bo'lib qolsa, Alqa erining kiyimini kiyib o'rtaga tushardi. Bunday hollarda kurashda unga teng keladigan kishi kamdan kam topilardi. Bir keksa temirchi ustaning u bilan bellashmoqchi bo'lib kurashga tushganida sharmanda bo'lgani hamon hammaning yodida. U sho'rlik ikki marta kuragi yerga tegganidan keyin nomusiga chiday olmay Jiydalini tashlab ko'chib ketgan...

Endi Alqaning o'g'li Qurmong'ozi ham ovulda yaxshi nom chiqardi. U ham otasi singari bir qarichligidan qo'y boqdi. Lekin

cho‘ponlikda otasiga, tengqurlariga tortmadi: parishonroq chiqdi, qo‘zichoqlarni, qo‘ylarni yaxshi boqa olmadi. U, hatto cho‘ponligini unutib qo‘yardi. Faqat ba’zan otari esiga tushib, atrofni diqqat bilan kuzatar, ovozining boricha: “Qur-ey” — deb qo‘yar edi. Uning do‘rildoq, xavotirli ovozini eshitib dahshatga tushgan qo‘ylar o‘t-o‘lanlardan o‘tib, to‘g‘ri uning yoniga kelib tikilar, ma’lum vaqt o‘tgach, yana o‘tloqqa yoyilib ketardi. Keyin qo‘ylar qo‘ychivonni, qo‘ychivon esa qo‘ylarni unutib yuborar, shuning uchun u otar egasidan talay martalab qamchi ham yegan. Lekin odamlar hech qachon uning ko‘z yoshi qilib yurganini ko‘rishmagan. U doim nimanidir o‘ylab, xayol surib yurardi.

Jiydaliliklar uni avvallari erkalab: “Sag‘irboyning qaysari” yoki “Alqaning aqlsiz o‘g‘li”, deyishardi. Buning hammasiga bolaning o‘ta parishonligi sababchi edi. U musiqani sevardi: do‘mbira, qo‘biz yo sibizg‘a chalayotgan sayyor mashshoqni ko‘rsa, yoki onasi o‘lan aytsa, befarq qaray olmasdi. U ertadan to qosh qoraygunga qadar butazorga yashirinib olib, kuy-o‘lan tinglashdan charchamas edi. U gohida ovqat yeyishni ham unutib qo‘yar, qamishzorda sayrayotgan qushlar nag‘masini eshitib o‘tiraverardi. Edil bo‘yidan kelgan keksa qo‘ychivon sovg‘a qilgan eski qo‘bizni qo‘liga olib, ovulda eshitgan mungli bir kuyni chalgani-chalgan edi. Bora-bora “Sag‘irboyning qaysari” yoki “Alqaning aqlsiz o‘g‘li” laqablari boshqacha ma’no kasb etdi. Endi, kichkinagina Qurmash[1] bu elning manaman degan sozandalari bilan osongina bellashadigan bo‘lib qoldi. Uning o‘zi boshqacha, tiniq va kuchli ovoz chiqaradigan do‘mbira yasaganida hamma qoyil qoldi. U ana shu do‘mbirasini birinchi marta qo‘liga olib, ilgari hech kim hech qachon ijro etmagan — o‘zi bastalagan yangi kuyni chalganida jiydaliliklarning quvonch va hayrati oshdi, uning shov-shuvi boshqa ovullarga ham yetib bordi.

Birovlar Sag‘irboyning yettinchi otasi katta bastakor bo‘lgan, o‘sha Qurmashga meros bo‘lib o‘tgan, derdilar.

— Har qalay, u boshqa bolalarga o‘xshamaydi. “Odami” bor deysizmi, nima desangiz deyavering, ammo uni anchayin do‘mbirachi deyish xato, — derdi uzoq mulohazadan keyin odamlar.

[1] Qurmong‘ozi ismning erkalab aytilgani.

— Bu cho'llarda atoqli sozandalar ko'p o'tgan, ular hozir ham kam emas! Quyosh jaziramasida qizib yotguvchi, qahraton qishda to'ngdiruvchi... bosqinchilar zulmi ostida qaqshagan bu yerlarda san'atkorlar kam o'tganmi?.. Yo'q, kam o'tmagan. Ammo ulardan qaysi biri Sag'irboyniyg o'g'liga o'xshabdi? — derdi baralla ovul oqsoqoli Ollayor qariya.

Jiydali ovulida Ollayor qariyaning zakosiga hech kim shak keltirmasdi. Uni bu yerda kattadan kichik Ollayorbiy, Ollayor qozi der edi. U yoshligida butun cho'lni kezib chiqqan, O'rta va Katta juz yerlarida ham bo'lgan. Necha martalab janglarda ham qatnashgan. Uning bobosi jung'orlar bilan bo'lgan urushda botir nomini olgan, o'zi esa faranglar bilan bo'lgan vatan urushida qatnashib, rus podshohining maqtoviga sazovor bo'lgan.

— Bizning qo'shiqlarimiz bosiq, kuylarimiz ma'nodor. Zamon ruhimizni sarishta qilib qo'ygan, — deb so'zini davom ettirdi anduh bilan Ollayor. — Jallodlar yigitlarimiz boshida ming martalab qilich o'ynatgan. Xalqimiz uy-joyidan mahrum etilgan, haqoratlangan, tumtaraqay quvilgan. Xalqimiz mo'min va itoatkor bo'lib qolgan. Ichimizdan urug' va qabilalarni birlashtirishga undaydigan biron-bir kishi chiqmadi; bizda Abdulxayrxondek yoki Bo'genboy, Tayloq, Sayriq singari botirlar ham yo'q. Hamon biz Sirim botirni yo'qlab ko'z yoshi to'kamiz. Xalqimiz botirlaridangina emas, nomidan ham mahrum bo'ldi, ustimizda begonalar tamg'asi bor. Ehtimol, bechora bu elga Qurmashday alomat do'mbirachi kerakdir! Bu sozanda bastalagan kuylarda el boshiga tushgan azob-uqubat, alam va hasratlar ifodalanyapti, uning kuylarida vahshiyona yurishlarni va bu jang-u jadal keltirgan dahshatlarni ko'z oldimizga keltiryapti. Xudoga shukurki, Bo'genboy boshliq botirlar, barcha juzlardan to'plangan sarbozlar dalani tutib ketgan jungor galalarini yerimizdan quvib chiqarib, xalq nomusini saqlab qoldilar. Lekin o'shandan beri kuchdan qoldik, er yigitlar kamaydi, hamma juzlar boshpanasiz... cho'chitib qo'yildi... Biz Sirimni ehtiyot qilolmadik. Uning so'zlari ham qurmash bastalagan kuylar kabi odamlarni to'lqinlantirardi. U xalqni o'z ketidan ergashtirishni bilardi. Sirim botir tug'i ostiga kun sayin ko'plab yigitlar kelib qo'shilishardi. Qozoq qayta tug'ilganday, kuch-quvvatga qayta to'lganday,

ota-bobolarimizning jangovar ruhi yigitlarga madadkor bo'lganday edi. Sirim xalq hayotini yengillashtirish uchun xonlarga qarshi o'n yil kurashdi. G'alaba kuni ham yaqinlashgan edi, lekin Allohning o'zi bizni jazoladi. Yutga duch keldik. Yana ochlikdan qirg'in bo'ldi. Ota-bobolarimiz bu dunyodan o'tar ekanlar, Xudoning irodasiga qarshi turmanglar, har qanday qiyinchilikka bardosh bermoq kerak, deb vasiyat qilishdi... Allohning qudrati cheksiz.

U gunohkor bandalarni qilmishiga yarasha jazolaydi. Burungilar johil odamdan, ma'nosiz qo'shiqdan va g'urbatdan qo'rqish kerak, deyishardi. Qurmashni ehtiyot qilinglar, do'mbirasini haddan oshirib so'ylatavermasin...

Ollayor, odatda, bu qadar uzoq so'zlamasdi. So'zga xasis qariya Qurmashning iste'dodidan ich-ichidan quvonar, faxrlanar edi. U ba'zan qilayotgan ishini qo'yib, ohista ovul oralab ketar, oqsoqollarga xos bir-bir bosib, Qurmashni qurshab o'tirgan yigitlar yonidan o'tardi.

Qariya eng yaqin yerdagi bo'z uyga kirdi. Uning niyati uy egasi bilan suhbatlashib, Qurmashning do'mbirasini tinglamoq edi. Uning chehrasidan Qurmash chertayotgan kuyni tinglayotibdimi, yo o'z o'y-xayollari bilan bandmi, bilib bo'lmasdi...

E voh, bu kuy muncha sehrli bo'lmasa! Bu kuyni Qurmash emas, botirlarning tulporlari tuyoqlari ostida yastanib yotgan ona yer kuylamoqda. Unda sonsiz sarbozlarning suronlari, bedovlarning kishnashlarni eshitilib turibdi...

Qurmashning do'mbirasi o'tmishdagi yurishlar haqida hikoya qilarkan, hech qachon g'am-anduhni, yig'loqi tushkunlikni tarannum etmaydi. U kishi hofizasida janglarni, g'alabalari jonlantiradi. Bunday damlarda qariya Ollayor xotirjam o'tirolmaydi. Uning qalbida faxr hislari, nafrat tug'iladi, u o'zini tutish va tuyg'ularini tizginlash uchun tishlarini g'ijirlatadi.

Oqsoqolning bu dasturni buzgan kezi ham bo'lgan. Bu voqeani jiydaliliklar unutishmaydi: u odatdagiday o'tovda o'tirardi. O'tov ichida yakka-yu yagona, yarqiratib tozalab qo'yilgan uzun miltiq kiraverishda ilig'liq. Bu Ollayorniki. U 1812-yilda xonning rus podshohi ixtiyoriga yuborgan qozoq otradi safida Ashtarxon orqali o'tib Moskvaga borgan edi. O'shanda faranglar bilan bo'lgan

janglarda ko'rsatgan qahramonligi uchun uni otga mingazishdi, qo'liga miltiq berishdi, ko'ksiga medal taqib qo'yishdi. Miltiqning yonidagi qo'nalg'ada to'mag'ali burgut cho'qqayib o'tirardi, uni jiydalilik ovchilar sovg'a qilishgan. Chol qushiga onda-sonda go'sht berib qo'yadi...

Vaqt tushdan oshgan bo'lsa-da, hali kech kirguniga qadar yana uch marta qozon osish mumkin edi. Biyalarni kunduzgi sog'ishga haydab kelishgan, hamma yoqni yilqi va ayron isi tutib ketgan edi. Qo'shni ovullarning yigit-qizlari o'tloqqa, qulun bog'lanadigan yerga yig'ilishdi.

Qurmash o'yga cho'mgandi. Uning barmoqlari do'mbira torlariga ohista tegar, tordan yoqimli sado eshitilar va yana so'nar edi. Keyin yakka torlar diringlay boshladi. Yana jimjitlik. Nihoyat do'mbira chalinib, mungli kuy yangradi. Ollayor qo'lidagi go'shtni tushirib yubordi. U g'oyatda ta'sirlangan edi. Qurmash o'zgarib qolganga o'xshardi, u mungli kuy ijro etardi.

Chol adashgan ekan, kuy asta-sekin avjga chiqib, jaranglay boshladi. Qurmash xuddi baxshilarday, el boshiga tushgan g'am-alamlar haqidagi xotiralardan boshladi. Keyin u kutilmaganda xuddi o'tmish iztiroblaridan xalos bo'lganday boshini shartta baland ko'tarib, do'mbirani daranglatib cherta ketdi. Bu kuy sadosi yaqin atrofdagi har bir o'tovda eshitilib turar, kuy ovulni tutib ketgan edi.

U o'zini o'zi takrorlamasdi. Uning barmoqlari ostidan har safar ham yangi kuy quyulib chiqib kelardi. Yo'lovchilar to'xtab qolishardi. Otliqlar ham tizginlarini tortib Qurmash tomon burilishardi.

Qurmashning yuzlari oqarib ketgan, ko'zlari katta-katta ochilgan, u odamlar osha, ovul osha, yurtlar osha uzoq-uzoqlarga tikilar, ammo hech nimani ko'rmasdi, u o'lja axtarib uchishga otlanayotgan shunqorga o'xshardi go'yo...

Yana do'mbira mungli kuylay boshladi, yana bedovlarning kishnashlari, qilich va nayzalarning shaqir-shuqurlari eshitilayotganday tuyuldi. Barmoqlar tinimsiz harakat qilar, tevarakka ajoyib kuy taralardi. Ollayorning yuragi orziqib ketdi. Kuy uni o'ziga butunlay maftun qilib qo'ygan, ko'zlarini Qurmashdan uza olmas,

butun vujudi quloqqa aylanib qotib qolgan edi. Bu qo'shiq sahroning butun poyonsizligi va asovligini; sahroyi qozoqning, mangulik jangchining kishini mast etuvchi mag'rur ruhini o'zida aks ettirardi. Hozir Ollayorning quloqlari ostida minglab qipchoqliklar jo'rovoz bo'lib qahramonlik kuyini ijro etayotganday edi...

Chol o'rnidan turdi. Endi u o'tov ichida ortiq chidab o'tira olmasdi. U ostona hatlab tashqariga chiqdi-da, xuddi ko'r kishiday hassasi bilan turtinib-surtinib mashshoq oldiga yaqinlashga bordi. U un chiqarmay borardi. Nazarida bu kuy borliqni, hamma dalani o'ziga mahliyo qilib qo'yganday...

Do'mbirachi qattiq zarb urdi! Hamma narsa jim bo'lib qoldi. Tor uzildi, do'mbira dunyoga kelib bunaqangi zarb ko'rmagandir, ehtimol.

Ollayor hamon yurib borar, o'zini to'xtatolmasdi. Uning quloqlarida hamon qo'shiq jaranglab turardi:

— Qurmash, Qurmong'ozi, davom ettir! — deb yubordi qariya. U qaltirardi. Qurmash jim. U hali tugallanmagan qo'shiq ichida yashardi.

Yigitlar qariyani izzat qilib, o'rinlaridan turdilar. Kimdir Qurmashga o'z do'mbirasini uzatdi, lekin Qurmash uni olmadi.

Uzoqdan eshitilayotgan do'pir-do'pir tuyoq ovozi davraga yig'ilganlarning xayolini bo'lib yubordi. Odamlarning ko'zi uzoqda ovul tomon ot choptirib kelayotgan bir to'p kishilarga tushdi.

Qulun kishnay boshladi. Adir oralab yurgan tuyalar bo'zlashdi. Ollayor yana o'zining avvalgi holatiga qaytdi. Yonida turgan yigitga o'girilib, jiddiy buyurdi:

— Bor, burgutni olib kel. O'tovda. Qo'lingga ehtiyot bo'l, yenglik kiyib ol...

Ollayor bola burgutni Qurmashga sovg'a qildi.

— Ol, sen yaratgan kuylar mana shu qush kabi uchqur bo'lsin, ovullardan ovullarga parvoz qilsin. Men seni bilmas ekanman. Endi sen yolg'iz Sag'irboyninggina farzandi emas, el farzandisan. Baraka top, o'g'lim. Shuhrating elga taralsin! Omin...

Ertasi kuni tongotarda Qurmash ovuldan uzoq baland adirning tepasiga chiqib, Ollayor sovg'a qilgan bola burgutni qo'yib yubor-

di, qabriston atrofidagi qari burgut esa bola burgutning ketidan to g'oyib bo'lib ketgunicha qarab turdi...

Kecha burgut ovul ustida uchib yurganida ko'chalarda ko'p otliqlar borligini ko'rdi. Jangirxon Jiydali ovulini bu o'lkada eng badavlat boy — Dulatga in'om etganini, Jiydaliga kelgan otliqlar orasida boyning o'g'li ham borligini, Dulatning yasovuli jiydaliliklarga og'a-sultonning farmoyishini o'qib eshittirayotganini kek-sa qush qayoqdan bilardi, deysiz?

Jiydali yerlari azaldan Dulatboyniki edi, lekin u shu vaqtgacha zarur bo'lmagani uchun bu to'g'rida indamay kelgan edi. Farmon-da bugundan boshlab Dulatboy jiydaliliklarni o'z qanoti ostiga ola-jagi aytilgan edi. So'ngra yasovul bir-ikki kundan keyin mirzaning o'zi navkarlari bilan kelishini xabar qildi. Jiydaliliklar u kishini hurmat-izzat ko'rsatib kutib olishlari lozim. Sag'irboyning o'g'li kuy ijro etib, unga rohat baxsh etishi kerak. Dulatning o'g'li esa Qurmashdan hoziroq kuy ijro etishini talab qildi.

Xalq jim turardi. Ollayor ham churq etmadi. Qurmashning o'ng qo'lida yenglik, yenglik ustida bola burgut o'tirardi.

— Ko'rib turibsanlar-ku, do'mbiraning tori uzilib yotibdi, — dedi bir qariya.

— Boshqa do'mbira qurib qolibdimi? Bu yerda do'mbirachilar to'lib yotibdi-ku. Hoy, unga do'mbira beringlar! — dedi o'shqirib Dulatning o'g'li.

Qurmash uning yuziga tikilib qaradi.

— E, bu bolaning esi kirmaganga o'xshaydi! Xo'mrayib qa-rashini qaranglar... — dedi boyning o'g'li kulib.

Qurmash qo'lidagi burgutni yonidagi odamga berib, unga tash-landi, otining tizginiga yopishdi. Lekin boyvachcha otining yuga-nidan tortib, qamchisini silkitdi...

Qurmashni o'rab turgan yigitlar bir zumdayoq jips bo'lib qo-lishdi. Ulardan biri qamchiga o'zini ro'para qildi. Boshqalar dam o'tmay, boyvachchani ot ustidan yulib olishdi. Otliqlar suron sol-ishib o'z murzalarini ajratib olishib, uni yana egarga mindirishdi.

— Bas qilinglar! — dedi Ollayor oraga tushib. — To'xtanglar. Zavol payti, axir! Qozoqmisizlar, axir? Zavol paytida og'a-inilar bir-birlari bilan urishganini ko'rganmisizlar?!

— Hali ko'ramiz, ertaga qanday sayrar ekansanlar... — dedi boyvachcha alamzadalik bilan otining tizginini bo'shatib.

— Qo'rqma, Qurmash, ko'rsak ko'raveramiz, — deyishdi boyning yilqinlari. Lekin ularning tovushlarida qandaydir xavotir bor edi...

Jiydali yeri Dulat qo'liga o'tgani va boyvachcha bilan yilqichilar o'rtasida bo'lib o'tgan to'qnashuv haqidagi xabar hammani tashvishga solib qo'ydi.

...Oqshom paytida havoda uchib yurgan qari burgut yilqichilar ovullaridan chiqib otlarini yo'rg'alatib, qo'llariga do'mbiralarini olganlarini va uni yana chala boshlaganlarini ilg'adi. Ular Qurmashning tugallanmagan kuyini davom ettirishdi. Dala bo'ylab yangrayotgan bu kuy qari burgut yuragiga ham ta'sir qilganday edi go'yo.

Ovulni sukunat qurshab oldi. Eng kambag'al turg'unlar yashaydigan chekka joylardan yosh bolalarninggina yig'lagan ovozi eshitilib turardi. Odamlar shosha-pisha qo'ylarini ovulga haydab kelishar, otlari uzoqqa ketib qolmasin uchun tushovlab qo'yishib, jimgina kechki ovqatga olov yoqishardi. Faqat Sag'irboyning kulbasi yonidagina xotinlarning shang'illagan ovozi eshitiladi.

— Jiydali boshiga balo bo'ldi o'g'ling. Dulatboyning bolasiga qarshi chiqibdi. O'g'ling kim bo'libdi o'zi? Kimga tortdi o'zi bu yaramasing? — deb vaysashardi Alqaga xotinlar. — Sening aqlsiz o'g'ling, biz jiydaliliklar boshiga kulfat keltirdi!..

Erkaklar haddan oshayotgan xotinlarini zo'r-bazo'r o'tovlariga olib ketishdi. Alqa yolg'iz qoldi. U ancha vaqtgacha allaqachon so'nib qolgan o'choq yonida o'tirdi. Otasi Qurmashga hech narsa demadi. Faqat, burgutga ber, deb bir parcha go'sht uzatdi unga.

...Asta qosh qoraya boshladi. Xalq xavotir ichida uyquga ketdi. Hamma uxlaganidan keyin, bir necha oila, bud-shudini asta yig'ishtirdi-da, tug'ilib o'sgan ovulini tashlab chiqib ketdi. Balodan nariroqqa...

Ertasi kuni tushga yaqin Jiydaliga boy karvoni kirib keldi. Xizmatkorlar chaqqonlik bilan tuyalarga ortilgan yuklarni tushirishib, o'tovini qo'ndirib ulgurishdi.

Bu payt Qurmash Ollayordan olgan burgutni erkinlikka qo'yib yuborib, ovulga qaytib kelardi. U ancha naridan boy o'tovi tiklanganini ko'rdi. Uning yonida odamlar biya sog'ish, otxona va qozon qurish bilan band edilar.

Qurmash g'ala-g'ovur bo'layotgan joydan o'tib borarkan, negadir bugun odamlar undan o'zlarini chetga olayotganlarini, duch kelib qolganida esa ko'z tashlamaslikka urinayotganlarini payqadi. U buning sababini bilmas edi.

Odamlar Dulatning kechga yaqin kelishini, bu yerda faqat ikki kungina bo'lishini aytishar edi. U yilqichi va cho'ponlarga yaylovlar bilan ekin ekiladigan yerlarni bo'lib berarmish, pichanzorlarni aniqlarmish. U tundagi qochqinlar izidan odam yuboribdi, Qurmashni qamchilab jazolarmish, degan gap tarqalgandi. Endi Dulatning donishmandligini, uning saxiyligini kuylamay ko'rsin-chi, deyishardi...

Qurmashning bu gaplarni tinglashga va ular bilan qiziqishga fursati bo'lmadi. To'satdan otasi betob bo'lib qolgach, Qurmash uning o'rniga qo'y boqqani ketdi. Keksa Alqa uzoq muddat erining yonida kuymalanib yurdi: uni o'rab-chirmab yotqizib qo'ydi, qayoqdandir qimiz ham topib keldi. Sag'irboy orom topib uxlaganidan keyingina, Alqa o'tovdan tashqari chiqdi, dashtga qarab, uzoq turib qoldi...

...Quyosh ufqqa yonboshlaganidan keyin, issiqning tafti qayta boshladi. Osmonda bo'zto'rg'ay charx urar, u goh qanot qoqib ko'kka ko'tarilar, goh to'sh urib pastga sho'ng'ir, goh chuldirab sayrar edi. Bo'zto'rg'ay, tepasida uchib yurgan qari burgutning ko'lankasini ko'rib qolib, jimib, bir zumdayoq qayergadir g'oyib bo'ldi.

Kun juda chiroyli botardi. Quyosh yotog'iga bosh qo'yganida ufq qizarib tovlanardi. U borliq uzra minglab zarrin nur taratayotganday, bu nur shu'lalari Qurmashning xayolida sado berayotganday, bu mayin sado dala bo'ylab kuy yanglig' taralayotganday edi. U yelkasidagi do'mbirasini olib, qo'lini torga olib borganida, shom payti kuy o'rniga qo'ylarning ma'ragani eshitildi. U Dulatning oppoq o'toviga bir razm tashladi-da, qo'ylarni ovulga haydab ketdi.

...Torgina xona, po'stakda otasi xasta yotar, tepasida onasi o'tirar, oppoq sochlari yuzi uzra to'zg'ib ketgan edi.

— Yaqinroq kel, o'g'lim. Besh kunligim bormi, yo'qmi, buni Xudoning o'zi biladi, — dedi otasi entikib. — Sen endi yigit bo'lib qolding. Xudo panohida asrasin. Kecha boyning bolasi bilan janjallashibsan. Gunoh kimdaligi Yaratganning o'ziga ayon. Endi u senga kun bermaydi. Bizni shu yerda qoldirib keta qol. Peshonangga shu yozilgan ekan, o'z baxtingni izlab yo'lga tush. Safaring bexatar bo'lsin, o'g'lim... Onang ham oq fotihasini bersin...

Qurmash onasiga qaradi. U indamadi, zo'r-bazo'r bosh qimirlatganidan otasining so'zini ma'qullayotganini bildi.

— Endi do'mbirangni ol-da, bir kuy chalib ber, — dedi otasi.

Do'mbira torlari mayin kuy taratdi. Qora o'tov ichida nur paydo bo'lganday tuyuldi. Ona nigohi yana yoqimli, yanada mehrli ko'rindi.

Shu chog'da Qurmashning do'mbira chalishga qo'li bormasdi. Lekin otasining istagini bajo keltirishi, onasining oz bo'lsa ham ko'nglini ko'tarishi kerak edi. Otasi ko'ngli taskin topganday bo'lib ko'zini yumdi. Ona bechora tashvish ichida o'g'liga qarab o'tirar edi.

Qurmash otasining ko'zi uyquga ketganidan keyin do'mbirasini olib, tashqariga chiqdi. Ovul ustida yulduzlar charaqlar, oy nurida boyning o'tovi oqarib ko'rinib turardi. Dulat minib kelgan oq yo'rg'a ham ko'rinib turibdi. Qayerdadir, bo'ribosar akilladi, qo'zilarning ma'rashlari eshitildi.

Qurmash biroz sukut saqlab turdi-da, so'ngra Sarmon podachining o'toviga kirdi.

— Sarmon, uxlaganing yo'qmi? — dedi u o'tovning kigiz eshigini ko'tarib.

— Yo'q.

— Sarmon biror xabar bormi?

— Bugun yilqilarni Ko'kjaypoqqa haydagan edim, o'sha yerda qo'shni ovuldagi tanish yilqichini uchratdim. U seni Dulatning o'g'li bilan ejakishib qolganingni eshitibdi.

— Yana qanday yangiliklar bor?

U Mahambet yana cho'lda paydo bo'lganini, yangi she'rlaridan o'qib berganini aytdi.

— Sen ularni yodlab ololdingmi?

— Yo'q, — javob berdi Sarmon. — Men Mahambetning hammaga ayon o'lanlarinigina bilaman. U bu o'lanlarni Jangirxon bilan janjallashib qolganida aytgan. Nahotki, sen uni eshitmagan bo'lsang? Bu gap bundan yetti yil ilgari bo'lgan ekan. Mahambet Shumekey urug'idan chiqqan kambag'al turg'unlarning yonini olgan ekan. O'shanda Jangir Mahambetga: "Nima, sen mening odilligimga shak keltiryapsanmi?!" — deb so'rabdi. Mahambet javob qaytaribdi:

Xon deb o'ylaysanmi o'zingni? O, yo'q.
Sendagi bu — koshona emas, bo'ri uyasi.
Bo'rilardir do'stlaring bari va ular seni
Dushmanlaring bilan birga
qo'shilib burdalab tashlar!
Sen xon emassan! Ishongin, sen, shoir so'ziga.
Sening qiliqlaring yirtqichlarga xos,
Xiyla-yu nayrangda zo'rsan ilondan,
Sen xon emassan! Ro'y-rost aytganda,
Sen xalq boshiga qo'ngan qora quzg'unsan...

Sarmon jimib qoldi, ehtiyotkorlik bilan atrofga quloq soldi. So'ngra etigining qo'njidan nosqovog'ini oldi-da, nos chekdi:

— Qurmash, bu o'lanni menga yana takrorlatmay qo'ya qol. Ehtimol, bular yolg'ondir, odamlar nimalarni demaydi. Faqat bir narsaga hayronman: bizni Dulat bekorga o'z qo'l ostiga olmayotgandir-ov. Ehtimol, bu Jangirxonning amri bilan bo'layotgandir... U oqinning aybi uchun hamma bershlarni ayblamoqchi bo'lganga o'xshaydi. Aytilgan so'z, otilgan o'q bilan teng. "Tayoq etdan, so'z suyakdan o'tadi", — deb qozoqlar bekorga aytgan emas. Oqin aytar so'zini aytdi-yu, o'zi g'oyib bo'ldi. Jafosini esa el tortmoqda. Shunaqa, Kurmash, sen ham Dulatning o'g'li bilan ejakishib yaxshi ish qilmading. Garchi gunohing bo'lmasa ham... Ayb kimdaligini vaqt ko'rsatadi. Qisqasi, haq so'zni aytmoqchi bo'lsang,

ostingda uchqur oting bo'lsin-u vaqtida qochib qololgin... Sening kuylaring uzoq-uzoqlardan ham eshitilaveradi...

Tubsiz osmon gumbazida son-sanoqsiz yulduzlar charaqlab ko'rinadi. Oqinning o'lanlari esga tushadi. Umuman-ku, bu o'lanlar kunda eshitilib yurgan oddiy o'lanlar-a! Oqin, Qurmash ham aytishi mumkin bo'lgan dardlarni ifoda qilgan edi...

Tungi shabada badanni junjiktirardi. U otasining nasihatini esladi. Otasi uni haydamagandi. Uning o'zi qushini qanday ozod qilgan bo'lsa, otasi bilan onasi ham o'z farzandlarini shunday erkinlikka kuzatishdi. Lekin kichkina Boyg'ozi-chi... U shu tobda qayerda ekan? Ehtimol, o'ynab yurgandir. Qurmash jajjigina ukasini eslab, jilmayib qo'ydi. So'ngra ko'ngli Oqcho'lponni ko'rishni istadi. U qizning uyi atrofini bir aylanib chiqdi. Jimjitlik, Oqcho'lpon uyquda edi.

... Ikki yoshning oralaridagi munosabat hech kimga ma'lum emasdi. Oqcho'lpon bilan Qurmong'ozi o'rtasidagi sir keyin ham yashirin qolaverdi. Ehtimol, dalada parvoz qilib yurgan qari burgutgina bu sirdan ogohdir? Bir safar u ularning tepasida, moviy osmonda uzoq vaqt aylanib uchgandi. Ular ham bahor maysasida chalqancha yotib, burgutning uchishini uzoq tomosha qilishgandi. O'shanda Oqcho'lpon egniga yashil barxit mursak kiyib olgan, yuzlari lolaqizg'aldoqday yonardi... Ikkovlari o'tlarning shitirlashiga, chigirtkalarning chirqillashlariga, qo'ylarning ma'rashlariga quloq solib, osmondagi qari burgutning uchishiga qarab uzoq yotishdi. Shundan keyin ular xoli uchrasha olishmadi. Tasodifan duch kelib qolishguday bo'lsa, qiz ko'zlarini yashirar, uyalib qochib ketardi...

Qurmash Oqcho'lponning uyini yana bir bor aylanib chiqdi. Uy ichi zim-ziyo edi.

— Yaxshi qol, Oqcho'lpon,— deb shivirladi Qurmash.

U tun ichida ovul oralab turtinib-surtinib borardi. Bexosdan eshitilgan tuyoq dupiri, ot pishqirishi uning xayolini buzib yubordi. U nogahon oq o'tov yoniga kelib qolganini payqadi. Dulatning uchqur yo'rg'asi qoziqda bog'log'liq turardi.

"Ot... Ot — yigit qanoti", bu xalq maqolini u dilida shivirladi.

Yangi o‘rilgan pichan, qimiz, tezak hidi dimog‘iga urildi. Oq yo‘rg‘a boshini ko‘tarib, xuddi taniganday Qurmashga qarab qo‘ydi. Yigitcha o‘zini tutolmadi, u otni bo‘ynidan quchdi, yolini siladi, keyin asta chilvirni yecha boshladi. Bo‘ribosar vovulladi. Qurmash otning hurkib ketishidan cho‘chib tizginni tortganicha, atrofga olazarak boqdi.

Qo‘y qo‘ra tarafdan kimningdir sharpasi eshitildi. Qurmash uning bukchaygan qomatiga, yurishiga qarab, so‘qqabosh qarol Jaqip chol ekanini tanidi. U kechasi otlarni qo‘riqlab chiqardi. Qurmash bu yog‘roqqa chiqib olgach, qaddini rostladi.

— Ota, bu — menman, — dedi u past ovozda. — Men — Qurmash. Sag‘irboyning o‘g‘li.

Jaqip to‘xtab qoldi. Qurmash uning yuzini bazo‘r ilg‘ardi. Aftidan, chol dovdirab qolganga o‘xshardi.

— Qurmash... Senga nima bo‘ldi? — dedi chol o‘ziga kelib. — Ota-onangning holi nima kechadi?

Ot bezovtalanib, so‘lig‘ini g‘ajir, yer depsirdi. Qurmash indamadi. Ochig‘i otasi ham, onasi ham unga fotiha berib, oq yo‘l tilashgandi. Lekin ular o‘g‘illarining bugun jo‘nab ketishidan bexabar edilar. Buni Qurmashning o‘zi ham bilmagandi, aks holda ukasi Boyg‘ozini qattiqroq quchgan, ota-onasini tinchitgan bo‘lardi...

— Qayoqqa ketyapsan?.. — deb so‘radi shoshilib qariya. — Ha, mayli, Tangri yorlaqasin, yo‘lingga g‘ov bo‘lmayman. Modomiki shuni ixtiyor etgan ekansan, mayli, shoshila qol. Omadingni bersin... Yigit kishi dalada qoqilmaydi. Nega angrayib turibsan? Yo‘lingdan qolma, hozir o‘ylab o‘tiradigan vaqtmi, tentak.

— Ota, rahmat sizga!

Qurmash tizginni bo‘shatdi. Biroz yergacha sekin yurib borib, keyin otni choptirib ketdi.

Jaqip quloq solib turdi-da, keyin qo‘ra tomon yurdi. — Ey Tangrim, telba farzandlaringga o‘zing yor bo‘l...

Qurmash qoya oldidan ot choptirib o‘tib ketayotganida qari burgutni cho‘chitib, uyg‘otib yubordi. U tun bo‘yi ot jilovini bir marta ham tortmadi. Ot go‘yo qo‘ltiqlarida qanot paydo bo‘lganday, cho‘lda qo‘shiq ohangida yengil uchardi. Bu — do‘stlari davrasida kuylana boshlagan va Dulat boyning o‘g‘li bo‘lib

qo‘ygan qo‘shiqning davomi edi. Lekin hozir bu qo‘shiq oldingi safardagiga nisbatan aniqroq, kuchliroq yangrayotganday edi. Qurmash uni oxirigacha bilardi. Bu qo‘shiq xalqning achinarli qismati, azob-uqubatlari, og‘ir hayotini aks ettiribgina qolmay, balki xuddi Mahambetning o‘lanlari yanglig‘ xalqni jangovarlikka, kurashga chaqirardi. U qayoqqa ketayotganini bilmas, faqat Mahambetni izlab topmoqchi edi. Lekin uni qayerdan topadi? Bir ovuldan ikkinchi ovulga o‘tib, xalqni xonga qarshi kurashishga chaqirib yurgan oqinni qidirib topish osonmi? Axir, ovulma-ovul yashirinib yurib, xalqini xonga qarshi otlantirayotgan oqinning izini topib bo‘larmidi? Axir qo‘shiq iz topib bermaydi-ku!

Qayoqdan axtarish kerak? Shularni o‘ylab, g‘am bosardi uni. Qurmash charchadi, qorni ochdi, u yana tug‘ilib o‘sgan ovulini ko‘z oldiga keltirdi. Dulat hozir oq yo‘rg‘asini qidirib yurgandir... Ehtimol, hozir u onasining oldiga borib, o‘g‘lining qayoqqa ketganini surishtirib, dag‘dag‘a qilayotgan bo‘lishi mumkin. Har holda, biror kori hol yuz beradi...

U qancha o‘ylamasin, hozir ovulda qanday voqea sodir bo‘layotganini aniq tasavvur eta olmasdi.

... Dulatning navkarlari Sag‘irboyning kulbasini qurshab olishdi.

— O‘g‘ling qani? — deb Sag‘irboyning tepasida turardi Dulat.

Bir chekkada jim o‘tirgan Alqa o‘rnidan qo‘zg‘aldi:

— U betob, unga xalal bermanglar, tinchgina jon bersin!

Navkarlardan biri Alqaga qamchi ko‘targandi, Alqa chaqqonlik bilan uni ushlab olib, chetga uloqtirdi.

— Hoy, yordam beringlar, bu jodugar kampirni yo‘qotinglar!

To‘rt nafar navkar kampirga yopirilib, uning qo‘llarini orqasiga qayirib, tashqariga olib chiqdi.

— E Xudo, bormisan? Bor bo‘lsang ko‘zing qayerda? Nega ko‘rmaysan bu yovuzlikni? — dedi zorlanib nola chekarkan Alqa.

— Sabr qil, qizim, — degan Ollayorning ovozi eshitildi olomon ichida. — Mard ayol eding-ku...

U boshyalang, sochlari to‘zg‘ib ketgandi. El boshiga qora kun tushganida onalar mana shunday yalangbosh bo‘lib qolishardi.

— Topinglar ot o‘g‘risini! — deya buyurdi boy.

...Dasht ufqidan quyosh ko'tarila boshladi. Qurmashning a'zoyi badani qaqshar, boshi og'rirdi. Gohida esa ot ustida mudrab ham qolardi. U bir qirga yetib kelganida uzoqda tutun ko'rindi, ot kishnadi. U o'sha ovulga yura boshladi.

Qarshidagi o'tovdan uzun sochli qiz chiqib keldi. U oy yuzli, kipriklari qalin, ohu ko'z qiz edi.

Qurmash qizga termilganicha qarab qoldi. Xuddi tushida ko'rayotganday. Lekin boshi og'irlashib, beli sirqirar, badani uvushar, xayoli joyida emas edi.

Yoshgina otliq yigitning bexosdan paydo bo'lib qolgani qizni hayratga soldi. Yigitning ostidagi oti yaxshi edi-yu, o'zi yupungina kiyingandi. Uning qizarib ketgan ko'zlari, oq arg'umoqning ich-ichiga kirib ketgan qorniga qaraganda uzoq va mashaqqatli yo'lni bosib o'tgani sezilib turardi.

— Suv... — dedi-yu, ot yoliga yiqildi Qurmash.

— Voy, sizga nima bo'ldi? — dedi-yu, yigitning yoniga yugurib keldi qiz. — Kechirasiz, og'a, yordamga chaqiray desam erkak zoti yo'q bu yerda. Ruxsat eting, men o'zim yordamlashib yuboray.

Qiz Qurmashni suyab otdan tushirdi, o'tovga olib kirib, namatga yotqizdi. Shundan keyin, burchakda turgan chanashning og'zini yechdi-da, kosaga qimiz to'lg'azdi, bir qo'li bilan Qurmashning boshini ko'tarib, qimiz ichirdi. U qimizni ichdi-yu, ko'zini yumdi. Qiz tashqari chiqdi. Ko'p o'tmay, qizning og'asi, yilqichi — Zarboy keldi.

— Kim bor uyda? — deb so'radi u ko'zi otga tushib.

— U ismini aytmadi, — dedi qiz. Og'asi oq yo'rg'ani yaxshilab ko'zdan kechirdi.

— Do'mbirasi bormi?

Bugun tongotarda Zarboy: "Mashhur do'mbirachi Qurmong'ozi Dulatboyning eng yaxshi arg'umog'ini minib qochibdi. U ot o'g'risi va isyonchi deb e'lon qilinibdi. Dulat yigitni ushlab keltirishni buyuribdi", degan xabarni eshitgandi.

— Qayerda? — deb so'radi og'asi.

— O'tovda uxlab yotibdi. Betob ko'rinadi, — dedi qiz.

Zarboy oq yo'rg'aning oldiga bordi, uning yolini siladi-da:

— Saqish, otni o'tloqqa olib borib, tushovlab qo'y! — dedi...

...Saqish qaytib kelib, o'tovga kirganida, Zarboy qoziqda ilig'liq o'tkinchi savdogarlardan sotib olgan yozgi chakmonini qo'liga oldi-da:

— Saqishoy, bu chakmonni mehmonga bersakmikin? Qara, juda yupun ekan, — dedi...

Yilqichi to'satdan jim bo'lib qoldi. O'tov tashqarisidan ot dupuri eshitildi. Saqish qo'rqib og'asiga qaradi. Zarboy o'tovdan tashqariga chiqdi.

— Yo'l bo'lsin, yigitlar! — deb so'rashdi ular bilan Zarboy.

— Ot o'g'risini qidirib yuribmiz! — dedi otliqlar unga. — Oq ot mingan odamga ko'zing tushmadimi?

— Yo'q, — deb javob qaytardi Zarboy osoyishta.

Yigitlarning boshlig'i zarboyga xo'mrayib boshdan oyoq qarab chiqdi.

— Tunda qayerda eding?

— Men Dulatning bosh yilqichisiman, — dedi Zarboy. — Ko'rganimda darrov otni tanigan bo'lardim...

Dasturxon atrofida uch kishi o'tirardi. Qattiq uyqu, beshbarmoq va qimiz Qurmashni o'ziga keltirdi. Ular nonushta qilib bo'lganlariga allamahal bo'lsa ham, lekin gaplari bog'lana qolmasdi. Zarboy kamgap odam edi, u qanday qilib mehmonning ko'nglini olishni bilmasdi. Qurmong'ozi ham indamaslardan biri edi. U qo'liga do'mbirasini olishni, minnatdorligini kuy bilan bayon etishni istardi.

Do'mbira torlari tilga kirdi. Qurmash, betob qari otasi bilan mushtipar onasi haqida hikoya qila boshladi; Saqishning ko'z o'ngida bepoyon cho'l, ko'm-ko'k o'tloqlar gavdalandi. O'sha yaylovda tez orada aql-hushini olib qo'ygan manavi mag'rur, kelishgan do'mbirachi yurganday bo'ldi...

Yo'q, endi u yolg'iz emasdi, Saqish u bilan yonma-yon borardi. Lekin Qurmash negadir unga qiyo boqmas, uning uchun qo'shiq kuylamasdi. U qayoqqadir boshqa tomonga qarar, uning katta-katta qora ko'zlari uni ilg'amas, butun xayoli boshqa yoqda edi.

— Endi boray. Rahmat sizlarga... — dedi-da, o‘rnidan turdi Qurmash. Zarboy taqdim etgan chakmonni kiyib oldi. Saqish unga qurut, suzma va kulcha non solingan xurjun keltirib berdi.

— Singlim sizni otingiz turgan yergacha kuzatib qo‘yadi, — dedi Zarboy.

— Rahmat, otni o‘zim topib olaman. Qaysi yerdaligini aytsangiz bas, — dedi Qurmash. Uning so‘zlari mininatdorchilik bilan to‘lib-toshgan bo‘lishiga qaramay, Saqishga sovuqroq eshitildi.

Qurmash jarlikka tushganida ot o‘lib yotgandi. U buloq yonida oyoqlarini cho‘zib, qotib qolgandi. Uning orqa tomonida esa toptab tashlangan ilon kulcha bo‘lib yotardi...

G‘arb qozoqlari tarixining tilsiz guvohi hisoblangan Norin qumliklari Yoyiqqa yaqin yerda Jiydali vodiysidagi yaylov etagi bilan tutashib ketardi. Norin och va yalang‘och ko‘chmanchi qozoqlar uchun qabriston bo‘lib xizmat qilardi. Lekin xalq orasidan chiqqan qasoskorlar ham mana shu qumlikka kelib boshpana topardilar. Xon va sultonlar zulmiga bardosh bera olmay, Yoyiq bilan Edil bo‘ylariga qarab yurgan ko‘chmanchilar bu qumliklardan necha-necha martalab o‘tmagan deysiz. Lekin daryo yoqasida turgan podshoh bilan xonning jazo otradlari ularni o‘qqa tutib qarshi olar, Norin qumligi qop-qora qonga belanardi.

Mengrov qum, u — jazira va tashnalik manbai. Zamonlar o‘tadi, daraxtlar quriydi, daryolar sayozlashadi, ammo qum abadiy turaveradi.

Qum betidagi ko‘zga ko‘rinmas yozuvga qarab muzdek suvli quduq qayerda ekanini, tezyurar oqquyruqning qayerga yashirinishini bilib oladigan ziyrak odam kamdan kam uchraydi. Lekin o‘shanday odamlar orasida ham keksa Uzoq oqinga yetadigan iztopar yo‘q.

Bugun Uzoq Mingtepaga shoshilyapti, uning ovuli o‘sha yerda.

Uzoq bu qumlikdagi har bir tup saksovulni, har bir yumronqoziqni yaxshi biladi. U uzoq umr kechirdi: u xon o‘rdasida ham, kambag‘al xalq kapasida ham bo‘ldi. U xalq ichida yurar, ko‘p o‘lan aytar, hammani baravar ko‘rardi.

U mingan ot yo'rg'alab olg'a boradi. Egar yoniga g'ilofdagi do'mbirasini osib olgan. Uzoqning boshida kunduz telpak, egnida qaytarma pocha-po'stin, belida kumush qadalgan kamar.

Uzoq ot ustida o'yga tolib bormoqda. U o'tgan kunlarni eslaydi. Umri behuda o'tmadi. U osongina obro' qozondi, bu shuhrat o'z qanoti ostiga olib, uni Norinqum bo'ylab, butun dasht bo'ylab uzoq-uzoqlarga eltdi. Butun O'rda uni taniydi. Lekin keyingi damlarda bir narsa uning tinchligini buzib qo'ydi.

Bu notinchlik qandaydir do'mbirachi yigit o'zini, Uzoqning shogirdiman, deb yurgani haqidagi xabarni eshitgan kunidan boshlandi. Biroq bu do'mbirachi yigit o'z ustozining izidan bormadi, u boy va sultonlarni ardoqlamadi...

Endi ovullarda Uzoqqa nisbatan o'sha do'mbirachi yigitni ko'proq tilga oladigan bo'lib qolishdi. Uning kuy-o'lanlari asrlardan beri davom etib kelayotgan dasht musiqasi an'anasini buzdi. Uning musiqasi negiziga itoatsizlik, isyonkorlik ruhi singib ketgan edi. Yigitning kuylari keng xalq ommasiga yoqadigan bo'lib qoldi. Endilikda har bir ovuldagi do'mbirachi sozandalar Qurmashning yangi kuylarini oshiqib kutardilar. Uning o'zini mag'rur, yaratgan asarini esa jo'shqin kuy, deb atardilar. Uzoqni hurmat-izzat qilardilar-u, lekin Qurmong'ozini undan yuqori qo'yardilar.

Uzoq isyonkorlik faqat Mahambetning o'lanlarigagina xos deb bilardi. Lekin xalq kuyni ham xuddi o'landek tashnalik bilan qarshi olishi kamdan kam bo'ladigan hodisa edi. Hukmdorlar shu kunlargacha faqat oqinlarning o'lanlaridan qo'rqar, ularning shuhratiga hasadlari kelar, haj qamchisi zarbiga uchrab qolmaslik chorasini izlardilar-u, ammo musiqaga kelganda, undan doimo zavqlanardilar.

Musiqa o'z yo'liga, u so'zsiz, o'lan yoki g'azalchalik ta'sirchan qudratga ega emas. Uzoqning bunga imoni komil edi... Ha, toki Qurmong'ozining kuylari paydo bo'lguniga qadar shunday fikrda edi...

Uzoq egar qoshiga tang'ib qo'yilgan do'mbirasini qo'liga oldi. U otining tez va ravon yo'rg'alab borayotganiga monand kuy yaratmoqchi. Lekin miyasida yangi o'ylar tug'ilib, qo'lidagi do'mbirasini ham unutib qo'ydi.

Atrofini qurshab olgan qum yoqimsiz va zerikarli edi. Uzoq barxanlarga tiqilarkan, daryolarni, o'rmonlarni esladi. U yerlar hozir graf Bezborodko bilan Yusupovlar izmida, turg'un aholini quvib chiqarib, ularning yerlariga o'zlariga saroylar qurib olganlar.

Bir vaqtlar bu yerlarda istiqomat qilgan cho'ponlar endi o'zlariga boshpana axtarib, dasht-u sahroda darbadar kezib yuribdilar. Endilikda ular o'z ellaridan ko'chib yurganliklari uchun ham o'sha Bezborodko bilan Yusupovga turli xil soliq to'laydilar.

Mahambet o'z o'lanlarini, Qurmong'ozi esa o'z kuylarini mana shu bechora, mazlum xalq ommasiga bag'ishlardi. Uzoq esa, garchi u ham xalq to'g'risida kuylasa-da, lekin xalqni itoat etishga, taqdirga tan berishga chaqirardi...

Keksa do'mbirachi bundan bir necha yil burun bu yerlarda bo'lib o'tgan yutni esladi. Uzoq bunaqangi yutni umri bino bo'lib ko'rmagan edi. Boylardan bo'lak biron kimsada tirik tuyoq qolmadi. Edildan to Yoyiqqacha ocharchilikdan qirilgan odamlar murdasi-yu jonivorlar o'laksasi bilan to'lib ketdi.

Ochlik suyak-suyagidan o'tib ketgan xalq najot izlab Qorovulxo'ja sulton bilan graf Bezborodko huzuriga keldi. Ammo umidlari puchga chiqib, ish, hatto qon to'kishgacha borib yetdi o'shanda. Mana endi, yana o'sha kunlar qaytib kelmoqda.

Bersh urug'ining oqsoqoli Isatoyning ezilgan el, xarobaga aylangan yurt himoyasiga otlangani to'g'risidagi ovoza ovuldan-ovulga tarqaldi. Jangirxonning amriga ko'ra og'a sultonlardan Boymag'ambet bilan Qorovulxo'ja Isatoyni ushlab, qo'l-oyog'iga kishan urib, avaxtaga tashlashga ikki marotaba urinib ko'rdilar.

Isatoy xonga xat yo'llab: *"El o'z mulkiga o'zi ega bo'lishni istaydi... Basharti biz bu savolga javob ololmasak, u holda bizga amrini o'tkazadigan hech qanday hukmdor yo'q, deb hisoblaymiz"*, — deb yozganini aytishganda Uzoq ishonmagan edi. Bu xat o'zining ashaddiyligi bilan Sirim botirning rus podshohiga yozgan xatini eslatardi.

— Astag'firullo, — dedi Uzoq yoqasini ushlab. — Dashtda yana dovul yetilib, Azroil yana ajal gurzisini ko'tarmoqda. Oqibati nima bo'larkin? Yo Alloh, osiy bandalariga rahm qilgil, bo'ysunmas qozoqlarning gunohini kechirgil!..

Uzoq bema'ni xayollardan qutulish maqsadida otiga qamchi urdi-da, yoshlik chog'laridagiday baland ovoz bilan o'lan ayta boshladi. Lekin ovozi bo'g'iq, arang chiqardi. U og'ir xayollarni qurmoqlik niyatida kuylardi.

Uzoq qumlikdan chiqib, olisda ko'zga tashlanib turgan ovulga qarab burildi. Uning hanuz o'tkir ko'zlari ovulda odamlar g'uj-g'uj ekanini, o'tovlar yig'ib qo'yilganini, hamma yoqda egarlangan ot va aravalar turganini payqadi.

"Bu qanaqa yig'in? — deb o'yladi u. — Boisi nima ekan? "

Yaqinroqqa kelganidan keyin Uzoq faqat Oqboy oqsoqol-u qarindosh-urug'larininggina o'tovlari yig'ilmay qolganini ko'rdi. Ovulda g'uj bo'lib turgan odamlar Oqboyning navkarlari bilan allaqanday sarbozlarni qurshab turganini ko'rdi.

— Assalomu alaykum, oqsoqol, yo'l bo'lsin! Xudo yarlaqadi bizni, xo'p vaqtida yetib keldingiz. Donishmand kishi elga tinchlik keltiradi, degan gap bor xalqda. Oqsoqol, bizdagi kelishmovchilikni o'zingiz bartaraf etasiz. Qo'lingizga do'mbirangizni olib, mana bu osiy bandalarga sulton Boymahambetning amriga bo'ysunish lozimligini uqtirsangiz... — deya qarshiladi Oqboy oqsoqol Uzoqni. — Ko'ryapsizmi, ular manavi shumqadam, buzg'unchi Isatoyning xabarchisini bo'shatib yuboramiz deb to'polon qilishyapti...

Shunda Uzoqning ko'zi navkarlar o'rtasida turgan o'rta yoshli, qalin qora qoshli, qad-qomati kelishgan bandi yigitga tushdi. Uni boshidan oyog'igacha jul arqon bilan bog'lab tashlabdilar. Olomon darg'azab edi. Ular Uzoq oqinga ko'zlari tushgan hamon jim bo'ldilar, oqinga ta'zim qilib, yo'l berdilar.

— Salom berdik, ota, — dedi boshini egib bandi yigit. — Tuyaning tumshug'ini teshib halqa o'tkazadilar-da, unga na ovqat va na suv bermay, sahroda yetaklaydilar. Bular meni ham shu alpozga solmoqchi, ota, faqat tumshug'imni teshganlaricha yo'q hali... Oqsoqol, o'zingiz ayting, Jangir ozmuncha gunohsiz odamni dorga ostirdimi? Oqboy-chi, u el boshiga oz kulfat yog'dirdimi? Xalq ko'p yashagan emas, ko'pni ko'rgan kishi donishmand, deydi. Siz nafaqat ko'p yashagansiz, balki ko'pni ham ko'rgansiz...

— Avval ismingni ayt, o'g'lim, keyin javob qaytaraman, — dedi Uzoq.

— Ismim No'yon. Qoraqipchoq urug'idan bo'laman. Men bu yerlardan ancha olisda, O'rta juzda, Sirdaryo yoqasida tug'ilganman. Qon-qardoshlarimdan judo bo'lganman. Qozoq xoni Arg'ishg'ozi bilan Xiva xoni Olloquli meni ona mehri, ota g'amxo'rligi hamda yaqinlarim mehr-oqibatidan mahrum etdi...

— Xafa bo'lma, o'g'lim. Qozoq elining qismati azaldan shunday, — dedi unga javoban Uzoq, — Lekin ko'z yoshi jonga oro kirmaydi. Dovul qancha quturmasin, daraxtlarni ildizi bilan qo'porib tashlay olmas ekan... Yomonlikni tag-tomiri bilan yulib tashlaydigan kuch bo'lmas, u inson bilan birga tug'ilar ekan. O'zingni avayla, o'g'lim, iloyo o'zingdan ko'pay...

— Oqsoqol, so'zlaringiz haq. Lekin suv tog' yorib o'tarkan. Shunday bo'lgach, bizga Isatoyning so'zlari, Mahambetning o'lanlari kerak, — deb javob qaytardi No'yon.

— O'g'lim, odamlarning qilmishlariga zamonning o'zi hukm chiqaradi, — dedi o'ylanib turib Uzoq. — Zaharni zahar kesadi. Yomonlik qilganga yaxshilik qil, deydilar...

— Oqsoqol haq. No'yon bizlarga yaxshilikni tilaydi. Hoy, Oqboyning yuvindixo'rlari! Uning qo'l-oyog'ini yechib, bo'shatib yuboringlar, bo'lmasa bu yerdan birortangiz ham omon ketolmaysiz! — deb qichqirishdi olomon orasidan.

— Isatoy botir ovulma-ovul yurib yigit yig'moqda. O'ch olishni istagan, xon va sultonlarning tepkisini yegisi, xo'rlashlarini eshitgisi kelmaganlarning barchasi botirga sarboz bo'lyapti. Biz o'z ovullarimizni daryo qirg'og'iga ko'chirib borishni o'ylamoqdamiz! — dedi No'yon ovozi boricha.

— Oqsoqol, do'mbirangni nega qo'lingga olmayapsan. Nega bu aqldan ozganlarning ko'zlarini ochib, mana bu buzg'unchining og'ziga urmayapsan? — dedi g'azabi qaynagan Oqboy. U qo'lidan biror ish kelishiga ishonmaganidan g'azabini zo'r-bazo'r ichiga yutib turardi. Uning navkarlari ozlik qilardi. — Ehtimol, sen ham qon to'kilishini istarsan?

— Ulan ham haqiqat qarshisida kuchsizlik qiladi! — dedi Uzoq keskinlik bilan. — Nima, qozoqligingni unutib qo'ydingmi, nahot-

ki el orasidagi: "To'g'ri so'zga o'lim yo'q", degan maqolni unutib qo'ygan bo'lsang?

Oqboy g'azabini ichiga otib, dasht taomiliga rioya qilganday, Uzoqni otdan tushib, o'tovga kirishga taklif qildi. Lekin Uzoq joyidan qo'zg'almadi.

U Mahambetning o'lanini yoddan o'qiyotgan Nuyonni tinglardi:

Xalqqa qanday naf bordir yovuz xonlardan,
Ular to'kkan shafqatsiz, nohaq qonlardan —
Kulfatlarga g'arq bo'lsa kambag'al, g'arib!
O, istayman, qilichni shartta chiqarib,
Yumalagan boshlarning ko'ksin tilmoqni!
O'z qornini shishirib, bu sho'rlik xalqni —
Zor qaqshatgan xonlarning o'lim oldidan
Tuyaday bo'kirishini eshitsam deyman!..
O, istayman, saxovatli yaylov, o'tloqni
Jabrdiyda xaloyiqqa taqsim qilmoqni!..

Oqboy navkarlariga olomon qurshovidan chiqishni buyurdi. Lekin olomon yo'l bermadi. O'rtada mushtlashish, kaltaklashish boshlandi.

— Qo'yinglar! Mayli, qo'yib yuboringlar, toki ular borib boshqa qonxo'rlarga xalqning qo'lga qilich olganini yetkazsinlar. Shunday vaqt keladi, xalq munosib xonni o'zi saylaydi! — deya qichqirdi ozod bo'lgan No'yon.

Yigitlar unga ot keltirdilar.

— Kimda-kim Isatoyga qo'shilaman desa, yo'lga otlansin! — dedi u egarga sakrab minar ekan.

Odamlar aravalarga qarab yugurdilar. G'ala-g'ovur ko'tarildi. Aravalar g'ichirlab yo'lga tushdi. Tuyalar bo'kirar, qulunlarini adashtirib qo'ygan biyalar kishnar, qo'y-qo'zilar ma'rashardi. Yarim ovul ahli Isatoyning chopari — notanish yigitga ergashdi.

Jangirxon hali senlarni boplab o'z qo'li bilan jazolaydi! Norinqumda qonlaringdan ko'l hosil bo'ladi! Hali Isatoyning yelkasida qamchi o'ynaydi, Mahambetning o'lanlari o'rniga oyoq-qo'llaringga urilgan zanjirlarning jarangini eshitasanlar! — deb baqirib qoldi

Oqboy orqalaridan. U g'azabi qaynab ketganidan yaqinida turgan xizmatkorlarini saralab, oyoq ostida yotgan mis tog'orani tepib yubordi. U jahl ustida, navkarlarini so'kish bilan ovora bo'lib, ovul chekkasida yelkasida to'rva, qo'lida do'mbira ko'tarib, horg'in, yalangoyoq Qurmash ko'ringanini payqamay qoldi.

Oqboy o'tovga kirayotib, unga ko'zi tushib qoldi.

— Ha-ha-a, ushlang anavi daydini! Turgan gap, bu ham o'sha Isatoyning ayg'oqchisi! — dedi.

Yigitchani tutib, savay ketishdi. Uzoq aralashganidan keyingina u qutulib qoldi.

— Taqsir, nima gunoh qildimki, g'azabingizga duchor bo'ldim? — deb so'radi qonga belangan Qurmash.

— Tilingni tiy, it! Xudoga shukur qil, tirik qolding! — deya o'shqirdi Oqboy.

— Sag'irboyning o'g'li — Qurmong'ozi-ku bu. Ot o'g'risi. Dulatning yo'rg'asini o'g'irlagan shu, — dedi navkarlardan biri uni tanib.

Uzoq yigitchaning ismini eshitib qaltirab ketdi.

— Bog'langlar ablahni! — buyurdi Oqboy. U bir tepib Qurmashning do'mbirasini ikki bo'lak qildi.

— Taqsir, do'mbirani-ku sindirdingiz, endi shu do'mbirada yaratilgan kuylarning ovozini o'chirib ko'ring-chi! — dedi qalin qoshlari ostidan unga o'qday tikilib Qurmong'ozi.

— Og'zingni yum! Ot o'g'risi, zindonda chiritaman seni! Hozircha shu yerda yotatur. Ertaga seni, itvachchaday O'rda avaxtaxonasiga olib ketishadi...

Oqboy o'toviga kirib ketdi. Uzoq esa do'mbira siniqlarini yig'ib oldi.

Kechki ovqatdan keyin, allamahalda mehmonni yolg'iz qoldirib, mezbonlar o'z o'tovlariga chiqib ketishdi. Tepadagi tundik[1]dan yulduzlar ko'rinib turardi. Qoq o'rtadagi uch oyoq ostidagi gulxan miltillab, so'na boshlagandi.

Mehmondo'stlik odatini buzib, keksa sozandani yolg'iz qoldirib ketarkan, Oqboy o'zining undan ko'ra ustun ekanini ko'rsatmoqchi

[1] **Tundik** — o'tov tepasidagi mo'ri o'rnidagi tuynuk.

edi, keksa oqin buni tushunib turardi. U Isatoyga qarshi biror og'iz so'z aytmagani uchun Uzoqdan o'ch olish maqsadida atayin shunday qilgandi.

Uzoq umrida bunday yolg'iz qolmagandi. Biror oqin yoki sozandaning kechani yolg'iz o'tkazganini eshitgan ham emasdi.

Qadim zamonlardan beri ovullarda odat shunday bo'lib kelgan. Har oqshom odamlar do'mbirachi yoki eng keksa kishining uyiga, baxshi yoki qiziqchining o'toviga to'planib, kuy, ertak tinglashadi, dasht hayotiga oid matal yoki hazil-mutoyibalarni berilib eshitishadi...

Uzoqning umrida birinchi bor yolg'iz qolishi edi. U suyak donali tasbehini o'girib, pichirlab duo o'qirkan, ovuldan jo'nab ketgan odamlarni, Oqboyning johilligini, hibsga olingan yosh do'mbirachi yigitni bir-bir xayoldan o'tkazdi.

U umri bo'yi bilar-bilmas qilgan gunohlari uchun Alloh qarshisida tavba qildi, payg'ambari oxir zamondan madad tiladi. Zero, hozirgi kunlarda xonlikda sodir bo'layotgan mudhish voqealarga aqli yetmay, boshi g'ovlab ketgandi. U turli xayollarni chalg'itmoq uchun o'tovni ko'zdan kechira boshladi.

Adayning qo'li gul ustalari yasagan yog'och kat ustiga baland qilib namat, ko'rpa-yostiqlar qatma-qat yig'ib tashlangan. O'sha yerda kumush naqsh-bezakli egar osig'liq turibdi. Uni Sherkesh urug'ining ustalari yasagandir, ehtimol. Axir, Norinqumdagi barcha ovul ustalari bunyod etadigan eng yaxshi buyumlarni qo'lga kiritishga Oqboyninggina qurbi yetardi-da. Anavi guldor choyshab ham adaylik manaman degan chevarning ishi-da. Mana bu eski gilamni esa, Oqboy kam deganda bir uyur yilqi evaziga Xivadan sotib oldirgan bo'lsa ajab emas.

Uzoqning ko'zi o'tovdagi ortekega[1] tushganda, Oqboyning Qurmong'oziga aytgan zaharli: "Ot o'g'risi, zindonda chiritaman seni!" — degan so'zlarini esladi.

Uzoqning asta-sekin fe'li ayniy boshladi. "Yo Parvardigor, kim haq-u kim nohaq, o'zingga ayon, — dedi u o'yga tolib. — Uyur-uyur yilqisi bo'lsa-yu, bitta ot uchun bir bechorani qurbon qilsa,

[1] **Orteke** — bejirim moslamaga o'rnatilgan yog'och ot, o'yinchoq.

noinsof. Bir otni deb butun boshli qizilg'urt — Qurmong'ozining urug'i bilan janjal ko'tarmoqchi bo'lsa-ya".

— Aqlsiz, johil! — dedi shivirlab so'nib borayotgan cho'g'ga tikilganicha. Uzoq beixtiyor do'mbirasini qo'liga oldi. Ko'ksida ranj-alam, iztirob va sarosima qorishib ketgandi. Mana, tor ohista tilga kirib, so'nib borayotgan gulxan uzra mungli kuy tarala boshladi.

...Qo'llari bog'langan Qurmash po'stakda yotardi. U sovuq qotib, titrab yotgan bo'lsa-da, qaysi bir o'tovdan kelayotgan notanish kuyni quloq solib tinglardi. Bu kuyni ancha ilgari, Sirim botirga bag'ishlab Uzoq yaratganini, odatda, uni kambag'al, oddiy yigitlar davrasidagina ijro etishini Qurmong'ozi bilmasdi. Bu kuyda na g'azab va na nafrat bor edi. Unda faqat o'kinish, alam va qayg'u ifoda etilgandi. Unda Sirimning dushmanlari kofirlar deb atalardi. Kofirlarga o'xshab qon to'kish yaramaydi deyilardi... Sirim botir xonga qarshi qilich ko'tarmaganida, uzoq umr kechirardi, odam qancha botir bo'lmasin, Allohning irodasiga qarshi chiqishi yaramaydi, Alloh taolo qudratli, inson umrida qancha jafo ko'rsa, u shuncha savob topadi. Hamma narsa Allohning buyrug'i bilan o'zgaradi! Uzoq, odatda, o'z o'lanlarini mana shu so'zlar bilan yakunlardi.

Hozir esa Uzoq "Sirimning sog'inchi" kuyini ijro etib, o'z-o'zi bilan suhbatlashardi. U yulduzlar charaqlagan ushbu tunda bexosdan bostirib kelib, qalbiga qutqu solib, iztirobga qo'ygan og'ir o'ylarni haydab, shu kuy bilan o'zini ovutmoqda edi...

Qurmong'ozi bu sokin qo'shiqni tinglarkan, uning asosida g'azab yashirinib yotganini sezib turardi. Turmush achchiq-chuchuklarini totaverib aql-hushini yig'ib olgan donishmand qariya sozanda his-hayajonidan ancha yuqorilab ketgandi. Shu boisdan ham bu kuy nihoyat g'amgin taralardi. Qani endi qo'lini yechib yuborib, do'mbira berishsa hozir! Bu kuyni o'z uslubiga solib ijro etardi. U kuyning niqobini sidirib tashlardi-da, g'azab va hissiyotga erkinlik berib, olov qalardi. O'shanda bu kuy mana bu to'siqlardan o'tib, huvullab yotgan ovul osha baralla yangrar, Oqboyni uyqusidan turg'azib, uning ko'ppaklarini uv tortishga majbur etar, o'zining

esa qalbiga dahshat solardi... E-e, Uzoq ota, qo'shig'ing namuncha g'amgin bo'lmasa? U dasht-u biyobondagi tubsiz quduq suviga o'xshaydi. Na to'lqinlanadi, na mavjlanadi...

Qurmong'ozi sergak tortdi. Qulf ochilib, ichkariga soqchi yigit kirib keldi. U yashirib ovqat keltiribdi. U shivirlab, men ham qizilg'urt urug'idanman, birodaring bo'laman, lekin seni bo'shatib yuborishdan qo'rqaman, bola-chaqam bor, dedi. Oqboy unga ot hozirlashni buyuribdi, negaki erta tongda jandarm bilan ikkovlari Qurmashni Dulatboyning ovuliga olib borisharmish.

Ertalab, nonushtadan so'ng Uzoq Oqboy huzuriga borib, unga otini tutqazdi.

— Buni Sag'irboyning o'g'li zo'riqtirib o'ldirgan jiyron o'rniga ola qol. Yigitni bo'shat. Undayin do'mbirachi butun juzda yo'q... — dedi.

— Ostingizdagi yolg'iz otingizni olsam, uyat bo'ladi, oqsoqol. Xudoga shukur, hali yilqim yetarli. Lekin sizning rahmdilligingizni ko'rib hayron qolyapman. Bu ot o'g'risini nima qilasiz? Darvoqe, sizday mashhur oqinning nimani o'ylayotganini biz qayoqdan ham bilardik, — dedi u qo'llarini yoyib, kulgisini arang tiyib. — Bu yalangoyoqni boshingizga urasizmi? Axir, u pastkash qizilg'urt urug'idan-ku. Siz esa e'tiborli boyo'g'li urug'idansiz...

Oqboy do'rdaygan pastki labini asabiy qimtib-qimtib qo'yganicha, ko'zlarini suzib, Uzoqqa tikilib turardi. Shu topda Uzoq o'zini bir nochor, kuch-quvvatdan qolgan qari cholday his etdi. Uning burungi kuch-quvvati, shon-shuhrati, dadilligi qayda qoldi? U jangovar libos kiyib olgan Oqboy qarshisida xuddi yosh boladay qisilib-qimtinib turardi. Boy kimxob peshmati ustidan sovut kiygan, yelkasiga miltiq, beliga buxorcha shamshir taqib olgan, oyog'ida uzun qo'njli qaytarma saxtiyon etik, qo'lida sakkiz qirrali kalta qamchi. U Uzoqqa, hatto iltifot ko'rsatib, o'tirishni taklif ham qilmadi...

Uzoq o'zini bosib olib, qaddini rostladi-da, boy bilan sovuqqina xayrlashdi va tun bo'yi mijja qoqmay, ko'zi kirtayib qolgan Qurmashning oldiga borib, unga do'mbirasini uzatdi.

— Bu do‘mbirani Norinning hamma yerida bilishadi. Uni kimda-kim Qurmong‘ozi qo‘lidan tortib olsa, xalq qarg‘ishiga uchraydi! — dedi.

Qurmash g‘amga cho‘mgan Uzoqni nigohi-la kuzatib qoldi. Keyin bezaklari yarqirab turgan do‘mbiraga nazar tashladi. Tunda soqchilik qilgan Qizilg‘urt unga yaqinlashib:

— Ishonsangiz — do‘mbirangizni menga bera qoling. Yo‘lda qiynalib qolasiz, — dedi.

...Oqboy mulozimlari bilan yo‘lga tushdi, ortidan Qurmong‘ozini olib ketishdi.

Ular dasht yo‘lidan borishardi. Yo‘l-yo‘lakay dam-badam qorabayir, ko‘k, saman, qashqa, qorday oppoq yilqi uyurlari uchrab turardi. Ularni egar-jabduq ko‘rmagan asov ayg‘irlar rashk qilganday qo‘riqlab yurar, har qaysisi raqibini yaqin yo‘latmaslikka tirishardi.

Gohida bir ayg‘ir boshini yerga egib, yolini hilpiratib kishnab pishqirgancha boshqa uyurga yaqinlab borgan biya ortidan yugurib qolar, quv o‘ynoqi biya esa kishnagancha begona ayg‘ir tomonga qarab yo‘rg‘alardi. Bunday hollarda ayg‘irlar chang-to‘zon ko‘tarar, tuyoqlari ostidan uchqun chaqnaganday bo‘lardi. Qochoq biya bo‘lsa bo‘ynini qayirib, dumini o‘ynatib, dam u-dam bu uyurga yaqinlashib davra yasab chopaveradi. Qari biyalar uni tishlab-tepib yaqinlariga keltirmaydilar. Yosh baytal bo‘lsa, pisand qilmay gir aylanib chopaveradi...

Uning nozli kishnashiga mast bo‘lgan ayg‘irlar esa bir-birini ayovsiz chaynab, jon chiqarga olishadilar.

Buni ko‘rib boshqa biyalar ham ularga yaqinlab kelib gijinglashib, yo‘lboshchilariga dalda beradi...

Yengilgan ayg‘irning yonida faqat eng vafodor bichmargina qoladi, ular ayg‘irlari uchun jangga kirishga tayyor bo‘lib turadilar. Lekin bunday voqea yuz bergunday bo‘lsa, ishning pachavasi chiqdi deyavering, bunday hollarda utorlar uyurlarga aralashib ketadi, yilqichilarga tashvi ortadi, bu ham mayliga-ya, yilqi egalari bo‘lmish boylar orasida ham janjal chiqib ketishi hech gap emas.

Shu sababli ham yilqichi yigitlar ayg‘irlar urishib qolgan yerga, tayoqlarini silkigancha, tez yetib keladilar va ko‘zlariga qon to‘lib

quturib ketgan jonivorlarni ajratishga tushadilar. Bunday kezlarda, buzg'unchi biya tezroq qochib qolmasa jazzasini tortadi.

— Bu kimning uyurlari? — deb so'rardi Qurmong'ozi o'zini qo'riqlab borayotganlardan.

— Oqboyniki.

— Dulatniki.

— Mana bu uyurlarni esa, graf Bezborodkoga qozoq boylari tortiq qilganlar. Bu o'ngirdagi barcha o'tloqlar Bezborodkoning ixtiyoriga berilgan. Oqboy bilan Dulat ham o'z yilqilarini bu yerlarga uning ruxsati bilan yoyadi. Jangirxon askarlarining otlari ham shu yerda boqiladi...

Yo'lda yo'liqqan yilqichilar yo'lovchilarning savollariga javob berib bo'lib, jandarmlarga ko'z qirini tashlab, Qurmong'ozi bilan so'zlasha boshlaydilar. Qurmong'ozi ushlanibdi, oyoq-qo'li kishanlanibdi, degan xabar kapadan kapaga, ovuldan ovulga taralib, Qurmashning do'stlari Sarmon bilan Zarboyga ham yetib keldi.

Mana, qumlikka ham yetib keldilar. Iliq suvli soyni kechib o'tdilar. Qalin saksovullarni oralab borib, yana qum barxanlariga chiqdilar...

Quduq yonidagi yakka-yolg'iz maqbara gumbazi ostida tunashga to'g'ri keldi. Otlarga yem berildi, sug'orildi. Qizilg'urt urug'ilik yigit yonidagi hamrohi bilan maslahatlashib oldi-da, Qurmong'ozining qo'lidagi kishanni yechib qo'ydi. Jandarm indamadi. Ovqat ustida u bu uch kishiga baqrayib qarab o'tirdi... Qani endi, bu qumlikdan tezroq chiqib, boyning ovuliga yetib bora qolsa. Bundan keyin bu ikki qaysaqni o'zi bilan birga olib yurmaydi. Kim biladi, balki, ularning ham anavi ot o'g'risi bilan niyati birdir...

Qurmashga do'mbirasini qaytarib berishdi.

— Balalaykang chiroyli, yaxshi ekan-a! — deb maqtadi har ehtimolga qarshi jandarm cho'chinqirab.

Qurmong'ozi o'tgan kecha Uzoq ijro etgan kuyni eslab, uni chalmoqchi bo'ldi, lekin chala olmadi. Qo'li kishan iskanjasida og'rib qolgandi. Kuy tinglashga shay bo'lib o'tirgan kuzatuvchilar xijolat bo'lib, yerga qarashdi. Chunki ular Qurmong'ozining ikki bilagi kishan zarbidan shilinib ketganini ko'rib qolishdi.

Mana, gulxanni o'chirdilar, borliqni zim-ziyo qorong'ilik bosdi. Jandarm miltig'ini mahkam quchoqlab olganicha, maqbaraning to'riga yotib oldi. Chiqaverishda esa ikki soqchi yigit yotdi. Qurmong'ozi o'chgan gulxan yoniga cho'zildi. Maqbara devori ortida esa kun bo'yi yurib charchagan otlar quloqlarini ding qilib, dam olishardi.

To'rtovlaridan birortalari ham ko'z yummay yotardi. Ular tun qorong'isida adashib qolgan yolg'iz qushchaning nolishiga quloq solib yotgan bo'lsalar-da, har kim o'zicha o'y surardi. Yarim tunga borib, shamol qo'zg'aldi. Otlar qo'rqib, bir-birovning pinjiga tiqilishardi. Jandarm esa ichida taqdirini la'natlab yotardi.

To'satdan Qurmashning qulog'iga shamolning uvvosi aralash kuy eshitilayotganday tuyuldi. U goh balandlashar, goh pasayardi. Uzoq-uzoqlardan, qumlik chekkasidagi yer tubidan zilday og'ir yuzlab mis qo'ng'iroqlar jaranglayotganday edi.

Bu ovozni shamolning uvullashidan farq qilishini Qurmong'ozidan boshqa hech kim ajratolmasdi. Qurmashning nazarida go'yo ona tuproqning o'zi sado taratib kuylayotganday, bu ajoyib ohang uning vujudini chulg'ab olganday edi.

— Eshityapsizlarmi? — deb shivirladi u qo'riqchilariga.

— Shamol uvullayapti... — deb javob berdi ulardan biri.

Ikkinchi yigit sal qaddini ko'tarib, quloq soldi. Keyin yana cho'zilarkan:

— Bu tosh o'rmonning ovozi. Norinqumda unday yerlar juda ko'p... — dedi.

— Nima? Nima bo'ldi? So'zla, qaysaq! — so'radi jandarm, qo'lidan tushib ketgan miltig'ini shosha-pisha olarkan.

— Yog'ochlar kuylamoqda. Kuyni bilasanmi? — deya uni tinchlantirgan bo'ldi qizilg'urt yigit.

— Tuf-e! Har qanaqangi uvullagan ovoz senlarga qo'shiq bo'laveradi, — deya to'ng'illadi jandarm qo'shiq eshitishga xalaqit qilib. Qurmong'ozi o'rnidan turib kishanlarini shaldiratib eshik oldiga bordi-da, devorga suyandi. U quloq berib, tosh o'rmon qo'shig'ini tinglay boshladi.

O'rmon esa hamon kuylagandan kuylardi.

Qum bo'roni butoqlarini tebratib ming yillik mudrog'i buzilgan tosh o'rmon, daryolar hayqirig'i, qushlar sayrog'i, hayvonlar uvullashi va o'rmon etagida qachonlardir yashab o'tgan dehqonlar bilan sarbozlarning qo'shig'ini bo'g'ishga ojizlik qilganday betinim guvullardi...

Bu yerlardagi daryo o'zanlari quriganiga, buloq suvlari tortilib qolganiga, shaharlar nurab yo'qolib ketganiga, yaylovlar qaqrab, kanallar qumga to'lganiga ne-ne zamonlar bo'lgan. Bu o'rmonlarda sayroqi qushlar uya qurgan, soya-salqinida yo'lovchi karvonlar tin olgan zamonlardan buyon yuz, ming yillar o'tib ketgan...

Tevarak-atrofdagi hamma narsa yo'qolib, qum barxanlari ostida qolib ketgan. Faqat o'rmongina bor. Lekin u o'z butoqlarida yaproqlar qaysi zamonda ko'kargani va qachon bulbullar sayraganini unutib yuborgan. Ular vaqt o'tishi bilan tosh bo'lib, qotib qolgan. Bu yerdagi har bir daraxtning tanasi ostida o't yonaverib xuddi yarqirab ketgan doshqozon tubiday qop-qora, cho'yanday mustahkam.

Qani endi, mana bu guvullagan kuyga tushunadigan va notaga soladigan biron kishi topilsa! Bu kuy, albatta, uni o'tmish tomon sayrga olib ketardi. U bu o'lkaning alamli o'tmishi haqidagi hikoyani tinglardi, bu yerda o'tgan podshohliklar, xalqlarni o'z ko'zi bilan ko'rardi; uning ko'z o'ngida Iskandar Zulqarnaynga bo'yin egmagan saklarning chodirlari gavdalanardi; turonlarning, qipchoqlarning qum ostida qolgan qal'alarini; parfiyonlar bilan so'g'dlarning saroyini ko'rardi; u bir vaqtlar bu yerlarda dovrug' solgan qalmoqlar bilan no'g'aylarning kuylarini, nomi tillarda doston bo'lgan bahodir Sipira qo'shiqchining qadimiy qo'shig'ini eshitardi. Uning qachonlardir bu yerda bo'lganini xalq hamon yodda saqlab keladi...

Vaqt odam bolasini yovuzligi, urishqoqligi, shuhratparastligi uchun beshafqat jazolaydi...

Hozir esa zim-ziyo qumlik ichkarisidan sehrli kuy taralyapti, xolos. Qurmashga bu dunyodagi hamma narsa, ko'hna mozor ham, qorong'i tunda miltillab ko'rinayotgan yulduzlar ham, oyog'idagi og'ir kishanlar ham, toshga aylangan o'rmon ichidan

eshitilayotgan kuy ham — hamma-hammasi ajoyib mo'jiza bo'lib tuyulardi...

...Tosh o'rmon qo'shig'i Qurmong'ozining qulog'i ostida ancha vaqtgacha yangrab turdi. U oldida otga mingashib ketayotgan soqchining yelkasidan bo'lak hech narsani ko'rmay borardi...

Jandarm endi piyoda yursin deya buyurdi, qizilg'urt navkar Qurmashning oyog'idagi kishanni yechib oldi. U oyoq ostidan ko'tarilayotgan changni yutib borardi. Dulat hozir Jiydalida emas, o'z ovulida degan fikr uning ko'ngliga taskin berardi. Qurmashni kishanlab, arqonga bog'lab, tuya singari yetaklab kelayotganlarini qiydaliliklar ko'rishmaydi.

Tashnalikdan tomog'i qurir, kishandan zarb yegan qo'llari og'rir, charchoq va qamchi alamidan beli sirqirardi. Lekin shunga qaramay, Qurmash o'lik o'rmonning guvullagan ovozi bilan uzoq ijro etgan kuyni xayolidan ketkazolmay kelardi. Tosh o'rmon guvullashi bilan Uzoq chalgan kuy bir-biriga qo'shilib ketganday bo'ladi, bu yangroq sadodan boshi sirqirab og'riydi...

Dulat oilasi qo'nish joyni o'zgartirdi. U sog'in sigirlarga o'ti mo'l yaylovga, Qorabuloqqa kelib qo'ndi.

Bu yer Jangirxonning qarorgohi va uning lashkarlariga yaqin bo'lgani sababli xavfsizroq.

Dulatning eski ovulida esa qorovullar bilan ko'chib ketishga ham qurbi yetmaydigan eng nochor turg'unlargina qoldi.

...Qorovullar boyning qolgan-qutgan yuklarini sigirlarga ortmoqda edilar. Chetroqda, ustida rus soldati o'tirgan qo'sh g'ildirakli arava turardi.

Dulat bilan Oqboy Sag'irboyning bolasini O'rda qamoqxonasiga olib borishni buyurishgan. Oftobda qoraygan, qo'ng'izmo'ylov, xushfe'l soldat ko'k ko'zlarini mo'ltillatib, jilmayganicha Qurmashga qarab turardi. U yigitning yirtiq chakmon arang yopib turgan keng yelkasi, yalpoq yuzidan to chang bosgan oyog'igacha shoshilmasdan razm solib chiqdi-da, sof qozoq tilida:

— Qani o'tir, yigit, ketdik! — dedi.

Qurmash atrofga alanglab birorta ham tanishini ko'rmadi, u istamaygina qo'sh g'ildirakli aravaga yaqinlashdi. Shunda jandarm otdan sakrab tushdi-da:

— Qo'liga kishan solib, piyoda haydash kerak. Buyruq shunday! — dedi.

Jandarm egar qoshidagi chilvirni yechib kelib, Qurmashning qo'lidagi kishandan aravaga mahkam bog'lab qo'ydi. Soldat jandarmga istehzoli qaradi-da, ters burilib oldi.

— Hoy sen, orqadan yur. Nega baqrayasan!— dedi jandarm Qurmashning yelkasiga turtib. — Qani, tezroq! Mana bu ikkalasi ham aravaning yonida boradi, — dedi o'zi bilan birga kelgan soqchilarni ko'rsatib.

Ular o'rinlaridan endi qo'zg'algan edilar hamki, Qurmashning ko'zi uzoqda yugurib kelayotgan onasiga tushdi. Chamasi, ona o'g'lining qo'lga tushganini, uni shu yerdan olib o'tishlarini eshitib, Dulatning eski ovuliga ataylab kelayotgan edi. Qurmong'ozi onasi tomon intilgan edi, yiqilib tushdi. Jul arqon qo'lini qiyib yubordi. Soldat darrov otni to'xtatdi. Qurmong'ozi arang o'rnidan turdi.

— Seni qayoqqa olib ketishyapti, bolaginam?— dedi o'g'lini quchoqlab olgan ona ko'z yoshi to'kib.

Qurmash ichida nimadir uzilib ketganday bo'lib, ho'ngrab yig'lab yubordi. U umrida birinchi bor bolalarday ho'ngrab yig'lardi.

Onasi yig'idan to'xtadi, boshi, yuzlarini silab-siypab, ko'zlariga tikildi. U ko'z yoshlarini arta turib, jandarmning hazar qilib aftini bujmaytirayotganini ko'rdi.

— Qo'y, bolam, o'zingni bos... Yovga joningni bersang ham, zinhor siringni berma! — dedi ona.

Jandarm o'ziga soldatning xo'mrayib qaraganini sezib, tipratikanday g'ujanak bo'lib oldi. Ikki soqchi — Oqboyning xizmatkorlari ham unga o'qrayib qarab turishardi. Qurmong'ozi boshini ko'tardi.

— Bu Uzoq oqinning hadyasi... — dedi-da, qaddini rostlab, aravadan do'mbirani olib, onasiga uzatdi. — Tashvishlanmang, ona, qo'rqqanimdan yig'laganim yo'q. Sizlardan ruxsatsiz ketib qoldim, uzr...

— Bu do'mbira senga baxt keltirsin, o'g'lim. Uni gard yuqtirmay saqlayman.

Qo‘sh g‘ildirakli arava g‘ichirlab, o‘rnidan qo‘zg‘aldi. Ona esa, yengiga ko‘z yoshlarini artganicha, bolasi izidan yurdi.

— Hoy yaxshilar, qaranglar! Qurmashimning kuylari Uzoqqa ham yoqibdi, — dedi to‘plangan olomonga qarab ona. — Kichik juz bilan O‘rta juzning atoqli oqini va do‘mbirachisi o‘z do‘mbirasini Sag‘irboyning o‘g‘liga hadya qilganini endi yosh-u qari biladi.

— Yo Alloh, qaysi qilmishim uchun jazolayapsan meni?.. — deb nola chekdi o‘g‘li uzoqlashib ketganidan keyin u.

Kech kirib qosh qorayayotganida O‘rdaga borayotgan ikki g‘ildirakli arava yo‘lini bir to‘da otliq to‘sib chiqdi. Ular orasida Zarboy ham bor edi. Ular shovqin ko‘tarmay, chaqqonlik bilan jandarm va soldatga tashlanib, oyoq-qo‘llarini bog‘ladilar.

Qurmong‘ozi bor kuchini to‘plab, sakrab egarga minib oldi. Yilqichilar tezda yo‘ldan uzoqlashib. poyonsiz dasht bag‘rida g‘oyib bo‘ldilar. Oqboyning odamlari — ikki qizilg‘urt yigit ham ular bilan birga ketdi.

Kuz faslida oltin tusga kirgan yaylovni tun pardasi qopladi. Qayoqqadir kechikib qolgan o‘rdak galasi shovqin solib kumushday yaltirab oqayotgan soy sari sho‘ng‘idi. U yoq-bu yoqdan ahyon-ahyonda qo‘y qaytarib yurgan cho‘ponlarning tovushi eshitilib qolardi. Soy yaqiniga tikilgan o‘tovlar yonida gulxanlar gurullab, dasht uzra tutun o‘rlay boshladi.

Cho‘ponlar o‘tovlari yonida, buklog‘liq kigiz yoki egarga boshlarini qo‘yib mizg‘ishardi. Keng dalaga sukunat qo‘ngan, kech tushgach, o‘ynoqi biyalar ham yuvosh tortib qolgandi.

Faqat allaqayoqdan kun bo‘yi charchagan tuyaning o‘kirgan va adashib qolgan bo‘taloqning bo‘zlagani eshitilib qoladi... Mana, o‘tovlardan birining yoniga yilqichilar to‘planishibdi.

— Eshitdinglarmi? Qizilg‘urtliklarni yana talab ketishibdi. Qorovulxo‘ja sultonning navkarlari, Allohning inoyati bilan yana elni tunagani chiqibdi, — dedi eski tulki tumog‘ini keng peshanasiga tushirib kiyib olgan, qotmadan kelgan yilqichi.

— O‘sha xo‘ja yolg‘iz qo‘limga tushib qolsa bormi, — dedi ikkinchi yilqichi ostidagi po‘stakni to‘g‘rilab, uni boshqalarning otini egarlab mina olmaydigan qilib qo‘yardim!

Bu yilqichi Zarboy edi. U o'ng tomoniga yonboshlaganicha so'nayotgan gulxanga tikilib o'y surardi.

— Isatoy bizlarni huzuriga chorlayapti...

— O'ylab ko'rish kerak, — dedi sekingina uzoq jimlikdan keyin keksa yilqichi. — Biz uzoq yillardan beri bersh urug'i bilan zidlashib kelamiz. Endi ularning yoniga yalinib boramizmi?.. Tushdan keyin ma'raydigan oqsoq qo'yga o'xshab yurmaylik yana. Agar bersh yigitlarga qo'shiladigan bo'lsak, ularning ovullariga yov bostirib kelayotganini ko'rib qo'l qovushtirib turolmaymiz- ku...

— Bari o'z ovulimiz. Axir, o'sha ovullar ham qozoq ovullarimasmi?!— dedi jahli chiqib Zarboy. U hovridan tushish maqsadida o'rnidan turib, gulxan tepasiga bordi-da, yana tezak qalay boshladi.

Soy tomondan o'lan ovozi eshitildi. Zarboy quloq soldi.

— Qurmashimiz qayerda bo'lsa, o'sha yerda kuy va qo'shiq yangraydi... — deb qo'ydi keksa yilqichi.

— U qizilg'urt urug'idan-ku,— dedi Zarboy hazil aralash. — Demak, u bizga begona...

Hamma birdan kulib yubordi.

— Eh e, biz qozoqlar necha-necha urug', necha-necha qabilalarga bo'linamiz-a!.. — dedi alam bilan uning yonida o'tirgan yoshgina yigit.

...Soy tarafdan salqin shabada esar, onda-sonda suvda shalp etib baliq sakrab qo'yardi. Yigitlar kuyga xalal bermaslikka urinib, shivirlab gaplashardilar. Qurmong'ozi o'ychan qiyofada tungi bulutlar ko'lankasi suzib yurgan suv sathiga tikilardi. Ahyon-ahyonda bulut orasidan oy mo'ralab qo'yardi. Ushbu iliq, qorong'i tun quchog'ida yoqimli, ravon kuy tug'ilardi.

Yulduzlarning charaqlab turishi, anhorning shovullashi, o't-o'lanlarning shitirlashi, yaylovda o'tlab yurgan yilqilarning tuyoq tovushlari, bepoyon dalaning sehrli sasi, Saqishning mayin, tiniq ovozi — hamma-hammasi oqib kelib, bir irmoqqa quyilayotganday do'mbirachining quloqlari ostida qandaydir kuy kasb etardi. Qurmash boshiga tushgan kulfatlarni unitishga urinib, do'mbi-

rani sozlab, asta torlarni cherta boshladi. Odamlar do'mbirachiga yaqinroq surilishdi.

— Jim bo'linglar, Qurmong'ozi chalmoqchi... — deganday barmog'ini labiga olib bordi yosh cho'pon. Uning bu ishorasini Qurmong'ozi payqab, kulimsirab bosh irg'ab qo'ydi.

Ha, endi u kuy chaladi, chalganda ham Uzoqqa o'xshab, eski yarasini yangilab, tinglovchilar ko'nglida o'kinch, ranj-alam uyg'otadigan qilib chalmaydi.

U qo'lidan kelsa, Mahambet singari xalqiga botirlarning ishlarini hikoya qiluvchi, ularni kurashga chorlovchi kuylar to'qiydi... Qurmong'ozining kuylarini odamlar har qachon jon deb tinglaydilar. Ular Qurmong'oziga ishonadilar, undan ilhombaxsh, jo'shqin kuy kutadilar. O'lan va kuy — el qanoti. Mabodo kunlarning birida o'lan aytilmay, kuy chalinmay qolsa — g'am-anduhdan dasht hayoti so'nadi. Hadeb g'am-alamni o'ylayverishning vaqti emas hozir...

U o'zi bastalagan bu yangi kuyni butun san'ati, iste'dodini ishga solib, ehtiros va maroq bilan ijro etardi. Bu kuyda tosh o'rmonlarning guvullashi, asov arg'umoqlarning kishnashi, botirlarning isyonkor qo'shiqlari — bari-bari mujassam topgandi.

Kuy eng avj pardada taqqa to'xtadi, biroq hech kim qilt etib qimirlamadi. Odamlar go'yo sehrlanganday, bu kuy xayollarida qo'zg'agan o'y-fikrlardan qutulishga majollari yetmay uzoq muddat mahliyo bo'lib o'tirib qoldilar.

Qurmong'ozi o'rnidan turib, o'tov tomon yurdi. Do'stlari ham jimgina tarqaldilar. O'tlab yurgan otlar va mudrayotgan qo'y-qo'zilar yonidan ohista o'tib, har kim o'z kapasiga kirib ketdi.

Qorong'ilik quchog'idan bir necha yigit sharpasizgina chiqib kelib, Zarboyga yaqinlashdi. Zarboy ularni o'z o'toviga taklif qildi. Gulxan tepasida tumoq kiygan, qotma yilqichigina qoldi. U tiq etgan sharpaga quloq solib o'tirardi.

Qurmong'ozi ham Zarboyning o'toviga kirdi. O'tov ichi qorong'i edi, uning kirib kelganini hech kim payqamadi. Zarboy chiroq yoqib, uni to'nkarig'liq zarang tovoq ustiga qo'yar ekan, mehmonlarga birma-bir nazar tashladi.

— Assalomu alaykum! Omon-eson yetib keldilaringmi?

— Vaalaykum assalom, Zarboy o'zing omonmisan? Hech kimga sezdirmay kelib oldik, hatto poyloqchi itlaring ham payqamay qoldi. Otlarimizni bu yerdan ancha uzoqda — to'qayda arqonlab qoldirdik...

Kelganlardan biri chiroqqa yaqin kelib o'tirdi-da, etigini yechib, ichidan yaxshilab o'ralgan matoni oldi va:

— Bu nomani Isatoy yozgan. Aday bilan bersh yigitlari bunga barmoqlarini bosishgan. Agar bu nomaga qo'shilsak, biz ham barmoq bosishimiz kerak. Bu noma general-gubernatorning shaxsan o'ziga topshiriladi.

— *"Bizning hukmdor — Bo'key o'g'li, Jangirxon haddidan oshmoqda...* — deb arabcha yozuvni hijjalab o'qiy boshladi. — *Bizni himoya qiladigan hech qanday qonun qolmadi, kim ko'rinsa, boshimizga chiqib, jabrlay beradi. Endilikda sabr toqatimiz tugadi. Chunki sultonlar va boylarimizning o'zi ham bizni och kanaday so'rib, mol-mulkimizni talamoqda, qarshilik ko'rsatguday bo'lsang, qamchilab holdan toydirmoqda..."*

Hammaning nigohi noma o'qiyotgan chaqmoq telpakli, tuya jun choponli, keng yag'rinli, yalpoq yuzli yigitga qadalgan edi. Yigit belbog'iga kichikroq, ammo og'ir cho'qmor qistirib olgandi.

Yigit nomani o'qib bo'lib, atrofdagilarga qaradi-da:

— Tushunarlimi? — deb so'radi.

— So'rab nima qilasan? O'qiyver...

— Agar shu gaplarga rozi bo'lsalaring, bosh barmoqlaringga qorakuya tegizib, mana bu yerga bosinglar...

Boshqalar bilan birga Qurmong'ozi ham noma tagiga barmog'ini bosdi-da, tashqariga chiqdi. Otlar kavshanar, yilqichilar mizg'ishardi. Qurmong'ozi Saqishning soy tomondan kelayotgan qo'shig'ini eshitib, o'sha yoqqa yurdi.

Keksa Jaqip yana qo'y qamaydigan qo'raning oldida turardi. Qurmong'ozi ham o'z ovuliga qaytib keldi. U Dulatdan qo'rqib o'tirmay, ochiqdan ochiq kelaverdi.

Dulat do'mbirachining qaytib kelishidan ham, uning dashtda ko'plab do'st-yoron orttirganidan ham xabardor edi. Uni xalq tanidi, endi u bilan tortishib o'tirish xatarli. Buning ustiga, yilqichilar

ovulga qaytib, xalqni Isatoy sarbozlariga qo'shilishga da'vat etyapti. Bu tun dasht, barcha ovullar g'alayonga kelgan, bamisoli ari uyasiga cho'p suqqanday...

Dulat Qurmong'ozini kechirgani, undan otining xunini talab qilmasligi to'g'risida el orasiga gap tarqatdi. Lekin u alamini ichida saqlab qoldi, zimdan pristavga maktub yubordi.

Sarmon ham ovulga qaytdi. Yoz buyon o'zgarib, ajabtovur yigit bo'lib qolibdi. Endilikda bu bo'ychan, chiroyli yigitni nos otishdan boshqa ishni bilmaydigan o'sha bo'shang yilqichi deb bo'lmasdi.

Sarmonning baxti bor ekan. Qurmash qochib ketganidan keyin Oqboy uni ovullari ustidan o'tib ketayotgan savdogarning iltimosi bilan tuya haydovchi qilib berib yuborgandi. Karvon to'xtagan yerlarda savdogarning yosh xizmatkori Sarmonga xat-savod o'rgatdi. Karvon har bir ovul, har bir qishloq, har shaharda to'xtab, bir oy deganda Oqmachitga yetib bordi. Bu davr mobaynida Sarmon hijjalab o'qishni o'rganib oldi. Sarmon ovuliga qaytish uchun cho'l oshib Orenburgga ketayotgan kichik rus ekspeditsiyasiga yo'lboshlovchi bo'lib yollandi.

Ekspeditsiyaga Sarmonning nazarida g'alatiroq, dumbulroq ko'ringan cho'qqisoqol, pogonsiz ofitser formasidagi kishi boshchilik qilardi. Ular savdo karvonlariga nisbatan juda sust siljib borardilar.

Sarmon yo'l bo'yi xo'jayinining alomat qiliqlariga tushuna olmay, bu kishining asli kasbi nimadan iborat ekanligini bilolmay hayron bo'lib keldi.

Xo'jayin ba'zan hech narsadan hech narsa yo'q ekspeditsiyani yo'ldan to'xtatib, biron ovuldagi bemorni davolashga yoki ko'hna mozoristonlarda uchraydigan naqshlarni ko'chirib olishga tushib ketardi. U naqshinkor qabr toshlar yonida uzoq o'tirib qolar, nuroniy qariyalarning yolg'on-yashiq hikoyalarini aslo zerikmay, qunt bilan yozib olardi...

Bu rus qozoqlarning talaygina o'lanlari, botirlari haqidagi ertak va dostonlarini bilishiga qaramay, yanada ko'proq o'rganishni istardi. Bu nimaga kerak ekan o'zi? Buni birgina Allohning o'zi biladi. Sarmon uning ko'p ishlariga tushuna olmadi. Lekin uni yaxshi ko'rib qolgani sababli buyurgan yumushini ko'ngildagiday

bajarishga harakat qildi. Bu kishi Sarmonga o'zining rahmdilligi, g'amxo'rligi hamda turg'unlarning bolalariga ko'rsatayotgan iltifoti uchun ham yoqib qoldi.

Uni Vladimir Ivanovich deyishar, o'zi esa o'zini "oriyentalist"man, derdi. Sarmon undan hayotdagi ko'p narsalarni o'rgandi. U endi ruscha kitoblarni ham o'qiy oladigan bo'lib qoldi, to'g'ri, u hali so'zlarni bo'g'inlarga ajratib, juda sekin o'qisa-da, har qalay, harf tanib qolgandi.

Yo'ldagi ovullardan birida ekspeditsiyani yoshi o'ttizlar chamasidagi, ruscha kiyingan qozoq yigiti kutib oldi, uning ismi Aqan ekan.

Ma'lum bo'lishicha, Vladimir Ivanovich uni burundan tanir ekan, shu sababli "Peterburgda tanishgan do'sti" sharafiga kichikkina ziyofat berdi. Bu Aqan ekspeditsiyani uch kun kuzatib bordi-yu, lekin Sarmon bilan biron marta so'zlashmadi, gerdayib yurdi, Vladimir Ivanovich bilan Aqan ertadan kechgacha bir-birlariga yangiliklarni gapirib berishardi. O'sha Aqan ekspeditsiyadan ketayotganida, ular orasida sodir bo'lgan munozara Sarmonning yonida uzoq vaqtgacha saqlanib qoldi.

— Sultonlar saroyi-yu chorvoqlarida yashaydiganlargina o'qish imkoniga egadirlar,— dedi Vladimir Ivanovich. — Maktab ham, mullalar ham o'shanday joylarda, ular bolalarga musulmoncha tarbiya-bilim beradilar. Tabiiy, lekin sultonlar, umuman, e'tiborli qozoqlar o'z bolalarini o'qitgani chin muallimlarni taklif qilsalar yomon bo'lmasdi. O'sha muallimlar o'z maktablarida kambag'allarning bolalarini ham qo'shib o'qitsalar, yanada ma'qulroq bo'lardi.

— Ilmni ham munosib, oliynasab odam o'rganishi lozim. Cho'ponga uning nima keragi bor, boshini qotirishdan boshqa nima beradi, — dedi Aqan.

Sarmonga bu fikr yoqmadi. U ishini qo'ydi-da, yuklar yoniga o'tirib olib, ularning suhbatiga quloq soldi.

— Gapingizga tushunmadim, janob Aqan, sizga tushuna olmadim, — dedi qizishib Vladimir Ivanovich. — Nahotki siz ham shunaqa bo'lsangiz? Bu nima deganingiz? Qobiliyatli, zehnli qozoq bolasi o'qishga kiradi, ruslar orasida yashaydi, o'sha yerda xizmat

qiladi, ba'zi Yevropacha odatlarni ham o'rganib oladi, ba'zan bu odatlarni ruslardan ham yaxshiroq o'zlashtiradi, keyin esa dashtga qaytadi-da, sulton va boylarning malayi bo'lib qoladi — dashtda umuman xuddi ana shunday hodisa sodir bo'lib turadi. Bu boylar esa rossiyalik pomeshchiklardan faqat cho'chqa o'rniga qo'yni ko'paytirishlari bilangina farq qiladilar, xolos. Shunday ekan, ruxsatingiz bilan sizga bitta savol beray, basharti sizning o'qimishliligingiz faqat boshingizga shlapa, egningizga nimcha, kamzul, tor shim kiyib olib, kerosin chirog'-u soyabon aravada yurish bilan cheklanarkan, o'qiganingizdan nima foyda? Agar siz o'z xalqingizning ma'naviy hayotiga biror-bir yangilik kiritmas ekansiz, o'qishning hojati bormidi?.. Yana eshitishimga qaraganda, savodli yoshlar — badavlat qozoq xonadonlarining bolalari Buxoroyi sharifga qarab intilishayotganmish. U yerda fors va arab tillarini, shuningdek, musulmonchilik qonunlarini o'rganib, so'ngra eng yallaqagani mulla bo'lisharmish. Ular o'z bilimdonliklaridan g'ururlanib, oddiy xalqni ezish yo'lida sultonlarga laganbardorlik qilarmishlar...

— Men boshqa gapni aytmoqchiman, — dedi Aqan. — O'qishning kambag'al xalqqa zarar keltirishini aytyapman. O'qish, hatto biz oqsuyaklar orasidan chiqqan ba'zi birovlarga ham putur yetkazyapti. Isatoy oqsoqol bilan Mahambet oqinning Jangirxon amriga itoat etishdan bosh tortib, dala-dashtda yashirinib yurib, elni g'alayonga undayotganlarini eshitgandirsiz? Axir, ular qashshoq kishilar emas, arabchani ham, tatarchani ham, rus imlosini ham durustgina biladilar-ku...

— Yo'q, bu g'alayon savodlilikdan bo'lmayotir! — dedi Vladimir Ivanovich qizishib. — Rus mujigi ham isyon ko'tarmoqda. Isyon ko'targanda ham qanaqangi isyon deng... Razin, Pugachov... Sizlarda bo'lsa, Sirim Dat o'g'li, hozirda esa Isatoy, Mahambetlar. Binobarin, men Mahambetni bilaman. U bilan Peterburgda ko'rishgan edim. O'sha paytda ham, janob Aqan, men unga xalqlarni qorong'ilikdan tayoq bilan qamchi emas, ziyo, bilim qutqaradi deganim esimda!.. Rus ziyolilari haqida gapiradigan bo'lsak, ular orasidagi eng layoqatlilari "begona xalqlarga" qo'llaridan kelgancha yaxshilik qilmoqdalar. Afsuski, sizning xalqingiz-

ga bo'lgan qiziqishimiz hozircha Osiyo haqidagi Yevropa fanini to'ldirishga yoki ulug' martabali imperatorimizning Ichki ishlar ministrligi va yashirin diplomatiyasining papkalarini semirtirishga xizmat qilishgagina yaramoqda. Qozoq yoki qaysaq deb yuritilib kelinayotgan xalqni uyg'otish yo'lida qanday ishlar qilinyapti? Bunga hozircha bizning qurbimiz yetmadi. Har kim ham o'z zamonasining dekabristi bo'lolmaydi... Vaqti kelib, xalqlarning ko'zi ochiladi, albatta, — dedi Vladimir Ivanovich endi Aqanga emas, boshqa tomonga tikilib. — Chunki xalq orasida Mahambetga yoki mana bu o'tirgan sinchkov yigitga o'xshaganlar oz emas, — deya Sarmonni ko'rsatdi. Ko'rdingizmi, u qanday zehn qo'yib tinglayapti gapimizni, axir, u bu yerga men bilan xayrlashishgagina kelgan edi-ku... Men shunchaki, gapirdim-qo'ydim. Afsuski, bular gap bilan emas, zambarak bilan amalga oshadigan ishlar.

— Qani, janoblar, unga minnatdorchiligimizni bildiraylik! — dedi Vladimir Ivanovich hamrohlariga murojaat qilarkan Sarmonni ko'rsatib.

— Ovulingga bu yerdan ikki kunlik yo'l qolgani to'g'rimi?

— To'g'ri, — javob berdi Sarmon, uzoq safar mobaynida yaqin kishisi bo'lib qolgan rus olimi bilan iliq xayrlasharkan. Lekin Aqan unga qayrilib ham qarab qo'ymadi.

— Xayr, yo'ling bexatar bo'lsin...

Sarmon jo'nab ketayotganida, Aqanning og'a sulton Boymag'ambetning jiyani ekanini bilib olgandi.

Qurmong'ozi bilan Sarmonning, yilqichilar bilan cho'ponlarning ovulga qaytib kelishlari qari-qartang, bola-chaqadan tashqari, hech kim qolmay, yoz bo'yi huvullab yotgan Jiydalini yana jonlantirib yubordi. Boshga tushgan hamma tashvishlar endi unutilganday edi. Sarmon o'zi yo'l ko'rsatib kelgan rus olimi haqida mayda-chuydalarigacha oqizmay-tomizmay hikoya qilar, Qurmong'ozi esa eldoshlariga yangi ijod etgan kuylarini chalib berardi. Zarboy bo'lsa, boshqa ovullardan yolg'iz-yarim kelib-ketib turgan yilqichi va cho'ponlar bilan suhbatni hanuz davom ettirardi.

Jiydali ovulining keksa oqsoqoli Ollayor ham o'tovidan tez-tez tashqariga chiqadigan bo'lib qoldi. U hassasini do'qillatib, bir

kapadan ikkinchisiga o‘tar, jimgina yangi xabarlarni tinglar, Qurmong‘ozi kuylarni eshitib quvonardi.

...Qurmash odamlarda biror o‘zgarish sezmadi, faqat o‘tgan mana shu oylar ichida onasining sochlari yanada oqarib ketgandi. Katta o‘g‘li keldi-yu, lekin kenjasi — Boyg‘ozi kelmayotganidan xavotirlanardi. U boqib yurgan qo‘zichoqlar ham katta bo‘lib, allaqachon umumiy otarga qo‘shilgandi.

Jaqip cholning aytishicha, Dulat yaylovdan katta ovulga ko‘chib borishi bilan Boyg‘ozi qaytib kelarmish.

— Endi Dulat bizning ovulga kelmasa kerak. Biz unga yoqmaganga o‘xshaymiz. U endi katta ovuldan chiqmay, amr-u farmonlarinl choparlari orqali yetkazib turadi. Bunga imonim komil, xuddi shunday bo‘ladi. Qaytaga shunisi tinchroq, — dedi Jaqip bir tutam siyrak soqolini silarkan, ko‘zini ma’noli qisib.— Yaylovda bor-yo‘g‘i bir yarim oygina bo‘ldim. Bu ko‘p vaqt bo‘lmasa ham, qurumsoq boyning narsalari qulayman deb qolibdi. Dulat na bir dona zanglagan mix, na bir qarini chirigan ip va na qoqqach qoziq yuboradi. Biz, xuddi arab sehrgarlariga o‘xshab, hamma narsani o‘zimiz yasamog‘imiz kerak. Qo‘rani tuzatishga yog‘och top, arqon esh, kapani tuzat... Bu Dulatboyning xo‘jalik ishlari bilan shug‘ullanishga vaqtlari yo‘q, u kishiga qiz bo‘lsa bas. Qari tuya... Xudodan ham qo‘rqmaydi. Ha, xuddi shunaqa, buni bilaman...

Jaqipning so‘nggi so‘zlarni Qurmashning yuragiga o‘qday sanchildi. U Dulatning Oqcho‘lponni bir to‘p qiz bilan boy xonadoni uchun qimiz pishirsin deb olib ketganini kelgan kuniyoq eshitgan edi. U qiz to‘g‘risida Jaqipdan so‘ramoqchi bo‘ldi-yu, lekin botinolmadi. Chol to‘siqni tuzatib bo‘lgach, qo‘liga ketmonni olib, yil bo‘yi bosilib yotgan qo‘y qiyini chorburchak qilib chopishga tutinib ketdi.

— Qurmashjon, biror kun menga qarashib yuborsang degandim. Negadir sira kuchim yetmayapti, — dedi bexosdan Jaqip muloyimgina va o‘zini oqlamoqchi bo‘lganday yana so‘zini davom ettirdi: — Qishga yoqilg‘i tayyorlab olish kerak. Men bilaman... senga do‘mbira bo‘lsa bas, — aljishda davom etdi chol. — Esingdami? Bu yerdan qanday qilib qochganding? Zap ajoyib otiydi-ya! Rosa g‘avg‘o ko‘tarib ketganding. Lekin hammasi bosti-bosti

bo'lib ketdi. Xudo rahm qildi: tirik qolding, Sibirga ham badarg'a bo'lmading... Xalqning boyga nafrati oshib ketgan. O'zing ham bo'sh kelmaysan. Seni qara-ya! Dulatni qo'rqitib qo'yding. Ha, shunday, buni bilaman...

Qurmong'ozi endi uning so'zlarini eshitmas edi. Shu topda u Oqcho'lponning yoz ichida qiyshayib qolgan kapasi yonidan o'tib borardi. Kapa tuynugiga qoplangan qo'yning qorin pardasi qurg'ab, tars-tars yorilib ketibdi, mo'ri o'rniga tagi yo'q chelak to'nkarib qo'yilibdi. Eshik oldida sigir tappisi, bir tutam jun va g'ajib tashlangan suyak yotibdi. Kapa egasiz qolgan, quvnoq va mag'rur Oqcho'lpon yo'q... Boshqa kapalar bundan qolishmasdi, lekin ularning ostonalari toza edi.

Umuman, hamma yer bir xil. Hamma uy oldida tezak, o'tin, saksovul va pichan uyumlari — jiydaliliklar qish g'amini yemoqdalar.

Ko'klamda yoshlar yig'iladigan yerdagi maysalar ham toptalib, qurg'ab, sarg'ayib ketgan. Butun dala-dasht, adir-u o'r to qumlikkacha — hamma yoq kuz libosiga burkalgan. Bir vaqtlar Oqcho'lpon bilan birga sayr qilgan adirdagi pichan ham o'rib olingan. Ikkovlari ilk bor uchrashgan dara ham shu tusga kirgandir, balki.

O'sha chog'larda boshlari uzra uchib yurgan, ularning sirlaridan ogoh bo'lgan burgut qayoqlarda ekan hozir? U osmonda ko'rinmaydi. Ehtimol, har qachongiday mozor tepasida o'tirgandir. O'shanda Oqcho'lpon uni mazax qilib kulgan edi.

Xijolatpazligini yashirib, o'zini dadil ko'rsatishga urinib, qushga qarata:

— Nega bizning tepamizda charx uryapsan, nega hadeb qarayverasan? Ko'ryapsanmi, men qandayman!.. — degandi.

Qurmash bo'lsa, sevinchidanmi, uyalganidanmi, beti bilan ko'm-ko'k o't ichiga sho'ng'ib: "Oqcho'lpon..." — deya takrorlagandi hadeb.

Oqcho'lpon Dulatning yozgi ovulini tashlab ketib qoldi. U yashirin qochib ketdi. Otasi olislarda, boyning tuyalarini boqib yurardi. U boyaqish ovulda bo'lganidayam qizning nomusini oyoqosti qilmoqchi bo'lgan boyga qarshi qo'lidan nima kelardi?

Oqcho'lpon Dulatning qo'lidan zo'r-bazo'r qutulib chiqdi-yu, yirtilib, tilka-tilka bo'lgan ko'ylakda boyning hovlisidan qocha boshladi. Dulat ichki kiyimida hansiragancha Oqcho'lponni quva ketdi, biroq qiz yoz bo'yi go'sht berib boqqan bo'ribosar irillab uning yo'lini to'sdi.

— Ket, la'nati! — dedi Dulat tishlarini g'ijirlatib. — Shoshmay tur hali, qanjiq. Ertaga qosh qoraymasdan yolg'iz o'tovga qamatib qo'ymasam...

Shunday deb sekingina ichkariga kirib ketdi u.

Qiz boy o'toviga qaytib kelmadi. Yolg'izoyoq yo'lga tushib olib, cho'l ichkarisiga qarab yuraverdi. U tuni bilan tinmay yurdi, yilqichi va cho'ponlar uchun yo'l ko'rsatgichlik vazifasini o'taydigan Hulkar paydo bo'lganidan keyingina dam olishga ahd qildi. U yulduzga qarab yo'l topishni otasidan o'rgangan edi. U adashmay Jiydali tomon borayotganiga ishonch hosil qilgachgina ko'ngli tinchidi. Oqcho'lpon kunduzi yo'ldan burilib, o't-o'lanlar orasidan yovvoyi piyoz va mevalar topib yedi. U nafsini qondirib olib, yana yo'lda davom etdi. Lekin ikki chaqirim chamasi yo'l bosgach, yana o'siq o't-o'lanlar orasiga yashirindi. Oldinda karvon ko'rindi. To qosh qoraygunchа xufiya joyidan chiqa olmadi, chunki u ko'rib qolib Dulatga aytib qo'yishlaridan qo'rqdi.

Yana kech kira boshladi. Yalang osmon ostida, tungi qushlar har chaq-chaq urganda bir sapchib tushib yotarkan, u osmondagi yulduzlarga iltijo-la boqib, qandaydir duolarni pichirlardi. U sog'lik-salomatligini, or-nomusini odamlar tajovuzidan, hayvonlar hujumidan himoya etishni yaratgandan so'rab, iltijo qilar, o'z Qurmashini yana bir bor ko'rishni orzu qilardi.

Mana, tong ota boshladi. Oqcho'lpon tong bilan barobar o'rnidan turdi-da, o't bosgan, ko'zga arang chalinayotgan so'qmoqdan odimlay ketdi.

Oldinda kelayotgan otliqni ko'rib, u yana chetga burilib, qalin o't orasiga berkindi. U hammadan, piyodadan ham, otliqdan ham qo'rqardi. Ba'zan taqir yerda, qum ichida yoki chaqirtikanaklar orasida yo'l yo'qolar, shunda qiz yo'l qidirib bir yerda uzoq o'ralashib qolardi.

Mana, nihoyat yo'l bir soyga kelib taqaldi. U chuqurroq joyni topib cho'mildi. Muzdek suvdan keyin charchog'i ko'tarilganday, kuchiga kuch qo'shilganday tuyuldi, qiz ko'ylagini yuvdi, yirtilib ketgan joylarini qurigan ingichka o't bilan amallab ilintirib qo'ydi. U kelayotgan so'qmoq soydan o'tgach, sharq tarafga burilib, tepa ortida g'oyib bo'larkan, Oqcho'lpon bir zum o'ylab turdi-da, keyin shaxdam yurib ketdi.

Lekin tepa etagida burilishi bilanoq qarshidan kelayotgan arava oldidan chiqib qoldi. Aravada ikki rus — jandarm bilan soldat o'tirishardi.

Oqcho'lpon dastlab qo'rqib ketdi, lekin tezda o'zini qo'lga olib, o't-o'lanlar orasiga urib ketmoqchi bo'ldi. Lekin shu onda-yoq: "To'xta!" — degan ovozni eshitdi. Bir zum ichida qandaydir kuchli erkak qo'li bilagidan ushlab oldi.

— Bu qaysaq qiz suluv ekan-ku! —dedi kulib jandarm. Uning qo'li hozirgina yamalgan ko'ylakka qarab cho'zildi. Oqcho'lpon soldatga iltijo-la termildi.

U yalang oyoqlarini kichkinagina butaga tirab, bir yulqindi, biroq dilozorning qo'li bo'shashadigan emasdi.

— Voy yovvoyi-yey! Hozir seni, hozir — jandarm harsillay boshladi.

— Janobi oliylari, qo'yib yuboring uni! U xohlamayapti, qo'rqyapti... — dedi soldat.

— Oldinga marsh! Aravani qoldirib ket! — deb baqirdi jandarm Oqcho'lponni tortqilarkan. — Qo'yaver, tashvish qilma, og'ayni, senga ham bo'ladi... Bora qol, bizni ozroq yolg'iz qoldir!

Oqcho'lpon fursatini topib jandarmning qo'lini tishlab oldi. U og'riqdan baqirib yuborib, bor kuchi bilan qizning yuziga musht tushirdi. So'ngra qizni dast ko'tarib, o't orasiga yurdi.

— Op-a-a-a! — deb baqira boshladi Oqcho'lpon.

Jandarmning oyoq-qo'li birdan bo'shashib shilq etib yonboshiga quladi. Oqcho'lpon tizzasini ikki qo'li bilan bekitgancha soldatga tikildi. Uning qo'lidagi qonga bo'yalgan tosh yerga tushdi. So'ngra u arava yoniga bordi-da, eski shinelini olib, qiz oldiga tashladi.

— Ol, qizim, kiyib olgin-da, aravaga chiqib o'tir, — dedi soldat qozoqchalab. U jandarmning jasadini yelkasiga olib, tepa ortiga o'tgancha uzoq vaqt yo'q bo'lib ketdi.

Oqcho'lpon qo'rqib ketganidan junjayib olgan, tishi tishiga tegmay qalt-qalt titrardi. U shinelni yopinib olganicha qimir etmay o'tirardi. Ot bo'lsa dumi bilan erinibgina pashshasini qo'rirdi...

Nihoyat, soldat qaytib keldi. Uning ko'zida beparvolik va horg'inlik aks etib turardi.

— Ketdik... — dedi u.

— Qayoqqa boramiz, og'a? — so'radi qiz eshitilar-eshitilmas.

— Sen qayoqqa ketayotgan bo'lsang, o'sha yoqqa, qizim... Lekin oldin suv yoqasiga boramiz, yuvinib olasan...

Stepan to'g'ri ovulga borishdan cho'chidi. Dulatning odamlari uni tanib qolishlari mumkin. Unda Dulat O'rdaga chopar yuborishi, rus soldati qasamiga xiyonat qilib, ishonchsiz, shubhali yilqichilar tarafiga o'tib ketdi, deya yuzboshiga yetkazishi turgan gap. Shu sababli u aravasini boyning mollariga qish uchun pichan jamlayotgan jiydalilik o'roqchilar ishlayotgan tarafga burdi.

Oqcho'lpon asta-sekin xotirjam tortib, ko'ngli joyga tushdi-yu, lekin onda-sonda o'z xaloskoriga xavotir ichida qarab-qarab qo'yardi. Bir narsa uni g'oyatda ajablantirdi, bu soldat shu o'lkadagi tog'lar, vodiylar, qirlar, ovullarning qozoqcha otlarini; barcha mashhur odamlarning ismlarini juda yaxshi bilar edi.

Stepan yo'l bo'yi tinmay so'zladi. U Oqcho'lponga o'zining singlisi haqida hikoya qilib berdi. Uning hayoti ham Oqcho'lponning hayotiga o'xshash ekan. Ular otalari bilan birga yarim aholisi qozoqlardan iborat bo'lgan Ashtarxon yaqinidagi kichkinagina bir qishloqda yashasharkan. Stepanning Eshbo'l ismli do'sti ham bor ekan. U xorunjiy[1] qo'rg'onida batraklik qilarkan. Eshbo'l kuchli, abjir va ishga chechan yigit ekan. Rus boyonlari uni jon deb batraklikka yollasharkan.

[1] **Xorunjiy** — revolutsiyagacha kazak qo'shinidagi podporuchik unvoniga teng ofitser.

U boshqalarga qaraganda yaxshi pul topar, kiyinishni ham o'rniga qo'yar, o'zi ham qomati kelishgan yigit ekan. Egnidagi satin ko'ylagi, keng cholvori, choponi, belidagi hoshiyali qizil belbog'i o'ziga juda yarashib turarkan. Ular doim uchovlon Stepan, singlisi Katya va Eshbo'l birga sayr qilishar ekan.

— Sen o'z yigitingni qanday sevsang, Katya ham Eshbo'lni shunday sevardi... — hikoya qilardi Stepan. — Otam bilan men ularga xalal bermasdik. Otam o'zi batrak bo'lgani uchun Eshbo'lni siylardi. Uning qozoqligiga kelganda, otam buni, hatto o'ylagan ham emas... — Shoshma, qizim! — dedi Stepan xuddi bir narsa yodiga tushganday. — Yigitingning ismini Qurmash dedingmi? Sag'irboyning o'g'li, do'mbirachi emasmi?

— O'sha... — dedi Oqcho'lpon hayron qolib.

— Qurmash, degin?

— Siz uni taniysizmi? —deb yubordi chiday olmay Oqcho'lpon.

— Nega tanimay. U xuddi mana shu sening o'rningda o'tirgan edi. Boyagi jandarm bilan men uni qo'riqlab kelayotgandik...

Oqcho'lpon bezovtalanib tikildi unga.

— Uni qayerga olib bordinglar?

— Xavotirlanma, qizim. Sening Qurmashing sog'-omon. U o'z odamlari orasida. Yigitlaringiz uni qutqarib, bizni rosa kaltaklab, tashlab ketishdi. Xudoga shukurki, o'ldirib ketishmadi, — dedi jilmayib Stepan. — Xavotir olma.

Stepan singlisi bilan Eshbo'l haqidagi hikoyasini davom ettirdi... To'y kuni yetib kelibdi. Bu xabar qishloq ahliga ma'lum bo'libdi. Keksa kazaklar xorunjiyning uyiga maslahatga to'planishibdi, qizning otasini chaqirtirib, qizingni cho'qintirilmagan nojinsdan aynit, deb buyurishibdi. Katya bo'lsa otasiga, Eshbo'ldan boshqa hech kimga tegmayman, debdi.

Shundan keyin davlatmandlar ur-kaltak qilishga qaror berishibdi. Katya bilan Eshbo'lni xorunjiyning uyiga chaqirtirishibdi. Ular bu yerda ham bir-birlarini sevishlarini ta'kidlashibdi. Eshbo'lni xivchin bilan savalamoqchi bo'libdilar. Lekin bu hukmlarini ijro etmabdilar. Bu ishni hammaning ko'zi oldida bajarish xavfli ekan, mushtlashuv chiqib ketishi mumkin ekan.

Shundan so‘ng xorunjiy, Katyani eng obro‘li kazak xotinlari qo‘liga topshiramiz, ular qizni xohlaganlaricha jazolashaversin, degan qarorga kelibdi. Johil xotinlar Katyaga quzg‘unday tashlanib boshidan ro‘molini yulib olibdilar-da, o‘zini oyoqyalang cherkovga sudrab ketibdilar.

Stepan jilovni tortdi.

— ...Eshbo‘l, otam bilan men Katyani qutqarmoq uchun olomonga tashlandik, lekin ular bizni talab, yumdalab tashlashdi, Katyani cherkovga surgab kirib, eshigini ichkaridan ilib olishdi. Eshbo‘lning g‘azabi qaynadi, qayerdandir ot topib, do‘st yigitlar bilan birga cherkovga tashlanib, eshikning zulfinini sug‘urib oldi. Xotinlar rosa kaltaklangan, yuziga qorakuya surkalgan, qipyalang‘och kelinni tepkilab, itarib-turtib ko‘chaga chiqarib tashlashdi... E, qizim, nimasini aytay... Bechora rus mujiklari sizlarning turg‘unlaringizdan ham battar og‘ir hayot kechiradilar. Ularni kim ko‘rsa masxara qilaveradi...

Stepan alam bilan otga qamchi urdi. Qo‘shg‘ildirakli arava shaldirab yurib ketdi. U hikoyasini davom ettirdi...

Eshbo‘l Katyani dast ko‘tarib, oldiga mingashtirib olibdi-da, bepoyon dasht tomon, o‘z odamlari huzuriga jo‘nabdi. Orqalaridan ta’qib etib chiqqan kazaklarni yigitlar o‘tkazmabdilar. Shundan keyin qishloq ikkiga bo‘linibdi. Qozoqlar ko‘ch-ko‘ronlarini aravalarga ortib, yigitlar himoyasida o‘zlari yashab turgan joylarini tashlab ketibdilar. Tunda esa, xorunjiyning buyrug‘iga binoan, Stepanlarning uyiga o‘t qo‘yibdilar. Olishuv paytida otasini o‘ldiribdilar...

Stepan esa tug‘ilib-o‘sgan qishlog‘ida qola olmabdi. U shaharga borib ishlabdi, keyin soldatlikka olinibdi. Mana, hozir ham u arava haydab ketyapti-yu, qayerga borishini o‘zi bilmaydi. Agar yilqichilar qabul qilsa, ular huzurida qoladi. Qabul qilmasalar, dala-dasht bepoyon, yo‘llar ham behisob...

Oqcho‘lpon daragini eshitgan Qurmong‘ozi pichan jamg‘arayotgan o‘roqchilar qarorgohiga yetib keldi. Uning quvonchi cheksiz edi, u sevgilisini ko‘tarib olib, dasht bo‘ylab chopgisi, baxtiyorligini aytib borliqqa jar solgisi kelardi. Lekin kattalar ko‘z o‘ngida bunday qilishga botina olmadi. U o‘z his-tuyg‘usini ya-

shirishga urinar, Oqcho'lponning uzuq-yuluq, hayajonli hikoyasiga quloq solardi. Qiz dam-badam ko'z yoshlarini artib, xuddi gunohkor kishiday jilmayib qo'yardn.

Qurmash Stepanni ko'riboq, uning jandarm bilan birga o'zini kuzatib borgan o'sha soldat ekanini tanidi. O'shanda u Qurmashga bir og'iz yomon so'z aytmagan edi. Yo'lda yilqichilar tashlanganlarida hech bir qarshilik ham ko'rsatmagandi. Aksincha, kishanning kalitini o'sha ondayoq tutqizgan edi...

— Biz sening qarshingda ko'p qarzdormiz, o'ris og'ayni. Sen bizning qizimizni balodan saqlab qolibsan. Illo yo'qchilik qursin, qilgan yaxshiligingga ot mindira olmaymiz, qimmatbaho chopon kiydirishga ham qurbimiz kelmaydi. Kel, birodar bo'laylik. Mabodo yashirinishing lozim bo'lsa, boy yilqilaridan xohlagan tulporni tanlab ola qol, — dedi o'roqchilardan eng ulug'i.

— Tulpor yordam berolmaydi menga, — deb javob qaytardi Stepan.

Qurmong'ozi o'roqchilar huzuriga aravada kelgan bola bilan gaplashib, Oqcho'lponni tezda o'z ovuliga jo'natib yubordi. O'zi esa keyinroq qaytdi. Stepan ikkovlarini eng aziz mehmon sifatida ziyofat qildilar.

Qurmong'ozi ovulga yaqinlashib kelarkan, gulxan atrofida o'lan aytib o'tirgan yigit-qizlarning qo'ng'iroqday ovozlarini ham eshitmadi. Oqcho'lponning jandarm haqidagi hikoyasi xayolini tark etmas, butun vujudi g'azab va nafrat-la yonar, quloqlari ostida dahshatli kuy yangrayotganday tuyulardi.

— Dasht bepoyon, ammo sen bilan uchrasharmiz hali, Dulat!..

Qurmash Oqcho'lponning kapasi yonidan o'tib bora turib, qizning u yoq-bu yoqni supurib-sidirayotganini ko'rdi. Oqcho'lpon yigitga ko'zi tushgani hamon qizarib ketib sochini orqasiga tashladi-da, unga qo'l silkidi.

— O'sha mozor yonida, eski joyimizda kutaman, — dedi u oti tizginini tortib. — Jaqip otaning otarini boqib turaman. U yordam berishimni iltimos qilgandi...

— Lo'q bo'lib tikilib turmay, jo'nab qol... — deya Oqcho'lpon yerda yotgan chiviqni olib yigitga po'pisa qilarkan, peshanasiga

tushgan sochlarini tuzatdi. — Otam ham kelib qoladilar, ungacha u yoq-bu yoqni saranjomlab qo'yishim kerak... — Yigit qizning ko'zlarida avvallardagidek sho'xchan uchqunni ko'rib, otiga kamar bosdi.

Zarboyning o'tovi oldida ko'pikka botgan egarlog'liq ot turardi. Qurmash do'stinikiga birrov kirib chiqmoqchi bo'ldi.

— Kim keldi? — deb so'radi u qozon ostiga taraddud ko'rayotgan Saqishni ko'rib.

— Mehmon, — dedi qiz unga o'pkalangannamo boqib. — Boshqa narsa qiziqtirmaydimi sizni?

— Hozircha hech narsa. Kerak bo'lsa — o'zing aytarsan, — dedi-da, ichkariga kirdi u...

"Go'zal-u, biroq baribir Oqcho'lponga tenglasholmaydi. Ko'ngli bo'sh, hamma narsaga ko'naveradi. Bedanaga o'xshab, birov kelib tappa ushlab olmaguncha jim o'tiraverdi. Burgutmi yoki quzg'unmi — unga baribir", — xayolidan o'tkazdi u bir vaqtlar kechki payt soy yoqasida o'zining qizni qanday tutganini eslab...

Zarboyning yonida uzun bo'yli, mo'ylovi endigina sabza urgan, o'tkir ko'zli yoshgina yigit turardi. Oyog'ida qaytarma saxtiyon etik, egnida kalta chakmon, belini kumush bezakli tasma bilan tang'igan, yonida dandon sopli pichoq. Qurmash ularning suhbatini bo'lib qo'yganini fahmladi.

— Qo'nog'imiz noxush xabar keltiribdi, — dedi Zarboy yigitni ko'rsatib.

— Siz, Qurmong'ozi bo'lasizmi? — deb so'radi qo'noq jilmayib. — Do'mbirangizdan tanidim. Aytishlaricha, bu do'mbirani sizga Uzoq hadya qilganmish, uni hech qachon qo'lingizdan qo'ymas emishsiz...

— Qurmash, shumxabar bor. Esingdami, hammamiz ostida barmoq bosgan Isatoyning arznomasini general-gubernator qabul qilmabdi. Oq podshoh Jangirxonga o'zining jandarmlarini, soldat hamda zambaraklarini ko'makka yuboribdi. Jangirxon esa o'ziga sodiq oqsoqol va boylarni qo'riqlamoq uchun ular ixtiyoriga kazak yuzliklari bilan yollanma navkarlarni yuborayotganmish. Oqboy bilan Dulat ham ana shunaqangi madad olar emish. Dulat o'sha yuzlikni, albatta, bu yoqqa jo'natadi...

— Qisqasi, boyning yilqilarini egarlamoq va nayzalarni charxlamoq darkor, — dedi qo'noq Qurmash bo'lib qo'ygan suhbatni yana davom ettirib.

— Qurmash, men iningizni ergashtirib olib keldim. U hozir kapangizda. Haqiqiy yigit bo'lib qolibdi. Men uni tunda olib jo'nadim. Dulatning changalida qolib ketmasin dedim, bu yog'ini yana kim biladi deysiz...

— Meni sizlar bilan birga safarga otlanolmaydi demoqchimisiz? Nahotki menga ishonmasangiz? — deya qo'noqning ko'ziga tikildi Qurmong'ozi. — Men sizni tanidim. O'shanda Isatoyning maktubini bu yoqqa siz keltirgan edingiz... Men ham sizlar bilan birga ketaman.

— Yo'q! — dedi Zarboy. — Endilikda Qurmong'ozining kuylari bepoyon dashtga taralib ketdi. Endilikda u faqat bizgagina kerak emas. Biz bilan ortida ko'zyosh to'kib qoladigan kishisi bo'lmagan yigitlargina ketadi.

— Mening inim bor bo'lgani bilan juftim yo'q hali. Onamga kelganda, har kimning ham onasi bor, — deb javob qaytardi Qurmong'ozi.

— Hammasini chamalab, taroziga solib ko'rmoq lozim. yelkamizdagi yuk og'ir, — dedi mehmon do'stlarni xotirjam qilishga urinib. — Hali vaqt bor, hammasini o'ylab, mulohaza yuritib ko'rsa bo'ladi... Aytmoqchi, Dulat o'zining qonli panjasini jiydaliliklar tanasiga botirmoqqa hozirlanayotgan ko'rinadi. Kecha tunda iningizni izlab yurib Dulatning o'toviga kirib qoldim. Bola u yerda yo'q ekan-u, lekin atlas ko'rpachada bedaga to'ygan ayg'irga o'xshab dumalab yotgan Dulatni ko'rdim. Bir vaqtlar uning bolalariga Qur'onni o'qitgan malla soqolli mulla o'tirgan ekan. Men ularning so'zlarini eshitib qoldim.

"Og'ir zamonlar bo'lyapti, — dedi mulla. — Hamma ovullarni jin urgan ko'rinadi, qayoqqa qarama buzg'unchilik. Boy og'a, hushyor bo'ling. El og'zidan yana lsatoy bilan qochoq oqin Mahambet tushmay qoldi. Har ikkisi ham qumlik ichkarisida yashirinib yuribdi, ular osonlikcha qo'lga tushmaydiganga o'xshaydi. Ular bundan bir necha yil burungiday yana avomni qudratli Jangirxonga qarshi qo'zg'amoqchi ko'rinadi..."

"Bu safar ular tavbalariga tayanadilar. Qum otgan bilan tog' qularmidi, qo'y ma'ragani bilan Jangirboyday arslonni yenga olarmidi? — dedi Dulat. — Illo bu yalangoyoqlarni bittama-bitta qo'lga tushirgunlaricha tinchligimiz buziladi, xolos..."

"Boy og'a, mol-holingizni ehtiyot qiling, yana ularning qo'liga tushib qolmasin. O'zingizga sodiq xizmatkorlaringiz, cho'ponlaringiz, podachilaringizga ozroqqina sadaqa tashlab, nafsiga ursangiz, sizga halol xizmat qiladilar. Binobarin, kezi bilan arg'inlarning berishlardan alami borligini eslatib turilsa zarar qilmaydi".

Bu gaplarni mulla aytdi.

"Qanaqa alamni?" — deb so'radi Dulat.

"Boy og'a, o'nlab alamli damlarni o'ylab topish mushkul bo'libdimi? Qozoqning qog'ozga bitikli tarixi yo'q. Kim bilsin, ehtimol, yuz yillar muqaddam bershlar arg'in qizlarining nomusiga tegib, badnom qilgandirlar-a, labbay?.." — dedi kulib mulla.

Dulat mullaga, bir-ikki kun ichida har uchala ovuldagi — cho'pon-cho'liq va yilqichilarni to'playajagini aytdi. Lekin u jiydaliliklarni chaqirishga rozilik bermadi. Ularda mening boshqacha hisob-kitobim bor", — dedi Dulat.

— Boshqa hech narsa eshita olmadim. O'tovning orqa tomonidan Dulatning choparlari kelib qoldilar, men esa Boyg'ozini qidirib topishim kerak edi.

— No'yon, nega endi bularni ertaroq ayta qolmading? — dedi Zarboy. — Dulatning nayrangini hamma ovullardagi yilqichilarga yetkazish kerak. Sen endi hayallama. Tezroq boshqa yilqichilar yoniga yetib bor, darhol Isatoy bilan Mahambetga odam yuborib, bu gaplardan xabardor qil. Tayinlangan yerda uchrashamiz. Jiydalidan qachon yo'lga chiqishimizni senga xabar qilishadi. — Saqish, singilginam, qayoqdasan? Bizga choy yoki qimiz ber. No'yon shoshilyapti! — dedi ochiq eshikka qarab Zarboy.

* * *

— Ertaroq kelishning iloji bo'lmadi. Kechasi otam kelib qoldilar. Tong otguncha choponlarini yamab o'tirdim. Bu gal, hartugul tuya juni olib kelibdilar. Endi otamga issiq ko'ylak to'qib beraman... Meni rosa kutgandirsiz-a?

Oqcho'lpon tizzalarini quchoqlab, bir nuqtaga tikilganicha o'tirardi.

— Otam bugun tunda chorvani qum ichkarisiga haydarmish. Uzoq muddatga. Meni ham olib ketmoqchi. Baribir yolg'iz o'zim bu yerda nima ham qilardim? Yoki Dulatning olib ketishini kutib yotaymi? Yo bo'lmasa anavi mozor vayronalarini qo'riqlab o'tirgan qari burgutga o'xshab, hovlimni poylab o'tiraymi?

— Men-chi? Meni unutdingmi? Xuddi olamda men yo'qday gapiryapsan-a, — deb Qurmong'ozi uni ohista quchoqladi.

— Xo'sh, sen bo'lganda nima?! — Oqcho'lpon osongina uning quchog'idan sirg'alib chiqdi. Bo'yniga tashlab olgan ro'mol Qurmong'ozining qo'lida qoldi, qop-qora sochi kiftini to'ldirib yubordi. — Uylanishdan oldin sovchi kelsadi, qizning roziligini so'rashadi. Men rozi bo'lmayman. Bildingmi!..

Qurmash hech narsaga tushuna olmay, baqrayib qarab turardi.

— Balki, Saqish ko'nar? — qizning ko'zlari kulib turar, unda na ta'na, na rashk sezilardi. — Senga nima bo'ldi, gung bo'lib qoldingmi? Voy Qurmash-ey, tili kuy-o'landagina chiqadi, deyishlari bejiz emas ekan-da. Do'mbirangni chertaqol bo'lmasa, o'rningga o'sha so'zlab qo'ya qolsin... Bilaman, Saqishning ohingda kuyib yurganini, sen bo'lsang uni aqalli tilga ham olmaysan-a. O'zing to'g'ringda ham churq etmaysan...

Oqcho'lpon do'mbirani qo'liga oldi. Qurmong'ozi qizni ushlamoqchi bo'lgan edi, lekin u qo'lidan sirg'alib chiqib, dam olayotgan qo'ylarni hurkitib qochib qoldi.

Mozor vayronasi ustida bularga allamahaldan beri qarab o'tirgan qari burgut ham qanot qoqib, uchib ketdi.

Qurmong'ozi uni qalin ravoch ichida quvib yetdi. Ikkovi yalpoq sarg'ish yaproqlar ustiga dumalab tushishdi. Qurmong'ozi do'mbirani uning qo'lidan olib, chetga qo'ydi.

— Tentak, mening tentakkinam. Men seni ortiq ko'ra olmasman degandim... Dulatning uyidan qochib chiqqanimda, seni qo'msadim. Jandarm yopishganida ham... Stepan seni tutqun qilib haydab kelganlarini aytganidan qo'rqqanim-chi... — uning ko'zi jiqqa yoshga to'ldi. Qiz yoshini yashirmoqchi bo'lib osmonga qaradi. —

Qara, u yana xuddi birinchi bor uchrashganimizdagiday bizni kuzatib uchib yuribdi. Nazarimda, xuddi ajralmaganga o'xshaymiz.

Oqcho'lpon osmonda qanot kerib suzib yurgan burgutni ko'rsatib kulib qo'ydi.

— Ko'ryapsanmi, undan balandroqda boshqa burgut uchib yuribdi, — dedi Qurmong'ozi, — u yoshroq ekan. Balandda uchyapti.

— Haytovur, sen ham gapirar ekansan-a. Mayli, gapira qol... Biror nima de, hech bo'lmasa do'mbirang haqida hikoya qila qol. Menga baribir. Faqat indamas bo'lma, deyman...

Oqcho'lpon yuzini Qurmong'ozining ko'ksiga bosganicha shivirlardi. Yigit qovushimsizlik bilan qizning xipcha yelkalaridan quchib, o'ziga tortdi.

— Bilasanmi, bugun ertalab ovuldan chiqa turib, Ollayor otaga yo'liqib qoldim, — deb so'zni davom ettirdi u yaqin turmaslik uchun. — U shu qadar xayolga botgan ediki, hatto meni payqamadi ham. Salom berganimdan keyingina u:

"Ayt-chi, o'g'lim, bulardan qay biri tikroq seningcha?" — deb so'radi u qo'lidagi hassasi bilan tepalarni ko'rsatib,

"Anavi, mozorga yaqinrog'i", — javob berdim unga.

"U yerda Norinqumning taniqli botiri yotibdi, —dedi u. Har bir tepa ostida botirlarimiz yotibdilar. Mening og'am ham shu yerga qo'yilgan. Men uning xizmatida edim, ko'p o'tmay, uning yoniga boraman. Shoshilmoq lozim, bo'tam. Qurmash, dasht qo'zg'almoqda, ovullar qaynamoqda, yigitlarning nafasi esa sening kuylarning kabi to'lqinlab bormoqda. Endi mening na jarohatlarni, na to'kilgan qonni ko'rgim bor, oh-u nolalarni eshitgim ham yo'q... E, bolam, nimalarni ko'rmadi bu ko'zlar — qor ustida jon bergan faranglarni ham, Mahambetning Jangirxon bilan qanday so'z qotishgani-yu Sho'mekey oqsoqollari bilan birgalashib qanday qochganini ham — hamma-hammasini ko'rganman.

Uning Boymag'ambetni qanday yengganini ham, keyin avaxtaga tushib qolganini ham, so'ngra qamoqdan qochib kichik juzga, u yerdan o'rta juzga o'tganini ham, oxiri Buxoro va Xivaga borib qolganini ham eshitganman. O'shandan buyon necha-necha yillar o'tdi? Hozir Mahambet bilan Isatoy yana yigit yig'ib yuribdi. Yana qon to'kiladi. Men ortiq bardosh bera olmayman... Hech bir botir

o‘z xonini yenga olgan emas. Botir degani, o‘z elini yot bosqinchilardan himoya qilgandagina yengilmasdir. Xonlarning hiyla va makrlari oldida ular ojizlik qiladilar... Yo Alloh, bu osiy bandangning jonini tezroq olib qo‘ya qol!”

— Ollayor ota tiz cho‘kib, bomdod namozini o‘qiy boshladi. Men bo‘lsam ketolmay turib qoldim...

“Qurmong‘ozi, sen “Oqsoq qulon” afsonasini eshitganmisan, unga bag‘ishlanadigan kuyni bilasanmi? — deb so‘radi Ollayor ota namozini o‘qib bo‘lgach. — Unda o‘zing bastalagan kuylarning kuch-qudrati va abadiyligiga shak keltirguvchi biron kimsa chiqib qolgudek bo‘lsa, unga o‘sha kuyni ijro etib ber...”

Oqcho‘lpon tizzalarini quchoqlab o‘tirardi. Yigitning so‘zlarini ko‘zlarini yumib o‘tirgan ko‘yi tinglashdan rohat qilardi u.

— Bu afsonani bilaman. Lekin “Oqsoq qulon” nomli kuyni hech qachon eshitgan emasman, — dedi qiz sekingina, do‘mbirani uzatar ekan.

Qurmong‘ozi do‘mbirasini sozladi. Shu topda u Ollayorning ertalabki g‘alati qilig‘i va aytgan so‘zlarini eslab hayron edi. Nahotki u tepalarga bir ko‘z tashlash-u bomdod namozini o‘qish uchun o‘sha yoqqa chiqqan bo‘lsa?..

Odatda, og‘ir-vazmin, salobatli Ollayor oqsoqol bugun negadir tashvishli, bezovta ko‘rinardi. Borodino jangida qatnashib, ko‘rsatgan jasorati uchun podshohning qo‘lidan medal olgan bu dovyurak botir, o‘tyurak jangchi bo‘lmish Ollayor otaning bugun o‘limni esga olishi bejiz emas.

Ajal, ajal... Chap qo‘li barmoqlari do‘mbira pardalari uzra yurib, o‘ng qo‘li tarang sozlangan torlarni cherta boshladi. U “Oqsoq qulon” kuyi ham marsiya, ajal navosi ekanini esladi.

Donishmand Ollayor ota bu kuyni bot-bot chalib turishini so‘rarkan, nahotki, “o‘limgina abadiy”, demoqchi bo‘lsa, “U chog‘da, men bastalagan kuylarning kuch-qudrati va abadiyligini nega tilga oldingiz, Ollayor ota? Nega siz ularni otashin dedingiz? Otash — bu hayot emasmi, axir...”

Qurmong‘ozi Ollayor ota aytgan so‘zlar asoratida edi shu topda...

— Ajal kuyini tinglamoqchi bo‘lsang, mayli, tinglay qol! — deb o‘rnidan turdi Qurmong‘ozi. U oqsoq qulon bilan shafqatsiz

qoon to'g'risidagi qadimgi kuyni chala boshladi. Oqcho'lpon bu afsonani yoddan bilardi.

...Bu qadim zamonlarda bo'lgan ekan. U dengizdan bu dengizgacha bo'lgan hamma yerlar bir ko'zli Chingizning hukmi ostida ekan. Qozoq dashtlarini behalovat va bebosh o'g'li Jo'jiga bergan ekan. Keksayib qolgan mo'g'ul xoni bu o'g'lini boshqalariga qaraganda yaxshi ko'rar va uni o'zi bosib olgan hamma yerlarning merosxo'ri bo'lib qoladi, deb o'ylarkan.

Jo'ji bo'lsa ovni yaxshi ko'rar, yo'lbars, jayron, ohu va qulon quvib umr o'tkazarkan. U Sariorqa cho'llarida, Ko'kchatov o'rmonlari bilan Jayxun yoqalaridagi to'qaylarda oylab qolib ketar ekan.

Bir kuni o'z mulozimlari bilan sahro kezib yurib, bir uyur yovvoyi qulonlarga duch kelib qolib, ular ketidan quvib ketibdi...

Torlar sadosi yana shiddatli yangradi. Uyurdagi behisob tuyoqlar do'pir-do'piri yaqinlashib kelayotganday, kuchliroq eshitila boshladi. Qulonlarning ter bosgan sag'rilari aniqroq ko'ringanday bo'ldi. Mana, go'yo havoda sirtmoq vizilladi. Yosh baytalning faryodi eshitildi. Jul arqon uning bo'ynini qiya boshladi, asov qulon qirqirab, jonholatda osmonga sakradi, oyog'i toyib, gurs etib quladi go'yo...

Do'mbirachining qo'li qimir etmay qotib qolganday, barmoqlarigina shiddat bilan torni chertardi. Qulonlar to'dasi hurkib o't-o'lanlar ichiga urib ketdi. Yetakchi — qulon shartta orqaga burilib, sirtmoqqa ilingan yosh baytalga qilich solmoqqa shaylangan ovchiga qarab otildi.

Ovchi uni payqamaydi, yordamga shoshilgan yasovullarning ogohlantirib ko'targan baqir-chaqirlarini ham eshitmaydi.

Yetakchi qulon shamolday uchib kelib, ko'kragi bilan Jo'jiga urilib, oti bilan qo'shib yiqitadi, keskin shamshirini qo'lidan tushirib yuboradi, o'q to'la sadog'ini tepkilab tashlaydi. Yosh biya ozod bo'ladi. Yetakchi uni uyuriga boshlaydi, g'olibona kishnaydi.

Jo'ji bir oyog'i oqsoqlanib ketayotgan yetakchi ketidan qarab qoladi. Yoshgina xon bo'la turib shu oqsoq ayg'irdan yengilib o'tirsa-ya!

Uyur ortidan kuchli na'ra yangraydi. Yana dalani isyonkor qo'shiq bosib, tuyoqlar dupuri tutib ketadi. Ko'kda bezovta burgut

charx uradi. Oqcho'lpon haykal yanglig' qotib qolgandi. U bu afsonani yaxshi bilardi-yu, lekin do'mbiraning bunchalar ta'sirchan yangrashini xayoliga ham keltirmagan edi.

Qurmong'ozi bilan Oqcho'lponning tepasida, ko'kda parvoz etayotgan qari burgut uzoqda ovul tomon ot choptirib kelayotgan otliqlar to'dasini ko'rib qoldi. Miltiqlarning uzun millari, yalang'ochlangan qilichlar quyosh shu'lasida yarqirab ko'rinardi.

Oqcho'lpon bilan Qurmong'ozi adir ortida edilar, ularga Jiydali ovuli ham, ovulga ot solib kelayotgan otrad ham ko'rinmasdi.

...Ovchi alamiga chidolmay, o'zini yiqitib ketgan yetakchi oqsoq qulonni yeldek quvib boradi. Qulon bo'lsa yoli tikandek tikkayib, ko'zlari chaqnab, pishqirib o'z uyurini olg'a haydaydi. Lekin yosh xonning uchqur oti ham bo'sh kelmaydi. Yaqinlashib qolmoqda, yana bir zo'r bersa bas...

Yetakchi qutulib ketolmasligini sezadi. Mana, tulporning nafasi va odam bolasining bo'ralab so'kkani yaqindan kela boshladi.

Yetakchi ayir dag'dag'ali pishqirib-kishnab uyurni oldinga haydadi-yu, o'zi shart to'xtab, ikki oyog'ini baland ko'tarib, yelib kelayotgan chavandozga zarba beradi. Chavandoz guppa quladi. Qulon mayib oyog'i bilan bir tepib, odamning bosh suyagini yoradi va xon mulozimlarning otgan kamon o'qlari sag'risiga qadalganiga qaramay, o'z uyurini ketidan shamoldek yeladi. O'q sanchilgan jarohatlaridan tirqirab oqayotgan qon o't-o'lanlarni belaydi...

Qoonning O'rdasiga hafta sayin Jo'jining choparlari quvonchli xabarlar yetkazib turardilar. Mana, bir hafta o'tdi, lekin choparlardan darak yo'q. Bir ko'zli qoon darg'azab.

— Kimki shumxabar olib kelsa, boshi kesiladi. Dasht dasturi shunday! — deb o'g'lini izlamoqqa sarbozlarini yo'llaydi.

Jo'jixonning mulozimlarni qoon huzuriga borishga jur'at etolmay, qoon sarbozlarini cho'lda kutib oladilar va ular qarshisida tiz cho'kib, o'z ko'ksilariga xanjar sanchadilar. Sarbozlar Chingiz huzuriga ikki betlarini yumdalab, qop-qora qonga bo'yab qaytib keladilar. Ular churq etmay boshlarini taxt poyiga qo'yadilar. Qoon esa o'z qo'li bilan ularning kallalarini tanalaridan judo qiladi.

Hukmdor qarshisida jim turish — falokat. Qozoq yerida esa ajal hukmronlik qilardi.

Qozoq yigitlari birma-bir qirilaverdi. Qoon kulgini eshitsa g'azablanar, jilmaygan kishidan nafratlanardi. Hamma yerni dahshat qurshagan, o'tov ortidan o'tov o'z o'g'loniga aza ocha boshlagan. Shunday bir paytda el kezib o'lan aytib yurgan Ket ismli keksa bir do'mbirachi Chingiz huzuriga kirib keladi. U Nayman qabilasining kichkinagina bulatin degan jangovar urug'iga mansub edi. Bu kishi so'qir edi.

— Qanday yumush bilan kelding, ey so'qir?

Ket javob bermaydi. U do'mbirasini olib cherta boshlaydi. Do'mbira tilga kiradi. Shunda do'mbira keng dalalar, ko'z ilg'amas poyonsiz dashtlarda erkin o'tlab yurgan yovvoyi qulunlar uyurini, o'z uzorini qo'riqlayotgan oqsoq ayg'ir, uyur oromiga raxna solishga jur'at etgan odam, uyur yetakchisi bilan odam o'rtasida yuz bergan olishuvlar haqida hikoya qiladi. Do'mbira hech narsani yashirmay, barini bayon etadi.

— To'xta! Nimalarni chalyapsan, tentak?! — o'shqiradi darg'azab qoon. —Ajaldan xabar beryapsanmi?!

— O'g'lingning qazosini, sening ham kuning yaqin qolganini so'ylayapti do'mbiram! — deb javob qaytardi Ket.

— Boshini qirqinglar so'qirning! — deb baqirdi Chingiz dod solib.

— Hukmdorim, ajal to'g'risida men emas, mana bu do'mbira aytdi. Dasht dasturi muqaddas. Doimo shumxabar keltirgan choparni jazolaganlar. Men Jo'jixonning chopari emas, o'lanchi-do'mbirachisiman, xolos. O'lim haqida birinchi bo'lib do'mbira xabar qildi, birinchi bo'lib chang ovoz chiqarib aytdi bu so'zni. Shunday ekan, jallod mening boshimni tanamdan judo qiladimi yoki do'mbirangmi?!

— Do'mbira bo'g'ziga qo'rg'oshin quyinglar! — deya o'shqiradi qoon nafasi bo'g'ilib, chodir ichra basir yanglig' o'zini har tomonga urib,

Jallod "Oqsoq qulon" kuyni birinchi bor yangragan do'mbiraning bo'g'ziga erib turgan qo'rg'oshin quyadi...

Qozoq elining ko'plab yigitlarini Azroil changalidan qutqarib qolgan ajal kuyi oxirladi. Uning so'nggi sadolari havoga singib ketganday tuyulardi.

— Bu kuy uchun qoon do'mbirani jazoladi... Mana, eshit... — deya Qurmong'ozi do'mbirasini baland ko'tarib silkitdi. Do'mbira dastasi ichida bir narsa qaldiradi. — Bu ham qo'rg'oshin. O'sha zamondan buyon har bir do'mbiraning bo'g'ziga bir tomchi qo'rg'oshin quyiladi. Ajalni yengib chiqqan kuy unutilmasin uchun! Eshityapsanmi, Oqcho'lpon, Ollayor ota ajalning abadiyligini emas, kuyning kuch-qudrati to'g'risida gapirgan edi. U haq. Qo'shiqsiz, kuysiz yashab bo'ladimi.

O'zing ayt, axir, hamma qo'shiqlar tinib, kuylar so'nib qolsa nima bo'ladi? Ollayor ota to'g'ri aytdi. Men ahmoq uni tushunmagan ekanman. Qo'shiqni ajal yenga olmaydi... Ana qara, bu kuy anavi burgutlar kabi cho'l uzra qanot qoqib yuribdi!

— Sen bu kuyni menga atab chaldingmi? — Oqcho'lpon javob kutib, unga qarab turardi.

— Senga, senga, Oqcho'lponim, senga atalgan! — deb Qurmash uni quchog'iga tortdi, shunda qiz sochidan qir gullarining mast etguvchi isi urildi dimog'iga. U ko'hna kuy zavqidan, quyosh taftidan, qizning yaqinligidan, quvonch-u hayajondan sarmast edi shu topda.

...Qurmong'ozi chalgan sho'x, shiddatli kuy sadolari mozorot hukmdori bo'lmish qari burgutni ham, ovga boy bu yerlarni sevib qolgan yosh burgutni ham hurkitib, bezovta qilib qo'ygan edi. Hozir esa ular tubsiz moviy osmonda qanot kerib uchar ekanlar, ko'zlarini ovul tomondan uza olmasdilar.

Chavandozlar odamlarni kapa va o'tovlardan qamchilab haydab chiqib, Jiydalining o'rtasiga, qo'y qamaladigan qo'ra yaqinidagi o'tloqqa to'plashardi.

Bir necha jiydalilik kelgindilarning ko'zini shamg'alat qilib, yaydoq otlarga minib qochmoqchi bo'ldi. Lekin shu ondayoq ularga yetib olib, qurshab, o'sha yerga olib borishdi. Bo'ribosarlar irillab otliqlarga daf qilardilar. Bir o'tovni to'ntarib yuboribdilar,

bolalar dod solib ota-onalarining etaklariga yopishyaptilar, biroq ularning dod-faryodlari mozor etagiga yetib kelmayapti...

Oqcho'lpon baland o'sgan o't-o'lanlar orasida, turli giyohlarga tirsagini tirab yotibdi.

— Voy o'lmasam, men uyatsiz, sen bo'lsang aqlsiz ekansan...

Qurmong'ozi javob qaytarmadi. U Oqcho'lponning gaplariga quloq berib, burgutlar parvozini kuzatib rohatlanib yotardi.

— Biz endi doim birga bo'lamiz, — dedi u ohista qiz tomonga o'girilib qararkan.

— Hech qachon! — dedi qiz javoban. — Sen anavi yosh burgutga o'xshab hamishalikka so'qqabosh bo'lib qolasan. Ko'ryapsanmi, u yana bizga qarayapti. U bizning sirimizni biladi.

— Meni sevasan-ku, axir?

— Sevganda qandoq, boshqa hech bir qiz mendayin sevolmaydi, — dedi Oqcho'lpon xo'rsinib, yoqasining tugmasini qadar ekan. — Sen faqat hirsingni o'ylaysan, hirs degani esa bir daqiqada o'tadi-ketadi. O'sha daqiqa o'tdi deguncha boshqa odam bo'lasan-qolasan... Men sendan bo'lak hech kimni sevmayman... Mayli, endi, men qayta qolay... Sen qo'ylaringni qaytar.

Oqcho'lpon yugurganicha jo'nadi. U ovulga olib boruvchi ensizgina jarlikka tushib, ko'rinmay ketdi.

Qurmong'ozi ayriliq kunlari yuragiga dalda bergan, qaytib kelganidan beri ko'nglida ardoqlab kelayotgan shirin so'zlarini unga ayta olmay qoldi...

U xayolga botib, soylikka tarqab ketgan qo'ylarini yig'moqqa jo'nadi.

Uning xayolini qo'qqisdan qarsillab otilgan o'q ovozi bo'lib yubordi.

Otishma ovozi ovul tarafdan eshitilardi. U yugurganicha yaqindagi tepalikka chiqdi.

...Bir otliq to'ppa-to'g'ri bo'rkini silkigancha Qurmong'oziga qarab kelardi. U nimalardir deb baqirardi-yu, lekin uning so'zlarini anglab bo'lmasdi. Qurmong'ozi ovulga tikildi. Odamlar tutun va chang ichida zir yugurishar, bir kapa esa gurullab yonardi. Qurmong'ozining qulog'iga kimningdir yig'isi, itlarning akillashi

chalindi. U qurollangan odamlarni ko‘rdi, miltiq ovozi ham o‘sha tomondan kelganini angladi.

Mana, otliq yaqin kelib qoldi. Qurmong‘ozi uning Jaqip ekanini tanidi va istiqboliga yugurdi.

— Qurmashjon, bo‘la qol, mana bu otga mingin-u tezroq jo‘nab qol. Ovulni Dulatning navkarlari bilan soldatlar bosib ketdi. Hamma yilqichilarni haydab ketishyapti. G‘alayon ko‘tarmoqchi bo‘lganlari uchun hammalarini qamasharmish. Yigitlarimizning barini ushlab olishdi. Onang seni qutqarishimni iltijo qildi. Men sen shu yerda bo‘lsang kerak, deb o‘ylagandim. Olisroqqa jo‘na. Seni izlashyapti. Shundayligini bilaman... — Jaqip nafasi tiqilib, hansirab-harsillab Qurmong‘ozini otga mingizdi.

Qurmong‘ozi xiyla qizishib qlgan tulporni Norinqum tomonga burdi-yu, biroq tizginni bo‘shatmadi. U otini turgan joyida o‘ynatgancha, ovul tomon yana bir nazar tashladi.

— Tezroq bo‘l deyapman senga! Yana baloga yo‘liqmoqchimisan, — dedi Jaqip jahli chiqib.

Qurmong‘ozi to‘satdan ovulga taqalib borayotgan jarlikdan chiqib borayotgan ko‘k ko‘ylakli qizni ko‘rib qoldi. Bu Oqcho‘lpon edi. U otasi yoniga chopib borardi...

Qurmong‘ozi ot boshini ovul tomonga burdi-yu, qamchi bosdi.

— Voy-bo‘y, qayoqqa ketyapsan o‘zi? Qayt orqangga... — deb baqirdi shoshib qolgan Jaqip. — Yo Alloh, shunday bo‘lishini bilardim!

Qurmong‘ozi alanga ichida qolgan kapa yonida ot jilovini tortdi. Oqcho‘lpon otasi bilan turardi. Zarboyning o‘tovi yonmoqda edi. Zarboyning o‘zini maydonning narigi tomonidan ustunga bog‘lab qo‘yishibdi. Qurmong‘ozining qarshisida, yo‘l ustida Zarboyning yaralangan oti jon beryapti. Ovul yigitlarini yasovul va navkarlar qurshab olishibdi. Ularning kiyimlari tilka-pora qilingan, badanlari, betlari qon. Bolalar yig‘lar, xotin-xalajlar faryod urar, chaqirilmagan mehmonlar so‘kib-haqoratlashar, itlar esa tomoqlari yirtilgudek hurardi.

Qurmash shuncha shovqin ichidan Oqcho‘lponning:

— Tez bo‘l, Zarboyni qutqaz! — deganini ajrata oldi.

Navkarlar es-hushlarini yig'ib olgunlaricha bo'lmayoq, u do'sti yoniga qushdek uchib borib, otdan tushdi-yu, Zarboy bog'langan arqonni kesib tashladi.

— Bu Sag'irboyning o'g'li! Ushla uni! — deya shovqin soldi navkarlardan biri. — Mirza, ko'rdingizmi, u shu yerda ekan! Bu yoqqa, bu yoqqa keling...

— Otga min! — deya Zarboyni ot tomonga itarib yubordi-da, o'zi so'yilni ola solib Zarboyga tashlanayotgan navkarni bir zarba bilan qulatdi, keyin yana ikkisini itarib yuborib, uchinchisiga tashlandi.

Qurmong'ozi navkarlar bilan olisha turib, Zarboyning qo'l-oyog'i bog'loq yotgan Saqish tepasida qaqqayib turgan Dulatning o'g'li tomon yorib borayotganini ko'rib qoldi. Lekin u yetib borolmadi, uch kishi tashlanib, bog'lab oldi. Birovi qamchi, boshqasi miltiq qo'ndog'i bilan ura boshladi.

Saqish va Qurmashning onasi yaqinida turgan xotin-xalaj va qari-qartanglar shovqin solib yordamga tashlanmoqchi bo'lganda, ularni ko'ksilariga qadalgan nayzalar to'xtatib qoldi.

Qayoqdandir paydo bo'lib qolgan Boyg'ozi "aka, aka" lagancha Qurmong'oziga tashlandi, biroq Dulatning davangirday bir navkari shartta yoqasidan olib, kuragiga qamchi tushirdi va tepkilab olomon ichiga itarib yubordi.

— Tort qo'lingni boladan! — dedi g'azabiga chiday olmay Qurmash. U jon-jahdi bilan boyloqdan qutulmoqchi bo'lib yulqindi, ammo jul arqon qattiqroq qisdi.

— Ey telba, yana bir urinib ko'r, balki chilvir uzilib ketar!.. — deya mazax qilib kulishdi navkarlar.

Shu chog' qayoqdandir kelib qolgan devonasifat bir darvesh paydo bo'ldi Jiydali yo'lida. U jafokashlarga ham, zolimlarga ham beparvo nazar tashlab qo'ydi-da, egnidagi yirtiq chakmonini yechib, yerga yozib ikki qo'lini ko'kka ko'tarib, bor ovozi bilan duo o'qiy boshladi:

— Bismillohu... rahmonu-ur ra-ahim...

Qora mo'ylovli navkar yugurib keldi-da, miltig'i nayzasi bilan ilib darveshning xurjunini uloqtirib yubordi. Darvesh parvo qilmay, duo o'qishda davom etaverdi.

— Hoy shayton, yo'qol bu yerdan. Akillama bu yerda! — deya kimdir miltiq qo'ndog'i bilan tushirdi uni. Darvesh tuproqqa yuztuban yiqildi.

— Astag'firullo! Qanday munofiqlik bu? — g'azabda yoqalarini ushlashdi qariyalar.

— Og'izlaringni yumlaring!

Yasovulning ovozi shu qadar dahshatli yangradiki, hatto bolalar ham o'takalari yorilganidan jim bo'lib qoldilar.

Dulatning navkarlari bilan soldatlar ovul ahlini talab, o'lja olgan narsalarini xurjun hamda qopchiqlarga tiqishtira boshladilar. Dulatning o'g'li Mingboy Qurmong'ozining yoniga keldi-da:

— Holing qalay, ot o'g'risi? Hamma qilmishlaring uchun javob berasan. Ot uchun ham. Hali aqldan ozganingcha yo'qmi o'zi? Turqingdan jinniga o'xshayapsan. Ha-ha... — deb qisiq ko'zlarini suzib irshaydi. — Bugun tunda soy yoqasiga qo'ndirilajak o'tovimda bo'ladigan qiz bazmida kuy chalib berasan, — dedi-da, chir o'girilib Zarboyga qaradi. — Bu qiz sening singling bo'ladi! U xumorimni qondiradi. Bu yerga kelishimizga, sarbozlarimni boshlab kelishimga, otamning tinchligini buzishga sen sababchisan! Shundoq bo'lgach, bilib qo'y, singling avval meni xursand qiladi, keyin esa navkarlarimniki bo'ladi!.. Xo'sh, bunga nima deysan? Sag'irboyning bolasi bilan ikkovingni ostonaga bog'lab qo'yaman. O'sha yerda turib mening Saqish bilan qiladigan hangomamni tinglaysanlar. Sag'irboyning o'g'li esa bizga do'mbira chalib beradi...

— Hayvon! — deb o'shqirdi Zarboy. — Yaxshisi, meni o'ldir. Lekin unga tega ko'rma.

— Voy-bo'y, qo'rqitib yubordingku meni, — istehzoli tirjaydi Dulatning o'g'li.

— Hammasini qarorgohga haydang! Mana bu ikkovini esa izzat ko'rsatib arqonga bog'lab, alohida haydab boringlar, — deb buyurdi u Qurmong'ozi bilan Zarboyni ko'rsatib.

...Zarboyning o'tovi yonib tugamoqda, aylanasiga tortilgan jun namatlar burqsib, tomoqni bo'g'uvchi dud taralyapti. Devona esa chor atrofga uloqtirilgan eski-tuskilarni titkilash bilan ovora.

Qurmong‘ozining ko‘zi nariroqda, Borodino jangida ko‘rsatgan qahramonligi uchun sovg‘aga olgan uzun miltig‘iga suyanib turgan Ollayor otaga tushib qoldi. Yerda esa Zarboyning oti jon talashib yotibdi. Jonivorni azobdan qutqarish uchun chol pichog‘ini oldi-da, bo‘g‘izlab qo‘ya qoldi. Keyin pichog‘ini giyohga surtdi-da, yana qiniga solib qo‘ydi. Keyin u hech kimning betiga qaramay, asta ovul chekkasiga qarab yuraverdi.

Jazolovchilar sergaklik bilan uni kuzatib turardilar-u, biroq buyruq bo‘lmagani uchun cholga tegishga botina olmayotgan edilar.

— Bu o‘z ko‘zi bilan podshohni ko‘rgan odam. Shaxsan o‘z qo‘li bilan xoch va miltiq tuhfa etgan, — deb tushuntirdi navkarlarga yasovul. — Uni, hatto Jangirxon ham izzat ko‘rsatib qarshi oladi.

— Mirza, safarga hamma narsa taxt, — dedi yasovul Mingboyga.

Xotinlar o‘z o‘g‘lonlari bilan dod-faryod solib vidolasha boshladilar.

— Qani, ketdik. Bu jononni esa o‘zim olib boraman. Qani, uni menga uzatinglar-chi!

Navkar Saqishni dast ko‘tarib, ko‘ndalang qilib egarga ortdi.

— Kechqurun uchrashamiz, — dedi Mingboy Qurmashga, obdan holdan toygan Saqishni ikki qo‘llab o‘ziga yaqinroq tortarkan, qizning yig‘lash u yoqda tursin, hatto g‘ing deyishga darmoni yo‘q edi.

— Ollayor ota, Saqishni qutqazib oling! — deb yubordi Zarboy to‘satdan Qurmong‘ozi ikkovi bog‘langan arqonni ushlagan otliq otiga qamchi bosganda.

Ollayor to‘xtab, orqasiga qaradi. Zarboyning tovushi uni uyqudan uyg‘otib yuborganday bo‘ldi, quloqlari ostida jazolovchilarni qarg‘ayotgan jiydaliliklarning ovozlari yangradi. Qurmong‘oziga ko‘zi tushdi, keyin asta Mingboyga qaradi.

— To‘xta! — dedi Ollayor jiddiy va amirona ohangda, lekin ovozini balandlatmay. — Qurmong‘ozini bo‘shat, Zarboy bilan singlisi Saqishning ham qo‘llarini yech. O‘ch olging kelsa, mard bo‘l, maydonga chiq. Erkak uchun onasi yoki opa-singlisidan faqat qo‘rqoqlargina o‘ch oladi...

— Oqsoqol, biyligingiz o'zingizga, sizning qoziligingizga muhtoj emasman. Barimtani men emas, siz chollar o'ylab chiqargansiz. Qiz meniki. Bir kecha xohlaganimni qilaman. Ertaga qaytib keladi.

— Tashlab ket uni... — takrorladi Ollayor. Lekin Mingboy uning so'ziga quloq solmay ketaverdi. Ollayor unga hanuz bosiqlik bilan xo'mrayib qarab turardi. So'ngra ohista miltig'ini ko'tarib, chaqmoq toshini ko'zdan kechirdi-da, tepkisini bosib yubordi...

Jiydalida bugun shu bilan ikkinchi marta o'q uzilishi edi. Birinchi o'q qochishga uringan Zarboyning otiga uzilgan edi.

Ikkinchi o'q esa Mingboyga tegdi.

Ollayor tutuni burqsib turgan miltig'ini asta pastga tushirdi. Navkarlar bir daqiqa hang-mang bo'lib qoldilar. Yig'i-uvvos ham tindi. Borliqni sukunat chulg'adi. Keyin Dulatning o'g'li egarda o'tirgan joyida sal qaddini ko'tardi-yu, voh degancha tuproq yo'lga qulab tushdi. Saqish esa egarga o'ngarilganicha qolaverdi. Navkarlar xo'jalarining jasadi tomon yugurdilar.

— Chopib tashla! — deb baqirdi Ollayorni ko'rsatib, esini yig'ib olgan yasovul.

— Tegib bo'lmaydi. Bo'ynida qahramonligi uchun podshohdan olgan xoch bor! — javob qaytardi navkarlardan biri.

— Xoch nimaligini ko'rsatib qo'yaman unga! —deya qilichini yalang'ochladi bir yasovul.

— Sen qo'yatur. Navkarlar qilishsin!.. — deb uni to'xtatib qoldi ikkinchi yasovul.

Navkarlar Mingboyning o'lganiga ishonch hosil qilgach, xanjarlarini yalang'ochlab, Ollayorni o'rab oldilar. Shu paytgacha jim turgan ovul qariyalarining sabri tugab, unga yordamga tashlandilar.

Jiydaliliklar bilan boyning yollangan navkarlari yuzma-yuz bo'ldilar. Tutqun yigitlarni olib ketayotgan jazo otradi sarbozlari esa jimgina olishuvni kuzatardilar.

— Senlardaqangi navkarlardan o'rgildim-e, chollardan qo'rqib o'tiribdilar-a. Hammalarini sumba bilan savalash kerak... — dedi yasovulboshi g'ijinib.

Navkarlar qiy-chuv bilan chollarga osilib, chetga surgay boshladilar. Shu payt qarovsiz qolgan Qurmong'ozi bilan Zarboyning

oldida Boyg‘ozi paydo bo‘lib, ular bog‘langan arqonni qirqib yubordi. Hammaning qulog‘iga Zarboyning:

— Yigitlar, ushlanglar ularni, miltiqlarini tortib olinglar! — degan buyrug‘i eshitildi.

Bexosdan qah-qah urib kulgan ovoz eshitildi. Bu daydi devonaning kulgisi edi. U Mingboyning murdasi atrofida gir aylanar, ko‘zlari kosasidan chiqqudek bo‘lib, hadeb bir so‘zni takrorlardi:

— Dulatga sovg‘a bu! Dulatga sovg‘a bu!..

Uning gapiga esa hech kim quloq solmasdi. Tutqun yigitlar Zarboyning buyrug‘ini eshitganlari hamon o‘zlarini qurshab turgan soqchilarga tashlandilar. Tartibsiz otishma boshlandi. Havoda o‘qlar chuvullab, otlar kishnab, naq ko‘kka sapchiy boshladi...

Yollangan navkarlardan biri Ollayorga yaqinlashib kelgan edi, chol miltig‘ining qo‘ndog‘i bilan urib cho‘ziltirdi, lekin shu ondayoq kimdir orqasidan kelib tig‘ tortib yubordi.

Zarboy bir navkarning qilichini tortib olib, to‘daga tashlandi.

Oqcho‘lponning otasi, Alpomishday pahlavon tuyachi Jonpeis Ollayorni yaralagan navkarni ushlab, qo‘lini orqasiga qayirdi. Uning qo‘lidan xanjari tushib ketdi va og‘riqqa chiday olmay dodlab yubordi. Jonpeis uni dast ko‘tarib, o‘zidan ancha uzoqqa uloqtirib yubordi. So‘ngra xanjarini olib, tizzasiga urib sindirdi-da, o‘tlar orasiga uloqtirdi. U yaralangan Ollayorni chetga olib chiqib, ayollar qo‘liga topshirdi-da, qiziga yordam bermoqqa otildi. Oqcho‘lpon Saqishni arqondan bo‘shatib birga qochishmoqda edi. Qurmong‘ozi esa so‘yil bilan ta’qib etayotgan ikki navkardan ularni himoya qilardi. Jonpeis oyoq ostida yotgan arava shotisini dast ko‘tarib, ikkala jazolovchining naq beliga tushirdi. Saqishni Qurmashning onasi bag‘riga oldi.

Omon qolgan jazolovchilar safga tizilib, olg‘a intildi. Yigitlar orqaga chekina boshladilar. Olishuv yuz bergan yerda murdalar bilan yaradorlar qoldi. Daydi devona esa, qilich damiga duch kelib qolishdan o‘zini himoya qilib, baqirib-chaqirgancha u yoqdan bu yoqqa yugurardi.

— Miltiqlar o‘qlansin! — buyruq berdi yasovulboshi.

Yosh-u qari barcha jiydaliliklar Ollayor bilan Saqishni qurshab, g‘uj bo‘lib turdilar.

Lekin "o't och" degan buyruq o'rniga:

— Tezroq! Voy-bo'y, ular shu yoqqa kelyaptilar! — deb qichqirgan ovoz eshitildi.

Yaqindagi tepaliklar etagida nayza, qilich, cho'qmor bilan qurollangan bir to'p yilqichi: "Arvoh, arvoh!" — deb suron solib o'qday uchib kelardi. Ulardan ko'plari yo'l-yo'lakay sadoqlaridan o'q olib, kamonlarini otishga shaylab kelardilar. Oldinda qashqa ayg'irda sovut kiygan bir yigit yelib kelardi. Bu No'yon edi, uning ketidan Sarmon bilan Stepan ham ko'rindi. Zarboy bilan Qurmong'ozi ularni ko'riboq tanidilar.

Navkarlar yo'lga yoyilib, tum-taraqay qocha boshladilar. Yalangoyoq devona esa mushtlarini ko'kka cho'zganicha:

— Vo Alloh, Azroil qochyapti. Ha-ha, ha-ha! — deb qah-qah urib kulardi ular ortidan.

Chekkaroqda otidan ajragan, jiydaliliklar qurolsizlantirib, bandi qilib olgan o'nga yaqin navkar to'dalanib turibdi.

— Senlar jallod va zolim-zo'ravon sifatida shu yerning o'zida-yoq jazolanasanlar, — dedi yollangan malaylarga No'yon. — Yo'q! Sabr qilinglar! Ollayor ota bir nima desin. Bugun senlarning ustingdan uning o'zi hukm chiqaradi...

...Ollayor qonga belanib, oq namat ustida yotardi. Chollar bilan yigitlar namatni qavat-qavat chiy bordon ustiga yozib, chakmon va qalpoqlarini boshi ostiga qo'yib, uni astagina yelkalariga oldilar. Jonpeis bilan Zarboy qariyani ehtiyotlab yon tomondan ushlab turdi.

No'yon Ollayor qarshisiga kelib tiz cho'kdi-da:

— Ota, ular sizning hukmingizni kutyaptilar, — dedi yollangan yuvindixo'rlarga ishora qilib. Qariyalar, ayollar piq-piq yig'lardilar. Yigitlarning qiyofasi tosh qotgan.

Ollayor qurib qolgan lablarini tili bilan ho'llab oldi-da, No'yonga tikilib turib, eshitilar-eshitilmas:

— Isming nima, botir? — deb so'radi.

— No'yon.

Ollayor ota holdan ketib borardi. Jonpeis uning og'ziga qimiz tomizmoqqa urindi. Qariya nigohi bilan qimizning hojati yo'qligiga ishora qilib, shishgan, itoatsiz tili bilan yana labini ho'llab oldi-da:

— Isming o'zingga munosib ekan, o'glim... Ularni bo'shatib yubor... Omin.

— Stepan, qo'llarini yech. Yigitlar, otlarini qaytarib beringlar. Ollayor otaning xohishini bajaraylik, — dedi No'yon.

Ollayor sezilar-sezilmas jilmaydi. Chehrasiga xotirjamlik qalqdi, u yana nimadir demoqchi bo'ldi-yu, ulgura olmadi. Bo'yni shilq etib tushdi-yu, ko'zi ochiq qoldi. Jonpeis ulkan kafti bilan yuzini siypab, ko'zini yumib qo'ydi. Ollayorning yuzi xuddi soqoliday oppoq tusga kirdi.

— Alvido, qadrdon, — dedi ko'z yoshi to'kib Jaqip. — Umr shunaqa. Shunday, shunaqaligi ayon...

Ollayor jasadini oq chopon, ustidan esa zangori mato bilan yopdilar. Yigitlar uni yelkalarida ko'tarib o'z o'toviga olib keldilar. Borodinodan xotira miltig'i yonida yotibdi. Ollayor bu miltiqni biror kimsaga in'om qilishga ulgurmadi, ehtimol, munosib yigitni uchratmagandir. Shu sababli bu miltiq qazo qilgan botir bilan birga go'rga qo'yilishi kerak.

Boshqa hech kim yig'lamadi, tovush ham chiqarmadi. Hatto tentak devona ham jim bo'lib qolgandi. Garchi Ollayor ozodlik baxsh etgan, Stepan qo'llarini yechib yuborgan bo'lsa-da, o'z odamlariga ham, bu yerliklarga ham qo'shilolmay, bir chekkada turgan ikki navkar yonida turardi devona. Bu ikki navkarga hech kim biron og'iz qattiq so'z aytgani, hech kim yangani yo'q. Hamma Ollayorning so'nggi vasiyatini bajarmoqda edi. Bir nechagina navkar ketdi, qolganlari esa joylaridan qo'zg'almadilar ham.

— Shoshmalaring hali, sotqinliklaring uchun jazolaringni tortasanlar! — deb g'ijinib ketdi ular.

Boyg'ozi oyoq ostida sochilib yotgan kamon o'qlarini yig'ishtirib yurar, Dulatning yigitlariga o'qrayib qarab-qarab qo'yardi.

— Nega ketmayapsizlar? Dulatdan qo'rqyapsizlarmi? — deb so'radi tutqunlardan Sarmon, lekin javob bo'lmadi.

— Biz bilan qolgisi kelgan kishi el himoyachisi bo'lmog'i lozim. Qaysi urug'dan, qaysi elatdan bo'lishiga qaramay, bir yoqadan bosh chiqarib, Dulat bilan Oqboyga, xonga qarshi borishi zarur, — dedi Sarmon. — Agarda mana shu shartga rozi bo'lsanglar,

qaqqayib turmay, safarga otlanayotgan mana bu odamlarga yordamlashinglar.

Navkarlar churq etmay, yigitlar yoniga borib, tuyalarga yuk ortishga qarasha boshladilar. Devona esa ot murdasiga qo'nmoqchi bo'layotgan quzg'unlarni quvishga tushib ketdi.

Bu tunni jiydaliliklar bedor o'tkazdilar. Ollayorni va o'z do'stlarini qora yerga qo'yib bo'lib, ular ko'chib ketishga hozirlik ko'ra boshladilar.

Tong otguncha gulxanlar o'chmadi. Yo'l uchun go'sht pishirildi, meshlarga suv, ayron, qimiz to'ldirildi. Zang bosgan sovut, xanjarlar sandiqdan chiqarilib, temirchilar qo'lidan o'tkazildi, nayzalar charxlandi. Ayollar ko'z yoshlarini yutib, erlari va o'g'illarining kiyim-kechaklarini yamab-yasqadilar. No'yonning yigitlari tun bo'yi mijja qoqmay ovulni qo'riqlab chiqdilar.

Tun sutday oydin edi. Hatto itlar ham tegmagan, qotib qolgan qon halqoblarida to'lin oy aksi ko'rinib turardi. Itlar ham ma'yus, odatdagiday bekalaridan suyak-sayoq talab qilmay, g'ingshimay, tumshuqlarini oldingi oyoqlari orasiga suqqanlaricha jim yotibdilar. Ular kun bo'yi navkarlarning otlari dumi, oyoqlariga yopishaverib holdan toyganlar. Endi bo'lsa ular ovul boshiga tushgan kulfatni sezganday, aza tutib, ahyon-ahyonda tumshuqlarini osmonga ko'tarib ulib qo'yadilar. Qayerdadir, qumlik ichkarisida qon isini sezgan och shoqollar ovulga yaqinlashishga botinolmay chiyillayaptilar...

Sarmonning o'tovida No'yon bilan Zarboy, Isatoy hamda Mahambetning qarorgohiga qaysi yo'ldan yetib borish haqida bosh qotirib o'tirishibdi. Qum ichidan yurib o'tish kerak. Zarboy quduqlari bor qadimiy karvon yo'lidan borishni taklif qilyapti. No'yon bilan Sarmon esa, Jiydalida suv g'amlab olib, yo'ldan chetlab yurishni taklif etyapti, oxiri shunga qaror qilishdi.

Maslahat bir yerga kelib, hamma masalalar hal qilinib olingach, o'tov jimib qoldi, har kim tug'ilib o'sgan ona yer — Jiydalini tashlab ketayotganiga achinib, o'y sura boshladi. No'yon ma'yus, o'y surayotgan odamlarning chehrasini ochishga urinib, Isatoy bilan Mahambet sarbozlarining ko'klamda Qorovulxo'ja sulton ustidan qanday qilib g'alabaga erishganliklarini hikoya

qila boshladi. Hozir sulton qo'lidagi yerlar kambag'al ovullarga berilgandi...

Jiydalilik bir to'p ayol Alqa boshchiligida yangi meshlar tikish, ularni yuvib-tozalash, buloq suviga to'ldirish bilan mashg'ul. Oqcho'lponning esa dugonalari bilan birga, yelkasidan obkash tushmasdi.

Faqat yarim tunga borgandan keyigina ish qolmadi, odamlar dam ola boshladilar, shu payt Qurmong'ozining do'mbirasi tilga kirdi. Kun bo'yi ko'rgan-bilganlari shahid bo'lganlar qayg'usi, dastlabki g'alaba quvonchi, marhum Ollayor aytgan so'zlarining ma'nosini chaqish hammasi birlashib yangi kuy tug'ilishiga sabab bo'ldi. Bo'ribosarlar ham uvullamay jim yotardi. Tun qorong'isidan devona ko'lankaday chiqib keldi-da, gulxanga yaqin, Qurmong'ozining yonginasiga o'tirardi. Jiydaliliklar tomoniga o'tgan Dulatning navkarlari ham qimtinibgina gulxan yoniga kelib o'tirishdi. Devona ularni hassasi bilan turtib, qah-qah urib kula boshladi.

— Hoy, Allohning arzandasi, jim o'tir! — dedi Jonpeis uni xafa qilmaslikka urinib.

— Men Allohning arzandasi emas, darveshman. Hirotdan kelyapman, lekin bunaqangi kuyni hech qayerda eshitganim yo'q, — dedi devona.

Shu orada bu yerdan o'tib borayotgan No'yon darveshga tikilib qaradi. U bu odamni qayerdadir ko'rganga o'xshadi. Lekin qariya o'girilib oldi.

— Qoraqipchoq No'yon-ku. Xudoga shukur, — deya shivirlab, yana xixilab kulishga tushdi devona.

No'yon biroz qarab turdi-da, bu devonaning tanish emasligiga qanoat hosil qilib, tuyalarga yuk ortayotgan yigitlar yoniga ketdi.

Gulxan yanada yorqinroq alangalana boshladi. Gulxan atrofi yorishib ketganday bo'ldi. Odamlar Qurmong'ozi chalayotgan kuyni mahliyo bo'lib tinglardilar.

Qurmash ijro etayotgan kuyga jiydaliliklarning o'zlari nom berdilar. Uni ozodlik yo'lidagi jangning debochasi — "Intilish" deb atadilar...

Ufq bo'zara boshlaganda qariyalar bomdod namozini o'qimoqqa to'plandilar. Ular uzoq iltijo qildilar, shahid bo'lganlarni, mana bu qabristonda qolayotgan ota-bobolarni qon-qardoshlarni yodga oldilar, unib-o'sgan Jiydali yerlari, soy va buloqlari bilan vidolashib, oldindagi olis hamda mashaqqatli safar, bo'lajak janglarda madadkor bo'lishini tilab Allohga topindilar.

...Jiydaliliklar karvoni tongni uzoq qumliklar ichkarisida qarshi oldilar. Oldinda devqomat Jonpeis, Zarboy va No'yon borardi. Karvon ortida esa bir to'p yigitlar bilan Sarmon, Qurmong'ozi va Stepanlar kelmoqda. Ular Jiydali ahlini kimsasiz qum barxanlari orqali Isatoy qarorgohi tomon boshlab borardilar. Jonpeis qadimdan qolgan quduqlarni yaxshi bilardi.

Ayollarning unsiz nola-yu fig'onlariga ko'milgan bu karvon uzundan uzun bo'lib cho'zilib, bo'z rang sahro qa'riga kirib, tobora ichkarilab borardi. Tuya odimiga mos keladigan, qozoq eli boshiga kulfat tushgan mashaqqatli hamda qayg'uli kunlarda hamisha hamroh bo'ladi bu hazin, g'ussali kuy. Bu kuy — ona tuproq bilan xayrlashish qo'shig'igina emas, bo'lajak safarning debochasi hamdir.

Bu qo'shiqning qalblarni ezguvchi, g'ussaga botirguvchi sadolarini shabada o'z qanotlariga ortmoqlab, olis-olislardagi barxanlar uzra uchirib o'tadi, bepoyon dasht bag'riga sochadi. Ollayor otadan qolgan otni yetaklab olgan, qadimgi zamonlardan buyon toptalib kelingan yolg'izoyoq yo'ldan ilgarilab borayotgan so'qqabosh darvesh ham bu qo'shiqni o'zi bilan olislarga eltadi. Ko'zlagan manzili bo'lak edi, shu boisdan u jiydaliliklardan ajrab, o'zga yoqqa yo'l olgandi.

Jiydali dashtlarining hukmdori bo'lmish ikki burgut erta tongda uyg'onib qarab ovulni ko'rmadi — kapalar mozorot yanglig' huvullab qolgandi. Faqat uzoq-uzoqlardan behisob odamlarning tashvishli — tosh o'rmon qo'shig'iga o'xshash hazin, alamli nola-fig'onigina eshitilib turganday edi...

UCHINCHI QISM

Ichki o'rdaning to'rt tomonidagi ulus va viloyat sultonlari, beklari o'z mulozimlari bilan vahima ko'tarib shahar darvozasidan kirib kela boshladilar. Ularning otlari chopaverib ko'pirib ketgan edi. Ulardan keyin qo'zg'olonchilardan qo'rqib, sarosimaga tushib qolgan boylar, biylar mol-mulklarini, ovullarini tashlab, xondan panoh izlab ketma-ket bu yerga qochib kelaverdilar. O'rdaga kirib kelganlari hamonoq xon oldida tiz cho'kishar, u bilan muzokara olib borayotgan general-gubernator Perovskiy yuborgan muntazam rus qo'shinlari ofitserlari qarshisida bosh egishar, zorlanib yordam so'rashardi.

Ular o'zlariga ishonchli qo'riqchilar — askar berishni xondan iltimos qilardilar.

Jasqusga haydab kelingan qo'y va yilqilarning son-sanog'i yo'q, boylar na chorva, na pulni ayadilar, faqat ko'proq askar va qurol-yarog' berilsa bas.

Qal'aning baland devori tashqarisiga, gir aylana choh tegrasiga to'siqlar qo'yildi, atrofni kuzatuvchi bo'linmalar ko'paytirildi.

Xon o'rdasi tevaragiga behisob yuk va ko'ch-ko'ron tushirila boshladi. Uylar oralig'ida yangi-yangi chodirlar tikilaverdi, o'tloqda esa og'a-sultonlarning oq namat o'tovlari qad ko'taraverdi. Uzun-uzun taxta uylar va yerto'lalarda yollangan navkarlar g'ujg'on o'ynardilar.

Xon o'rdasidagi avvalgi dabdaba hamda osoyishtalik barham topib, endilikda u oromi yo'qolgan ulkan ari uyasiga o'xshab qolgan. Boylar dastlab o'tovlarini qayerga tikish borasida bir-birlari bilan yoqa bo'g'ishishgacha borib yetdilar, biroq keyinchalik buning chorasi topildi, har qaysilari o'z urug'idan chiqqan vazir yoki biyning uyiga yaqinroqqa joylasha boshladilar...

Xushbo'y kuzgi qimiz shopirib-shopirib kosalarga quyilmoqda, dasturxon to'kin, ishtaha ochadigan dasht taomlari — qazi-qarta,

qatlama-bo‘g‘irsoq, yog‘liq qurut-u pishloq, qush eti-yu baliq, qo‘y go‘shtidan tayyorlangan ovqatlar, shirin-sharbat mevalar — hamma-hammasini o‘rda sari tashmalab yotibdilar. Harbiy libosdagi boylar go‘yo o‘zlarini bozorga soladilar, bellariga kumush hamda asl toshlar bilan bejalgan qilich va to‘pponcha osib olib, Jangirxonning saralangan jangovar lashkarlarining qurol-yarog‘lari-yu aslahalarini tomosha qilgani boradilar. Yaqin atrofdagi podshoh istehkomlaridan xonga madad bergani kelgan yollangan sarbozlar bilan kazak otradlari xotirjam ko‘rinadi, negaki, ularning yarog‘-aslahalari qo‘zg‘olonchilarning cho‘qmor, nayza va qilichlaridan bir necha karra dahshatliroq...

Biroq xon yuzboshilari ham, og‘a-sultonlar ham negadir notinch ko‘rinar, bu esa xalq sarbozlari istiqbolidan qochib, panoh izlab kelganlarning barchasi yuragiga g‘ulg‘ula solardi.

Aslida bu notinchlik boylarning o‘tovlariga bahordayoq, Isatoy bilan Mahambet xonning qaynatasi, ya’ni xonning uch xotinidan biri — Suluvbibishning otasi, shafqatsiz og‘a-sulton Qorovulxo‘janing lashkarlarini tor-mor etgan kezda kirib kelgandi.

Qorovulxo‘janing mag‘lubiyati haqidagi xabarni qashshoq ovullar choparlari yashin tezligida o‘tovdan o‘tovga yetkazdilar. Quvonchga to‘lgan oddiy xalq yoppasiga nayza va so‘yilga yopishdi. Barchalarining og‘izlarida Mahambetning qo‘zg‘olonga chorlovchi she’rlari yangradi. Oqinlar Qiyali-Qiyg‘ochdagi jang bilan Isatoy botirning g‘alabasini qo‘shiqqa solib, o‘lan to‘qishga tushib ketdilar.

Ba’zi ko‘ngilli choparlar, hatto xon o‘rdasigacha kirib bordilar. Ular goh u yerda, goh bu yerda — xizmatkorlar, qora xalq orasida, xonga qarashli dala-yu yaylovlarda paydo bo‘lib, sarbozlarning g‘alabasi haqida ovoza tarqatardilar. Ulardan birini kuni kecha qo‘lga tushirdilar.

U atrofiga odam to‘plab, Mahambetning quyidagi she’rini o‘qib turganida, xon ayg‘oqchisi ko‘rib qolibdi:

...Yeldek uchib borar sahroda jayron,
Lekin u mergandan saqlay olmas jon.

Kenglik cheksiz edi hayvon yo'lida,
Bizga g'alabani mardlik etar hal,
Mard o'g'lon, yov jangi kutmoqda mahtal!
Otlan, qismatimiz Xudo qo'lida!.

Shundan keyin Qorovulxo'janing jang maydonida Isatoy botirdan sharmandalarcha yengilgani to'g'risida hikoya qilinardi.

...Sultonlar zug'umi bilan yashab turgan joylaridan quvilgan qashshoq ovullarning yigitlari Navro'zning boshlaridayoq Isatoy botirning qo'l ostida to'plana boshlagandilar. Mahambetning maslahati bilan botir o'z yigitlarini uzoq-yaqindagi ovullarga jo'natib, yaylovlarini boylarga bermaslikka da'vat etgandi.

Isatoy Navro'z oxirlarida uni panoh tortib kelgan eng qashshoq ovullarni Qiyali-Qiyg'och soyining yoqasiga joylashtirishga jazm qildi.

Qiyg'ochsoy Edildan ajralib chiqib, keksa Kaspiy "panjasiga" ilinib qolmay deganday, Norinqum bag'ridagi, aftidan, bir zamonlar dengizdan ajrab qolgan, shu boisdan bo'lsa kerak, hanuz Dengizko'l deb atalguvchi kichik-kichik ko'llar tomon oqib boradi.

Isatoyning maqsadidan xabar topgan Qorovulxo'ja (Qiyg'ochsoy uning yerlaridan oqib o'tardi) qo'zg'olonchilarga qo'qqisdan hujum qilishga, ularni tor-mor etib, isyonkor ovullarni qum ichkariligiga haydab yuborib, rahnamolarini ushlab, xon qo'liga topshirishga qaror berdi. Qorovulxo'janing g'alabaga ishonchi komil edi. Jangirxon unga yaxshi qurollangan yollanma navkarlarni yordamga yuborgan edi. Sultonning maqsadi faqat xonninggina emas, general-gubernator Perovskiyning maqsadiga ham mos edi.

Qorovulxo'janing rejalaridan xabar topgan Isatoy darhol eng qulay yerni: bir tarafi tik soy yoqasiga taqalgan, ikkinchi tarafi chuqur jarlik bilan qurshalgan joyni tanlab, tuyalardagi yukni tushirib, o'tovlarni tiklashni va bu ovulga yaqinlab kelinadigan hamma yo'llarga xandaq qazib, to'siqlar qo'yib tashlashni buyurdi.

Sulton, otradi Qiyali-Qiyg'ochga kelib, ovul himoyaga shay bo'lib turganini ko'rdi. Ovulga boriladigan yo'llarning hammasi to'sib qo'ylgan. Otliqlar o'tsa bo'ladigan kechuvda ikki yuz —

sakkiz yuzga qarshi ikki yuz sarboz jangga shay bo'lib turibdi. Ular ortida Isatoy bilan Mahambetning panohiga qochib kelganlarning o'tovlari chumoliga o'xshab tizilib ketgan. Agar mana bu ikki yuz sarboz bo'lmaganida, bu o'tovlardagi qari-qartanglar, xotin-xalaj va bolalarni bir hamla bilan yo'q qilib, kulini ko'kka sovurib yuborsa bo'lardi. Sarbozlar sovut-u qalqonlarini yarqiratib, nayzalarini shaylab, ot ustida qarchig'ayday mustahkam o'tiribdilar.

— Isatoyning arslonlarini ko'rib, Sultonni vahm bosdi, — deb hikoya qilardi so'zamollik bilan chopar yigit:

Kim bilmaydi Mahambetning qilichin shashtin,
Mergan turkman Bolabekni kim bilmas?!
Sherday abjir, pahlavondir sarboz Qoldiboy...
Botir o'zbek Ersarini eshitmagan kim
Va Erali cho'qmorining dovrug'ini ham?!

Bu so'zlarni eshitib, Jangirxon qullarining ko'zi chiqib ketayozdi.

— Vo-oh! Botirlarning jur'ati, qudrati bizga ayon!

— Aytaver! Yana ayt!..

— Ha, keyin nima bo'lganini eshitinglar...

Sulton botirlarni och qoldirib, taslim qilmoqchi bo'ldi. Qarorgohni qurshab olib, kutishni buyurdi. Isatoy qarorgohini sakkiz yuz askar va yollangan navkarlar qurshab oldilar.

— Bular qopqonga ilingan sichqonday ochlikdan qirilib ketadilar, — dedi sultonning o'g'li xorunjiy Ko'kbo'lsin. — Shunday qilib, Qiyali-Qiyg'och suvini qonga bo'yaymiz hali...

Tund qizarib botdi quyosh o'sha oqshomda,
So'nib qoldi qirg'oqda qushlar nag'masi.
Gulxanlardan yorishdi sulton chaylasi...

Qo'zg'olonchilar qarorgohida osoyishtalik hukm surardi. Tun sutday oydin, lekin biroz ayozli edi. Olislardan eshitilib turgan qashqirlarning ulishi qonli jang yaqinlashayotganidan xabar berardi.

Sulton oq chodirda, zarbof epoletli polkovnik kiyimida savlat to'kib o'tiribdi. Xorunjiy Qo'kbo'lsin, boyboqti urug'ining oqsoqoli Yunus yangi so'yilgan qulun etini paqqos urib, rohatlanib o'tirishibdi. Askarlarga ham yetarli qimiz tortilgan.

— Kutib o'tirmaymiz. Ertalab taslim bo'lishmasa, tushgacha tavbasiga tayantiramiz! Ota, Xudo haqqi, bizga ishonavering, ertaga tushga qadar dushmanlaringizning boshi oyoqlaringiz ostida yotadi. Mahambetning tilini o'z qo'lingiz bilan qirqib tashlaysiz, — deya ont ichardi Ko'kbo'lsin.

— Aytganing kelsin, ilohim. Lekin bo'lak boshliqlarini tiriklayin tutib kel, — dedi sulton bo'lajak g'alabadan mast bo'lib.

Navkarlar ham kayf-u safo qildilar, oydin tun ularga kulib boqayotganday tuyulardi. Qo'zgolonchilar qarorgohida hamon osoyishtalik, u yer-bu yerda miltillab yonayotgan gulxanni ham tun pardasi niqoblab olganday. Itlar ham ahyon-ahyonda ulib qo'yadi. Beshiklarda belog'liq yotgan chaqaloqlar ham uxlamay, jimgina yotibdilar...

Sulton qo'shini tongotar paytiga kelib tinchib qoldi.

— Xuddi shu paytda, — deb hikoya qilardi chopar, — yer larzaga keldi. Sultonning chodiri dovul urganday chayqaldi, tortqilandi...

Esi chiqib gangib qolgan navkarlar biri birini turtib-surib, otlari tomon yugurlilar. Hech kim miltig'ini o'qlolmay qoldi.

Sarbozlar soydan kechib o'tib, navkarlar g'uj bo'lib turgan yerga tashlandilar. Ular ikki yuz nafar edilar, sultonning ko'ziga minglarcha ko'rinib ketdilar! Uni qo'riqchi mahramlari arang otga mindirib ulgurdilar. Yasovul Yunus navkarlarni tartibga keltirishga dovyurak yigitlarni qurshab olib, o'rtadan chiqarib yubormaslikka urinardi...

Biroq tunni uyqusiz o'tkazgan sarbozlar to'dadan chiqib ketishni xayollariga ham keltirmas, tishlarini g'ijirlatib, g'azab va nafrat bilan, jonlarini fido qilib qahramonona jang qilardilar. Ular ayovsiz jon olib, jon berardilar...

Isatoy botir ostidagi to'riq bedov goho xuddi erk talab qilganday ko'kka sapchib qolardi. Ko'kbo'lsin to'pponchasini ko'tarib, botirni mo'ljalga oldi, lekin tepkini bosgani hamon kimdir ko'ksini

qalqon qilib, botirni o'limdan saqlab qoldi. Shu ondayoq uch sarboz xorunjiyga tashlandi.

Uning navkarlari sarbozlarni to'xtatib qololmadilar. Ko'kbo'lsin qo'lidagi to'pponchani tashlab, qilichiga yopishdi, qarshisida g'azabi qaynagan Mahambetni ko'rdi-yu, egarga engashib olganicha, otini niqtalab qocha boshladi. Mahambet siltagan qilich zarbi shu topda unga ko'ndalang bo'lgan boshqa bir navkarni bo'lib tashladi.

Navkarlar zaharxanda qiyqirib-baqirib, Mahambetni o'zlariga jalb etishga, chalg'itishga urinar, biroq oqin ularga bo'sh kelmas, raqiblari zarbasini shunday chapdastlik, shunday shijoat bilan qaytarardiki, go'yo qo'li bir juftgina emas, o'ntaga o'xshardi. Navkarlardan biri qilichi bilan Mahambet ostidagi tulporning qulog'inigina chilpib tashlashga muvaffaq bo'ldi. Hech kim uni na miltiq va na qilich bilan jarohatlay olmadi. Bunday to's-to'polonda miltiq ortiqcha matohday bir gap edi.

Ko'kbo'lsin ellik chog'liq saralangan navkarlarni atrofiga to'plab, yana Mahambetga tashlandi.

— Ko'ppakday chopib tashlanglar uni, chopinglar! Qorniga nayza sanchinglar! — Ko'kbo'lsinning ko'zlariga Mahambetning yuzidan bo'lak narsa ko'rinmas, qulog'i uning nafas olishi-yu qilichining shig'illashidan bo'lak tovush eshitilmasdi. Qurshov borgan sari torayib borayotganini ham ko'rib turardi.

— Jantas! Mahambetga yordam ber! — deya ovozi boricha qichqirdi turkman yigiti Bolabek.

Sarbozlar qo'llarida nayzalarini o'ynatib Isatoy bilan Mahambetni navkarlardan himoya qilardilar. Endi ular oz qolgandilar. Yigirma-o'ttiz chog'liq, ha, bundan ko'p emasdi. Biroq ular bamisoli po'latdan quyilganday mustahkam turardilar.

Sulton Qorovulxo'ja tepalikka chiqib, jang maydonini kuzatib turarkan, o'z odamlariga yangidan yangi yuzliklarni madadga yuborardi.

Mana, nihoyat u kutgan fursat yetib keldi, Isatoyning tug'i chayqalib ketganini o'z ko'zi bilan ko'rdi. Ha, tug' chayqalishga chayqaldi-yu, biroq yanada balandroqqa ko'tarildi, endi u alp, kelbat Ersarining qo'liga o'tgandi.

— Otdan ag'daringlar ularni! Isatoy bilan Mahambetga sirtmoq tashlanglar! Bu itlarning unini o'chiringlar! — Sultonning ovozi bo'g'ilib qoldi. Yuzliklar safi siyraklasha borardi, biroq mana, navkarlar so'nggi hamlaga o'tib, kuch jihatidan emas, son jihatidan ko'plik qilib sarbozlarni soy tomonga surib bora boshladilar.

Qo'rqish nimaligini bilmaydigan Qoldiboy, dovyurak o'zbek yigiti Ersari va kamgap Nuralilar hamon navkarlar olomoni ichida sherday jang qilardilar. G'ayratli, jasur Jantas ham ular bilan birga edi. Ularni hech bir kuch chekintira olmasdi.

— Hoy! Qorinlarini yorib, ichak-chovoqlarini ag'darib tashlanglar! — xursand qichqirdi Qo'kbo'lsin.

Mana, Ersari botirning oti yiqildi, o'jar va baquvvat Nuralining ham tulpori munkib ketdi. Lekin shu onning o'zidayoq u bo'ychan Ersarining qavatiga turib olib, shamshiri bilan navkarlar otlari qornini yorib yiqitaverdi.

Navkarlar yopirilib, bostirib kelaverdilar. Isatoyning tug'i yana chayqalib ketdi...

G'alayonchilar o'z do'stlari jasadini dushman qo'lidan tortib olmoqchi bo'lib, xuddi yaralangan arslonday so'nggi bor hujumga tashlandilar...

Tepalikda kuzatib turgan sulton buning jon talvasasi ekanini, sarbozlarning holdan toyganlarini ko'rib, jangni munosib g'alaba bilan nihoyasiga yetkazish maqsadida shaxsan o'zi jang maydoniga ot qo'ydi.

Lekin xuddi shu payt kutilmagan voqea sodir bo'ldi. Oldingi safda borayotgan navkarlar to'satdan otlari boshini orqaga burib, keyinda kelayotganlarni bosa-sura chekina boshladilar... To's-to'polon ko'tarilib, hammasi ostin-ustin bo'lib ketdi. Navkarlar soydan o'tib, sarbozlarga yordamga kelayotgan kuchni ko'rib, o'takalari yorilgudan bo'ldi. G'alayonchilar behisob edilar. Ular otliq, tuya mingan. Ular qiyqirgancha, sulton qo'shinlari ustiga bostirib kelardilar. Sulton oti boshini burdi. Bu yangi qo'shinning qayoqdan paydo bo'lib qolganiga sira aqli bovar qilmasdi.

Sulton qo'shinining qolgan-qutgani dashtga tariqday sochilib ketdi. Ulardan hech biri sarbozlarga yordamga kelganlar yigitlar

emas, xotin-qizlar, qari-qartanglar ekanini fahmlamagandi. Ularni jang maydoniga Isatoy bilan Mahambetning xotinlari boshlab kelgandilar. Xotinlar sochlarini yig'ib, boshlariga tumoq, egnilariga erkaklarning libosini kiyib, so'yil, oshpichoqlar bilan qurollanib, erlari, aka-ukalari, o'g'illariga yordamga tashlangandilar...

Perovskiyning buyrug'iga ko'ra, Qorovulxo'ja sultonga yordamga yuborilgan Gekke boshchiligidagi uch yuz askar yetib kelganida g'alayonchilar bu yerdan allaqachon g'oyib bo'lgan edilar. Ular dashtda Nuralini ushlab oldilar. Yigit dushman harakatlaridan ko'z-quloq bo'lmoq niyatida yo'lga chiqqan edi.

— Biz rus podshosiga emas, Jangirxonga qarshi urishmoqdamiz, — dedi Nurali so'roq paytida. Gekke undan Isatoyning yangi qarorgohiga boradigan yo'lni ko'rsatishni talab qildi. Nurali ularni adashtirib, qumlik ichkarisiga olib kirib qo'ydi.

— Bizni nega aldading? — deb so'radi Gekke.

— Ishing bo'lmasin. Meni bir Xudoning o'zigina tergaydi! — dedi Nurali.

Nuralini sumba bilan besh yuz marta savaladilar, keyin ertalab qatl etmoqchi bo'lib, yerto'laga tashlab qo'ydilar, u esa tunda qochib qoldi. Ofitserning otini minib, sarbozlar yoniga arang yetib keldi.

U bir hafta deganda o'ziga keldi. Shunda:

— Qayerda eding? Nega bizdan ruxsat so'ramay jo'nab qolding? — deb so'radi Ersari.

— Ishing bo'lmasin. Kaltak yegan men, endi alamini ham o'zim chekyapman. Lekin teri yarasi tezda bitib ketadi. Qorovulxo'janing yarasi esa qo'rqinchliroq. Navkarlarini qara, xotinlardan qo'rqib, juftakni rostlab o'tirsalar-a...

Hikoyachining so'nggi so'zidan hamma xandon otib kulib yubordi. Odamlar Qiyg'ochdagi jang tafsilotini qayta-qayta tinglashga tayyor edilar.

Sultonning qochib qolgani haqidagi xabar og'izdan og'izga o'tib, barcha ovullarga taraldi. Qo'zg'olonchilar erishgan g'alaba haqidagi xabar Norinqumning eng olis burchaklarigacha xursandlik olib keldi. Odamlar uni yana va yana eshitgilari kelardi. Ular

bu jang haqida ko'proq bilishni, Mahambetning o'lanlarini ko'proq tinglashni xohlardilar. Chopar o'lan ayta boshladi:

Kimki tug'ilgandan chinakam botir,
G'alaba hamisha unga hamroh, yor.
Dunyo titratmoqqa qudrati qodir,
Ahdiga hamisha qolar vafodor,
Buning aksi bo'lar nomard, nobakor.
Yoli va sag'ridan tanigin faqat,
Haqiqiy tulporni — poyi larzonni!
Taxtidan yiqitar har qanday xonni,
G'azabga minsa gar butun mamlakat!

Lekin o'lanni oxirigacha aytishning iloji bo'lmadi. O'lan tinglayotganlarni ayg'oqchilar qurshab, o'rtada turgan choparni ushlab oldilar-da, shu onning o'zidayoq ikki kundan buyon taxtdan tushmay kengash qilayotgan Jangirxonga xabar qildilar.

— Boshini qirqinglar buzg'unchining! — dedi Jangirxon va ortiq uni bezovta qilmasliklarini buyurdi.

Xon o'rdasida kengash borardi. O'rdaga biylar, vazir va sultonlar yig'ilgan edilar.

Bo'key o'rdasi hukmdorining ikki yonida, eng faxrli o'rinlarda podshoh qo'shini polkovnigi mundirini kiyib olgan Qorovulxo'ja bilan Boymag'ambet, ularning yonida yoshi anchaga borib qolgan vaziri a'zam no'g'aylilik Sho'mbal, keyin Shinqa, Aspandiyor va Shing'ali sultonlar, olosh urug'ining oqsoqoli Oltoy Do'smuhambet o'g'li o'tiribdilar. Bundan keyingi o'rinlarda sherkesh urug'idan — Mengdigaroy, kete urug'idan — To'qim, boyboqti urug'idan — Sho'ke sulton va boshqalar o'tirishibdi. Lekin bu yerda berahm sultonlar — Aydali va Quvonchlar ko'rinmaydi. Ularni qo'zg'olonchilar ushlab olgan va oqsoqollar hukmi bilan o'lim jazosiga mahkum etgan edilar...

Qorovulxo'janing orqa tomonidagi supada, qilichining dastasini mahkam ushlagancha, xorunjiy Ko'kbo'lsin qosh-qovog'i osilib, boshini xam qilib o'tirardi. Uning boshi bog'langan. Qiyg'och jangidagi jarohati hali bitmagan ko'rinadi.

Qo'kbo'lsin qayerda bo'lmasin, otasidan ajralmasdi. Lekin o'rdaning martabali, obro'li amaldorlari, oqsuyak xo'jalari to'plangan bu saroyda u odob saqlab, chekkaroqda o'tirishga majbur bo'lgan edi. Bu yerda Qiyali-Qiyg'ochdagi jang vaqtida Isatoy sarbozlari orasida bo'lgan ikki oddiy avom vakilining ishtirok etayotgani uning g'ashini keltirardi. To'g'ri, ular o'shanda ham Isatoyga emas, xonga xizmat qilgan edilar. Isatoyning qo'l ostidagi sarbozlar ikki yuz kishiga ham yetmasligini yetkazgan ham mana shular edi. Lekin, shunga qaramay, urushda sharmanda bo'lib, mag'lubiyatga uchradilar. Qorovulxo'ja sulton va xorunjiy Ko'kbo'lsin hammaning oldida masxara bo'lib qoldilar. Kim biladi, shu topda bu ikkovi ham ichida xorunjiy Ko'kbo'lsinni masxaralab kulib o'tirgandir? Boshqa payt bo'lganida ularni bu muqaddas saroyning ostonasiga ham yo'latmasdilar-a. Hozir bo'lsa bu ikki bersh sultonlar orasida o'tiribdi. Ularga, hatto xonning o'zi ham iltifot ko'rsatyapti.

Ular Jasqusga yashirincha kelganlar — hozir esa martabali kishilar orasida izzatda o'tirishibdi. Ko'kbo'lsin o'z g'azabini zo'r-bazo'r yashirardi.

Avvalgi dorulamon kunlar bo'lganida har ikkalasini savalab, bir xumordan chiqardi-ya. Anavi yoshi kattarog'i Eske ham, yoshrog'i Nodir ham, kezi kelib qolsa, qo'zg'olonchilar tarafiga o'tib olishi hech gap emas. Bundaylarga ishonib bo'lmaydi. Ular bir bo'lak go'sht va bir hovuch kumush uchun xiyonat qilishdan ham toymaydilar. Basharti, zamon tinch bo'lganida xonning o'zi shularning xizmatiga zormidi, mana bu o'tirgan sultonlar va Ko'kbo'lsin ularning yana Isatoy bilan Mahambetning qarorgohiga yashirincha yetib olishlari uchun barcha chora-yu tadbirlarni ko'rishga harakat qilib o'tirarmidi. Ko'kbo'lsinning hozir shu yerda, sultonlar orasida o'tirgan Mahambetning og'asi — Bekmuhambetni ham ko'rgani ko'zi yo'q edi. Bekmuhambet Jangir taxtga chiqqan dastlabki kundan beri xon maslahatchisi, vazir bo'lib kelmoqda...

— Tog'-u adirlarsiz yer, xon-u podsholarsiz el yo'q. Boshliqsiz qabila — qabila emas, tentaklar to'dasi degan gap. Hatto yirtqich hayvonlar ham yetakchisiz yurmaydi... — deb gapni uzoqdan boshladi yo'tal aralash Boymahambet. — Aqli noqis Mahambetning ta'siriga berilgan Isatoy, o'z ota-bobolari udumini muqaddas

bilguvchi, ajdodlari ishini davom ettirguvchi munosib merosxo'r sifatida o'zimiz xon qilib ko'targan buyuk hukmdorimizga qarshi qo'l ko'tardi. Davlatpanohimiz donolikda beqiyos, sabr-bardoshda tanhodirlar. Xonimiz Isatoyga necha-necha bora muruvvat ko'rsatganlar. Ulug' xonimizning o'zlari bu noshukur, nobakor tentakka Xiva elchisini Peterburgdagi oq podshoh huzuriga kuzatib borishni, keyinroq general Geynsni o'rdani tomosha qildirishni ishonib topshirganlari barchamizning yodimizda. Avom orasidan chiqqan oddiy oqsoqolga ko'rsatilgan ko'z ko'rib, quloq eshitmagan iltifot edi bu. Tagipast pastligini qiladi, qarqunoqdan bulbul chiqmaydi, deganlari haq gap. U o'ziga o'zi zomin bo'ldi, botir bo'laman deb, o'z bog'ini quritdi. Sabrning ham cheki bo'ladi! Burungilarning aytishicha: "Bukrini go'r tuzatadi". Endi, faqat zindongina Isatoyni hovridan tushiradi, Mahambetning unini o'chiradi... Axir, xon hazratlarining farmoni oliylari bilan oqsoqollik martabasi berilmaganmidi Mahambetga?! Unga berilgan mol va yer ozmidi, axir! Insofsiz, daydilar! Qashqir qashqirligini qiladi, deb to'g'ri aytisharkan. Ularni dorga osish kerak! Barcha buzg'unchilarning ovullariga o't qo'yib, o'zlarini podshohi a'zamning jazolovchilariga ushlab bermoq kerak! Mening qarorim mana shu! — deb so'zini tugatdi Boymahambet.

— Ularning ko'zini ochib qo'ymoq kerak! Eng dahshatli jazo qo'llanishi kerak! — deya baravar shovqin ko'tardilar sulton-u biylar alamlarini yashirmay.

Xon qo'lidagi oltin asosi bilan taxt yondorini taqillatib ura boshladi. Jangirxon shovqin-surondan norozi edi. Hamma jim bo'ldi.

— Agar qaroqchilarga yolg'iz o'zining kuchi yetmagan ekan, — deya so'zida davom etdi Boymahambet salmoqlanib, baroq qoshlari ostidan Qorovulxo'jaga takabburona ko'z tashlab. — Unda bizga fotiha bering, hazratim. Kuchimizga kuch qo'shing, qo'limizga olmos shamshir tutqazing. Mening yigitlarim quturgan isyonchilarning jazosini berishga tayyor!

— Ularni birma-bir sumba bilan savalab, Isatoy bilan Mahambetni bir dorga osish kerak, — dedi keksa sulton Sho'mbal. Lekin u Jangirxon qo'lidagi asoni ko'targanini ko'rib, darhol so'zini to'xtatdi-yu, boshini quyi egib, jim qoldi.

— Olomon podaday sarkash, avom esa beaql. Uning jazavasini nafaqat qilich bilan, balki aql bilan bosmoqlik darkor... — deya Jangirxon barcha biylar va sultonlarga birma-bir nazar tashlab chiqdi. — Boshi kesilsa, tana yiqiladi, Isatoy bilan Mahambetni olomondan ajratmoq, Xudo bexabar beboshlarga g'azab tig'ining zarbini ko'rsatib qo'ymoq lozim!

— Ijozat etgaysiz, hazratim! Hukmdorim, behad hikmatli so'zlarni aytdilar! — dedi birdan Qorovulxo'ja jon kirganday. — Toki yaktan ekanlar, ularni mag'lub etmoq mushkul. Qora xalq darg'azab, quturgan, shul boisdan ham u bor-yo'g'i ikki echkini haydab borayotgan, illo olamdagi jamiki xazinani qo'lga tushirganday butun vodiyning qulog'ini qomatga keltirib hushtak chalgan podachiga o'xshagan ba'zi mahmadonalarni gumdon qilib yuborishi hech gap emas, — deb yuqoridan turib, Boymahambetga kinoyali qarab qo'ydi Qorovulxo'ja. — Nahotki muhtaram Boymahambet yigirma to'qqizinchi yili Mahambet yuz qaroqchisi bilan uning navkarlarini kun-payakun qilib, oq chodirini to'ntarib tashlaganini unutgan bo'lsa? U kezlarda bosh ko'targan bir to'da yilqichilarni bosib qo'yish oson edi. O'sha paytlardan ularga qo'shilgan ovullar bu qadar ko'p emasdi.

— E, xo'jaga ham gap bormi, xo'sh, Isatoy bilan to'qnashganingdan keyin nimang qoldi, ikki echkimi yoki ikki qarich yermi? — dedi Boymahambet qizarib-bo'zarib.

— Mening boyligimning hisobini olmoqchimisan? Bilib qo'y, mening davlatim hali sening mol-mulking bilan ichak-chovog'ingni ham qo'shib sotib olishga yetadi! — tutoqib ketdi Qorovulxo'ja.

— Tilingni tiy! — deb qamchiniga yopishdi Boymahambet. U Oychuvoqxonning o'g'li, u bilan Jangirxon qam bunchalik tik so'zlasha olmasdi.

— Bu vaysaqi xo'janing tilini tiyib qo'ying! — dedi Boymahambetning orqasida turgan Aqan.

Xonning avzoyi buzilib, qo'lidagi oltin asosi bilan do'qillatib yerni urdi.

Hamma yana jim bo'ldi.

— Tinchlaninglar, ey oliynasab sultonlar, — dedi buyruq ohangida ulug' vazir keksa Sho'mbal, — qashqirni qo'ldan boy

berib, bir-biri bilan g'ajishadigan bo'ribosarlarga o'xshamanglar. Ittifoqlik — zafar kaliti. Aydali sulton bilan Quvonch sulton sizlarning qaysi biringizdan qo'rqoq edi? Har ikkalasi ham o'zim bo'lay deb, yakka-yakka harakat qilgan edi. Oqibat nima bo'ldi? Ajdodlarimizdan qolgan bir gap bor: makrni aqlning singlisi, deydilar. Yaxshi gapga ilon inidan chiqadi; yo'rig'ini topgan ajdahoga ham chap beradi, deydilar, Isatoy ulug' xonga noma yo'llabdi. Iltimosining o'lchovi, istagining cheki yo'q, talablari mantiqsiz. U muhtaram Boymahambet bilan Qorovulxo'jani qora xalq hukmiga topshirishni, ularning mol-holini, yer-suvini yalangoyoqlarga ulashib berishni talab etibdi, inchunun, u nobakor mo'tabar sultonlarni qonxo'r bo'ri, shafqatsiz yovuzlar, debdi... Shu boisdan ulug' xon noma yo'llab, uni huzuriga taklif qilmoqda. U bu yerga buzg'unchi qaroqchilarichi ergashtirmay, yolg'iz o'zi muzokara olib bormoq uchun kelishi kerak. Agar Isatoy kelgunday bo'lsa, biz uni qanday kutib olishni bilamiz, bordi-yu, kelmasa...

— Ixtiyori o'zida, kelmasa kelmay qo'ya qolsin, — dedi ulug' xon uning fikrini yakunlab. — Janobi general Perovskiy Orenburgdan askar yuborishga tayyor. Zambaraklar yo'lda, yaqin kunda kelib qoladi. Zarurat tug'ilib qolsa, Ashtarxondan Aliyev boshchiligida yana uch yuz askar yetib keladi. Muntazam qo'shin polkovniklari va kazak atamanlaridan Bizenov, Merkulov, Trofimov, Istominlarning bo'linmalari yordamga kelishga tayyor...

— Xonlikda sodir bo'lib turgan notinchlikka uzil-kesil zarba berish kerak! — dedi xon qo'lidagi aso bilan yerni do'qillatib.— Hadeb Mahambetni eshitaverish jonimga tegdi! — U g'azabini yashira olmasdi. Qo'lidagi asoni supaga irg'itib yubordi-da, hukmdorlik va kuch-quvvat belgisi bo'lmish cho'qmorni oldi. U chap qo'lini taxtning yondoridagi bezak — oltin arslonga qo'ydi.

— Ulug' hukmdorim, Mahambet sadqayi jahlingiz ketsin, unga arzimaydi, — dedi tilyog'lamalik qilib Sho'mbal. — Fuqaroga jar solinglar, — deb murojaat qildi u sultonlarga qarab. — Buyuk va mashhur Bo'keyning ulug' zurriyodi, yer va yaylovlari Yoyiqdan to Edil daryosiga borib taqalgan. Ichki o'rdaning hukmdori Jangirxon Isatoyni xoh tiriklay, xoh jasadini keltirgan odamga besh yuz oltin tanga in'om etadilar. Isyonkorning butun boyligi va chorvasi ham

o‘sha kishiniki bo‘ladi... — Sho‘mbal so‘zini tugatib ulgurmadi. Eshik lang ochildi, soqchilar chetlab, yo‘l bo‘shatdilar, saroyga xon ayg‘oqchilarining boshlig‘i kirib keldi va taxt qarshisida yer o‘pib dedi:

— Isyonkorlar biz tomonga ot solib kelmoqda. Ularni Isatoy bilan Mahambet boshlab kelmoqda!

Sultonlar o‘rinlaridan sakrab turib ketdilar. Faqat qari Sho‘mbal bilan Boymahambetgina joylaridan qo‘zg‘almadilar.

— Hozir qayerda ular? — deb so‘radi Jangir.

— Yuz chaqirimcha narida, onhazrat.

— Yo‘qol ko‘zimdan! Ortiq hech kim kiritilmasin! — deb baqirdi xon. Uni xotirjamlik tark etganini sultonlar payqab turishardi. Xizmatkorlar ohista yurib, qimiz tuta boshladilar. Hamma jimgina joy-joyiga o‘tirdi.

— Alloh-taoloning inoyati bu, — dedi Sho‘mbal tinchlikni buzib. — Endi, Isatoyning talablari qanoatlantiriladi.

Sultonlar taajjubda vaziri a’zamga, keyin xonning avzoyiga qaradilar. Xon ham uning so‘zidan taajjubda edi.

— Uning talablari qondiriladi, u farmoni oliy oladi... Lekin o‘n kundan keyin. Hukmdorim, ushbu damda esa sustkashlik to‘g‘ri kelmaydi. Zudlik bilan ular istiqbolga elchi yubormoq va ularni to‘xtatib turmoq lozim. Ayni chog‘da Orenburgga, general Perovskiyga, podshoh atamanlariga, kazaklarga, Yoyiq hamda Edil bo‘ylaridagi barcha rus istehkomlariga chopar yubormoq darkor, ana unda o‘ninchi kuni birgalikda isyonchilar mag‘lub etilgay... Hozircha esa farmoni oliyni kuta tursinlar. Muhtaram oqsoqollar Eske bilan Nodirdan iltimosimiz shuki, ular bugunoq tunda Isatoyning qarorgohiga yetib borsinlar va Asov botirga hukmdorimiz Sariqamishko‘l bo‘yidagi yaylovni in’om etganini xabar qilsinlar, so‘ngra ishonchli kishilar orqali Isatoy qarorgohida yuz berayotgan barcha gaplardan bizni boxabar etib tursinlar...

Xon bir og‘iz ham so‘z aytmay, cho‘qmorini ko‘tardi. Uning dilidagi ayni muddaoni Sho‘mbal aytgan edi. Xonning yuzida tabassum paydo bo‘ldi, u o‘rnidan turdi. Sultonlar ham ichib o‘tirgan qimizlarini qoldirib, shosha-pisha qo‘zg‘alib, qo‘l qovushtirgancha yo‘l berdilar unga.

Jangir chiqib ketdi. U Zulqarnay bilan Fotimaxonim huzurida xonni kutayotgan general-gubernatorning shaxsiy elchisi polkovnik Gekke janoblari bilan uchrashishga shoshilardi...

...Atrof jimjit, ahyon-ahyonda daydi itlargina g'ingshib, ulib qo'yadi-da, yana sukunat chulg'ab oladi borliqni. Uzundan uzun, zim-ziyo, zerikarli kuz tuni. Odamlarning ko'ngli g'ash, xavotirda. Faqat ulargina emas, hatto otlar ham notinch, asov ayg'irlarning sho'xchan pishqirishi-yu biyalarning kishnashlari eshitilmaydi. Ular qorong'ilik qo'ynidagi tiq etgan sharpadan bezovtalanib yer tepinadi. Faqat tepsa-tebranmas tuyalargina har qachongiday tinch. Ular yozin-qishin, ozmi-ko'pmi, imkoni bo'ldi deguncha, parvo qilmay dam olaveradi. Mana, hozir ham ular xuddi katta-katta xarsangday yalpayib yotibdi. Ular na qo'zg'alishni, na o'rinlaridan turishni va na birovga yo'l berishni biladi. Miltillab turgan ko'zlari bo'lmaganda, tinimsiz chapillatib kavsh qaytarmaganlarida Mahambet ularni payqamagan ham bo'lardi.

Oysiz, zim-ziyo tun. Yulduzlar ham qora bulutlar orqasiga yashirinib olgan. Havo salqin, yer zax. Samo-yu zamin tutashib ketganday qop-qora. Faqatgina bir me'yordagi g'ovur va voha-yu adirda yonayotgan gulxanlar shu'lasi, ulardan taralgan tutun isi bu dashtga jon baxsh etib, bu yerda allaqanday bezovtalik hukm surayotganidan darak berib turardi.

Mahambet hozirgina Isatoyning chodiridan chiqdi. U qancha urinmasin, baribir botirni xon o'rdasiga to'satdan hujum qilishga ko'ndirolmadi. Isatoy Jangirning javobini kutarmish.

— Xon mulohaza yuritib, o'ylab ko'rishga o'n kun muhlat so'rabdi. Men kutib turishga va'da berdim va uni aslo buzmayman, — dedi Mahambetga Isatoy.

Isatoyning kutib o'tirishi behuda edi: Jangirxon hech qachon jangsiz taslim bo'lmaydi...

Mahambet Jangirxon bilan urishib qolganiga va Jantas bilan birga sho'mekeylik kambag'al oqsoqollarni himoyasiga olib, Jasqusning yashil yaylovidan qochib ketganiga ham, mana, yetti yil to'ldi. Xuddi hozirgiday zim-ziyo tunda Xivadan yo'lga chiqib, kuzgi yog'in-yashinga qaramasdan, kimsasiz cho'l-biyobonlarni

bosib Yoyiq daryosi yoqasidagi ona elga yetib kelganiga ham bir yil bo'lib qolibdi.

Ular daryodan qorong'i tunda, xuddi o'g'riday, yashirin o'tgan edilar. O'shanda ilgari Bo'keyning, keyin o'g'li Jangirning iltimosiga binoan, rus podshohining farmoni oliylari bilan Ichki o'rdani Rossiyadan emas, o'z ona yurti Kichik juz bilan O'rta juzdan ajratib, qo'riqlab turadigan muntazam qo'shinlar, kazak otradlari qo'liga tushib qolishdan ehtiyot bo'lishgan edi. Shoir Munisni, latofatli Nurbolni yodiga solgan indamas To'ke bilan yana uchrashganiga bir oy bo'libdi.

U Xivada yashab turganida o'zi tug'ilib o'sgan ovulini, qir-adirlarni, Norinqumni, xushbo'y giyohlarni, Yoyiqni sog'ingan, ularni qo'msagan, Edilning shovullab oqishini, sevikli Maqbolini bir ko'rishni orzu qilgan, Isatoyga yetishishga, Jangirxonga qarshi urush boshlashga shoshilgan, bu jangni, xonni yiqitishni yillar davomida orziqib kutgan bo'lsa, bugungi tunda miyasiga qo'qqisdan, zafar qozonolmaymiz, butun o'tmishim og'ir tush, kelajak esa qorong'i, degan xayol keldi. Nima bo'lyapti o'zi? Yoki ko'ngli sezyaptimi buni? Yo charchaganmikin? Nima bo'lsa bo'lar. Bu vohaga to'plangan va Jangirxonning el hukmi-irodasini bajarishini kutib turgan xalqni yengish oson bo'lmaydi. Xon zolim Qorovulxo'ja bilan Boymahambet sultonlarni xalq qo'liga topshirishi, ular tortib olgan yerlarni xalqqa qaytarib berishi lozim...

Mahambet ertangi kunni o'ylamaslikka, o'tmishni eslashga, ko'ngliga taskin berib, biroz halovat topishga harakat qilardi...

U Nurbolning ayanchli taqdirini o'ylar, Munisni sog'inardi.

Qani edi, ushbu damda oqil maslahatgo'y va fozil suhbatdosh Munis yonida bo'lsa. Lekin bu urush-janjallarning Munisga qanday daxli bor? Xivada uchrashib turgan kezlaridayoq uning sermulohaza ekanini anglab olgan edi... Ammo Munis hozir olisda...

Mahambet Xivadan ketganidan beri, uni birinchi marta bundan bir oy burun, kapitan Shustikov bilan uchrashib qolganida eslagandi.

To'g'ri, kapitan Munis o'rnini bosa olmasdi, albatta. Biroq u ham xuddi Munis kabi samimiy edi. Uning to'g'riso'zligi, shaddodligi odamning g'ashiga tegardi ba'zan.

— Men soldatman, buyruqni bajaraman, — dedi takror Shustikov, Mahambet Qiyshiqto'ra lashkarini yengib, To'ke bilan uchrashgan ovuldan chiqib ketayotganlarida.

— Meni o'ldirasanmi, bo'shatib yuborasanmi, ixtiyoring. Oyog'ingga yiqilib yalinmayman. Shuni bilib qo'y, xonni yenga olmaysizlar. Isatoy bilan xalqni bekorga halokatga olib boryapsizlar. Pugachov rus podshosini yiqita olmaganiday, sizlar ham hech narsa qilolmaysizlar. Negaki, Nikolay podshoh uning tarafida, rus quroli sizlarga qaratiladi va Jangirxon sizlarni tor-mor etadi. Esingdami, senga Orenburgda bizning, generalimiz sizlarning muftiylaring bilan do'st ekanligini aytgan edim.

— Qo'rqitmoqchiga o'xshaysan-a, — deb kuldi Mahambet.

— Buning hojati yo'q! Axir, men sening qo'lingdaman-ku. Yashashning o'zi xatarli bo'lganidan keyin nimadan ham qo'rqitaman. Men ham senga o'xshagan Volga bo'yidanman. Faqat men daryoning u qirgog'idan, sen bo'lsang bu qirg'og'idansan. Sizlar uni Edil deb ataysizlar, biz esa uni Volga deymiz. Qadim vaqtlardan beri yo'limiz ham bir. Ikkalamizsiz ham xalq ozmuncha qirilmadi, bizsiz ham jallodlar yetib-ortib yotibdi...

— Men sultonlar va xonlarning jallodiman. Xalq hukmi — qonun menga. Kamondan uzilgan o'qni to u dushman ko'ksiga qadalmagunicha yoki nishonga tegmay dashtda g'oyib bo'lmagunicha uchishdan to'xtatib bo'lmaydi. Merganlik — kuch-quvvatga, kishi ruhi-e'tiqodining mustahkamligi hamda ishonchga bog'liq, — dedi Mahambet uning so'zini bo'lib.

— Bordi-yu, yov hiylakor, kuchli va shafqatsiz bo'lsa, otgan o'qing zarba bera olmasa-chi? — deb so'radi kapitan.

— Xalqning sabr-kosasi singan, u endi jang qilibgina xumordan chiqishi mumkin. Qullar jangga kirgandagina o'zlarini ozod his etadilar. Yengsak-da, yengilib, jangda yer tishlab qolsak-da, baribir, hech kim bizning or-nomusimizni toptolmaydi, — dedi uning so'zini bo'lib Mahambet. — Sen Qo'blandi botir haqida eshitganmisan? Bundan ming yil muqaddam yashagan, u o'sha zamonlardayoq xonlarga bosh egmagan, bizga ham shuni vasiyat qilib qoldirgan... Dasht udumida elni siylaganni el siylaydi, deydilar. Oblayxon, umrning shirinligini faqat jangdagina his etasan,

degan. Sen bo'lsang hayotni qo'rqinchli deysan. Unday desang, yo'lingdan qolma, bor, unda bizlar bilan emas, hayot bilan jang qilaver. Ana, soldatlaring, ularni ham olib ket, lekin o'z taqdiringga iltijo qilki, toki yana jang maydonida ro'para kelmaylik.

Mahambet shu so'zlarni aytib, Shustikovni bo'shatib yubordi.

Kapitan Mahambet bilan xayrlasha turib, peterburglik yozuvchi, qandaydir ish bilan Orenburgga kelib qolgan, hozirgi kunda general-gubernator huzurida maxsus ishlar bo'yicha amaldor bo'lib xizmat qilayotgan janob Dal-Luganskiyning uni surishtirganini aytdi. Unga, ayniqsa, bersh urug'ining oqini sifatida qiziqayotganmish.

— U, Peterburgda uchrashganlaringni ham gapirib bergan edi, — dedi Shustikov.

Mahambet Peterburgda kim bilan uchrashganini o'ziga qiziqayotgan bu kimsaning kim ekanini eslashga urinib, uzoq bosh qotirdi. Oxiri Luganskiy bilan uchrashganini va u bilan bo'lgan suhbatni yodiga tushirdi-da, bu to'g'rida Isatoyga so'zlab berdi.

Keyinroq, sarbozlar Ichki o'rdaga Jangir xon bo'lib qoladimi yo yo'qmi, bu masalani hal etishga aralashmaslikni, qurolni ishga solmaslikni so'rab general-gubernatorga noma yo'llayotganlarida jiydalilik Sarmon ham "Orenburgda Vladimir Ivanovich ismli olim, janobi Dal, adolatparvar kishi borligini" eslagan edi.

Shunda nomani gubernator qo'liga yetkazish iltimosi bilan Sarmonni Luganskiy huzuriga yuborishga qaror qilindi.

Jangirxonga ham ikkinchi marta maktub yo'llandi.

Mahambet ikkala xatga ham imzo chekmadi.

— Dushmanni chopmasang o'zing chopilasan! Kutib o'tiradigan vaqt emas hozir, shamshirlarni zang bosib, tig'lar o'tmaslashib qolmoqda! Bir yerda turib qolganimizga sarbozlar tushina olmayaptilar! — dedi Mahambet Isatoyga birinchi bor terslik qilib.

— Mahambet, qiziqqonlik qilma, — dedi unga javoban Isatoy. — Mana, bir hafta ham o'tdi. Atigi uch kun qoldi. Qozoqda qirqiga chidagan, qirq biriga ham chidaydi, degan gap bor...

Kengashga to'plangan oqsoqollar Isatoyni qo'llab gapirdilar. Lekin u bu gaplarga quloq solmayotganday edi. Oqsoqollarning

qo'llab-quvvatlashlaridan xursand ekani va bu unga dalda berayotgani zarracha sezilmasdi. U o'ychan qiyofada allaqayoqlarga tikilganicha:

— Mening ham jang qilgim, xumordan chiqqim keladi, Mahambet, — dedi ohistagina.

— Isaka, qiziqqonlik oqinlarga xos odat, botirning ulug'vorligi esa uning sabr-toqatliligi hamda g'azab-nafratini jilovlay olishidadir, — deya gapga aralashdi bersh urug'ining oqsoqollaridan biri bo'lgan Nodir xushomadgo'ylik bilan.

— Hoy Nodir! Kutamiz dedim, kutamiz! Yoki quloqdan qolganmisan? — dedi Isatoy jahli chiqib.

Mahambet Isatoyning Qiyali-Qiyg'ochda Qorovulxo'ja sulton ustidan g'alaba qozonilgandan keyin o'z yigitlari bilan kelib qo'shilgan oqsoqollarga unchalik ishonmasligini sezib o'tirardi. Davlatmand olosh urug'iga mansub bo'lgan oqsoqollarga, ayniqsa, sergaklik bilan qarardi. Xo'sh, unda bularning so'zlariga ne boisdan quloq solyapti? Gaplariga quloq solgani mayli-ya, nega ularning aytganini qilyapti?

Basharti Isatoy emas, boshqa birov shunday qilganida, Mahambet undan umidini uzib, qo'lini siltardi-da, yigitlarni allaqachonoq Jasqusga boshlab borib, xon saroyini tor-mor qilardi, Jangirni ot dumiga bog'lab, ovulma-ovul sazoyi qilar, undan jabr ko'rgan har bir jabrdiydaning o'ch olishiga qo'yib berardi...

Qani endi Jangirning saroyida sodir bo'layotgan voqealardan xabar topsa? Xon saroyi qo'l cho'zsa yetguday yaqin joyda-ku, axir.

Negadir muzokara olib borgani ketgan yigitlar shu vaqtgacha qaytmayaptilar. Aloqachi To'kedan ham darak yo'q. Ketganicha g'oyib bo'ldi. Eqtimol, bechora cholni ushlab olib, Jangir shu topda uni mazax qilib, tahqirlayotgandir?

"Yo'q, To'keni qo'lga tushirib bo'lmaydi. U qaytib keladi, — deb o'ylardi Mahambet. Xon hozir o'zining momiq to'shagida, go'zal Fotimasi bilan ishratdadir...

Yo'q, Jangirning hozir bunga vaqti yo'q. Buning ustiga, Fotima ham Mahambetni o'ylamasligi mumkin emas.

Jasqus ham hozir tahlikada yashayotgandir, ehtimol, u yerga general Perovskiyning polklari yetib kelib joylashib ham olgandir..."

Bundan bir hafta muqaddam Toshtepada bo'lib o'tgan katta qurultoyda Isatoy botirni sarbozlar o'zlarining sardorlari etib sayladilar. Uning buyrug'iga binoan, xotinlarini, bolalarini tashlab, Jasqusga, Jangirxonga o'z talabnomalarini topshirishga yo'l olganlarida oldilaridan xon vazirlaridan biri — Oltoy Do'smagambet o'g'li chiqqan edi. Uning ham, uni qo'riqlab kelayotgan yuzlik navkarlarining ham yuzlari devorday oqarib ketgan edi.

— Men Do'smag'ambetning o'g'li, Oltoy sulton bo'laman, arslonday qo'rqmas botir, sening qarshingda bosh egaman, — deb gap boshladi u vodiyda to'plangan Isatoy sarbozlariga alanglab qolarkan. — Hukmdor hazratlari salom yo'lladi senga. U meni istiqbolingga yo'lladi. Men, ey Isatoy, sen bilan hukmdor nomidan muzokara olib borishga da'vat etilganman.

Sarbozlaringni to'xtat, muqaddas taxtni qonga bo'yama. Xon hazratlari istak va talablaringni tinglab, bilib kelmoq uchun meni huzuringga yubordi. Jangirxon fikrlab ko'rmoq uchun o'n kun muhlat so'rayapti. O'n kun ichida u barcha talablaringni atroflicha muhokama qiladi va o'zi shu yerga kelib, javobini beradi. Ilohi, qilich damidan aql ustun kelgay.

Isatoy o'ylanib qoldi. Oqsoqollar xonning iltimosini qabul qilish kerak deyishdi.

Oltoy sulton javob kutardi.

— Otlar olg'a yurishni xohlayapti, tizginni tortma, botir... — degan edi o'shanda Mahambet Isatoyning qulog'iga sekingina.

— Ot boshini qo'yib yuborilsa, qilichlar ham qinidan chiqariladi, yana qon to'kiladi. Qancha-qancha xon-u sultonlar janglarda halok bo'lmagan deysan?! Bizdan ilgariroq buyuk Sirim kurashdi. U Yesimxonning boshini o'z qo'li bilan olgan edi. Lekin biror o'zgarish ro'y berdimi? — keyin Isatoy Oltoyga murojaat qilib, qat'iy dedi: — Biz rozimiz. Lekin, talablarimizni bajarmasa, o'ninchi kuni tongotardayoq yo'lga tushamiz, ana unda barini qilich hal etadi!..

Yettinchi kecha. Zimiston qorong'i! Ehtimol, bugungi kecha o'tgan tunlar singari oydin va seryulduz bo'lmagani, adir bag'riga joylashgan sarbozlar yoqqan yuzlab gulxanlar ko'rinmayotganidan shunday tuyulayotganmikin?! Darhaqiqat, bugun oy ham, yulduzlar ham ko'rinmaydi, sarbozlar gulxani ham siyraklashib qolgan; buning ustiga, miltillabgina chaliṇadi ko'zga.

Samo-yu zaminni, butun borliqni zulmat chulg'ab olgan, ko'ngilni g'ash qiladigan sukunat hukm surardi.

Mahambetning beixtiyor xayoli bo'lindi, qorong'ilik ichida qulog'iga minglab kishilarning shivirlashib gaplashayotgani chalindi. Odamlar hali uxlashmagan, ular o'cha boshlagan gulxanlar atrofida g'uj bo'lib o'tirishardi. Uzoqdagi buloq boshida kimdir do'mbira chalib, kimningdir o'lanlarini kuylardi, lekin shabada o'lanni Mahambet tomonga emas, teskari tarafga uchirib ketardi.

Dastlabki uch kun poyga, mashq hamda o'yin-kulgi bilan tez o'tdi; lekin keyin shovqin-suron tindi, odamlar asta-sekin bezovtalanib, sergak tortib qoldilar. Sarbozlar endi o'ychan bo'lib qoldilar, hatto qisqa kuz kunlari ham jangni kutayotgan sarbozlar nazarida yilday uzun tuyula boshladi.

Bir hafta burun sarbozlar istalgan daqiqada jangga kirishga shay edilar, ularni intiqom ishtiyoqi olg'a undar, bir hamla bilan sulton-u xonlarning chodirlarini to'ntarib tashlashni, bir lahza bo'lsa-da o'z kuchlari, g'ayratlari, jasoratlari samarasi — g'alaba nashidasini surmoqni istar edilar. Ularning orzu-umidlari mana shundan iborat edi.

Lekin hozir, olti kunlik kutishdan keyin, aftidan, odamlar qalbida lovullab turgan o't so'nib qolganday, bugungi qorong'i kuz tuni kabi g'amgin, miltillayotgan gulxan shu'lasi singari xira bo'lib qolganday edi.

Yoki sarbozlar yoz bo'yi davom etgan janglarda qatnashaverib madordan qoldilarmikin-a? Yoki yigitlar uzoq fursat birga bo'lib, o'lan aytishda, poygada, jangda g'oliblar aniqlanib, tortishuvlar barham topgach, qarorgoh tinchib qoldimikin? Jiydalilik Qurmong'ozining eng oldi do'mbirachi ekanligiga, g'alayonchi yigitlar orasida eng kuchli oqin Sherniyoz ekanligiga, kuch bobida esa

Isatoyning yaqin do'sti devsifat Qoldiboy ekanligiga va No'yondan o'tkir mergan yo'q ekanligiga endi hech kim shubha qilmasdi...

Mahambet yuragiga qutqu solgan bezovtalikni quvmoqlik uchun bu kecha sarbozlarning xomushligini, o'z ko'nglidagi g'ashlik va tashvishni oqlaydigan ozmuncha sabab-u bahonani izlamadi, deysiz. Xuddi aksiga olganday, yana Peterburg, isyonkor ofitserlarning yengilganidan xabar berib, Senat maydonida yangragan zambarak sadolari yodiga tushdi... Isatoyning Sirim botir to'g'risida aytganlarini, esladi...

Rus ofitserlar xalqni podshoga qarshi ko'tara olmadilar. Sirim botir ham bundan qirq yil muqaddam xuddi Isatoy bilan Mahambetga o'xshab xonga qarshi chiqqan edi. Sirim Yesimxonni o'ldirib, taxt-u tojini yakson qilgandi. U Yesimxonni zolimligi uchun jazosini berib, xalqi to'kkan ko'zyoshlar qasdini olgandi. Lekin xalq bundan biror manfaat ko'rdimi? Xo'sh, xalqni faqat qasd olmoqlik uchungina qo'zg'otiladimi?

Sirim halok bo'lgandan keyin sulton va xonlar beshbattar quturib ketdilar. Najot qayda, nimada? Nahotki Mahambetning behisob o'lanlari, shuncha yillik kurashi hamma-hammasi zoye ketsa, hech qanday nafi bo'lmasa?

Bu to'g'rida oldinroq, Xivada yurgan kezlarida o'ylagani va Nurbol yoki Maqbolni olib, Sariorqaning bir chekkasida, o'tmishdagi botirlar haqida o'lanlar to'qib, tinchgina hayot kechirgani yaxshi emasmidi?

Mahambet bu noxush xotiralardan qutulish maqsadida uzuqyuluq o'lan va do'mbira sadolari eshitilayotgan tomonga yurdi. U bir o'tovdan aylanib o'tayotib, so'nib qolgan gulxan yonida yonboshlab yotgan Zarboy yuzligidagi kamonchilarga ko'zi tushdi.

— Xon bizning talablarimizni bajaradi, yo'qsa, uning jazosini beramiz, keyin ovulimiz yana Yoyiq sohillaridagi o'rmonzorlarga ko'chib boradi, oldingi yaylovlarga yana ega bo'lamiz, — deya gapirardi yoshgina sarboz. Mahambet beixtiyor qadamini sekinlatib, quloq sola boshladi.

— E-e, bolam. Sen ham hali qo'lida yo'q biyaning tug'ilmagan qulunini yo'rg'alatib minmoqchi bo'lgan bechora gadoga o'x-

shaysan-a... — dedi uning so'zini bo'lib, g'amgin kulgi aralash bir keksa jangchi. — Kel, yaxshisi uxlab olaylik, uyqudan yaxshiroq baxt qayoqda bizga. Jang paytida-yu uyqudagina o'zimizni erkin his etamiz, xolos. Qolgan vaqt esa Odam ato zamonidan beri og'ir kechib kelgan. Burnog'i yili yut bo'lgan edi, bu yil bo'lsa, butun Norinqum qip-qizil qonga belandi, Yoyiq bilan Edil suvi ko'z yoshlaridan achchiq va sho'r bo'lib oqmoqda. Ohimiz Xudoyimga yetib bormayapti, u unsizgina o'z hukmini hozirlayapti. Peshanamizga bitilganini ko'ramiz: ehtimol, bizni tonggacha qalin qor ko'mib qolar, balki, ayoz va bo'ron bizni och bo'rilarday quvib solar. Balki, dahshatli jang boshlanib, qaynoq qonimizga belanib, arshi a'loga jo'narmiz. Baribir emasmi, bu foniy dunyoda o'lmaydigan biror kimsa bormi o'zi?! Kulgi ham, qayg'u ham bir xil bo'ladi, ko'zingga yosh keltiradi. Kulsang, ko'ngling yorishadi, yig'lasang, xumordan chiqasan. Lekin hammasidan ham uyqu yaxshi. Dam olasan. Kelinglar, mizg'ib olamiz, gulxanga tezak bilan ildiz tashlab qo'yinglar...

— To'rang'i ildizdan oz qolibdi, uni ertalabga olib qo'yamiz, — dedi yosh jangchi esnoq aralash, choponiga yaxshiroq o'ranib olarkan. Gulxandan ko'tarilgan alanga shu'lasi uning yuzini yoritdi. U hali murti chiqmagan, yosh oqin Sherniyozga o'xshardi. Mahambet sharpa chiqarmay, o'lan eshitilayotgan tomonga yurdi.

Shu payt uning xayoliga bu yerdan ancha uzoqda, Terakliko'lda bir to'da bolalar qurshovida g'ujanak bo'lib yotgan Maqbol keldi. U Mahambet o'toviga qadam qo'ygandan beri na huzur-halovat, na baxt va quvonch nimaligini bildi.

Oqin xayolga berilib ketganidan yonida Jantas paydo bo'lganini ham payqamay qoldi. U cho'chib tushdi.

— Jantas, bugun qo'riqchilikda kimlar turibdi? — deb so'radi u.

— Biz tomonda Bolabekning yigitlari, — deb javob berdi Jantas. — Isatoy tomonda Qoldiboyning yuzligidagi yigitlar. Hamma yerda osoyishtalik. To'ke qaytib keldimi?

— Yo'q hali, — javob berdi Mahambet. — Qurmong'ozi bilan Sherniyoz qayerda?

— Ular sening chodiringda. Sherniyoz sarbozlarga atab o'lan to'qibdi, u seni kutyapti, eshitib ko'rarmishsan. Qurmong'ozi o'z do'mbirachilari bilan ertangi jang haqidagi kuyini ijo etishga hozirlik ko'rmoqda. Sarbozlarning chigilini yozib qo'ymasak bo'lmaydi. Bo'lmasa, azaga kelganday zerikarli, — deya o'rinsiz hazil qildi Jantas. — Men Qurmong'ozini ham Sherniyozni ham eshitdim. Ular yaratgan o'lan va kuy xuddi sehrliga o'xshaydi, quloq solsang eting jimirlashib, qo'ling beixtiyor qilichga cho'zilganini bilmay qolasan. Jasqusga yurishni qachon boshlaymiz?

— Kutish kerak! Isatoy kutishni buyurgan, — dedi achchig'i kelib Mahambet va qo'lidagi qamchisi bilan oldida qorayib turgan narsani tushirib qoldi. Bu it ekan, angillab tashlangan edi, Jantas uni tepib yubordi. Mahambetning chodiri yonidagi otlar kishnab, cho'kib yotgan tuyalar o'rinlaridan qo'zg'alib qoldi.

— Hoy, kim bu?! — deya o'tovdan Mahambetning ikki inisi — Isa bilan Musa yugurib chiqdilar. Kimdir qo'r bosib qolgan gulxanga cho'p tashladi. Gulxan lovullab, uning shu'lasida sarbozlarning yuzi aniq ko'rindi. Mahambetning inilari ketidan Qurmong'ozi bilan Sherniyoz ham tashqariga chiqdilar.

— Ho, sezgirliklarini qarang-a! Yo qo'rqib ketganlaringdan yugurib chiqdinglarmi? Nega uxlamayapsizlar? — dedi Jantas.

— Uxlab bo'ladimi?.. Mahambet og'a, yana qancha kutamiz? — deb so'radi Sherniyoz.

Mahambet bunday ta'nali so'roqlarni xotirjam eshitolmasa-da, sir boy bermay, sabr qilishga harakat qilardi.

— Shoshma-shosharlik va qiziqqonlik hamisha foyda keltiravermaydi, inim, — deb javob berdi u.

— Demak, hanuz javob yo'q, biror qarorga ham kelinmagan, — dedi Qurmong'ozi. — Men och qoplonga o'xshayman, do'mbirani qilichga almashsam deyman.

— Bugun Isatoy uchinchi marta Jangirxon hamda polkovnik Gekkening elchilari bilan uchrashuvga borib keldi. Elchilar javobni shartnoma muddati bitgan kuni olasizlar degan emish. Yana uch kun qoldi.

Gulxan boshiga Ersari bilan No'yon keldi. Ularning ketidan Ashtarxon atrofidan kelib qo'zg'olonchilarga qo'shilgan yigitlari

bilan Stepan ko'rindi; Zarboy ham ko'rindi. Yaqindagi chayla, chodir va o'tovlardan odamlar chiqib, Mahambetning atrofiga to'plana boshladilar. Hali hech kim uxlamagan ekan.

— Mahambet, kechirasan-u, menga negadir mana shu kutib o'tirish yoqmayapti, — dedi Ersari. — Yana uch kundan keyin xon bizga: "Yo'qollaring bu yerdan!" deguday bo'lsa, unda nima qilamiz?

— Unda qilichni ishga solamiz,— dedi jilmayib Sherniyoz. Ersari Sherniyozga qarab kulib qo'ydi.

— Sen oqinsan, bolam. Buning ustiga, hali yoshsan. Qilich bilan cho'qmor senga hali og'irlik qiladi. Xalqing uchun qiliching zarbasidan so'zing zarurroq. Jang maydoniga biz, mana bu Mahambet bilan birga chiqamiz, o'lganimizdan keyin esa bizga atab marsiyani sen yozasan.

— Sherniyoz, xafa bo'lma, — dedi Mahambet Ersarining so'zlarini ma'qullar ekan, — tong bilan sen Terakliko'lga otlan, bizni o'sha yerda kut. O'sha yerda bo'l, qariyalar bilan bolalarga yordam ber. O'tkir so'z va yaxshi o'lan odamlarga hamisha zarur narsa. Ba'zi-ba'zida o'zim ham qilich bilan dubulg'ani yaylovga uloqtirib, otimni yaydoq qo'yib yuborib, yilqi uyurlari tinchgina o'tlab yurgan keng dalada chalqancha yotgim keladi, yer-u osmon, maysa-giyoh, tog'-u toshlarning shivirini tinglasam deyman...

Hamma jim.

— Ersari og'a, — dedi Sherniyoz. — Siz boya meni yoshsan, dedingiz. Xon avlodini bo'lsa o'n yoshligida ham taxtga o'tqazishadi. Men yigirma yoshga kirdim, qani, kim kuch sinashib ko'radi men bilan. Yo'lbars bolasini mushuk, g'o'nonni esa hech qachon qulun demaydilar. — Yosh oqinning ovozidan na izza bo'lganini, na o'pkalanayotganini bilib bo'lardi. Mahambet uning so'ziga qoyil qoldi. Gulxan atrofida o'tirganlarning barchasi bir daqiqaga bo'lsada, o'z g'amini unutgan edi. Shu damda Sherniyoz hammaga yoqib qoldi. Ozg'in va nimjon Sherniyoz gulxan shu'lasida hozir baquvvat hamda barvastaday ko'rinardi.

Ersari Sherniyozga javob qaytarishga ulgura olmadi. To'satdan adirning bir chekkasidan, uzoqdagi qum barxanlari orqasidan etni jimirlatuvchi, yurakka muzdek nashtarday sanchiluvchi hayqiriq

eshitildi. Qarorgohda to'xtalgan birinchi kuniyoq yengil-yelpigina qurilgan kuzatuv minoralari ustida gulxan alangalari ko'rindi.

"Otlaninglar! Otlaninglar!" — degan tovush yangradi qorong'ilikda. Hamma yoqda mash'alalar — uzun tayoqlar uchiga bog'langan xas-cho'plar gurullab yona boshladi, qayerdadir pala-partish, zarb bilan chalingan nog'ora gumburlar, yilqilar kishnar, tuyalar esa yotgan joylaridan erinib qo'zg'ala boshladilar. Tun chodrasiga burkangan qarorgoh oyoqqa turdi. Adir ichi yulduz kabi mash'alaga to'lib ketdi...

Osmon yorishib, tonggi izg'irin esa boshlagan paytda qo'zg'olonchilar lashkari shay bo'lgan, barcha o'tov va chodirlar tuyalarga ortilib taxt qilib qo'yilgan edi.

Yilqilarni tungi yaylovga olib ketgan yigitlar ham qaytib kelishga ulgurgan edilar. Sarbozlar otlarini egarlab, buyruqni kutmayoq safga tizila boshladilar. Kutaverib odamlarning sabr-toqati tugagan, hamma xavotirga tushib qolgan edi.

Nayza va kamon bilan qurollangan sarbozlar zichlanib, tig'iz turibdilar, tonggi shafaqda dubulg'a, sovut-u qalqonlar yarqirab ko'rinadi. Miltiqli sarbozlar esa, otlarini o'ynatib, alohida saf tortganlar. Ular yaqinida quvlik-shumlikni bilmaydigan, soddadil adaylik yigitlar safi. Ular bilan yelkama-yelka Stepan boshliq ruslar yuzligi, bu jangchilar qisqa ov miltig'i, o'zlari qo'lbola qilib yasab olgan yoysimon qilich, qishloqlaridan ola kelgan oyboltalar bilan qurollangan. Bularning ko'pchiligi kansler Bezborodko bilan graf Yusupovning yerlaridan qochib kelgan krepostnoylar; Stepanning o'ziga o'xshash qochoq soldatlar, Kaspiydagi baliqchi-mujiklar edilar.

Sarbozlar Isatoyni kutib turardilar. Ularni endi hech kim, hatto Isatoyning o'zi ham otdan tushira olmas edi. Ular Isatoy bilan Mahambetning ketidan o'tga ham, suvga ham kirishga tayyor turardilar. Ushbu zimiston, sovuq kuz kechasi sovqotib, zerikib kutib yotishni istamas edilar. Sarbozlar g'oyatda asabiylashgan edilar.

— Isatoy namuncha imillayapti? Tunda baqirgan kim? Yurtni bezovta qilib oyoqqa turg'izgan kim edi? Nega nog'oraning uni o'chib qoldi? — deya hamma Isatoyning chodiri tomon ko'z tikib

turardi. Chodir yonida odamlar uymalashardilar. U yerda botirlar bahslashishyapti. Bahs nima to'g'rida borayotgan ekan?

Chap qanotdan, allaqayerdan hammani larzaga solgan dahshatli:

— Xiyonat! — degan nido yangraganda sarbozlarning limmo-lim to'lib turgan sabr kosalari to'kildi-qo'ydi.

— Xiyonat! Xiyonat! — degan ibora og'izdan og'izga ko'cha boshladi. — Bersh urug'i oqsoqollaridan Qiyshiq bilan Nodir xoinlik qilibdi. Ular qorovullikda turgan sherkeshlarni o'ldirib, uch yuz yigitni ergashtirib ketishibdi. Bershlar bizga xiyonat qilishdi!

— Hoy, tama bilan aday, shapirashti bilan kerderi urug'ining sarbozlari! Bershlarni o'z saflaringdan haydanglar. Jangga kirayotganlaringda ular otgan o'q orqalaringga qadalishi mumkin. Bershlarning oqsoqollari bizlarni sotishdi! Ular Jangirxon tomoniga o'tib ketishdi! — deb qichqirishardi chor atrofdan.

Kamonchilar, undan keyin nayzabardorlar saflarida parokandalik yuz berdi. Yuzboshilar g'azabga to'lgan sarbozlarga so'zlarini o'tkaza olmay qoldilar.

Sherkesh yigitlar boshqalardan ajradib chiqishdi-da:

— Qonga — qon, jonga — jon! Bizni jigarlarimizdan judo qilgan bershlarning gunohini kechira olmaymiz! — deb baqira boshladilar.

Yaqin yerdagi qum tepaligi ustida tovoqday tuyog'i bilan qum to'zg'itib, yo'rg'alab kelayotgan Isatoyning oti ko'rindi. Botirning yonida har qachongidek Mahambet, ketlaridan botir va oqinning eng sodiq do'stlari kelishardi.

— Mana, men bersh farzandi bo'laman! Har qanday jazoga tayyorman! — degan ovozi yangradi Isatoyning. Botirning oti naq sarbozlar qarshisida ko'kka sapchiguday gijinglardi.

— Bu ham bersh o'g'loni, — dedi Isatoy qo'lidagi cho'qmori bilan Mahambetni ko'rsatib. — Qoldiboy adaylik, Ersari bo'lsa — sart! Biz hammamiz ham huzuringizda turibmiz. Nodirni jazolashni istar ekansizlar, albatta, jazolaymiz. U faqat bershlarnigina ergashtirib ketgani yo'q. Bunda eng katta gunohkor mening o'zimman. Meni sardor qilib o'zlaring saylagansizlar. Sizlarni safarga

otlantirgan ham men bo'laman. Hukmlaringni aytaveringlar! Har qanday jazoga tayyorman!

Hatto otlar ham suvluqlarini chaynamay, jim bo'lib qoldi. Lekin jimlik uzoqqa bormadi, biroq ana shu daqiqaning o'zi ham cheksizday tuyuldi.

"Yuvoshdan yo'g'oni chiqar" — deydi qozoqda. Mana, bu yerda bir emas, butun bir qo'shin sukut saqlamoqda. Bularnnng hammasi ham kechagina Isatoyning ketidan Mahambetning o'lanini kuylab, orqa-oldiga qaramay, lovullab yonayotgan o't ichida jonini fido qilib yurishgan edi. Yana bir daqiqa o'tdi. Hech kim churq etmadi. Allakimning oti kishnadi, kimningdir qalqoni yerga tushib ketdi, uni nayzasining uchi bilan ilib olmoqchi bo'ldi. Esayotgan shabada botirlarning dubulg'asiga qadalgan ukparni yulqilamoqchi bo'lar, urug'lar tug'ini hilpiratardi.

Isatoyning to'pi ichidan bir sarboz oldinga chiqdi. Bu qariya Asov botir edi. Asov uy-joy, bola-chaqa qilmay, umrini doim ot ustida, darbadarlikda o'tkazgani bilan mag'rurlanardi. U, ko'pincha, ov bilan mashg'ul bo'lar, o'ziga merosga teggan ovullardan soliq yig'ib, sherkeshlarga hakamlik qilib yurardi. Lekin boylik, dunyo orttirishga qiziqmas, janglarda dong chiqarish, o'ziga yaqin odamlarga saxiylik qilish orqali obro' qozonishga tirishardi. Asov Jangirxonning do'sti ham bo'lgan. Bir vaqtlar u Mahambetni qo'lga tushirish, uni jazolash payiga ham tushgandi, lekin sarbozlarning Qiyali-Qiyg'ochdagi g'alabalarini ko'rganidan keyin ikki yuz yigitni boshlab kelib Isatoyga qo'shilgan edi.

— Men jangchiman, shu sababli bu jangda xalq tomonida bo'lishim kerak, — degan edi o'shanda u.

Isatoy ham, Mahambet ham uning o'tmishi haqida churq etib og'iz ochishmadi. Uning kelib chiqishi bilan ham hech kim qiziqmadi. Sarbozlar ham unga hurmat-izzat ko'rsatishdi.

— Botir, — deb Isatoyga murojaat qildi u. — Bizning barimiz ham bir onaning farzandlarimiz, hammamiz ham Xudoning qahriga uchragan qaqroq qozoq yerida tug'ilganmiz. Hozir birimiz ustidan ikkinchimiz qozilik qilib o'tiradigan zamon emas. Xalq ishonmagan kishisining ketidan ergashmaydi. Biz senga ishongan edik, le-

kin bugun ishonchimizga raxna tushdi. Mahambet senga: "Yovni chopmasang — o'zing chopilasan!" — degan edi. Bu yerga kelganimizga yetti kun bo'ldi. Bugun bizni yov chopa boshladi. Men o'z yigitlarimni olib ketaman!.. Hoy sherkesh va tama yigitlari, men bilan kelgan boshqa yigitlar, oldinga chiqinglar! Sizlarni bu yerga men boshlab kelgan edim, endi o'zim olib ketaman. Isatoy ham Jangir ham bizning ovullarga tega olmaydi!

Asov otiga qamchi bosdi. O'ng qanotda turgan sarbozlar unga ergashdilar. Yer larzaga kelganday bo'ldi. Joylarida qolganlarning otlari gijinglab, suvluqlarini chaynay boshladi. Yo'lga ravona bo'lgan yuzliklar otlari dupuri bu yerda qolgan sarbozlarning tovushi bilan aralashib ketdi.

Mahambet yuragi uzilganday, tomog'iga nimadir tiqilayotganday his etdi o'zini. Lekin u lom-mim demadi.

— Isatoy og'a, boshla bizni! — dedi kutilmaganda ovozi boricha Sherniyoz. Mahambet Isatoyning avzoyi buzilganini, ko'zida alamli o't chaqnaganini payqab turardi.

— Biz bugun qilichimizni qallob sotqinlar qoni bilan yuvamiz! Biz endi Jasqusga boramiz, xon va biylarning faryod chekib, fig'on chekishlarini o'z qulog'imiz bilan eshitamiz! — Isatoyning ovozi o'zgacha yangradi. Uning ovozi temir qo'ng'iroqday jaranglab chiqdi.

— Shoshilma, botir! Fursat ber, jangga kirish oldidan namoz o'qib olaylik, — dedi kamgap Nurali, Mahambet Xivadaligidayoq unga "gung" deb laqab qo'ygandi. — Bizni Xudo urib, tonggi namozni qazo qilib qo'ydik, endi bu gunohimizni jangga kirish oldidan yuvib olaylik. Bizni og'ir damlarda tashlab ketgan xoinlarni Xudoning o'zi jazolasin, omin!

Nurali boshlab o'zi otdan tushdi. Uning ketidan boshqalar ham shunday qildilar. Ular otlarini yetaklab adir bo'ylab tarqaldilar. Har birlari o'zlariga qulay joy tanlab, joynamoz o'rniga chakmonlarini yozdilar-da, qiblaga qarab sajdaga bosh qo'ydilar.

— Yo Alloh, shunday bo'lishini bilgandim, — dedi keksa Jaqip xo'rsinib va boshqalar qatoriga qo'shildi.

Mahambet adir bo'ylab tarqalib, namoz o'qiyotgan sarbozlarga tikilardi.

Sotqinlar bilan qancha odam ketganikin? Asov qanchasini ergashtirib ketganikin? Bu yerda qancha odam qoldiykin? Besh yuzmi? Yo'q, ko'proq. Bu torgina adir bag'ri masjidga o'xshab ketgan edi. Ha, butun dasht masjidga o'xshaydi. Ha, shu masjid quchog'ida odamlar Xudodan baxt tilaydilar, o'z muhabbatlariga erishadilar, ajal quchog'iga ham shu yerdan yo'l oladilar.

Shunday paytlar ham bo'ladiki, xon va podshohlar quturadi, bu masjid maydoni bechora xalq jasadlari bilan to'lib ketadi, qon bilan bo'yaladi.

Bu qanday zamondir — hasratli zamon!
Baxt qildi xiyonat — dilda g'am-armon...
Osmon-ku, ezmadi, u keng, yuksakdir,
Yorilib ketmadi ostimizda yer,
Iskanja emasdi beshigimiz ham...
Unda kim ayirdi birligimizdan?!

Sherniyoz qilichini yalang'ochlab, damining keskirligini tekshirib ko'rardi.

— Adayning atoqli botirlari to'g'risida o'lan yozib ber, ularni kuyga solib, do'mbirada ijro etaman, — dedi Qurmong'ozi unga yaqinlashib. — Men adaylar va qipchoqlar yuzligi bilan birga bo'laman. Ularning yigitlari jangga kirganlarida ham xushchaqchaqlikni qo'ldan bermaydilar.

— Qurmong'ozi, men ham sen bilan boraman, Isatoy og'a ruxsat berar. Yur, undan so'raymiz...

— To'kedan hamon xabar yo'q. Nodirning izidan quvib ketgan No'yonning yuzligi ham qaytib kelmayapti, — dedi Isatoy Mahambetga. — Sen haq eding. Kutish burgutgagina kuch bag'ishlaydi, odamlarda esa shubha, ishonchsizlik tug'diradi...

Qoldiboy o'z yigitlari bilan Isatoyning chodirini yig'ishtirmoqda edi. Zarboy boshchiligidagi jiydaliliklar o'q-dorilarning hisobini olib, miltiqlarga pilta tayyorlash bilan mashg'ul edilar, Stepan esa o'z yuzligini ko'zdan kechirardi.

Sarbozlar namozlarini o'qib bo'lib, yana otlariga mindilar. Ular tartib bilan safga tizildilar, har bir yuzlik ajralib turardi.

Mahambet bilan Isatoy baland tepa ustida, uzoq-uzoqlarga, Jasqusning haydalgan dalalari, bog'lari, yaylovlariga, Jangirxon saroyi bilan qal'asi tomonga tikilib turishardi.

— Vaqt g'animat! — dedi Mahambet Isatoyni shoshiltirib.

Isatoy uning gapini eshitmadi, U haybatli, ammo yuvosh tulporining tizginini tortib turganicha, allaqanday noxush o'ylarga berilgandi.

— To'ke qayda qoldi? Sarmonga nima bo'ldi? Biz yo'llagan maktub-chi, u general-gubernator qo'liga yetib bordimikan? — ovoz chiqarib o'ylardi Isatoy.

— Sarmonni kutishning hojati yo'q. Podshoh ham, general ham, xon ham o'zlarining javoblarini berib bo'lishdi. Tomog'imizga nayza sanchib, og'zimizga qo'rg'oshin quyishmoqchi! — dedi achchig'i chiqib Mahambet.

— Mahambet, biz ajal bilan betma-bet to'qnashmoqchimiz. Ikkovimiz bu odamlarni do'zax o'tiga boshlab boryapmiz. Undan qutulish qiyin. Jangir bizga nisbatan ayyorroq ekan. U kuch to'plab, mustahkamlanib olishga ulgurdi, — dedi sekingina Isatoy. — Sen Qurmong'ozi bilan Sherniyozni o'z yuzligingga qo'shib, orqaga qayt, onalar, xotinlar va norasida bolalarni himoyangga ol, ularni Jangirxonning ko'zidan olisroqqa — Yoyiqning narigi qirg'og'idagi Kichik juz bilan O'rta juzdagi og'a-inilarimiz huzuriga boshlab bor. Lekin yodingda bo'lsin — u yerlarda ham tinchlik yo'q. Katta juz yerida Kenesarixon haddidan oshayotganga o'xshaydi. Hozirgi kunda elimizda osoyishta joyning o'zi bo'lmasa kerak.

— Men orqaga qaytmayman. Yo'lim nihoyasiga yetmoqda. Vaqti kelib, qo'shiqning ham umri tugaydi, hamma qo'shiqning ham umri boqiy bo'lavermaydi, lekin shuni unutmaslik kerak, o'z qo'shig'ini oxirigacha kuylab o'lish sharafli...

— So'zim bitta, vassalom. Yuzligingni boshla-yu, xotin-xalajlar, bolalarni panohingga ol, ehtiyot qil. Ularning hayot qolishiga sen javobgarsan, — dedi Isatoy tovushini ko'tarib, Mahambetning gapirishiga yo'l bermay. U shartta otini burib, safda turganlar oldiga o'tdi-da, cho'qmorini baland ko'tardi.

— Ota-bobolarimizning arvohi madadkor bo'lsin! Qani ketdik... — deyishgagina ulgurdi Isatoy.

— Yigitlar, dahshat! Falokat! — degan ovoz eshitildi uzoqdagi kuzatuv minorasi tarafdan. Baqirib-chaqirib qochib kelayotgan No'yonning yigitlari ko'rindi. No'yonning o'zi eng oldinda uchib kelardi. U Isatoyning oldiga yetib kelgach, otini taqqa to'xtatdi. Uning rangi pag'a bo'lib ketgandi.

— Kecha oqshom polkovnik Merkulovning soldatlari bilan kazaklari Terakliko'lga qarab yo'l oldi... To'ke halok bo'ldi. Uni osishibdi. Barcha istehkom-qal'alardan, Orenburg va Ashtarxondan biz tomonga behisob qo'shin bostirib kelmoqda. Jasqus aylanasiga zambaraklar bilan o'rab olingan, qal'a ichkarisida generalning qo'shinlari turibdi, — sekin gapirganiga qaramay, No'yon aytgan so'zlar og'izdan og'izga o'tib, barcha sarbozlarning qulog'iga borib yetdi.

— Yo Alloh, onalarimizni, bola-chaqalarimizni o'zing saqla! Xudoning qahriga uchra, Jangirxon, go'shtlaring quzg'unlarga yem bo'lsin, sultonlar! Bola-chaqalarimizni zambaraklarga yem bo'lishdan saqlab qolishimiz kerak! — dedi nola chekib allakim.

Nayza va dubulg'alar chayqaldi, sarbozlar otlarini orqaga bura boshladilar. Jangirxonning makri va shafqatsizligi tufayli aldanib qolgan bu odamlarni endi to'xtatib qolish mahol edi. Nima desa bo'ladi endi ularga?

— Yigitlar, xon bilan polkovnik Gekke biz yuborgan elchilarni o'ldirishibdi! Qonga — qon! Ularning elchilari bizning qo'limizda. Ularni osamiz! Jasadlarini xonga tortiq qilib yuboramiz!..

Isatoyning oti egasining g'azabi qaynayotganini sezganday olg'a qarab uchib ketdi.

— Terakliko'lga olg'a! — dedi u. Oqtovon bedov sarbozlar to'dasini yorib o'tib, olg'a intildi. Mahambetning chinoq tulpori undan ortda qolmasdi. Ular ortidan Ersari, Qoldiboy, No'yon, Stepanlar yelib borardilar.

Keng dala bo'ylab yoyilib ketgan sarbozlar bir-birlarini quvib, oldinga intilardilar. O'n-o'n besh chaqirim masofa bosib o'tilgandan keyingina Isatoy bilan Mahambet oldinga o'tib olib, saflarni yangidan tuzishga erishdilar.

Qo‘zg‘olonchilar safi endi tartibga kelib, qum barxanlari, to‘qayzorlar, keng sahrolar bag‘rini pona yanglig‘ yorib borayotganday edi.

Shu topda Mahambetga hech narsa: Isatoyning jangni qo‘yib ovulga otlan degani ham, Asov botirning ajralib ketgani ham, bersh oqsoqollarining qilgan xoinligi ham, barcha istehkomlardagi qo‘shinlarning ularga qarshi yo‘lga chiqqani ham, ha, hech narsa ta’sir qilmay qo‘ydi. To‘kening o‘limi haqidagi xabar uning xayolini olib qo‘ygan edi. Mahambet nazdida To‘kening bevaqt halokati hamma falokatlarga sabab bo‘lganday tuyulardi. U omon qolganida, qo‘zg‘olonchilar huzuriga yetib kela olganida hamma ish boshqacha bo‘lardi. U xoinlik ro‘y berishiga yo‘l qo‘ymagan bo‘lardi, chunki Nodirning sotqin ekanligini bilar edi. Asov botir ham ketib qolmasdi. Hamma ish boshqacha bo‘lardi, deya o‘ylardi Mahambet.

Xivada ham, bu yerda ham To‘kening omon yurishi unga dalda berar, ko‘ngliga xotirjamlik baxsh etardi. Mahambet bundan ikki oy ilgari u bilan uchrashib qolganida, qanchalar quvongan edi-ya. Mahambet uning Hirotga borib qaytgani, shundan keyin Jiydalidan yo‘lga chiqib, Mahambetni qidirib topgani haqidagi hikoyasini yana bir bor esladi.

Sarbozlar oqimi ichra xayol og‘ushida borayotgan Mahambet ot tuyoqlari ostida ingrab yotgan ona yerning nolishini eshitmasdi. Chinoq tulpor ham, uning xayolini bo‘lib yubormay deganday, beozor yo‘rg‘alab borardi.

Mahambetning xayolidan To‘ke sira nari ketmasdi. Bundan ikki oy muqaddam Jiydalidan yo‘lga chiqqan, ustiga yangi egasi — darvesh minib olgan Ollayor ota to‘rig‘ining xuddi ana shunday yo‘rg‘alab kelayotgani ko‘z o‘ngida turibdi.

To‘ke endi Jiydalidagi telbanamo darveshga aslo o‘xshamasdi. U kamgap, o‘ychan, sarg‘aygan o‘tloqlarda dam olib, otini o‘tlatar, soyu buloqlardan sug‘orardi.

Kechalari, barcha yolg‘iz yo‘lovchilar singari biror shikast yetmasligi uchun kichkinagina o‘tkir pichog‘ini shay tutgancha, sergak uxlardi.

Oti olis ketib qolmasligiga ishonch hosil qilganidan so‘ng, tunda uni bo‘sh qo‘yib yuboradigan bo‘ldi. Oqshom tusha boshlashi bilan gulxan yoqar, keyin cho‘g‘ni bir chekkaga sidirib qo‘yib, o‘t tagidagi iliqqina yerda yotar, boshini esa tungi salqin izg‘irindan egar bilan pana qilib qo‘yardi.

U yo‘l ustida ovulga duch kelib qolguday bo‘lsa, yana darvesh tusiga kirib olardi-da, to‘ppa-to‘g‘ri kirib kelaverardi. U Jangirxonning jazo qo‘shinlari yaqinlashib kelayotgani, qo‘zg‘olonchilarning xon va sultonlarning navkarlari bilan to‘qnashganlari to‘g‘risidagi tashvishli gaplarga quloq solardi...

U yo‘l-yo‘lakay cho‘pon-cho‘liqlarning chaylalarida to‘xtar, qolgan-qutgan kuzgi qimizlardan totinar, gulxan yonida o‘tirib, o‘lan va kuy tinglar, tun yarimlab qolganidan keyin esa Ollayorning qari yo‘rg‘asini minib, hech kimga sezdirmay yana yo‘lga tushib qolardi.

U podachi va yilqichilardan qo‘zg‘olonchilarning qo‘li baland kelayotganini, ular yuzliklarga bo‘linib, Otirov bo‘ylarini egallaganlarini, Qorovulxo‘ja sulton bilan kansler Bezborodko ustidan g‘olib chiqib, ularning mol-mulki, yer-suvlarini qo‘lga kiritganlarini hamda Isatoy bilan Mahambetning shu yaqin atrofda ekanini bilib olgan edi...

Darvesh qalin jing‘il bilan qoplangan qum tepaligiga chiqib, oldindagi ovullardan birida talaygina egarlog‘liq otlar turganini ko‘rganida, quvonganidan qichqirib yuborguday bo‘ldi.

— Inshoollo, ko‘zlagan manzilimga yaqinlab qolibman, dedi-da, otining boshini ovulga burdi, ot tizgini bo‘shaganini sezib, shiddat bilan yo‘rg‘alay ketdi.

Darvesh ovulga yaqinlasharkan, bu yerdagi kishilarning kiyimiga sinchkovlik bilan tikilib, ular Isatoyning sarbozlari emas, uzun milli miltiq bilan qurollangan yollanma navkarlar ekanini payqab qoldi. U jilovni tortdi, ot qadamini sekinlatdi. Darveshni ikki kishi kutib oldi-da, uni sulton libosidagi bir odam huzuriga boshlab bordi. Darvesh o‘zini boshlab kelganlar og‘iz ochib ulgurmaslaridanoq otdan sakrab tushdi-da, ikki bukilib ta’zim qildi va ovozining boricha duo o‘qiy boshladi. Keyin xurjunidan kichkinagina do‘mbira va qo‘yning sayqalanib ketgan kurak suyagini chiqarib,

xuddi jin tegganday, gir aylanib zikr tusha boshladi. Uning ovozini eshitib, odamlar to'plana boshladilar.

— Bu kishi jahongashta baxshi-ku, Xudoning sho'rlik bandasi-ku, — dedi sultonning yoniga yaqinlashgan bir oqsoqol. — Uni bo'shatib yuboringlar.

— Baxshilar bunaqangi ot minishmaydi, — dedi savlat to'kib o'tirgan kishi darveshga tikilib qararkan. — Balki, u ayyorlik qilayotgandir yoki bu Isatoy bilan Mahambet yuborgan ayg'oqchidir.

— Bu Allohning quli. Xalq bunday bechora, so'qqabosh odamlarga shafqat qiladi. Ot mindiradi, tuya yetaklatadi, — dedi oqsoqol keskin.

"Bularning ikkalasi bir-biriga raqib ko'rinadi",— xayolidan o'tkazdi hamon jazavasi tutib zikr tushayotgan darvesh.

— Tarqalinglar! Yuzliklar kelmaguncha buni ovuldan siljitmanglar! — deb buyurdi to'ra safar chodiri tomon yo'l olarkan. Oqsoqol ham uning ketidan yurdi.

Darvesh zikr tushishdan to'xtadi, ustidagi juldur kiyimining changini qoqib-suqib, yonidagi tosh o'choqda o't yonayotgan bir chekkadagi qora o'tovga yaqinlashdi. Qozonda sut qaynatilayotgan ekan. Ikki chol o'tovga suyangancha hangoma qilib o'tirishibdi.

— Ichkariga marhamat qil, Allohning suyukli bandasi, qutlug' qadaming kulbamizga baraka ato etsin. Kir, kiraver, — dedi mehmonga murojaat qilib ulardan biri.

Kampir ichkariga boshlab kirdi. Dasturxon yozdi. Oldiga bir kosa ayron bilan bir kosada qaymoqqa qorilgan so'k qo'ydi. Yana pishloq va yog'li qurut keltirdi.

— Bismillohu rahmonur-rahim, — deb ovqatga qo'l uzatdi darvesh.

— Jiydalilik boyaqishlarning tinkasini quritdi bular. Yigitlarni yo qirib tashlashadi, yo avaxtaga tiqishadi. Yo Xudo, o'z panohingda asra ularni, — degan ovozi eshitildi tashqarida gaplashayotgan chollarning.

— Ha, bizning qo'limizdan nima ham kelardi... — dedi so'zida davom etib ulardan biri. — Oqboy ham, Dulat ham, bizning Qiyshiqto'ra ham — hamma-hammalari ularga qarshi turibdi.

— Qanday qilib ham yordam berasan? Ularning qayerdaligini bilganimizda ham bo'lak gap edi, unda o'ylab ko'rsak bo'lardi. Hali bularning ayg'oqchilari is topib kelsin, ko'rasan. Darhol hammalari qo'zg'aladi-yu, jiydaliliklarni o'rab olishadi. Ovulimizdan hech kimni tashqariga chiqarishmaydi, otishadi. Meni aytdi dersan, ovuldan chiqib ketayotganlarida bizni rosa talashadi, jamiki chorvamizni haydab ketishadi...

— Bolalarimizning Isatoy tarafiga o'tib ketganining o'chini olmay qo'ymaydi bular. Aytishlaricha, hozir Mahambet yigitlari bilan Qo'shchag'ildamish. Bu yerdan qirq chaqirim narida. Xabar bersak, jiydaliliklarga ham, bizlarga ham yordam berarmidi...

— Oldinda hali tun bor, hozircha sabr qilib turish kerak, o'ylab ko'rarmiz, — dedi so'zini yakunlarkan o'tov egasi.

Ziyofati uchun kampirga minnatdorchilik bildirib, darvesh tashqariga chiqdi.

— Otingning egarini olib qo'y, bemalol o'tlab olsin, — dedi chol. — Lekin uzoqqa ketib qolmasin, ayrilib qolasan. Navkarlarga Xudojo'y odam ham, o'g'ri-muttaham ham baribir. O'zing shu yerda qol, yo'l yurib charchagan ko'rinasan, damingni ol.

Darvesh javob qaytarmadi, o'zicha nimanidir ming'illab otini ushladi-da, egarini olib, ovul chekkasiga, buloq bo'yidagi o'tloqqa qarab yetakladi. Poyloqchilikda turgan navkarlar unga — buloqdan nariga o'tish mumkin emas, deb o'shqirib berishdi. Buloqdan nariga o'tish uning xayolida ham yo'q edi. U otini o'tloqqa qo'yib yubordi-da, o'zi ham maysaga yonboshladi. Bir navkar kelib, biqinga miltiq qo'ndog'i bilan turtdi. Darvesh baqirgancha nariga dumalay ketdi.

— Tegmanglar unga, Xudoning qahriga uchraysanlar! U hech kimga yomonlik qilgani yo'q-ku! — baqirib berishdi suv olgani kelgan ayollar. — Qirchiningdan qiyilgurlar! — deb qarg'aganicha bir kampir tayoq o'qtalib, dilozorlar ustiga bostirib boraverdi. Navkarlar chekinishga majbur bo'ldilar. "Darvesh hali buyruqni buzgani, buloqdan nariga o'tgani yo'q-ku. Keling, ko'ngli shuni tusasa, yotavermaydimi".

Asta-sekin choshgoh sukunati qo'na boshladi. To'yimli tushlikdan keyin, askarmi, podachimi — bir go'r — hammani uyqu

qisib keladi. Ayniqsa, dashtda jazirama issiq kunda bir-ikki soat ko'z ilintirib olmasa bo'lmaydi, qumlikni-yu, aytmay qo'ya qolaylik.

Darvesh Qo'shchag'il tarafdan keladigan yo'lga qaradi. U tomon bo'm-bo'sh, lekin uzoqdagi qum tepaligidagi bir tuya bo'talog'ini ergashtirib quyi tomon tushib kelardi...

Buloq yoqasidagi poyloqchilar oyoq kiyimlarini yechib, muzdek suvda oyoqlarini yuvishyapti. Atrof jimjit. Boshqa navkarlar chodirda dam olib cho'zilib yotishibdi. Egarlog'liq otlar issiqda terga botib, uzun oxurning ikki tomoniga tizilganlaricha dumlari bilan chivin qo'rib, pishqirgancha yem yemoqda.

Darvesh ham o'rnidan turdi-da, buloq yoqasiga borib, oyog'ini yuva boshladi... So'ngra, yo'rg'asini buloq bo'yiga yetaklab keldi-da, hovuchlab suv olib, o'ziga, otiga sepaverdi.

Soqchilar bu ishini ko'rib, oldiniga kulishdi, keyin unga e'tibor ham bermay qo'yishdi. Ular bellarigacha yuvinib, keyin yonboshlab, horg'in ko'zlarini yumishdi. Darvesh g'animat fursatdan foydalanib, otiga sakrab minmoqchi bo'lib turgan edi, orqa tarafida xuddi shamol ko'tarilganday bo'ldi — yelib kelayotgan otlarning do'pir-do'piri va:

— Ayray!.. — degan dahshatli hayqiriq eshitildi.

Boyagi bo'taloqli tuya ko'ringan qir yoqasida endi bir to'da otliqlar halqa bo'lib, qushday uchib kelishardi. Soqchilar ham xuddi darveshga o'xshab, bu voqeadan sarosimaga tushib qoldilar. Ular shiddat bilan yaqinlashib kelayotgan sarbozlarga bir daqiqa ag'rayib qarab turib, so'ngra o'zlariga keldilar-da, miltiqlarini, yechib qo'ygan etiklarini ko'targancha sarosimada ot va qurol-yarog'lari bilan ovora bo'lib qolgan navkarlar yoniga yugurdilar.

— Otinglar, miltiqlardan otinglar! — deb baqirardi to'ra. Lekin fursat o'tgandi.

— Otga minlaring! — yana baqirdi to'ra.

— Ayra-a-ay! — yigitlar hayqirig'i olamni larzaga keltirardi. Otlari chang-to'zon ko'tarib, yelday uchib kelardi.

To'raning navkarlari yigitlar zarbasiga duch kelishdan qo'rqib boshqa tarafga qarab qocha boshladi. Lekin bu tomondan ham ularning yo'lini sarbozlar to'sib chiqdi.

— Ar-vo-oh! Ar-vo-oh! — deb qiyqirgancha ot choptirgan yigitlar ovulning ikki tomonidan o'rab ola boshladilar. Tartibsiz otilgan o'q ularni to'xtata olmadi, ko'p shikast ham yetkazmadi. Sarbozlar ot yoliga yopishib olib, qilichlarini yalang'ochlab, nayzalarini shaylab shovvaday oqib kelardilar. Ovul ahli — keksalar-u ayollar — navkarlarga tashlanishgan, arqon irg'itib, otlaridan ag'darib tushira boshlagan edilar.

Nima bo'layotganini hanuz fahmlayolmay, buloq boshida turib qolgan darveshning yonidan sarbozlar ketma-ket o'tib borardi. Darveshning egar-jabduqsiz yo'rg'asi ham tuyoq do'piriga bardosh bera olmay, ular ketidan ergashdi.

Bir necha daqiqa o'tar-o'tmas, otishma ham tugadi. Navkarlari bilan birga to'ra to'ntarilib yotgan chodir yoniga qisib qo'yilgandi.

— Isatoy bilan Mahambetning sarbozlari keldi! — deb baqirib-chaqirgancha kapalaridan yugurib chiqardi bolalar va xotinlar.

— Xudoga shukur! Mahambet shunqorning o'zi bizga mehmon bo'lib kelibdi! — deb juldur kpyimli bir yigit sarbozlar tomon yugura boshladi.

— Inshoolloh, mening safarim ham nihoyasiga yetdi, — dedi darvesh xo'rsinib va egar-jabduqlarini qoldirgan o'tovga qarab yurdi. U xurjunini olib, yelkasiga tashladi. So'ngra egasiz uyga kirdi, qoziqda osig'liq turgan yog'och cho'michni olib, chelakdagi muzdek buloq suvidan qoniqib ichdi-da, mag'lublarni tergayotgan g'oliblar tomon ketdi.

U birma-bir yigitlarning betlariga tikilib borardi. Ularning chehralarida xotirjamlik aks etardi. Qimiz bilan ayron to'ldirilgan kosalarni kampir va chollarning qo'lidan izzat saqlab olishar, qizlar tutgan kosalarni esa jilmayishib, hazil gaplar aytib qabul etishardi. Ovul oqsoqollari qo'l qovushtirib, saxiylik bilan sarbozlarga mehmondo'stlik ko'rsatishga harakat qilishardi. Bir to'p kishi endigina so'yilgan ayg'irning etini pishirish uchun katta qozon ham keltirdi. Bolalar hech tortinmas edilar. Sarbozlardan dubulg'alarini so'rab olishar, xursand bo'lib, boshlariga kiyib ko'rishardi, yigitlar esa xandon otib kulishardi. Yigitlardan biri qo'liga do'mbira oldi, uni sozlab ozroq xirgoyi qilib turdi-da, keyin dashtda mashhur Supura

qo'shiqchining ustaraday keskir hajviy qo'shig'ini barala kuylay boshladi.

— Vo-o-hey! — deyishardi uning zavqiga zavq ho'shmoqchi bo'lib odamlar. Sarbozlar to'plana boshladilar. Do'mbira endi qo'ldan qo'lga o'tib, o'lan ham og'izdan og'izga ko'chib, avjiga mina boshladi.

— Hoy, do'mbirachilar, orangizda Qurmong'ozining kuyini biladigan bormi? Bir chalvorsalaring-chi!..

Keksaroq jangchilar egar-jabduqlarni sarishtalar, pilta miltiqlarini tozalar, eski namat parchasi yoki bir tutam pichan bilan terga botgan otlarining sag'risini tozalashardi. Kun issiq edi. Ba'zilar sovutlarini yechib olishgan, ba'zilar esa qalqonlarini nayzalarining uchiga ilib olib, soyabon qilib o'tirishardi.

Ilgarilab borgani sayin odamlar ham, otlar ham zichlashib, ko'payib, oralaridan o'tish qiyinlashib borardi.

Darvesh bir amallab davra qurib turganlar orasiga o'ta boshladi. Olomon to'plangan maydonda taslim bo'lganlarning qurol-yarog'lari uyulib yotardi. Asir tushganlar esa, maydonning bir chekkasida g'uj bo'lib turishibdi. Darvesh Mahambetni bir to'da otliq sarbozlar orasida ko'rib to'xtadi...

— Nihoyat... Xudoga shukur, yetib keldim... — dedi chuqur xo'rsinib va oqinga tikilgan ko'yi qaddini ko'tardi. Mahambetning yonida Jantas turardi. Darvesh boshqalarni tanimadi. Oqinning atrofidagilarning bari qaddi-basti kelishgan, yag'rindor, vazmin va chaqqon yigitlar ko'rinardi. Ha, aytgancha, Mahambetning o'zi ham o'zgarib ketibdi, u hozir Xivadagi Mahambetga o'xshamaydi. U bosiq va mag'rur, ovozi ham qandaydir jarangdor bo'lib qolganday ko'rinadi.

Mahambetning qarshisida egnidagi kiyimi yirtilib ketgan boyagi to'ra tiz bukib turibdi.

— Menga keragi yo'q. Buni olib borib, Isatoyning qo'liga topshiramiz. Ot ortida bir yugurib ko'rsin. Nureke, o'zingiz olib borasiz uni, — dedi oqin pahlavonqomat sarbozga murojaat qilib. To'ke bu sarbozni tanidi. U Suyunqora botirning do'sti Nurali edi.

— Uni arqonga bog'lab, it kabi yetakla, qancha begunoh odamning yostig'ini quritganini yo'l-yo'lakay yaxshilab eslab olsin, — dedi qo'shimcha qilib Jantas.

— Ishing bo'lmasin. O'zim ham bilaman, — dedi qovog'i soliq Nurali vajohat bilan rangi o'chgan to'ra ustiga bostirib borarkan.

— Mahambet, qara! — dedi quvonib Jantas. — Bolabek ana-vi ayg'oqchilarni axiyri topib, qo'lga tushiribdi-da! — Narida bir to'p sarboz ko'rindi. Ular qo'llari bog'langan soldatlarni oldilariga solib haydab kelishardi, ikki-uch otning egariga halok bo'lganlarning jasadini ko'ndalang tashlab olgandilar.

— Qo'llarini yech! — deb buyurdi Mahambet Bolabekka, soldatlarni qarshisiga haydab kelganda. Asirlar orasida bir ofitser ham bor edi.

— Xo'sh, kapitan, bizga gaping bormi? — deb so'radi Mahambet. G'ovur-g'uvur biroz pasaydi. — General Perovskiy biz tomonga sizlarni qanday topshiriq bilan yubordi?

— Mahambet, sening qaroqchilik ishlaringni ko'rib, ishonch hosil qilish uchun yubordi! — deb javob qaytardi ofitser.

— Arqonga bog'lab, taqimingga bos uni! Dashtda jallodlarni hovuridan qanday tushirishlarini bilib qo'ysin bir! — degan ovoz eshitildi olomon orasidan.

— Tovushing tanish ko'rinadi! Kimsan o'zing? — dedi Mahambet bandining yuziga tikilarkan.

— Kapitan Shustikovman, — javob qaytardi ofitser.

— Sobiq poruchik! — dedi uning so'zini bo'lib Mahambet. — Bir vaqtlar qozoq bolalarini sotishayotganini, rus grafi ham, qozoq xoni ham bir ekanini, har ikkalasi ham odil emasligini aytgan kishi sen emasmiding?! Bugun esa general Perovskiyning buyrug'iga ko'ra, sultonga yordamga kelibsan-da? Bilib qo'y bo'lmasa, sultonning qo'shini allaqachon tor-mor etilgan, uning yer-suvlari, mol-mulki, chorvasi haqiqiy egalariga qaytarildi. Qorovulxo'janing o'ziga kelsak, Qiyg'ochdagi urushdan arang qochib qutuldi, u hozir yo ovulida biqinib yotibdi, yoki kuyovi Jangirxonning panohiga qochgan. Biz general Perovskiy bilan emas, sultonlar va xonga qarshi urush ochganmiz. Ehtimol, generalingizga bizning yurishlarimiz ma'qul tushmayotgandir, chunki Bo'keyning o'g'li Jangirxon

bechora bershliklar, shumekeylar bilan shapirashtilarning, alay va sherkesh urug'ining qolgan-qutgan mulkini, yer-suv va chorvasini tortib olib, senlarga in'om etishga va'da bergani tufayli shunday qilayotgandir?!

— Men soldatman, Mahambet! Soldat bo'lganim uchun ham generalimning buyrug'ini bajaryapman, — javob berdi Shustikov.

— Taqimga bos! So'zdan nima foyda, arqon beringlar, — deb Shustikov atrofida aylana boshladi ikki sarboz. Havoga itqitilgan sirtmoq to'g'ri ofitserning bo'yniga kelib tushdi. — Qani, yo'l beringlar! Yigitlar, mehmonga yo'l bo'shatinglar! — deb arqonning uchini taqimiga bosa boshladi sarbozlardan biri.

— To'xtanglar, sabr qilinglar! — deb qichqirdi Mahambet. — Hoy yigit, otingning boshini tort! Sirtmoqni olib tashlanglar! Qay biringizning jigaringiz halol jangda emas, balki mana shu soldatlar qo'lida halok bo'ldi? — dedi so'zini davom ettirib Mahambet.

— Bular hali ulgurganlaricha yo'q... — deb gap boshladi-yu, jim bo'lib qoldi allakim. Olomon ikkiga bo'linib, yo'l berdi, yigitlar halok bo'lganlar jasadini yelkalarida ko'tarib kelishardi.

Mahambet otidan tushib, tiz bukdi. Ofitser va uning soldatlaridan boshqa hamma sarbozlar, qilichlari qalqonlariga sharaqlab urilgancha tizzalarini bukdilar. Sallalik qariya sarbozlar yonidan o'tib borib, murdalarning bosh tomoniga o'tirib qiroat bilan Qur'on o'qiy boshladi. Shustikov baqrayganicha turardi.

— La'natilar, biznikilarga ham o'zlaricha duo o'qishyapti... — dedi tishini g'ijirlatib asir tushgan sollatlardan biri, shundagina darvesh sarbozlar bilan navkarlar jasadi orasida rus soldatining ham jasadi yotganini ko'rdi. Chol bo'lsa barchalariga bag'ishlab tilovat qilardi.

Shustikov soldatga o'qrayib qo'ydi. U jim bo'lib qoldi. Tilovat tugadi. Hamma qozoqlar qo'llarini fotihaga ochdilar. Oxiri ofitser ham chidab turolmadi: u ham tiz cho'kdi, uning ketidan soldatlar ham tizzalarini bukdilar.

— Xudo rahmat qilsin, joyingiz jannatda bo'lsin!

— Bugun qancha odamimiz shahid bo'ldi? — deb so'radi Mahambet.

— O‘n kishi, —deb javob berdi Jantas. — Besh kishi yaralangan.

— Ulardan-chi, qancha odam?

— Navkarlardan o‘n uch kishi...

— Mening yigitlarimdan ikki kishi halok bo‘ldi, biz esa bir soldatni yer tishlatdik, — dedi Bolabek.

— Soldatning murdasini do‘stlariga beringlar. Mayli, ular ham o‘z odatlaricha ko‘mishsin, — dedi Mahambet.

Sallali qariya ohista qadam tashlab, bandalikni bajo keltirganlarni dafn etishga, qir tepasida yangi kovlangan qabrlar tomon yura boshladi. Qariyaning orqasidan jangchilar, sarbozlar otlarini yetaklab, boshlarini quyi solib borishardi...

— Boshimizga tushgan bu kulfatni mana bu Azroil olib keldi! Jazo qo‘shinlarini boshlab kelgan ham, jiydaliliklarning mazgilini izlab topgan ham shuning o‘zi! Navkarlarga, bularga shafqat qilmay, barini qiringlar, degan ham shu. Bugun shahid bo‘lganlarning qoni shu kasofat — olosha urug‘ining mana shu munofiq to‘rasining bo‘ynida, — deya ovuldagi qari-qartanglarning hammasi Qiyshiq to‘raga yopisha boshladi. Lekin Nurali ularni yaqin keltirmadi.

— Sizlar xotirjam bo‘linglar. Isatoy amr qilsa bas, u yog‘ini o‘zim boplayman. Mahambetning gapini eshitdilaringlar-ku, axir!

— Bolabek, unga qilichini qaytarib ber. — dedi Mahambet Shustikovni ko‘rsatib va Ersari, Jantas hamda Bolabek kuzatuvida so‘nggi marta vidolashish maqsadida halok bo‘lgan jangchilar dafn qilinayotgan tepa tomonga yo‘l oldi.

Marhumlarning qurol-yarog‘lari tepasida yig‘i qilayotgan azadorlarga qo‘shilib nola chekib, ko‘z yoshlarini arta-arta ovul ayollari buloq bo‘yiga katta dasturxon yozib, oshga hozirlik ko‘rishardi. O‘choqlarda o‘t yonmoqda, qozonlarda biqir-biqir et qaynamoqda.

Marhumlarning jasadi lahadga qo‘yilgach, Jantas ellik yigitni ergashtirib No‘yon boshchiligida yo‘lga chiqqan jiydaliliklar karvonini kutib olmoq uchun qumlik ichkarisiga ot choptirib ketdi.

Mahambet bu ovulning oqsoqoli — boya janoza o‘qigan keksa huzuriga salomlashgani ketdi. Uzoq yo‘l yurib horigan, oftobda qoraygan, eski, juldur kiyimi kir bo‘lib ketgan darvesh ham yorilib ketgan kichkina do‘mbirasini olib, unga ilashib ketaverdi.

— Hoy zohid, kimsan o'zing? Ostonamga yaxshi niyat bilan keldingmi?! — deb so'radi o'tov egasi undan.

— Ming yil umr ko'r, oqsoqol. Beijozat kirib kelganim uchun afv et, Mahambetda ishim bor.

Oqin seskanib qaradi. Darvesh bir daqiqa qo'ynini timirskilab turib naqshinkor kumush bilaguzuk chiqardi. Oltin va kumush jihozlarga bunaqangi nozik naqshni O'rta va Katta juzning mohir zargarlarigina bera olardi.

Oqin bilaguzukdan ko'z uza olmay qoldi. Uni qayerdadir ko'rganday, u juda tanish edi. Qayerda, qachon? Ha, va'dami? Nurbol... Ha, bu Nurbolning bilaguzugi! Bu bilaguzukni Mahambetning o'zi Xivada sotib olgan va unga sovg'a qilgan edi. U darveshga baqrayib qarab turardi.

Darvesh bosh kiyimini qo'liga oldi. So'ngra o'tov ichidagilarni tang qoldirib, ter va kir bosganidan boshiga yopishib qolgan niqobini oldi, boshida bir tutam ham sochi yo'q yarqirardi...

— To'ke, To'ke, — deya qichqirgancha Mahambet darveshga otildi. O'tovdagilarning hammasi bu voqeadan taajjubda edi.

— Mahambet, o'zingni tut. To'g'ri, senga yaxshi xabar keltirganim yo'q, jiydaliliklar karvonini kutib olgani yigitlarni yuborib to'g'ri ish qilding. Men o'sha ovuldan kelmoqdaman, Dulatboyning navkarlari bilan bo'lgan mojaroni o'z ko'zim bilan ko'rdim. U yerda Qurmong'ozining kuyini tingladim, No'yonni uchratdim. Biroq No'yon meni tanimadi. Men bu yoqqa karvon yo'li bilan keldim. Ular esa qum orqali kelishmoqda...

— Bu nima qilganing? — dedi Mahambet niqobni ko'rsatib. — Nima sababdan No'yonga o'zingni tanitmading?

— Xudo biladi! Bu bo'lmasa, ehtimol, huzuringga yetib kelmagan va sen bilan uchrashmagan bo'larmidim. O'zingga ma'lum, na xotin va na bola-chaqa qilish nasib etdi menga. Nurbol qizimday bo'lib qolgan edi, shu boisdan uning so'nggi iltimosini bajarmay iloyim yo'q edi. O'shanda Hirotga, otasi huzuriga kuzatib qo'yishimni so'raganingda, so'zingni yerda qoldirolmagandim. Aytganingning hammasini bajo keltirdim. Nurbolni uyigacha kuzatib bordim. Otasi dunyodan o'tgan ekan, tog'dagi qarindoshlarinikiga olib bordim. Lekin ular Nurboldan yuz o'girdilar. U homilador, oy-kuni ham ya-

qin ekan. Biz g'orda tirikchilik qildik. Men ovchilik bilan mashg'ul bo'ldim. Bir kuni erta bilan suv keltirgani ketdi-yu, qaytib kelmadi. Men uni jar yoqasidan topdim. Chamasi to'lg'oq tutgan-u, qoyaga chiqib, biror kimsani yordamga chaqirmoqchi bo'lgan, lekin yiqilib tushgan. Illo qanday falokat yuz bergani yolg'iz Yaratganning o'zigagina ayon...

U bilaguzukni menga berayotib, seni izlab topishimni iltimos qilib, shunday degan edi: "Bu bilaguzukni Mahambetga yetkazing va unga sodiq qolganimni ayting". Bu uning eng so'nggi so'zi edi.

Mahambet gurs etib namatga o'tirib qoldi. Tashqarida ovqat suzila boshlagan edi. Jarchi polvonlarni kurashga, chavandozlarni maydonga chorlardi... Lekin Mahambet jarchining chinqiriq ovozini ham, aytilayotgan o'lanni ham, sarbozlarnning sho'x qiyqiriqlarini ham eshitmasdi...

Mana, hozir ham u na chinoq otining yo'rg'alashini his etar, na yelib borayotgan behisob ot tuyoqlari dupuri qulog'iga kirardi, u Buxoro va Xiva shaharlarida darbadar kezib yurgan chog'larida orttirgan sodiq do'sti, kamgap To'keni o'ylab borardi.

Xon o'rdasiga xufiya bo'lib ketgan To'ke omon qaytganida ish boshqacha bo'lardi, "Bersh oqsoqollarining xoinligiga ham, Asov botirning ajralib ketishiga ham yo'l qo'yilmasdi", — deya ichida qayta-qayta takrorlardi Mahambet.

Mahambet dasht ichkarisidan bir to'p sarboz chiqib kelganini va Isatoyga yaqinlashganini ham sezmay qoldi. Ular Terakliko'l ovullari qarorgohlarini tark etib, tajribali yo'lboshlovchilari kuzatuvida Norinqum ichkarisiga ko'chib ketishganini, old tomondagi barcha yo'llar esa rus soldatlari tomonidan ishg'ol qlinib olinganini xabar qildilar. Terakliko'lga boradigan yo'lni Boymahambet sultonning navkarlari bilan polkovnik Merkulovning kazaklari egallab turganlarini aytdilar. Ular ikki ovulni bosib olibdilar. Zulqarnay ham Merkulovning shtabida emish. Bu xabarni olib kelgan yigitlar orasida Isatoyning o'g'li Jaqiya ham bor edi.

Havo bu yil haddan ziyod issiq bo'ldi. Quruq kelgan kuz ham cho'zilib ketdi. Noyabr yetib kelganiga qaramay, na yomg'ir va na qor yog'di.

Allohning o‘zi qo‘llayapti bizni. — Bolabekning oti chinoqdan bir qarich ham ortda qolmasdi. — Na yomg‘ir, na sovuq tushmayapti. Osmonda osoyishtalik, lekin yerimizda tinchlik yo‘q...

— Qo‘y, hadeb noliyverma, senga bu yer Xiva emas, — gapini bo‘ldi Jantas. U Bolabekning ketida, Mahambetning inilari — Isa bilan Musadan oldinda borardi.

— Xivaning bunga nima aloqasi bor? U yerda hozir judayam kun issiqdir.

— Men u haqda gapirayotganim yo‘q. U yerda har bir burchakda, har bir muyulishda jallod qilichini yalang‘ochlab turganday tuyulardi senga...

— Menga o‘shanday tuyulgan ekanmi? O‘zing-chi? O‘zing ham qo‘rqqan mushukka o‘xshab biqinib yurarding. Bugun juda botir bo‘lib ketibdilarmi? Kuchingni hali jangda ko‘rarmiz...

— Sen bilan jangni kutib o‘tirmasdan ham kuch sinashaveraman. Birozdan keyin dam beriladi. Tayyorgarligingni ko‘raver. Agar bir hamladayoq ikki kuragingni yerga tegizmasam, mayli, meni chaqmoq ura qolsin.

— Unda rosa kutarkanmiz. Chaqmoq ko‘klamdagina bo‘ladi, — deb xandon otib kuldi Bolabek. — Kel, yaxshisi, sening maqtanchoqliging to‘g‘risida Sherniyoz o‘lan to‘qib qo‘ya qolsin...

Mahambet Sherniyoz bilan Qurmong‘ozini ko‘rmoqchi bo‘lib oyog‘ini uzangiga tiradi-da, sal qaddini ko‘tarib sarbozlarga tikildi. Sarbozlar keng dalaga yoyilib, otlarini yeldirib borishardi. Har bir yuzlik oziq-ovqat va boshqa yuklar ortilgan nortuyalarni oldiga solib haydab borardi. Ko‘pgina yigitlar yonlarida yana ehtiyot otlarni yetaklab ketishyapti. Hamma yoqni tutib, yelib borayotgan olomonga tikilib bir yuzlikni ikkinchisidan ajratib olish mahol edi. Qurmong‘ozi bilan Sherniyoz No‘yon boshchiligidagi adaylar va qipchoqlardan tuzilgan yuzlik bilan birga edilar. No‘yon o‘z yuzligini har qachongiday bu safar ham oldinda olib borardi. Isatoy ham o‘shalar orasida, oldinda bormoqda. Ana, tug‘i ko‘rinib turibdi.

Mahambet chinoq bedovini niqtab, birin-ketin otliqlardan o‘zib boraverdi...

Asta-sekin sarbozlar safi sanjoplashib, qator oralari jipslashib borardi, chunki yo'l torayib, ikki biqinidan tepaliklar iskanjaga olgan vohaga tutashardi.

Mahambet Isatoyga yaqinlashib qolgandi, ana, tulpori o'ynoqlab, tuyoqlari ostidan go'yo o't chaqnab, yo'rtib boryapti. Qo'zg'olonchilar saflari uzundan-uzun cho'zilib, tor dara ichkarisiga kira boshlagan edi. Tug' ko'tarib olgan Ersari oldinga o'tib, No'yonning yuzligi bilan daraga kirib bordi, shunda to'satdan sarbozlarni naq ro'paradan to'pga tuta boshladilar.

Zambaraklardan sochma o'q yog'dirilardi. Keyin ikki tomondagi tepaliklardan saf tortib, tizilib kelayotgan soldat va kazaklar ko'rindi. To'plar gumburini eshitmagan dasht tulporlari hurkib ketdi. Osmonga sapchib, pishqirib, boshini bermay, orqaga qochishga urinardi. Bir zumda hamma g'uj bo'lib qoldi. Oldinda ketayotgan otlar orqaga, orqadagilar oldinga kelib urildi, to's-to'polon bo'ldi. Yuk ortilgan otlar bilan tuyalar ham panoh izlaganday, o'zlarini sarbozlar to'dasiga ura boshladi. Olamni chang-to'zon, porox tutuni bosib ketdi.

— Qoldiboy! — sarbozlarning shovqin-suroni va otlarning kishnashini bosib Isatoyning ovozi yangradi. — Zarboy bilan Stepan tomonga yorib o't! Yuzliklaring bilan chap va o'ng tomondan himoyaga o'tinglar! Chaqqon harakat qil. O'lganlar bilan yaradorlarni qoldirib ketmanglar! Qirdan chiqaverishdagi yo'lda uchrashamiz!

Isatoy oyog'ini uzangisiga tiradi, po'lat shamshiri havoda yarqirab ketdi.

— No'yon! Vaqt g'animat! Zambaraklarni giribonidan ol! Sardorning ishonch bilan berayotgan buyruqlari sarbozlarni to'lqinlantirib yubordi. Ular qilichlarini yalang'ochlab, jipslashib, Isatoyning ketidan yelday uchib, olg'a tashlandilar. Yo'l yurib charchagan otlarga ham xuddi qanot bitganday edi. Bu hujum shu qadar shaddatli bo'ldiki, dushman to'plari uchinchi marta o'q uzishga ulgura olmadi...

Sarbozlarni qurshab olib, bir yuzlikni ikkinchi yuzlikdan ajratib tashlashni mo'ljalga olib, ikki tarafdagi tepaliklardan qo'zg'olon-

chilar ustiga soldatlar bilan kazaklar bostirib kela boshladilar. Lekin ularning yo'lida kutilmagan to'siq paydo bo'ldi. Nurali, Jaqip va Jantas o'z yigitlari bilan yuk ortilgan ot va tuyalarni haydab borib, ikkala qanotda ham mustahkam to'siq vujudga keltirdilar. Shu yo'sinda soldatlar bilan kazaklar bir necha fursatga to'xtatib qo'yildi, bu g'animat daqiqa hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'ldi. Shu payt Zarboyning yigitlari bilan Stepanning yuzligi soldat va kazaklarning orqa tomoniga o'tib olib, hujum boshladilar.

Sarbozlar ro'parasidagi tepalik ortiga yashiringan to'plarni majaqlab, olg'a yorib o'ta boshladilar. Biroq shu payt ularni pistirmada yotgan Boymahambet sultonning otliq qo'shinlari qarshi oldi... Navkarlar to'dasini yorib o'tayotgan Mahambetning dushman to'dasi o'rtasida jang qilayotgan Sherniyozga ko'zi tushib qoldi. Go'dak! Tentakvoy! U kulyapti. Boshidan dubulg'asi tushib ketibdi. Do'stlarining ogohlantirishiga quloq solmay, jangga berilib ketib, borgan sari navkarlar orasiga kirib boryapti.

— Sherniyoz, orqangga qayt! Biz ketyapmiz! — deb qichqirdi Mahambet, hamlaga o'tgan navkarlarning gardaniga qilich solarkan. Lekin Sherniyoz uni eshitmasdi. Qurmong'ozi yonida o'nga yaqin abjir yigit bilan qilich va nayzalarning zarbasini qaytarib, do'stiga yordamga keldi. Sulton navkarlari ularni ham o'rab oldi. Mahambetning o'zi yordamga tashlanmoqchi bo'ldi, lekin vaqt o'tgandi. Uning yo'lini kazaklar to'sib qo'yishdi...

Isatoy o'z sarbozlarini tepalar ortiga, keng dalaga olib chiqdi. Yigitlar yo'l-yo'lakay halok bo'lganlarning jasadini, yarador do'stlarini ko'tarib, Isatoy ortidan ot qo'yib borardilar.

— Mahambet, ehtiyot bo'l! — dedi bir sarboz ko'zlari chiqib ketguday bo'lib. Mahambet chaqqonlik qilib, qalqoni bilan to'sishga ulgurdi. Qilich zarbidan u o'zini egar ustida zo'rg'a tutib qoldi. Shu ondayoq Mahambetni xavfdan ogoh etgan yigit oqinga qilich solmoqchi bo'lgan yovga nayza sanchdi.

Mahambet shundan keyin Sherniyozni ham, Qurmong'ozini ham qayta ko'ra olmadi. U jang maydonidan jon saqlab, tirik chiqqan so'nggi yuzlik sarbozlari orasiga tushib qoldi. U chinoq bedovining uzangisiga oyoqlarini tirab, bo'ynini cho'zib, inilari —

Isa bilan Musani izladi. — Xudoga shukur! Salomat ekanlar, o'ng qanotda kelishyapti. Ularni navkarlar qurshovidan Stepanning yuzligi qutqarib olgan ko'rinadi. Stepanning o'zi ancha talafot ko'rib, siyraklashib qolgan yuzligi oldida ot qo'yib borardi. Uning ham dubulg'asi yo'q, peshanasida qon ko'rinardi.

Yana zambaraklardan o'q uzildi. Stepanning oti halok bo'ldi. Do'stlari yordamga tashlanishgan edi, lekin qayoqdandir paydo bo'lib qolgan kazaklar yo'llarini to'sdilar. O'ng qanotdan o'n chog'li sarboz bilan Zarboy Stepanga yordamga yetib keldi. Kimdir unga ot keltirdi, lekin bir oyog'i otning tagida qolgan ekan.

Dushman soldatlari va kazaklar o'zlarini o'nglab, yana saflarini tartibga keltirdilar-da, keyin Zarboyning yigitlarini o'rab oldilar. Zarboyning o'zi qandaydir mo'jiza bilan qurshovdan chiqib oldi-da, chekinayotgan sarbozlar ortidan ot qo'ydi.

Ko'p o'tmay, ta'qibchilar orqada qolib ketdilar. Kimsasiz dasht-u biyobon, qumlig-u to'qaylardan o'tib, sarbozlar to'satdan qirg'og'i baland bir anhor yoqasiga kelib qoldilar, uni kechib o'tib, o'rmonga kirib, g'oyib bo'ldilar.

Qo'zg'olonchilar qulayroq yerni tanlab, ishonchli yigitlaridan soqchilar qo'yib, yarog'-aslahalarini ham yechmay maysaga cho'zildilar. Oyoqda tura oladigan darajada quvvati bor yigitlar esa yotib dam olish o'rniga jangda qurbon bo'lgan do'stlarini dafn etish uchun go'r qazish va omon qolganlarga ovqat tayyorlashga kirishdilar.

Quyosh bulutlar orqasiga yashirinib, etni junjituvchi salqin shabada esa boshlagan paytda Isatoy barcha yuzliklar boshliqlarini harbiy kengashga to'pladi. Mahambet shu yerda, anhor bo'yida, bulutli, tund osmon tagida o'tirganidagina dushman qo'lida ellikdan ortiq yigit asirlikda qolganini, Qurmong'ozi bilan Sherniyoz ham o'shalar orasida ekanini, hammadan ham Stepanning yuzligi og'ir talafot ko'rganini — soldatlar bilan kazaklar o'z dini bilan podshohni sotgan kishilar ularga, ayniqsa, quturib tashlanganlarini; aday va qipchoq sarbozlari birinchi bo'lib zambaraklar yoniga chiqib olib sarbozlarning podshoh qo'shinlari va qo'zg'olonchilardan hech biriga ma'lum bo'lmagan pistirmani yorib o'tishlariga yordam berganini eshitdi.

Yo'l yoqasidagi bu kutilmagan jang sarbozlarni tamoman o'zgartirib yuborganday edi. Ular bir-ikki soat uxlab olib, yana o'zlarini boyagi-boyagiday bardam his etdilar, ruhlari yengil tortib, yangi jang haqida gapira boshladilar. Ular: "O'ladigan bo'lgandan keyin, chinakam yigitchasiga, jang maydonida o'lgan yaxshi", — deyishardi.

Yigitlarning shu ondayoq ehtiyot otlarga minib, Merkulov soldatlari bosib olgan ovullarni ozod qilishga otlangilari kelardi...

Mahambet Isatoy bilan maslahatlashib olganidan keyin adaylar bilan qipchoqlardan iborat yuzlikni olib, sarbozlar turgan joyni tark etdi...

Zim-ziyo, sovuq oqshom. Chuqur jarlik tubida suv qaynatilib, tabiblar yaradorlarning jarohatlarini yuvib-tozalab, bog'lashardi. Shu yerda daraxtlar orasida biroz sovigan, rosa ochqab qolgan otlar o'tlab yurar, uyqusizlikka o'rganib qolgan yoshi ulug'roq jangchilar esa ularga ko'z-quloq bo'lib turishardi. Sarbozlar qilich va nayzalarini shaylaganlaricha, shabada "shiviriga" quloq solib, gulxan atrofida sergak o'tirishardi. Tun tushgach, otlarni chodirlar yaqiniga haydab kelib, arqonlab qo'yishdi. Qisqa tirsak, chayir dasht yilqilari boshlarini ko'tarmay, kumir-kumir suli chaynashar edi.

Isatoy churq etmasdi. U shoshilinch tikilgan chodirlardan birida o'tiribdi. Kech kirib, qosh qoraya boshlagan paytda soqchilikda turgan sarbozlar uning huzuriga eski tulki tumoq kiygan bir odamni olib kelishdi. U och ekan. Ostidagi oti ham juda charchaganidan oyog'ida zo'rg'a turardi.

— Meni Qayipg'ali sulton yubordi. Uning qo'l ostida besh yuz navkari, Olloqulidan olgan ko'p qurol-yarog'i bor. Sulton senga salom yo'lladi. U dushman ustidan g'alaba qozonmoq uchun birlashishni taklif qilyapti. Mana, uning maktubi, — deb tumog'i astarini so'kib, sultonning maktubini oldi-da. Isatoyga uzatdi.

— Bugun g'alaba degani bizdan har qachongidan ham uzoqlashib ketdi, — dedi Isatoy chuqur iztirob ichida.

— Sulton javob kutmoqda, menga boshqa ot beringlar. Mening otim charchab qoldi. Qaytib borishga yaramaydi, — dedi chopar.

— Javobni bir kundan keyin, Mahambet qaytgach beramiz. Unga ot beringlar, to Qaybola sultonga qo'shilish yo qo'shilmasligimizni hal qilgunimizcha u biz bilan bo'la tursin, — dedi yigitlarga Isatoy.

Sarbozlarning uyqusi uzoqqa bormadi. Tong yorishib, osmon bulutlardan tozalangan paytda to'qayzorning narigi yog'idan quloqni teshib yuborguday hushtak eshitildi. Isatoyning oti bezovtalandi, boshqa otlar qo'rqib ketdi. Sarbozlar o'rnilaridan sakrab turib, jadallik bilan otlarini egarlay boshladilar.

— Yigitlar, ketdik! — dedi Isatoy ayg'iriga chapdastlik bilan minarkan. Qoldiboy ham uning yonida shay turardi. U qo'lida ko'k ola ipak matoga otning uzun dumi bilan birga kichkina jez qadalgan qo'zg'olonchilar bayrog'i — tug'ni tutib turardi. Uning yonida nog'ora ko'tarib olgan yana bir yigit bor edi.

— Qancha kishimiz? — deb so'radi sekingina Isatoy, yigitlar safga turganlaridan keyin Qoldiboydan.

— Besh yuz yigirma...

— Agar qish yaqinlashib qolmaganida, safimiz yanada ko'proq bo'lardi, — dedi Isatoy jilmayib.

— Qish yo'lni tor qilib qo'yadi, dashtda yurish qiyinlashadi. Qay tomonga bormaylik, izimiz oshkor qilib qo'yadi. Yozda dasht bo'ylab yoyilib podshoh qo'shinlariga qo'qqisdan tashlanib, saflarini titratib ketaverardik. Qadimgi oqinlarning aytishlaricha, ota-bobolarimiz Iskandar Zulqarnaynni shu yo'sinda yengganlar, keyinroq jung'orlarni ham shu yo'l bilan quvgan ekanlar...

— Lekin u paytlarda dushman izmida zambarak bilan miltiqlar bo'lmagan edi-da, Qoldiboy, — deya Isatoy oldinga chiqdi.

Hayhot, naslim holi ayanchdan ayanch!
Moskov shohlaridan yerlik zolimlar
O'ziga topmishlar mustahkam tayanch,
Asoratda qolgan xalqim qon yig'lar —

deb pichirlarkan, chuqur xo'rsinib qo'ydi Qoldiboy. — Gapni topib aytgansan, Mahambet shunqorim!..

Sarbozlar o'rmonni tashlab, dashtga chiqdilar-da, Toshtepaga qarab yo'l oldilar. Ular chor atrofda ayg'oqchilar, sultonlar bilan Jangirxonning navkarlari, podshohning soldat hamda kazaklari o'lim to'nini bichib, izg'ib yurganlarini bilsalar-da, ilgarilab boraverdilar.

Mahambetning uch yigiti daryo o'zanining yuqori qismida joylashgan yolg'iz ovulga yashirin kirib borishga muvaffaq bo'ldi. Aniqrog'i, bu yerni ovul deb ham bo'lmasdi. Bu yerdagi xaroba kulba-yu yerto'lalar bo'm-bo'sh, o'tovlar o'rnida kul uyilib yotibdi. Barcha erkaklarni tutqun qilib, hamma chorvani haydab ketibdilar. Miltillab yongan o't yonida onalar xo'rlangan qizlariga aza tutyaptilar.

Bir necha qari-qartang va xotin-xalaj yetim qolgan go'daklarni yig'ib, kigizlarga o'rab aravalarga yotqizishmoqda. Ovulda bosqinchilardan faqat ikki-uchtagina qo'tir tuya qolibdi, xolos. Chollar ovulda tirik qolganlarni bu yerdan olislarga, qum ichkarisiga olib ketish tadorikini ko'ryaptilar.

— Podshoh jallodlari bilan xoinning yasovullari va navkarlari ovulma-ovul izg'ib yuribdilar, — deyishdi chollar. — Ular kecha oqshom bizning ovulda bo'lishdi. Isatoy bilan Mahambetning qarindosh-urug'larini, sarbozlarning xotinlari, ota-onalarini haydab ketishdi. Kulfat ustiga kulfat yog'ilmoqda. Yer ham, osmon ham bizdan yuz o'girdi. Yo Alloh boshimizga tushayotgan falokatlarni ko'rmayapti...

Jazo bo'linmalari qaysi yo'ldan ketganini bilib olganlaridan keyin, yigitlar Mahambet huzuriga qaytdilar.

— Uzoqqa ketib ulgurmagan bo'lishlari kerak. Tun juda qorong'i. Tavakkal qilib ko'ramiz! — Mahambetga murojaat qildi No'yon.

— Hamma rozimi bunga? — sekingina so'radi Mahambet.

— Oramizda qo'rqoqlar yo'q, — deb javob qaytardi kimdir yigitlar orasidan. Qorong'i kechada Mahambet uni taniy olmadi. — Ularning ketidan quvib yetamiz, otlarini, oziq-ovqat ortilgan aravalarini tortib olib, dasht ichkarisiga ketayotganlarga beramiz.

...No'yon, Bolabek va Jantas oldinda, ketlaridan esa yuzlik borardi. Gulxanlarni birinchi bo'lib Jantas ko'rib qoldi. Mahambetga xabar qildi. Yuzlik yo'ldan burilib, chakalakzorga kirdi. Biroz kutdilar. Tulkining astagina g'ingshigani eshitildi. Mahambet yo'l yoqasiga chiqdi.

— Gulxanlarga qaraganda, ko'pchilikka o'xshamaydi, — dedi oldinga borib, bilib kelgan No'yon. — Bular, Merkulov va uning kazaklari bo'lishi kerak. Lekin yollanma navkarlarning ham gulxani ko'rinyapti.

— Otlarni qoldiringlar. Yana uch yigitni olib, qarorgoh ichkarisiga kirib boringlar. Biz ot qo'yib kirishimiz bilan soqchilarni gumdon qilib, bandilarni qutqaringlar!.. — dedi-da, yana chakalakzorga qaytib kirdi Mahambet.

...Yuzlik qorong'ida damini ichga yutib, Mahambetning buyrug'ini kutardi. Yigitlar odatdagiday egar ustida o'tirgan joylarida mudrardilar. Oradan uzog'i bilan yarim yoki bir soat chamasi vaqt o'tdi-yu, nazarlarida tez orada tong otib qoladiganday tuyulardi. Atrof jim-jit, faqatgina chakalakzordagi butalarning shitirlashi-yu otlarning pishqirishigina eshitilardi. Jazo otradi qarorgohi tomondan o'qtin-o'qtin soqchilarning shovqini eshitilib turardi. Izg'irin asta-sekin etni junjita boshladi.

— Yigitlar, uyqu shirinlik qilibdimi? — deb so'radi Mahambet ohista.

— Egar ustida uxlash qisqa bo'ladi-yu, lekin momiq to'shakda yotgandan ko'ra ko'proq kuch bag'ishlaydi odamga, — deb gapga aralashdi qorong'ilik ichidan Jaqip.

— Sendan so'ragani yo'q, yigitlarning o'zlari aytsin, — dedi unga javoban Nurali.

Sarbozlarning kulgi ovozlari eshitildi. Bu ikki jangchining bir-biri bilan hazillashishi hammaga yoqar va barcha sarbozlar ularni hurmat qilishardi.

— Oqsoqollar, — dedi Mahambet, — o'zlaring bilan besh yigitni olib, qarorgohni aylanib o'tinglar. O'sha yerga yaqin joyda yo'l bor. Jazo otradi shu yo'ldan qochadi. Biz dushman ustiga ot solganimizda yo'l yoqasidagi qamish, changalzorlarga o't qo'yib

yuboringlar. O'zlaring daryo yoqasidagi to'qayzorga borib, bizni kutib turinglar.

Mahambet sarbozlari dushman qarorgohiga sezdirmay yaqinlab keldi-da, saflarni rostlab, jangovar na'ra tortgancha, jazolovchilar qarorgohiga tashlandilar. Kazaklar otlariga minib ulgurmay o'zlarini qorong'ilik qa'riga ura boshladilar. Faqat asir olinganlarni qo'riqlab turgan soldatlarning o'nboshilari vaqtichog'lik qilib o'tirgan joydagina qisqa muddatli to'qnashuv bo'ldi. Kazaklar bilan navkarlar qarshilik ko'rsatmay, ovulni tashlab qochdilar. Biroq oldinda lovullab yonayotgan o'tni ko'rib, orqaga qaytishga majbur bo'ldilar. Ana shunda yigitlar qilichlarini ishga soldilar. Mahambet esa yuzlik boshlig'i yasovul bilan to'qnashishni istardi. Lekin qorong'ilik xalal berayotgandi. Kutilmaganda Mahambet lovullab yonayotgan alanga yaqiniga kelib qolgan yasovulni payqab qolib, unga tashlandi, biroq yasovul qo'lidagi miltiqning tepkisini bosib yubordi. Oqinning chinoq bedovi bo'ynini allaqanday g'alati bir tarzda burib jonholatda kishnaganicha gurs etib quladi. Mahambet egardan otilib ketdi. Yasovul qorong'ilik ichida g'oyib bo'ldi.

— Bandilikdan ozod bo'lgan yigitlar, qariyalar, xotinlar, bolalar — Isatoy bilan Mahambet sarbozlarining qarindosh-urug'lari jazolovchilar tashlab qochgan otlarni egarlashga tushib ketdilar. O'ljaga olingan qurol-yarog'lar aravalarga ortildi. Mahambetning yigitlari asrdan ozod bo'lgan chollarni, xotin-xalaj va bolalarni kichik-kichik to'plarga bo'lib, tong otguncha Sozsuv daryosining narigi qirg'og'iga o'tkazib qo'ydilar. U yoqlar qalin to'qayzor, undan narida esa bepoyon qumlik boshlanib ketardi.

Jaqip, Jonpeis, Nurali uchovlon Mahambet va jangchi yo'ldoshlari bilan xayrlashdilar-da, karvonni Norinqumga qarab boshlab ketdilar.

— Biz ovulni uzoqlarga, hech zot izlab topolmaydigan, suvi hamda chorvaga ozuqa topiladigan joylarga boshlab borarmiz. Sizlarni kutamiz, g'alaba qilib boringlar. Bilaman, shunday bo'ladi, — dedi xayrlashayotib Jaqip Qurmong'ozining bemor yotgan onasiga

ko'p mehribonlik ko'rsatarkan. Qurmong'ozining onasi bandilikdan og'ir ahvolda bo'shatib olingan edi.

— Mahambet, senga aql o'rgatishning hojati yo'q, lekin Suyunqoraning aytgan so'zlarini unutma, — qo'shib qo'ydi Nurali. — Uning yigitlari sen bilan birga, men bo'lsam endi keksayib qoldim. Sizlarga faqat yuk bo'laman, xolos. Endi men o'zimga tuzukroq yerdan go'r tanlashim lozim, — bu so'zlarni aytarkan, cholning yelkalari uchib ketganini payqadi Mahambet.

Jonpeis otini Oqcho'lponga berdi-da, o'zi nortuyaga o'tirib olib, qumlik ichkarisiga yo'l boshladi.

Shu topda u bundan bir yil muqaddam, Dulatboyning navkarlari bilan bo'lgan to'qnashuvdan keyin, tug'ilib o'sgan Jiydalini tashlab ketayotganlaridagidek yuz yil ilgari tug'ilgan o'lanni xirgoyi qilardi. O'sha paytlarda butun qozoq eli jung'orlar bilan bo'lgan qattiq urush qirg'inlari va dahshatli vabodan keyin xuddi qabristonga o'xshab qolgan edi... Karvon nechog'lik olislashib borarkan, qayg'u-hasrat bilan to'lib-toshgan bu kuy yanada mungliroq yangrab, yuraklarni ezardi.

Karvon qumlikka kirishi bilan to'xtab qoldi. Qurmong'ozining onasi dunyodan o'tgan edi. Jon berish oldidan es-hushi joyiga kelib, keksa Jaqipni, ot mingan Oqcho'lponni tanidi va:

— Mening Qurmashim qani, Boyg'ozi qayerda? — deb so'radi arang shivirlab.

— Tashvish chekma. Jiydaliga, o'z ovulimizga ketyapmiz, — dedi tomog'iga qattiq bir narsa tiqilganday bo'lib Jaqip. — Boyg'ozi Qurmash bilan birga. Ular g'alaba qilishdi Orqaroqda kelishyapti...

Onaning so'niq yuzida sezilar-sezilmas tabassum ko'rindi, u endi ko'zini Oqcho'lponga qaratdi. Qiz chidab tura olmadi, ko'z yoshini undan yashirmoqchi bo'lib, egar qoshiga engashdi. Ona sal boshini ko'tarib, karvonning orqa tomoniga qaradi, lekin u tomonda bo'm-bo'sh dashtdan bo'lak hech narsa ko'rinmasdi.

— Qani ular? — onaning aytgan oxirgi so'zi shu bo'ldi. Betoblik, shamollashlar, navkarlarning qamchilari va farzandlar tashvishi uni holdan toydirgandi. U o'tgan kecha tun bo'yi alahlab chiqqan edi. U na shovqin-suronni eshitdi, na Mahambetning yuzligi ularni bandilikdan xalos etganini payqadi; kichik o'g'li Boyg'ozini ka-

zaklar chopib tashlaganini ham, katta o'g'li Qurmong'ozi Boymag'ambet sultonning qo'liga asir bo'lib tushganini ham bilmasdi...

Sevalab yomg'ir yog'di. Yer loy bo'lib, oyoqqa yopisha boshladi. Isatoyning sobiq sarbozlari kishanlarini pildiratib, oyoqlarini arang ko'tarib bosib, jandarmlar kuzatuvida Sibirga haydab ketilmoqdalar. Qurmong'ozi bilan Stepan bir-birovini suyab, oldinda borardi. Chanqoqdan tillari tanglaylariga yopishgan, boshlari sirqirab og'rir, go'yo a'zoyi badanlariga o't tutashganday edi.

Boymag'ambet sultonning mazgilida har qaysilarini darra bilan jazoladilar. Yuz, ikki yuz, besh yuz darra urishdi. Qonxo'r jallodlar urgan darralari hisobini ham unutib qo'yib, savashni davom ettiraverdilar. Ular hushdan ketganlarining ustidan suv quyib, yana qaytadan savalay berdilar. Oxiri joni chiqib ketgan jasadlarni chuqurga tashlab, tutqunlarning o'zlariga ko'mdirdilar. Bu safda kelayotganlar jazoga bardosh berib, tirik qolganlari edi. Bu tutqunlar Orenburg, undan keyin Sibirga jo'nash oldidan Jasqusga, xon o'rdasiga ham borishlari kerak. Ular Jangirxonning oldidan navkarlar saflarini oralab o'tishlari lozim.

Asir olingan sarbozlardan yolg'iz Sherniyozgina Boymag'ambet ovulida qoldirildi.

... Bandilarni ovulga haydab kelganlarida, sulton Sherniyozni ajratib olib, uni o'z uyining yonidagi bostirmada kishanband qilib saqlashni buyurdi.

— Men dashtda yangi paydo bo'lgan va o'zini Mahambetning inisi hamda maslakdoshi hisoblayotgan bu oqining yordam so'rab, tun bo'yi akillab chiqishini o'z qulog'im bilan eshitishni, ertalab esa menga uyg'onish qo'shig'ini kuylab berishini istayman, — dedi sulton. — Bu oqinning iztirobli ingrog'i eshitilib tursa men tinch uxlayman.

Tunda, sultonning ovuliga polkovnik Merkulov o'z kazaklari bilan keldi. Sultonnikida oshig'ich kengash boshlandi. Yoniga o'n navkarni olib, shu yerga yaqin joyda joylashgan jazo qo'shinlari bosh shtabiga chopar jo'natildi. Uxlab yotgan soldatlar bilan navkarlar oyoqqa turg'azildi. Ovulni qo'riqlab turgan soqchilar, qorovullar kuchaytirildi. Bandilarni qo'riqlayotgan soqchilar ikki baravar ko'paytirildi.

ko‘p mehribonlik ko‘rsatarkan. Qurmong‘ozining onasi bandilikdan og‘ir ahvolda bo‘shatib olingan edi.

— Mahambet, senga aql o‘rgatishning hojati yo‘q, lekin Suyunqoraning aytgan so‘zlarini unutma, — qo‘shib qo‘ydi Nurali. — Uning yigitlari sen bilan birga, men bo‘lsam endi keksayib qoldim. Sizlarga faqat yuk bo‘laman, xolos. Endi men o‘zimga tuzukroq yerdan go‘r tanlashim lozim, — bu so‘zlarni aytarkan, cholning yelkalari uchib ketganini payqadi Mahambet.

Jonpeis otini Oqcho‘lponga berdi-da, o‘zi nortuyaga o‘tirib olib, qumlik ichkarisiga yo‘l boshladi.

Shu topda u bundan bir yil muqaddam, Dulatboyning navkarlari bilan bo‘lgan to‘qnashuvdan keyin, tug‘ilib o‘sgan Jiydalini tashlab ketayotganlaridagidek yuz yil ilgari tug‘ilgan o‘lanni xirgoyi qilardi. O‘sha paytlarda butun qozoq eli jung‘orlar bilan bo‘lgan qattiq urush qirg‘inlari va dahshatli vabodan keyin xuddi qabristonga o‘xshab qolgan edi... Karvon nechog‘lik olislashib borarkan, qayg‘u-hasrat bilan to‘lib-toshgan bu kuy yanada mungliroq yangrab, yuraklarni ezardi.

Karvon qumlikka kirishi bilan to‘xtab qoldi. Qurmong‘ozining onasi dunyodan o‘tgan edi. Jon berish oldidan es-hushi joyiga kelib, keksa Jaqipni, ot mingan Oqcho‘lponni tanidi va:

— Mening Qurmashim qani, Boyg‘ozi qayerda? — deb so‘radi arang shivirlab.

— Tashvish chekma. Jiydaliga, o‘z ovulimizga ketyapmiz, — dedi tomog‘iga qattiq bir narsa tiqilganday bo‘lib Jaqip. — Boyg‘ozi Qurmash bilan birga. Ular g‘alaba qilishdi Orqaroqda kelishyapti...

Onaning so‘niq yuzida sezilar-sezilmas tabassum ko‘rindi, u endi ko‘zini Oqcho‘lponga qaratdi. Qiz chidab tura olmadi, ko‘z yoshini undan yashirmoqchi bo‘lib, egar qoshiga engashdi. Ona sal boshini ko‘tarib, karvonning orqa tomoniga qaradi, lekin u tomonda bo‘m-bo‘sh dashtdan bo‘lak hech narsa ko‘rinmasdi.

— Qani ular? — onaning aytgan oxirgi so‘zi shu bo‘ldi. Betoblik, shamollashlar, navkarlarning qamchilari va farzandlar tashvishi uni holdan toydirgandi. U o‘tgan kecha tun bo‘yi alahlab chiqqan edi. U na shovqin-suronni eshitdi, na Mahambetning yuzligi ularni bandilikdan xalos etganini payqadi; kichik o‘g‘li Boyg‘ozini ka-

zaklar chopib tashlaganini ham, katta o'g'li Qurmong'ozi Boymag'ambet sultonning qo'liga asir bo'lib tushganini ham bilmasdi...

Sevalab yomg'ir yog'di. Yer loy bo'lib, oyoqqa yopisha boshladi. Isatoyning sobiq sarbozlari kishanlarini pildiratib, oyoqlarini arang ko'tarib bosib, jandarmlar kuzatuvida Sibirga haydab ketilmoqdalar. Qurmong'ozi bilan Stepan bir-birovini suyab, oldinda borardi. Chanqoqdan tillari tanglaylariga yopishgan, boshlari sirqirab og'rir, go'yo a'zoyi badanlariga o't tutashganday edi.

Boymag'ambet sultonning mazgilida har qaysilarini darra bilan jazoladilar. Yuz, ikki yuz, besh yuz darra urishdi. Qonxo'r jallodlar urgan darralari hisobini ham unutib qo'yib, savashni davom ettiraverdilar. Ular hushdan ketganlarining ustidan suv quyib, yana qaytadan savalay berdilar. Oxiri joni chiqib ketgan jasadlarni chuqurga tashlab, tutqunlarning o'zlariga ko'mdirdilar. Bu safda kelayotganlar jazoga bardosh berib, tirik qolganlari edi. Bu tutqunlar Orenburg, undan keyin Sibirga jo'nash oldidan Jasqusga, xon o'rdasiga ham borishlari kerak. Ular Jangirxonning oldidan navkarlar saflarini oralab o'tishlari lozim.

Asir olingan sarbozlardan yolg'iz Sherniyozgina Boymag'ambet ovulida qoldirildi.

... Bandilarni ovulga haydab kelganlarida, sulton Sherniyozni ajratib olib, uni o'z uyining yonidagi bostirmada kishanband qilib saqlashni buyurdi.

— Men dashtda yangi paydo bo'lgan va o'zini Mahambetning inisi hamda maslakdoshi hisoblayotgan bu oqining yordam so'rab, tun bo'yi akillab chiqishini o'z qulog'im bilan eshitishni, ertalab esa menga uyg'onish qo'shig'ini kuylab berishini istayman, — dedi sulton. — Bu oqinning iztirobli ingrog'i eshitilib tursa men tinch uxlayman.

Tunda, sultonning ovuliga polkovnik Merkulov o'z kazaklari bilan keldi. Sultonnikida oshig'ich kengash boshlandi. Yoniga o'n navkarni olib, shu yerga yaqin joyda joylashgan jazo qo'shinlari bosh shtabiga chopar jo'natildi. Uxlab yotgan soldatlar bilan navkarlar oyoqqa turg'azildi. Ovulni qo'riqlab turgan soqchilar, qorovullar kuchaytirildi. Bandilarni qo'riqlayotgan soqchilar ikki baravar ko'paytirildi.

Ertalab Qurmong'ozi ovul yonidan to'xtovsiz o'tib borayotgan Jangirxonning otliq askarlarini, kazak polklari bilan muntazam qo'shinlar soldatlarini ko'rdi. Otlar zambaraklarni sudrab borardi. Buni ko'rgan Qurmong'ozining, qanday bo'lmasin, kishandan xalos bo'lib, yugurgisi kelardi. U qushday uchib Isatoyning huzuriga yetib borishni, do'stlarini xatardan ogoh etishni, basharti, g'alabaga erishish nasib etmasa, ular bilan birga jang maydonida halok bo'lishni istardi. O'ladigan bo'lganidan keyin, botir dasht yigitlari kabi jang maydonida halok bo'lgani ming bora afzal-da, axir.

Soqchi uni do'stlaridan ayirib, Asanning o'toviga qarab boshlaganida, ko'nglida qochish umidi tug'ildi. Qurmong'ozi yopinib yotgan eski po'stinni bir chekkaga uloqtirib, o'rnidan turdi-da, oyog'idagi kishanni shildiratib eshik tomon yurdi. U kishanni yechib qo'yishar degan umidda edi.

— Shu yerda to'xta, — deb buyurdi Asan. — Hoy yuzboshi, anavi yalangoyoqlarni qo'radan chiqarib, bu yerga haydab kel. Hozir mana bu atoqli kuychining mashqini tinglaymiz. U bizning g'alayonchilar ustidan qilgan g'alabamiz sharafiga kuy chalib beradi bizga.

Tutqunlarni maydonga haydab kelishdi. Kiyim-boshlari yirtilib, soch-soqollari o'sib ketgan g'amgin sarbozlar yarim doira shaklida Qurmong'ozi atrofini qurshab turdilar. Sochlarini shabada to'zg'itar, yov tortib olgan dubulg'a, sovut hamda qurol-yarog'lari aravalar yonida uyulib yotardi.

— Ularga bir piyoladan qimiz tortinglar. Boymag'ambet sultonning, hatto o'z dushmanlariga ham shafqat qilishini, tansiq kuz qimizini baham ko'rishini o'z ko'zlari bilan ko'rib qo'ysinlar! — dedi Asan.

Soqchi Sherniyozni ham tutqunlarga yaqin yerga olib keldi, lekin unga bir chekkada turishni buyurdi. Hali o'spirin yoshidagi oqin sovuqdan qalt-qalt titrar, lekin buni sezdirmaslikka urinardi. Buni payqagan Stepan to'pdan chiqib borib, uning yelkasiga o'zining kalta kamzulini tashladi. Qurmong'ozi Stepanga mehribonligi uchun ko'z qiri bilan minnatdorchiligini bildirdi.

Asanning o'tovi yoniga xizmatkorlar teri qoplangan kursi keltirib qo'yishdi. Mulozimlari bilan Boymag'ambet keldi. U

polkovnik epoleti ustidan yelkasiga suvsar po‘stin tashlab olgan edi. U gurs etib kursiga o‘tirdi-da, tutqunlarga birma-bir nazar tashladi, qotib turgan navkarlarni ko‘zdan kechirib, so‘ng ko‘kka tikildi.

— Bugun havo yaxshi bo‘ladigan ko‘rinadi. Isatoyning buzg‘unchilaridan so‘nggilarini Allohning o‘zi jazosini bermoqchi, ularning harom qonlari bulg‘agan yer ko‘ksini oppoq qor bilan burkamoqchiga o‘xshaydi. Podshohi a’zam bilan xon hazratlarining shon-shavkatlari ortaversin!

— Shon-shavkatlari ortaversin! — deya takrorladilar navkarlar bilan kazaklar.

Sulton qo‘li bilan bordan ko‘ra yo‘qday soqolini siladi-da, Asanga murojaat qildi:

— Hoy, sen qozoq juzlarining eng yaxshi do‘mbirachisi kuy chalib beradi degan edingmi? Hay mayli, unday bo‘lsa, podshoh bilan xonni madh etib chala qolsin. Shunday qilsa, o‘z qismatini yengillatadi.

— Do‘mbira keltiringlar! — dedi Asan malaylariga.

— Hoy Boymag‘ambet! To‘mag‘ali qushning qiron solib, ucha olmasligini, tushovi yechilmagan otning tulporday chopa olmasligini nahotki bilmaysan?! Mana bu qo‘l-oyoqlarimdagi kishanlaringni yechtirib qo‘y, ana unda senga umringda eshitmagan kuyni chalib beraman, — dedi Qurmong‘ozi ovozi xirillab. — Yoki sen qafasga tushgan bulbuldan ham qo‘rqasanmi? — deb Sherniyoz turgan tomonga qaradi. — Anavi yosh oqinning kishanlarini ham yechtirib qo‘y.

Sag‘irboyning o‘g‘li sultonning ro‘parasida qoshlarini chimirib, qaddini tik tutib turardi. Sulton ko‘zlarini suzib, odaticha soqolini siypalagancha, Qurmong‘oziga tikilib qaradi-da:

— Mayli, sen aytgancha bo‘la qolsin. Kishanlarini yechinglar!

Kishandan bo‘shangan Sherniyoz horg‘inlikni his etib, maysa ustiga o‘tirdi, yalang oyoqlarini uqaladi. Uning oyog‘idagi etigini sultonning navkarlari yechib olgan edilar. Navqiron oqin sultonga qaray-qaray oyoqlariga latta-puttalarni o‘rarkan, Qurmong‘ozi uning ko‘zlarida qo‘rqishdan asar ham yo‘qligini,

faqat sovuqdan qaltirayotganini, biroq irodasi bukilmaganini ko'rib turardi.

Xizmatkor Qurmong'oziga do'mbira keltirib berdi. U do'mbirani qo'liga olib, sadafli naqshlarini ko'zdan kechirdi-da, qulog'iga tutib sozlay boshladi.

— Boymag'ambet, do'mbirangni ovozi bo'kib qolayozgan laychaning tovushiga o'xshaydi. O'zimning do'mbiramni bersinlar, uni navkarlaring tortib olganlar, — deb qo'lidagi do'mbirani irg'itib yuborgan edi, xizmatkor arang ilib oldi.

Boymag'ambetning bir tuki ham qilt etmadi.

Qurmong'ozining bu harakatiga tutqunlar tushuna olishmadi. Ular hayron bo'lib, unga qarab turishardi.

— Sarboz do'stlarim, nega xomush bo'lib qoldinglar? Boshlaringni baland ko'taringlar, olg'a dadil boqinglar! Yoki men sultonga noto'g'ri gapiryapmanmi? — deya Qurmong'ozi qo'liga o'zining do'mbirasini oldi.

Menga nima foyda shov-shuvdan quruq?
Mening dil xohishim na shon, na dovruq...
Qadrdon o'tovim qoldirib, tashlab,
Bu joylarda o'lja axtarmasman, yo'q.
Taqdir-u holimni so'rasang agar,
Men bir quvg'indiman, sho'rlik darbadar...

— Do'stlarim, boshlaringizni yuqori ko'taringlar, bu kuyni ham, qo'shig'imni ham sizga bag'ishlayman!

Qurmong'ozining baroq qoshlari yana chimrildi, chehrasi yanada jiddiylashdi.

Mana, u do'mbirani cherta boshladi. Bir... Ikki...

Do'mbira yangray ketdi. Yangi kuyning debochasi to'lqinli, shiddatli yangrardi. Qurmong'ozi ko'kka tikilar, barmoqlari esa o'z holicha parda-yu torlar uzra yo'rg'alardi...

Samoda yolg'iz kalxat parvoz qilardi. Yerdan turib qaraganda u bir vaqtlar ona Jiydali osmonida charx urib yurgan qari burgutni eslatardi. O'sha qari burgut Qurmong'ozi bilan Oqcho'lponning so'nggi bor maysazorda uchrashganining guvohi bo'lgandi. Ular o'shanda oqsoq qulon bilan yovuz xon to'g'risidagi afsonani esga

olgan edilar. U shafqatsiz xonni yenggan kuch-qudratni do'mbirasi tilida hikoya qilib bergan edi.

Oqcho'lpon bilan bo'lgan visol damlariga, muhabbatlari qo'shig'iga xon jallodlari raxna solgandilar o'shanda. Shunda Qurmong'ozi qo'lidagi do'mbirani shamshirga almashtirgandi.

Yo'q, Qurmong'ozi ajaldan emas, qullikdan cho'chirdi. Dasht erkinlikni sevadi, botirni ardoqlaydi, cho'l bag'rida janglar suroni hech qachon so'ngan emas: hech kim hech qachon dashtliklarni tiz cho'ktira olmagan...

Sarbozlar, sizlarga shon-sharaflar bo'lsin! Ona el bo'ylab siz qushday uchmoqdasiz, ota-bobolarimizning qadimiy qudratini ularning irodasini qayta tiklamoqdasiz...

Qurmong'ozi butun harorati, iste'dodi, ilhomini mana shu kuyga jo qilib chalmoqda edi.

Shiddatli, g'azabga to'la, kurashga chorlovchi ohanglar sulton yuragiga qutqu solayotgan bo'lsa, sarbozlar ruhini ko'tarar, nazarlarida qayerdadir yaqin yerda sarboz do'stlari ot o'ynatib kelayotganday tuyulardi. Gusura-gusur tuyoq ovozidan yurak to'lqinlanardi, yigitlar oyoq-qo'llaridagi kishanlarni unutib, ko'zlarida qasos uchqunlari chaqnab, yuzlarida tabassum jilvalanib, qaddilarini rostladilar.

Kuy shartta uzildi, do'pirlagan ovozlar tindi. Shu onning o'zidayoq do'mbira yanada balandroq yangray ketdi. Sarbozlar otlarini burib, orqaga, bu yoqqa qarab yelib kelayotganday edi. Tuyoq do'piri borgan sari kuchliroq eshitila bordi. Hademay sarbozlar ovulga bostirib kiradilar-u, zolim sultonning namat o'tovini to'ntarib tashlaydilar...

— Bular biznikilar! Bular bizning jangovar, yengilmas adaylik chavandozlar! Qurmong'ozining bu kuyi Aday madhiyasi! Tinglanglar uni! Butun dasht jangga otlandi, butun jahon g'azabnok qo'shiq aytmoqda!

Tutqunlar bandi ekanliklarini, o'zlarini ajal kutayotganini allaqachon unutib, jang maydonida yurganday hay-haylashar, shovqin-suron solishardi. Navkarlar miltiq va qilichlarini shaylab, sulton yonida to'planib oldilar. Tutqunlarning shovqin-suroni ularni qo'rqitib yubordi. Do'mbirachining qiyofasi ham dahshatli

tusga kirgandi. Sochlari arslon yoliday hurpayib, ko'zlariga qon to'lgandi.

— To'xtat! — dedi sulton. — Buning qanday kuy?!

— Bu sening o'tovingni qulatib, o'zingni qari tuyaday bo'kirtiradigan Isatoy yigitlarini sharaflovchi kuy!

— Men emas, sen o'zing hoziroq och qolgan itday uliysan, yaramas! Ikki yuz sumba urilsin! — o'shqirdi Boymag'ambet. — Uzog'i bilan bir hafta deganda o'sha Isatoylaring poyimga yiqilib, shafqat tilaydi hali!

Ovulga bir ofitser, polkovnik Gekkening chopari bo'lsa kerak, ot choptirib kirib keldi. Boymag'ambet uni o'z o'toviga boshladi. Yasovullar tutqunlarni qo'raga olib borib qamadilar. Qo'ra ortida yuzboshilar qo'liga sumba ushlagan soldat va navkarlarni safga tizardilar.

Hovlida Sherniyozning yolg'iz o'zinigina qoldirib ketdilar.

Davangirday uch navkar Qurmong'ozining ikki qo'lini miltiq qo'ndog'iga bog'lab, egnidagi kiyimni yechib tashlab, boyagi safdagilar orasidan birinchi bo'lib Olib o'ta boshladilar.

Mana, buyruq berildi, o'ng va so'l tomondan savalay boshladilar. Bir... ikki... uch... Kimdir qattiqroq uradi, kimdir ayabroq.

Qurmong'ozi ortidan Stepanni olib borishardi. Sag'irboyning o'g'li tishini tishiga qo'yib borar, Stepan ham churq etmasdan. Orqadan chuvullab sumba tushar, oldinda esa qo'ndog'i ko'krakka qadalardi. Jallodlar na ingroqni, na ohu nolani eshitardilar.

Qurmong'ozi joni og'riyotganidan emas, balki ular bilan yonma-yon yurib, o'z do'stlarining qanday azoblanayotganini ko'rishga majbur etilgan Sherniyozning ahvolini ko'rib qiynalardi.

U hali juda yosh, hali bunday azoblarni ko'rmagan, endigina muhabbat va qahramonlikni orzu qilib yurgan o'smir. Yosh oqin bunday zulmlarga, do'stlarining kaltaklanishini ko'rishga bardosh qila olmas edi. U qichqirar, soldatlarga qarab tuflar, do'stlariga yaqinlashmoqchi bo'lib oldinga intilardi.

— Meni ham! Meni ham uringlar, men ular bilan birgaman, — deb yig'lardi u.

Buni ko'rib Qurmong'ozi chiday olmadi:

— Hoy bola, jim bo‘l! — deb jerkib tashladi. Bu so‘z xuddi buyruqdek, faqat shoir bolagagina emas, saf orasidan o‘tayotgan barcha tutqunlarga qaratilgan buyruqdek yangradi.

Tutqun sarbozlardan biror kishi ham shafqat so‘rab yalinmadi. yetti yigit jazolash vaqtida jon berdi...

Qurmong‘ozi kishanlarning shildirashi va qaysidir bir soqchining g‘ing‘illagan xirgoyisi ostida jazoga bardosh berolmay halok bo‘lgan do‘stlarini, ovulda qolgan Sherniyozni o‘ylab ketyapti.

Ular ovuldan jo‘nab ketganlaridan keyin Sherniyozning yarim yalang‘och holda sovuq molxonada, pichan g‘arami ichida tunab chiqqanini Qurmong‘ozi bilmas edi. U do‘stlari iztirobiga sherik bo‘lishga intilib, navkarlar qo‘lidan qochib chiqishga harakat qilib yulqinganida ko‘ylagi ravag‘-ravag‘ bo‘lib yirtilib ketgan edi.

Ertasi kuni barvaqt uni yana sultonning o‘tovi oldiga olib keldilar. U sovuqdan ko‘karib ketgan, sovqotgan qo‘llarini qo‘ltiqlari ostiga tiqib, tinimsiz bir oyog‘ini ko‘tarib, bir oyog‘ini bosgan ko‘yi, Boymag‘ambetning o‘tovi oldida turardi. Sultonning qo‘riqchisi qamchi dastasi bilan shoirning biqiniga bir turtib:

— Hoy bolapaqir, hozir Muzaffar boy akangga o‘lan to‘qib, madhiya aytishing kerak. O‘laningni eshitiladigan qilib, qattiqroq o‘qi. Sultonning xohishini qanchalik tez bajo keltirsang, shunchalik tez usting but, qorning to‘q bo‘ladi.

Seni olqishlayman buyuk xonlar farzandi!.. —

Sherniyoz o‘zining o‘lanini shunday boshladi.

Saltanatda sen dovrug‘ topmoqdasan, boy og‘a,
Men esa xalqning bir faqir o‘g‘liman...
Shafqatga maylingni eshitganman, boy og‘a,
Qalbim umidvordir marhamatingdan.
Yalangoyoqlarim muzga aylandi yax zahri urib.
Boshim kerak bo‘lsa, kesa qol darhol,
Faqat bir iltimos — o‘lay tik turib.

Boymag‘ambet sukut saqlardi. “Qattiqroq ayt!” — deb o‘shqirdi qorovul.

... Boy og'a, qaytmas endi ertangi kunim,
Qayta nasib etmagay menga qadrdon dashtlar,
Bo'ynimni ko'zlaydi qiliching shu zum,
Eng so'nggi kun bo'ldi men uchun bu kun...
Bo'la qol — niyating qatl ekan gar!

— Kimsan? — qichqirdi sulton o'tovdan tashqariga chiqmay.

Vatansoz degan bir ajib diyor bor,
Unda ko'chmanchilar yashar baxtiyor.
Dashtlari o'tga boy, podalari to'q,
Unda qo'y-qo'zining son-sanog'i yo'q...
Ahil, inoq yashar unda o'tovlar,
Gavjum joylashgandir qo'ra, qishlovlar.

Men shunda tug'ildim va topdim kamol.
Nufuzli urug'ning farzandi edim,
Elimda suyukli, arzanda edim.
Agar tanimagan bo'lsang, tanib ol!
Sherniyozman men! — Isatoy kuychisi,
Mahambetga izdosh, uning inisi! —

dedi mag'rur, navqiron shoir.

— Qilichim yalang'ochlangan. Ostonamga qadam tashlasang bas, sening iltimosingni bajo keltiraman. Boshing sapchaday dumalab, oyoqlarim ostiga tushadi, — dedi sulton.

— Men seni xoqonga o'xsharsan deb o'ylagan edim. Xato qilibman, sen ota dasturin bilmaydigan tentak ekansan. Men qul emasman. Sening xonadoningga, oilang, malikang oldiga yalang'och kirmayman, — deb javob qaytardi Sherniyoz.

— Men kir deyapman! — o'shqirdi Boymag'ambet alamidan entikib.

Ostonang hatlab o'tishi mumkun Sherniyoz, ammo
Sening qaysarliging aqldan emas, tushun, boy og'a.
Mengamas o'z qizlaring nomusiga aylagin shafqat.

— Ma! O'chir ovozingni, — dedi Boymag'ambet uyaga egnidagi suvsar po'stinini irg'itarkan. — Endi kiraver, o'limingdan oldin qaytarib berarsan, — baqirdi sulton.

— Rahmat, boy aka. Tuya ag'anagan yerida jun qoldiradi, deydi xalqimiz. Bilmadim, sen sultonmisan yoki xasis so'qirmisan? O'ntagina sichqonning terisidan tikilgan po'stiningni hali bermay turib, qaytarib olishga buncha shoshilmasang. Ma, ola qol! Ajalimni shu yerning o'zida kutib turaman. — Sherniyoz yangi o'lanni boshladi, sultonning o'tovi oldida odamlar to'plana boshladi.

— Bas, ma, buni ol, narigi dunyoga o'zing bilan olib ketarsan! Tezroq kir ichkariga!

Sherniyoz o'lan aytib ostona hatlab ichkariga kirdi. U sultonning qizlarini maqtab o'lan aytardi.

— To'xta, — dedi Boymag'ambet. — Mening olti farzandim bor. Bari ham bir xil emas, yaxshisi ham bor, yomoni ham. Shularning har qaysisiga atab o'lan ayt, — dedi sulton eshik oldiga yig'ilgan odamlarni ko'rib, biroz g'azabini bosib. — Ehtimol, sen mening o'zimni ham yomonotliqqa chiqarishga jur'at etarsan?

— Buyursang, bajaraveraman!

— Aytaver!

Sherniyoz sultonning xalq boshiga yog'dirgan kulfatlari, ular chekkan qayg'u hasratlar, do'stlarining chekkan azob-uqubatlari — hamma-hammasi uchun bu safar o'zining butun kuchini, qobiliyatini, iste'dodini ishga solib kuylashga tushdi. Bu Boymag'ambetning zolimligi haqidagi juda achchiq qo'shiq edi.

Sulton g'azabiga chidayolmay qoldi, oltin sopli qilichini g'ilofidan sug'urib, yosh oqinga qarab yura boshladi. Sherniyoz bunga parvo qilmay, yelkasidagi po'stinga o'ralib olib, jallodning ko'ziga tik qaraganicha, mavjlanib oqib kelayotgan o'lanini ayta berdi. Uning og'zidan chiqayotgan har bir so'z eshik oldida turgan xalqqa bemalol eshitilib turardi.

— Taqsir, taqsir! — deb o'rtaga tushdi eshik tagidagi odamlar. — Boy aka, qo'ying, ota-bobolarimizning qutlug' dasturini buzmang! Yosh oqinga, o'z o'limi oldidan oxirgi o'lanini aytib tugatishiga imkon bering!

— Og'zilaringni yumlaring! — deb o'shqirdi g'azabidan telba bo'lib ketgan hukmdor, lekin u asrlar davomida avloddan avlodga o'tib kelayotgan odatni buzishga jur'at eta olmadi. — So'nggi so'zingni aytib qol! Shundan keyin men seni Isatoy bilan Mahambetingga qo'shib, do'zax otashiga jo'nataman! — deb Sherniyozning ustidagi po'stinni yulib oldi va uning tepasida qilich o'ynatib turaverdi.

Sherniyoz kulib yubordi, devonaga o'xshab sultonning ustidan kulardi u. Sultonning qonxo'rligi, ikkiyuzlamachi va qo'rqoqligi, xasisligi hamda zolimligini hajv qilardi u.

— Yomonlab qo'shiq to'qi, degan o'zing eding. Yo men yolg'on gapiryapmanmi? Garchand o'z so'zingga o'zing amal qila olmas ekansan, nima qilib sulton bo'lib yuribsan, sendan ko'ra, oddiy bir qozoq afzal emasmi unda?! — dedi Sherniyoz: — O'zing buyurding, men amringni bajardim. To'g'ri gapni ayt deding, men to'g'risini...

— Sulton, u haq. Qozoqda so'z va aql jangida g'olib chiqqan donishmandga o'lim yo'q deydilar. U hali juda yosh ekan, unga shafqat qil, hayotini hadya et. U buyuk oqin bo'ladi, — deb ovul oqsoqollari Sherniyozni himoya qila boshladilar.

— Sherniyozga shafqat qilsang, obro'ying oshadi. Haddan ziyod shafqatsizlik ko'rsataversang, xalqni o'zingdan uzoqlashtiraverasan, — dedilar sultonning maslahatchilari to'plangan odamlar tarqalgach. — Unga yaxshi gapirib ko'r. Yaxshi gapga ilon inidan chiqadi, deydilar-ku, axir.

Boymag'ambet polkovnik Gekkedan — qo'zg'olonchilarning qoldiqlarini butkul tor-mor etishga otlanish haqidagi buyruqni oldi.

"Sizga Toshtepaga borishda, yo'lda to'rtta o'rda yuzligi bilan qirq kazakka qo'mondonlik qilayotgan sulton Qorovulxo'ja qo'shiladi, — deb yozilgan edi nomada. — *Polkovniklardan Merkulov, Istomin, Trofimovlar ham yo'lda... Ashtarxondan yo'lga chiqqan polkovnik Aliyev o'zining uch yuz soldati va zambaraklari bilan bir kundan keyin Toshtepada bo'ladi, polkovnik Bezenov isyonchilarning Yoyiqqa boradigan yo'llarini to'sib turibdi, sulton Shing'ali O'rmon o'g'li o'rdaning oltita yuzligi bilan mening*

huzurimda, u sakkiz yuz askardan iborat mening qo'shinlarim oldida bormoqda ..."

Polkovnik Boymag'ambet mundiriga medallarini qadab olib, Asan boshliq mulozimlari bilan birga ovuldan ikki chaqirimcha keladigan joydagi maydonda saf tortgan qo'shinini ko'rikdan o'tkazdi. Sherniyoz sultonzodalarday bashang kiyinib olib yo'lning bir chekkasida, oqsoqollar yonida turardi. Ikki navkar undan ko'z uzmasdi. U xomush boqar, lablari titraganday ko'rinardi. U pichirlar, Mahambetning quyidagi o'lanini o'qirdi:

Yaralandi tulpor nogahon,
Ot ustidan sharilladi qon.
Suvoriy ham yebdi jarohat.
O hayot, ayt, ne qilmoq darkor,
Barcha tashlab ketgan yarador —
Qalbda orzu bo'lsa gar qat-qat?!

Ichki o'rdaning to'rt tomonidan Edil bilan Yoyiq bo'ylaridan, Gurev, Ashtarxon bilan Orenburgdan, chegaradagi barcha istehkomlardan Isatoyning sarbozlarini tor-mor etgani jazolovchi kallakesarlar to'dalari yo'lga chiqqan edi. Sho'mbal boyning amriga binoan, butkul No'g'ayli urug'i jazolovchilar tomoniga o'tib ketgandi. Ularning sultoni Shing'ali O'rmon o'g'li Gekkening eng yaqin maslahatchisi bo'lib qolgandi. Sultonlardan Sho'ke, Qorovulxo'ja bilan Boymag'ambet qurol-yarog' bilan o'q-dorini mo'l g'amlab olib, sarbozlarning iziga boshqalardan oldinroq tushgandilar. Ulardan har birining Isatoyga nisbatan o'z keki bor edi-da...

Sherniyoz nigohi qarshisida izg'irin shamoldan qorayib, muzlab tosh qotgan bepoyon yer yastanib yotardi. Ovuldan eng oxirgi soldatlar ham jo'nab ketdi, otlar dupuri eshitilmay, hamma yoq bo'm-bo'sh, jimjit bo'lib qoldi. Yurak uvushadi. Ko'ngil na kuy va na qo'shiq istaydi, ha, ko'ngilni g'ussa qopladi.

Sovuq betni chimdib, ko'z yoshlanardi. Sherniyoz ovulga qarab yo'l oldi. Boyagi ikki navkar ham bir qadam ortda qolmay, unga ergashdi. Keyinroqda kelayotgan oqsoqollar boshlarini chayqab: "Shunday oqin qafasga solib qo'yildi-ya!" — deyishardi xo'rsinib.

Ular Sherniyozning kecha Boymag'ambet sultonga bag'ishlab to'qigan o'lanini uzunquloq yashin tezligida butun dasht bo'ylab tarqatishini bilardilar. Bu o'lan Sherniyozning nomini tillarda doston etishini anglar, ayni chog'da, uning hayoti tahlika ostida qolishiga ham sababchi bo'lishi mumkinligini yaxshi tushunardilar. Qafasga tushgan bulbul sayramaydi. Ayniqsa, o'z to'pidan ajralganida..

— Voy-bo'y, bu makkor va shafqatsiz sultonga xar qanday shoir ham bardosh bera olmaydi. Unga Mahambetgina bardosh bera oladi, — deb boshlarini chayqashardi oqsoqollar. — Sarbozlarga qarshi katta, haddan ziyod kuch yo'lga chiqdi-da o'ziyam...

"...General-mayor Pokotilov ketayotganida puxta tadbir ko'rilmaganligi natijasida sodir bo'lgan kamchiliklar takrorlanmasligi uchun, Gorsk qal'asida turgan 200 kazakdan iborat otradni mening yetib borishimni kutmayoq yo'lga chiqib, tezda huzurimga yetib kelishlari haqida jiddiy qarorga kelib buyruq yo'lladim. Merkulovga ham meni kutmay to'rt yuz kishilik otradi bilan Kulagino bilan Zeleniydan chiqib Terakliqum qarorgohiga yetib kelishini va Isatoy Tayman o'g'li hamda sheriklari ovullarini egallashni buyurdim...

Gorskdan otrad yetib kelishi bilan boshqalarga nisbatan jangovar No'g'ayli urug'i qozoqlaridan tashkil topgan to'rt yuzga yaqin o'rdalik askarlarni yordamga olib, Tayman o'g'li to'dasiga qarshi hujumga o'tib, ularni tor-mor qilishni va uning o'zini tirik qo'lga tushirishni mo'ljallab turibman... Jangirxon ular o'zlarini qattiq himoya qiladilar, deb taxmin qilmoqda", — deb yozgan edi polkovnik Gekke, 1837-yilning 5-noyabrida general Perovskiyga yo'llagan axborotida.

9-noyabr. *"...Men kazaklar bilan yana 400 nafar o'rda qo'shinini olib Gorsk qal'asidan kelayotgan otrad bilan qo'shilish uchun yo'lga otlandim... Lekin Kulagino va Zelenniydan yo'lga chiqqan otradlar qozoqlar qurshoviga tushib qolib orqaga chekinishga majbur bo'ldilar, degan xabar oldim... Barcha zambaraklarni tezda dashtga olib chiqishni buyurdim... Shundan keyin, hali joyimizdan qo'zg'almay turib, Merkulovning otradi bizdan 35 chaqirim ma-*

sofada turgani to'g'risida xabar oldim. Bu xabarni eshitganim hamon uni bizga yaqinlashib kelishi haqida qaror qabul qildim. Kechga kelib ikki otrad qo'shildi".

12-noyabr. *"... Ishimiz yurishib ketgan o'sha kuni zambaraklar yetkazib kelinsin deb buyruq berilgan o'sha 12-noyabrda chopar keldi. Bu yerdan 25 chaqirim masofada rus qo'shinlari ko'ringanini va ular zambaraklarni tortib kelishayotganini xabar qildi. Men ularni kutib olish uchun 500 kazak bilan yana 100 no'g'aylilikni yubordim va o'sha kuni tunda otradlar muvaffaqiyatli ravishda butkul birlashdi".*

13-noyabr. *"... biz Terakliqumni mo'ljalga olib yo'lga tushdik..."*

14-noyabr. *"... tongotarda otrad Terakliqumdan chiqib, Yomonqum orqali Beketoyga qarab yo'lga tushdi, ellik chaqirimlik masofani bosib o'tgandan keyin manzilga kechki soat oltida yetib keldi. Shu yerda tunamoqchi edik. Lekin hali uzoqdaligimizda, marsh bilan kelayotganimizdayoq Yomonqum bilan Beketoy oralig'ida Isatoy qochib ketayotib, izini yo'qotish maqsadida o't qo'yib yuborganini ko'rib qoldik. Ularning ortida qolib, bizni kuzatib borayotgan maxsus otradlarini ham ko'rib turardik. Men oldinga, olti chaqirim keladigan masofaga yasovul Yeganov boshchiligida ikki yuz kishilik komandani, ularga yana no'g'aylilar to'dasini qo'shib yubordim, lekin ular dushmanga yetib ololmadi... Isatoy Beketoydan yigirma besh chaqirim masofadagi Toshtepa manzilida to'xtamoqchi bo'libdi. Bu xabarni eshitganimdan keyin Beketoyda tunash haqidagi niyatimni o'zgartirdim, otlarga dam berdirdim, odamlarning qornini to'yg'azdirdim va tungi soat ikkilarda yo'lga otlandim..."*

15-noyabr. *"Tongotarda biz Toshtepaga yaqinlashib keldik... Otryadimiz Isatoy galasi (ular besh yuz kishi edi, chamasi) turgan tepalik yoniga yetib keldik, xatti-harakatlariga qaraganda, ular qochishni xayollariga ham keltirmasdilar, aksincha, chavandozlari, botirlari, otrad ko'z o'ngida dala aylanib, ot o'ynatib yurishardi. Men otradni safga turg'azish, zambaraklardan bir yo'la o'q uzib, keyin yoppasiga hujumga o'tishni buyurdim..."*

Polkovnik Gekke o'z axborotlarida ana shunday deb yozgan edi.

* * *

Isatoyning e'tibori Toshtepa qarshisida qad ko'targan tepalik ustiga zambaraklar keltirib o'rnatayotgan Gekke soldatlariga qadalgan edi. Isatoy otlar zambaraklarni tepalikka qanday tortib chiqayotganini, soldatlarning esa shosha-pisha ularni o'rnatayotganini yaqqol ko'rib turar edi. Keyin soldatlar qo'llariga belkuraklar olib, zambaraklar oldiga tuproq uydilar. Endi zambaraklarning tumshug'igina ko'rinardi, xolos.

— Ular necha kishi keladi, seningcha? — deb so'radi u yonida turgan Qoldiboydan.

— Ko'p, — deb javob qaytardi Qoldiboy.

— Botir og'a, baribir emasmi? — dedi kulib yaqin yerda No'yon bilan birga ot o'ynatib turgan Jantas. — Qarang, ular bizni hamma tomondan o'rab olishyapti, ahvolimiz tang bo'ladi-yov. Lekin oqilona bir naql bor: "Yiqilsang ham eshakdan emas, balandroq tuyadan yiqil". Jang qilgandan keyin dushmanning zo'ri bilan jang qilgan yaxshi. Aftidan, general Perovskiy va Jangirxonning butun qo'shinlari-yu hamma sultonlarning navkarlari jam bo'lgan ko'rinadi. Nachora, bellashib ko'ramiz! Jang og'ir bo'ladi.

— Bellashib ko'ramiz!.. Har birimizga o'ntadan to'g'ri keladiganga o'xshaydi, — dedi Qoldiboy ma'yus kulimsirab.

— Ha, hamma otradlar shu yerga yetib kelibdi, — deb gapga aralashdi Sarmon. U sarbozlarga qo'zg'olonchilar boshliqlari keksa ovchi Sodiqning Beketoyqumdagi yolg'iz boshpanasida kengash o'tkazishayotgan paytda kelib qo'shildi. Sarmon o'zi bilan o'n yigitni boshlab keldi.

— Men maktubingizni Vladimir Ivanovichning o'z qo'liga topshirdim. Men unga biz ruslar, generallar bilan urishgani emas, Jangirxonga qarshi kurashgani otlanganmiz, deganimda u menga javob qaytarib: "Nima general bilan xon bir-biriga dushman ekanmi, mirza? Jangirda ham xuddi Perovskiynikiga o'xshash generallik epoleti bor..." — dedi.

Shustikovni yo'liqtira olmadim. Orenburgda dashtdan kim kelsa o'shani ushlab olishyapti. General-gubernatorning mahkamasiga kirganimda, itvachcha tilmoch meni ushlab berdi. Arang qochib

qutuldim. Buning ustiga, shoshilish kerak edi... Xuddi Orenburgga yetib borgan kunim, — deb so'zini davom ettirdi Sarmon, — u yerdan zambaraklar bilan qurollangan otrad yo'lga chiqqan ekan. Isatoyni tor-mor etgani ketyapti deyishdi. Mana bu zambaraklar o'shalar bo'lishi kerak...

— Hay mayli, ko'rarmiz, kim kimni tor-mor qilarkin, — deb gapga aralashdi Bolabek. — Qanday yaxshi kun-a! Quyosh charaqlab turgan bo'lsa ham, ayoz bo'sh kelmayapti. Otlar ham chiday olmay tipirchilayapti.

— Eshitdinglarmi? Ustyurtda Suyunqora Olloqulixonning zakotchilarini yana boplab savalabdi. Ularning karvonlarini yo'lda to'xtatib, xonga olib borayotgan o'ljalarini o'z ovulidagilarga bo'lib beribdi, — dedi Sarmon bilan birga kelgan yigitlardan biri gapga aralashib.

— Olloqulixon Qaybolaning Jangirxon o'rniga taxtga o'tirishini, keyin uning qozoq yerlarini Xiva xonligiga sotishini mo'ljallab, besh yuz navkar va talay qurol-yarog' berganmish, — qo'shib qo'ydi boshqa bir yigit, Isatoy bilan Mahambet ko'z urishtirib oldilar. Sardor kecha Qaybolaning chopar yuborganini Mahambetga aytgan edi.

— Mahambet, mening gunohim og'ir. Jasqush yaqinida, o'tovda o'tirganimizda, sening so'zingga quloq solmagan edim. Sen o'shanda haq eding, biz Jasqusga yurishimiz, Jangirni taxtdan ag'darishimiz kerak edi, undan keyingisini o'ylab, maslahatlashib qilsa bo'laverardi. Men faqat sening qarshingda emas, barcha yigitlar oldida gunohkorman... Endigi so'z seniki, Mahambet. Qaybola huzuriga borar-bormasligmizni o'zing hal qil. Yana shuni aytib qo'yay, Suyunqoradan ham chopar keldi. Yordam kerak bo'lsa, yigitlarimni yuboraman, debdi botir.

— Yo'q, kerak emas! Vaqt o'tdi, — dedi Mahambet va qolgan javobini o'landa bayon etdi:

O'lim yaqin — qismat muqarrar!
Bu pallani ko'rajak har kim —
Hayotini berib xalq uchun...

Biz xalqni zo'rlab, qo'rqitib yoki aldab kurashga chorlagan emasmiz. Sarbozlar dahshatli jangga kirishga tayyor. Qolganini jangdan omon-eson chiqsak, o'shanda o'ylashib ko'rarmiz, — dedi Mahambet o'z so'zini yakunlarkan.

— Ehtimol, Qaybola Jangirxonning taxtinigina emas, unga qo'shib, Fotimaxonimni ham tortib olar, — deb hazillashdi yigitlardan biri.

— Yo'q, uni o'zimizning No'yonga olib boramiz. Axir, u shu mahalgacha bo'ydoq yuribdi-da, — dedi hazilni davom ettirib yana bir yigit.

— Hoy, sen nimaga kulyapsan? — dedi No'yon Bolabekka o'qrayib. — Xo'sh, o'zingning mendan qayering ortiq! Hatto suyukli turkman qaylig'ingdan haligacha biron marta bo'sa olishning uddasidan chiqolmading-u. Xivada bir paranjilik ayolning ketidan rosa izg'iganingni o'zim ko'rganman, keyin bilsak, u og'zida bir tishi yo'q kampir ekan...

— Hamma tayyormi? — dedi No'yonning so'zini bo'lib Isatoy. Sardor chaqaloqlarini beshig-u belanchaklari bilan eng baquvvat va ildam otlarga yaxshilab joylashtirib, chandib bog'lashda ayollarga yordamlashayotgan yigitlarga murojaat qilgan edi. Yarador sarbozlar bilan bolalarni qurshovdan eng avval chiqarib qo'yishga qaror qilingan edi. Lekin, yaradorlar qarorga bo'yin egmay, yana safga qaytdilar.

Isatoy dushmanning oldingi marradagi qo'shinlariga juda ko'p aravalar kelib qo'shilganini ko'rib turardi.

— Tayyormiz! Tayyormiz! — deb birin-ketin yuzboshilar kelib, xabar bera boshladilar.

— Dushmanni ogoh etinglar! Biz uning ustiga hujum boshlaymiz! — deb buyruq berdi oldingi tomonga ishora qilib Isatoy.

Bir nechta yigit miltiqlarini havoga ko'tarishdi. Dushmanni ogohlantiruvchi miltiq ovozlari yangradi. Gekke bilan uning ofitserlari bu harakatni o'taketgan odobsizlik va johillik deb qabul qildi. Besh yuzga yetar-yetmas sarboz podshoh va xonning uch ming kishilik qo'shinini mensimay jangga kirib kelayotgan edi.

Gekkening oldindan tayyorlab qo'yilgan ultimatumi to'g'risida endi gap ham bo'lishi mumkin emasdi. Bundan bir soat burun polkovnik g'alayonchilar qurollarini tashlab, boshliqlarini ushlab berar degan umidda bo'lsa, endi Jangirxon bilan Shingali sultonning so'zi rost ekaniga ishonch hosil qildi. Isatoy yigitlari oxirgi tomchi qonlari qolguncha jon berib-jon olishga ahd qilgandilar.

— Hujumga tayyorlaning! — Gekke otga mindi.

...Sarbozlar Toshtepadan pastga qarab to'ppa-to'g'ri polkovnikning bosh otradi va zambaraklari ustiga o'qday ot surib kelishardi. Sarbozlar minib olgan bo'yi past, dumlari qamchinday yoldor otlarda xuddi qanot paydo bo'lganday edi.

Oradagi masofa borgan sari qisqarmoqda edi, sarbozlar qora bulutday bosib borishardi. Ular ko'p emas, uzog'i bilan yuz kishi. Qolgan sarbozlar tepalikda, ularni kuzatib turishibdi. Butun boshli qo'shin, kazak va navkarlar yuzliklariga qarshi yuz sarboz...

Ularning hayqiriqlari, yilning ushbu faslida ko'rilmagan charog'on nurda yarqirab ko'rinayotgan keskir qilichlar, dubulg'a, sovut-u qalqon hamda o'tkir nayzalar go'yo sarbozlarning qandaydir maxfiy, bitmas kuchga ega ekanligidan dalolat berib turganday edi. Gekke taajjublanardi. Shu topda uning yodiga Peterburgdagi hashamatli uyida osig'liq turgan, flamand rassomi ishlagan surat tushdi, unda yaralangan ov iti qo'rquvni yengib, yirtqich yo'lbars ustiga o'zini otgani tasvirlangandi...

Ikki yuz kazak va uch yuz navkar qilich yalang'ochlab, polkovnik ishorasini kutib turardi. Lekin oldin zambaraklar tilga kirishi kerak. Sakkiz zambarak va uch yuz o'qchi qo'zg'olonchilarni baravar o'q uzib qarshi oladi, shundan keyingina kazaklar jangga kirib, tirik qolganlarni qilichdan o'tkazadilar.

Gekke Isatoyni ko'rib turardi. U yuzlik oldida ot choptirib kelardi. O'zi qopqonga bo'ynini tutib bermoqchi, shekilli. Ha, bunday qulay fursatni xayolga keltirmasa ham bo'ladi. Mana, ular juda yaqin masofaga kelib qoldilar...

— Boshliqlarini tirikmi yoki o'likmi, qo'lga olinglar! — deb buyruq berdi Gekke otliqlar qo'mondonlariga.

— O‘t och! — Yuzlab miltiq va zambaraklardan bir yo‘la uzilgan o‘qlar gumburi sarbozlar qiyqirig‘ini bosib ketdi. Bir daqiqada hamma yoqni chang-to‘zon qopladi, hech narsa ko‘rinmay qoldi, Gekke Isatoyning sarbozlari chaqqonlik bilan yoyilib ketganliklarini, ustalik bilan o‘zlarini himoya qilayotganliklarini ko‘rib turardi.

Na zambarak, na miltiq va na sochma o‘qlar nishonga borib tegmagan edi. Kazaklar bilan navkarlar “Ur, ur!” — deb shovqin-suron ko‘tarib, olg‘a tashlandilar. Bir, ikki, uch daqiqa o‘tdi... Tutun va to‘zon tarqadi. Jang maydoni aniq ko‘zga tashlandi. Gekke shunda o‘z jangovar hayotida ko‘rmagan, bilmagan voqeaning shohidi bo‘ladi. Sarbozlar yuzligi kazaklar bilan navkarlarni Toshtepa tomon quvib borardi. Isatoychilar dushmanga tinchlik bermasdi: ustalik bilan zarbadan qochib, nayza sanchib, kazaklarni, navkarlarni egardan urib tushirar, ularning otlarini dumalatishardi. Toshtepa tomondan yana sarbozlar yuzligi jang maydoniga ot qo‘ydi. Bir daqiqadayoq ular tahlikaga tushib qolgan kazaklar bilan navkarlar qarshisida paydo bo‘ldilar.

Zambaraklar ham, o‘qchilar ham jim turib qolishdi. O‘t ochishga imkon yo‘q, o‘t ochilsa, dushmanga nisbatan o‘zlarining qismlari ko‘proq talafotga uchraydi. Ofitserlar sarosimada Gekkega qarab turishardi. Gekkening butun qo‘shini tun bo‘yi yo‘l yurib, jangga kirishga tayyor emasdi. Gekkening o‘zi bo‘lsa qo‘shinining ko‘pligiga ishongan, jangga kirilsa bas, sarbozlar o‘takasi chiqib qochib qoladi yoki osongina taslim bo‘ladi-qo‘yadi deb o‘ylagan edi. Shu boisdan u, g‘alayonchilarni qurshovga olib, do‘q qilishni kifoya qiladi deb o‘ylagan edi.

Endi zudlik bilan qarshi hujumga o‘tish talab etilardi. Ofitserlar shoshilinch uch yuz kazak va navkarni safga turg‘azdilar.

Gekkeni yana bir narsa tashvishga solib qo‘ygandi, u hali jangga kirmasdan oldinoq osonlikcha g‘alaba qozonganligi haqida axborot tayyorlab, Orenburgga chopar jo‘natgan edi. Axborotda sulton Shing‘ali O‘rmon o‘g‘lining unga yaqindan yordam bergani, kerakli odamlarni tez topib, darhol Isatoyning iziga tushib olishiga ko‘maklashgani, aqlli maslahatlar bergani maqtab yozilgandi.

— Janoblar, bu vahshiylar talvasasi, — derdi ofitserlar orasida ot o'ynatib yurgan, bakenbardli yoshgina rotmistr. — Ular o'zlarini ajal changaliga uryaptilar. Nima sababdan va nima uchun o'zlarini o'limga ro'para qilyaptilar?..

— Demak, buning biron sababi bor ekan-da, — dedi kapitan Shustikov rotmistrga qaramay. — Bizga-chi, bizga bu urushdan nima naf bor? G'alaba qozondik deylik, nima, shuhratimiz, obro'yimiz oshib ketarmidi...

Lekin uning so'ziga hech kim quloq solmadi.

Shu payt Toshtepa ustidan xuddi tog' qulaganday yana bir sarbozlar yuzligi jang maydoniga bostirib kelaverdi. Ular holdan toyib, chekina boshlagan do'stlariga dalda berib, yangigina jangga kirgan navkarlar va kazaklar safini ezib-yanchib, ularni o'qchilar tomon surisha boshladilar.

Yollangan navkarlar bilan kazaklar chekina borib, o'z soldatlari orasida yo'q bo'lib ketdilar. Ularni izma-iz quvib borayotgan sarbozlar kutilmaganda otlarini Toshtepa tomonga burdilar-u, shamoldek yelib ketdilar, zambarak va miltiqlardan uzilgan o'qlar, deyarli ularga zarar yetkazolmadi...

Isatoyning chap qo'li yaralandi. Yo'rg'asining sag'risida qon ko'rindi, otning eti orasiga o'q sanchilib qolg'andi. Lekin jarohat jiddiy emas, aksincha, u jonivor samanning g'ayratiga g'ayrat qo'shib yuborganday bo'ldi. Poyga vaqtida ham ot og'ir nafas olib, yaxshi yugurmasa, chavandozlar ot sag'risiga tig' sanchib, qon chiqarishadi. O'sha yaradan sel aralash ko'pik oqib chiqadi va bundan ot rohatlanadi. Tig' suyakka borib yetmasligi kerak, albatta.

O'q samanning suyagiga borib yetmagan edi. Demak, yo'rg'a yanada tezroq yeladi, yaxshiroq yo'rg'alaydi, keyin dam olgach, oradan bir qancha muddat o'tgachgina og'riqni sezadi.

— Xudoning o'zi shohid, jigarlarim, arslonday jang qildinglar, — dedi qari ovchi Sodiq. U qator-qator tuyalarni tizginidan tutgancha nortuya ustida o'tirardi. Har bir tuyaning ikki yoniga o'tkir uchli yog'ochlar bog'lab tashlangandi.

Hali urushga kirmagan ikki yuz sarboz Gekkening qarshi hujumini qaytarishga taraddud ko'ra boshladi.

— Endi sayrga borish navbati bizniki! — deyishardi Isatoyning buyrug'ini kutayotgan yigitlar. Isatoy esa Qoldiboy va Mahambetning yonida, hozirgina tashlab chiqqan jang maydoniga qarab turardi. Jang maydoni odam jasadi, egasiz qolib boshi og'gan tomonga yugurib yurgan otlar bilan to'lib ketgan edi. Jonivor otlar goh kishnab bir yerga to'dalanishar, goh egalarini axtarib, to'rt tomonga zir yugurishardi. Ularning kishnashlari xuddi nola singari odamning suyak-suyagiga borib sanchilardi.

Dushman hamlaga tayyorlanardi. Sultonlarning otliq askarlari orqa tomonga to'plana boshladi. Gekke g'alayonchilarni ikki tomondan qurshab olishga va so'nggi qaqshatqich zarbani berishga harakat qildi.

Butun osmon bulut bilan qoplandi. Shamol kuchaydi.

— Har bir kuyning nihoyasi bor, — dedi Qoldiboy.

— Yorib o'tamiz! Yigitlar o'z ovullariga borib, ularni jallodlar qo'liga tushirmay dasht ichkarisiga olib ketsinlar, bahor chog'ida bizni kutsinlar... — Beketoyda yuzboshilar kengashi qabul qilgan qarorni eslatdi Mahambet.

Izg'irin shabada havoda qor uchqunlarini uchirib kela boshladi.

— Jang maydonidan qochgan yigitni xalqi ham, xotini ham kechirmaydi. Biz mardonavor jang qildik. Hech kim bizni yengildi deya olmaydi. Ko'klamgacha xayrlashaylik. Uzoqlashib ketgunimizcha himoyaga o'tishga ko'kragini qalqon qiladiganlar bo'lsa, oldinga chiqsin! — deb murojaat qildi sardor qo'zg'olonchilarga.

Yuzga yaqin botir oldinga chiqdi, ular orasida — Qoldiboy, No'yon, Ersari, Jantas va Bolabeklar bor edi. Mahambetning inilari — Isa bilan Musa ham o'sha yigitlar orasida edi.

Birinchi bo'lib qurshovni yorib o'tishi lozim bo'lgan yigitlar xotinlar bilan bolalarni o'z himoyalariga oldilar. Isatoyning yoshgina o'g'li — Jaqiya ham shular orasida. U endigina o'n olti yoshga to'lgan. Sardorning do'stlari uni jangga kiritmay turishardi. Mana, Jaqiya beshikda yotgan chaqaloq ukasiga engashdi-da, uning yuzidan o'pdi va tashqariga chiqib, safdagi Musaning yoniga borib turdi. Har ikkalasi ham hali navqiron, chiroyli edi. Ular jilmayishib,

biri otasiga, yana biri oqin akasiga tikilardi. Sardor ham, Mahambet ham churq etmay turishaverdi. Faqat xotinlarigina piq-piq yig'lab, ko'z yoshlarini artishar edi.

...Toshtepani qurshab jazo otradlari yopirilib kelardi. Isatoy saman otini niqtadi, yo'rg'a ikki oyog'ini ko'tarib tik turdi.

— Olg'a, jigarlarim!

Sulton Shing'ali qo'mondonligidagi Jangirxonning otliq askarlari tepalik etagiga yaqinlab qoldi, ularning ketidan, ikki-uch yuz qadam orqada kazaklar saf-saf bo'lib, ikki qanotda esa Boymag'ambet bilan Qorovulxo'ja navkarlari kelmoqda.

Sarbozlar jazolovchilarning saralangan qismlari ustiga quyunday otildilar. Kuchayib borayotgan shamol sarbozlarga yordam berib, ularni olg'a undayotganday, qarama-qarshidan kelayotgan Gekke qo'shinlarining basharasiga esa muzdek qor tikanday urilardi.

Gekkening ofitserlari tepalikdan o'qday uchib tushayotgan qo'zg'olonchilar to'dasi oldida tuya va yaydoq otlar paydo bo'lganini payqamay qoldilar. Tuyalar bilan yaydoq otlar sarbozlar nayzalari niqtovi ostida pastga xuddi yashindek tez kelardi, yigitlarning otlari ularga arang yetib ulgurardi.

Navkarlar bilan sarbozlar orasida ikki yo uch yuz qadam masofa qolganida quturib ketgan jonivorlar jon-jahdlari bilan olg'a tashlandilar. Oldinga chiqib turgan uchi nayza uzun yog'ochlar ularning ko'kraklarini himoya etib turardi. Navkarlar bunday dahshatli zarbadan o'zlarini olib qochishga harakat qilib, otlarining boshini to'g'ri kelgan tomonga bura boshladilar, shunday qilib, saflar qorishib ketdi. Orqada kelayotgan kazaklar bu holni ko'rib No'g'ayli yigitlarini iskanjaga ola boshladilar. Chunki agar no'g'aylilikar orqaga qochmoqqa urinsalar, barcha kuchlarni ishga solib bo'lsa-da, bunga yo'l qo'ymaslik buyurilgan edi.

Tepalikdan dumalagan xarsangday otilib tushayotgan tuyalar podasi oldingi safda kelayotgan otliqlarni ag'darib-to'ntarib, kazaklar safini parchalab yubordi. Tuyalarga chandib bog'langan nayza tayoqlar gursillab otliqlarni qulatar, otlarning qorniga sanchilib, ularni yiqitardi. Quturib ketgan tuyalar shiddat bilan yana

yovning qalin saflarini yorib, zambaraklar oldiga uyulgan tuproqni bosib o'tib, shamolday yelgancha Gekkening chodirini dabdala qilib tashladi-da, sahro tomon ketaverdi...

Tuyalar podasi qo'zg'olonchilarga yo'l ochib berdi. Botirlar yuzligi yo'l-yo'lakay jangga kirib, do'stlarini oldinga o'tkazib, qurshovdan chiqarib yuborishga intilardi.

Birinchi bo'lib qurshov zanjirdan ochilgan raxnadan o'tishga nortuyaning o'rkachlariga yopishib olgan keksa Sodiq muvaffaq bo'ldi. Uning ketidan yigitlar himoyasida ayollar bilan bolalar chiqib oldilar. Isatoy bilan Mahambet ayollarni, bolalarni, do'stlarini qutqarib yuborishga jonlarini tikkan sarbozlarga boshchilik qilardi.

— Xudo yorlaqagurlar, keta qolinglar! Bo'lmasa, hammamiz qirilib bitamiz! — deya qichqirdi Qoldiboy qilichlar sharaqa-shur-uqi ostida.

Shunda Mahambet sarbozlar jangga berilib ketib, qurshovda qolganlarini payqadi.

— Dashtga, dashtga, birodarlar! —dedi Isatoy bilan yonma-yon jang qilayotgan Mahambet.

Botir uyqudan uyg'onib ketganday bo'ldi va:

— Olg'a! — deb baqirdi.

Zambaraklardan o'q uzilgan paytda u sarbozlari bilan dushman saflarini yorib o'tishga ulgurgan edi. Saman ot bir qalqidi-yu, yerga yiqildi. Isatoy otning boshi ustidan uchib ketdi.

— Alvido, do'stim! — dedi sardor tura solib, yov hamlasini qaytararkan. Uning keskir shamshiri bir ikki yovni qulatdi. Shabada uning egnidagi tuya jun chakmonini yulqilar, oppoq soch-soqolini hilpiratardi.

— Uni tiriklayin ushlang! — degan ovoz eshitildi kazaklar bilan navkarlar to'dasi ichidan.

— Isatoy kofirlarning ichida yolg'iz qoldi! — degan ovozi eshitildi Qoldiboyning. Sarbozlar yordamga tashlanib, dushmanni qisib borib, o'z sardorlari yoniga o'tib oldilar.

— Hammalaring ketinglar! — dedi bor tovushi bilan Isatoy. Shu topda bostirib kelgan quyun sardorning so'nggi so'zini barcha yigitlarga yetkazdi.

Dashtda bo‘ron boshlangandi. Charchagan, och, o‘takasi yorilayozgan otlar egalariga bo‘yin bermas, keyin kazak va navkarlarning o‘zlari jazavaga tushgan sarbozlar qilichi hamda nayzalari zarbidan qochishga urinardilar...

Yigitlardan birortasi ham maydondan chiqib ketishga shoshilmas, aksincha har qaysilari sheriklarining olisroqqa yetib olishini ta’minlamoq uchun dushmanni uzoqroq tutib turishga harakat qilardi. Isatoyning so‘nggi buyrug‘igina ularga ta’sir qildi. Ular besh, o‘n kishi bo‘lib dushman qurshovidan qutulib chiqar va dushman kelgan tomonga qarab jo‘nab qolardilar. Ta’qibchilar esa goh bir to‘da, goh ikkinchisi ortidan quvib qolar, lekin bo‘ron ichida ularni yo‘qotib qo‘yib, yana orqalariga qaytardilar. Eng abjir yigitlar Isatoy bilan Mahambetni to‘pdan chiqib olguniga qadar ko‘krak tutib qo‘riqlab turdilar.

Mahambet jang maydonidan chiqib keta turib, Bolabekning qulaganini va tepasida o‘nlab qilichlar silkinganini ko‘rib qoldi. Mahambet bunga bardosh qila olmay, otining boshini orqaga burdi.

— Oqsoqol, ularni olib keting! Agar hammamiz halok bo‘lsak, qasosni kim oladi? — deb baqirdi Jantas Qoldiboyga.

U tinimsiz dushmanga qilich solardi. Qoldiboy boshchiligida jang qilayotgan yigitlar Isatoy bilan Mahambetni qayta jangga kiritmaslikka tirishardilar. Oppoq to‘zon ichida o‘nga yaqin yigit paydo bo‘ldi. Musa ham shular orasida edi. Ular qurshovni yorib o‘tgan edilar. Mana, yordam bergani yana qaytishibdi.

— Isatoy tirikmi? — Uvullab esayotgan bo‘ron, qurol-yarog‘ jarangi ularning ovozini bosib ketardi. — Isatoy qani?..

— Sen hammamizni halok qilasan! — dedi Qoldiboy qulay fursat kelgani hamonoq Isatoyning otini jilovidan ushlab, uni sudrab ketarkan. Sardor sarbozlarning jang maydonidan chiqib ketmayotganining sababini endi tushungan edi, aftidan... Lekin soldatlar ularning yo‘lini yana to‘sdilar.

— Men bu yerdaman, orqada qolmanglar! — deb baqirdi Isatoy ovozi boricha.

Qilich zarbi va o‘qdan saqlash uchun do‘stlari u tomon otildilar. Mahambetning yonida edi. Jantas, No‘yon, Ersari ilgarilab

yurib, yo'lni kesib chiqqan yovga tashlandilar. No'yon yaralanib, otdan yiqildi, Jantas, Qoldiboy Ersarilar No'yonning yoniga yetib borishga intilib, jon-jahdlari bilan olishardilar. Bir guruh sarbozlar, navkarlar va kazaklar iskanjasida qoldilar. Isatoyning o'g'li Jaqiya bilan Mahambetning inisi Isa ham o'shalar orasida edi. Isatoy bilan Mahambet o'ngroqdan, kapitan Shustikovning yuzligi jang qilayotgan joydan yorib o'tishga muvaffaq bo'ldilar.

— Yaqinroq kelgunlaricha qo'yib berib, baravariga o'q uzilsin, — deb buyurdi kapitan. Biroq sarbozlar yelday uchib o'tib, zumda qor bo'roni ichida g'oyib bo'ldilar. Kapitan ular ketidan ikki chaqirim yergacha quvib bordi, keyin orqaga qaytishga majbur bo'ldi.

Qop-qora qonga bo'yalib, qorga belangan No'yon hamon qilichini qo'lidan tashlamasdi. U jon achchig'ida hamlaga otilgan sher yanglig', dam yiqilib, dam turib do'stlarnga yordamga tashlanardi. Faqat Jantas, Sarmon va yana bir necha yigitlargina ot ustida jang qilmoqda edilar. Allakimning qilichi Ersarining chap yelkasiga zarba berdi...

Iskanjada qolgan o'n besh sarboz bir yerga g'uj bo'lib yov bilan ayovsiz jangni davom ettirardi.

— Otlarini qulating! — deb buyruq berdi Merkulov.

O'n besh sarboz kallakesarlar qurshovida qoldi. Qo'llaridan qalqonlari urib tushirilgan, kiyimlari tilka-pora bo'lgan, a'zoyi badanlari qonga belangan yigitlar yonlariga yo'lagan dushmanni jahannamga jo'natishga hozir turardilar. Eng oldinda hamma yog'i qon Ersari, Qoldiboy, boyboqti urug'ining o'g'loni Yunus botir, yigitlar "ko'kko'z qoplon" deb nom qo'yib olgan Stepanning yuzligidagi so'nggi rus yigiti turishardi.

— Qurollaringni tashlanglar! — deb qichqirdi Shing'ali sulton yuzini qor va izg'irindan yashirarkan. Biroq yigitlarning hech qaysisi qilichini tashlamadi. No'yon olg'a bir qadam tashladi-yu, guppa qulaganicha qimir etmay qoldi.

— Qurollarini tortib olib, o'zlarini bog'langlar! — deb buyurdi Boymag'ambet mulozimlariga. Yollangan navkarlar asta olg'a bora boshladilar, ammo sarbozlar taslim bo'lishni xayollariga ham keltirmasdilar.

— Bularni jin urganga o‘xshaydi... — deyishardi navkarlar vahima bilan.

— Ularni tirik qo‘lga olib bo‘lmaydi...

— Yashashni xohlamasalar, otib tashlanglar... — deb buyurdi Gekke.

Miltiqlardan biryo‘la o‘q uzildi...

Bo‘ron kuchayib, qattiqroq uliy boshladi...

To‘p o‘qlari uchar dam-badam,
Dasht lovullar o‘t-alangadan.
Ikki sherday yer quchib yotar
Ersari va Qoldiboy bu dam...

... Sodiq ota besh sarboz kuzatuvida ayollar bilan bolalarni To‘rtshag‘il to‘qayzorlaridagi ovchilarning yashirin yerto‘lasiga olib borib joylashtirdi. U qurol-yarog‘, oziq-ovqat ortilgan to‘rt tuya va bir necha ehtiyot otni o‘zi bilan olib ketishga muvaffaq bo‘ldi...

Beshiklar tushirildi. O‘t yoqildi. Ochiqqan go‘daklar ovqatlantirildi. Suv isitilib, yaradorlarning jarohati yuvib, bog‘landi. Hamon tinmay qor yog‘ar, yurakni g‘ash qilib tinimsiz shamol uvlardi...

Sodiq ota Maqbolga sarbozlarning yaralarini issiq suv bilan yuvib, bog‘lashga ko‘maklashardi. Yengil yaralarga kul sepib bog‘lashar, og‘ir yaradorlarning jarohatlariga kigiz kuydirib bosib, ustidan dorivor giyoh qo‘yib tang‘ib tashlashardi. Bir yigitning o‘ng qo‘li og‘ir yaralangan, go‘shtlari titilib ketganidan butun badani shisha boshlagan. Yilqi so‘yib, yigitni terisiga o‘rab qo‘yishga to‘g‘ri keldi. Qo‘y yoki echki terisi bo‘lganida ish yengilroq ko‘char, shish ham tezroq qaytib, isitma ham tez pasayardi-ya, lekin hozir uni qayoqdan ham topishar edi?..

Yigit nihoyat tinchib, uxlab qoldi.

Oh-nola tindi. Hammalari jim yotibdilar. Kimdir uxlayapti, kimdir xayolga berilib ketgan. Ahyon-ahyonda xo‘rsiniq eshitiladi va yana sukunat cho‘madi. Dala-dashtni kezaverib, issiq-sovuqdan tinkasi qurigan, qorayib ketgan, vaqt hisobidan adashgan Maqbol

beshikda yotgan o'g'ilchasi ustiga boshini qo'yishi bilanoq ko'zi uyquga ketdi. Yerto'lada jimjitlik hukm surardi.

Lipillab yonayotgan moychiroqning chirsillashi-yu pasaya yozgan shamolning uvlashigina eshitiladi...

Sodiq ota eshik oldidagi qorni tozalab bo'lib, bir quchoq o'tin ko'tarib, o'zi bilan bir olam sovuqni boshlab kirib kelganida Maqbol allaqachon qattiq uyquga ketgan edi.

Ota qo'lidagi o'tinni yerga tashladi. Egnidagi po'stinini yechib qo'yib, o'tga o'tin tashlay boshladi. Sodiq ota gurullab yonayotgan o'tga tikilgancha o'yga toldi. U yozda Jangirxonni yo'lbars oviga kuzatib chiqqanini esladi.

...O'shanda xon o'z chodirini to'qayzordan ikki-uch chaqirim uzoqlikdagi baland tepalikka qo'ndirdi. Unga hamroh bo'lib kelgan vazir Bekmuhambet bir aylanib kelmoqchi bo'lib xondan ijozat so'radi. Jangirxon ijozat berdi. Sodiq Bekmuhambetni qopqon qo'yilgan yerga boshladi. Vazirni olti navkar kuzatib bordi. Ular to'qayzor chekkasiga yetib keldilar.

— Siz shu yerda tura turing, men uch yigit bilan borib qopqondan xabar olay-chi, yo'lbars qo'noqqa kelganmikin, — dedi Sodiq, Bekmuhambet kallasini liqillatib rozilik bildirdi.

Sodiq ota vazirning kamgap, o'ychan odam ekanini payqadi. "Tug'ishgan jigaring xonga va o'zingga qarshi bo'lganidan keyin, hukmdorga xizmat qilish oson bo'lmasa kerak", deb o'yladi keksa ovchi, ehtiyotlik bilan qamish oralab borar ekan.

Chog'roqqina yalanglikda atayin qoldirib ketilgan oqsoq va so'qir biya qonga botib, tilka-pora bo'lib yotardi.

Sodiq ovchi Bekmuhambetga yaqin kelib, bu yerdan tezroq ketish lozimligini, yo'lbars yeyayotgan o'ljasini qoldirib, hozir qayerdadir, shu atrofda bo'lishini, ehtimol, qamishlar orasida o'zlarini kuzatib turgan bo'lishi mumkinligini shivirlab aytdi. Yirtqich bilan to'qnashishga qulayroq yerni tanlash lozimligini, keyin yigitlar orqa tomondan aylanib o'tib, yo'lbarsni to'ppa-to'g'ri buyuk vazirning miltig'i o'qiga ro'para bo'ladigan qilib haydab kelishlari kerakligini tushuntirdi.

— Seni qo'rqmas, mohir yo'lbars ovchisi deb eshitgan edim. sen bo'lsang bizni, qo'rqoq quyonga o'xshab, orqaga chekintir-

moqchisan, qo'rqqaningdan tiling kalimaga kelmay qoldi! Qani, olg'a boshlayver! — dedi Bekmuhambet qovog'ini solib.

— Men bunday og'ir so'zni birinchi bor eshityapman, muhtaram biy! — dedi Sodiq ovchi vazirning yuziga tik qarab. — Bo'lmasa, ikkovimiz bora qolamiz, yigitlarni shu yerda qoldiring. Shuncha odam o'zimizni baravariga ajal panjasiga urishimizning hojati yo'q.

— Mayli, sen aytgancha bo'lsin! — dedi Bekmuhambet polkovnik Gekke ulug' vazirga sovg'a sifatida taqdim etgan qo'shotar miltiqni navkarining qo'lidan olib, tepkisini ko'tarib, birinchi bo'lib yalanglik sari qadam tashlarkan.

Ular ot jasadi yotgan joyga yetib kelganlari hamon dahshatli irillash eshitildi. Yalanglikning narigi chekkasida yo'lbars ko'rindi. U to'qaydan lapanglab chiqib kelib, to'xtadi, tishini g'ijirlatib irillagancha dumi bilan qamishlarni ura boshladi. Sodiq o'zining qo'lbola qo'shog'iz miltig'ini otishga hozirladi.

Yirtqich o'n besh-yigirma qadam narida turar edi.

Bekmuhambet qo'li bilan Sodiqqa chetroq tur deganday ishora qilib, o'zi esa tizzalab, yo'lbarsni nishonga oldi. Sodiq oliy martabali vazirining o'z hayotiga befarq qarayapti, hatto bu uchrashuvdan xursand ko'rinyapti-ku, deb o'yladi.

Yo'lbars shoshilmasdan vazirga yaqinlashib kelaverdi. Mana, u sal yerga qapishib, hamlaga hozirlandi. Shu payt Bekmuhambet bir yo'la ikkala tepkini bosib yubordi. Yo'lbars bo'kirib, o'zini chap tomonga tashladi. O'q yalab o'tgan edi uni. Bir daqiqa o'tar-o'tmas yo'lbars ikkinchi hamlaga tayyor turar edi. Shu payt Sodiq Bekmuhambetning miltig'ini tushirgancha, joyida qimir etmay turganini ko'rdi. U xuddi nimanidir kutayotganday ko'rinardi... Nimani?.. U pichirlab kalima keltirardi. Mana, yo'lbars olg'a sapchidi, o'sha ondayoq Sodiq uzgan o'q yangradi. Yirtqich sapchidi-yu, lekin mo'ljalga yetmay, xon maslahatchisining oyog'i ostiga gup etib tushdi-da, tipirchilab jon bera boshladi. O'q uning qoq yuragiga teggan edi.

— Nega bunday qilding?! — dedi Bekmuhambet. — O'z urug'ining qarg'ishiga uchrab, o'z tug'ishgan jigarlarining qahriga duchor bo'lgan odamning o'z qilmishiga loyiq o'lim topishi mum-

kin emasmi, axir?! — Vazirning yuzi oqarib ketgan, qo'llari qaltirardi. Sodiq uni bunday ahvolda birinchi bor ko'rib turardi.

Xon yigitlari quvonch-la qiyqirganlaricha qamishlar orasidan yugurib kela boshladilar.

Bekmuhambetning qiyofasi yana takabburona tusga kirdi, tundlashdi. Sodiq hayratda qoldi.

— Nega baqrayib qolding menga, qari tuya? Bor, anavi jonivorlar sultonini xon chodiriga eltishga yigitlarga yordamlash! —deb buyurdi-da, navkar yetaklab kelgan otiga sakrab mindi.

— Davlatpanohim, bu yo'lbars sizning o'ljangiz,— dedi Bekmuhambet chodirga yo'lbarsni keltirishgach. — Sodiq, senga ko'rsatgan yordaming uchun ulug' xon ot va chopon hadya etadilar...

Vazir keyinroq, xayrlashayotib, Sodiqqa bunday dedi: "O'z ovuli, o'z uyini qoldirib, sharafsiz o'lim topmoqni istagan odam, avvalo, oilasini, xotinini, bola-chaqasini, jigarlarini, ularning taqdirini o'ylashi lozim. Bularni Mahambetga yetkaz. Bilaman, u bilan, albatta, uchrashasan. U tentak, o'z jigarlarining tagiga yetdi".

...Sodiq vazir aytgan so'zlarni eslab, Maqbolga tikildi. U beshik ustiga engashgancha uxlardi. Cholning qarab turganini sezganidanmi yoki yaralangan sarbozning uyqu aralash ingrashidanmi, har qalay, Maqbol uyg'onib, ko'zini ochdi. U boshidagi ro'molini to'g'rilar ekan:

— Ota, biror ish buyurmoqchimisiz? — deb so'radi.

— Yo'q, qizim, yo'q, yo'q. Men shunchaki, Bekmuhambet biy sen va o'g'ling haqida ko'p qayg'urarkan, shuni aytib qo'ymoqchi edim.

— Qaynag'amning o'zi omon ekanmi? U tashvishlanmay qo'ya qolsin. Keksadir, yoshdir — hammaning boshida o'lim bor. Men o'z hayotimni Mahambetning hayoti bilan bog'laganman. Faqat ikki yosh qarchig'ayga yuragim achishadi. — Maqbol qozoqlar odatiga ko'ra erining aka-ukalarini ismini atab gapirmasdi. — Ular hozir omonmikanlar?.. Mahambet to'yimiz kuni, meni Jangirning saroyiga olib ketishini va o'sha saroyda hayot kechirajagimni aytgan edi, — deya jilmaydi Maqbol. Bu keyingi kunlarda Maqbol yuzida ko'ringan birinchi tabassum.

U so'zini davom ettirdi:

— O'shanda ham men kulgandim, shunchaki o'zim. Unga: "Saroyni boshimga uramanmi?" — degandim. U ham kulgan edi, — Maqbol jim bo'lib qoldi.

— Ha, saroyni boshimizga uramizmi? — deb boshladi yana u. — Tirik qolsak, bas. Kaftdakkina o'tov bo'lsa ham yetadi bizga. Odam bolasidan uzoqroqda, ularning qayg'u-hasratlari, urush-to'palonlaridan chetroqda yashasak. Odam qoni to'kilganini ko'rgandan, to'qayzorda, yirtqich hayvonlar orasida yashashni afzalroq bilaman. Men endi ilgarilardagiday erkaklar bilan yonma-yon turib, jang qila olmayman, jajji o'g'lim, meni beshigi tepasiga chorlayapti... — dedi-da, ko'zyoshlarini to'xtata olmay, yig'laganini yashirishga urinib, beshikda uxlab yotgan chaqalog'i ustiga engashdi.

— Hammasi yaxshi bo'lib ketadi, qizim, — dedi o'ziga ishonqiramay keksa ovchi. Xonani og'ir sukunat bosdi.

— Xudoga shukur, bo'ron ham pasayyapti, tez orada shunqorlarimiz ham kelib qolishadi... — dedi quvullab yo'talarkan Sodiq.

— Ular tirikmikan? Mahambet-chi, omonmikan? — dedi bexosdan Maqbol va boshini ko'tarib, iltijo-la Sodiqqa boqdi. Sodiq ota o'zini yo'qotib qo'ydi. U atayin ixrab, yo'tala-yo'tala o'rnidan turdi-da, po'stinini qo'liga oldi.

— Hammasi yaxshi bo'lib ketadi, qizim. Sabr qil. Mahambetning qo'li baquvvat, so'zi o'tkir... Hammasi joyida bo'ladi... — yana yangi savollarni kutib turmay, tashqariga chiqdi u.

Ertasi kuni tongotarda izlarini adashtirib, Isatoy va Mahambet omon qolgan qirq chog'li yigiti bilan yerto'laga yetib kelishdi.

Holdan toygan sarbozlar keliboq tosh qotib uxlab qoldilar. Sodiq yarim chirib tugagan, o'tgan yildan qolgan bir uyum pichan yoniga otlarni olib kelib qo'ydi. Xurjun va to'rvalarda qolgan sulini yig'ishtirib, ularga berdi.

Yigitlar kuni bo'yi uyqudan bosh ko'tarmadilar. Bo'ron ham bosilmadi. Havo ikki kundan keyingina yorisha boshladi.

Isatoy yaqin atrofni ko'zdan kechirib kelgani odam yubordi. Yigitlar yerto'ladan besh chaqirimcha narida ta'qibchilar yoqqan gulxanlarni ko'rib qoldilar.

Zudlik bilan yerto'lani tashlab ketdilar. Garchi sohilida har bir kechuvni qo'riqlayotgan o'n ikki chegara istehkomi joylashganini bilsalar-da, ular Yoyiq tomon yo'lga tushdilar. Hozir o'ylab o'tirishga fursat yo'q edi. Sodiq Boqsoydan janubroqni, Yomon qal'adan ozgina shimolroqni mo'ljalga olib, yo'l boshladi. Ular Temir qoziq yulduzini qoralab tun bo'yi tinmay yo'l bosdilar. Qochoqlar izni yo'qotib ketishning epini qilisha olmadi...

Chog'roq chakalakzorda to'xtadilar. Sodiq va bir necha yigit qirg'oqqa yaqinlab bordilar. Tong bo'zara boshladi. Daryoning quyi oqimi tomonida, bir necha chaqirim narida osmonga ko'tarilayotgan tutun ko'rindi. U yer Yomon qal'a edi.

Qariya kechuvni tezgina aniqladi. Bu taqir, hamma narsa uzoqdan yaqqol ko'rinib turadigan qiya joy edi. Boshqa iloj yo'q. Ona yer tangaday tor edi ularga hozir. Orqadan quvib kelayotgan dushman, borliqni yoritib ko'tarilayotgan quyosh shoshilishni taqozo etardi... Kichkina sarbozlar to'pi chakalakzordan chiqib, daryo yoqasiga yetib kelganida, qal'a tarafda bir eskadron otliq askarlar ko'rindi.

Qo'zg'olonchilar muzdek Yoyiqni kechib o'ta boshladilar.

Yaradorlarni himoyaga olib, oldinda Isatoy bilan Mahambet suzib o'tmoqda. Maqbol Isatoyning xotini bilan birga, ularning ketidan do'sti Musadan ajralib qolgan Jaqiya suzib kelmoqda. Yigitlar og'ir yaralangan do'stlarini bordon sollarda ehtiyotlab olib o'tishardi.

Sodiq eng orqada, suvdan chiqib, qochib qolishga urinayotgan qaysar tuyalarni haydab kelardi. Nihoyat, Isatoyning oti daryoning sharqiy qirg'og'iga qadam qo'ydi. Ichki o'rdaning chegarasi orqada qoldi. Sodiq hamon, tuyalarni turtkilab, qirg'oq tomon haydash bilan ovora. Boymag'ambetning otliqlari esa qirg'oqqa yaqinlab kelib, o'q uza boshlagan edi. Yigitlar qariyaga yordamga tashlandilar, lekin fursat o'tgandi. U yaralangan edi. Qariya sultonni la'natlagancha tuyalar o'rkachi, suv to'lqinlari orasida g'arq bo'lib ketdi.

Sarbozlar yarador do'stlarini otlarga mingashtirib oldilar-da, Kichik juz dashtlarining ichkarisiga tomon ot choptirib ketdilar.

Mahambet shoshilmas edi. U dam-badam arg'umog'i boshini orqaga burib, daryoning narigi qirg'og'iga nazar tashlardi. U tomonda, Boymag'ambetning yonida Merko'lov ham paydo bo'lgan edi...

Mahambet sarbozlarni quvib yetdi-da, to'xtamasdan Orol tomon jadal boraveringlar, deb ogohlantirdi. Mahambetning o'zi esa orqaroqda bordi. Ta'qibchilarning chegaradan o'tish yoki o'tmasligini bilish kerak-da.

Qo'zg'olonchilar Kichik juzning shu atrofdagi ovullardan yo'lga chiqqan bir necha ovchini uchratganlarida kech kirib, quyosh og'a boshlagan edi.

Mahambet hamon orqada kelardi. U xomush, o'yga botgan edi. Ta'qibchilar orqada qolib ketishgan edi. Uning oti ham charchagan, horg'in odim tashlardi. Mahambetning tasodifan qor ustida yotgan sadoqqa ko'zi tushib qoldi.

Oqin tizginini tortib, otini to'xtatdi, sadoqni qo'liga oldi, uning ichida bir dona o'q bor edi. O'qning po'lat nayzasi ustaraday keskir edi.

— O'landay kuch to'playver, — dedi-da, o'qni o'z joyiga solib, uni beliga qistirib qo'ydi. Keyin uvushib qolgan oyoqlarini oz bo'lsa-da yozib olmoq uchun u yoqdan bu yoqqa yurdi, hovuchida qor olib yuz-qo'lini yuvib, xurjuniga artayotib, oti ham qor yalayotganini ko'rdi.

Arg'umoq tuyog'i ostidagi qorda yashil giyoh mo'ralab turganini ko'rib qoldi. Mahambet otini nariroq itarib, giyohga tikildi.

Bu — hamishabahor, eng chidamli cho'l giyohi. U qahraton qishning izg'irinli bo'ronlariga, kuz hamda ko'klam yog'in va toshqinlariga bardosh berib, yoz fasliga yetib oladi, gulga kirib, uzoq yashaydi...

— Bu Suyunqora hikoya qilgan qarchig'ayga o'xshaydi,— dedi kulimsirab: u Xiva ostonasida, adaylar botiri — Suyunqora aytib bergan hikoyani eslagandi. Tuxumdaligida barcha hayot sinovlariga bardosh bera olgan qarchig'ay bolasigina burgutlar galasiga yetakchi bo'la oladi. Qurmong'ozi bilan Sherniyoz ham xuddi mana shunday qarchig'aylar to'g'risida qo'shiq ijod qilishni orzu

qilishardi. Navqiron Musa esa qush va yirtqich hayvonlarning podsholari to'g'risidagi ertak hamda hikoyalarni tinglashni yaxshi ko'rardi...

Oqin chuqur o'yga berilib ketganidan sarbozlarning Kichik juz yigitlari bilan uchrashganlarini ham, xotini yoniga kelib qolganini ham payqamay qolgan edi.

— Ketdik! — dedi allakim.

Uning qarshisida g'am-alam, tashvishdan sochiga oq oralagan, izg'irindan qorayib ketgan Maqbol turardi.

— Yura qol, bizni naymanlar ovullariga taklif qilishyapti. Isatoy kutyapti seni...

XOTIMA

1837-yilning 17-noyabrida Gekke general Perovskiyga yo'llagan axborotida: "...otlari yaxshi saralangan"i, buning ustiga qo'zg'olonchilarning "...nayzadan mohirona foydalanishlari bilan ustunlik qilganlar"ini yozgandi.

"Buni ifodalash ancha qiyin, — deya o'zini oqlashga harakat qiladi Gekke Isatoy bilan Mahambetni ushlab keltirish to'g'risidagi Perovskiyning buyrug'ini bajara olmaganligi sabablarini tushuntirishga urinib, — o'rdaliklarning zambaraklar ustiga tashlanganlarini ko'z ko'rib, quloq eshitmagan...

Janobi oliylari, meni afu etsinlar-u, Isatoy boshchilik qilgan qaroqchilar jonlarini fido qilib, uyushqoqlik bilan oxirgi nafaslari qolgunicha jang qildilar".

Toshtepadagi jangdan keyin sultonlarning navkarlari hamda Gekkening soldatlari kichik-kichik guruhlarga bo'linib, dasht yo'llarini tit-pit qilib uzoq vaqtgacha izg'idilar. Jazolovchilar qo'zg'olonda qatnashgan yoki xayrixohlikda gumon qilinganlarning barini ta'qib ostiga oldilar. Yuzlab ovullarga o't qo'ydilar.

26-noyabrda tutqunlarni Nijne-Uralsk qal'asiga, polkovnik Bizenov ixtiyoriga jo'nata turib, Gekke shunday deb yozgan edi:

"... Bularni zanjirband etib, Uralsk qamoqxonasiga jo'natishni buyurdim. Bu odamlar eng so'nggi imkoniyatlari qolguniga qadar sodiq turib Isatoyga xizmat qildilar. Ularga zarracha shafqat qilinmasin, iloji boricha qiynab, so'nggi damlarigacha savalasa ham ozlik qiladi..."

Ofitserlarni bu tutqunlarning mag'rurligi, metin irodasi hayratga solardi.

Isatoyning yaqin do'stlaridan biri, Qoplonboy yaralanib, olis qishloqda yashirinib yurardi. Uni ushlab oldilar. Uni besh yuz odam tizilib turgan saf orasidan uch marta olib o'tdilar. Bir ming besh yuz marta darra urdilar. Shunda ham u, qop-qora qonga bo'yalib,

tishini tishiga bosganicha, oyog'ida tik turar, lekin tiz bukmas va shafqat qilishlarini so'ramasdi.

"...U juda jasur yigit ekan, — deydi tan olib Gekke, — irodasi kuchliligidan biror marta ham ingramadi, yalinmadi".

Qoplonboy, hatto oyog'ida zo'rg'a turganiga qaramay, Gekke undan qo'rqardi. Qoplonboyning yolg'iz o'zini o'ttiz to'qqiz kazak soqchiligida Uralsk turmasiga jo'natdi.

"Bu yerlarda zanjir kam bo'lganidan, binobarin, Qoplonboy singari qashqirlarga arqon dosh bermasligi sababli uni bugunoq Uralskka jo'natishni, u bilan birga qog'oz keltirgan o'n kishini, yana Xorunjiy Yeryomin boshchiligida yigirma sakkiz soqchini jo'natishga qaror qildim", — deb yozgan edi Gekke.

1838-yilning yanvar oyi oxirlarigacha ovullarda "tinchlik o'rnatish" ishlari davom etdi. Keksalar, xotin-xalaj va bolalar yo'llarda, chakalakzorlarda, qumlik barxanlari oralarida to'zg'ib yurishardi...

"Qo'rqqanlaridan izg'ib yuribdilar, qayga borarlarini o'zlari ham bilmaydilar", — deb beparvogina sharhlaydi Gekke.

Qahraton qish, qalin qor, dasht bo'ronining oxiri ko'rinmaydi. Janglardan horigan ovullarni Allohning o'zi Yer yuzasidan supurib tashlashga ahd qilganday edi. Ta'qibchilar intiqomidan yashirinib yurganlar ochlik va sovuqdan duch kelgan joyda — qumliklarda, botqoqlarda, yo'llarda tappa-tappa tashlab, olamdan o'taverdilar...

Ko'klam kelib, yana kunlar iligach, alamzada xalq yana Isatoy tug'i ostida to'plana boshladi.

1838-yilning may oylariga kelib, ularning soni ikki mingga yetgan edi.

1838-yil, iyulning boshlarida sarbozlar Ichki o'rda chegarasini bosib o'tdilar. Ularga qarshi to'rtinchi Ural polki yo'lga chiqdi. Orenburgdan bir yuz ellik kazak, general Perovskiyning shaxsiy rezervidagi o'qchilar batalyoni yo'lga tushdi...

Xon va sultonlarning birlashgan qo'shinlari esa uch ming kishidan ko'proq edi. Ularning hammasiga qo'mondonlik qilish o'tgan yozdagi kabi polkovnik Gekkega topshirilgandi.

...Ayg'oqchilar, qo'zg'alonchilar uch to'pga bo'linib harakat qilishayotganligini ma'lum qildilar. Oldinda, biri ikkinchisidan

ajralgan holda Isatoy bilan Mahambet kelayotir. Isatoyning qo'l ostida uch yuz sarboz, Mahambetni sarbozlari undan kamroq. Boshqa sarbozlar Isatoydan xabar kelgunga qadar Yoyiq bo'yida qolganlar.

Gekkening qo'shinlari Oqbuloq soyiga yaqin yerdagi to'qaylar va jarliklarda pistirma qurdi.

1839-yilning 12-iyuli tongida Gekkening buyrug'iga ko'ra, Boymag'ambet o'z navkarlari bilan Isatoyning yo'liga chiqdi.

Ular ochiq dalada uchrashdilar. Boymag'ambet jangga kirmadi, orqaga qochdi. Sarbozlar ularni quva boshladi. Gekkening hiylasi shu yerda ish berdi.

Navkarlar qo'zg'olonchilarni ergashtirib kelib, qopqonga ilintirib berdi. Jazolovchilar Isatoy sarbozlarini halqadek qurshab oldilar. Dastlab zambaraklar tilga kirdi.

Sarbozlar navkarlarni quvib kelayotganlarida mayda bo'laklarga ajralib ketgandilar. Bu Gekkening mushkulini oson qildi.

Isatoy o't ichida yigitlarini bir yerga to'plamoqqa, qurshovdan yorib o'tmoqqa harakat qilardi. Bir soatlardan keyin qurshovdan o'n chog'li sarbozgina qutulib chiqa oldi. Lekin Isatoyiing o'zi hamon jang maydonida edi.

— Ta'qib jonga tegdi. Biz uchun endi orqaga yo'l yo'q. Hamma yoqda alanga lovullamoqda! Chingizxon bilan jang qilgan nayman-u qipchoqlardek biz ham jang maydonida mardonavor jon beramiz! — Isatoyning sarbozlarga qarata aytgan oxirgi so'zi shu bo'ldi.

"Kazak Leontiy Levshin Isatoyning otini yaraladi. Ot sekinlab borib, yiqildi. Isatoy piyoda jangni davom ettirdi... Navkarlardan Jabbor Yig'loqboyev, Satboy Boyjigitov, Ko'bish Sibulinlar orqa tomondan borib, ushlab oldilar, uryadnik Bogatiryov Isatoy botirning qo'lidan tushib ketgan qilichni olib, boshiga zarba tushirdi, boshqa bir soldat ko'kragiga o'q uzdi", — deya yozgandi axborotida Gekke keyinchalik.

Mahambet Oqbuloqqa osmon qirmizi tusga kirib, sarboz do'stlari jasadlari ustida quzg'unlar aylanib uchayotgan bir paytda yetib keldi. U otidan o'zini uloqtirdi, dubulg'asini yechib tashladi, hayajon ichida qilichi dastasini mahkam changallaganicha sarbozlar

jasadlarini oralab do‘stining jasadini qidira boshladi. Uning aqli qochgan, afti bo‘zarib ketgan edi...

“...G‘azabga loyiq ig‘vogar va isyonkorlarga qaqshatqich zarba berishda bu to‘qnashuv bebaho bo‘ldi”, — deb mamnuniyat bilan Peterburgga noma yubordi Gekke.

Jallodlar qilich va nayza ishlatib, “tinchlik o‘rnatish” maqsadida yana ovullarni kezib chiqdilar.

Mahambet bu yo‘lda jonini tikkan yuz chog‘li jasur yigiti bilan, to kech kuzgacha goh Boymag‘ambet sulton qo‘shinlariga, goh Qorovulxo‘ja navkarlariga qo‘qqisdan zarba berib yurdi. Keyin yigitlari bilan xayrlashib, Kaspiy bo‘yidagi ovullarga borib, yashirin hayot kechira boshladi.

Qilgan xizmatlarim sovrildi yelga,
Yoyiqqa boqaman sog‘inch, alam-la,
O, qachon yeturman qadrdon elga,
Olislarda qolgan ona Vatanga?
Men bo‘yin egmadim g‘animga aslo,
Hadya etganim yo‘q hayotimni ham.
Oila, uyimga aytdim alvido,
Haqlik uchun jangga otlanganim dam...
Men yonib kuyladim, ammo baribir,
Yuragimga malham bermadi taqdir.
Nahot nasib etmas Mahambet uchun —
Xonnning chodiriga payt kelib, bir kun
O‘tkir nayzasini zarb-la sanchmoqlik,
Burda-burda qilib, butkul yanchmoqlik?!.

Oqinning otashin so‘zlari ovullardan ovullarga kamon o‘qiday uchar, keng dalalarga yana alanga oldirajak uchqunday taralardi.

... 1841-yilning 5-marti tongotarida Boymag‘ambetning elchisi bo‘lmish Murtozg‘ali sulton kazak yuzligi bilan Kaspiy bo‘ylaridagi qumliklar orasida yashirinib yurgan oqinning qishloviga kirib keldi.

Uryadnik Golikov, kazaklardan Xoxlov bilan Vederninkov hamda yana uch navkar o‘tovga bostirib kirganida Mahambet ux-

lab yotardi. Oqin ustiga tashlangan ikki yovni uloqtirib tashlab, uchinchisiga pichoq sanchdi. Biroq ko'pchilik qarshisida kuchsizlik qildi. Mahambet kishan-band qilindi.

1841-yilning 20-iyulida Orenburgda harbiy sud Mahambetning ishini ko'rib chiqdi.

— Biz harakat va adolatni istab, zulmga qarshi kurashdik, — dedi sudda oqin. — Biz Jangirxonga qarshi jang qildik. Shu sababdan ham o'zimizni Rossiya oldida gunohkor deb hisoblamaymiz. Biz sizlarni O'rda tuprog'iga ham, jangga ham chorlaganimiz yo'q. Ammo sizlar hujumga o'tganlaringda, hamlalaringni qaytardik, xolos...

Kapitan Vasiliy Shustikov qo'zg'olonchilar asir bo'lib tushgan rus soldatlari bilan kazaklarga hech qachon tahdid qilmaganliklarini, Isatoy bilan Mahambet jang tugashi bilanoq ularni asirlikdan ozod qilib yuborganliklarini tasdiqladi...

Sud protsessida sultonlar ham, Jangirxon ham, general Perovskiy ham qatnashmadilar va shu sababli sudning borishiga o'z ta'sirlarini o'tkaza olmadilar.

Sud uzoq davom etdi, u faqatgina qozoq ovullari, Bo'key o'rdasinigina emas, balki Orenburgdagi rus ziyolilarnning e'tiborini ham o'ziga jalb etdi. Oqinning o'limga hukm etilishi o'rdada yangi g'alayonga sabab bo'lishi mumkin edi. Shu boisdan Perovskiyning buyrug'i kutilar edi...

...Yarim tunda Mahambet yotgan xonaga qo'lida fonus ushlagan bir ofitser kirib keldi. Oqin uni tanidi, bu kishi — Vasiliy Shustikov edi.

— Xo'sh, kapitan, nima ish bilan kelding? Qiyshiq to'ra ovulidagi munozaramizni oxiriga yetkazgani keldingmi? Sen haq ekansan. Nayzalar zambaraklarga bardosh bera olmas ekan. Kuchlilar haq ekan, shuning uchun ham ular hukmlarini o'tkazar ekanlar. Bu yerga nimaga kelding? Yoki hukmni o'qib eshittirmoqchimisan? Keragi yo'q. Men har qanday jazoga ham tayyorman. Menga mulla ham, pop ham darkor emas...

— Qani, orqamdan yur! — dedi kapitan keskin.

Ular yo'lakka chiqdilar. Shustikov qo'lidagi fonusni o'chirdi...

Kapitan sergaklik bilan atrofga quloq solib, baland devor tagidan chaqqon ilgarilab borardi. Oqin churq etmay, uning ketidan izma-iz borardi. Allakim eshikni ochdi, ular tashqari chiqib, yo'ldan chetga burildilar-da, qandaydir bog'dan o'tib, kimningdir hovlisiga kirdilar.

— Anavi yerda, molxona orqasida ot turibdi. Omon bo'l, — dedi Shustikov.

Mahambet turgan yeridan qo'zg'almadi. U kapitanning yuziga tikildi, lekin qorong'ida hech nima ko'rinmadi.

— Sen, soldat hech qachon qasamini buzmaydi, deb eding. Senga ishonmayman, kapitan. Men orqadan o'q yeb o'lgandan tik turib, mardona o'lganni afzal bilaman,— dedi Mahambet jiddiy.

— Mirza, u o'z burchini ado etyapti, — degan ovoz eshitildi uy tomondan. Hovlida, oy yog'dusida boshqa ofitser ko'rindi.

— Siz kim bo'lasiz? Ovozingiz tanishga o'xshayapti?— deb so'radi oqin.

— Siz bilan Peterburgda, isyon kunlari Senat maydonida uchrashganmiz, — deb javob qaytardi notanish kishi.

— Demak, shu yerda, sudda ham deng! Siz Dal Luganskiy janoblari bo'lasiz, — dedi Mahambet.

— Shoshiling, sizni do'stlaringiz kutyapti.

— Shu damda, qarshimda turgan kishilardan bo'lak yaqinroq do'stim bo'lishi mumkin emas, — deb javob qaytardi oqin, — men bo'lsam ularni tashlab ketyapman...

— Sizlar kim bo'lasizlar? — deb so'radi Mahambet molxona orqasida ot ushlab turgan ikki chavandozdan.

— Xudoga shukur, keldi! Biz, Lavboy bilan Abbos, Isatoyning yuzligidanmiz, — deb javob qaytardi yigitlardan biri. — Mahambet, shoshilmoq kerak, — dedi u yana.

Oqin egar qoshidan mahkam ushlab, sakrab otga mindi...

O'sha tunning o'zidayoq turma soqchilari dovul qoqdilar. Mahambet yotgan xonaning eshigi yopiq, qulfi butun edi. Lekin derazadagi panjara ehtiyotkorlik bilan ko'chirilgan edi. Demak, oqin qochgan!

Ertasigayoq Orenburgga yetib kelgan general Perovskiy turma boshlig'ini ishdan olib tashladi.

Mahambetni otish haqidagi hukmnomani, imzo chekish uchun keltirganlarida, general shartta yirtib tashladi.

— Janoblar, kimga qarab otishni buyurasiz?! Qaysi bir qirg'izni?! Bundan ortiq sharmandalik bo'ladimi... Kelib-kelib, bir qirg'iz shuncha soqchining ko'zi oldida qochib ketsa-ya. Sharmandalik! — deb baqirardi quturib ketgan general.

O'z qo'li ostidagilarning yo'l qo'ygan xatosini oshkor qilmaslik uchun Mahambetning qochib ketganini sir saqlashga majbur edi. Ular fursatdan foydalanib, harbiy sudning "muruvvatli odil ekanini" namoyish qilish maqsadida, "sudlanuvchi O'temis o'g'li... chegaraning narigi tomoniga o'tkazib yuborilsin, agarda yana qaytib bu yerlarga keladigan bo'lsa, og'ir jazoga tortilsin", deya hukm chiqargani e'lon qilindi...

Mahambet tug'ilgan yurtidan uzoqda, Kichik juz tuprog'ida yana to'rt yil darbadar kezib yurdi...

U 1845-yilning fevralida Bo'key o'rdasiga qaytib keldi. Oqin xalqni yana qo'zg'olonga undadi... General Perovskiy, tavbasiga tayanmaydigan, qaysar oqinni ushlab keltirish va qatl etish to'g'risida farmon berdi...

1845-yilning 11-avgustida Jangirxon to'satdan vafot etdi. Nikolay I shunday yozgan edi: "G'oyat achinarli, u bizga chin ko'ngildan berilgan odam edi". General Perovskiy Fotima xonimga ta'ziya bildirib: "Siz to'kayotgan ko'zyoshlarga men ham sherikman, unga endi Yaratganning o'zi rahmat yog'dirsin", — dedi va marhumning hamma vasiyatlarini bajarishga va'da qildi. Ammo amalda zudlik bilan barcha vorislarni taxtdan uzoqlashtirdi va general-gubernator sifatida o'rda hukmdorligini to'la-to'kis o'z qo'liga oldi.

General ovullarning yangidan g'alayonga kelishidan qo'rqib, xorunjiy Ixlos To'leyevni dashtga jo'natdi. Buyruq qisqa: Mahambetni yo'qotishdan iborat edi... General Boymag'ambet sultonga yo'llagan maktubida xorunjiy Ixlosni: "Bu kishi qiyin va murakkab vazifalarni topshirganimizda har doim jon-jahdi bilan xizmat qiladigan bizga yaqin odam", — deb ta'riflagan edi.

Sulton ovulidan Ixlos bilan birga bersh urug'ining biyi Jonbergan Bo'zdaqov, tobiqtilik To'rajon Turumov, bersh yigitlari Musa Nuralin bilan Yusuf O'tovlin — hammasi bo'lib yigirma kishi yo'lga chiqdi. Ovullarda, bular Mahambet bilan "muzokara" olib borgani ketishyapti, degan gap tarqatildi. Mahambet ularni ovuldan chetroqdagi yolg'iz o'tovida qabul qildi.

— Biz senga dushman emasmiz, do'stlik niyatida keldik. Mahambet, yonimdagilarning hammasi bershlik yigitlar. Jangirxon ham dunyodan o'tganiga, mana, anchagina bo'lib qoldi, sultonlar seni kechirishdi, — dedi Jonbergan biy.

Mahambet mehmonlarni ichkariga taklif qildi. To'rt kishi — Jonbergan, Ixlos, Musa, To'rajon o'tovga kirdi. Boshqalar tashqarida qoldilar.

Maqbol dasturxon yozdi. Suhbat boshlanganidan keyin yoshgina Nursulton tashqariga chiqdi. Mehmonlarning qurol-yarog'larini shay tutib o'tovni qurshab olganlarini payqagan bola otasini ogohlantirmoqchi bo'ldi. Qurolli kishilardan biri uni ushlab olib, og'zini berkitdi. Xuddi shu onning o'zida Ixlos xanjar yalang'ochlab Mahambetga tashlandi. Oqin chaqqon harakat qilib qo'lidagi xanjarini tushirib, o'zini chetga uloqtirdi. Lekin qolgan uch kishi unga tashlandi. Oqin xorunjiyni yerga yiqitib, poshnasi bilan uning kekirdagini cho'rt uzib yuboray dedi. U: "Meni tiriklayin qo'lga tushira olmaysanlar!" — deb baqirib, o'ziga yopishib olgan uch kishidan qutulishga urindi. Birini yiqitdi, lekin ikki kishi qo'llariga yopishib oldi. Yordamga kelgan Maqbolni tepib yuborishdi. Shu payt o'tovga Yusuf otilib kirdi-yu, Mahambetning kuragiga xanjar sanchdi. Mahambet qora qonga belanib yiqildi. Ixlos o'rnidan turib, shamshir bilan uning boshini tanasidan judo qildi...

Ko'zlari kosasidan chiqib, oppoq oqarib ketgan Maqbol qotillar ketidan tashqariga chiqib faryod cheka boshladi. Es-hushini, so'zini yo'qotib qo'ygan Mahambetning o'g'li onasining pinjiga tiqilardi.

Kutilmaganda odam bolasi eshitmagan dahshatli kulgi eshitildi. Bu shunday kuchli, achchiq, yangroq kulgi ediki, butun sahroni larzaga keltirib, yuraklarni vahimaga solguday edi. Qotillarning otlari hurkib ketib, egasiga bo'yin egmay, har tomon qocha boshladi...

Yusuf otdan uchib tushdi. Kulgi qo'qqisdan tindi. Maqbol Yusufga tikilganicha beixtiyor o'tovga suyab qo'yilgan nayzaga qo'l cho'zdi.

Yusuf o'takasi yorilib, o'rnidan sapchib turib sheriklari tomon qocha boshladi. Maqbol nayzani otdi... Shu payt o'q ovozi yangradi.

Maqbolning ko'kragi qop-qora qonga bo'yaldi. Uning oppoq ko'ylagidan tizillab qon oqa boshladi. Maqbol talvasada jon berayotgan Yusufdan ko'zini uzmasdi. Nayza borib qoq kuragiga sanchilgan edi. Maqbolni otgan xorunjiy Ixlos Yusufga sanchilgan nayzani tortib olish bilan ovora edi.

— Hammalaringga, hammalaringga la'nat... Uni kofirlar emas, senlar, senlarning o'zlaring o'ldirdilaring, — deya pichirlardi Maqbolning lablari. U qonsirab holdan toydi, yovshan butalariga tirmashib o'tovga yetib olishga urinardi. — Sizlar doim o'zlaringizni o'zlaring halok etasizlar. O, mening Mahambetim, u haq... Sizlar yakdil xalq bo'la olmaysizlar. Bir umr qullikda yashaysizlar.

Maqbol qancha urinmasin, boshidan judo etilgan erining yoniga yetib borolmadi, ostonada jon berdi...

1846-yilinng 4-noyabr kuni tongotarda Boymag'ambet sultonning chodiriga uch navkar bilan xorunjiy Ixlos kirib keldi. Sherniyoz ham Boymag'ambet huzurida edi. Ixlos qo'lida ustiga qizil baxmal yopilgan zarang tovoqni ushlab turardi.

Xorunjiy sultonning qarshisiga kelib, bir tizzasiga cho'kib, ta'zim qildi.

— Qanday sovg'a keltirding? — deb so'radi sulton va qo'lidagi Damashq po'latidan yasalgan xanjari uchi bilan qizil baxmalni olib tashladi. Tovoqda Mahambetning boshi yotardi.

Sherniyoz Mahambetning jonsiz, so'niq chehrasiga uzoq tikilib qoldi. So'ngra hammaning betiga bir-bir nazar tashlab, o'pkasini tutolmay baqirganicha tashqariga otildi...

Oqin o'ldirilganidan keyin sulton Boymag'ambet Peterburgda bo'ldi. Podsho muruvvat, izzat-ikrom ko'rsatib, unga generallik unvonini berdi.

Lekin sulton o'z uyiga qaytib kelmadi.

Abbos bilan Lavboyning yigitlari uni Isatoy bilan Mahambet birinchi marta g'alaba qozongan Qiyali-Qiyg'ochda suvga

cho'ktirib yubordilar. Uning mulozimlari ham suvda g'arq bo'ldi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, o'ch oluvchilar orasida Sherniyoz ham bor ekan. Shundan keyin u Ketibor botirning o'g'li Asat boshchiligida qo'zg'algan shektilar safiga qo'shilgan. O'sha kezlarda Sibir badarg'asidan qochgan Qurmong'ozi o'zining otashin kuylarini yangratib, Ko'kchatov bilan Yettisuv, Sariorqa bilan Turkiston orqali o'tib, Asatga qo'shilmoqqa oshiqardi.

1857-yilning yanvarida sultonlar bilan general-mayor Fotingofning birlashgan qo'shinlari shektilar bilan jangga kirdilar, biroq qo'zg'olonchilarni yengolmadilar. Ayni chog'da, general Perovskiy Oqmasjid yo'lida Sirdaryo bo'yidagi qozoq lashkari bilan jang qilardi.

Orol dengizi tomon siljib borayotgan polkovnik Kuzmin bilan Derishevning, mayor Mixaylovning otradlari yo'l-yo'lakay Ichki o'rda, Kichik juz ovullariga o't qo'yib borardilar...

"...Qadimgi zamonda mo'g'ul bosqinchilarining ko'rsatgan zolimliklarnidan polkovnik Kuzmin bilan mayor Derishevlarning shafqatsizligi zarracha qolishmaydi..." — deya bong urgandi Gersenning "Kolokol"i olis Londondan.


Chor mustamlakachilari bilan mahalliy hokimlar zulmiga qarshi To'rg'ay, Aris, Yettisuv va boshqa joylarda xalq qo'zg'aldi...

Ozodlik, tenglik yo'lidagi xalq kurashi so'nmadi, davom etaverdi...

1968-yil

O‘TROR TANGASI

Qissa



O'tmishni va dunyodagi mamlakatlarni
o'rganish inson aqliga zeb va oziq beradi.
Leonardo da Vinchi

Bir zamonlar yer ko'm-ko'k edi. Endilikda ham Musson shamoli olib keladigan qisqa yomg'irdan keyin yer yashnaydi.

Hozir esa xuddi zang bosgan tunukaday daranglab yotibdi. Jazirama issiqdan nafas bo'g'iladi, ter quyiladi. Diqqinafas bo'lib ketgan haydovchi gazni bosadi. Olti o'rinli keng "Kapitan" g'izillab ketyapti.

Quyosh botay deb qolgan. Jo'mart va uning hamrohlari qorong'i tushguncha Fotihpur-Sikriga yetib olishga oshiqib, haydovchini shoshirishadi.

Bir gala yovvoyi qirg'ovul yo'lni kesib o'tdi. Haydovchi noiloj mashinani sekinlatdi. Qishloqqa kiraverishdagi chang bosgan yo'lning o'rtasida "muqaddas" sigir yotardi. Haydovchi tormoz berib sigirni aylanib o'tdi-da, o'zlarini arang chetga olishga ulgurayotgan yo'lovchilarga parvo qilmay, mashinani o'qday uchirib ketdi.

Yo'l yoqasida, xuddi yerga mixlab qo'yilganday, bir sadxu qimir etmay o'tirardi. Bu — bugungi Hindistonning minglab avliyolaridan biridir. U oftobda kuygan yalang'och, ozg'in gavdasini mag'rur tutib o'tiribdi. Qop-qora sochi soqoliga tutashgan, ko'zlari bir nuqtaga qadalgan. Dunyoning tashvishlaridan yuz o'girgan bu Xudo izlovchi darvesh olis yo'lga, ehtimol, avliyolar maskani, sadxular aytganday, "jannatga eng yaqin bo'lgan" Banorasga jo'nash oldidan dam olayotgandir.

Olisda quduqning laylakka o'xshash yog'och havozasi ko'zga chalinadi. Oyoqlari qilday ingichka bir odam dunyodagi eng mohir dorbozni ham lol qoldiradigan ustalik bilan yog'och havozaning u boshidan bu boshiga borib-kelib turibdi. Odam horg'in qadam tashlab havozaning goh tosh osilgan, goh mesh osilgan tomonini suvga cho'ktiradi. Bu odam koranda bo'lib, shu yo'sin qishloq dehqonining bir parcha yeriga suv chiqaradi.

— Yiqilib ketsa nima bo'ladi? — so'radi Jo'martning yonida o'tirgan amerikalik yosh qiz.

— Yiqilsa o'ladi, miss. — Jo'martning o'rniga haydovchi javob qildi. — Agar yiqilishdan o'lmasa, keyinchalik ochlikdan o'ladi. Bir yiqildimi, unga hech kim ish bermaydi. Ish axtarib yurgan odamlar son mingta.

— Hammagayam ovqat yetkazib bo'lmaydi, — dedi qiz o'zini bilimdon ko'rsatib. Bu yerda tilanchilar juda ko'p ekan.

O'z xayoli bilan band bo'lgan Jo'mart uning gapini eshitmadi. Cho'l qudug'i manzarasi Agradan chiqaverishdagi manzarani keltirdi uning ko'z oldiga. Agradan chiqaverishda ko'rganlari ham cho'l qudug'i singari Jo'martning yuragini ezib yuborgan edi.

Shahar markazida quduq bo'lib, uning og'ziga tegirmon toshiday katta do'ngalak yopib qo'yilgan edi. Lungi tutib olgan, terisi suyagiga yopishgan kulrang bir chol do'ngalakka mixlangan yo'g'on xodani doira bo'ylab zo'rg'a sudrab aylantiradi. Quduqqa o'rnatilgan ingichka tarnovdan oqqan suv hovliga shildirab kirib ketar edi. Chol xodaga mixlab qo'yilganday qaddini rostlay olmas, xodadan bir lahza bo'lsa-da, ajralmas edi. Go'yo uning uchun dunyoda quduq tevaragida xoda sudrab yurishdan bo'lak hech narsa qolmaganday edi.

Quduq tevaragidagi tepkilanib tashlangan yarqiroq yerni ko'rar ekan, Jo'mart yangn "Kapitan" g'izillab ketayotgan yo'lning qadimiyligi haqida o'ylandi.

Bu — juda ko'hna yo'l. Minglab otlarning tuyog'i ostida toshday qotib ketgan. Bu yo'ldan ho'kizlar tosh, marmar, granit sudrab o'tgan, yiroq mamlakatlardan tuyalarda cho'l orqali kumush va oltin tashilgan, bu yo'ldan yuzlab fillar eski Hindiston hukmdorlarining — Buyuk mo'g'ullarning tilladan og'irlashgan chodirlarini vazmin ko'tarib o'tgan.

G'alabalar va shuhratdan mast bo'lgan yigirma sakkiz yashar Akbar olomonni chetga surib, bu yo'ldan otda tez-tez chopib o'tardi. Arslonday dovyurak, ohudek abjir, dilkash, tulkiday ayyor, san'at ahlining mehribon homiysi, ishqiboz shaxmatchi Akbar tarixda Buyuk boburiylar sulolasining (Boburdan keyin) uchinchi podshosi sifatida nom qoldirgan. O'n uch yoshida taxtga o'tirgan

Akbar o'ttiz yoshgacha Malva va Rojputanani, Gujarat va Partavni Himolaydan arab dengizigacha va Hind daryosining boshidan Gang daryosining oxirigacha bo'lgan yerlarni zabt etib ulgurgan edi.

U har gal bu yerda to'satdan paydo bo'lardi. Jamnadagi zangori qasr tomondan, Agra tomondan u o'rta osiyolik ko'chmanchi ota-bobolarining qora dumaloq chodiri kabi vohaning o'rtasida qad ko'targan Toshtepa tomonga yashinday uchib o'tar edi. Chopar va soqchilar oldinda odamlarni yo'ldan chetga surib borishardi. Qullar va jangchilar, binokorlar va tosh yo'nuvchilar, boylar va xizmatkorlar, ko'rlar va qashshoqlar — bu yo'ldan o'tuvchilarning keti uzilmasdi.

Chopar va soqchilarning qamchisi ba'zan odamlar oqimini shartta ikkiga ajratib tashlardi. O'zlarini yerga tashlagan odamlar oq otdagi yosh podshoni ko'rib yuzlarini o't va tuproqqa yashirishga oshiqar edi.

Akbar qora kiyimli soqchilar orasidan yelib o'tardi. U qaddi-qomati kelishgan, mag'rur, boladek xushchaqchaq edi. U o'ziga nigoh tashlashga jur'at etgan go'zalni marvarid shodasi bilan siylay olganidek, ko'zlarini o'ynatib bir og'iz gap gapirmay qilich tortib yuborishdan ham toymas edi. Shunda boshi kesilgan odam jon talvasasida qaddini rostlardi-da, gursillab tuproqqa qular edi.

Podsho ba'zan bir ishora bilan o'nlab sara yigitlarni maydonga chaqirardi-da, yalang'och qilichini havoda o'ynatib ularga shitob bilan tashlanar edi. Xudo ko'rsatmasin, yigitlardan birontasi qo'rqib titrasa yoki hujumni bo'shashtirsa, shu zahoti uning kuni bitar edi. Jangchilar naqadar qizg'in olishsa, Akbar shunchalik tez va abjir hujum qilardi. Agar yigitlardan birontasi undan oldin zarba bersa, podsho o'z mag'lubiyatini halol tan olar va g'olib jangchi yuzlik yo tumanlikka bosh qilib tayinlanar edi. Lekin bunday hodisa kamdan kam yuz berar edi. Sababi, o'n uch yoshdan qilich ushlashga o'rgangan Akbar raqibining har qanday hujumini qaytara olar edi.

U har doim g'olib kelishga o'rgangan edi. O'z qo'shini bilan olishuv atigi jangchilarni sinab ko'rish edi, xolos. Ulug' podshoning qo'shini qurol ishlatishda xuddi podshoning o'ziday mohir bo'lishi lozim. Uning qo'shinlari kamdan kam dam olardi. Jang-

chilar uzoq safarlar vaqtida ot ustida uxlashardi. So'ng dushman ustiga baravariga yopirilishar edi.

G'alabadan so'ng Akbar mag'lub etilgan joyga hokim tayin etardi-da, g'alabani nishonlash uchun o'zi o'rmonga ovga jo'nar edi. Soqchilar uning orqasidan daraxtlarni bosib-yanchib borardi. Soqchilardan keyin abjir ovchi yigitlar ovga o'rgatilgan burgut, sirtlon va qoplonlarni olib borishar edi.

Ovga qiziqib ketgan Akbar ishlarini bir muddat unutar, so'ng yana Jamna qirg'og'idagi o'z poytaxtiga — zangori qasrga o'qday uchar edi. U elchi va lashkarboshilarni qabul qilar, yoki musiqa tinglar, raqqosalar o'yinini tomosha qilar, yo bo'lmasa qizlari bilan muloyim suhbatlashar edi. U, ko'pincha, tunlarni fil tishlaridan yasalgan shaxmat donalariga termilib o'tkazar edi. Akbar elchilar yo ajnabiy savdogarlar bilan o'ynar, ayniqsa, o'zi bilan o'zi o'ynashni yaxshi ko'rar, sababi, bo'lg'usi har bir yurishlarni, o'z otliq va piyoda askarlari bilan fil va sarbozlarining jang harakatlarini shaxmat taxtasida sinovdan o'tkazar edi. "Dushman" tomondagi ko'p donalarga qarshi kam sonli donalarni himoya qilish usullarini o'ylab topardi u. Shaxmatda u asp bilan hujum qilishni yaxshi ko'rar, jangda esa otliq askarlariga tayanar edi.

Akbar shaxmat o'ynaganda, vazirlari ham, lashkarboshilari ham, hatto oliyjanob va dono Fozil bilan ukasi Fayzi ham oyoq uchida yurishardi. Faqat avliyo Salimgina uni oddiy jangchini chaqirganday chaqira olardi. Akbar, ko'pincha, shu mo'ysafidning maslahati bilan ish tutardi. Podsho bu qariya oldida o'smirday itoatkor bo'lardi. Akbarning qahri kelganda Salim uni jahlidan tushirar, osoyishtalik paytlarida esa uni g'ayratga mindirar edi.

Salim Toshtepada mo'jazgina namat chodirda yashar edi. Akbar Toshtepadan zangori qasrga borar, keyin do'sti, sevimli lashkarboshisi va ziyrak davlat arbobi Salim bilan maslahatlashish uchun zangori qasrdan yana Toshtepaga chopar edi. Salim bilan gaplashib bo'lganidan keyin Akbar hind adabiyoti bilimdoni, sanskrit tilidagi muqaddas dostonlarni fors va chig'atoy tiliga tarjima qilgan Fayzining oldiga chopardi. Yosh podsho yana bir odamning maslahatlariga quloq solardi. Bu — usta siyosatchi, halol xazinachi Shayx Tohar edi.

Akbar unga pulni ayamaslikni buyurdi.

Akbar o'tgan va bo'lg'usi g'alabalari sha'niga qizil tosh va oq marmardan Fotihpur degan shahar qurmoqda edi. Bu shahar yaqinda tug'ilgan yolg'iz o'g'liga atalgan edi. Qanchadan qancha munajjimlar, afsungar va sehrgarlar podshoning o'g'il ko'rishini ko'pdan aytib kelishar edi. Lekin ulardan birortasining bashorati to'g'ri chiqmadi. Toshtepaning etagidagi Sikri degan qishloqda, yo'l bo'yida xivichlardan yasalgan chaylada yashaydigan bir avliyo chol bultur Navro'z oldidan yangi oy chiqqanda podshoning xotinlaridan biri (Akbarning ikki xotini bor edi: amberalik malika bilan Marvara degan ayol) o'g'il tug'adi degan edi. Mana shu avliyoning bashorati to'g'ri chiqdi. Amberalik malika o'g'il tug'di.

Akbar xizmatkorlariga avliyoning nomini bilib kelishni buyurdi. Xizmatkorlar kulbalar, xarobalar, yo'l bo'yidagi chaylalarni aylanib, holdan toyishdi. Och, kirlab ketgan, ust-boshi yupun gadolar orasidan avliyoni topish oson gap emas edi. Hindistonda o'sha paytda ham xuddi hozirgidek gadolar juda ko'p edi. Ular yorqin tug'larini ko'tarib, nigohlarini osmonga tikib o'tirishar va hayotning ma'nosi haqida jimgina xayol surishar edi. Xizmatkorlar axiri cholni topishdi va undan ismini so'rashganda, chol:

— Sikri, — deb javob qildi.

U o'z ismini allaqachon unutgan edi. Balki, avliyolar udumiga ko'ra, chol ismi o'rniga tug'ilgan joyining nomini aytib qo'ya qolgandir. Avliyo Sikri xuddi Salim Chishti kabi Akbarga juda yaqin bo'lib qoldi va podshoning huzuriga so'roqsiz kirib chiqadigan bo'ldi. Lekin Sikri hamma vaqt Salimdan quyiroqda o'tirar edi, sababi, u qashshoq avliyo, Salim esa donishmand shayx va ulug' vazir edi.

Agar avliyo Sikri kelgusida bo'ladigan voqealarni oldindan aytib beruvchi bo'lsa, Salim Akbar uchun ma'naviy ustoz edi. Akbar o'n uch yoshida o'ldirilgan otasining o'rniga taxtga o'tirgan edi. Shundan buyon Salim uning ustozi, Salimning maslahatlari qo'shni davlatlar hukmdorlarining sir-asrorini, saroy ahlining makrli niyatlarini sezib olishga yordam berardi. Uzoq Bengaliya va qudratli Eronda tashkil etilgan ayg'oqchilar shoxobchasi shu Salimning maslahati bilan qilingan edi. Akbar o'tkir, itoatgo'y va

g'oyat qudratli armiya tuzishga muvaffaq bo'ldi. Bu yerda hech qachon ko'rilmagan ulug' davlat yaratdi. Yuzlab qabilalarni, turli tilda gapiruvchi, har xil Xudolarga sig'inuvchi o'nlab xalqlarni birlashtirdi.

Bu xilma-xil kishilarni itoatda tutish uchun kuch, armiya, soqchilar, sodiq noyib va lashkarboshilar, boylik va qilichning o'zi kifoya qilmas edi. Buning uchun yana aql, ustalik, sog'lom farosat kerak edi.

Salimning aqli har doim tiyran va ravshan bo'lg'uvchi edi. Akbar Himolay tog'idan Bengaliyaning shimoliy chegarasigacha barcha dindagi kishilar endi qardosh bo'lib yashasin, sababi, barcha Xudolar qon-qarindosh, deb e'lon qilganda — bu maslahat Salimdan chiqqan edi. Bundan so'ng Akbarning mamlakatidagi barcha kishilar faqat o'z dinigagina emas, balki zardushtiylik, induizm, xristianlik, buddizm va islom dinlarini o'ziga qamrab olgan oliy dinga ham e'tiqod qilmog'i lozim. Bu oliy din barcha Xudo va payg'ambarlarni — Xudo, Budda, Shiva, Iso, Zardusht va Muhammadni o'zida mujassamlashtiradi.

Jarchilar, tishlari oltin uzuklari bilan bezatilgan muqaddas fillarda shoyi chodirlarda yurib, nog'ora sadolari ostida hindilar bilan musulmonlar endi teng, deb e'lon qilishardi. Bu — podshoning buyrug'i!

Salim Fozil bilan birgalikda "Ain Akbariy" kitobini — Akbar tuzuklarini yaratdi. Soqchilar qo'riqchiligida jangchilar Hind, Ganga va Jamna daryolarining qirg'oqlaridagi barcha shahar va qishloqlarni aylanib chiqishdi. Ular yer usti va g'orlardagi ibodatxonalarda bo'lib, oliy kohin va muqaddas kishilarga podshoh nomidan sovg'alar berishardi. Darvesh va mutaassiblar, o'zlarini Xudoning yerdagi darakchilari deb hisoblaydigan kishilar Akbarning jarchilari orqasidan olomon-olomon bo'lib ergashib yurishar, podshoni barcha Xudolarning yerdagi noibi, deb olqishlashar edi.

Akbar Salim, Fozil va Tohirlarning maslahati bilan butun armiya uchun bir xil maosh belgiladi va lashkarboshilik lavozimlariga musulmonlarnigina emas, hindu rojalarni ham tayinladi. Davlatdagi barcha millat va xalqlar uchun bir xil soliq tayin etdi. Goh

zo'rlik bilan, goh shirin so'z bilan barcha knyaz, roja va shayxlarni o'ziga bo'ysundirar edi. O'z tug'ishgan ukasi Muhammad Panjobni egallab mustaqil hokimlik qilmoqchi bo'lganda, Akbar unga zarracha rahm-shafqat qilmadi.

Yangi davlat uchun yangi, oldingilariga o'xshamaydigan poytaxt kerak edi. Fotihpur ana shunday poytaxt bo'lmog'i lozim. Akbar Toshtepaga eng yaxshi me'morlarni to'plab, ularni kecha-kunduz shoshirayotganining sababi ham shunda edi.

O'g'il ko'rib murodiga yetgan ota Fotihpurda quriladigan qasrga taxtini tezroq o'rnatishga shoshardi. Me'morlarning loyihalarini u o'z ko'zi bilan tekshirar, Fotihpurda quriladigan binolar salobatli va sodda, ko'rkam va go'zal bo'lishini, bu binolar imperiyaning qudratini o'zida mujassamlantirishini xohlar edi. Akbar qadimgi Ajanta g'orlaridagi ibodatxonalarning devorlariga solingan rasmlarning go'zalligiga, xilma-xil tovlanishiga qoyil qolgan, besh yuz yil avval hindlar Visxvanta va Kxajuraxoda qurgan ibodatxonani bir necha marta borib ko'rgan, otasi tomonidan Agrada qurilgan Qizil qo'rg'on binolaridagi jilvador va mutanosib naqshlarni o'rgangan, ota-bobolari qipchoq cho'llaridan kelgan dastlabki hukmdorlar tomonidan Dehlida qurilgan Qutb Minorning nayzaday osmonga sanchilib turishini ko'rib faxrlangan edi. Akbar Fotihpurda quriladigan qasr, minora va mezanalarning birontasi ham mavjud binolarga o'xshamasligini, tamomila yangi bo'lishini xohlar edi.

Go'zallik, ulug'vorlik va soddalik: Fotihpurning qiyofasi mana shu uch so'zning mazmuniga mos bo'lmog'i lozim. Akbar shahar loyihalarini yoqtirmay qayta-qayta rad qilar edi. Imperiyaning chekka o'lkalaridan unga yangi-yangi me'morlarni olib kelishardi. Akbar eng usta me'morlarga ulug' vazir va maslahatchilarining o'g'illarini shogirdlikka berar edi. Imperiyaga yangi binokorlar kerak. "Ilohiy e'tiqod" barcha dinlarning donoligini o'zida mujassamlashtirgani kabi, Fotihpur ham turonliklar, eroniylar va hindular me'morchiligining barcha fazilatlarini o'zida gavdalantirmog'i darkor. Fotihpur yer yuzidagi shaharlarning hammasidan — Buxoro, Samarqand, Hirot shaharlaridan ham tezroq qurilmog'i lozim. Uning qismati Forob, O'tror, Afrosiyob va Toroz

shaharlarining qismatiga o'xshamasligi uchun uni mustahkam qilib qurish kerak.

Akbar darveshlardan, Makkaga borib kelgan qozi va savdogarlardan ko'rgan-bilgan shaharlarini so'rar, qorilarni chaqirib, kitoblardan turli mamlakatlarning poytaxtlari haqidagi ma'lumotlarni qidirtirar, arablarning oliy saroylari, muqaddas Misr va Bag'dod haqidagi ma'lumotlar bilan to'lib-toshgan Shahrizoda ertaklarini o'qitib tinglar edi. Do'sti Fozil aytgan Iskandar Zulqarnayn haqidagi afsonani tez-tez eslardi. Iskandar Doroni yengdi, Bolqon orolidan qizil, sariq va Qoraqumgacha bo'lgan yerlarning hammasini zabt etdi. Hirotda fors shoyisidan tiklangan chodirlarda go'zal qizlarning raqslarini tomosha qilib zavqlandi, taxt o'rnatilgan aravasini hind olmosi, marvaridi va oltini bilan bezadi, lekin Toroz bilan So'g'diyanni tiz cho'ktirolmadi. Forobga yurishga jur'at qilolmadi.

Islom homiylari shaharlarini loydan qurishgan. Iskandarning dini boshqa bo'lib, o'zidan mangu yodgorlik bo'lsin, deb oq marmardan qasr qurdirdi. Akbar esa qasr emas, qizil va oq marmardan butun shahar qurdiradi. Budda va Shiva uchun ibodatxonalar g'orlarga qurilgan.

Lekin Akbar shaharni g'orga emas, hamma yoqdan ko'rinib turadigan qilib Toshtepaning o'rtasiga qurdiradi.

Akbar Agraga to'plangan barcha me'morlarni qasrga chaqirtirib ulardan Fotihpurning kelajagi haqida gapirib berishni so'radi. Me'morlar shaharning kelajagi haqida ko'p shirin gaplar gapirib, uni qirq yilda qurib tamomlash mumkinligini aytishganda Akbar g'azab bilan o'rnidan sakrab turdi. Taxt zinalarining oldida yotgan zanjirband sherlar o'kirib yubordi.

— To'rt yil! — podshoning darg'azab ovozi sherlarning o'kirishini bosib ketdi.

Ulug' vazirlar titrab ketishdi, elchilar darhol orqaga chekinishdi, me'mor va naqqoshlar marmar yerga yuz tuban yotishdi. Faqat podshoning orqasidagi nimqorong'i burchakda ibodat qilayotgan avliyo Sikri va taxtning suyanchig'ini ushlab turgan donishmand Salimgina hukmdorning darg'azab ovozini eshitmaganday tinch, xotirjam edilar.

— Mayli, sening aytganing bo'lsin, zeroki sening xohishing — "ilohiy e'tiqod"ning talabi. Odamlarning bir qoshiq qonidan kech, shahanshoh, — dedi Fozil past, lekin hukmfarmo ovoz bilan.

Akbar xanjarini chetga uloqtirib, joyiga o'tirdi. Sherlar tinchlandi, me'mor va naqqoshlar tislanib xonadan chiqib ketishdi. Ularning joylarini Akbarning g'alabalari to'g'risida yangi qasidalar yozgan shoirlar egallashdi. Lekin hukmdor bugun ularning qasidalarini eshitishga xushi yo'q ekanini bildirdi. Shoirlar tezgina chiqib ketishdi. Xonaga yosh raqqosalar kirishdi. Akbar vinodan bir qultum yutdi-da, Sharq va G'arb mamlakatlarining shohlari in'om qilgan asiralarga tikildi.

U qizlarni birma-bir kuzatardi. Ravoq jim. Mana, shohning nigohi seylonlik raqqosa ustida to'xtaldi. Podshoning chehrasi ochildi, ko'z qarashlari yumshadi. Akbarning orqasida turgan Salim qo'l harakati bilan yosh raqqosani xonaning o'rtasidagi doiraga undadi. Qiz o'rtaga chiqdi va hukmdorning ro'parasiga kelib to'xtadi.

Qayerdandir ohista nog'ora chalingani eshitildi. Keyin zalning ichkarisida boshqa bir musiqiy ovoz paydo bo'lib, nog'ora ovoziga qo'shildi va sekin-asta kuchayib qasrning qubbasi uzra ko'tarildi. Qiz yuzidan yupqa to'rni oldi-da, qo'llarini yengil, lekin zarb bilan yozdi. Jips yumilgan dudoqlar ochildi — musiqaga qo'shiq jo'r bo'ldi. Qizning ovozi goh nozik, goh tashvishli, goh sekin va ravon, goh tez va shiddatli tus olardi.

Akbar butun borliqni unutib, yosh raqqosaning har bir harakatini kuzatar, marmar hovuzning tiniq suvida uning qanday cho'milishini ko'z oldiga keltirar edi.

U chap qo'lini ko'tarib, barchaning xonadan chiqib ketishini talab qildi. Vazir, raqqosa va xizmatkorlar xonani jimgina bo'shatishdi, o'rgatuvchilar sherlarini olib ketishdi. Oppoq chiziqli yashil toshlar yotqizilgan xonada, naqshli xitoyi gilamlar ustida raqqosaning yolg'iz o'zi qoldi. U goh yengil kapalakday talpinar, goh g'unchaday bir yerda qotib qolar edi. Faqat notekis nafas olishigina uning hayajonlanayotganini ko'rsatardi. Qiz charchab, gandiraklab ketdi. Akbar joyidan qo'zg'alib unga yopishdi, biroq Fozilning ohista ovozi uni to'xtatdi. Musiqa tindi. Yosh raqqosa kesilgan novdaday shartta yiqildi.

— U sening quling, ulug‘ shahanshoh. Ayt, bu gulni gulzoringga eltishsin, — dedi Salim. — Seni poshsho oyim kutyapti. U o‘g‘lingning ilk kulgisini ko‘rib, Dashti Qipchoqdan keltirilgan qo‘shiqchining ashulasini tinglashingni iltimos qilyapti.

Qo‘shiqchi qipchoqning goh mungli, goh shiddatli aytgan jangovar ko‘hna qo‘shig‘i Akbarni ilgarigidek yangi yurishlarga ruhlantirmadi, qo‘shiq uning seylonlik raqqosaga bo‘lgan ehtirosini kuchaytirdi, xolos.

Ertasiga ertalab Akbar marvaridlar bilan bezatilgan shoyi kiyimdagi yosh raqqosaning xonasidan chiqqanida, Toshtepaga yuz ming qul to‘planib bo‘lgan edi. Tosh konlarida toshtaroshlar chumoliday to‘la edi. Agradan Qora tog‘ga olib boradigan yo‘lning ikki chetida savdo rastalari paydo bo‘ldi.

Xizmatkorlar zangori qasrni o‘ragan qo‘rg‘ondan Akbarning shaxsiy ot va fillarini, yo‘lbars va sirtlonlarini dalaga olib chiqishdi.

Akbar kungirador tomning soyasi tushib turgan qizil minoraga chiqib, bo‘lg‘usi Fotihpur tomonga azamat fillar oq marmar va og‘ir qora granit xarsanglarini surib ketishayotganini kuzata boshladi.

— Yer ko‘hna, lekin yumshoq. Mening fillarim uning ko‘ksini jarohatlab ketyapti,— dedi Akbar vaziriga. Keyin munajjimni chaqirdi-da, Fotihpurning qancha vaqt poytaxt bo‘lib turishini yulduzlarga qarab aniqlashini buyurdi.

— Ming yil! — dedi munajjim.

— Otni keltiring! — qichqirdi yosh podshoh.

Xuddi endigina ishq lazzatini totgan o‘spirinday Akbar ko‘hna yo‘ldan hayajon bilan ot choptirib ketdi.

Mana, 1965-yilning yozida, shu yo‘ldan Jo‘mart ketyapti. Xayolida podsho otining do‘piri unga hozir eshitilganday bo‘ldi. Jo‘mart beixtiyor jilmaydi. Uning ko‘z o‘ngida bundan to‘rt yuz yil avval bo‘lib o‘tgan voqealar (Fotihpurni qurish 1569-yilda boshlangan edi) gavdalandi.

Mashina ham, yo‘l ham, quyosh nurida oltin rangga kirgan nozik yelkalarini ochib yonida o‘tirgan oqsuyak qiz ham Jo‘martga tasodif, o‘tkinchi bir narsaga o‘xshab tuyulardi. Uning nazari-

da hozir qayerdadir oldinda yotgan Fotihpur mangu, abadiy edi. O'tror xarobalarida qazish ishlarini olib borar ekan, Jo'mart Fotihpur to'g'risida o'ylagan edi.

Himolay tog'ining naryog'ida, Moskvada, Moskvaga borguncha Turkiston yonidagi cho'lda, O'tror qazishmalari vaqtida Jo'mart sayohatni Fotihpurdan boshlash, keyin bu sayohat to'g'risida kitob yozish kerak, degan fikrga kelgan edi.

Lekin marshrut shunday tuzilgan ediki, Jo'mart Hindiston bo'ylab uzoq sayohat qilib, Dehli va Kalkuttada ma'ruzalar o'qigandan keyingina Fotihpurga qarab yo'l olishga muvaffaq bo'ldi.

To'g'risini aytganda, Jo'mart bu ma'ruzalarga tayyorgarlik ko'rmagan edi. Uning uchun Hindiston bo'ylab sayohat qilish batamom kutilmagan bir hodisa bo'ldi. Bu sayohat uning O'tror xarobalari yonidagi zerikarli bir xildagi hayotini to'satdan o'zgartirib yubordi.

U belgilangan joyda arxeologik "razvedka"ni tugatayotgan edi. Qo'rg'on yonida qo'y boqib yuradigan cho'pon yordamida u bir necha joyni qazib ko'rdi; o'n besh yil avval arxeolog Bernshtam tomonidan kovlangan, lekin hozir tuproq bosib, o't-o'lan o'sib ketgan zovurlar yonidan transheya ochdi. Shu yerda Jo'mart ikkilanib qoldi: qazishmalarni davom ettirish kerakmikin... yo bo'lmasa Olmaotaga qaytib, arxeologik ekspeditsiyaning yo'lga chiqishini kutsamikin?

Hindistonga safar qilishi haqidagi xabarni eshitgach, Jo'mart ishni to'xtatdi. Akademiyadan unga madaniy hamkorlik rejasiga muvofiq Hindistonga borish va u yerda O'rta Osiyoning qadimgi tarixi haqida ma'ruzalar o'qish kerakligini ma'lum qilishdi.

Jo'mart Olmaotaga kelib, bir necha soat ichida hisobot yozdi-da, uni joyining sxemasiga qo'shib, Arxeologiya, tarix va etnografiya institutining direktoriga topshirdi.

— Sxema — yaxshi narsa-yu, lekin u moliya xodimlariga hech narsani isbot qilib bera olmaydi. O'z vaqtida Bernshtam ham joyning kartasini tuzib, tezlik bilan qazuv ishlarini boshlab yuborishni talab qilgan edi. Lekin, ko'rib turibsiz, bundan hech narsa chiqmadi. Bunday ishlarda biz faktik dalillarga — topilmalarga suyanishimiz

kerak, yaxshi yigit, — dedi keksa akademik. — Bizning fanimizni o'lik fan deb o'ylaydigan odamlar bilan gaplashganda topilmalar o'z ta'sirini ko'rsatmasa bo'lmaydi.

— Topilmalar bor! — Direktorning kabinetiga kichkina bir yashikchani olib kirdi Jo'mart.

Keksa akademik asta o'rnidan turdi. Ko'zoynagini taqdi. Stolining ustidagi narsalarni bir chekkaga olib qo'ydi. Vatman qog'ozini yozdi.

Jo'mart yashik ichidagi qog'oz va lattalarni ehtiyotkorlik bilan ochib, ot jabdug'ining to'qasini, grifonlarning ma'lum uslubga xos kichkina boshchalarini, sopol haykalchalarning siniqlarini, yassi aslahaning bir bo'lakchasini, yoy o'qining misdan ishlangan uch parrakli uchini, ikkita tanga va oynadan ishlangan allaqanday buyumning bir parchasini stol ustiga qo'ydi.

— Dastlabki bir oylik razvedka paytida mana shu narsalar topildi. Bu dalillar O'trorga ekspeditsiya yuborish uchun kifoya qilmaydimi?

Jo'martning savoli javobsiz qoldi. Institutning hamma xodimlari kabinetga to'planishdi. Keksa akademik oyna sinig'ini hayrat bilan tomosha qilar va bir nimalar deb g'o'ldirar edi. Keyin u haykalcha qoldig'ini qo'liga oldi.

Yana stol ustiga qo'ydi. O'q uchini olib, tikilib qaradi, so'ngra birdan Jo'martga o'girilib so'radi:

— Bu narsalarning hammasi bir joydan, yerning bir xil qatlamidan topilganiga ishonchingiz komilmi, uka?

— Guvohlar bor, — dedi Jo'mart. — Faqat to'qa bilan yassi aslaha bo'lakchasi oldinroq topilganini aytib qo'yishim kerak. Ularni menga cho'pon berdi.

— Bu — makedoniyalik Aleksandr appasiak jangchisining quroli. Lekin haykalcha qaysi davrniki bo'ldi ekan? Islomdan oldingi davrdan qolganmikin? Mana bu oyna-chi? Siz, azizim, o'z topilmalaringiz bilan o'tmish haqidagi barcha tasavvurlarni ostinustun qilib yubordingiz-ku! Agar bu ajoyibotlar, haqiqatan ham, bir qatlamda yotgan bo'lsa, Forob bilan O'tror uchrashgan nuqta topildi degan so'z. Demak, O'tror shahri Forob xarobalari ustiga

qurilgan. Axir, Samarqandning bir oyog'i Afrosiyob vayronalari ustida turgani bizga ma'lum-ku.

— Forob va O'tror bir shaharning turlicha nomlaridan boshqa narsa emas degan taxmin ham bor, — dedi Jo'mart.

— Qaysi taxmin to'g'ri ekanini faqat qazilmalargina tasdiqlaydi, — dedi akademik. — Siz topilmalaringizni tezda laboratoriyaga topshiring. Laboratoriya xodimlari tekshirib ko'rishsin. Aytganday, safaringizni keyinga qoldirishning iloji yo'qmikan?

— Endi kech. Biletlar olib qo'yilgan. Vizalar ham. Indinga u Moskvada bo'lishi va Moskva — Dehli samolyotiga ulgurishi lozim, — Jo'martning o'rniga partorg javob berdi.

— Shunaqami... Bo'lmasa, oq yo'q! — qovog'ini soldi keksa akademik.— Lekin O'rta Osiyoning qadimgi tarixi haqidagi ma'ruzalarda mana buni eslab o'tish yodingizdan chiqmasin, — akademik oyna sinig'ini qo'liga oldi. — Bilasizlarmi, bu nima? Bu sumak! — xitob qildi u javobni kutmay. — Hozirgi zamon tili bilan pissuar. Beshikdagi... o'g'il bola uchun, — davom etdi u. — Bola ust-boshini bulg'amasligi uchun, uni beshik tagidagi namat tuvakka to'g'rilab belashadi. Tuvakka ozgina kul yo tuproq solib qo'yiladi, sumak esa bolaning ikki soni orasiga boylanadi. Ko'chuv mavsumlarida cho'ponlarimiz bolalarini qanday qilib yaylovdan yaylovga olib yurishganini ko'rgan bo'lsalaring kerak. Bola hamma vaqt tuya yo ot ustidagi beshikda tebranib yotadi, uxlaydi. Lekin uning yo'rgaklari ho'l bo'lmaydi. Ko'chmanchilik sharoitida gigiyena nuqtayi nazaridan, bola sog'lig'i nuqtayi nazaridan buning qanday ahamiyatga ega ekanini tasavvur qilasizlarmi? Vaqti-vaqti bilan ona tuvak va sumakni tozalab qo'yadi. G'oyat oson, jo'n narsa. O'tmishda urush va bosqin paytlarida bu juda qo'l kelardi, hozir ham chorva ko'chuvida yaxshi ish beradi.

— Buning sumak parchasi ekanini qazishmalarda menga yordam bergan cho'pon ham aytuvdi, — dedi Jo'mart.

— Siz o'zingiz sumakni ko'rganmisiz?

— Men o'zim ovulda o'sganman. Cho'ponlar bilan birga ko'p marta ko'chganman, — dedi Jo'mart. O'quvchisini so'roq qilayotganday keksa akademikning savollar berishi unga yoqmadi. — Hozir uni qo'ylarning son suyagidan ishlashadi.

— Sizning topilmangizdan shunday xulosa chiqarish mumkinki, O'rta Osiyo mo'g'ullar istilosidan avval yuqori sifatli sopol idishlar, temir buyumlar, oltin va kumushdan zargarlik buyumlarigina emas, yuqori sifatli oynalar ham ishlab chiqargan, — zavq bilan davom etdi keksa olim. O'tror ham Forob singari, hamma vaqt mustaqillikka intilgan. Ikki yuz yil davomida kumush yetishmay qolganda ham, O'tror chetdan pul, yordam so'ramagan. Chingizxon bilan bo'lgan jangdan keyin O'trorda tanga zarb qilish izdan chiqadi. Xorazmshoh xazinasida zarb qilingan pul bu yerda muomalaga joriy qilinadi. O'trorda pul o'rniga bug'doy nondan foydalanilgan paytlar ham bo'lgan. Demak, siz topgan tangalar ko'p narsalar to'g'risida hikoya qiladi. Chingizxon zarbasidan qariyb ikki asr keyin Temur O'trorni tiklashga urinadi. Lekin Temur tiklagan O'tror Bobur zamonigacha yashagan bo'lsa-da, avvalgi O'trordan ancha kuchsiz edi, — olim faylasuflarcha fikr yuritardi.

Oftobda kuygan dalalarga qarab borar ekan, Jo'mart keksa akademikning Bobur haqidagi so'zlarini esladi. Akbarning bobosi bo'lmish Bobur ham bu yo'ldan yurgan. U Fotihpur qad ko'targan Toshtepaning yonida rajpurlarning juda ko'p lashkari bilan birinchi marta uchrashib, 1557-yil 16-martida o'zining eng buyuk g'alabasiga erishgan.

Boburning yengilgan dushmanga nisbatan oliyjanobligi, uning mardligi va donishmandligi, fan va san'atga muhabbati haqida ko'plab afsonalar saqlangan. Uning qanchalik faylasuflik va lashkarboshilik iste'dodiga ega bo'lgani o'zi yozib qoldirgan asarlardanoq ko'rinib turadi.

O'rta Osiyo xonliklarining hokimlari bo'lmish qarindoshlarining zolimligi va rahmsizligi bilan chiqisholmagan Bobur, Turkistondagi qabiladoshlariga qarshi tig' ko'tarishni o'ziga ep ko'rmay, afg'on tog'lariga bosh olib ketadi. U toj-taxt uchun kurashdan ixtiyoriy ravishda bosh tortishi aka-ukalarni yarashishga olib keladi, deb umid qiladi.

Tog'da qashshoq qabilalar uning atrofiga to'planadi. Bobur ularni Hind vohasiga olib tushib, qulay yerlarga joylashtirmoqchi bo'ladi. Uning odamlari juda kam bo'lib, asosan, afg'onlardan iborat edi. Mahalliy beklar kelgindilarning adabini berib qo'yishga bel

bog'lashadi. Lekin ularning o'zlari adabini yeb qolishadi. Bobur g'alaba ketidai g'alaba qozonaverdi. Uning lashkari ko'paya boraverdi, yer-mulki oshaverdi. Buyuk boburiylar imperiyasi vujudga keldi. Lekin Bobur tabiatan o'zgarmay qolaverdi, garchi hokimiyatparastlikda hech kimdan keyin qolmasa ham, lekin o'zining qipchoq, afg'on, hind askarlariga bir xil munosabatda bo'ladi.

Tinchlik paytlarida u kelgusi avlodlar uchun kitob yozar, ov qilardi, lekin uning imperiyasiga dushman hujum qilganda, u batamom o'zgarib ketardi. Uning jasurligi va abjirligi qo'shinini hayratga solardi. U barcha odamlarni "birodarlarim" deb atardi.

— Bobur o'limi oldidan "Birodarlaringizni o'ldirmang, ularga mehr bilan g'amxo'rlik qiling" degan edi, — dedi keksa akademik Jo'martga.

Keksa akademik Jo'mart topgan narsalariga qarab juda ilhomlanib ketdi, o'tmish to'g'risida uning instituti fan uchun qanday oliyjanob vazifani bajarayotgani haqida gapirdi. U qozoq cho'llari o'tmishda yovvoyilikning qorong'i tuni bo'lmagani haqidagi sevimli gapini bir necha bor takrorladi.

Jo'mart shoshardi. Safarga tayyorlanishi kerak edi. Uning xotini Gulsara dam olish kunlarini birga o'tkazishi mumkin bo'lmaganidan ranjisa ham, eridan xursand edi.

Jo'mart kitoblar tanladi; sovg'alar sotib oldi va topilmalarni yashikka joylab bo'lganidan keyingina transheyadan topib olgan olti qirrali g'alati tangani shoshilinchda institutga topshirmaganligi esiga tushib qoldi. U tangani hamyoniga solib qo'ygan edi. Buni Dehliga uchish oldidan Moskva bojxonasida sezdi. Asrlar bo'yi tuproq ostida yotgan tanga zanglab ketgan edi. Jo'mart uni bir necha marta tozalashga urinib ko'rdi. Ma'ruzalar vaqtida studentlarga ko'rsatdi. Mana hozir yo'l to'g'risida, Akbar va Bobur to'g'risida o'ylab borar ekan, u beixtiyor qo'lini cho'ntagiga solib, g'adir-budir tangani ushlab qo'ydi.

O'trordan topilgan bu tanga qanchalik qadimiy bo'lsa, huv anavi qurib qolgan palma yonidagi xarobazor ham shunchalik qadimiy, deb o'yladi Jo'mart. Ehtimol, u Bobur yoki Akbar davridan qolgan ibodatxonadir. To'g'rirog'i, Akbar davridan qolgan bo'lsa kerak. Sababi, Humoyun Agra yonida hind ibo-

datxonasini qurishga so'zsiz yo'l qo'ymagan bo'lardi. U o'taketgan islomparast edi.

Humoyun imperiyasi nobud qilinishiga sal qolgan edi. Uning hukmronligi davrida juda ko'p isyonlar, hind-musulmon janglari bo'lar, bu isyonlarni bostirish uchun mamlakatning u boshidan bu boshiga chopar edi. U mana shunday yurishlardan birida halok bo'ldi. Jangda emas, oddiy yurishda chopib ketayotgan otdan yiqilib o'ldi. U qattiq mast edi!

* * *

Akbar cho'lda, harbiy safar vaqtida tug'iladi. Otasining jangchilari uni tarbiya qilishadi. Keyinchalik Humoyun biron kor-hol yuz berishidan qo'rqib, merosxo'rini qasrda boqadi. Akbar xuddi qamoqda qolganday yashaydi.

Humoyun halok bo'lgach, yosh Abul Fath Jaloliddin otasini yomon ko'rgan odamlar orasida qoladi. Uning zimmasiga barbod bo'la boshlagan imperiyani qayta tiklashday og'ir va murakkab vazifa tushadi.

O'limi oldidan Humoyun o'g'lini Bayramxon degan bir jasur turkmanga topshirib, unga Xon Bobu (podshoning otasi) unvonini bergan edi. Shahzoda voyaga yetguncha imperiyani boshqarish mana shu kishi qo'lida bo'ladi. Humoyunning vafotidan bir necha oy keyin Bayramxon Panipat yonidagi jangda Lojaning qo'shinlarini yengadi. G'alabadan boshi aylanib uzoq vaqt taxtda o'tirishga qaror qiladi.

Shahzodaning ovga, sportga qiziqishi, yovvoyi ot va fillarni, turli yirtqich hayvonlarni qo'lga o'rgatish bilan shug'ullanishi Xon Boburni juda xursand qiladi. Nazarida, oliy hokimiyat uning qo'lida ko'p vaqtgacha qoladiganday tuyuladi.

Lekin Abul Fath Jaloliddin bir kuni ovdan kutilmaganda tez qaytadi va bundan keyin imperiyani o'zi boshqarishga qaror qilganini aytadi.

Bayramxon merosxo'rni tinchitishga urinib ko'radi, lekin uni hech kim quvvatlamaydi. Yosh podsho Bayramxonning bu qilmishini kechiradi va uni o'ziga bosh maslahatchi qilib tayinlaydi. Bayramxon sodiq bo'lishga qasam ichadi. Faqat podsho oldidagi

gunohini emas, balki Xudo oldidagi gunohlarini ham yuvish maqsadida u Makkaga yo'l oladi. Agradan chiqishida dushmanlari uni o'ldirishadi.

Qotillik hozir Jo'mart ketayotgan mana shu yo'lda sodir bo'lgan edi.

...Dunyoning ishi qiziq. Agar diqqat bilan razm solinsa, yo'llar ham, yerlar ham, odamlar ham nimasi bilandir bir-biriga o'xshash ekanini payqash qiyin emas. Yosh avlod o'tmish avlod ishini, o'g'il otaning ishini takrorlashi mumkin. Akbar Boburning ishini takrorlagan, deb o'ylab borardi Jo'mart. Boburning ruhi nevarasi Abul Fath Jaloliddinda mujassam topdi. Akbar oliyjanoblik va temir iroda, lashkarboshilik qobiliyati va san'atga muhabbat xislatlarini bobosidan meros qilib olgandi. Uning qaddi-qomati juda kelishgan edi. Tinimsiz mashqlar va ov uning muskullarini juda o'stirib yuboradi.

Xotinining dugonasi bo'lgan bir yosh malika eri vafot etganidan keyin otasining amri bilan o'zini olovda yondirishga chog'lanayotganini eshitgan Akbar ikki yuz chaqirim masofani otda dam olmay bosadi va u yerdan quvonib, xushxabar olib qaytadi.

Taxtga o'tirgandan keyin u ham, Bobur kabi, rajputlarning juda ko'p sonli qo'shini bilan jang qilishga majbur bo'ladi. Ikki qo'shin Bobur jang qilgan joyda — hozir Fotihpur qad ko'tarib turgan Toshtepaning yonida to'qnashadi.

Yosh podshoning Toshtepa yonida qozongan g'alabasi Boburning g'alabasini eslatardi. Dushman qochib, o'z qasriga yashirinadi. Yakkama-yakka jangda Akbar rajputlarning jasur dohiysi Chitrani o'ldiradi. Qasrni zabt etgach, u aholining gunohidan o'tadi. Lekin dohiysidan judo bo'lgan shahar himoyachilari o'zlarining qadimiy odatiga muvofiq, oldin o'z xotin va bolalarini qatl etadilar ("Dushman xotin va qizlarimizning nomusiga tegmasin va o'g'illarimiz otalarining diniga sodiq bo'lib qolsin", degan maqsadda); keyin esa o'zlarini o'ldiradilar. Bunda har bir jangchi boshini sherigining qilichiga boshqalardan oldinroq tutib berishga urinardi. O'z do'sti yo qarindoshini o'ldirgan kishi Xudoning irodasini ado etgan sanalardi. Bunday voqea Bobur g'alabasidan keyin ham sodir bo'lgan edi.

Qasrdan faqat Chitraning o'g'ligina hayot chiqadi. U Utaypurda yangi davlat tuzadi. Bu davlat hukmdorlari Dehli va Agra podsholari bo'lgan musulmonlar bilan qarindosh-urug' tutinmagani, o'z qonlarining go'yo sof va asl saqlaganligi bilan faxrlanadilar.

Toshtepa yonidagi g'alabadan keyin yosh Akbar — Ulug' degan nom oldi.

Bir joyning o'zida ikki marta urush bo'ldi. Ikkala jangda ham dushman rajputlar edi. Har ikki jang ulug' g'alaba bilan tugadi. Bu janglarning bir xil yakunlanishi tasodif bo'lsa ham, lekin kishini o'ylashga majbur qiladi. Fotihpur shahrining qurilishi haqidagi afsona bu sirni ochishga yordam bermasmikin? Ehtimol, Akbar Fotihpur shahrini birinchi o'g'lining tug'ilishi sharafiga emas, balki bobo va nevaraning buyuk g'alabalari sharafiga barpo etgandir, deb o'ylab borardi Jo'mart. Agar bu istehkom shaharning qurilishi 1569-yilda, ya'ni Akbarning birinchi va eng yirik g'alabasidan o'n ikki oy keyin boshlanganini etiborga olinsa, mazkur taxmin yana ham to'g'riroqqa o'xshab ko'rinadi.

* * *

Yonida o'tirgan qizchaning ovozi Jo'martning xayolini bo'ldi. Jo'mart qizchaga qaradi. Qizchaning yuzida hayajon, ko'zlarida hayrat barq urardi...

— Kechirasiz, men sizni mudrab o'tiribsiz deb o'ylabman. Bu yoqqa, anavi mo'jizaga qarang! — qizcha oldinga ishora qildi.

Jo'mart, Fotihpur manzarasiga qarar ekan, beixtiyor, eh, deb yubordi.

Tepaning oldini to'sgan qal'a devorlari o'ng va chap tomonga cho'zilib ketgan edi. Bu devor shaharni uch tomondan o'rab olgan edi. Qal'aning to'rtinchi tomoni Akbar zamonida chuqur sun'iy ko'l bilan himoya qilinardi. Hozir ko'lning suvi qurib, o't-o'lan bosib yotibdi.

Qal'a devorining birinchi halqasi orqada qoldi. Havo shu qadar quruq ediki, agar uchqun tushsa, yo'l bo'yidagi butalargina emas, balki so'lg'in, pastak palma daraxtlari yonida mag'rur qad ko'targan cho'g'day issiq tosh devorlar ham lovullab yonib ketadiganga o'xshardi.

"Kapitan" asta-sekin yuqoriga o'rmalab borardi. Ilon iziday buralib yotgan bu yo'l Akropolga olib boradi.

Mo'jazgina tosh maydonchada to'xtadilar. Bu maydondan keyin qal'a darvozasiga olib boradigan zinalar boshlanadi. Ular mashinadan tushishdi. Qayerdandir bir gala maymunlar paydo bo'lib, ularga qo'llarini cho'za boshladi.

Jo'martning oldiga soch-soqoli o'sib ketgan bir chol, undan keyin o'n ikki yoshlardagi bir o'smir keldi. Chol ham, bola ham bir og'iz gap aytishmadi. Chol maymunlarni haydashga kirishdi, bola esa sinchkovlik bilap ular orqasidan jimgina darvozagacha kuzatib bordi. Jo'mart amerikalik qiz bilan qoyani o'yib qilingan, oftobda qizib ketgan zinalardan yurib borardi. Zinalar juda katta va ko'p edi.

Jo'martning sergap hamrohi atrofdagi bino va devorlarning sirli va ulug'vor haybatidan ta'sirlanib jim bo'lib qoldi. Zinalarning yorig'idagi quruq barglar shitirlab, xivichsimon uzun qora narsa chetga sapchigan edi, qiz cho'chib tushdi.

— Ilon! — dedi bola sevinch bilan inglizcha gapirib.

Zinapoya tugadi. Ular Buyuk boburiylar poytaxti Fotihpurning Sharqiy darvozasiga kirishdi.

Ularning ko'z o'ngida g'alati bir manzara namoyon bo'ldi. Atrofda qumtoshdan yo'nib qilingan o'nlab, yuzlab ustunlar ko'rinardi. Birinchi qarashda juda nozik, xayoliy tuyulgan bu ustunlar toshdan qurilgan binoning ikkinchi qavatini ko'tarib turardi. Ustunlarning orqasida devor, devorda eshiklar ko'zga chalinadi. Eshiklarning ba'zilari zangori, oq, qizil, kulrang xonalarga olib kiradi, ba'zilari hovliga, ba'zilari esa rastaga olib chiqadi. Hovlining o'rtasida — qirg'oqlari yashil toshdan qilingan hovuz. Oftob suvini isitib yuborgan. Lekin bu suv qayerdan keldi ekan? Hovuzni kim to'ldirgan? Yo'lovchilarning nazarida bu yerda odamlar yashaydiganday, ular hozir bir yoqqa ketgan-u, tezda qaytib keladiganday edi.

— Suv shahar ostidagi quvurlardan chiqadi, ser, — dedi haligi bola Jo'martga. — Lekin uning quvurga qayerdan quyilishini men bilmayman. Hamma yoq qurib yotibdi, ser. Nariroqda Akbarning marmar hovuzlari bor. Avliyo Salim ibodatxonasining yonida ham hovuz bor.

Ular ravoqqa kirishdi. Ko'chaga chiqishdi. Sukunat. Ertakdagi singari binolar, rastalar, qasrlar, qorovul minoralariga olib boradigan tor yo'llar, oldi ochiq ayvonlar. Har bir xonaning, har bir ravoqning uch tomoni devor bo'lib, to'rtinchi tomoni gilam, qizil gulli mato yo bo'lmasa, shoyi gazmoldan iborat. Bular yozda xona va ravoqqa salqinlik bersa, qishda ularni issiq saqlaydi. Binolarning ko'rinishi, chiziqlari, shakli, bezaklari, joylashuvi, o'yma naqshlaridan G'arb va Sharq me'morchiligi, hindlarning shoh Ashokdan keyingi ibodatxona qurish san'atining barcha fazilatlari o'z ifodasini topgan.

Bu yerdagi har bir toshda, har qaysi g'ishtda, xuddi Ajantadagi devorlarning suratlarida bo'lgani kabi, hind ustalarining san'ati mujassamlashgan. Jo'mart o'zini Shahrizoda ertagidagi joylarda yurganday sezardi. "Ming bir kecha"dagi chala toshga aylangan yigitning shahardagi barcha odamlarni o'ldirgan go'zal malikaning sehri haqidagi hikoyasi esingizdami? Yo bo'lmasa, qadimgi yunon miflaridagi boshida soch o'rniga ilonlar buralib yotadigan meduza Gorgona shahar ko'chasidan o'tganda, odamlar dahshatdan toshday qotib qolgan. Faqat jasur Perseygina uni yengib, shahar odamlariga hayot baxsh etadi.

Lekin bu yerda Persey bo'lmagan. Bu afsonaviy Gorgonadan kam qo'rquv solmagan Akbar hukmronlik qilgan. Uning havoyi havaslari bilan me'morchilikning mana bu nodir namunalari — Panch Mahal bilan Juma machit qurilgan.

Panch Mahal — Besh qasr binodagi qavatlarning soniga qarab shunday atalgan. Sakson ikkita yengil; nozik ustunga ov manzaralari, fillar jangi, gul va meva suratlari solingan. Har bir ustun — san'atning nodir namunasi. Yuqoriga ko'tarilgan sari ustunlar soni kamayib boradi. Beshinchi qavat to'rtta ustunli chiroyli, yengilgina havo soyabonidan iborat. Hovlining o'rtasida — marmar panjara va bezaklar, nozik osma ko'prikchalar bilan o'ralgan hovuz.

Qasr singari mag'rur qad ko'targan Juma machit binosi tevaragidagi boshqa binolardan ancha baland. Uning peshtoqini minoralar bilan birga uchta yirik va bir-biriga ulangan juda ko'p mayda mezanalar bezab turibdi.

Qizil qumtoshdan tiklangan va oq marmardan qadama naqsh solingan Buland darvoza — Zafar darvozasi machit binosidan ham, shahardagi boshqa binolardan ham baland edi.

Ulkan maydonning o'rtasidagi Salim Chishtiy maqbarasi toza, oq gul singari darhol ko'zga tashlanadi. U qo'ng'iroqsimon mayda mezanalar bilan bezatilgan ustunlar ila o'ralgan edi.

Aytishlaricha, Salim kuchsiz, nozik chol bo'lgan. Lekin uning aqli, mantiq kuchi va donishmandligi Akbarning qudratli shoh bo'lishiga yordam bergan.

Akbar o'z mulozimlari bilan Fotihpurga o'tib, fil mingan xizmatkorlari bayramning boshlanganligini e'lon qilganda, Salim hali hayot edi. Qo'shin shaharga tantana bilan kirib keldi. Ko'chalar turli tillarda gapiruvchi odamlarga to'ldi. Chorrahalarda podshoning xazinasi va qudratli Akbar bilan do'st bo'lishga chanqoq xorijiy hukmdorlarning sovg'a-salomi ortilgan karvonlar bir-birini chetga surib o'tardi.

Podsho yangi poytaxtdagi qasrda taxtga o'tirganda ham Salim hayot edi. Taxt joylashgan nilufarnusxa ravoq shunday yaqinda, keyingi ko'chada edi. Akbar bu yerda vazirlarini va elchilarni qabul qilardi. U o'z noiblarini hisobot uchun mana shu xonaga chaqirardi. Mana shu xonada shaxmat o'ynardi.

Ravoq to'rt burchakli bo'lib, oq va qizil marmar yotqizilgan edi. Akbar uchun bular shaxmat kataklari o'rnini bosar, bu kataklarda shaxmat donalari o'rnida askarlar turardi. Piyoda piyodani qilich zarbi bilan yutardi.

Shahar qurilib bo'lganidan keyin Akbar o'zgardi. Undagi oliyjanoblik va vazminlik o'rnini endi qonxo'rlik va telbalik egalladi. Akbar Fotihpur shahrini qurgan me'morlarni qatl qilish haqida buyruq berganda, Salim o'z shogirdining bu niyatiga qarshi chiqdi.

— Fotihpur egasining raqibi bo'lmagani kabi, — dedi Akbar, — unga o'xshagan boshqa shahar ham qurilmasligi kerak.

— Axir, san'at qilich va zamonga bo'ysunmaydi! — Salim bilan birlikda dono vazir Fazl ham podshoga qarshi chiqdi.

Iste'dodli kishilarni tahqirlash, hatto hokimlar uchun ham koni ziyon ekanini u ich-ichidan anglagan bo'lsa ajabmas. Naqqosh

va shoirlar hokimga qarshi chiqsa, hokim so'zsiz o'z qudratini yo'qotadi. Zero, hokimning xalqqa yaqinligi uning shoirlarga qanchalik yaqin ekaniga bog'liq, chunki haqiqiy shoirlar xalqning dilini yaxshi biladi.

Qasos olishga chog'langan darg'azab shoirning she'ri bilan naqqoshning mo'yqalami qilichdan o'tkir.

Lekin Akbar Salimga ham, Fazlga ham quloq solmadi. Odamlarni qo'rquv bosdi. Ularni himoya qiladigan Persey yo'q edi. Shoir va naqqoshlar qatl qilindi.

Fotihpur toshlari qatl qilingan shoir va me'morlar, bu yerda halok bo'lgan minglab-minglab qullarning qoniga bo'yaldi.

Jo'mart iliq qizil toshni ohista ushlab ko'rdi. Shamol uni dag'allashtirib qo'yibdi. G'ishtlar orasidagi choklar arab xatini eslatardi.

Odamlar bu shaharning ulug'vorligiga tahsin o'qishardi. Lekin suyaklar ustiga barpo etilgan, o'z quruvchilarini yuta boshlagan shaharni ulug' shahar deb bo'larmikan?

Agar chuqurroq o'ylab ko'rilsa, ulug' shahar desa bo'lar ekan. Vavilon va Karfagen, Troya va Afina, Persepolis va Sheroz, Toroz va Hirot shaharlari ham qullar tomonidan, qullarning suyaklari ustiga qurilgan. Troya Gomer tomonidan madh etilgan, Sa'diy va Hofiz Sherozni ulug'lagan. Hirotni ulug' Jomiy tasvirlagan. "Tarixning dahshatli jumbog'i!" — bolaligidan xayol surishni, o'z-o'zi bilan bahslashishni yaxshi ko'radigan Jo'mart yana o'ylab ketdi, — shoirlar quruvchilarni ulug'lab, zolimlarni qoralagan, — deb o'yladi u, O'trordan olgan tangani panja orasida qisib borarkan. Ular mana bu jonsiz toshlarni emas, balki bu yerda jangchilar ko'rsatgan jasoratni madh etganlar. Troya ham, Toroz ham jangchi singari, o'z xalqi va mamlakatini oxirgi daqiqagacha himoya qilib halok bo'lgan. Ularning jasorati shoirlar tomonidan madh etiladi. Lekin Fotnhpur bunday madhiyalarga loyiq emas.

"Fotihpur — o'lik shahar".

XVI asrning oxirida bu yerga kelgan birinchi yevropalik kishi, ingliz Finch Fotihpur o'sha vaqtdagi Londondan katta bo'lganini, uning zeb-ziynatini tavsiflashga har qanday qalam ojiz ekanini, Akbarning saroyida mingta fil, o'ttiz ming ot, yuzlab yo'lbars, qoplon,

sher, qo'tos, burgut, to'tiqush, tovus, tozi itlar saqlanganini yozadi. Uning yozishicha, Fotihpurdan Agraga boriladigan yo'l doim gavjum bo'lgan, uning ikki yog'idagi rastalarda oltin, kumush, olmos, fil suyagi, xuddi havodan to'qilganday nafis gazmollar sotilgan. Bu gazmollarning to'qilish sirlarini kashmirliklar hozirgacha sir saqlab keladi.

Hamrohlarini unutgan Jo'mart, endi binolarning go'zalligiga ham e'tibor qilmay, saroy ko'chalarida indamay kezib yurardi. Dahshatli jimlik qa'riga cho'mgan shahar unda san'atning ulug'vorligi va zolimning zulmi, yaxshilikka intilgan odamning ijodkorligi va tubanlikka yuz tutgan kishining jallodligi haqida mungli fikrlar uyg'otardi. Ulug'vor jimlik ta'sirida o'zini yo'qotgan yosh amerikalik qiz uning ketidan qolmasdi. Quyosh issig'ida qizib ketgan devorlar uning qalbiga vahima solardi. Shitirlagan har qanday narsa unga ilon bo'lib tuyular, har bir burchakda kimdir poylab turganday bo'lar edi.

Ular adashib boshqa darvozadan chiqib qolganlarini sezmay qolishdi.

Ko'hna tik yo'l pastga, ko'kimtir bo'z vodiy bo'ylab ketgan edi. Qasr devoriga bahaybat bir daraxt qapishib turardi. Daraxt allaqachon qurib, qoya parchasiday qorayib ketibdi. Quyosh uni kuydirib yuborgan. Vodiydan shaharga ko'tarilayotganda, qul va asirlar bu daraxt tagida so'nggi marta to'xtab o'tishgan bo'lsa ajab emas. Bu darvozaning asirlar darvozasi deb atalishi ham bejiz bo'lmasa kerak. O'limga hukm etilganlar o'sha vaqtda huv anavi qoyadan tashlab yuborilar ekan.

Ufqda quyoshning so'nggi nurlari tovlanardi. Tezda qosh qoraya boshladi. Pachoq, guldor, pastak daraxtlar o'sgan ulug' voha allaqanday kulrang tus kasb etdi.

Iya, bu nima? Allaqayerdan, jimlik qa'ridan "taq" etgan ovoz eshitildi. Yana... yana eshitildi... Bu tovush bir tekisda aks sado berib, o'lik shahar ustida, Qoratepa va shaharni o'ragan kulrang voha ustida yangrardi.

"Taq... taq... taq..." Bu sirli tovush vaqtni ko'rsatar edi. Yosh amerikalik qizning yuzida hayrat, dahshat, tashvish paydo bo'ldi.

Bu bo'g'iq bir xil tovushning qayerdan kelayotganiga Jo'mart tushunolmay, ziyraklik bilan quloq solardi.

— Nima bu?

— Aks sado qandaydir urilishning ovozini olib kelyapti.

— Voha ro'paramizda yotibdi. Unda hech qanday uy-kulba ko'rinmaydi-ku —hamma yoq cho'l. Juda qo'rqinchli...

— Bu tabarruk qush, — dedi baland ovoz bilan allaqayerdan paydo bo'lgan haligi bola. Qiz cho'chib tushdi. — Uni hech kim ko'rgan emas. U — bu yerning hokimi. Bu yerda juda ko'pdan beri yashaydi, miss, bu yerga qachon kelganini bilmayman. Siz undan qo'rqmang, u tabarruk qush. U hech kimga ziyon yetkazmaydi.

Ular shaharga qaytishdi, avliyo Salim maqbarasining yonidan tezgina o'tib, tosh zinalardan mashinaning yoniga tushib borishdi.

Arvohga o'xshash indamas och chol yana ularning oldiga keldi. Uning qiyofasi Jo'martga tabarruk darvesh Sikri haqidagi afsonani eslatdi. Akbar unga na qulba qurib bergan, na maqbara.

Sikri kambag'al edi, u tosh konlarida ochlikdan o'ldi.

Munajjim Akbarning "Fotihpur necha yil imperiyaning poytaxti bo'lib turadi?" degan savoliga "Ming yil!" deb javob berganda, keksa Sikri kulib yuborgan edi. Shunda munajjimning gapiga ishongan Akbardan kulgan edi.

Jahli chiqqan podsho uni qatl etishga buyuradi. Lekin Fazl Sikrining yonini oladi. Qashshoq Sikri qasrdan haydab chiqarib yuboriladi. U ochlikdan o'lishga mahkum edi. Sikri umrining oxirigacha Akbardan kulib yurdi.

U soch-soqoli o'sib, ozib, tosh konlarida yashirinib yuradi. Uning qovjiragan qalbida kulgi jo'sh urardi. U shahar devorini ko'rsatib, qahqaha urib kular va:

— Men shahar bilan birga o'laman, — derdi.

Sikrining qachon va qayerda o'lganini hech kim bilmaydi. Lekin Fotihpurning o'limi hammaga ma'lum.

— Ehtimol, Sikri o'lmagandir, — dedi bola. — O'rmonda yurgandir.

To‘rt yilda qurilgan shahar qirq yil yashamadi. O‘n-o‘n besh yildan keyinoq huvullab qoldi.

Quyosh toshlarni olovday qizdirardi. Suv podshoh saroyigagina mo‘l-ko‘l kelardi. Issiq va dim havo hamma narsani quritib yubordi. Bu orada Salim to‘satdan o‘lib qoldi. Fazlni dushmanlari zaharlab qo‘yishdi.

Akbar o‘z yaqinlariga ishonmaydigan bo‘lib qoldi. U Fotihpurni birinchi bo‘lib tark etib, Lahorga o‘tdi, yetti yildan keyin shov-shuv ko‘tarmay, Agradagi qal’asiga ko‘chdi. Saroy a’yonlari unga ergashib kelishdi.

Fotihpurda kambag‘al aholi uzoq azob chekdi, chidab bo‘lmaydigan issiqdan qanchadan qancha odam o‘lib ketdi, keyinchalik shahar abadiy bo‘shab qoldi.

Shundan buyon u inson iste’dodi cheksizligidan namuna, mansabparast va qonxo‘r hokim telbaligidan xotira sifatida mana shu qora, issiqdan toblangan tepada turibdi.

Fotihpurning badnom inqirozi Akbarning kuch va donoligiga bo‘lgan ishonchini zaiflashtirib qo‘ydi.

Dindor kishilar, Akbar yangi din yaratishga uringani uchun Xudoning qahriga uchradi, deyishardi. Xudo undan yuz o‘girdi. Bizning sho‘rimiz, Akbar, Xudo va Budda qullarining sho‘ri quridi. Hatto avliyo Salim ham uni tark etdi, devona Sikri undan kuldi.

Sho‘rimiz quridi...

Uzoq vaqt Akbarning zulmiga toqat qilib kelgan navoblar jonlanib qolishdi, shayx va rojalar norozilik bildirisha boshlashdi. Hindular bilan musulmonlar orasida, vazirlar bilan lashkarboshilar orasida yana to‘qnashuvlar boshlandi. Qo‘shin tarqalib borardi. Akbarning eng yaxshi do‘stlari birin-ketin o‘ldirildi. Ustiga ustak, o‘g‘illarining yengiltakligi uni ich-ichidan kemirardi.

Uning uch o‘g‘li bor edi. Fotihpur shahrining birinchi g‘ishtlari terilgan yili tug‘ilgan o‘g‘li o‘n to‘qqiz yoshga to‘lgan edi. Shahzodalar doim aysh-ishrat qilishardi. Akbar o‘g‘illarining yashirin dushmanlar ta’sirida qolganliklarini sezar, lekin bunga qarshi hech nima qila olmas edi. Oxiri uning sabr-toqati tugab, tajang, badjahl,

zolim bo'lib qoldi. Do'stlarining halokati va saroy a'yonlarining xoinligi uni ruhan sindirdi.

Endilikda u rajputlardan chiqqan shoir va shavkatli lashkarboshi Bir Bol bilan lashkarboshi Man Singxgagina ishonar edi. Qo'shnini mustahkamlash, uning jangovarligini sinab ko'rish va g'am-hasratni tarqatish maqsadida Akbar Bir Bol va Man Singxg bilan birlikda o'z askarlarini Chand Bibi degan bebosh va tillarda doston bo'lgan ayolning vatani Ahmadnogarga olib bordi. Bu ayol mayda knyazlik va davlatlarni yig'ib, kuchli qo'shin tuzgach va tez-tez hujumlar qilib, Akbar imperiyasining chekka shaharlarini bezovta qila boshlagan edi.

Akbarning qo'shini g'alaba qildi. Lekin g'alaba sha'niga bayram o'tkazilmadi. Bayram o'rniga aza tutildi. Akbar qasrga qaytib kelganida, ikki o'g'li o'lib yotardi.

Ichkilikka ruju qilish ularning boshiga yetgan edi. Ular allaqaysi karvonsaroyda yalang'och raqqosa va asiralar davrasida o'ladilar. Shahzodalarning soqchilari, Akbarning g'azabidan qo'rqib, o'zlarini o'ldirishadi. Ayollar ham qatl etiladi. Shunday qilib, Akbar o'g'illarining nimadan o'lganini bilolmaydi.

Charxi kajraftorning qilmishlaridan dovdiragan Akbar, g'azabini ichiga yutib, Zangori qasrdan deyarli chiqmaydi. U o'zining ko'p odatlarini tark etib, ovga kamdan kam chiqadigan bo'ladi, avvalgilardek avliyolarni, kohinlarni, islom homiylarini, faylasuflarni, tarixchilarni, shoir va bastakorlarni uyiga to'plamay qo'yadi. Agar oldin payshanba kunlari uning huzuriga Rim missionerlari ham talpinadigan bo'lsa, endi, hatto mulla ham o'zini Akbardan tortadigan bo'lib qoldi.

Endi u vazirlarini kamdan kam chaqirar, dunyoning har burchagidan yig'ib, yigirma to'rt ming jildli nodir qo'lyozma to'plangan kutubxonasiga kirmay qo'ydi. Endi u vazirlarga ham, kitoblarga ham, munajjimlarga ham ishonmas, shoirlarning she'rlarini, bastakorlarning musiqasini tinglamasdi. Endi uning merosxo'rlari yo'q, eng yaxshi mag'rur va jasur shoir, musiqachilari qatl qilingan edi.

Akbarni iqtidorsiz qo'shiqchilar madh etardi. Uning nazarida ular shafqat so'rayotganday bo'lardi.

Har qanday odam unga xoin, ayg'oqchi yo dushman bo'lib ko'rinadi. Taxtda vazirlar, elchilar, savdogarlar va xorijiy ellarning diplomatlari "Qatl qilinsin!" degan so'zdan boshqa gap eshitmasdi. U qo'rqoq, injiq, xilvatparast bo'lib qoldi. Unda ta'qib etish vasvasasi paydo bo'ldi.

Ba'zan u bog'ga chiqib, quyoshda erinchoqlik bilan mudrab yotgan qo'lbola yo'lbarslar orasida kezib yurardi. Bir vaqtlar qipchoq cho'llaridan keltirilgan keksa qo'shiqchini uning yoniga olib kelishardi.

Akbar daraxt tagida chordana qurib o'tirardi-da, ko'zlarini yumib avvalgi yurishlari to'g'risida xayol surib ketardi. Chol qo'shiq boshlab, asta-sekin avjiga chiqardi. U chalavning qattiq poyalari, otning o'tkir tuyog'i; Akbarning sherlarcha jasorati haqida kuylardi. U o'z Vatanini sog'ingani, qipchoqlarning Temurlangni holdan toydirgani haqida kuylardi.

Temur so'zi Akbarning yodiga Dehli markazidagi temir ustunni tushirardi. Bu ustun ming yillardan beri turibdi. Uni kim qo'ygan, kim tiklagan? Odamlar uni qurdirgan hukmdorning nomini allaqachon unutib yuborishgan. Odamlar Akbarni ham unutishsa kerak. Lekin toshdan qurilgan Fotihpurgina qoladi.

Dehlidagi temir ustun juda katta. Lekin Qutb Minorning uch yuz yetmish sakkiz zinali aylanma zinapoyasining tepasiga chiqib qaralsa, u tishkovlagichday bo'lib ko'rinadi.

Ikkisidan qaysi biri uzoq yashaydi: odamlar aytganidek, bir ming uch yuz yildan buyon zanglamay turgan kichkina ustunmi yoki endi uch yuz yoshga to'lgan, g'alati naqshlari toshday qotib qolgan Qutb Minormi? Ustunni hind temirchilari qurgan, Qutb Minorni esa Dehlidagi musulmon sulolalarining birinchi yo'lboshchilari tiklaganlar.

Qaysi biri mustahkam? Temir ustun! Temirday, po'latday baquvvat bo'lish kerak! Akbar qilichini yalang'ochlab, o'rnidan sakrab turib ketardi. Qo'shiqchi darhol g'oyib bo'lardi, yo'lbarslar sakrab o'zlarini chetga olardi. Akbar sharob va ot keltirishni talab qilar, safarga tayyorgarlikni buyurardi. Safar nog'oralari chalinib, sarkardalar to'plangach, Akbar ularga xo'mrayib qarab turardi-da: "Xoinlar!" deb shivirlar, keyin qasrga kirib ketardi.

* * *

Chuqur mazmunli she'rlari va achchiq hajvlari hind adabiyoti xrestomatiyasiga kiritilgan Osiyoning ulug' shoiri Bir Bol podshoning buyrug'i bilan rojalikdan — lashkarboshilikdan saroy masxarabozi va qiziqchisiga aylantirilgan edi. Shoir g'amgin kular, podshoga achinardi.

U Akbarda yana odamlarga ishonch, oliyjanoblik va mardlik tuyg'ularini uyg'otishga uringan edi. Lekin Akbar uning she'r va o'tkir masallariga quloq solmadi. Akbar uni xuddi qulday qamchilardi. Bir Bol esa bir vaqtlar kambag'al Sikriy kulgani kabi kulardi.

Ulug' podsho o'g'illaridan keyin uzoq yashamadi. U so'nggi nafasigacha do'stlari — avliyo Salim bilan dono Fazlini qo'msadi. Fotihpur yaqinidagi Sinondrada uning qabri ustiga maqbara qurilgan. Havorang to'rtta oq maqbara uning oromini qo'riqlaydi. Akbarning maqbarasi ham me'morchilik durdonasi sifatida shuhrat qozongan. Uning devorlari, naqshlari, yengil bezaklari g'am va qayg'uni ifodalab turibdi.

Akbar maqbarasining shuhrati uning go'zalligidagina emasdi. Dunyodagi eng chiroyli va eng yirik brilliant Ko'hinur yarim qorong'i go'rni kichkina quyosh kabi yoritib turardi. Bu gavhar faylasuf va lashkarboshi Boburniki bo'lib, keyin u Akbarga o'tgan edi.

Kecha Sinondrada amerikalik qiz, gavhar daragini eshitgach, qabr ustiga qo'yilgan marmarning bezak va naqshlariga uzoq tikildi, lekin Ko'hinurni topolmay, hayrat bilan so'radi:

— Gavhar qayerda?

— Uni nayza bilan ko'chirib tashlashgan. Hindistonning boshqa boyliklari kabi uni ham Angliyaga olib ketishgan, javob berdi Jo'mart. — Angliyaga borgan bo'lsangiz, ehtimol, Britan muzeyiga kirgandirsiz? Britan muzeyida tomosha qilsa arziydigan narsalar ko'p.

— To'g'ri, u yerdagi narsalar juda ajoyib! — dedi qiz hayajon bilan. So'ngra birdan ohista gapirdi: — Ularning qayerdan olinganligi to'g'risida hech o'ylamagan ekanman. — Keyin yana avvalgiday ochiqko'ngillik bilan bidirladi: — Qiziq, dadam meni nuqul gavharim, derdi.

Jo'mart unga kulib qaradi. Qiz uyaldi.

— Bizning uyimizda gavhar ko'p. Lekin dadam eng qimmatbaho gavhar sensan, derdi,— o'zini oqladi qiz.

Ular Dehlidagi aeroportda uchrashgan edilar. Jo'mart samolyot trapiga kelganda, uning yonida mana shu qiz paydo bo'ldi.

Dag'algina xom shoyi matodan sodda va chiroyli qilib tikilgan kalta ko'ylagi uning xushbichim qomatiga juda yarashib tushgan edi. Bizning satanglarga o'xshab uning ko'kragi emas, balki chap yelkasi ochiq edi. Oyog'ida nafis tufli, qo'lida chamadoncha. Sochi turmaklangan.

Qiz sal qo'rqoq, shu bilan birga, shod va mag'rur edi. Jo'martning xayolida, birinchi balga borganda Natasha Rostova ham shu qizga o'xshab yurgan bo'lsa kerak, degan fikr tug'dirdi. Bu qiz unga yana uzoq Qarlig'ashdagi dil izhorini aytolmagan birinchi muhabbatini ham eslatdi.

Jo'mart beixtiyor cho'ntagidati tanganing o'tmas qirrasini ushlab qo'ydi.

Samolyotga chiqqanda, qizning yolg'iz ekanligini ko'rib, Jo'mart hayron bo'ldi.

"Ota-onasi bu yosh qizchani qanday qilib sayohatga yolg'iz yuborishdi ekan?"

Passajirlar hammasi unga iltifot qilar, yordam berishga intilar edi. Lekin qiz o'zini batamom erkin tutardi. U varaqlari ochib qo'yilgan kitobchasini qo'lidan qo'ymasdi.

Trap yonida ham u kitobini o'qib turgan edi. Samolyotga chiqib, o'rindiqqa o'tirishi bilan yana o'qishga tutundi.

Samolyot kichkina, o'n olti — o'n yetti kishilik edi. Qizning joyi Jo'martning yonida ekan.

Jo'mart o'rindiq kamarini beliga boylagach, bir nafas mizg'ib olishga qaror qildi. Qiz oyoqlarini chalishtirib o'tirib, kitobini o'qiyverdi.

Samolyot yerdan ohista uzilib, balandlikka ko'tarilgach, birdan qiyshaydi, keyin siltanib ikkinchi qanotiga og'di. Jo'mart o'rindiqning tutqichlariga yopishdi.

Samolyot yana silkingan edi, qiz boshini illuminatorga urib oldi. Keyin yiqilishdan qo'rqib, ikki qo'li bilan Jo'martga tarmash-

di. Samolyot pastga qarab ketdi. Qiz qichqirib yuborib jon holatda Jo'martga yopishdi. Jo'mart ehtiyotlik bilan uning belidan ushlab oldi.

Nihoyat, samolyot o'zini o'nglab oldi va pastga sho'ng'ib bir nimaga borib urildi. Salondagilar dod-voy ko'tarishdi. Lekin samolyot yerga qo'ngan va tezligini sekinlatib bormoqda edi.

Hech kim jarohatlanmadi. Qiz o'zining o'rindig'iga o'tib o'tirdi.

— Janoblar, uzr so'rayman. Kichkina texnik nuqson tufayli samolyot qo'nishga majbur bo'ldi. Hammangizni restoranga taklif qilamiz, kompaniya sizlarni o'z hisobidan mehmon qiladi. Yarim soatdan keyin sizlarga yangi, qulay samolyot beriladi. U yigirma daqiqa ichida Agraga eltib qo'yadi! — Samolyot eshigi oldida kompaniya vakili turardi.

Jo'mart restoranga qiz bilan birga bordi. Qizning qo'lida endi kitob yo'q edi.

Bir stolcha yoniga o'tirib, indamay qahva ichishdi. Ikkovining ham ovqat yegisi yo'q edi. Qiz divanda samolyot kutib o'tirgan qari ingliz xotinlarning yoniga borib cho'zildi, Jo'mart esa tashqariga chiqdi.

— Fotihpurga borasizmi? — amerikalik qiz yana Jo'martning yonida paydo bo'ldi.

— Boshqa iloj yo'q, — dedi Jo'mart. — Agraga bilet olib qo'yganman. Dehli mehmonxonasidagi joyimni topshirib, Agradagi mehmonxonadan joy so'raganman.

Qiz o'ylanib qoldi. Samolyotga chiqish e'lon qilindi. Jo'mart trapga qarab yurdi. Bir daqiqadan keyin qiz ham samolyotga chiqdi. Samolyot Agra aeroportiga qo'nganda, qiz Jo'martdan so'radi:

— Siz qaysi mehmonxonadan joy so'ragansiz?

— "Loures"dan.

— Men ham, — dedi qiz, quvochini yashirmay. — Bu yerda taksi bo'larmikan?

— Bilmadim. Bu yerga birinchi kelishim, — dedi Jo'mart.

— Sizni olib ketgani mashina keladimi? — yana so'radi qiz.

— Ha.

— Men ham siz bilan ketsam maylimi?

— Mayli.

Jo'mart samolyotda qizning ismini so'ramagan edi, keyin yodgorliklarni tomosha qilib yurganda ham uning ismini so'rashga to'g'ri kelmadi.

Samolyotda u Kalkutta, Madras, Bombey va Bongalorda tarixchilar, shoirlar, jurnalistlar bilan qilgan suhbatlarini eslab o'tirdi.

Kalkutta va Dehlida u O'rta Osiyoning o'tmishi haqida ma'ruza o'qidi. Dehlida tinglovchilar orasida o'tmishni yaxshi biladigan odamlar ko'p edi. Jo'mart, darsliklarda keltiriladigan juz'iy faktlarni izohlab o'tirmay, O'rta Osiyo tarixining umumiy masalalari to'g'risida gapirishga harakat qildi.

— Yevropalik olim va fotihlar O'rta Osiyoning oltin, kumush va temirga boy yeriga, qorli tog'lariga, ko'm-ko'k yaylovlariga, daryo, cho'l va boyliklariga havas va taajjub bilan qarab yurgan paytlardan buyon bir necha asr o'tdi, xolos, — deb gapirdi Jo'mart. — Bir vaqtlar fan Sharq va G'arb kulbalarida, savdo yo'llarida yaratilgan rivoyatlarni o'rganish asosida O'rta Osiyo insoniyatning dastlabki Vatani, madaniyatning dastlabki beshigi bo'lganini isbotlashga uringan va aftidan, isbotlashga muvaffaq ham bo'lgan edi. Keyinchalik Yevropaga borib, u yerda o'troq bo'lib qolgan va o'zlarini o'z bobolarining bobolaridan — o'rta osiyoliklardan ustun qo'ya boshlagan xalqlar ham aslida O'rta Osiyoda tug'ilgan deb hisoblagan edi.

O'rta osiyoliklar quyoshli Ganga va Hind vodiylariga, mo'jizalar yurti Hindistonga oqib borgani haqida ham olimlar bir-birining oldida qasam ichishga tayyor edilar. Insoniyat o'zining orzularga boy qizg'in o'smirlik davrini O'rta Osiyoning yashil vohalarida o'tkazgan, O'rta Osiyoning tabiati va havosi odamlarga sog'lik va sog'lomlik baxsh etib, Yer kurrasining bo'lg'usi hokimlarini yetishtirgan, deyishar edi ular.

— Shuni aytish kerakki, do'stlar, — davom etdi Jo'mart, — bu fikrlar o'sha davr olimlariga ma'lum bo'lgan obyektiv dalillarga batamom mos edi.

Lekin insonning doim bahs yurituvchi, tadqiq etuvchi, har bir narsaga shubha bilan qarovchi aqli yangidan yangi dalillar topib, avvalgi dalillarga taqqoslab ko'rishni davom ettirdi. Oqibatda,

shunday kun keldiki, olimlar o'zlari avval haqiqat deb yurgan narsalarini rad eta boshladilar.

Muqaddas deb hisoblanib kelgan narsalar o'z qimmatini yo'qota bordi.

Garchi eski dalillarga qarshi keltirilgan yangi dalillar juda kam bo'lsa-da, olimlar xuddi o'zaro bahs boylashganday O'rta Osiyoning shuhratini yo'qqa chiqarishga ruju qo'yishdi. Yer kurrasidagi eng qudratli qit'aning o'zagi bo'lmish bu keng o'lkani madaniyat beshigi bo'lgan deyishga asos yo'q, madaniyat ibtidosi Yer sharining boshqa joylarida yuzaga kelgan deb da'vo qiluvchi olimlar paydo bo'ldi, — Jo'mart suvdan bir qultum ichib, zalda jim o'tirgan odamlarga bir qarab oldi-da, gapini davom ettirdi: — Lekin baribir bahs to'xtamadi. Ba'zi olimlar avvalgi taxminni himoya qilib chiqishdi. Osiyo qit'asining o'zagi ibtidoiy odamning vatani bo'lgan. Bu — haqiqatga yaqin, deyishdi ular. Agar biz "insoniyat beshigi" so'zlarini "madaniyat beshigi" so'zlari bilan almashtirsak, bu hol ham O'rta Osiyo tadqiqotchilarining diqqat-e'tiboridan chetda qolmasligi lozim.

Yevroosiyo qit'asining markazi xuddi qal'a singari eng yuksak Himolay, Pomir, Tyan-Shan tog'lari bilan o'ralgan. Buyuk davlatlar — Vaviloniya, Hindiston, Xitoy mana shu yerda joylashgan edi. Qadimgi Misr madaniyatiga kelsak, bu madaniyatda ham O'rta Osiyo madaniyatiga o'xshashlik ko'p.

Shuning uchun, do'stlar, O'rta Osiyoda yuksak madaniyatning dastlabki manbai mavjud bo'lgan deyishga biz haqlimiz, deb o'ylayman. Xalqlarning buyuk muhojirotlari davrida bu madaniyat an'analari boshqa mamlakatlarga yoyilgan bo'lishi mumkin.

Aslini olganda, bu mening fikrim emas, — dedi Jo'mart. — Bu fikrni O'rta Osiyoning muqaddas shuhratini qayta tiklashga uringan olimlar aytganlar.

Keyingi davrlarda, ya'ni O'rta Osiyoni tekshiruvchi olimlarning ehtirosi so'na boshlagan davrlarda, O'rta Osiyo o'zining avvalgi qudratini, boyliklarini yo'qotgan edi. Urushlar, talon-taroj va zo'ravonliklar orqasida uning hayoti tamomila o'zgacha tus kasb etdi. Kanallar qurib qoldi, shaharlar xarobalarga aylandi.

O'zining avvalgi osoyishtaligini yo'qotgach, O'rta Osiyo nomad (ko'chmanchi)larning haqiqiy o'troq makoniga aylandi. Madaniyat tarqatishdan to'xtab, endi u madaniyat o'choqlarini payhon qila boshladi. O'rta Osiyodan chiqqan harbiy ko'chmanchilar, vulqondan otilib chiqqan alanga kabi, har tomonga tarqalar, boshqa, o'rta osiyoliklardan yoshroq xalqlar yaratgan narsalarni ham vayron qilar edi. Ular Misr, Hindiston, Vaviloniya, Xitoyda bo'ldilar. Ular mingan otlarining tuyog'i ostida gullab-yashnagan o'lkalar cho'lga, yosh shaharlar ko'hna xarobazorlarga aylanardi.

Botuning qo'shinini eslang, bu qo'shinda bor-yo'g'i uch ming mo'g'ul, lekin uch yuz ming turk-qipchoq bor edi. O'rta Osiyodan chiqqan mamluklarni eslang, nihoyat, turonliklarni eslang. Ular maqbaralar, sag'analar qurishar, shu bilan birga, shaharlarni vayron qilar, odamlarni qulga aylantirar edi...

Ehtimol, O'rta Osiyoning asl vazifasi haqidagi ajoyib fikrning uzil-kesil rad qilinishiga mana shular sabab bo'lgandir, — Jo'mart o'zining jo'shqin xayolini, tortishuv ishtiyoqini bosib, endi xotirjam gapira boshladi. — Uning shafqatsizligi tadqiqotchilarning ixlosini qaytardi, ularning ko'nglini qoldirdi. Tarixchilar, olimlar O'rta Osiyoni uzoq vaqt eslariga olishmadi, haqiqatni tiklashga urinadigan odam bo'lmadi.

Shunga qaramay, do'stlar, O'rta Osiyo o'zining xunrezlik yillarida qonxo'r zolimlarnigina yuzaga keltirib qolmadi. O'sha yillarda O'rta Osiyo dunyoga ulug' faylasuf Muhammad al-Forobiyni, tibbiyot asoschisi Ibn Sinoni, algebra asoschisi al-Xorazmiyni, ulug' matematiklarni berdi, uning kulbalarida dastlabki formula va teoremalar yaratildi, astronom va shoirlar ijod qildi. O'rta Osiyoning o'z Mikelanjelo va Rafaellari bo'lmagan ekan, buning yagona sababi shundaki, Rossiyaga xristian dini kirishidan ancha avval O'rta Osiyoga kirib kelgan musulmon dini ming yillar davomida haykaltaroshlik va rassomlik san'atiga aloqasi bo'lgan har qanday harakatni bo'g'ib keldi. Inson qiyofasini qog'ozga tushirgan odamning qo'li kesilgan. Faqat sag'analarning naqshlari, gilamlar va maqbaralargina bizning cho'llarda halok bo'lgan islom homiylaridan yodgorlik bo'lib qoldi.

Jo'mart parfiyaliklar, Nissa[1] san'ati, Sug'diya va sug'diyaliklar, Toroz haykaltaroshlari va rassomlari, Samarqand va O'tror, shaharlar, fransiyaliklar, appasiaklar, hozir mustaqil xalqlar sifatida yashayotgan qipchoq va turk qabilalarining san'ati haqida gapirdi.

— O'tror aholisi Chingizxon bilan jang qilgan kunlarda mening xalqim bobokalonlari inson bo'lgandan buyon xalqlarning boshini qotirib kelayotgan "hayot va mamot" muammosiga betma-bet ro'para bo'ldi,— dedi Jo'mart. — Men hozir O'trorda qazishma ishlari bilan shug'ullanyapman. O'ylaymanki, bu shahar sirlarini bilish mening xalqim o'tmishi haqidagi haqiqatni tiklashga imkon beradi, — dedi u gapini tamomlar ekan.

Xonada jimlik hukm surardi.

— Lektor janoblari, siz elatingiz bo'lmish faroblik ulug' faylasuf Muhammad al-Forobiyning ta'limotini qaysi oqimga mansub deb bilasiz? — so'radi tinglovchilardan biri, Jo'mart joyiga o'tirgach. — Idealistlar oqimigami yoki materialistlar oqimigami? O'rta Osiyo falsafa maktabi taraqqiyotida u qanday o'rin tutadi?

— Men falsafani O'rta Osiyo falsafasi, Osiyo falsafasi, Sharq falsafasi degan qismlarga ajratmagan bo'lardim. Menga yana shu narsa noaniq bo'ldiki, nima uchun hurmatli mehmonimiz O'rta Osiyoga ulug' tog'larning oysimon zanjiri orqasidagi mamlakatlarning o'zinigina kiritadi, xolos. Men bu tushuncha Hindiston, Mo'g'uliston va Xitoyning bir qismini ham o'z ichiga oladi deb hisoblayman, — dedi boshqa bir tinglovchi.

— Demak, sizning fikringizcha, "hind falsafasi", "nemis falsafasi" degan aniq tushunchalar noto'g'ri ekan-da? — uning gapini shoshilmay bo'ldi uchinchi tinglovchi.

Jo'mart lektordan tinglovchiga aylandi. Zaldagi kishilar ingliz tilida gapirayotgan paytda Jo'mart ularning har bir fikrini uqib olishga urindi. Bu falsafiy maktablar, diniy ta'limotlar, an'analarga boy hind madaniyati, yuzlab qabila va xalqlarning taqdirlari chatishib ketgan tarix haqidagi qiziqarli bahs edi. Kimdir bahsga urdu tilida aralashdi, boshqa bir kishi panjob tilida gapirdi. Jo'martning yonida tarjimon yo'q edi, suhbatning uchini yo'qotib qo'ydi.

[1] **Nissa** — Parfiya davlatining poytaxti. U hozirgi Ashxobod yaqinda bo'lgan.

Yangi bahs — til haqida bahs ko'tarildi. Qaysi tilda bahslashish kerak?

Jo'mart bunaqa bahslar bu yerda tez-tez bo'lib turishini payqadi. Yirik va nisbatan kam sonli xalqlardan tashkil topgan yarim milliard kishilik mamlakatda bunaqa bahslarning bo'lishi tabiiy edi. Mustamlakachilarning tili xalq orasida keng tarqalmadi, unda aholining ikki-uch foizigina gapiradi, xolos. Bular ham ziyolilar orasidan chiqqan kishilardir.

— Til masalasi hozir bizda hayot masalasi bo'lib qoldi, — deb hasrat qildi bir keksa hindi ular yig'ilishdan qaytishayotganda.

Ular Dehlining ter, kuyindi va sandal tayoqchalarining hidi anqigan jimjit ko'chalaridan yurib borishardi. Qizil ford yoniga yetgach, taksiga tushib, Neru davrida davlat xizmatchilari va ishchilar uchun qurilgan uylar yonidan yurib ketishdi.

Bizga xuddi Neru kabi xalqning cheksiz muhabbati va ishonchini qozongan odam kerak. Faqat shunday rahbargina diniy bid'atlar ta'siridagi, aksariyati savodsiz va och xalqqa o'z ta'sirini o'tkaza oladi. Neru bemahal vafot etdi. U ko'p ish qilib ketdi, lekin bu qilinishi kerak bo'lgan ishlarga qaraganda dengizdan tomchi, — dedi barahman olim. — Xuddi boshqa xalqlar tarixida bo'lgani kabi, bizning tariximizda ham tarqoq irq, xalq, qabila, tabaqa va dinlarni yaqinlashtirishga uringan shaxslar ko'p bo'lgan. Albatta, ko'pincha, ular o'z qudratini oshirish uchun shunday qilishardi, lekin shunga qaramay, ularning harakatida oliyjanob kurtak bor edi, afsus, bu kurtak voyaga yetmadi.

Agar biz, masalan, Buyuk Boburiylar sulolasini, hammadan ham uning eng mashhur vakili bo'lgan Akbarni oladigan bo'lsak, tarixchilar hanuzgacha uni "buyuk" deb atashadi.

Sizning cho'llaringizdan kelgan musulmon fotihlar bizning mamlakatimizni zabt etgan paytlarda Hindiston irqiy tarqoqlik, diniy ziddiyatlar og'ushida azob chekar edi. Kelgindilarning mensimasligi va takabburligiga hindlar nafrat bilan javob berdi. Mana shularga qaramay, tarixchilar Akbarni "ulug'" deb atashar ekan, bu uning jasorati, harbiy yurish va g'alabalarini ulug'lash emas, balki uning davlat haqidagi g'amxo'rligi, oz vaqtga bo'lsa ham

diniy va irqiy nizolarni tinchita olganini ulug'lashdir, — Jo'martning hamsuhbati gapini davom ettirdi. — Siz keyingi paytlarda Osiyoning ko'p mamlakatlarida bo'lganligingizni aytdingiz. Endi siz bizning shaharlarimizga, Shimoliy va Markaziy Hindistondagi yodgorliklarga sinchiklab nazar tashlang. Shunda sizning o'tmish madaniyatingizga, me'morchilik yodgorliklaringizga hech qaysi mamlakat bizning mamlakatchalik yaqin emasligiga ishonch hosil qilasiz.

— Aytganday, siz Agraga borasiz-ku, bu haqda hozir gapirishga zarurat yo'q, o'zingiz ko'rib bilib olasiz.

— Siz "Ashok" mehmonxonasida turibsizmi?! — mashina podyezd yonida to'xtagach, birdan xitob qildi u. — Bu — Osiyoning eng boy, eng chiroyli mehmonxonasi!

— Bu mehmonxona unda yashayotgan kishilar Hindistonda ekanliklarini unutsinlar deb qurilganga o'xshaydi, — dedi Jo'mart.

— Ha, mehmonxona, uning hovlisidagi bog' va hovuzlar juda rohatijon, havo salqin, bu mehmonxonadan puldor odamlargina joy oladi, — dedi professor kimgadir kinoya qilib.

— Gapingiz to'g'ri, mehmonxonada hamma narsa juda qimmat, unda faqat badavlat odamlargina turishar ekan, lekin mening bu yerga kelishimga sizlarning xizmatchilaringiz sababchi bo'ldi. Endi men saxiyliklari uchun ularga tashakkur bildirishim kerak, — dedi Jo'mart hazillashib.

— Ha, ha, siz hali ham ancha ish qilib qo'ydingiz. Agradan qaytib kelgandan keyin yana bir ma'ruza o'qiysiz, — dedi professor xayrlashar ekan.

* * *

Fotihpurdan qaytar ekan, Jo'mart uyga jo'nash oldidan o'qiydigan ma'ruzasiga fikran tayyorlana boshladi. Kecha u yosh amerikalik qiz bilan birga Akbarning Sinandradagi maqbarasini ko'rganda yon daftariga ba'zi fikrlarni yozib qo'ydi.

Keyin ular Tojmahal bog'idagi kattakon chinorning tagiga borib o'tirishdi. Bu yer salqin, baxmalday qalin maysalar chinor tagini qoplab olgan edi. Jo'martning tasodifiy hamrohi daraxtdan

daraxtga sakragan mangustaning orqasidan yugurib: "Bu Osiyo olmaxoni-ku!" deb qichqirar, goh Jo'martning yoniga o'tirib, qo'liga qalam olar va ro'paradagi oq maqbaraning rasmini chiza boshlar edi.

— Oh, mana shu bog'da yashab, bog' va maqbaraning go'zalligidan umrbod lazzatlanish imkoni bo'lsami!

— Men ham bunaqa go'zal joyni sira ko'rmagandim, — dedi Jo'mart.

Bu qizning quvnoq qiliqlarini ko'rib, Jo'mart uning kim va qayerdan ekanini bilgisi kelsa ham, lekin unga bunday savollar berishdan o'zini tiydi. Shu tobda qizning butun fikr-u xayoli Tojmahal bilan band bo'lib, undan ko'z uzmay rasm chizardi.

Jo'mart Tojmahal to'g'risida ko'p rivoyatlar eshitgan, uning suratlarini ko'rgan, lekin u hech qanday she'r, doston, hatto ulug' rassomning mo'yqalami ham Tojmahal go'zalligining yuzdan birini ifoda etolmasligiga ishonch hosil qildi.

Tojmahal — ishq dostoni; Agra tevaragini to'ldirgan qora maqbara va qasrlar orasidagi bu bulutsimon oq bino, hayot timsoli.

Balbek va Rim, Afina va Karfagen, Hirot va Buxoro, Bepin va Borodurda bo'lgan Jo'mart nazarida hech qayerda Tojmahal go'zalligining izini ham ko'rmagan edi.

Agar sevgining o'lmasligi, g'amning abadiyligi haqida toshdan doston yaratilgan bo'lsa, u Tojmahaldan boshqa narsa emas, deb o'yladi Jo'mart. Tojmahal yomg'irdan keyingi kamalak, Tojmahal yer kiprigidagi surma, cho'lda qadimgi yo'l bo'yidagi niholcha. Uni "maqbara" deyish butunlay noto'g'ri. Bu la'nati so'z bu o'rinda joiz emas... Me'morchilik tarixidan durdona qidirilsa, yana Tojmahalni ko'rsatish kerak. Jo'mart xayolida Tojmahalning yaratilishi haqida rivoyat va hikoyalar to'qir ekan, Tagorning "O, Shoh Jahon, sen ulug'san!" degan so'zlarini fikran takror-takror aytardi.

Tagorning so'zlarini takrorlaganda, Jo'mart bu so'zlarning haqqoniyligiga ishonardi, chunki Layli va Majnun, Romeo va Julettaning sevgisi yevropa va Osiyodagi ikki buyuk shoirning ijodini o'lmas go'zallik bilan sug'organi kabi, Shoh Jahonning

Mumtoz Mahalga muhabbati Tojmahalning yaratilishiga sabab bo'lgan.

O'sha kuni Tojmahalda ham, Fotihpurda ham jimlik hukm surardi. Lekin bu kuch-qudrat sukunati emas, balki g'am-hasrat jimligi edi.

Ko'p asrlardan beri Tojmahalning nigohi Jamna daryosining moviy suvlariga tikilgan. Jamna — vaqt. Tojmahal — sevgi. Vaqt o'taveradi, lekin sevgi qoladi. Jo'mart bu so'zlarni beixtiyor ovoz chiqarib aytib yubordi. Qiz rasm chizishdai to'xtab, unga yaqinroq o'tirdi.

— Siz shoirmisiz?! Davom etavering, — xitob qildi u, tuflisini yechib, oyoqlarini ko'ylagining tagiga yig'ib o'tirgach. — Siz birovni sevganmisiz? Sevgilingiz uchun mana shunaqa qasr qurarmidingnz?

— Bolaligimda men bunaqa qasrlarni yuztalab qurganman. Lekin bir qora ko'z qizga atab xayolimda qurgan binolar maqbara emas, haqiqiy qasrlar edi, — javob berdi Jo'mart. — Bizning ovuldagilar Tojmahaldan bexabar bo'lgani uchun, men qurgan xayoliy qasrlar ovulimizdagi eng yaxshi uylardan uncha farq qilmas edi. Lekin ular nuqul keng va yorug' uylar bo'lardi.

— Ovul deganingiz nima?

— Qishloq, posyolkaga o'xshash joy.

— O, sizning o'z qishlog'ingiz bor ekan. Menda esa rancho yo'q. Nyu Yorkda uyim bor, xolos. Bundan tashqari, shahar yaqinida kottej va hovuzim bor. Bularning hammasini dadam to'yimga sovg'a qilgan. Lekin men erimdan juda tez ajralib ketdim. U pianino chalishni bilar, jamiyatda o'zini yaxshi tutar, qizlarga yoqar edi. Men ham uni yaxshi ko'rardim. To'yimga dadam qarshi bo'lsa ham, men unga turmushga chiqqan edim. Keyin bilsam, u bizga to'g'ri kelmas ekan. U mendan ko'ra ko'proq pulimga ishqiboz ekan. Bundan tashqari, bilsangiz, oilali hayot zerikarli. Men bolani yoqtirmayman.

— Bo'lmasa nimani yoqtirasiz? — uning so'zini bo'ldi Jo'mart.

— Men kuchukchalarni yoqtiraman. Ular odamga ermak bo'ladi. Kuchuklarni ergashtirib toza havoda sayr qilishni yaxshi ko'ra-

man. Men jurnalda rassom bo'lib ishlashga urinib ko'rdim, — qiz bir jurnalning nomini aytdi. — Lekin keyin muharrir menga shilqimlik qila boshlagach, bu ishni tashlab ketdim. Nyu York qanaqangi do'zax shahar ekanini siz tasavvur etolmaysiz. Men Venesuelaga ketib qoldim. U yerda bir do'stim bor, u menga yoqardi. U juda saxovatli yigit, lekin shu qadar tortinchoqki... Ularning ajoyib qasri bor.

— Nefti ham bor deng, — piching aralash qo'shimcha qildi Jo'mart.

Jo'mart Tojmahal to'g'risida gapirganda qiz qanchalik hayratga tushgan bo'lsa, endi uning gaplariga Jo'mart ham shunchalik hayratlanayotgan edi. Qizning beozorligidan endi asar ham qolmagan edi.

— O, neft ko'p! Dadamning po'lat quyish kompaniyasi bo'lgani kabi, uning otasining ham neft kompaniyasi bor. Lekin gap bunda emas. Venesuelaga borgandan keyin men dadamning bir do'sti bilan tanishdim. Ayol kishnning ko'nglini bunchalik topa oladigan boshqa odam dunyoda bo'lmasa kerak. Men uni yoqtirib qoldim. Ota bilan o'g'il orasiga sovuqchilik solish yaxshi ish emas dedim-da, u yerdan Malayyaga ketdim. Malayyada bir dugonam bor. Malayyadan Yaponiyaga o'tdim. Tasodifan sayohatlar reklamasiga ko'zim tushib qoldi. Qarasam, uncha qimmat emas. Bor-yo'g'i ikki ming besh yuz dollar ekan. Shunday qilib, Hindistonga keldim.

Aytganday, bir narsani aytish esimdan chiqibdi. Yaponiyada bir yigit bilan tanishdim. Juda yoqimtoy ekan. Ertasiga u menga turmush qurishni taklif qildi. Hatto sayohatga ham birga ketmoqchi bo'ldi. Qiziq-a, to'g'rimi? "Nensi, sizsiz yashay olmayman", deydi.

— Demak, sizning otingiz Nensi ekan-da? — dedi Jo'mart.

— Nensi Stoddart, — javob berdi qiz.

— Shunday deng, Nensi. Ehtimol, yaponiyalik yigit sizni sevib qolgandir. Kim biladi, u sizga mana bunaqa qasr qurarmidi.

— Maqbara, ya'ni sag'ana qurarmidi demoqchimisiz?

— Hazilingiz juda achchiq ekan. To'xtang, siz hali o'z ismingizni aytmadingiz-ku. Bu yaxshi emas.

— Jo'mart. Jorj, Jomo desangiz ham mayli, — dedi u.

— Jo-oma-rt, — deb kuldi qiz, "o" va "r" ni alohida ta'kidlab.

— Men sizdan minnatdorman: samolyotda meni ushlab qoldingiz.

— Samolyotda hammamizning kapalagimiz uchib ketdi.

— Shunaqami, men sizni hech ham qo'rqmagansiz, deb o'ylovdim.

— Birinchi taassurot mana shunaqa aldamchi bo'ladi. Siz avval menga o'quvchiga o'xshab ko'rinuvdingiz.

— O, mening yoshim o'n to'qqizda. Kollejni tamomlaganman. Shunisi ham borki, har bir erkak o'z andazasi bilan o'lchaydi. "Loures" mehmonxonasidagilarning hech qaysisi meni qiz deb o'ylagani yo'q. Ayniqsa, roja kiyimidagi ofitsiant hammadan o'tkazib yubordi. U ovqat mahalida yonimga kelib, o'ynab-kulishingiz uchun bir yosh, chiroyli sikh topib beraymi, dedi.

Jo'mart maqbaraga o'tayotgan hojilarni kuzatib, qizning gapiga indamay quloq solib o'tirdi. Hind ayollarning egnida rangdor sariy, erkaklar esa toza oq ko'ylak kiyib olishgan. Ko'pchiligining qo'lida ipga tizilgan qizil gullar bor edi. Ziyoratchilar orasida ust-boshi juldur, soch-soqoli taralmagan qishloqilar ham ko'zga chalinardi. Ehtimol, bular qishloqilar emas, Jamna bo'yidagi muqaddas binoni ko'rish uchun kelgan uysiz kambag'allar yo shaharlik gadolardir.

— Firma vakili menga alohida mashina bermoqchi edi, — gapini davom ettirdi Nensi. — Lekin men biron kishi bilan birga sayohat qilishni afzal ko'rdim. Mehmonxonada sizdan bo'lak chet ellik kishi yo'q ekan. Siz bilan birga yursam qarshilik qilmaysizmi? Aytishlaricha, siz ertaga allaqanday o'lik shaharga ketayotgan emishsiz, to'g'rimi?

Jo'mart o'rnidan turar ekan:

— Ha, — dedi g'ayrishuuriy ravishda. — Fotihpurga men bilan birga borishingiz mumkin.

Nensi dik etib o'rnidan turib, uzun hovuz bo'yiga chopib bordi-da, iliq suvga oyog'ini chayqab, tuflisini kiydi. — Isib

ketyapman. Quyoshning tiniqligini qarang. Qo'lingizdagi nima, tumormi?

— Yo'q, tanga, — Jo'mart O'trordan topgan sovg'asini unga uzatdi.

— Siz numizmatmisiz? Qadimgi tangalarni yig'asiz! Topdimmi?

— Men eski narsalarni yaxshi ko'raman.

— Ha, ha, tushundim. Jamna — vaqt, Tojmahal — sevgi, qora qosh qiz — yoshligingiz do'sti, — jaranglab kuldi Nensi. — Yuring, Tojmahalga kirib, uning bezaklarini, salqin devorlarini ushlab ko'raylik. Keyin uning orqasiga o'tib, Jamnaning oqishini, ya'ni vaqtning o'tishini tomosha qilamiz.

Ular maqbaraning yonida turishardi. Ro'parada, pastda daryo ko'rinardi. U juda sokin oqar, shuning uchui bu daryoning tezoqarligiga ishonish qiyin edi. Suv go'yo qotib qolgan, jazirama issiq uning tinkasini quritib, quyosh sehrlab qo'yganday edi; u yerning bahaybat yorig'ida erib yotgan simobga o'xshab ko'rinardi. Daryoning sarg'ish-qizil qirg'og'i kulrang-qoramtir cho'lga tutashib ketgan, quruq so'qmoqlarda horg'in yurgan bitta-yarimta yo'lovchining qorasi chalinadi ko'zga. U yer-bu yerda chirik kulbalar ko'rinadi, maqbarami yo qasrmi, allanimalarning xarobalari bir-biridan olisda yastanib yotibdi.

— Jamnaning suvi nega muncha oq? Loyqami yo oftobning aksimi? — so'radi qiz.

Jo'mart javob bermadi. U ro'paradagi manzara ta'sirida lol edi. Daryo tomondan shabada esganda, to'lqinlarning shovullashi eshitildi.

Bu yerdagi hamma narsalar Sikandradagi Akbar maqbarasining tevaragidagi narsalarga o'xshardi: binolarning sokin, ulug'vor go'zalligi ham, hovuzlar ham, bog'-o'tloqlar, qizib ketgan devorlar ham. Xuddi Sikandrada bo'lganiday, bu yerda ham suvning shovullashi, maqbaraning salqin ko'lankasi, marmarning zax hidi buyuk Hindistonning ko'p yillar chekkan g'am-g'ussasi va o'tkinchi xursandchiligini o'zida mujassamlantirgan Agra tevaragidagi o'lik shaharlarni, foje, tarix sahifalarini eslatardi.

San'atga tashna har qanday odamda bo'lgani kabi, bu shaharlar yosh arxeologning xayolida jonlanganiga, tirilganiga taajjublanmasa bo'ladi.

Jo'mart cho'lga, xarobalarga, sag'analar, qasrlar va kulbalarga qancha ko'p tikilsa, shuncha ko'p o'ylardi. Vaqt to'g'risida, odamlarning taqdiri va bu yerdagi hayot to'g'risida o'ylardi u. Sikandradagi salqin marmar yerto'lalar, goh sovuq, goh qizib ketadigan toshlar, Tojmahalning nafis bezaklari podsholar xohishi bilan qurilgani uchun emas, balki ijodkor xalqdan, eng og'ir kunlarda ham inson go'zal narsalar yaratishga qodir ekanidan dalolat bergani uchun Jo'martni hayajonga solardi.

Uning bu qadim, kimsasiz qasrlarni "o'lik" deyishga hech tili bormasdi. Bugun turistlar firmasining vakili undan: "Siz o'lik shaharga borasizmi?" deb so'raganda, u: "Men Fotihpur-Sikriga, g'alaba shahriga boraman" deb javob berdi. Zero, bu shahar — hayot! Boy-kambag'alga barcha darvozalarini baravar ochib qo'ygan ekan, bu shahar — odamlar uning g'am-g'ussasiga quloq solishini, uning sir-asrorini, tarixini bilib, o'tmish fojialariga yo'l qo'ymasliklarini istaydi, xolos. Mana shu ma'noda Fotihpurni qurgan odamlar bugungi Hindiston qasrlarida yashab, Akbarning mol-dunyosiday xazinalarni orzu qilib yurgan odamlarga qaraganda tirikroqdir. Ular bolta va nayza ko'targan qarollar o'rniga XX asrning miltiqli qorovullari qo'riqlay boshlagan qasrlarda yashaydi, otxonalardagi uchqur otlar o'rnida hozir "Ford"lar, "Kapitan"lar turadi.

Bundan ikki hafta burun Jo'martga chet ellik mehmon sifatida shunday qasrlardan biriga kirishga ruxsat etildi. Lekin buning haqiga undan pul — bir necha rupiya olishni unutishmadi. Maysorning maharojasi o'z qasri oliylarini unga ko'rsatishga rozilik bildiribdi.

Jo'mart o'z do'stlari bilan boyligi va bezagi tasvirdan ojiz joyga borishdi. Oltin va kumushdan quyilgan qalin eshiklar vazmin ochilardi; Jo'mart fil suyagidan bezak berilgan xonalarni, oltin varaqalar yopishtirilgan shiftlarni, nodir usulda to'qilgan gilamlar yozilgan polni, marvaridlar qo'ndirilgan kreslolarni, oltin taxtni ko'rdi (ehtimol, Akbarning taxti ham mana shunday bo'lgandir).

U maharojaning jangovar va namoyishda yuradigan fillarini, Monako soqchilaridan ham bahaybatroq qo'riqchilarni ko'rdi. O'nlab zal, yuzlab xona, och xizmatkorlar, qorovullar, hashamatli bog', ko'l va hovuzlar. Qasr ostidagi yerto'lalarda qancha oltin borligini maharojaning o'zi ham bilmaydi. Lekin o'z boyligini u ehtiyot qilib saqlaydi. Har haftada tekshirib turadi. Yangigina liftda podvalga tushadi-da, eng zamonaviy fonar yorug'ida xazinaga qo'ngan changni tekshiradi. Bironta odamning qo'li tegmaganmikan?

O'lik xazina. O'lik qasr. Unga kirish mumkin emas, hatto mehmonning yonida ham soqchi yurar ekan.

Jo'mart maharojani ko'rmadi. Ko'rishning ham hojati yo'q edi. Xizmatkorlari xo'jayinlarini maqtab, uning boshqa shaharlarda ham qasrlari borligini va har bir qasrda maharojaning bobosi, dadasi va o'ziga bronza haykallar qo'yilganini aytishdi.

Haykallar yonida gadolar va och bolalar yuribdi.

Maysordagi qasrda Jo'mart maharojaning bobosi, dadasiga xizmat qilayotgan och cholni ko'rdi. Jo'martni hovliga kuzatib chiqqandan keyin chol beixtiyor unga qo'lini cho'zdi.

Qulning butun alamini o'zida mujassamlashtirgan uning ko'zlari hadik bilan tevarakka javdirardi. Chol o'z qilmishidan xijolatda edi. Lekin ochlik uyatdan kuchlilik qildi. Jo'mart unga o'zining rupiyalarini berdi. Shu payt yaqindagi marmar ustun orqasidan qasr mutasaddisi sapchib chiqdi-da, cholning qo'lidagi pulni yulib oldi. Jo'mart, o'zini tutolmay uning qo'lini ushladi va pulni cholga olib berdi. Mutasaddi bir qadam orqaga yurib:

— Bu pul janobi oliylarining kassasiga qo'yiladi! — deb qichqirdi va yana cholga hamla qildi.

— Men maharojalarga sadaqa bermayman!

Jo'martning mushtini ko'rgan mutasaddi chekinishga majbur bo'ldi. To'plangan xizmatkorlar hayajon bilan qarab turishardi.

Qo'pollik qilib, mehmondorchilikning eng oddiy qoidasini buzgan Jo'mart qasrdan jo'nab qoldi va Hindistonning maharoja, knyaz va shayxlaridan birontasining ham qasriga kirmaslikka qasam ichdi. Yarim soatdan keyin u shoxlari olov va oltinday yallig'lanuvchi qizil va sariq gullar kabi keng yoyilgan daraxtlar bilan

qoplangan Bangalor shahriga jo'nab ketdi. Maysor bilan Bangalorning orasidagi yo'l shunday bepayon bug'doyzor va sholikorlik dalalaridan o'tar ediki, bu dalalarga qarab hech kim bu yerda ochlik bo'lishini xayoliga ham keltirmasdi.

Hindistonning qadimiy yo'llarida, uning yangi ko'chalarida ko'p narsani ko'rish mumkin. Hindlar o'z yodgorliklarini saqlash va qo'riqlashni bilishadi, ular go'zallikning qadriga yetadi. Ular go'zallikni chuqur his etishadi: ular orasida oliyjanob, mag'rur kishilar ko'p. Hind yeri boy, lekin xalqi qashshoq. Ehtimol, odam paydo bo'lgandan buyon kishilarni hayratga solib kelayotgan hind mo'jizalarining sirlari mana shu muammo Qa'riga yashiringandir.

Eski yo'l xuddi qora qayishdan qilingan ayilday yerning chatnab ketgan qobig'iga tortilgan. G'ildirak va tuyoqlar ostida silliqlanib ketgan bu yo'l hozir, kech g'ira-shirasida mashinalarning faralari yorug'ida xuddi qora lokdan quyilganday yaltillaydi.

Ehtimol, bu yo'l o'zini jahon fotihi — Jahongir deb e'lon qilgan Muhammadning podsholigi davrida to'kilgan qondan mana shunday qorayib ketgandir.

O'lim to'shagida yotgan Akbar tirik qolgan mana shu yagona o'g'lini o'zining merosxo'ri qilib tayinlaydi.

Jahongir kamdan kam hushyor bo'lardi. U o'taketgan zolim edi. Tungi ichkilikbozliklar paytida ertasi o'limiga rozi bo'lgan kishigina hushyor qolardi. Uning haramlarida malikalar bilan birga ko'cha ayollari ham to'lib-toshib yotardi. Shoh saroyining lashkarboshi va ulug' vazirlarining qizlari ham bu qismatdan qochib qutula olmas edi.

Podshoning zo'ravonligidan qo'rqqan bosh lashkarboshi Maxabatxon yagona qizini yashirin uzatganda, ayg'oqchilar buni bir zumda Jahongirga yetkazishdi.

Darg'azab bo'lgan shoh kuyovni yalang'ochlab xivich bilan savashni va butun boyligini tortib olib, o'zini haydab yuborishni buyuradi.

Podshoning shafqatsizligi hech qanday tasvirga sig'masdi. Shoirlar lol edi. Solnomachilar Jahongirning ulug'ligi, uning barcha dinlarga baravar qarashi va Xudojo'yligi to'g'risidagina yo-

zishtardi. Hatto u o'z o'g'lining muqaddas tuyg'ulari — birinchi muhabbati bilan ham hisoblashmaydi. Xisravning sevgilisi yosh malika otasining qo'lida garovga qo'yiladi. Shunda o'g'il otaga qarshi qo'zg'oladi.

Zolimlik yengadi.

O'g'ilning yetti yuz tarafdori Lahorga olib boradigan va hozir Jo'mart Fotihpurdan qaytib kelayotgan yo'llarning ikki chetida qoziqlarga sanchib qo'yiladi. Yosh Xisravni zanjirlab filga o'tqazishadi-da, qatl qilingan odamlar oldidan olib o'tishadi. Shahzoda qoziqlardan tuproq yo'lga oqib tushayotgan qonni, odamlarning o'lim oldidagi talvasasini ko'radi, dod-voyini eshitadi.

Aytishlaricha, o'layotgan odamlarning chinqirig'idan u kar bo'ladi, g'am-kulfatdan soch-soqoli oqarib ketadi, ko'z yoshidan ko'zi ko'r bo'lib qoladi. Xisrav otasidan bir umr yuz o'giradi va zindonda o'ladi.

Faqat eronlik go'zal malika Nur Jahongina Jahongirni vaqtincha o'z ta'siriga og'dira oladi. Nur Jahonning otasi davlatda ulug' vazir bo'ladi. Nur Jahon rahmsizlik va qotillikni yomon ko'rardi. U Jahongirda ikkinchi o'g'li Shoh Jahonga nisbatan mehr uchquni uyg'otishga muvaffaq bo'ladi. Merosxo'rning tarbiyasi bilan o'zi shug'ullanadi. U Shoh Jahonda muhabbat, qotillikka nafrat tuyg'ularini uyg'otishga harakat qiladi. Mana shularning ta'sirida bo'lsa kerak, Jahongirning o'limidan keyin Shoh Jahon taxtga o'tirgach, murabbiyasi o'zining avvalgi mehrini makrga aylantirib, uni o'ldirishga va shu yo'l bilan mamlakatning yagona bekasi bo'lishga uringanda, yosh shahanshoh oliyjanoblik bilan uning bahridan o'tadi. Fitna fosh bo'ladi, lekin gunohkorlar qatl etilmaydi. Shoh Jahon o'z murabbiyasidan qasos olmaydi. Murabbiya podsho saroyida qoladi, yakkalab qo'yilsa ham, podsho ta'sirida unga hurmat bilan qarashadi va o'n to'qqiz yil davomida u Buyuk Mo'g'ullarning mulki bo'lmish Shimoliy Hindistonda Shoh Jahon qasrlar, maqbaralar va machitlar qurganini kuzatib o'tiradi.

Neron davrida Rim, Napoleon davrida Parij o'zgargani kabi, Shoh Jahon davrida Agra va Dehli o'z qiyofasini o'zgartiradi. Bu

davr Hindistondagi musulmon san'ati va me'morchiligining oltin davri bo'lib qoladi. Tojmahal Shoh Jahon faoliyatining gultoji bo'ladi.

Shoh Jahon tirikligida Tojmahal "Marmarda mujassamlashgan orzu" degan nom oladi.

Tojmahalni qurish bilan Shoh Jahon otasi tomonidan oyoqosti qilingan sevgini ko'klarga ko'tardi.

Xisravning sevgisi Shoh Jahonning qalbida bosh ko'tardi va tiniq Tojmahalda mujassamlashdi. Hozir boburiy hukmdorlarining nomlarini unutib yuborganlar. Fotihpur hamda Sikandra to'g'risida zavq bilan gapirishadi, sevgi abadiyligining timsoli bo'lgan Tojmahal to'g'risida qo'shiq va rivoyatlar to'qishadi. Yer kurrasining barcha go'shalaridan uni ziyorat qilgani keladigan odamlarning keti uzilmaydi.

* * *

..."Kapitan" uchib ketyapti. Cho'l — tun og'ushida. Nensi jim o'tiribdi. Haydovchi nimanidir xirgoyi qilyapti. Bu yo'lni u bolaligidan biladi, unga ko'nikib qolgan, xuddi Agrani, ona Hindistonni sevganday, uni ham sevadi. Har bir odam o'z vatanining tarixi bilan faxrlanganday, u ham o'z vatanining tarixi bilan faxrlanadi. Mana, haydovchi ham jim bo'ldi. Mashina farasi yo'l bo'yida qimir etmay o'tirgan sharpani yoritdi. Bu — kunduz kuni ular Fotihpurga ketayotganda ko'rgan och sadxu edi.

— Ko'zlari yonib turibdi. Qo'rqinchli ko'rinadi. Nahotki biz ko'rgandan buyon shu yerda qimirlamay o'tirgan bo'lsa? — ohista so'radi Nensi.

— U och, miss, — haydovchi ham ohista gapirdi. — Biror odam ovqat keltirib berishini kutib o'tiribdi. Ovqat keltirib berishsa, yeydi-yu, Banorasga jo'naydi.

— Xudo-yey, — shivirladi Nensi. — Qachon yetamiz-a? Ertagayoq Parijga jo'nayman. Parijda dadamning bir tanishi bor. Uning shaharda uyi, o'rmonda chorbog'i bor. U yerda mana bu issiqni, gadolarni esdan chiqarish mumkin. Agar yoqsa yarim yil o'sha yerda turaman.

— Agraga bir necha mil qoldi, miss. Hu ana, shahar chiroqlari ko'rinyapti. Mana, oy ham chiqdi, — bosiqlik bilan javob berdi haydovchi.

U qovog'ini solib oldi. Uning jahli chiqqani ko'rinib turardi, lekin mezbon bo'lgani uchun, o'zini yosh mehmon qizning beadabligini sezmaganga soldi.

Nihoyat, shundoq ro'parada Agra chiroqlari ko'rindi.

— Oy yorug'ida Fotihpur sehrli shahar tusini oladi, — dedi haydovchi, — Tojmahal juda chiroyli ko'rinadi. Tojmahalni oy yorug'ida ko'rishni xohlamaysizlarmi? Vaqtimiz bor. Agar charchamagan bo'lsanglar, bemalol ulguramiz, soat o'nda mehmonxonada bo'lamiz.

Nensi Jo'martga qaradi.

— Mehmonxonaga olib boring, — dedi Jo'mart.

Nensi norozilik bilan yuzini o'girdi. Kecha kechqurun "Loures" mehmonxonasi bog'idagi hovuz bo'yida ham u shunday qilgan edi,

Kecha tushlikdan keyin ular cho'milishmoqchi bo'lishdi. Hovuz bo'yida Nensi "Tayms of India" gazetasining yangi sonini ochib, beixtiyor o'qishga tutindi.

— O, mana buni qarang. Marina Osvaldning hikoyasi. Ko'rdingizmi?

Gazeta sahifasida yosh bir ayolning surati bor edi.

— Sobiq prezidentlar to'g'risida hech narsa yozmabdimi? — g'ayrishuuriy ravishda so'radi Jo'mart.

— Sobiq eri Osvald Li to'g'risida ham, bizning sobiq prezidentimiz to'g'risida ham u hech narsa yozmabdi. Rossiya to'g'risida ham bironta so'z yo'q. Kennedi to'g'risida qachongacha gapirish kerak? Marina Osvald tuzukroq er axtarib yuribdi.

— Li ham, Kennedi ham siz yashayotgan jamiyatning odamlari-ku. Prezident o'limining sabablari hali uncha aniq emas. Yoki siz prezident o'limining butun tafsilotini bilib olganmisiz?

— Nimalar deyapsiz? — Nensi ko'ylagini yecha turib g'ayritabiiy ravishda kuldi. — Kennedi bizga nomunosib odam edi. Jaklin bo'lmaganda, u hech qachon oliy tabaqa odamlariga qo'shilolmasdi.

— Axir, u millioner edi-ku, — Jo'mart hayratlandi.

— U sof amerikalik emas, — dedi Nensi soddaligi uchun Jo'martni jerkib. — Uning bobosi kelgindi bo'lgan. Qisqasi, Kennedi oliy tabaqaga nomunosib jentelmen edi. Buning ustiga, sof amerikalik emasdi.

— Sizning ota-bobolaringiz kelgindi bo'lmaganmi? Yerlik yoki siz aytgancha, "sof" amerikaliklar — hindular. Shunday emasmi?

Qizning yuzi nafratdan qizarib ketdi.

— Biz — vikinglarmiz, — dedi u mag'rur.— Hindilar, hindlar, hindular — hammasi bir go'r. Ularning aqli tug'ma past.

— Aqlning tug'ma pastligi! Men bu haqda eshituvdim. Afsuski, buni qo'lingizda ushlab turgan gazetaning xodimi, sizday yosh, aftidan, juda boy hind qiz aytuvdi, — Jo'mart qizisha boshladi.

— Millatining aqlan noqobilligi haqidagi so'zlarni men ularning o'zlaridan eshitganman! Menimcha, nima gapirganini ular bilishsa kerak? Yo noto'g'rimi?

Jo'mart Madrasda jurnalist qizga aytgan gaplarini takrorlagisi kelmadi. Jurnalist qiz bilan u hind adabiyoti to'g'risida bahslashgan edi. Yorqin sariy kiygan, yuzi Osiyo madonnasini eslatadigan bu qiz kam tirajli gazetalardan kelgan hamkasblarining yonida bir soat davomida uch ittifoq kishisiga aql o'rgatdi:

— Hindlar aqlan tug'ma noqobil. Men ular ulug' adabiyot yaratishga qodir deb hisoblamayman. O'zim hind bo'lishimga qaramay, men shundan deyman. Siz bo'lsangiz hind adabiyotining ulug'ligi va an'analari to'g'risida gapirib o'tiribsiz. Sizning gaplaringiz tilyog'lamachilikka o'xshaydi.

Qiz gapirar, uning hamkasblari jim quloq solib o'tirishar edi.

Jo'martning qoni qaynab ketdi. U "Mahabxarata"dan parchalar keltirdi. Gandi va Neru, Vallayxola va Tagor, Prem Chand va Narayyan to'g'risida gapirdi. Hind adabiyoti to'g'risida qizishib gapirar ekan, u ro'paradagi odamlarni tushunolmay garang edi: madonna yonida o'tirgan mana bu yigitlar nima uchun unga o'z xalqi, o'z madaniyatini haqorat qilishga yo'l qo'yishadi? Nima bu? Mahalliy aholining suyak-suyagiga singib ketgan "zulmga qarshi

chiqmaslik" falsafasining samarasimi yoki mahalliy yirik kapitalistlar matbuotining vakili bilan to'qnashishdan, ishni yo'qotishdan cho'chishmi, xalqni itoat ruhida tarbiyalashga uringan koloniyachilik siyosatining natijasimi yoki bo'lmasa Jo'mart va Sovet Ittifoqidan kelgan boshqa kishilarni sinab ko'rish uchun ishlatilgan jo'ngina nayrangmi?

Axiyri hind yigitlarining ko'zlari uchqunlandi, chehralari ochildi. Ular Jo'martga yaqinroq kelishdi va boshlarini qimirlatib, kulishib, o'zlarining mehmonlar bilan hamfikr ekanliklarini bildira boshlashdi.

Yosh jurnalist qiz bir boyning qizi ekan. U Amerikada yashabdi, o'qibdi. Shuning uchun bo'lsa kerak, u Nensidan hech farq qilmasdi. Hind qizga aytgan gaplarini amerikalik qizga takrorlashdan naf chiqarmidi...

— Indamay qoldingiz... Demak, mening fikrimga qo'shildingiz? — Nensi, gazetani tashlab, marmar zinadan hovuzga sakradi-da, ko'zyoshiday toza suvda suza ketdi. Jo'mart ham sho'ng'idi. U suv yuziga qalqib chiqqanda, Nensi kichkina boladay chinqirib, unga suv sepa boshladi. Tor marmar qirg'oqlar orasida to'lqinlar shovullay boshladi.

— Siz yengildingiz! — jaranglab kuldi qiz.

— Nimadan siz g'alaba qildingiz, Nensi?

— Axir, siz meni fikrimdan qaytara olmadingiz-ku.

"Yo'q, bular — yosh parivashning hazil o'yini emas, u o'zining haq ekaniga qattiq ishonadi", o'yladi Jo'mart.

— Siz hali mening gapimni oxirigacha eshitmadingiz-da, — Jo'mart qizga javob berishga qaror qildi, — bombeylik bir o'rtog'im menga hamroh bo'lib yurganda qiziq bir gapni aytdi. Amazonka hindulari va bu yerdagi o'rmonlarda yashaydigan qabilalarning aqli yetishmasligi to'g'risida gapirishni yaxshi ko'radigan odamlar alohida olingan uzuq-yuluq faktlarga asoslanar ekan. Masalan, kalkuttalik och riksha bilan shvetsiyalik dehqonning bilim darajasi taqqoslanadi. Bunday taqqos o'rinlimi? Bir tabaqaga mansub bo'lgan, mayli, o'sha sizning "oliy" tabaqangizga mansub bo'lgan ikki oilani olib ko'raylik. Bulardan birida tarbiyalanayotgan bola

to‘q, ikkinchisi och, to‘yib ovqat yemaydi deylik. Birinchi bola normal o‘sadi, o‘qiydi, ikkinchi bolaning orzusi bir parcha nonligi o‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdi. Xo‘sh, ikkovining bilim darajasi baravar bo‘larmikin?

— Bular — dahshatli misollar-ku! Ana shunday misollarga asoslanib “aqlning tug‘ma yetishmasligi” haqida gapirish nazariyachi yoki faylasufning ojizligini ko‘rsatadigan yovvoyilikdan boshqa narsa emas.

— Siz meni ham noqobil... — deb gapira boshladi rangi quv oqarib ketgan Nensi.

— Men siz to‘g‘ringizda hech narsa deganim yo‘q. Ochlik nima ekanini siz tasavvur qilolmaysiz.

— Hammaga ovqat yetkazib bo‘lmaydi, — dedi Nensi o‘zining yaxshi ko‘rgan gapini asabiy takrorlab. — Siz mening dilimni og‘ritdingiz.

— Janoblar, viski ichishni xohlamaysizlarmi? — hovuz yonida mehmonxona xizmatchisi paydo bo‘ldi.

— Bir qultum viski bering! — dedi Nensi, hovuzdan chiqib. Ular, kiyinmay, lampochkalar nuriga ko‘milgan shezlonglarga borib yotishdi. Qayerdandir musiqa ovozi eshitildi. Bog‘ ichidan iliq shabada esdi.

— Bugun hech qaysimiz g‘alaba qilmadik, deb hisoblaymiz, — dedi Nensi yarash ohangida.

— Va hech qaysimiz yengilmadik ham deymiz, — dedi Jo‘mart; Nensi bilan gaplashish unga yoqardi.

— Lekin siz ayollar bilan muomala qilishni bilmas ekansiz, — dedi Nensi kulib. — Keling, ozgina ichamiz.

— Nimaning sharafiga ichamiz?

— Buni siz o‘ylab toping.

— Bo‘pti, birdamlik bayrami sharafiga ichamiz. Birinchi May bayramiga oz qoldi, — Jo‘mart xizmatkorning qo‘lidagi patnisdan ikkita qadah oldi.

— Birdamlik, birdamlik! Hamma yerda birdamlik deb qichqirishadi! Birdamlik deb ish tashlab, pul talab qilishgani qilishgan. Ishchilarga qancha ko‘p bersang ham oz deyishadi, — yana Nen-

sining jahli chiqdi. — Ularning maoshi kam emish, aslida dadamdan ham ko'p pul topishadi! — Nensi birdan gapirishdan to'xtab, Jo'martga tikilib qaradi.

"Farishta emas, o'ljasiga chang solay deb turgan qirg'iyning o'zi-ya", — o'yladi Jo'mart.

— Siz qayerdan kelgansiz? Kommunistmisiz? — so'radi Nensi, tashvishli ko'zini undan uzmay.

— Kommunist desangiz ham bo'ladi, — kuldi Jo'mart. — Ishchilar sizning dadangizdan ko'p pul oladi deng? Hozirgina millioner Kennedi ham dadamdan past devdingiz-ku. Dadangiz kim o'zi?

— Sizga aytuvdim-ku — Stoddart. Amerika po'lat quyuv sanoatining egasi. Lekin siz chindanam rossiyalik kommunistmisiz? — hayratlanib so'radi Nensi.

U Jo'martning ro'parasida oyoqlarini kerib turardi.

— Demak, siz milliarderning qizi ekansiz-da! — dedi Jo'mart hayrat bilan. Keyin shezlongda boshini orqaga tashlab qo'shimcha qildi: — Men Sovet Ittifoqidan kelganman. U yerda Qozog'iston degan mamlakat bor.

— Men bo'lsam indoneziyalik deb yuribman, — Nensi yana shezlongga cho'zildi. — Umrimda birinchi marta kommunistni, umuman, rossiyalik kishini ko'rishim. Sizlarda hamma narsa jamiyat ixtiyoridami? — Nensi yana avvalgi qiyofasiga — sodda, hamma narsaga hayron bo'laveradigan, xiyol tannoz qiz qiyofasiga kirdi.

— Ha, jamiyat ixtiyorida.

— Hatto restoranlar ham jamiyatnikimi?

— Ha, restoranlar ham.

— Restoranlar-a? — qayta so'radi Nensi.

— Restoranlar, — dedi, o'zini kulgidan tiyib Jo'mard.

— Bu yerga ham jamiyatning puliga kelgandirsiz?

— Topdingiz. Hozir komandirovkadaman. Lekin, ko'pincha, turist sifatida, o'z pulimga sayohat qilaman.

— Balki, bunday narsalarga rostdan ham mening aqlim yetmas, — g'udrandi Nensi ko'ylagini kiyar ekan.

Ertasi tushlik ovqatdan keyin Jo'mart Fotihpurga otlanganda, Nensi indamay kelib so'rashdi-da, mashinaga chiqib, uning yoniga o'tirdi.

Fotihpurga borishda ham, undan qaytishda ham ular hovuz bo'yidagi bahsni eslashmadi, faqat hozir Nensining ko'ziga qarab, Jo'mart uning kechagi suhbat haqida o'ylayotganini payqadi.

— Ertaga jo'nayman, — dedi Nensi xayolchan. — Yana samolyotlarga o'tiraman. Men Fotihpurni, hovuz bo'yida kecha gapirgan gaplarimizni esimdan chiqarmasam kerak.

— Bizning shahrimiz chiroyli, lekin juda ko'hna, — deb gapira boshladi haydovchi. — Hozir yangilanyapti. Bu yerda yangi davlat mehmonxonalari va benzin kolonkalari bor. Hozir biz qadimgi bog' yonidan o'tyapmiz. Katta bog'. Chiroyli. Yaqinda men u yerga dehlilik bir barahmanni olib bordim. Yaxshi odam. Gapirishni, hazilni yaxshi ko'radi. Uning ismi ham menikiday Varma ekan.

— Siz panjoblikmisiz? — so'radi Jo'mart.

— Ha, biz panjoblikmiz, — javob berdi haydovchi. — Xushfe'l barahman menga gapirib berdi: Xudo yosh paytida odamlarni yaratayotganda juda qiynalibdi. U pech qurib, oq loydan odamchalar yasabdi-yu, lekin ularni tiriltirish uchun olovda qancha vaqt ushlashni bilmapti. Birinchi odamchani pechga solibdi. Olovda yaxshi pishmagani uchun birinchi odam oppoq bo'lib qolibdi. Ikkinchi odamchani olovga qo'yibdi. Bu gal shoshmay uzoq kutibdi. Pechdan olib qarasa, bu odam qop-qorayib ketibdi. Yosh Xudo uni o'z vaqtida olmabdi, kuydirib yuboribdi. Uchinchi odamni pechdan ayni vaqtida olibdi, shuning uchun u juda chiroyli chiqibdi. Terisi tilla rang, ko'zlari xushchaqchaq. Barahman — bizlar, hindular, forslar va seylonliklar mana shu uchinchi odamdan tarqalganmiz, dedi.

— Demak, hammamiz bir pechning ichidan chiqqan ekanmiz-da, — qahqaha urdi Nensi.

— Biz Mahatma Gandi ko'chasidan ketyapmiz. Oldinda, burchak orqasida machit bor, — gapini davom ettirdi haydovchi. — Lekin unga shu'la yaxshi tushmaydi...

— Barahmanning gapi to‘g‘ri-noto‘g‘ri ekanini bilmayman-u, lekin Xudolaring juda ko‘p ekan. Budda, Shiva, Sarasvati ma’budasi, maymunlar Xudosi, savdogarlar Xudosi, sigirlar Xudosi... — dedi Nensi va Jo‘martdan so‘radi: — Bitta Xudo bo‘lgani yaxshi emasmi? Menga go‘zallik va bilim ma’budasi Sarasvati yoqdi. Sizga-chi?

— Qaranglar, atrofdagi uylar hammasi eski, — haydovchi ularning gapini bo‘ldi. — Agra Dehliday katta emas, Chandigarxday yangi emas, juda ko‘hna shahar.

Mashina mehmonxona hovlisiga kirib to‘xtadi. Xiyobon bo‘ylarida, ayvondagi qadimgi hind uslubida bezalgan katta-katta mis qozonlarda gullar ochilib yotardi. Shundoq yonginada ko‘m-ko‘k maysazor, undan narida bog‘ va hovuz chalinadi ko‘zga. Ayvonga stollar qo‘yilgan, stollarning tepasida qog‘oz fonarlar. Mahalliy zodagonlar, amaldorlar, hind savdogarlar, turistlar kofe, gazli suv qo‘shilgan viski, rom, jin, pivo va koka-kola ichib o‘tirishardi. Daraxtlar tagida har xil mashinalar qator turibdi. Ayvonda o‘tirgan odamlar turli tillarda gapirishar, hind musiqasi bilan Yevropa musiqasi navbatma-navbat yangrar edi. Rojalar kiyimidagi bir necha kishi u stoldan bu stol yoniga o‘tardi. Lekin ularning belida oltin belbog‘ emas, mis nishonali eski kamar, boshlarida oltin va kumush bilan tikilgan oppoq kashmiri salla emas, kraxmallangan oddiy doka. Qisqasi, bular restoran mijozlari va mehmonxonada turuvchi odamlar beradigan sadaqalar bilan kun kechiradigan yalangoyoq “rojalar” edi.

Ularni bu yerga olib kelishdan maqsad nima?

Ekzotika uchunmi? O‘tmishni qoralash uchunmi? Lekin roja va shayxlar hozir ham o‘z boylik va hokimiyatini yo‘qotmagan-ku. Faqat Nerugina ularning hovrini qisman pasaytirib qo‘ydi, qo‘-shinlarni tortib olib, qorovullarnigina qoldirdi, yerlarini kamaytirdi, — o‘ylardi Jo‘mart xiyobonda u yoqdan bu yoqqa yurar ekan. — U Bxilay va Bxakra — Nangalni qurdi. Shiddatli Korbyuze keksa Neruga qoyil qolib, unga yordam berishga oshiqdi: “Hindiston uchun Chandigarx shahrini bunyod etdi”.

Varma bilan xayrlashib, kechki taomga yaqin Nensidan ajralgach, ertagi kun rejasini tuzish uchun Jo‘mart bog‘ga chiqdi.

U hali mo'g'ul podsholarining bu yerdagi qal'asini ko'rgani yo'q. Keyingi kunlarda u Buyuk boburiylar tarixiga juda qiziqib qolgan edi. U o'tmish bilan hozirgi davr orasidagi munosabatni, yo'qolib ketgan o'z qadimiy madaniyatining izlarini, o'sha madaniyatning bu yerdagi qoldiqlarini bilishga, bu yerda bo'lib o'tgan narsalar bilan keyin paydo bo'lgan narsalarni taqqoslashga, idrok etishga intilardi.

Bog'da chuqur sukunat hukm surardi. Maysazorga daraxtlarning ola-chalpoq soyasi tushib turardi. Tojmahal devorlari yonida Jamna shovullagani kabi, qayerdadir suv shovullardi.

Mehmonxona xizmatkori kelib, Dehlidan kelgan xatni berib ketdi. "Navbatdagi ma'ruzani qachon, qayerdan o'qishim kerakligi to'g'risida yozilgan bo'lsa kerak", — o'yladi Jo'mart va xatni cho'ntagiga solib qo'ydi.

Jo'mart bahaybat chinor tagida ola-chalpoq ko'lankalarning maysazorda silkinishini tomosha qilib turardi. Iliqqina epkin uning yuzini silab o'tdi va u Fotihpurning g'adir-budir devorlari nafasini yana qayta sezganday bo'ldi. Fotihpurdan qaytishda mashina g'ildiraklarining g'uvillashi, motor ovozi, qo'ylarning ma'rashi, haydovchining hikoyalari va musiqa unga nuqul Sikrining kulgisini eslatgan edi. Jo'martning nazarida Sikrining ruhi goh Fotihpur devorlari tagida paydo bo'lgan arvohsimon cholda, goh yo'l bo'yida tosh kabi qimir etmay o'tirgan sadxuda, goh quduq yonidagi murdani eslatuvchi cholda jonlanayotganday bo'ldi.

Darvoqe, fotihpurlik bolaning gapi to'g'ri emasmikan? Sikri rostdan ham tirik bo'lsa-chi? Boyaqish qayerdadir tun qorong'isida sudralib yurgandir, yo bo'lmasa eski, tashlandiq yo'llarning biron ayrilishida bukchayib o'tirgandir. Ehtimol, uning qalbidan avvalgiday ta'na, ayblov qahqahasi otilib chiqayotgandir. U kular ekan, yaxshilik tantanasiga ishonardi, ertalab quyoshni qarshi olganda ham, kechqurun quyoshni botishga kuzatganda ham u kuldi. U kulgidan toliqqan bo'lsa ham o'lmaydi. Yer yuzida zulm bor ekan, u yashaydi.

Sikri Akbardan, bobokalonlardan kulgan edi. Endi u keyingi avlodlardan, Jo'martdan, uning tarixni tushunishga uringanidan

kulib yuribdi. U har qadamda uchraydigan zulmdan, shuhratparastlikdan kuladi.

Nensi o'zinnng "oliy tabaqa"ga mansubligini jon-jahdi bilan himoya qiladi; haydovchi Varma o'z millati, o'z xalqining boshqa millatlardan ustun ekanligi haqida rivoyat borligidan mamnun. O'rta Osiyoning qadimgi madaniyati haqida ma'ruza o'qigan Jo'mart (bu ma'ruza til haqida bahslashuv bilan tugagani hozirgiday uning esida) o'zining bobokalonlarini, ya'ni o'rta osiyoliklarni falsafa va tibbiyot fanlarining kashfiyotchilari sifatida ko'rsatishga urinmadimi? Nahotki barcha odamlar birdan shuhratparast bo'lsa? Jo'mart skameykaga o'tirdi-da, O'trordan topilgan tangani g'ayri shuuriy ravishda qalamtarosh bilan qirtishlab tozalay boshladi. So'ng uni kesdi. Zang orqasidan yarqirab kumush ko'rindi. "Juda ko'hna ekan, balki bundan boshqasi topilmas", Jo'mart sevindi. Bu tanga O'trordagi kumush krizisidan oldin X va XI asrda quyilgan bo'lsa kerak. Krizis davrida tanga boshqa davlatdan, boshqa mamlakatdan O'trorga olib kelingan bo'lishi ham mumkin. Har holda, tanga juda eski edi, ehtimol, yozuvi yoki biron belgisi bordir.

Jo'mart uni qalamtarosh bilan ohista qirtishlay boshladi. A-ha, surati bor ekan. Biron podshoning barelefimikin? Yo'q, Jo'mart yanglishibdi. Yo surat zang bilan birga qirilib ketdimikin? Ehtimol, bu surat Jo'mart orzu qilib yurgan ulug' kashfiyotning sirini saqlab yotgandir-u, Jo'mart, nodon odam kabi, uni qirtishlab oddiy kumush parchasiga aylantirib qo'ygandir.

Jo'mart o'rnidan turdi-da, uni fonar yorug'iga tutib qaray boshladi. Kimningdir nafas olishini eshitib, u cho'chib tushdi. Yonida bir chol turardi. Soqoli bo'z rang, sochlari chigal, bo'yi novcha va qomati adl, ko'zlari o'tkir. Xuddi sehrlanganday, u tangaga tikilib turardi. Ha, Jo'martning nazarida Sikri mana shunday edi.

Tushmi bu yo o'ng?

Jo'martning peshanasidan sovuq ter chiqdi. U qo'lidagi tangani cholning yuziga yaqinlashtirgan edi, chol tangani oldi-yu, ko'zdan g'oyib bo'ldi.

O'trordan topilgan tanga qo'ldan ketdi.

Jo'mart xiyobondan chiqdi-da, maydon markazidagi yorug' tushib turgan kresloga borib holsizgina o'tirdi. U hali ham bog'-dagi uchrashuv ta'sirida o'yga tolib cho'ntagidan ro'molchasini olgan edi, konvert yerga tushdi.

"Dehliga bu xatlar siz sayohatga jo'natganingizdan keyin keldi. Shu zahoti ularni orqangizdan jo'natdik", deb yozilgan edi ikkita xat bilan birgalikda konvertga solingan qog'ozda. Xatlarning biri Gulsaradan, ikkinchisi esa institutdan kelgan edi.

Gulsara uni kutib olish uchun Moskvaga bormoqchi ekanini yozgan edi.

"Siz O'trordan topib kelgan sumak juda katta shov-shuvga sabab bo'ldi. U bundan ikki ming yil oldin yasalgan ekan. Nodir topildiq! — deyilgan edi institutdan kelgan xatda. — *Hozirgi eng mohir shishasozlar Nigeriyaning Bida degan shahrida yashar ekan. Ular o'zlarini "massaga qabilasi"* deyishar ekan. Ularning bobokalonlari Sharqdan, afsonaviy Yaksart degan joydan kelgani haqida ma'lumotlar bor. Mo'ysafid akademigimizning fikricha, "massagalar" bundan bir yarim ming yil oldin Yaksart (Sirdaryo) bo'ylarida yashagan massaget qabilalarining ajdodlari bo'lishi kerak", — deb yozardi institutda birga ishlaydigan o'rtoqlaridan biri. U xatni oxirigacha o'qimadi, buklab cho'ntagiga solib qo'ydi. Peshanasidagi terni artib, ayvon tomondan kelayotgan g'ovur-g'uvurga quloq soldi. Ayvonda odamlar ko'payib qolibdi. Aftidan, mijozlar restoran zallarini tashlab, toza havoga chiqishgan edi.

Bir guruh hind yigitlar G'arbiy Germaniyadan kelgan injenerlarni bangalor pivosi va jin bilan mehmon qilardi. Jo'mart ularni ertalab ko'rgan edi. Yosh nemislarning charchaganligi bilinib turardi. Ular qurilishlardan birida ishlashayotgan bo'lsa kerak. Ehtimol, ular tikuvchilik fabrikasi yo harbiy zavod qurilishiga yordam berishayotgandir. O'tmish tarixi haqidagi gaplar bilan hozir ularning ishi ham bo'lmasa kerak.

Jo'mart to'satdan barcha bahs va qidiruvlari, qazishma va O'rta Osiyo, uning madaniyati haqidagi ma'ruzalaridan nima foyda bor, degan xayolga bordi. Bugun u issiqdan, ko'p o'ylayverishdan charchagan edi.

"Tarix deb atalmish eski amforaning siniqlarini nima uchun bir tartibga solish payiga tushib qoldim? Baribir uni men avvalgi holiga keltirolmayman-ku, — o'yladi u. Tarix mening qo'limdan Sikri qiyofasidagi devona chol olib ketgan. O'tror tangasiga o'xshash narsa — kimning qo'liga tushsa shunga xizmat qiladi.

Agar biron olim yoki hukmdor tarix faktlarini o'z taxmini, istilosi yoki shuhratiga moslashtirib, faqat o'z xalqi, o'z madaniyatining ulug'ligi haqida jar solsa, darhol boshqa olim yoki hukmdorda o'z xalqining ulug'ligi haqida gapirish istagi tug'iladi. Tortishuvlar boshlanadi. Nazariyalar yuziga keladi. Har kim faktlarni o'z da'volariga, o'z shuhratiga moslashtirishga urinadi. Ba'zi odamlarning shuhratparastligi ko'p odamlarni kuchli yo aksincha kuchsiz qiladi. Bu kuch hech qachon hokimiyatparast Akbar yoki telba jallod Humoyunga o'xshash kishining qo'liga tushib, ko'ngilchan sayoq Sikriga o'xshaganlarning qahqahasini qo'zg'atmasin. Bu dunyoning ishi bir qarasang — oson, bir qarasang — murakkab: tushunib bo'lmaydi. Qayerdadir, Oksa yoki Ganga bo'ylaridami, Pomir tog'larida yoki Himolaydami ikki qabila yashagan ekan. Bir kun ular: "Kim kuchli? Kim yaxshi?" — deb bahslashib qoladi. O'z da'volarini jang maydonida hal qilishga qaror berishadi. G'oliblarni "ayray" deb atashadi, mag'lublar "turay" degan nomni olishadi. Asta-sekin "ayray" so'zi ariy, ya'ni Eron so'ziga, "turay" esa Turonga aylanadi. Turonliklar bilan eronliklar kim kuchli ekanini isbotlash uchun ming yillar davomida jang qilishadi, bahslashadi.

Qachonlardir Sharqda odamlar o'zaro uchrashganda, qo'lini oldinga cho'zib, panjasini yozib, bir-biriga yaqinlashar ekan. "Qara, men sen bilan urishmoqchi emasman. Qo'limda qurol yo'q". Yigirmanchi asr fashistlari bu ishoraga tuzatish kiritishdi — "xayl!"

Qachonlardir qadimgi Xitoyda porox kerakmi-yo'qmi degan bahs ketadi. Keyin, endi bizning davrimizda yana bahs: atom bombasi kerakmi yo uni yo'qotish kerakmi?

Hozir butun Yer yuzini portlatib tashlash uchun porox ham, bomba ham yetadi.

Shaharga bomba tashlagan to'rtta amerikalik yigit "alohida" jasoratlari uchun medallar olishadi. Xirosima shahri yonib ketadi va keyin... qayta paydo bo'ladi. Shuhratparastlik va telbalik, zulm

va yaxshilik orasidagi chegara qayerda? Yer kurrasining ko'hna yo'llarida hamma narsa aralash-quralash bo'lib ketgan.

Jo'mart stol orqasida viskiga gazli suv aralashtirib o'tirardi. Uning yoniga Nensi keldi.

— Bu bizning oxirgi uchrashuvimiz, — dedi u. Nensi kiyimini almashtirib olgan edi. — Tunda uchib ketmoqchiman. Siz meni zeriktirmadingiz. Yo'llar ajoyib edi, maqbaralar ham, shaharlar ham... — u bir nafas o'ylab oldi. — Aytganday, bu yerga mening bir vatandoshim keldi. General, "Enola Gey"ning sobiq komandiri. Xirosima esingizdami? Mana shu kishining yigitlari unga bomba tashlagan. Uni ko'rgim yo'q. Shuning uchun tunda uchib ketmoqchiman.

"Ajabo, mo'jizani qara: Sikri ketgan edi, Humoyun paydo bo'libdi", — deb o'yladi Jo'mart Nensi bilan xayrlashar ekan.

MUNDARIJA

So‘zboshi o‘rnida *(Ahmadjon Meliboyev)* 3

Mahambet nayzasi. *Roman. Abdulazal Vahobov tarjimasi* 9
Birinchi qism.....10
Ikkinchi qism.....98
Uchinchi qism.....171
Xotima.....257

O‘tror tangasi. *Qissa. Iristoy Qo‘chqortoyev tarjimasi* 267





ANVAR OLIMJONOV

77-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Dildora Abduraimova*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Dildora Abduraimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva,*
Islom Azamatov

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog‘ozi. “PT Astra Serif” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 20,5. Nashriyot-hisob tabog‘i 19,32.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 143-1/22 Buyurtma raqami № 22-360

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
“O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“O‘zbekiston” NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.

A 63 Anvar Olimjonov [Matn]: nasr/to'plovchi va nashrga tayyorlovchilar: Alimurod Tojiyev, Tursinali Ahmedov. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 328 b.
ISBN 978-9943-8734-4-5

UO'K 821.512.122-3
KBK 84(5Qoz)



TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

ANVAR OLIMJONOV